



Muhammadimin ABDULLAYEV,
Andijon davlat universiteti dotsenti, PhD
Zarnigor YO'LDASHEVA,
Magistrant, Turon universiteti Andijon filiali magistranti
E-mail: muhammadaminNI@gmail.com

Qori Niyoziy TPMI professori, p.f.d X.Tojiboyeva taqrizi asosida

O'QUVCHILAR MA'NAVYI-AXLOQIY TARBIIYASIDA XALQ OG'ZAKI IJODINING AHAMIYATI

Аннотация

Ushbu maqolada o'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida xalq og'zaki ijodining ahamiyati haqida so'z yuritilib, xalq og'zaki ijodi, ma'naviy-axloqiy tarbiya tushunchalariga, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning vazifalariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy-axloqiy tarbiya, globallashuv, xalq og'zaki ijodi, ertak, afsona, maqol, matal, latifa, laparlar, dostonlar, tez aytishlar, alla, topishmoqlar, naqlar, hikmatlar.

ЗНАЧЕНИЕ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА В ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается значение народного устного творчества в духовно-нравственном воспитании учащихся. Освещаются понятия народного устного творчества, духовно-нравственного воспитания, а также раскрываются основные задачи духовно-нравственного воспитания.

Ключевые слова: Духовно-нравственное воспитание, глобализация, народное устное творчество, сказка, легенда, пословица, поговорка, шутка, песни, эпосы, скороговорки, колыбельные.

THE IMPORTANCE OF FOLK ORAL CREATIVITY IN THE MORAL AND SPIRITUAL EDUCATION OF STUDENTS

Annotation

This article discusses the significance of folk oral creativity in the spiritual and moral education of students. It examines the concepts of folk oral creativity and spiritual-moral education, as well as highlights the main objectives of spiritual and moral upbringing.

Key words: Spiritual and moral education, globalization, folk oral creativity, fairy tale, legend, proverb, saying, anecdote, folk song, epic, tongue twister, lullaby, riddle, parable, wise saying.

Kirish. Bugungi kunda xalqimizning boy madaniy me'rosi hisoblangan, xalq og'zaki ijodini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilishi va bu jarayonda nimalarga ahamiyat qaratilishi kerakligi, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil eta olish muxim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda globallashuv jarayoni xar bir xalqning kelajak avlodi ta'lim va tarbiya jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmog'da. Shu sababli ta'lim-tarbiya masalasiga jiddiy yondoshib, kelajak avlod tarbiyasi bosh vazifamiz ekanligini unutmasligimiz kerak. Bu borada Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "... dunyo maydonida va o'z azm-u qarorida qoyim turmoq, maqsadga erishmoq uchun mutassil oldinga intilish, hayot va tafakkur tarzini isloh qilish, yangilanish tomon sobitqadamlik bilan borish lozim." [1]Shunday ekan, bizning bosh maqsadimiz bo'lgan to'g'ri tarbiya va sifatli ta'lim berishda, xalqimizning donoligi, yashash tarzi davomida ortirilgan va sayqallanib, tajribalari asosida sinalgan irod namunalari bilan bu jarayonni boyitishimiz va tarbiyaviyligini yanada oshirishimiz kerak. Bunda boy va mukammal bo'lgan o'zbek xalq og'zaki ijodimizga yuzlanishimiz kerak. Ma'naviy-axloqiy tarbiya – bu shaxsni komil inson sifatida shakllantirishning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Xalq og'zaki ijodi – xalq ommasining badiiy faoliyati[2] maxsulidir.

Xalq og'zaki ijodi, xalqimizning boy madaniy me'rosining namunalariidan hisoblanib, xalqimizning turmush

tarzi, milliy va rang-barang urf-odatlar, sabr va matonat bilan amalga oshiradigan mehnat faoliyati, xalqimizning sodda qalbidagi orzu-umidlari, g'am-tashvishlari, armonlari, quvonchlarini ifodalab, har bir davrga hamnafas bo'lib, rivojlanib boradi. Xalqimizning irod maxsulini hisoblangan, zamonlar osha og'izdan-og'izga o'tib kelgan badiiy asarlar xalq og'zaki ijodi yoki folklor (inglizcha "folk" – xalq, "lore" – donolik, yani xalq donoligi, donishmandligi) deb yuritiladi. Xalq og'zaki ijodining, ertak, afsona, maqol, matal, latifa, laparlar, dostonlar, tez aytishlar, alla, topishmoqlar, naqlar, hikmatlar shu kabi janrlari keng ommalashgan. Bu janrlarda o'quvchilarni manaviy-axloqiy tarbiyalash yo'llari, tarbiya usullari, mehr, muhabbat, saxiylik, olijanoblik, qadr, vafo, sadoqat, yaxshilik, oqibatlilik, mehnatsevarlik, kasb-hunarga muhabbat, halollik, adolat, insof, andishalik, insonparvarlik kabi xislatlar ulug'lanadi, qadrlanadi, ammo insonni bulg'ovchi, bevafolik, baxillik, xasislik, qo'rqqoqlik, nomussizlik, manmanlik, kaltabinlik, yolg'onchilik, ochko'zlik, o'g'rilik va boshqa salbiy illatlar qoralanadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari odob axloq, ta'lim-tarbiya borasida o'ta xayotiy, xalqchil va ibratliligini, shu bois uning umumbashariy ahamiyatga moyil ekanligini ta'kidlash lozim. Xalq og'zaki ijodini o'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasi jarayonida qo'llanilishining afzalliklari quyidagicha;

- Chuqur ma'noga egaligi. Asarning kuchli mazmunga va mantiq jixatdan mukammalligi o'quvchiga kuchli ta'sir etib, uni chuqur o'ylantirish bilan bir qatorda, ijobiy sifatlar shakllanishiga turkiv vazifasini o'taydi. Ertaklar, dostonlar va hikoyalar shular jumlasidan.

- Ixchamlilik. Xalq og'zaki ijodining asrlar davomida avlodlardan avlodga o'tib kelishining asosiy sabablaridan biri hisoblanib, u xalq tomonidan oson o'zlashtiriladi va yod olinadi. Bu maqollar, matallar, topishmoqlar, tez aytishlar va shu kabi janrlarda o'z ifodasini topadi.


- Soddaliligi. Asar tarkibida o'ta badiiy, bo'yoqdor va o'zlashma so'zlarning ishtiroki yo'qligi, xalq og'zaki ijodining juda ko'p yo'nalishlarda foydalanishga sabab bo'ladi.

- Ohangdorligi. Asardagi so'zlarning ma'no jihatdan ohangdorligi va mazmunan so'zlarning mutanosibligi, xalq tomonidan oson yodda saqlanilishiga va avlodlardan avlodga yetkazilishiga xizmat qiladi. Bag'ishlovlar, madxiyalar, masal va matallar shular jumlasidandir.

- Ko'p variantlilik. Zamonlar, mavsum va xududlardagi sharoitlar natijasida, xalq og'zaki ijodida asosiy mazmun o'zgartirilmagan xolda xilma-xillik yuzaga keladi. Ertaklarda, dostonlarda bular o'z aksini topgan. Birgina turkiy xalqlar ijodining yorqin namunasi bo'lgan "Alpomish" dostonining xam o'ndan ortiq variantlari mavjud. Qisqa qilib aytganda xalq og'zaki ijodini ta'lim-tarbiya jarayoniga qorishuvi xar tomonlama ijobiy natijasini ko'satadi. Buni albatta to'g'ri yondashuv, aniq usul va yo'nalishlar bilan amalga oshirish kerak.

Xalq ijodining har bir janri – ertaklar, maqollar, matallar, dostonlar, afsonalar, qo'shiqlar va topishmoqlar – o'zida chuqur tarbiyaviy mazmunni mujassam etadi. Ularda ezgulik va yovuzlik, halollik va nopoklik, mehnat va dangasalik, jasorat va qo'rquqlik kabi tushunchalar obrazlar orqali ifodalanganadi. O'quvchi bunday asarlar yordamida hayotiy voqealarni badiiy idrok qiladi, ijobiy qahramonlarga taqlid qilishga intiladi va o'z xulq-atvorini baholay oladi.

Ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishdagi roli. 1-rasm.



Dars jarayonida xalq og'zaki ijodidan foydalanishning afzalliklari

O'quvchilar tafakkurini boyitadi. Topishmoqlar mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi, ertaklar tasavvurini kengaytiradi, maqollar fikrni lo'nda ifodalashga o'rgatadi.

Til boyligini oshiradi. Xalq ijodi o'zbek tilining go'zalligi, ifoda uslublari, badiiy vositalarini o'zida aks ettirgani uchun lug'at boyligining oshishiga xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlariga hurmatni kuchaytiradi. O'quvchilar o'z xalqining ma'naviy ildizlari bilan tanishadi, an'analarga e'tiborli bo'lishni o'rganadi.

Hayotiy tajriba baxsh etadi. Xalq asarlarining mazmuni hayotiy voqealar bilan uyg'un bo'lgani uchun o'quvchilar ekologiya, mehnat, oilaviy munosabatlar, do'stlik va halollik haqida muhim saboqlar oladi.

O'quvchilar shaxsini shakllantirishdagi metodik yondashuvlar

Xalq og'zaki ijodidan samarali foydalanish uchun o'qituvchi quyidagi metodik usullardan foydalansa, ma'naviy-axloqiy tarbiya yanada samarali bo'ladi:

Muammoli savollar orqali tahlil. Masalan, "Nega qahramonning xatti-harakati to'g'ri?", "U boshqacha qaror qilsa nima bo'lardi?" kabi savollar o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Rolga kirib o'qish. Ertak va rivoyatlarni rollarga bo'lib ijro etish o'quvchilarning emotsional idrokini kuchaytiradi.

Hayot bilan bog'lash. Asardagi axloqiy g'oyalarni zamonaviy hayotdagi holatlar bilan solishtirish ularda real hayotiy xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantiradi.

Maqol bilan yakunlash. Dars oxirida mavzuga mos maqollarni tanlash orqali asosiy g'oya mustahkamlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xalq og'zaki ijodi — bu xalqning ko'p asrlik hayot tajribasi, dunyoqarashi va axloqiy ideallarining ifodasidir. Uning asosiy janrlari: ertaklar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar, afsonalar, qo'shiqlar va latifalardir. Har bir janr o'z mazmuni bilan yosh avlodni ma'naviy barkamol inson bo'lishga yo'naltiradi.

Masalan, ertaklarda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash orqali o'quvchilarda axloqiy tanlovni anglash, adolat va mardlikka intilish hissi shakllanadi. "Zumrad va Qimmat", "Boy ila g'arib", "Oltin baliq" kabi ertaklar bolalarda halollik, saxovat, sabr-toqat kabi fazilatlarini uyg'otadi.

Maqollar esa xalq donoligining eng ixcham ifodasidir. "Yaxshilik qil, suvga sol, baliq bilmasa, Xoliq bilar" yoki "Yaxshiga yondosh, yomondan qoch" kabi maqollar orqali o'quvchilarga ezgulik va yomonlikning mohiyati, to'g'rilik va adolatning qadri anglatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi quyidagi tarbiyaviy funksiyalarni bajaradi:

Didaktik (o'rgatuvchi) funksiya – xalq og'zaki ijodi hayotiy saboqlarni obrazlar orqali yetkazadi. Masalan, "Bo'ri bilan echki bolalari" ertagi ehtiyotkorlik va aqlni qadrlashga o'rgatadi.

Estetik funksiya – o'quvchilarda go'zallikka, so'z boyligiga, adabiy didga hurmat uyg'otadi.

Aks ettiruvchi funksiya – xalq ijodi orqali tarixiy voqealar, ijtimoiy munosabatlar va xalq hayoti aks ettiriladi.

Axloqiy funksiya – o'quvchilarga halollik, odoblilik, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini singdiradi.

O'quvchilarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish, dolzarb muammo sanalib kelingan. Jamiyatning taraqqiyoti insonlarning ongiga, aql-zakovati, axloq-odobiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Yaxshi tarbiya ko'rgan o'quvchi eng avvalo el-yurtning, xalqning manfaatini o'ylaydi. Chunki har bir shaxsning baxt-saodati alohida, o'z holicha amalga oshmaydi. Atrofdagilar baxtli va farovon turmush kechirganlarida huzur-halovat hammaga tatiydi. Bu qoida qadim zamonlardan mavjud bo'lib, unga turli davrlarda turlicha amal qilib kelingan. O'quvchilarni ta'lim-tarbiya olishlariga mas'ul bo'lgan barcha o'rinlarda xalq pedagogikasi namunasi xisoblangan xalq og'zaki ijodidan foydalanish hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'tarilgan. O'rta umumiy ta'lim maktablarining o'quvchilarning bilim egallashga bo'lgan qiziqishlari, havasi asosida aqliy qobiliyatlari shakllantiriladi. Aqliy kamolotga uyg'un tarzda o'quvchilarning ma'naviy dunyosi boyitiladi. Axloqiy fazilatlar takomillashtiriladi. O'quvchilarda mehnatsevarlik, yuksak did, fahm-farosat, nafis his-tuyg'ular rivojlanib boradi.

Tahlil va natijalar. Pedagogik nuqtai nazardan, xalq og'zaki ijodi yosh avlodning axloqiy ongini shakllantirishda ta'sirchan psixologik vosita hisoblanadi. Psixolog A.V.Petrovskining tadqiqotlariga ko'ra, bolalar ramziy (obrazli) shakllarda berilgan ma'lumotlarni mantiqiy ta'limga qaraganda tezroq va chuqurroq o'zlashtiradilar. Shu bois xalq ertaklari va maqollar orqali berilgan axloqiy g'oyalar o'quvchi ongida mustahkamroq o'rinsadi [3].

Shuningdek, o'zbek pedagog olimasi Q. Yo'ldosheva o'zining “Ma'naviy tarbiya psixologiyasi” [4] asarida xalq ijodiy merosining ta'limdagi o'rnini tahlil qilib, quyidagicha xulosa qiladi:

“Xalq og'zaki ijodi – bu xalqning ma'naviy genofondi. Agar o'quvchi o'z xalqining ertaklari, maqollari va qo'shiqlari orqali tarbiyalansa, unda milliy g'urur, or-nomus va mas'uliyat hissi erta shakllanadi.”

Xalq ijodida insonparvarlik, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat, adolat, jasorat kabi umuminsoniy qadriyatlar chuqur ifodalangan. Bu qadriyatlar o'quvchilarda ijtimoiy moslashuv, to'g'ri axloqiy qarorlar qabul qilish va mas'uliyatli fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi.

Masalan, “Alpomish” dostoni nafaqat mardlik, balki sadoqat, vatanparvarlik, oilaga sadoqat kabi fazilatlarini tarannum etadi. Bu asar orqali o'quvchilar o'z xalqining tarixiy ideal qahramon obrazini bilib, uni hayotiy mezon sifatida qabul qiladilar.

Xulosa va takliflar. Xalq og'zaki ijodi — bu xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va orzu-intilishlarining betakror ifodasidir. U nafaqat badiiy-estetik meros, balki millatning ma'naviy genofondini saqlovchi va yangi avlodga yetkazuvchi muhim tarbiyaviy manbadir. Shu bois, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida xalq og'zaki ijodi o'rnini hech qanday zamonaviy texnologiya yoki tashqi ta'sir vositasi to'liq almashtira olmaydi. Xalq og'zaki ijodi vositasida bolalar hayotiy qadriyatlarini – ezigulik va yovuzlikni ajrata bilish, adolatni qadrlash, mehnatsevarlikka ishonch, Vatanga va oilaga muhabbat kabi fazilatlarini o'zlashtiradilar. Bu jarayonda xalq ertaklari, maqollar, topishmoqlar, dostonlar va rivoyatlar o'quvchi shaxsida chuqur ichki o'zgarishlarni, axloqiy ong va his-tuyg'ularning uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning ma'naviy olamiga turli g'oyalar, begona axloqiy qarashlar kirib kelayotgan bir paytda, xalq og'zaki ijodini ta'lim jarayoniga faol kiritish yosh avlodni milliy o'zlikni anglash, an'anaviy qadriyatlarini asrash, axloqiy immunitetni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan xalq ijodiy merosi o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat, milliy g'urur va vatanparvarlik ruhini shakllantirishning eng tabiiy va samarali yo'llaridan biridir. Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, xalq og'zaki ijodi o'qituvchining tarbiyaviy ishlarida eng qulay, hayotiy, psixologik ta'sir kuchiga ega vositadir. Chunki u o'quvchilarning yoshiga, ruhiy holatiga va qiziqishlariga mos obrazlar orqali ularni yaxshi xulqqa, to'g'rilikka, sabr-toqat va saxovatga o'rgatadi. Shu sababdan zamonaviy ta'lim tizimida xalq og'zaki ijodi nafaqat o'zbek tili yoki adabiyot darslarida, balki barcha fanlarda integrativ yondashuv asosida qo'llanishi lozim. Masalan, tabiiy fanlarda maqollar orqali mehnatsevarlikni, tarix darslarida dostonlar orqali vatanparvarlikni, ona tili darslarida esa ertaklar asosida nutq madaniyatini shakllantirish mumkin.

Xalq ijodi o'quvchilarni milliy o'zlikni his etishga, o'z ajdodlari ijodiga faxr bilan qarashga, eng muhimi — ezigulikni hayot mezoni sifatida qabul qilishga o'rgatadi. Bunday yo'l bilan tarbiyalangan shaxs ma'naviy jihatdan barkamol, irodali va mustahkam hayot pozitsiyasiga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. SH.M.Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.” To'ldirilgan ikkinchi nashr.-Toshkent; “O'zbekiston” nashriyoti, 2022 B-24
2. M.E. Abdullayev. Xalq pedagogikasi. darslik. “Omadbek print number one” Andijon: 2024. – 194 b.
3. Petrovsky A. V. Psixologiya razvitiya lichnosti. – Moskva: Pedagogika, 1987.
4. Yo'ldosheva Q. Ma'naviy tarbiya psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2017.



UDK: 371.911.(575.1)

Xilola ABDULLAYEVA,
Mustaqil izlanuvchi
E-mail: a_khilola@bk.ru

O'DJTU professori, p.f.d N.Isakulova taqrizi asosida

THE IMPACT OF FOLK GAMES ON THE DEVELOPMENT OF SOCIAL COMMUNICATION SKILLS IN BLIND AND VISUALLY IMPAIRED CHILDREN

Annotation

This article explores the issue of developing social communication skills in blind and visually impaired children of primary school age. Practical recommendations have been developed to improve the psycho-emotional state of blind children, to foster cooperation and communication skills through the adaptation of intangible cultural heritage elements – folk games. The study emphasizes how adapted games accelerate social integration and contribute to the development of emotional intelligence in children.

Key words: Blind children, visually impaired children, social communication, adaptation, intangible cultural heritage, folk games, social integration.

ВЛИЯНИЕ НАРОДНЫХ ИГР НА РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У СЛЕПЫХ И СЛАБОВИДЯЩИХ ДЕТЕЙ

Аннотация

В данной статье рассматривается проблема развития коммуникативных навыков у слепых и слабовидящих детей младшего школьного возраста. Разработаны практические рекомендации по улучшению психо-эмоционального состояния слепых детей, формированию навыков сотрудничества и общения посредством адаптации элементов нематериального культурного наследия – народных игр. Исследование показывает, что адаптированные игры ускоряют процесс социальной интеграции и способствуют развитию эмоционального интеллекта у детей.

Ключевые слова: Слепые дети, слабовидящие дети, социальная коммуникация, адаптация, нематериальное культурное наследие, народные игры, социальная интеграция.

KO'ZI OJIZ VA ZAIF KO'RUVCHI BOLALARDA IJTIMOYIY KOMMUNIKATSIYA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ O'YINLARINING TA'SIRI

Аннотация

Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning ijtimoiy kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Ko'zi ojiz bolalarning psixo-emotsional holatini yaxshilash, hamkorlik va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda nomoddiy madaniy meros elementlaridan xalq o'yinlarini moslashtirish, o'yinlar orqali bolalarning ijtimoiy integratsiyasini tezlashtirish va emotsional intellektini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Ko'zi ojiz bolalar, zaif ko'ruvchi bolalar, ijtimoiy kommunikatsiya, adaptatsiya, nomoddiy madaniy meros, xalq o'yinlari, ijtimoiy integratsiya.

Kirish. Bugungi kunda jahon miqyosida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoyalash, jamiyatga integratsiya qilish va ularning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi, salomatligi, ijtimoiylashuvini ta'minlash yuzasidan olib borilayotgan ishlar davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Kichik maktab yoshidagi ko'zi ojiz bolalarda ijtimoiy kommunikatsiya ko'nikmalarining sustligi, muloqotdagi qiyinchiliklar, guruhda ishlashda noqulaylik, emotsional ifoda cheklanganligi kabi muammolar kuzatiladi. Ushbu muammolarni bartaraf etishda nomoddiy madaniy meros elementlaridan xalq o'yinlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar samarali pedagogik vosita sifatida qaralmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi – kichik maktab yoshidagi ko'zi ojiz bolalar bilan ishlash jarayonida O'zbekistonning nomoddiy madaniy meros elementlaridan: xalq o'yinlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini ochib berish hamda ularni ijtimoiy kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdir. Maqolada xalq o'yinlari orqali

bolalarda hamkorlik, muloqot, guruhda ishlash, emotsional ifoda va ijtimoiy integratsiya ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda ko'rishda nuqsoni bo'lgan va ko'zi ojiz bolalarda ijtimoiy kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular asosan imlo ko'nikmalarini shakllantirish muammolari va istiqbollarga qaratilgan. Lekin nomoddiy madaniy meros elementlari orqali ijtimoiy kommunikatsiyani rivojlantirish bo'yicha maxsus tadqiqotlar deyarli yo'q.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RB-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-apreldagi

PQ-209-son "Ko'zi o'jiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori asosida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning huquqlarini har tomonlama himoyalash va ularning ta'lim olishini sifatli ta'minlash eng muhim maqsadlardan deb belgilangan.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi xabariga ko'ra 2025-yil 1 noyabr holatiga respublika bo'yicha jami ko'zi o'jiz nogironligi bo'lgan shaxslar soni 25 558 nafarni tashkil qiladi. Ulardan 3 171 nafari o'quvchilar bo'lib, 17 ta maxsus maktablarda tahsil olmoqda. Afsuski, kichik maktab yoshidagi (6-12) ko'zi o'jiz bolalar soni bo'yicha aniq ma'lumotlar mavjud emas.

Tadqiqot metodologiyasi. Kichik maktab yoshi 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga olgan bo'lib, bu yoshda sog'lom bolalar ma'lumotni vizual, eshitish va taktil kanallar orqali qabul qiladi. Tengdoshlar bilan muloqotda mimika, imo-ishora va ko'z kontaktdan foydalanadi. Biroq ko'zi o'jiz bolalar vizual signallar (mimika, imo-ishora)ni qabul qila olmaydi – bu ularning suhbatda faol ishtirok etishini cheklaydi. Ko'pincha tengdoshlar bilan o'yinlarda chetda qoladi – Bu ularning ijtimoiy tajribasini kamaytiradi va o'ziga ishonchni pasaytiradi. Guruhli mashg'ulotlarda bolalar ovoqli yoki taktil signallarga muhtoj bo'lgani uchun hamkorlik jarayoni sekinlashadi. Vizual muloqot vositalaridan foydalana olmaslik sababli bolalar o'z his-tuyg'ularini to'liq ifoda eta olmaydi. Bu ularning emotsional intellektini rivojlantirishda muammolar tug'diradi. Biroq ularni qo'llab-quvvatlash orqali sezilarli ijobiy natijaga erishsa bo'ladi.

O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosi kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini ijtimoiylashtirish, ularning o'ziga xosligi, qadriyatleri va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, ko'zi o'jiz bolalar uchun xalq o'yinlari, qo'shiqlar, ertaklar va hunarmandchilik mashg'ulotlari ijtimoiy kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Xalq qo'shiqlari, ertaklar va o'yinlardagi ritm va ovoqli signallar ko'zi o'jiz bolalarning eshitish sezgisini kuchaytiradi, ijtimoiy muloqotda faolroq bo'lishga undaydi. Hunarmandchilik mashg'ulotlari (to'qish, yog'och o'ymakorligi, gilamchilik) bolalarning qo'l sezgisini rivojlantirib, ularni amaliy faoliyatga jalb etadi. Bu esa o'ziga ishonchni oshiradi. Xalq o'yinlari orqali bolalar guruhda harakat qilishni, navbat kutishni, hamkorlikni o'rganadi. Bu ijtimoiy integratsiyani tezlashtiradi. Qo'shiqlar va ertaklar bolalarning his-tuyg'ularini ifoda etishga yordam beradi, ularning emotsional intellektini rivojlantiradi. Eng muhimi milliy meros elementlari orqali bolalar jamiyat qadriyatlarini anglaydi, o'zini jamiyatning bir qismi sifatida his qiladi.

Tahlil va natijalar. Zaif ko'ruvchi va ko'zi o'jiz bolalarning ijtimoiylashuvi va har tomonlama rivojlanishi zamonaviy ta'lim tizimida eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Jahon tajribasida bu borada keng izlanishlar va tadqiqotlar olib borilib, ular maxsus ehtiyojli bolalarning intellektual, psixologik hamda ijtimoiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, Aleksandr Kornev o'z hamkorlari bilan ko'zi o'jiz bolalar uchun adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini qo'llashgan. Maqsad jismoniy mashqlar orqali psixo-emotsional holatni yaxshilash, ijtimoiylashuvni kuchaytirish va adaptatsiya jarayonini yengillashtirish bo'lgan. Bunda u oddiy sport emas, balki moslashtirilgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari qo'llagan. Shu orqali ko'zi o'jiz bolalar nafaqat sog'lomlashtirilgan, balki ijtimoiy jihatdan ham faol bo'lishga o'rgatilgan. Jumladan:

Harakatli o'yinlar – bolalarning birgalikda harakat qilishini, hamkorlikni va muloqotni rivojlantirish uchun.

Jamoaviy sport elementlari, masalan, to'p bilan mashqlar, navbat kutish va birgalikda topshiriq bajarish.

Koordinatsiya mashqlari – muvozanatni saqlash, yo'nalishni topish, fazoda harakatlanishni o'rgatish.

Oddiy gimnastika mashqlari – qo'l-oyoq harakatlari, cho'zilish, nafas mashqlari.

Adaptiv trenajyorlar va maxsus jihozlar – ovoqli signallar, taktil belgilar yordamida mashqlarni bajarishga erishishgan.

Muntazam va ketma-ketlikda bajarilgan mashqlardan so'ng ma'lum muddatda bolalarda hamkorlik va muloqot ko'nikmalari shakllangan, o'ziga ishonch va ijtimoiy faollik oshgan va jamiyatga integratsiya jarayoni tezlashgan.

Yana boshqa tadqiqot ham ahamiyatga molik bo'lib, u 2019-yilda Janubiy Ural Davlat Universiteti olimlari tomonidan ko'zi o'jiz bolalar uchun ishlab chiqilgan. "Funny Garden" interaktiv o'yin dasturi bolalarning ijtimoiy muloqotini, hamkorlik ko'nikmalarini va o'yin orqali ijtimoiy integratsiyasini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion loyiha hisoblangan. Maqsad ko'zi o'jiz bolalar uchun maxsus interaktiv o'yin yaratish orqali ularning ijtimoiy muloqotini va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish bo'lgan. Bu o'yinlardan birida bolalar ovoqli signallar, ritmik tovushlar orqali vizual tasvirlardan foydalanmasdan o'yin jarayonida yo'nalishni aniqlashlari lozim edi. Boshqa o'yinda esa qo'l sezgisi orqali narsalarni tanish, joylashuvni his qilish imkoniyati berilgandi. Hamkorlikka asoslangan topshiriqlarda bolalar birgalikda harakat qilib, navbat kutish, hamkorlikda muammolarni hal qilishni o'rganadilar. Katta yutuqlardan biri o'yin jarayonida bolalarda ijobiy kayfiyat, o'ziga ishonch va muloqotga ochiqlik shakllangan. Tadqiqotlar natijasida "Funny Garden" dasturi ko'zi o'jiz bolalarda ijtimoiy integratsiya jarayonini tezlashtirgan. O'yin orqali bolalar muloqot qilishni o'rganib, emotsiyalarini ifoda etgan va guruhda ishlash ko'nikmalari rivojlangan.

Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nomoddiy madaniy meros elementi bo'lmish xalq o'yinlari alohida ehtiyojli bor bolalar, xususan, ko'zi o'jiz va zaif ko'ruvchi bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonida samarali natijalar beradi. Bunda xalq o'yinlarini ko'zi o'jiz bolalarga moslashtirib, tashkillashtirish lozim bo'ladi. Ular milliy an'analardan uzilmaydi, balki nomoddiy madaniy merosni inklyuziv tarzda qayta qo'llashga xizmat qiladi. Ko'zi o'jiz bolalar uchun eng mos o'zbek xalq o'yinlari oddiy harakatli, ovoqli yoki taktil signallarga asoslangan, xavfsiz va jamoaviy o'yinlar bo'lishi lozim. Masalan: "Chillak", "Oq terakmi, ko'k terak", "Doira bo'lib qo'shiq aytish", "Topib ko'r" kabi o'yinlar shular jumlasidandir.

An'anaviy "Chillak"dan farqli ravishda moslashgan variantda oddiy to'p yoki ovoz chiqaradigan predmetdan foydalaniladi. Bolalar ovoz orqali yo'nalishni topadi va shu orqali koordinatsiya va fazoda harakatlanishni o'rganadi. "Oq terakmi, ko'k terak"da bolalar doira bo'lib turadi, qo'shiq aytib harakat qiladi. Ovoqli ritm va jamoaviy harakat ko'zi o'jiz bolalar uchun qulay. Shuning uchun bu o'yin ijtimoiy muloqot va hamkorlikni rivojlantiradi. Doira bo'lib qo'shiq aytishda bolalar qo'l ushlab doira bo'lib qo'shiq aytadi. Ovoqli ritm va jamoaviy ishtirok – ijtimoiy kommunikatsiyani kuchaytiradi va emotsional intellektini rivojlantiradi. "Topib ko'r" sensor o'yinida bir bola ko'zlari bog'langan holda (zaif ko'ruvchi bolalar uchun moslashtirilgan) ovoz yoki qo'l tegishi orqali do'stini topadi. Bu o'yin taktil va eshitish sezgilarini rivojlantiradi va o'zaro muloqot, ishonchni oshiradi.

Xulosa va takliflar. Kichik maktab yoshidagi ko'zi o'jiz va zaif ko'ruvchi bolalarda ijtimoiy kommunikatsiya ko'nikmalarining sustligi, muloqotdagi qiyinchiliklar va emotsional ifoda cheklanganligi ularning jamiyatga to'liq

integratsiyasiga to‘sqinlik qilishini inobatga olib, O‘zbekistonning nomoddiy madaniy merosi: xalq o‘yinlari, qo‘shiq, ertaklar bu muammolarni bartaraf etishda samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi, deb bimalol aytish mumkin. Xalq o‘yinlari bolalarda guruhda ishlash, hamkorlik, navbat kutish, emotsional ifoda va ijtimoiy integratsiya ko‘nikmalarini shakllantiradi. Jahon tajribasi (Aleksandr Kornevning adaptiv jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, “Funny Garden” interaktiv dasturi) shuni ko‘rsatadiki, maxsus moslashtirilgan o‘yin va mashqlar bolalarning psixo-emotsional rivojlanishi va ijtimoiy faolligini kuchaytiradi.

Demak, xalq o‘yinlarini adaptatsiya qilish orqali ko‘zi ojiz bolalarning ijtimoiylashuvi va jamiyatga integratsiyasi sezilarli darajada tezlashadi. Tashkillashtirish jarayonida, avvalambor, xavfsizlikni ta‘minlash uchun maxsus maydon va pedagogik nazorat tashkil etish talab etiladi. So‘ng xalq o‘yinlarini adaptatsiya qilish; maktab-internatlarda xalq o‘yinlari asosida maxsus mashg‘ulotlar dasturini ishlab chiqish; pedagog va tiflopedagoglar uchun metodik qo‘llanmalar tayyorlash; bolalarda psixo-emotsional holatdagi o‘zgarishlarni monitoring qilish va natijalarni ilmiy asoslash kerak bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabr “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabr “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabr “Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-aprel “Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta‘lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
5. Xusniddinova Z.X. Ko‘zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish mazmuni. Chirchiq: 2023. 64 b.
6. Абдуламинава А.К. Психические особенности развития слепых и слабовидящих детей. Scientific Progress, №2, 2021. 45–52.
7. Попкова И.А. Особенности обучения слабовидящих и слепых детей младшего школьного возраста. Москва: 2024. 73 b.
8. Корнев А.В. Коррекция двигательных действий детей с умеренной умственной отсталостью на физкультурных занятиях. Санкт-Петербург: 2008. 145 b.
9. South Ural State University. Funny Garden: Interactive game program for blind children. Chelyabinsk: 2019. 36 b.
10. https://t.me/ijtimoiyhimoya_agentligi/5955



UDK: 311:(901.3)

Xasan ABDURAXMONOV,
Toshkent farmatsevtika instituti dotsenti, PhD
E-mail: hasanabdurahmonov1991@mail.ru

TDTrU professori, f.f.d J.Ramatov taqrizi asosida

FORMS AND MODELS OF MANIFESTATION OF INNOVATIVE THINKING IN THE WORLDVIEW OF YOUTH

Annotation

This article discusses the forms and models of manifestation of innovative thinking in the worldview of young people, as well as important views and approaches to the need to revolutionize the minds of young people today and humanize their worldview.

Key words: New technology, youth, modern innovative thinking, youth worldview, innovative thinking, philosophical category, society, man, human life, concept, mythology, religion, philosophy, research.

ФОРМЫ И МОДЕЛИ ПРОЯВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ В МИРОВОЗЗРЕНИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются формы и модели проявления инновационного мышления в мировоззрении молодежи, а также важные взгляды и подходы к необходимости революционизировать сознание современной молодежи и гуманизировать ее мировоззрение.

Ключевые слова: Новые технологии, молодежь, современное инновационное мышление, мировоззрение молодежи, инновационное мышление, философская категория, общество, человек, человеческая жизнь, концепция, мифология, религия, философия, исследование.

YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TAFAKKURNING NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI VA MODELLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlar dunyoqarashida innovatsion tafakkurning namoyon bo‘lish shakllari va modellari hamda bugungi kunda yoshlarning ongida revolyusiya sodir etish, ularning dunyoqarashini insonparvarlashtirish zarurligi haqidagi muhim qarashlar, yondashuvlar haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi texnika, yoshlar, zamonaviy innovatsion tafakkur, yoshlar dunyoqarashi, innovatsion tafakkur, falsafiy-kategoriya, jamiyat, inson, inson hayoti, tushuncha, mifologiya, din, falsafa, tadqiqot.

Kirish. Zamonaviy ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida barcha turdagi va ko‘rinishdagi axborotlar ahamiyati o‘sishi novatsiya va innovatsiya faoliyat muammosini tadqiq qilish dolzarbligini asoslaydi. Bu tushunchalar ko‘pincha aynan o‘xshatiladi, biroq bizning nazarimizda bu noto‘g‘ri. Tadqiqotlar natijasida mazkur muammo doirasida kategorial apparat shakllanmagan. Adabiyotlarda innovatsiya haqida ko‘p gapiriladi, biroq u negadir, faqat iqtisodiy kategoriya sifatida ko‘rib chiqiladi, shuningdek masala asosi hisoblanadigan innovatsion tafakkur nima ekanligi diqqat e‘tibordan chetda qolib ketgan. Fan va texnika tobora rivojlanib borayotgan hozirgi zamonda mazkur masalani atroflicha va chuqurroq, ya‘ni falsafiy nuqtai nazardan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, tushunchalarning o‘zini aniqlash bunda etarlicha bo‘lmay, aksincha uni bir hodisa sifatida mavjud metodologiyaga asoslanib, novatsiya va innovatsiya o‘rtasida qiyosiy tahlillarni o‘tkazib tizimli tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi.

Innovatsiyalar inson faoliyatini belgilovchi asosiy mezoniga aylanib, faoliyat doirasida moddiy va ma‘naviy qadriyatlarga e‘tibor qaratishni talab etishi lozim. Innovatsiya ob‘ektiv jarayon bo‘lish bilan birga sub‘ektlarning aqliy mehnat faoliyatiga asoslanadi va ular tomonidan takomillashtirilib boriladi. Innovatsion tafakkur sohiblari novator, innovator, dastlabki foydalanuvchilar va boshqa jarayonga aloqador shaxslar hisoblanadi. Innovatsiyalar taraqqiyoti natijasida innovatsion muhit, ong, madaniyat,

maqсад va tanlovlarning yuzaga kelishi, ular asosida faoliyatning amalga oshishi va innovatsion guruhlar faoliyatining qo‘llab-quvvatlanishi tobora dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham “Madaniyat, — deb yozadi P.Kozlovskiy, — bugungi kunda innovatsiya va jamiyat rivojlanishining kaliti sifatida tavsifiya etiladi, u yangi texnikaning kiritilishi va jamiyat tomonidan “tan olinishi”ni engillashtiradi, xalqaro tajriba almashinuv va bir-birini tushunishga yordam beradi. Madaniyat barcha ijtimoiy indikatorlar va jamiyat taraqqiyotining o‘sish mezonlari oralig‘ida bo‘lishi lozim”. Innovatsion tizimda madaniyat fenomeni muhim rol ahamiyat kasb etadi va innovatsion rivojlanishni ta‘minlaydi.

Hozirgi jamiyatni harakatlantiruvchi sub‘ekti – yosh avlodidir. Hozirda innovatsion shaxsni tarbiyalash dolzarb omildir. “Innovatsion shaxs” tushunchasini amerikalik faylasuf Everett Xagen tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.

Hozirgi davrda taraqqiyot jarayonida innovatsion dunyoqarash qobiliyatiga ega yoshlarni tarbiyalash muammosi dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Innovatsion dunyoqarashga ega shaxs tarbiyasida ta‘limni modernizatsiyalash muhim masala hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta‘kidlaganidek: “Rivojlangan mamlakatlarda ta‘limning to‘liq sikliga investitsiya kiritishga, ya‘ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e‘tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda

keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart". Innovatsion qarashlar jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivoji bo'lib, yoshlarning aniq maqsadlarini belgilab olish va amaliyotga joriy etishni ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Innovatsion tafakkur to'g'risida qarashlar va yondashuvlar kabi unga berilgan ta'riflar ham xilma-xildir. A.Begmatov innovatsion tafakkur mahsulini bo'lgan innovatsion faoliyatni quyidagicha tavsiflaydi: "Innovatsion faoliyat" atamasi ishlab chiqarishda yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratish bo'yicha xizmatlar bajarishni, yangi takomillashtirilgan texnologik jarayonni anglatadi. Innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: - yangi mahsulotni yaratish bo'yicha faoliyat; - yangi original g'oyalarni tayyor mahsulot sifatida bozorga chiqarish; - yangi original g'oyalarni takomillashtirish va h.k.". Bu izlanish va yoshlarni etaklash tizimini yaratish demakdir. Zamonaviy innovatsion tafakkurga ega yoshlar kelajakda aqlli iqtisodiyot, aqlli shaharlar, aqlli mamlakatni bunyod qiladilar...bunday yoshlarni maktabda, universitet va universitetdan keyingi davrdanoq birinchi natijalarni ko'rsatganlaridayoq to'g'ri yo'lga etaklashimiz kerak. Innovatsion jamiyatga innovatsion tafakkuri rivojlangan yangi professionalarni berish kerak. Haqiqatdan ham nanotexnologiyalar, axborot texnologiyalari, fundamental ilmiy rivojlantirar ekanmiz, shuni yodda saqlashimiz kerakki, ishni quyidan boshlashimiz kerak, bog'cha, maktab partasidan: yuqori texnologiyalardan foydalanish uchun bog'cha bolalaridayoq to'g'ri tafakkurni shakllantirish lozim.

Tafakkurning empirik, nazariy, vizual, mantiqiy, fazoviy va boshqa turlari aynan innovatsion tafakkuri shakllanishida o'ziga xos xususiyatga egadir. Masalan, nazariy tafakkur yuqori darajadagi mavhumlik tushunchalari bilan ishlash bilan bog'liq bo'lgan innovatsion tafakkurning bir qismi hisoblanadi. Empirik tafakkur esa hissiy idrok etish natijasida olingan vizual tasvirlar orqali innovatsion tafakkur qilish jarayoni sifatida tavsiflanadi. Aslida innovatsion tafakkur innovatsion faoliyatning yagona, ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki aynan innovatsion tafakkur innovatsion faoliyatda namoyon bo'ladigan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bizning fikrimizcha, innovatsion tafakkur o'zida ijodiy, ilmiy va nazariy, ijtimoiy, konstruktiv, pragmatik, transformativ xususiyatlarni aks ettirishi kerak. Masalan, innovatsion tafakkur ijodiy, ya'ni mavjud algoritmlar, namunalar, modellar doirasidan tashqariga chiqishi ham mumkin. Chunki aynan ijodiy tafakkur insonga asosan sub'ektiv ravishda yangi natijalarni qo'lga kiritishiga yordam beradi. Bundan tashqari innovatsion tafakkur san'atda amalga oshirilgan ijodiy fikrlashdan farq qiladi. Rassom tomonidan ichki hissiy dunyo orqali yaratilgan asarlar har doim ob'ektiv yangilik sifatida baholanadi. Ixtirochi uchun esa innovatsion maqsad kam mehnat sarf qilib ulkan natijaga erishish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ijodiy fikrlash jarayonidagi tushuncha – bu mavjud algoritmlar doirasida tug'ilishi mumkin bo'lmagan yangi bir narsaning tug'ilish vaqtidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Innovatsion tafakkur ilmiy va nazariy jihatdan ham inson faoliyatida o'zgacha tarzda namoyon bo'ladi. Chunki V.P.Deliya to'g'ri ta'kidlaganidek, ilmiy tafakkur "nazariy tafakkurga nisbatan uning o'ziga xos xususiyati bo'lib, bu davrning nazariy tafakkurini oldingilaridan ajratib olish imkonini beradi". Nazariy tafakkur asosida ishlaydigan tushunchalar zamonaviy fan darajasida mavjud bo'lgan mavhumlik darajasiga ham ega bo'ladi. Chunki busiz o'rganilayotgan hodisa va jarayonlar uchun bir necha bor sinovdan o'tgan nazariy modellarni yaratmasdan, umumlashtirmasdan, ilm-fan va texnikaning zamonaviy

rivojlanishida talab qilinadigan innovatsion mahsulotni yaratish mumkin emas. Masalan, yangi energiya manbasini yaratish faqat zamonaviy bilim va texnologiyalar asosida amalga oshirilishi mumkin.

Innovatsion tafakkur konstruktivdir. Konstruktivlik deganda kerakli oldinga qo'yilgan maqsadga to'g'ri xulosa berish va unga faoliyat jarayonida to'g'ri keladigan usullar va asoslarni tanlash, jarayon ketma-ketligini belgilash, maqsadga etishishni aniqlash va uni dialektik tarzda yangilash, maqsadga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritish, yangiliklarni amalda joriy etilishining kelib chiqadigan holatlarini anglash qobiliyatidir. Konstruktivlik tushunchasi qatorida uning mukammal mujassamlashuvi sifatida yaxshi natijaga ega bo'lishi mumkin. Musiqani montaj chizig'ida bajarish innovatsion tafakkurda ijodiy va texnologik jihatdan ideal kombinatsiyadir. Aynan shu narsa Amerikaning taniqli kashfiyotchisi Edison tomonidan amalga oshirildi, u o'z texnik qarashlarini oqimga va ulardan foyda olishga muvaffaq bo'ldi.

Innovatsion tafakkur pragmatizmi shu hodisa bilan birgadir. Har bir kasb sohasida o'ziga xos innovatsion o'zgarishlarning bo'lishi tabiiy holat. Chunki tibbiyotdagi innovatsion bilish, arxitektormikidan farq qiladi va shu sohalaridagi bilim ularni innovatsion tafakkurini aniq maqsadlarga yo'naltirishga xizmat qiladi. Chunki S.H.T.Kubaeva aytganidek, "...innovatsiyalar innovatsion tafakkurga ega bo'lgan individlar tomonidan amalga oshiriladi. Innovatsion tafakkurning ob'ektivlashuvi innovatsion ta'limni yaratish orqali yuz beradi. Innovatsion ta'lim esa, o'z navbatida, bo'lg'usi mutaxassislarda turmushning mazmuni va uni qayta ishlab chiqarishni tushunishning rivojlanishiga yordam beradi, bu bilan shaxsning innovatsiyalarni ro'yobga chiqarishga undovchi innovatsion tafakkuri shakllanadi".

Innovatsion tafakkur sohibi mavjud sharoitlardan xabardor bo'lishi, ulardan samarali foydalanishi kerak. Ayniqsa, Oksford universiteti direktori Nik Bostrom to'g'ri ta'kidlaganidek: "Texnologik progressning tezlashuvi tufayli insoniyat hozir o'z taraqqiyotining keskin burilish nuqtasiga katta tezlik bilan yaqinlashib borayotgan bo'lishining ehtimoli katta. Jamiyatga tanish bo'lgan yadroviy qurol xavf yoniga nanotizmlar va mashina intellekti kabi sohalarida jadal rivojlana boshlagan texnologiyalarning misli ko'rilmagan imkoniyatlari va xatarlari kelib qo'shilmog'qa. Bizning kelajagimiz, agar u bo'ladigan bo'lsa, bizning ana shu jarayonlarga nisbatan munosabatimizga bog'liq. Biz jadal rivojlanayotgan texnologiyalarga bog'liq ekanmiz, insoniyat jamiyatdan "post-insoniyat" (noinsoniy) jamiyatga o'tish dinamikasini yaxshi anglab etishimiz kerak. Ayniqsa, tuzoqlar qacarda joylashganini: muqarrar o'limga olib borishi mumkin bo'lgan yo'lni payqashimiz kerak".

Innovatsion tafakkurni rivojlantirish innovatsion xatti-harakat qilishni, innovatsion g'oyalarni amalga oshirishni ham talab qiladi. Ya'ni odamlarga o'z g'oyalari va orzularini o'z hayotlariga tatbiq qilishga imkoniyat berilishi kerak bo'ladi. Zero har bir innovatsion g'oyaga ehtiyoj iste'molchi tomonidan qoplanishi kerak. Shu sababli innovatsion tafakkurning tarkibiy qismlaridan biri sifatida g'oyalari kommersializatsiyasi hisoblanadi. Innovatsion tafakkur bu oxir natijada – daromad degani, bu har qanday ish, biznes taraqqiyoti qurolidir. "Innovatsion jarayonlarning tizimli xarakterga ega ekanligi uning maqsadga yo'naltirilganligi bilan ham bog'liq bo'ladi, shuning uchun innovatsion jarayonlarning barcha tarkibiy qismlari manfaatlar muvozanati va taraqqiyotning umumiy rivojlanish dinamikasini aniqlaydi".

Innovatsiya sintetik, o'ziga faol tafakkurning turli qirralarini o'z ichiga oluvchi tushunchadir. Yadrosi sifatida ongning yangi bilimlarga yo'nalganligi, ularga psixologik ehtiyoj sezishi va ularni qabul qilishga intellektual

tayyorgarligini tushunish kerak. Kuch shunchaki bilimda emas ekan. Faqat dolzarb va fundamental bilimlar kuch-qudratga ega. Innovatsion tafakkur bu ijodkor shaxs uchun ko'p variantlar mavjud emas – yoxud o'zi yangilik yaratishi yoxud o'z vaqtida yangiliklarga javob qaytara olish, novatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilinishining zarurati va maqsadga muvofiqligini asoslay olish lozim. SHunday qilib, innovatsion tafakkur ijodiy ongga xos hodisadir.

Innovator – homo pragmaticus – pragmatik shaxs. U g'oyani amaliyotga qanday joriy qilish, yangilikka aylantirishni aniq biladi. Konservativ – homo technicus – texnologik shaxs esa bizga oldingi salbiy holatlarni bartaraf etish, jamiyat va insonga innovatsiyalarni qabul qilish va undan samarali foydalanishga keng imkon beradigan texnologiyalar sohibi hisoblanadi. Ko'rib turganimizdek, innovatsion jarayonga jalb qilingan barcha insonlar o'z qobiliyati va tajribasidan kelib chiqqan holda bir- biridan alohida ajralib turadi. Biz uchun hozirgi vaqtda yoshlar o'zini shaxs sifatida qanday anglashi, dunyo va innovatsion o'zgarishlar jarayonidagi o'rni bilan belgilanadi, desak yangilishmagan bo'lamiz. SHu boisdan ham I.G'.Abdullaeva innovatorga xos bo'lgan xislatlarni quyidagicha izohlaydi: “1. Tafakkur mahsuli bo'lgan intellektual mulkka (yakka tartibda yoki boshqalar bilan birlashgan tarzda) innovatorlar egalik qiladi. 2. Innovatsiyani amaliyotga joriy etishda iqtisodiy huquqlardan foydalaniladi. 3. Mehnat qilish va mehnat turi erkin tanlanadi. 4. Hech kim noqonuniy tarzda innovatsion izlanishlardan, mulkiy munosabatlarni takomillashtirish va mulkini kengaytirish huquqlaridan mahrum qilinmaydi. 5. Innovatorlar kasb-kor assotsiatsiyalariga birlashish va ular orqali mamlakatni, korxonasi, xo'jalik hayotini boshqarish huquqiga ega. 6. Xalq yoki mehnat jamoasining irodasi, ayniqsa, innovatorlar faolligi va tashabbuslari hokimiyat yoki mulk egasi faoliyatining asosi hisoblanadi. 7. Innovatorlar ijod va iqtisodiy huquqlarini amalga oshirish, ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlanish (ta'minot) huquqiga ega. 8. Innovator inson sifatida mehnatiga yarasha haq olishi va taqdirlanish huquqiga ega. 9. Innovatorlar iqtisodiy va madaniy huquqlarini himoya qiladigan kasaba uyushmalari (ittifoqlari) tuzishi mumkin. 10. Innovatorlarning alohida imtiyozlarga ega bo'lishi mehnat tartiblarini, shartnomalarini buzish hisoblanmaydi”.

Novator, homo creator – yangi g'oyalarni yartauvchi avlod hisoblanadi. Novator o'ziga xos ideal shaxs, ijodkor

odamdir. Bunday insonlarning dunyoqarashi sivilizatsiya bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Sivilizatsion yondashuv innovatorga jahonning turli taraflaridan o'z g'oyalarini jalb qilishga juda ko'p imkonlar beradi. Kashfiyotchi odatda faqat sivilizatsiyaning bir qancha elementlariga e'tibor qaratadi. Innovator, homo pragmaticus, innovatorlardan olgan yangi narsalarni tanishtiradi, ularni innovatsiyalarga o'zgartiradi va ularni amalga oshirish uchun konservatorga beradi.

Tahlil va natijalar. Mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirish, ularni muntazam ravishda tashkil etish va “innovatsion shaxs” ega bo'lishi kerak bo'lgan asosiy vakolatlar to'plamini aks ettiradi. Innovatsion tafakkur va unga asoslangan innovatsion faoliyat, o'z navbatida, ijtimoiy o'zgarishlarga moslashish strategiyalaridan biridir. Innovatsion rivojlanishga o'tish zamonaviy jamiyatning muhim vazifasidir. “Innovatsion ta'lim” o'ziga xos intellektual vosita yoki texnologiya sifatida innovatsiyalarni yaratish jarayonining barqarorligini ta'minlaydi. “Bugungi kunda dunyoda innovatsion g'oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz bironta sohaning rivojlanishi mumkin emas”.

Innovatsion ziyaraklik deyilganda shaxsning yangilik kiritilishiga uning mazmuni va ehtimoliy / kuzatilayotgan oqibatlarini baholash va “qabul qilish/ qabul qilmaslik, qo'llab-quvvatlash/ qarshilik ko'rsatishda ifodalanuvchi, izlanishning ahamiyati va ustuvorligi hamda unda qo'ldan kelgancha ishtirok etish” tushuniladi. Ishonch deyilganda ijtimoiy tizimlarga nisbatan kishilar tomonidan ko'rsatiladigan istiqbolga yo'naltirilgan ishonch, oldindan ishonch tushuntiriladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, innovatsion tafakkur har doim yangilik qilishga yo'naltiriladi. Innovatsion tafakkur insonparvarlik g'oyalariga asoslanish bilan bir qatorda innovatsiyalar mehnat unumdorligini oshiradi, mehnat sharoitlarini engillashtiradi, hayotiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Biz bu innovatsion tafakkur xususiyatini ijtimoiy ijobiy deb ataymiz. Shuning uchun uni yangilik deyishimiz maqsadga muvofiq kelmaydi, misol uchun, odamlarni o'ldirish uchun ixtiro qilingan va foydalanilgan gaz xonalarini. Gaz kamerasini ixtiro qilgan natsistlarning fikrlashini garchi u ham amaliy, ham konstruktiv jihatdan innovatsion tafakkur xususiyatlariga mos kelsa ham innovatsion va ijodiy yutuq deb yuritilmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-ж. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2017. – Б. 85.
2. Saitqosimov A.I. Fuqarolik jamiyatini barpo etishda ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish qonuniyatlari. Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2019. – B.17.
3. Аминова Дженнет Камильевна Мугадова Сиясат Тимуровна Мунгиева Нина Зурабовна Цахаева Анжелика Амировна. “Шпаргалки по общей психологии” Киев-2017.
4. Франкл В. Человек в поисках смксла. – М.: Прогресс, 1990. – Б. 24-54.
5. Ксендзюк А. Тайна Карлоса Кастанеды. – Одесса, 1995. – Б. 264-265.
6. Абдуллаева И.Ф. Миллий тараққиётнинг янги босқичида иқтисодий ва инновацион тафаккур уйғунлиги. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2019. – Б.12.
7. Шумпетер Й. Десять великих экономистов от Маркса до Кейнса. Издательство Института Гайдара 2011. – 416 с.



UDK :323/321:1(09) (584.4)

Muxiddin ABDURAXMONOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail: Muxiddin1967@gmail.com

O'zMU professori B.To'ychiyev taqrizi asosida

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATCHILIGI ASOSLARINING IJTIMOY-FALSAFIY AHAMIYATI
Annotatsiya.

Maqolada Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligining umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan qonun-qoidalar, ijtimoiy adolat asosida boshqarilganligining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati, ularning ichki va tashqi siyosatining jahon miqyosda tan olinganligi, o'rta asrlarda iqtisodiy-harbiy xavfsizlik asoslarining yaratilganligi, Markaziy Osiyo diniy va dunyoviy bilimlarining sharqu-g'arbga tarqalishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Buyuk ipak yo'li, davlat boshqaruvi, ijtimoiy adolat, falsafiy qarashlar, siyosiy strategiya, savdo-madaniy hamkorlik, ijtimoiy tizim, diplomatik usullar, Movarounnahr, umuminsoniy qadriyatlar.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОСНОВ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ АМИРА ТЕМУРА И ТЕМУРИДОВ
Аннотация

В данной статье освещены социально-философское значение управления государственностью в период Амира Темура и темуридов правовыми актами основанными общечеловеческим ценностям, признание их внутренней и внешней политики на мировом уровне, создание основ экономической и военной безопасности в средних веках, социально-экономическое значение распространения на восток и запад религиозных и светских знаний Центральной Азии.

Ключевые слова: Амир Темура, Великая шёлковая путь, государственное управление, социальная справедливость, философские учения, политическая стратегия, торгово-культурное сотрудничество, социальная система, дипломатические методы, Movarounnahr, общечеловеческие ценности.

SOCIAL AND PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE OF THE FOUNDATIONS OF THE STATEHOOD OF AMIR TEMUR AND THE TEMURIDS
Annotation

This article highlights the socio-philosophical significance of governing statehood during the period of Amir Temur and the Timurids through legal acts based on universal values, the recognition of their domestic and foreign policies at the global level, the creation of the foundations of economic and military security in the Middle Ages, and the socio-economic significance of the spread of religious and secular knowledge of Central Asia to the east and west.

Key words: Amir Temur, the Great Silk Road, public administration, social justice, philosophical teachings, political strategy, trade and cultural cooperation, social system, diplomatic methods, Movarounnahr, universal values.

Kirish. Markaziy Osiyo xalqlarining qadriyatlari, davlat qurish va boshqarish bo'yicha yig'ilgan bilimlar va tajribalari asosi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ayniqsa o'rta asrlardagi ikkinchi renessans deb atalgan Amir Temur va temuriylar hukmronligi Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixidagi eng sharafli va yorqin davrdan iborat. Amir Temur qisqa muddatda jahonning adolat va qonunlarga asoslangan eng buyuk imperiyalaridan birini barpo etdi. O'z davrida diniy va ijtimoiy munosabatlarning mushtarakligini ta'minlab, o'rta asrlar uchun yangi bo'lgan turli-tuman xalqlar uchun yagona makon qurish g'oyalari joriy etishga intildi. U saltanatining shahar-qishloqlarini o'z davrining eng taraqqiy qilgan madaniy o'choqlariga aylantirdi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev aytganidek, "Amir Temur Samarqandni o'zining buyuk saltanatiga poytaxt qilib, uni jahondagi eng qudratli va obod shaharlardan biriga aylantirdi"[1, - 177 b.].

Amir Temur har bir muhim masalani mashvaratlar (kengashlar) orqali to'plagan ma'lumotlarni tahlil qilib chiqarilgan xulosalar asosida qarorlar qabul qilish va ularning ijrosini amalga oshirilishini qat'iy nazoratga olish bilan maqsadga erishgan. Islom olamining ijtimoiy-iqtisodiy, savdo

va madaniy aloqalarida Markaziy Osiyoda tashkil topgan davlatlar yetakchilik rolini o'ynaganligi Amir Temur va temuriylar saltanatida savdo – iqtisodiy, ilm, madaniyat, san'at, adabiyot va qurilish sohalarida erishilganligi misolida yaqqol ko'rinadi. Bu davrdagi jadal taraqqiyot mintaq xalqlarida diniy bag'rikenglik, ilg'or dunyoqarash va madaniy hamkorlik tamoyillarining mustahkamlanishiga olib kelgan. Xususan, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalaridagi hamkorlik, o'z davrining texnologik yutuqlarini o'zaro almashish, savdo-sotiq va diplomatik aloqalar, hunarmandchilik, me'morchilik kabi sohalaridagi o'zaro ta'sir, diniy-falsafiy qarashlar va axloqiy mezonlar almashinuvini jadallashtirdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amir Temur o'z saltanati hududlarida adolatli qonunlar joriy qilganligi, barcha xalqlarga hurmat bilan qaraganligi, buyuk davlat arbobi va sarkarda sifatida keng strategik fikrlash qobiliyatini shakllantirganligi bilan ajralib turadi. Shunga qaramasdan Amir Temur hayoti va faoliyati borasida, temuriylarning Sharq va Islom dunyosida tutgan o'rni borasida ham ijobiy ham salbiy fikrlar bildirilgan.

Shu o'rinda ayrim arab, fors, rus, tojik, g'arb tadqiqotchilari Amir Temurni faqat salbiy tomondan

ko'rsatishga uringanlar. Jumladan, Ibn Arabshoh "Ajoyib al-maqdur fi axbori Taymur" asarida Amir Temurga nisbatan adovat ruhida va afsonalardan iborat ma'lumotlarni keltirgan[2]. Mustaqil Tojikistonda tarixiy voqealarni siyosiy-g'oyaviy jihatdan qayta ko'rib chiqish jarayonida professor N.O.Tursunov o'z monografiyasida Amir Temur bosqinchilik urushlari olib borganligini, bu mo'g'ul va chingiziy xarakterdagi urushlar mo'g'ullar bosqinining mantiqiy davomi degan fikrni ilgari suradi [3]. Boshqa bir tojik tadqiqotchisi M.M.Karimov XIV asr oxiri- XV asr boshlaridagi xalqaro munosabatlar tarixi Amir Temurning shafqatsiz, bosqinchilik, vayrongarchilik urushlari bilan xarakterlanadi deb xulosa qilgan[4]. Biroq, ushbu tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, Amir Temur adolatsiz, qonxo'r, moddiy boyliklar uchun futuhotlar olib borgan shaxs emas.

Jumladan, M.M.Karimovning o'zi Amir Temur Boyazid ustidan g'alaba qozonganidan so'ng butun Yevropadan uning huzuriga kelgan elchilarning juda yaxshi kutib olinganligi, bu G'arb va Sharq diplomatiyasi tarixida mislsiz buyuk voqealigini ta'kidlaydi. Eronning Tefron universiteti qoshidagi Ilmiy tadqiqot instituti professori temurshunos Amir Teymur Akbar Rafei Temur va temuriylar davrida Turonu Eronda ilm-fan, adabiyot va san'at rivojlanganligi, juda ulkan mintaqada tinchlik o'rnatilganligi, xalqlar xavfsizligi ta'minlanganligi bois, savdo-sotiq va ishlab chiqarish rivojlanganligi, imperiya hududida beqiyos ma'naviy yuksalish sodir bo'lganligi, Amir Temur va vorislari nomi jahon tarixida o'chmas iz qoldirganligini ta'kidlagan[5].

A.Rafe'iy Amir Temur tavalludining 686 yilligi munosabati bilan Eronda chop etgan "Temuriylar davri siyosiy-ijtimoiy tarixi" kitobida Amir Temur va temuriylar, xususan Shohrux va sulton Xusayn Boyqaro davri Islom olami, Eron tarixida ham san'at va madaniyat yuksalgan davrlardan bo'lgan, u Yevropa hukmdorlari bilan savdo-sotiqni rivojlantirish uchun elchilar almashgan. Amir Temur tarixda tuzgan eng buyuk imperiyada tinchlik va xavfsizlik ta'minlagan[5].

Boshqa bir eronlik tarixchi Mo'iniddin Natanziyning "Muntaxab ut-tavorixi Mo'iniy" ("Mo'iniyning saylanma tarixi") asarida Amir Temur vatanparvar sarkarda va yirik davlat arbobi sifatida mo'g'ul xonlarining Movarounnahrda bosqinlariga chek qo'yishda harbiy va siyosiy faoliyatini bag'ishlaganligi, Turonni 150 yillik tanazzuldan chiqarganligini ta'kidlagan[6].

Temurshunos tadqiqotchilar uning diniy, milliy va mafkuraviy tarafdorlikni qo'llamaganligi, ziddiyatli holatlarni ijobiy hal qilganligi, obyektivligi, uzoqni ko'ra olish qobiliyati, mojaro va muammolar diplomatik usullar orqali hal bo'lmagavn taqirdagiga harbiy kuch qo'llaganligini ta'kidlashgan [7]. Fransiyadagi Temuriylar tarixi va san'atini o'rganish assotsiatsiyasi prezidenti Frederik Bopertyui-Bressan Amir Temur oddiy askarlikdan buyuk sarkarda darajasiga ko'tarilib, Hindistondan Yevropagacha, Arabistondan Sibirgacha bo'lgan ulkan hududda kuchli davlat qurgan va boshqa jahongirlardan farqli o'laroq bunyodkorlik, ilm-fan, madaniyat, san'at, hunarmandchilik, tabobat, ilm ahliga alohida e'tibor qaratgan. Amir Temur davlati Yevropa uyg'onish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatgan.

Amir Temur o'z davrining 27 ta davlatini birlashtirib, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-falsafiy va moddiy salohiyatga ega saltanatni tashkil qilganligi borasida H.Vamberi shunday deydi: "Amir Temurning tuzumi Movarounnahr uchun shubhasiz, eng dabdabali davr bo'lib, turk xalqi uchun shundayin ziyo berdiki, ba'zi qavmlar, ellar hozirgacha undan harorat oladilar" [8].

"Temur tuzuklari"ni davlat boshqaruvi va xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi tahlili, saltanatning kuchi va qudrati aholi manfaatlarini jamiyat boshqaruv idoralari vositasida

muntazam nazorat qilinishi va o'z vaqtida tegishli choralarni amalga oshirilganligini ko'rsatadi. Amir Temur Movarounnahr tarixida dastlabki bor boshqa mamlakatlardagidan ko'ra ancha mukammal bo'lgan nafaqa ta'minoti va davlat xizmatchilariga maoshlar berishni tizimlashtirgan. "Davlat ishlarining to'g'ri ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini angladim" – deb yozgan Amir Temur[9]. Davlat qudratli bo'lishi uchun Temur barcha ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini hisobga olish uchun ular bilan maslahatlashib qarorlar qabul qilgan. Amir Temur o'z saltanatini boshqarishda to'rt ishga amal qilgan: kengash, mashvarat, qat'iy qaror va tadbirkorlik, ehtiyotkorlik[10].

Tahlil va natijalar. Amir Temur siyosiy faoliyati tahlili uning chuqur strategik o'ylanganligi, o'zaro hamkorlik va tinchlik o'rnatishga yo'naltirilganligi, hatto G'arb davlatlari bilan ham o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yishga harakat qilganligi, o'z davrining mavjud huquqiy, diplomatik qoidalardan foydalanganligini ko'rsatadi. Amir Temur juda katta saltanati hududida umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan siyosat olib borgan, madaniyat va ilm-fanga homiylik qilgan, iqtisodiyotni rivojlantirgan, zaminida ijtimoiy adolat yotgan bu tizim o'z davrining haqiqiy tamaddunini tashkil qilgan.

Amir Temur va temuriylar davlatchiligi asoslari tahlili uning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati quyidagilardan iborat ekanligini ko'rsatadi:

saltanat ichki siyosatda insonparvarlik, do'stlik va hamkorlik g'oyalari, tashqi siyosat va diplomatik munosabatlarda o'z davrining qadriyatlariga asoslangan qonun-qoidalarga qat'iy amal qilgan;

mukammal nazariy qoidalarga asoslangan boshqaruv tizimi orqali fath qilingan hududlar aholisining dini, millati, irqi, urf-odatlari va siyosiy qarashlaridan qat'iy nazar tinchtotuv va sulhda yashashga imkon berilgan;

Amir Temur Yevroosiy qit'asida tashkil qilgan tarixdagi eng yirik saltanada xalqaro adolat tamoyillarini, davlat boshqaruvida esa umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan qonun-qoidalarni joriy qilgan holda hukmronlik qilgan;

tashqi siyosatda mintaqa yaxlitligini ta'minlash, tashqi xavflardan himoya qilish, xalqaro savdo yo'llarini Markaziy Osiyo orqali o'tishga erishish, qat'iy sabablersiz biror hududni bosib olmaslik, dushmanlarning uljaga berilgan imkoniyatlarni suiste'mol qilishiga yo'l qo'ymaslik tamoyillariga amal qilish;

fath qilingan davlatlarni iqtisodiy, siyosiy, diniy, mafkuraviy jihatdan yo'q qilish va mavjud ijtimoiy tizimni almashtirishga harakat qilmaslik.

Amir Temur mamlakatning siyosiy, harbiy va iqtisodiy qudratini oshirishga, madaniy-ma'rifiy va qurilish ishlariga katta e'tibor berdi. Buyuk ipak yo'li orqali savdo aloqalarining tiklanishi, Temur davlatining iqtisodiy qudratini oshirdi hamda karvon yo'llarining kengayishi va xavfsizligining ta'minlanishi, tovarlar arzonlashishi, soliqlarning tartibga solinishiga olib keldi. Mintaqada rivoj topgan diniy va dunyoviy bilimlarning musulmon olami va Yevropaga tarqalishida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan Buyuk Ipak yo'li muhim ahamiyatga ega.

Buyuk ipak yo'li mintaqaning tanilish geografiasini hamda xalqlar o'rtasida madaniy, ma'rifiy, ilmiy sohalarida hamkorlikni kengaytirish bilan birga, Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida ham o'zaro tinch-totuv yashash va madaniy hamkorlik tamoyillarining mustahkamlanishiga olib kelgan. Xususan, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalaridagi hamkorlik, o'z davrining texnologik yutuqlarini o'zaro almashish, savdo-sotiq va diplomatik aloqalar, hunarmandchilik, me'morchilik kabi sohalaridagi o'zaro ta'sir, diniy-falsafiy qarashlar va ahloqiy mezonlar almashinuvini jadallashtirdi.

Xulosa va takliflar. Amir Temurning jahongirlik xislatlarini uning Turonning qadimiy davlatchiligi, fani, madaniyati, tarixi, ijtimoiy munosabatlar va falsafiy asoslarini, mahalliy xalqlarni birlashtirish asosi bo'lgan Islom va Qur'on bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lganligi hamda qat'iy va adolatli qonunlar joriy qilganligi, barcha xalqlarga hurmat bilan qaraganligi, buyuk davlat arbobi va sarkarda sifatida keng strategik fikrlash qobiliyatini shakllanganligi bilan izohlash mumkin.

Amir Temur o'z davrida Buyuk ipak yo'li faoliyatini Markaziy Osiyo orqali o'tishini ta'minlab barcha sohalarni rivojlantirish orqali mintaqa dovrug'ini taratishga muvaffaq bo'lganligini nazarga olib, hozirda ham Buyuk ipak yo'lini modernizatsiya qilish yo'nalishlari mintaqamiz uchun muhim strategik ahamiyat kasb etadi:

avia, temir yo'li, avto va dengiz transport tizimlarini o'shazaro maqbullashtirish orqali logistika va kommunikatsiya aloqalarini taraqqiy qildirish strategik ahamiyatga ega bo'ladi;

Yangi O'zbekiston konsepsiyasiga muvofiq ravishda Buyuk ipak yo'li koridorlarining mintaqa va mamlakatimiz hududi orqali o'tishini ta'minlash mintaqamizni ikkinchi renessans davridagi kabi jadal rivojlanish fazasiga olib kirishi hamda jahon taraqqiyoti bilan hamqadam bo'lishiga olib keladi;

mavjud xom ashyo zaxiralari diversifikatsiya qilish, xalqaro savdo va tranzit yo'nalishlarida asosiy rol o'ynash va raqobatbardosh iqtisodiyotni vujudga keltirish imkoniyatiga ega bo'ladi;

Shu bilan birga, O'zbekiston o'z tarixiy an'alariga sodiq qolgan holda hozirgi davrdagi jahonning qudratli kuchlari jumladan, AQSH va G'arb hamda Xitoy tomonidan taklif qilinayotgan xalqaro tranzit yo'nalishlari ("TRASEKA", "Bir makon-bir yo'l" va boshq.) bevosita ishtirokchisi sifatida turli loyihalar bo'yicha muzokaralar olib bormoqda. Bu jarayonda O'zbekiston bir qator omillarni hisobga olishi maqsadga muvofiq:

Markaziy Osiyoning asosiy va markaziy davlati sifatida mintaqa va milliy manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish;

ushbu loyihalarda ishtirok etish mamlakat transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishni nazarda tutishi;

ushbu loyihalardagi ishtirok jahonning boshqa qudratli kuchlarining mintaqadagi manfaatlarini, milliy resurslarning chet el nazorati ostiga o'tishiga yo'l qo'ymaslik, zamonaviy texnologiyalar investitsiya qilinishi kabi omillarni nazarda tutishi kerak;

mazkur loyihalarda ishtirok etish jarayonida milliy manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan qonunchilik hujjatlari takomillashtirilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. ابن عربشاه-العالم-2022/9/30- // <https://www.aljazeera.net/history/2022/9/30/> // ابن عربشاه.. العالم الموسوعي الذي تسبب السفاح تيمورلنك في نبوغه الموسوعي-الذي تسبب
3. Турсунов Н.О. Таърихи тоҷикон. - Хучанд. 2001. - С.491.
4. Каримов М.М. Из истории международных связей и дипломатии Центральной Азии во второй половине XIV - начале XVI вв. // Автореферат на соискание к.и.н. // <https://www.dissercat.com/content/iz-istorii-mezhdunarodnykh-svyazei-i-diplomatii-tsentralnoi-azii-vo-vtoroi-polovine-xiv-nach>
5. <https://www.cgie.org.ir/fa/news/266533/>- هنر در تاریخ جهان-اسلام و- ایران-است
6. [منتخب%20التواريخ%20معين%20\(كتاب\)](https://fa.wikifeqh.ir/منتخب%20التواريخ%20معين%20(كتاب))
7. Якубовский А.Ю. Тимур, его держава и военные походы. // Очерки истории СССР. Период феодализма IX-XV вв. Ч.11. - М., 1953.; Z. Muqimov. Amir Temur tuzuklari (tarixiy-huquqiy tadqiqot). Ikkinchi to'ldirilgan nashri. – Samarqand: SamDU, 2008. – 131 bet.; Temur tuzuklari. – T., 1996, 24-b.
8. Vamberi H. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi.– T.: Adabiyot va san'at, 1990.
9. Temur tuzuklari. – Toshkent, 1996, 24-b.
10. Temur tuzuklari/forschadan A.Sog'unuy va H.Karomatov tarjimasini; B.Axmedov tahriri ostida –T.:Nashriyot –matbaa birlashmasi. 1996. –B.14



Yusuf AZZAMOV,

Associate Professor, PhD Uzbekistan State University of World Languages

E-mail: yu.azzamov@mail.rumSTU

Under review of docent of NamSTU P.Botirova

PRINCIPLES OF DEVELOPING STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH

Annotation

The article provides an in-depth analysis of the scientific and methodological principles of developing independent learning competence in the process of teaching English. Independent learning competence is described as a multi-component pedagogical system that includes students' ability to manage their own learning activities, set goals, choose appropriate strategies, conduct metacognitive monitoring, analyse results, and engage in reflective evaluation. The article scientifically interprets the principles of independent learning development based on constructivism, self-regulation theory, autonomy concepts, digital learning environments, and linguo-methodological approaches.

Key words: Independent learning, educational principles, metacognitive monitoring, autonomy, digital learning environment, reflection, strategic learning.

TALABALAR MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

Annotatsiya

Maqolada ingliz tili o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodik tamoyillari chuqur tahlil etilgan. Mustaqil ta'lim kompetensiyasi talabalarning o'z o'quv faoliyatini boshqara olish, maqsad qo'yish, mos strategiyalarni tanlash, metakognitiv monitoring olib borish, natijalarni tahlil qilish va reflektiv baholash qobiliyatini o'z ichiga olgan ko'p komponentli pedagogik tizim sifatida izohlangan. Maqolada konstruktivizm, o'z-o'zini boshqarish nazariyasi, avtonomiya konsepsiyalari, raqamli ta'lim muhiti hamda lingvo-metodik yondashuvlar asosida mustaqil ta'limni rivojlantirish tamoyillari ilmiy talqin qilingan.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'lim, ta'lim tamoyillari, metakognitiv monitoring, avtonomiya, raqamli ta'lim muhiti, refleksiya, strategik ta'lim.

ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация

В статье представлен глубокий анализ научно-методических принципов развития компетенции самостоятельного обучения в процессе преподавания английского языка. Компетенция самостоятельного обучения описывается как многокомпонентная педагогическая система, включающая способность студентов управлять собственной учебной деятельностью, ставить цели, выбирать соответствующие стратегии, осуществлять метакогнитивный мониторинг, анализировать результаты и проводить рефлексивную оценку. В статье научно интерпретируются принципы развития самостоятельного обучения на основе конструктивизма, теории саморегуляции, концепций автономии, цифровых образовательных сред и лингвометодических подходов.

Ключевые слова: Самостоятельное обучение, образовательные принципы, метакогнитивный мониторинг, автономия, цифровая образовательная среда, рефлексия, стратегическое обучение.

Introduction. The processes of digital transformation, global communication, and the implementation of international standards have significantly influenced the content and methodology of teaching English. In higher education institutions, the formation of students' independent learning competence has become one of the central pedagogical tasks. Independent learning is not limited to expanding students' knowledge; rather, it requires purposeful planning, self-development, consistent learning, and the ability to manage one's own educational process.

The development of independent learning competence in English language teaching is grounded in constructivism, cognitive and metacognitive theories, autonomy concepts, and digital learning pedagogy. These principles make the learner an active participant in the learning process, equipping them with intellectual, psychological, and methodological strategies necessary for regulating their own learning. This article

presents scientific-theoretical interpretations of the principles for developing independent learning competence and analyses their role in the educational process.

Literature review and methodology. The rapid expansion of digital technologies, the shift toward learner-centered pedagogy, and the increasing global demand for competent English users have made independent learning competence a core pedagogical objective. In modern education, the ability of students to organize, regulate, and evaluate their own learning processes is not merely an additional skill but an essential component of lifelong learning. Therefore, understanding the underlying principles of developing independent learning competence in English language teaching (ELT) is crucial for improving both instructional quality and learner outcomes.

This analytical material explores the theoretical foundations, pedagogical frameworks, and methodological

principles that contribute to building effective independent learning skills among English language learners.

The principles aimed at improving independent learning competence in English language teaching focus on stimulating students' intellectual activity, organising the learning process based on a student-centred approach, and strengthening mechanisms for managing learning activities. Constructivism serves as the primary methodological foundation in this regard. According to constructivist theory, learners do not receive knowledge in a ready-made form; rather, they construct new knowledge by integrating it with their prior experiences. Therefore, the principles of developing independent learning are intended to enhance student activity, critical thinking, and subjective involvement in the learning process.

Independent learning competence is closely linked to self-regulation theory, which includes planning, monitoring, and reflection. Effective learning requires students to set clear goals, choose suitable strategies, track their progress, and analyse learning outcomes. This corresponds to the core principle of independent learning — purposeful and systematic learning.

Another crucial principle is metacognitive monitoring, which serves as the mechanism for managing learners' thinking processes. In English language learning, metacognitive monitoring strengthens independent learning by helping students identify errors, evaluate their performance, reflect on their strategies, and adjust their learning methods. According to Flavell, real learning begins when a student understands “what they know,” “what they do not know,” and “what they need to know.”

The principle of autonomy forms the methodological core of independent learning. Autonomy in language learning means the learner is not a passive recipient dependent on the teacher, but an active subject who can independently manage their learning. Holec's autonomy theory states that learners become truly independent only when they can regulate their learning themselves, define their linguistic goals, select resources, and form personal learning strategies.

The student-centred principle is another essential component. Since each learner has an individual learning style, intellectual capacity, psychological profile, motivation level, and learning pace, student-centred teaching ensures that these differences are addressed. A digital and interactive learning environment allows for personalised instruction, enabling learners to choose tasks suited to their ability and work at a comfortable pace, which increases the effectiveness of independent learning. The principle of reflection also plays an essential role. Through reflective activity, students critically analyse their learning process, identify errors, strengthen their weak areas, and consciously plan subsequent learning stages. Reflection strengthens learners' intrinsic motivation and fosters their need for continuous independent learning.

The digital learning environment is an inseparable component of modern pedagogy. LMS platforms, language corpora, online dictionaries, mobile applications, and AI-based tools significantly expand learners' opportunities for independent language study. Digital tools ensure continuous learning, constant communication, instant feedback, and the creation of personalised learning pathways.

Results and Discussion. The results of the scientific and theoretical analyses demonstrate that developing students' independent learning competence in English language teaching requires a multifaceted, integrated methodological approach. The outcomes manifest through increased academic activity, conscious selection of independent learning strategies, the ability to plan learning processes, engage in reflective analysis,

and conduct real-time self-assessment. The formation of independent learning competence is based on the integration of cognitive, metacognitive, and affective processes.

From a cognitive perspective, learners improve in analysing, interpreting, and applying linguistic units, grammatical structures, and lexical-semantic relationships. Students demonstrate higher performance in comprehension, contextual understanding, and textual analysis.

Metacognitive processes play a decisive role in the success of independent learning. When students plan their learning, choose effective strategies, control their performance, and evaluate outcomes, the quality of learning significantly improves. Observations confirmed an increase in students' awareness of their knowledge gaps, ability to detect errors, and tendency toward reflective learning. Affective components — motivation, confidence, and emotional stability — also proved essential for sustainable independent learning. Digital and interactive learning environments further strengthened these aspects. One of the most significant findings is that digital learning environments serve as a key mechanism for developing independent learning competence. LMS platforms, online dictionaries, mobile applications, electronic corpora, and AI-based tools enhanced learners' self-study opportunities, individualised their learning, and strengthened metacognitive monitoring. The extended analysis of the research results demonstrates that the development of students' independent learning competence in English language teaching is shaped by the dynamic interaction of cognitive, metacognitive, affective, and behavioral components. The findings reveal that the principles underlying independent learning—such as autonomy, metacognitive monitoring, purposeful planning, reflection, and self-regulation—not only enhance academic performance but also restructure the learner's entire approach to language acquisition.

Metacognitive outcomes, which form the core of independent learning competence, were especially pronounced. Students who consciously planned their learning, predicted potential difficulties, selected appropriate strategies, monitored their performance, and engaged in reflective evaluation exhibited more stable learning progress than those who relied solely on teacher guidance.

Behavioral indicators also reinforced the effectiveness of the applied principles. Learners began to demonstrate greater initiative in managing their learning activities: they searched for additional materials, worked consistently with digital resources, completed tasks ahead of time, and displayed responsibility for their learning outcomes. This shift from passive reception to active engagement marked a transformation in their academic identity, positioning them as autonomous participants in the learning process.

Overall, the extended findings confirm that the principles of developing independent learning competence—when systematically embedded into English language teaching—produce a complex transformative effect. These principles enhance linguistic proficiency, strengthen cognitive and metacognitive processes, deepen emotional engagement, and foster long-lasting learner autonomy. The synergistic contribution of these components forms a solid pedagogical basis for cultivating independent, self-regulating, and analytically competent learners who are capable of sustaining continuous personal and academic development.

Conclusion. The findings confirm that the principles of developing independent learning competence in English language teaching serve as a scientific and methodological foundation that renews the content, structure, and methodology of the learning process. Independent learning competence forms a complex psychological-pedagogical system that

enhances learners' intellectual activity, self-regulation, metacognitive control, and reflective thinking. Constructivist theory reinforces learners' subjective role by making them creators of knowledge rather than passive recipients. Autonomy principles prepare learners for global communication demands by enabling them to determine their goals, select strategies, and manage their own learning processes.

Overall, the principles of independent learning development collectively form an interconnected system that broadens learners' linguistic competence, accelerates cognitive and metacognitive growth, stimulates creativity, and shapes students as independent, analytically minded, globally competent individuals.

REFERENCES

1. Benson, P. (2013). *Teaching and researching autonomy*. Routledge.
2. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring. *American Psychologist*, 34(10), 906–911.
3. Holec, H. (1981). *Autonomy and foreign language learning*. Council of Europe.
4. Little, D. (1991). *Learner autonomy: Definitions, issues and problems*. Authentik.
5. Oxford, R. L. (1990). *Language learning strategies: What every teacher should know*. Newbury House.
6. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner. *Theory Into Practice*, 41(2), 64–70.



Шахноза АЛИМОВА,

Доктор философии по педагогическим наукам PhD, доцент кафедры Начального образования Навоийского государственного университета

E-mail: shanti.alimova@inbox.ru

На основании рецензии доцента Навоийского государственного университета Ф.Жумаевой

СОСТОЯНИЕ ВОПРОСА ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО КАК ИНОСТРАННОГО В ЭПОХУ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ЕЁ ПЕРСПЕКТИВЫ

Аннотация

Статья рассматривает современное состояние преподавания русского языка как иностранного в условиях цифровизации. Анализируются изменения методики с использованием цифровых платформ и ИИ, преимущества цифровой среды для развития языковых компетенций и трудности адаптации. Определяются перспективные направления развития РКИ и совершенствования электронных материалов.

Ключевые слова: Русский как иностранный, цифровизация образования, онлайн-обучение, интерактивные технологии, адаптивное обучение, электронные образовательные ресурсы, методика преподавания.

THE CURRENT STATE OF TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE IN THE DIGITALIZATION ERA AND ITS PROSPECTS

Annotation

The article examines the current state of teaching Russian as a foreign language in the context of digitalization. It analyzes changes in teaching methods using digital platforms and AI, the advantages of the digital environment for developing language competencies, and adaptation challenges. Promising directions for the development of RFL and the improvement of digital materials are identified.

Key words: Russian as a Foreign Language, Digitalization of Education, Online Learning, Interactive Technologies, Adaptive Learning, Electronic Educational Resources, Teaching Methodology.

RUS TILINI CHET TIL SIFATIDA O'QITISH SOHASINING HOLATI RAQAMLASHUV DAVRIDA VA UNING ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Maqola raqamlashuv sharoitida rus tilini chet til sifatida o'qitishning zamonaviy holatini ko'rib chiqadi. Raqamli platformalar va sun'iy intellektidan foydalanish orqali o'qitish metodikasidagi o'zgarishlar, til ko'nikmalarini rivojlantirishdagi raqamli muhitning afzalliklari hamda moslashish bilan bog'liq qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Rus tilini rivojlantirish va elektron materiallarni takomillashirishning istiqbolli yo'nalishlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: Rus tili chet til sifatida, ta'limni raqamlashuv, onlayn o'qitish, interaktiv texnologiyalar, adaptiv o'qitish, elektron ta'lim resurslari, o'qitish metodikasi.

Введение. В республике, согласно постановлению Президента Республики Узбекистан от 21 июня 2022 года «О мерах по повышению качества педагогического образования и дальнейшему укреплению потенциала высшего образования педагогики» № УП-289, обозначено, что возросшей актуальностью данного вопроса является объективность преимуществ цифровизации образования, так как для нового поколения обучающихся цифровые технологии стали частью повседневной жизни [13].

Анализ литературы по теме. Анализ библиографических данных и научных исследований, опубликованных в рецензируемых научных журналах предметной области Social и Computer Science, наиболее актуальных тематик публикаций за 2022-2025 годы, связанных с внедрением современных IT-технологий в обучение, методике преподавания, показывает, что языковая подготовка является одной из основных задач, т. к., открывает студентам более широкие перспективы культурного развития и помогает стать более конкурентоспособными специалистами, способными без посредников решать свои профессиональные проблемы на международном уровне. Именно поэтому русский язык как

иностраный играет особую, если не основную роль в достижении таких современных целей высшего образования, как гуманизация и гуманитаризация.

Как известно, на сегодняшний день цифровизация образовательного процесса позволила учебным заведениям сократить расходы, связанные с печатью учебников, академических журналов, зачетных книжек и др; подобное обучение позволяет студентам проходить материал в своем собственном темпе, устанавливать свой собственный график.

Методология исследования. Со стороны образовательной организации наиболее значимые преимущества цифровизации образования – это то, что цифровые инструменты позволяют университетам анализировать и отслеживать успехи студентов, предоставляя объемные ценные данные для улучшения образовательного опыта. Кроме того, цифровые ресурсы легко настроить в соответствии с различными стилями обучения и помочь студентам учиться более эффективно.

Процесс цифровизации образования необходимо поддерживать и развивать на всех уровнях управления, поскольку усиление этого процесса поможет создать

современную безопасную цифровую образовательную среду, обеспечивающую высокое качество и доступность образования всех видов и уровней.

На данный момент в Узбекистане действует национальный проект «Цифровой Узбекистан-2030», направленный на достижение нескольких ключевых задач.

Первая задача – обеспечение глобальной конкурентоспособности узбекского образования и вхождение вузов в число 500 и 100 топов мира по качеству общего образования. Вторая – становление гармонично развитой и социально ответственной личности на основе духовно-нравственных ценностей народов Республики Узбекистан, исторических и национально-культурных традиций.

Анализ и результаты. В рамках проекта ведется работа по оснащению организаций современным оборудованием и развитие цифровых сервисов и контента для образовательной деятельности. Данный проект направлен на создание и внедрение в образовательных организациях цифровой образовательной среды, а также обеспечение реализации цифровой трансформации системы образования. Реализуемые национальные проекты свидетельствуют о том, что сфера цифрового образования выступает как достижение высокой конкурентоспособности образования. Поэтому для достижения поставленных целей при реализации национального проекта, необходимо учитывать методы и способы улучшения образования, используемые ведущими странами, оценивать опыт и ориентироваться на мировые тенденции.

Известно, что языковая база у студентов, обучающихся в иноязычных группах к моменту их поступления в университет, гораздо хуже, чем у студентов, обучающихся в специальной сфере. Для студентов, обучающихся в иноязычных группах, чаще всего, характерна низкая культура речи и работы с научной литературой на русском языке; неумение четко, грамотно формулировать свои мысли, слабо развита способность к самокритике, потребность в самообразовании и самовоспитании. Именно поэтому процесс обучения студентов, иноязычных групп, языковым дисциплинам протекает гораздо тяжелее и результаты его гораздо менее значительны. Студенты, обучающиеся по языковому направлению имеют лучшее представление об устройстве языковой системы, правилах использования языковых единиц и принципах их сочетания. Это представление может быть интуитивным, когда студент чувствует язык в целом и интуитивно избегает неправильных грамматических конструкций, хотя объяснить, почему надо говорить именно так, а не иначе, он не сможет.

Важно подчеркнуть, что развитие учебно-познавательной деятельности студентов на основе цифровых технологий является социально-педагогической проблемой в развитых странах, таких как США, Германия, Франция, Китай, Южная Корея, Российская Федерация.

Анализ научных разработок, проводимых по вопросам расширению профессиональной компетентности специалистов на основе цифровых технологий указывает на то, что применение цифровых технологий при обучении русскому языку требует особого руководства со стороны учителя.

В процессе внедрения стриминговых технологий при обучении русскому языку как иностранному, познавательная активность студентов проявляется в интеллектуальных рассуждениях в процессе обучения, в выполнении общих и отдельных заданий по дисциплине. Эти характеристики не только гарантируют высокий

уровень образованности студентов, но и характерны для формирования их личности, активного отношения к практике и жизни.

Язык – это система условных знаков, которые имеют предметное значение. В русском языке выделяют три типа речи: повествование, описание, рассуждение. При этом часто бывает так, что типы речи студенты путают со стилями. Так как язык – является средством общения в форме слов, а речь – это психический процесс передачи информации опосредованный языком, то речь рассматривается как форма, вид и средство общения.

Внедряя стриминговые технологии в учебный процесс, каждый преподаватель модулирует своё занятие, исходя из темы учебного курса.

Принимая во внимание организационно-педагогические условия филологического образования, внимание уделяется реализации методов обучения, наличию различных инструментов, виртуальных лабораторий, аудиторий и оборудования, образовательной инфраструктуры на уровне студентов, интеграции предметов, а также методически оснащенный педагогический коллектив, готовый к инновационному процессу.

Важно учесть методические требования к современным занятиям обучения русскому языку, к видам деятельности учителя по преподаванию учебных модулей, основным этапам планирования, организации, руководства и контроля. Также рассмотреть процесс решения (распределения) (функциональных) задач, организацию работы, методы, используемые для мотивации студентов при обучении языку с применением цифровых технологий.

Студенты, изучающие русский язык как иностранный, учатся общаться с помощью информационных технологий в различных стандартных и нестандартных ситуациях и развивают набор навыков, обеспечивающих адекватное общение.

Компьютерные программы, используемые обучающимися, могут отображать результаты работы в локальном окне веб-браузера при использовании цифровых технологий в обучении языку с применением информационных технологий. Все необходимые для работы приложения могут находиться на удаленном интернет-сервере и временно храниться в кэше (организующем базу данных) ноутбука, приставки, телефона студента.

При планировании занятий, пробуждая познавательные процессы у студентов, при выполнении написании конспектов и сочинений, чтении языковых правил и т. д. с использованием стриминговых технологий, происходил когнитивный подход посредством, где принцип осознанности в обучении направлен на обучение общению.

Внедрение стриминговых технологий при обучении русскому языку как иностранному создает больше возможности погружению в языковую среду посредством обширного прослушивания и просмотра видеоуроков на русском языке.

Воспитательной задачей обучения русскому языку являются взаимоотношения учителя и студентов, психологическая обстановка в группе, взаимодействие участников учебного процесса, руководство учителем познавательной деятельностью обучающихся.

Развивающая задача образовательного процесса по русскому языку и литературе с применением цифровизации, находит свое отражение в развитии у студента мышления, сенсорной и двигательной сфер, эмоционально-волевой, интеллектуальной сфер личности.

Она выражается в динамике навыков работы с цифровыми технологиями, умении применять полученные и приобретенные знания в жизни.

Также необходимо обращать внимание на различные психологические особенности, силу воли, память, внимание, мышление и темперамент. Поэтому психолого-педагогические условия проявляются в полном понимании и принятии целей и задач образовательной стратегии обучения русскому языку и литературе.

Внедрение стриминговых технологий в образовательный процесс формирует положительную учебную мотивацию обучающихся, стимулирует активность творческого познания, потребность в самостоятельном обучении. Создание максимально благоприятных условий для системы учебных модулей по русскому языку, налаживание качественной диалогической связи участников образования и работодателем на рынке труда, с субъектами образования.

Целенаправленное формирование позитивного отношения к освоению языка у студентов возможно в случае осознания актуальной значимости, прагматической ценности и перспективности использования цифровизации в широком социальном контексте, положительной реакции на необходимость обращения в реальных жизненных ситуациях.

Формированию позитивного отношения способствует социально-психологическая подготовка обучающихся, которая будет не только способствовать эффективному усвоению предмета, формированию социально-ценностной мотивации, чувства эмоционального удовлетворения, компетентности, но и на основе индивидуального, позитивно окрашенного отношения к изучению языка, корректировать негативные

эмоциональные проявления, снимать психологические барьеры, снижающие готовность субъекта к эффективному освоению языка. Тем самым проявляется одна из функций языка как средства расширения профессиональной сферы.

Выводы и предложения. Как указывает, Р.Р.Давлетова, «в деятельности обучения познавательные мотивы сопутствуют практической деятельности, формируя профессиональные». Соглашаясь, с мнением автора, хочется подчеркнуть, что основной единицей содержания контекстного обучения в рамках курса, выступают не только лингвистические системно-структурные единицы, но и правила грамматики, сколько проблемная ситуация, предполагающая включение продуктивного мышления студента. «Система профессионально-подобных ситуаций позволяет, следуя сюжетнотехнологической канве моделируемой деятельности, развивать содержание образования в динамике, создавать возможность интеграций знаний всех научных дисциплин как средств разрешения этих ситуаций»[90]. В конечном итоге обучаемый при помощи освоенного языкового инструментария, лингвострановедческих навыков и умений в состоянии получить максимум необходимой профессиональной информации и применить ее на практике.

Эффективность обучения, заинтересованность в высших достижениях возникают тогда, когда деятельности сопутствует успех, когда учение вызывает положительные эмоции, осознание своего роста и развития, а педагогическая деятельность приносит удовлетворение. Преподаватель также не способен получать удовлетворение от своего труда, если этот труд непродуктивен, конфликтен, однообразен.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Афанасьева, Л. В. Русский язык как иностранный: современные подходы и методики. Москва: Высшая школа, 2020.
2. Бондаренко, Н. И. Цифровизация образования и её влияние на обучение иностранным языкам. Санкт-Петербург: Питер, 2021.
3. Васильева, О. А. Интерактивные технологии в преподавании РКИ. Москва: Русский язык, 2019.
4. Герасимова, Т. В. Использование онлайн-платформ в обучении русскому как иностранному. Вестник РКИ, 2022, №3, с. 45–57.
5. Кузнецова, Е. С. Методика преподавания русского языка в цифровую эпоху. Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУ, 2021.
6. Левина, И. А. Электронные образовательные ресурсы в обучении иностранным языкам. Москва: Наука, 2020.



UDK: 159.9:316.624

Muhsin AMONOV,
PhD Associate Professor, Navoi Innovation University
E-mail: muhsin@gmail.com

Reviewer professor D. Mukhamedova

THE FUTURE OF IMPROVING THE PHILOSOPHICAL FEATURES OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE (AI) AND SOCIAL NETWORKS IN THE ECOTOURISM SYSTEM

Annotation

This article talks about the need to improve the unique philosophical features of social networks in the ecotourism system. In it, the philosophical justification of the essence of ecotourism and social network, at the same time, the fact that it is aimed at increasing the role of human development in ensuring social stability today is scientifically and theoretically based.

Key words: Ontology, substance, ecotourism, account, driver, licensing, reserve, media literacy, economy, ecology, geography.

EKOTURIZM TIZIMINDA SUNIY INTELLEKT VA IJTIMOY TARMOQLARNING FALSAFIY XUSUSIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada ekoturizm tizimida ijtimoiy tarmoqlarning o'ziga xos falsafiy xususiyatlarini takomillashtirish zarurati haqida so'z boradi. Unda ekoturizm va ijtimoiy tarmoq tushunchalarining mohiyatini falsafiy asoslash, shu bilan birga, uning bugungi kunda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda inson taraqqiyotining rolini oshirishga qaratilganligi ilmiy va nazariy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: Ontologiya, mazmun, ekoturizm, hisob, haydovchi, litsenziyalash, qo'riqxon, media savodxonligi, iqtisodiyot, ekologiya, geografiya.

БУДУЩЕЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ФИЛОСОФСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В СИСТЕМЕ ЭКОТУРИЗМА

Аннотация

В данной статье рассматривается необходимость совершенствования уникальных философских особенностей социальных сетей в системе экотуризма. В ней научно и теоретически обосновано философское обоснование сущности понятий экотуризма и социальной сети, а также тот факт, что это направлено на повышение роли человеческого развития в обеспечении социальной стабильности в наши дни.

Ключевые слова: онтология, субстанция, экотуризм, учет, водитель, лицензирование, заповедник, медиаграмотность, экономика, экология, география.

Introduction. Today, special attention is paid to the development of media literacy in our country. A philosophical analysis of the historical processes, scientific and theoretical views, and practical and conceptual foundations associated with this concept in the emergence, formation, and development of social networks can provide a sufficiently complex and systematic scientific picture of it. In this sense, the philosophical substantiation of the content and essence of this concept is distinguished by the fact that it is aimed at increasing the role of human development in ensuring social stability today. After all, the issue of ensuring security in connection with social networks, which arose at the end of the 20th and beginning of the 21 st centuries, has become one of the urgent tasks facing scientists from all over the world. In particular, social networks have further increased the relevance of studying issues aimed at meeting the needs of society. Analysis of literature on the topic. Although the research methodologies conducted by experts in the field are quite similar, it can be recognized that their goals and areas of study are different.

Literature analysis. In particular, on the issues of expanding ecotourism opportunities, sustainable development of ecotourism, and the role of ecotourism, it is worth mentioning scientists such as Mayra Sanchez Morgan, [3] I.P.Menbere, K.Miller, V.Zorin, V.A.Kvartalnov,

V.V.Khrabovchenko. Research methodology. It should be recognized that today the speed of information dissemination and delivery of social networks has become somewhat faster than that of mass media. Internet information exchange and active use of social networks are rapidly gaining popularity around the world. Such actions generally cause a lot of discussion among the general public in terms of their positive and negative characteristics. It is no secret that social networks are becoming the main tool in terms of the impact of socio-political, spiritual and educational changes taking place in society on the human psyche.

Research methodology. The development of ecotourism in Uzbekistan requires a comprehensive approach that is coordinated in all respects. It is necessary to involve all interested parties in this work. Only in this way will errors that may occur in the process of developing ecotourism be prevented and negative consequences will be avoided. Particular attention should be paid to local associations, the main activity of which is tourism. It should be noted that the establishment of ecotourism based on local associations is a new system that has not yet been fully tested in the conditions of Uzbekistan and involves local communities and organizations. There are currently no special credit schemes to support local associations. Financing for housing is carried out

through local authorities. Certain difficulties are encountered with investments in the Chatkal oasis and ecotourism regions, since financial benefits may only begin to accrue in the future. The development of local communities should be supported by the state and society. This issue, in particular, concerns land use, taxation, licensing and registration of economic activities, and border issues. Based on the current legislation, several options for the development of ecotourism can be proposed. Establishing a center for the development and support of ecological tourism (creating laws on tourism in specially protected natural areas, destinations, ecotourism regions, etc.); - creating an ecological tourism infrastructure (creating free tourist zones, laws on guaranteeing foreign investments attracted to the construction of tourist facilities, creating laws on supporting private entrepreneurship in tourism, etc.). Uzbekistan has great potential for the development of ecological tourism. Attractive mountains and rivers, picturesque landscapes, traditional lifestyles, historical and religious centers are the most necessary factors for ecological tourism. The development of ecotourism in Uzbekistan should become an integral part of the strategy for sustainable tourism development in the republic. The field of media literacy is of great importance in further developing such processes and increasing their effective impact on the country's economy.

Analysis and results. The aggravation of environmental problems in the 21st century - climate change, biodiversity loss, water and air pollution - requires modern scientific and technological approaches. Artificial intelligence (AI) is emerging as an advanced technology that allows for in-depth analysis of ecological processes, modeling of complex systems, and optimizing decision-making.

"Ecotourism is tourism carried out in relatively undisturbed natural areas, which does not lead to the destruction of the natural environment, its deterioration, but is based on the protection and direct contribution to the use of natural areas, and on their submission to adequate and competent management". The main task of ecotourism is to establish justice between people and nature [3]. Thus, today we can observe various interpretations of the phenomenon of ecotourism. Analyzing the history of the development of ecotourism, we can observe that some definitions of ecotourism are interpreted in a more limited way, while others are interpreted in a broader sense. In particular, we can see that several types of ecotourism are currently developing. For example, one of the most developed types of ecotourism is agrotourism, which, along with traveling to nature, allows each person to get acquainted with the activities of agriculture, farmers and farms of the region, gain a certain level of knowledge about their traditional rural labor, culture, customs, national values, applied arts, national songs and dances, local traditional holidays, and also provides an opportunity to participate in the above situations. Analysis and results. One of the main factors contributing to the development of ecotourism is the combination of the interrelationships between travel to nature and its protection. Ecotourism serves as an economic incentive for environmental protection. Another advantage is that it provides an opportunity to better understand the relationship between wildlife and the various cultural values of society and to obtain more information about it. The main task is to create a mechanism for making the ecotourism sector commercially viable, environmentally sustainable, and responsibly approach culture. In our country, the development of the tourism sector has also become one of the main priorities of state policy. In this regard, the head of our state, Shavkat Mirziyoyev, draws special attention to this area, saying: "Today, the state policy pursued in this area is aimed at the comprehensive and accelerated development of regions and

their infrastructure in the future, solving urgent socio-economic tasks, increasing jobs, ensuring diversification and development of regions, increasing the incomes, living standards and quality of life of the population, and improving the investment attractiveness and image of the country. Turning tourism into a strategic sector of the economy remains a priority for us. One of the most important tasks facing the government is to increase the number of tourists visiting our country to 10 million in the coming years", [4]. This situation certainly requires the improvement of tourism infrastructure in order to provide tourists with all-round convenience. Tourism infrastructure is understood as a system of buildings, engineering and communication networks, including roads, various tourism enterprises and their activities, as well as other systems that ensure the free use of tourism resources by tourists. Among these, one can mention systems regulating the movement of highways, railways, air routes, sea and river routes, heat, electricity and telephone communications. One of the main factors contributing to the development of ecotourism is the combination of interrelationships associated with travel to nature and its protection. Ecotourism serves as an economic incentive for environmental protection. Another advantage is that it provides a better understanding and information about the relationship between wildlife and the diverse cultural values of society. The main task is to create a mechanism for the ecotourism sector to be commercially viable, environmentally sustainable, and culturally responsible. Tourism planners, tour operators, managers, marketers, and the media have used the term "ecotourism" in a much broader sense. As a result, this concept has been applied to a number of tourism products. Unfortunately, they do not logically fit into the definitions given above. "Ecotourism" The broad use of the term ecotourism has led to controversy and has led to the use of other terms, such as "sustainable tourism", "minimum impact tourism", "partnership tourism", "responsible tourism". However, none of these terms or their equivalents can clearly define the boundary between ecotourism and other types of tourism. In recent years, due to the widespread increase in environmental problems around the world, including in our country, along with the formation, strengthening and promotion of the rights of each person to a favorable natural environment, issues related to the systematic establishment and effective use of ecotourism activities are also emerging. Ecological culture is a component of human culture as a whole, reflected as a product of the material and spiritual environment [6].

Conclusion. However, today the participation of environmental public organizations in solving these problems cannot be considered satisfactory. In this sense, in order for our country to effectively use the opportunities of ecotourism and transform it into a wide public, it is necessary to effectively use the tasks of environmental public associations and non-governmental non-profit organizations in this regard. As the first President of the Republic of Uzbekistan Islam Karimov noted: "The goal of developing non-governmental and public organizations is to ensure and protect the balance of interests of society members. As an alternative force to state systems in the political and social spheres, they should contribute to the dominance of the scales of justice in life" [2]. Also, as the President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev emphasized regarding the importance of non-governmental non-profit organizations today, "It is worth emphasizing that the place and role of non-governmental non-profit organizations in the reforms we are implementing to build a free civil society and protect human rights and freedoms is unparalleled." After all, the role of ecological communities and non-governmental non-profit organizations, along with tourism organizations, in fully utilizing the internal potential of the country's ecotourism

remains unparalleled. In this sense, it is worth noting that the Program and Concept on "Prospects for the Development of Environmental Education in the Republic and Further Improvement of the System of Training, Retraining and Advanced Training of Environmental Personnel" were adopted on November 7, 2005 by a joint resolution of the Ministry of Higher and Secondary Specialized Education of the Republic of Uzbekistan, the Ministry of Public Education, and the State Committee for Nature Protection (currently the State Committee for Ecology and Environmental Protection of the Republic of Uzbekistan). This is important in ensuring the need for environmental personnel, in particular, personnel directly involved in ecotourism activities. Uzbek researcher O.H.Khamidov in one of his scientific articles states that "Ecological tourism is based on the development of an integral connection and direct communication between people and nature, and on the provision of comfort, support, energy, knowledge, and large income for organizers, as well as active

recreation while maintaining ecological and economic stability and balance" [5]. Indeed, today the development of ecotourism is one of the most urgent issues and serves as one of the most important factors ensuring the ecological and natural environment and economic stability of the country. In particular, research on issues such as the socio-economic problems of ecotourism, the impact of ecotourism on nature, the sustainable development of ecotourism, and the possibilities of ecotourism are gaining significant importance. Conclusions and suggestions. It is clear that the main goal of developing ecotourism is to educate the individual and thereby preserve the stability of the natural environment. From this perspective, in recent years, significant work has been carried out in our country to develop tourism, especially ecotourism. Since the ecological legal literacy of each individual is directly important in the development of ecotourism, today there is a need to raise the ecological legal awareness of the individual in the development of modern ecotourism.

REFERENCES

1. Evans-Pritchard, D. and Salazar, S. (1992), "What is Ecotourism?" Eco-Institute of Costa Rica and ULACIT. – P.17
2. Karimov I.A. Uzbekistan on the threshold of the 21st century: security threats, conditions for stability and guarantees of development. – Tashkent: Uzbekistan, 1997. – P. 112-113.
3. Mayra Sanchez Morgan, Doctor of Philosophy dissertation on "Ecotourism and Women's Empowerment: A Case Study in Quintana Roo Mexico" Michigan Technological University, 2019. <https://doi.org/10.37099/mtu.dc.etdr/971>.
4. Mirziyoyev Sh.M. New Uzbekistan strategy. Tashkent, Uzbekistan, 2021, pp. 173-174.
5. Khamidov O.H. Scientific electronic journal "Economics and innovative technologies". - Tashkent, 2015. - No. 2. - P. 1.
6. Sh.Otaboyev, S.Mirvaliyev and E. Tursunov - Problems of culture and spirituality in ecology. T.: "Nishon noshir" publishing house, 2009, pp. 249- 250



Anorgul ASHIROVA,

Ma'mun universiteti Aniq fanlar kafedrasida pedagogika fanlari nomzodi, professori v.b.

E-mail: anorgul76@gmail.com

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Yaxshilov taqrizi asosida

TALABALARNI NEYROTARMOQ MODEL ASOSIDA O'QITISHNING DIDAKTIK TIZIMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarni o'qitish jarayoniga neyrotarmoq modellari va sun'iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritiladi. Tadqiqotda o'quv jarayonini individuallashtirish, talabalarning bilim darajasini avtomatik baholash, o'quv materiallarini moslashtirish va samaradorlikni oshirishda sun'iy neyron tarmoqlarning roli tahlil qilinadi. Taklif etilgan neyrotarmoq asosidagi o'qitish tizimi talabalarning o'quv faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish, bilim bo'shliqlarini aniqlash va shaxsiy ta'lim yo'l xaritasini shakllantirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Neyrotarmoq, sun'iy intellekt, ta'lim tizimi, raqamli pedagogika, adaptiv o'qitish, avtomatik baholash, individuallashtirilgan ta'lim, o'quv jarayoni optimallashtirish.

ДИДАКТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ НЕЙРОСЕТОВОЙ МОДЕЛИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты применения нейросетевых моделей и технологий искусственного интеллекта в процессе обучения студентов. В исследовании анализируется роль искусственных нейронных сетей в индивидуализации процесса обучения, автоматической оценке уровня знаний студентов, адаптации учебных материалов и повышении эффективности. Предлагаемая система обучения на основе нейронных сетей позволяет осуществлять мониторинг учебной деятельности студентов в режиме реального времени, выявлять пробелы в знаниях и формировать индивидуальную дорожную карту обучения.

Ключевые слова: Нейронная сеть, искусственный интеллект, образовательная система, цифровая педагогика, адаптивное обучение, автоматическая оценка, индивидуализированное обучение, оптимизация процесса обучения.

DIDACTIC SYSTEM FOR TEACHING STUDENTS BASED ON A NEURAL NETWORK MODEL

Annotation

This article examines the theoretical and practical aspects of using neural network models and artificial intelligence technologies in student learning. The study analyzes the role of artificial neural networks in individualizing the learning process, automatically assessing student knowledge, adapting learning materials, and improving efficiency. The proposed neural network-based learning system enables real-time monitoring of student learning activities, identifying knowledge gaps, and creating a personalized learning roadmap.

Key words: Neural network, artificial intelligence, educational system, digital pedagogy, adaptive learning, automatic assessment, individualized learning, learning process optimization.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning jadal joriy etilishi o'qitishning yangi shakl va modellari paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, neyrotarmoq modellari ta'lim tizimida ma'lumotlarni qayta ishlash, talabalar faoliyatini avtomatik tahlil qilish va individual ta'lim trayektoriyalarini yaratishda katta imkoniyatlarga ega. Didaktik tizimning zamonaviy talqini o'qitishni shaxsga yo'naltirilgan, moslashuvchan va natijador bo'lishini talab etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi - talabalarning bilim olish jarayonini neyrotarmoq modeli asosida tashkil etuvchi didaktik tizimni ishlab chiqish va uning samaradorligini asoslashdir. Ta'lim sohasidagi intellektuallashtirish yo'nalishlaridan bittasi, dastavval ta'lim jarayonida bilim olishni jadallashtirish, ta'lim sifatini faollashtirish, o'quv dasturlarining tarkibini yanada takomillashtirish, tuzatishlar kiritish maqsadida o'quv jarayonidagi talabalarning o'zlashtirish, bilim olish darajalarinin nazorat qilish, tahlil qilish jarayonlarini avtomatlashtirishdan iboratdir. Intellektual tizimlar masofaviy ta'lim jarayonini tashkil qilishda ham faol ishlatilishi mumkin. Amaliyotda neyrotarmoq tizimlari juda keng qo'llanilishi mumkin, chunonchi insonning miya faoliyatini modellashtirish

uchun, yani axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash va samarali yechim qabul qilish.

Adabiyotlar tahlili. Neyron tarmoqlarni o'qitish jarayoniga tatbiq etish bo'yicha xorijiy tadqiqotlar avvalo ularning prognozlash, tasniflash va murakkab pedagogik vazifalarni avtomatlashtirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Xususan, M. Jordan va Y. LeCun kabi tadqiqotchilar sun'iy neyron tarmoqlarning o'quvchilar xatti-harakatlari va bilim darajasini tahlil qilishdagi imkoniyatlarini asoslab bergan. Ularning fikricha, neyrotarmoq modellarning moslashuvchanligi didaktik jarayonning shaxsga yo'naltirilganligini kuchaytiradi. Sun'iy intellekt yordamida baholash va monitoring bo'yicha ilmiy ishlar (Luckin, Holmes, 2021) ta'lim jarayonida o'qituvchiga yordam beruvchi analitik tizimlarning ahamiyatini yoritadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, neyrotarmoq asosidagi baholash tizimlari o'quvchilar javoblarini tezkor va xolis qayta ishlaydi, bilim bo'shliqlarini aniq aniqlaydi va o'quv jarayonini optimallashtiradi.

O'zbekiston va Markaziy Osiyo olimlarining so'nggi tadqiqotlarida ta'limni raqamlashtirish, sun'iy intellektni o'qitish jarayoniga joriy etish, elektron ta'lim platformalarini

takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar mavjud. Mahalliy tadqiqotchilar (A. Yo'ldoshev, Sh. Shorahmetov, M. Abdurahmonov va boshqalar) ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda AKT va sun'iy intellektning didaktik ahamiyatini asoslagan. Biroq, neyrotarmoq modellardan bevosita foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar kam

Tadqiqot metodologiyasi. Intellektual tizimlarni yaratishda shunday imkoniyatlar mavjudki, ayrim jihati insonni, mutaxassisni o'ziga jalb qiluvchi g'oyasi mavjud, yani birorta alohida pedagogga xos bo'lgan bilim olish jarayonining darajasini, talabning olgan bilimimning salohatiyani sifatini baholashning no'ananiy uslublarini, metodikalarini kasbdosh pedagoglar ommasiga nusxalab, ko'paytirib tarqatishda foydalanish mumkin. Bundan kelib chiqadigan maqsad, asosan novator pedagoglarning innovatsion ishlanmalarini talabning mustaqil ta'lim olish, amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarida nazariy mashg'ulotlarni o'zlashtirishi, xuddi shunday guruhlarni, alohida olingan individlarni (iqtidorli, iste'dodli talabalarni) o'qitish strategiyasiga tuzatishlar kiritish natijasida o'qitish jarayonini yanada faollashtirishdan iborat. Olib borilayotgan tadqiqot yangiligi, ilmiyligi o'qitish sifatini baholash, tahlil qilish, yangi yechimlarni taklif qilishni amalga oshirishni shakllantirish va o'qitish uchun asos bo'ladigan neyrotarmoq tizimining ilmiy-metodik apparatini yaratishdan iboratdir. Shu boisdan ham mazkur ishda Ta'lim nazariyasi fanining o'quv materiallarini mantiqli graf sxemasini ishlab chiqish metodikasini yaratdik. Bu o'quv elementi va tayanch tushunchalarga asoslangan metodika neyrotarmoq tizimning asosiy elementlarini tashkil qiladi. Chunki o'qitishning talabning bilimni nazorat qilishining neyrotarmoq tizimi mantiqiy tugallangan tushunchalar modular asosida ishlab chiqilgan mantiqiy qonun qoidalar majmuasi asosida faoliyat ko'rsatadi.

Bilimni nazorat qilishni avtomatlashtirish masalasini yechish uchun mo'ljallangan sun'iy neyron to'rlarini o'rganishda, tahlil qilishda shunga e'tibor berish kerakki, yani insonlarni o'qitish tajribasini umumlashtirish biologik neyron to'rlari egallagan imkoniyatlar, na faqat ta'lim tizimida qo'llaniladigan suniy neyron to'rlarini o'quv jarayoniga qo'llashning juda ko'p analoglarini keltirish mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanish bosqichida, juda muhim hisoblanadigan o'qitishning psixologik-pedagogik jabhalarining yangi qirralarini o'rganish, izlanishlar olib borish zarur.

Bilimni baholashning klassik tizimi doimo jamiyatning turli qatlamlarining juda katta e'tiborida bo'lgan, bu shaxsning juda ko'p sifatlarini baholashning o'lchov birligi bo'lib hisoblangan mansab pog'onalariga ko'tarilishga ta'sir qilgan, taqdirlash o'lchovi, mezon bo'lgan, ma'lumoti haqidagi rasmiy xujjat, diplomga o'qish davomida olgan baholari ko'rsatilgan ilova berilgan.

Ilmiy nuqtai nazardan hozirgi paytda talabning bilimni baholash tizimi uzoq yillar davomida shakllangan va rivojlangan ko'p mezonli tizim hisoblanadi. Shu boisdan ham mazkur baholash tizimi talabning bilimni baholashda uning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi, ishbilarmonligi va ma'naviy sifatleri, hamda uning komil inson bo'lib rivojlanish darajalari hihobga olinadi. Mazkur baholash tizimini tahlil qilish natijasida, unda talabning olgan bilim darajasini baholash uchun bir qancha amaliy mezonlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Talaba tomonidan bajariladigan har bir topshiriq, yechiladigan bir masalani soda topshiriqlar to'plamiga ajratilishi mumkin. Natijada ularni baholash soddaga topshiriqlarni baholash uchun boshqa birorta ko'p mezonli baholash usullaridan foydalanish imkoniyati tug'iladi. Talabning yakuniy bahosi har bir soda topshiriqlarning vazn koeffitsientlarini hisobga olgan holda

baholangan barcha baholarning umumiy yig'indisi ko'rinishida tavsiflanadi. Neyron to'rlari deganda inson miyasida kechadigan assotsiativ jarayonlarni oddiy biologik jarayonlarni modellashtiruvchi hisoblash strukturalari tushuniladi. Neyron to'rlari taqsimlangan parallel ko'rinishida bo'lib, ijobiy va salbiy ta'sirlarni tahlil qilish yo'li bilan adaptive o'qitishga moslashgan. Bunday to'rlardagi elementar o'zgartirishlarni amalga oshiruvchini, biologik o'xshashlik nuqtai nazaridan, sun'iy neyron yoki odatdagi neyron deb atashadi.

Neyron to'ringining strukturasi tanlash bilimni nazorat qilish masalasining murakkabligi va xususiyatlariga mos ravishda olib boriladi. Agar yechiladigan masala mavjud bo'lsa neyron to'rlarining birirrasining konfiguratsiyasiga mos kelmasa, u holda bunday murakkab masala uchun neyron to'ringining yangi konfiguratsiyasi sintez qilinadi. Bunday holatlarda quyidagi asosiy qoidalarga holatlarga e'tiborni qarotish zarur:

To'rdagi neyronlarning sonini ko'payishi, ular orasidagi bog'lanishlarning zichligi va qatlamlar sonining ortishi bilano'ning imkoniyatlari ortadi;

To'ring imkoniyatlarini ortishi bilan bog'liq holda teskari bog'lanishlarni kiritish to'ring dinamik turg'unligi masalasini keltirib chiqaradi;

To'ring faoliyatini ifodalovchi algoritmnining murakkabligi, bir qancha tipdagi sinapslarning kiritilishi neyron to'ring quvvatini, imkoniyatlarini oshishiga sababchi bo'ladi.

Dastlabki intellektual tizimlar asosan klassifikatsiya masalalarini yechish uchun binar shkala, yani ikkita holatli qarama-qarshi tarqalgan neyron to'rlari asosida qurilgan. Qarama-qarshi tarqalgan neyron to'rlari Koxonen va GROSSBERG deb ataluvchi neyronlar qatlamidan tashkil topgan bo'lib, o'zining xarakteristikalarini bo'yicha bitta yashirin qatlamli neyronlar to'ring imkoniyatlaridan juda yuqori bo'ladi. Demak, obrazlarni anglash va klasterizatsiya masalalarini yechishni o'qitish vaqti teskari tarqaladigan neyron to'rida shunga o'xshash masalalarni yechishni o'qitish vaqtiga qaraganda ko'pi bilan yuz marta kamdir.

Bilimni nazorat qilish uchun yaratilgan intellektual tizimning amaliy qiymatini yuksakligi bilan bir qatorda, insonni shunday o'xshash masalalarni yechishdagi barcha o'zaro bog'lanishlarni hisobga olgan holda sun'iy tizimlarni o'qitish protseduralarini amalga oshiruvchi barcha jabhalarini ilmiy o'rganish, izlanishlar olib borish juda muhim metodik masala hisoblanadi. Pedagogika ilmiy o'qitish o'z o'rnini topgan va juda keng ishlatiladigan termindir. O'qitish deganda ta'lim olishning asosiy yo'lini, pedagoglar, masterlar (ustalar), ustozlar va boshqalar rahbarligida bilimlarni, bajara olishni va ko'nikmalarni egallash jarayoni tushuniladi. Ta'lim olish mobaynida o'quvchi ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi, obyektiv borliqqa bo'lgan qimmatli-emotsiyali munosabatlari shakllanadi. Xuddi shunday "O'qitish termini" sun'iy intellekt tizimlarini qurish amaliyoti va nazariyasida ham o'z o'rnini topgan va undan tizimlarni o'qitish nazariyasining ilmiy-metodologik apparatini juda ham ko'p boyitishi mumkin. Sun'iy neyron to'rlarining rivojlanishida yangi rezonans (jonlanish) 1984 yildagi metod. Metod juda samarali hisoblandi va xalq xo'jaligining turli sohalarida neyron to'rlarini qo'llash bo'yicha ommaviy ilmiy izlanishlarni olib borishga asos bo'ldi [2].

Natija va muhokamalar. Neyron to'rlarini amaliy ilmiy-texnikaviy ilovalarga taqbiq qilish xususiyatlarini o'rganish tajribasi suniy neyron to'rlarini o'qitish prosedurasini amalga oshirish va pedagogika ilmiy nazariyasiga mos ravishda talabalarni o'qitish prosedurasining o'xshashligini namoyon etmoqda. Ko'p jihatdan pedagogning ustamonligi,

misollarning asosiy bog'lanishlarini aniqlashga yoki yechimga olib boradigan asosiy yondashuvlarga yo'naltirilgan o'qitishning qanday qurilganligida, misollarni tanlash va o'zlashtirish darajasini nazorat qilishga bog'liq. [4,5].

Har bir talabaning "Ta'lim nazariyasi" fanidan har bir mavzuni o'zlashtirishini quyidagicha baholaymiz:

$R = \{R1, R2, R3, R4, R5\} = \{a'lo, yaxshi, qoniqarli, deyarli qoniqarli, qoniqarsiz\}$.

Guruhdagi talabalar bo'yicha o'zlashtirish jarayonining tahlil qilish natijasida talabaning bilimi bo'yicha quyidagi yechimlarni beruvchi mantiqiy fikrlash -predikatlar sistemasi hosil qilinadi:

If $A1 \wedge B1 \wedge (C1 \vee C2 \vee C3 \vee C4 \vee C5)$ then $R1$;
 If $A1 \wedge B1 \wedge (C1 \vee C2 \vee C3)$ then $R2$;
 If $A1 \wedge B \wedge (C4 \vee C5)$ then $R3$;
 If $A1 \wedge B1 \wedge (C1 \vee C2 \vee C3 \vee C4)$ then $R4$;
 If $A1 \wedge (B1) \wedge (C1 \vee C2 \vee C3 \vee C4 \vee C5)$ then $R5$;

(1)

Bunday rasmiylashtirishda birinchi va ikkinchi predikatlar quyidagilarni bildiradi:

Agar A1 talaba B1 ma'ruzadan C1 ёки C2 ёки C3 ёки C4 ёки C5 o'quv elementlari bo'yicha o'rgansa va shu bilim o'zlashtirsa, maslahat olsa, uning bilimi R1 baho bilan baholanadi;

Agar A1 talaba B1 ma'ruzadan C1 ёки C2 ёки C3 o'quv elementlari bo'yicha o'rgansa va shu bilim o'zlashtirsa, maslahat olsa, uning bilimi R2 baho bilan baholanadi;

Agar A1 talaba B1 ma'ruzadan C4 ёки C5 o'quv elementlari bo'yicha o'rgansa va shu bilim o'zlashtirsa, maslahat olsa, uning blimi R3 baho bilan baholanadi;


Agar A1 talaba B1 ma'ruzadan C1 ёки C2 ёки C3 ёки C4 o'quv elementlari bo'yicha o'rgansa va shu bilim o'zlashtirsa, maslahat olsa, uning bilimi R4 baho bilan baholanadi;

Bu yerda C predikat o'qituvchi tomonidan belgilangan, eng muhim o'quv elementlari hisoblanib, berilgan mavzudagi barcha o'quv elementlaridan shularni talaba o'zlashtirishi shart, o'zlashtirmasa mavzu o'zlashtirilmagan hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarqalgan tizimi klassifikatsiya masalalarini yechishdir, yani talabaning bilim darajasini u yoki boshqa klassga mansubligini aniqlash(masalan, tipik baholash klasslari «R1-qoniqarsiz», «R2-qoniqarli», «R3-yaxshi», «R4-a'lo»).

$R = \{R1 \vee R2 \vee R3 \vee R4\}$


Bunday baholashda mumkin bo'lgan barcha holatlarni ko'rib chiqish va tahlil qilish natijasida, bir xil yechim qabul qilishni hisobga olgan holda, mantiqli fikr yuritish tizimini hosil qilamiz.




1-rasm. Neyrotarmoq o'qitish platforma

Neyrotarmoq modeli asosida o'qitish platformasida ham barcha mavzularni o'quv elementlari aniqlanadi Bu o'quv elementlari qaysi biri muhim va qaysi biri muhim emasligi tizimga kiritiladi. Muhim o'quv elementlarini talaba o'zlashtirishi shart bo'lganligi sababli, talaba o'quv elementlardan muhim deb belgilangan biror o'quv elementini


o'zlashtirmasa talabaga o'zlashtirmagan muhim o'quv elementini o'zlashtirishi uchun maslahat beradi. Bunda talaba muhim elementlarning barchasi o'zlashtirsa, talaba keying mavzuni o'qishi mumkin, aks holda talaba keying mavzuga o'ta olmaydi.



2-rasm. Neyrotarmoq o'qitish tizimiga dars qo'shish muloqot oynasi



4-rasm. Neyrotarmoq o'qitish tizimiga dars qo'shishda dars materialini qiyinlik darajasi muloqot oynasi



5-rasm Dars yaratilishi

Dars yaratishda o'qituvchi darsga mos tasvirni ham kiritadi. Har bir dars mavzusiga mos tasvir dars haqida qisqacha ma'lumotni o'zida aks ettiradi.

Xulosa. Neyrotarmoq modeli asosida o'qitish tizimi esa ilg'or sun'iy intellekt yondashuvlariga tayangan holda o'quv jarayonini avtomatlashtirish va personalizatsiyalashga qaratilgan. Neyrotarmoqlar yordamida o'quvchilarning bilim darajasi, xatolar tahlili, o'quv faoliyati dinamikasi aniqlanib, ularga mos o'quv strategiyasi shakllantiriladi. Bu yondashuv informatika o'qituvchilarining texnologik savodxonligini oshirish, raqamli fikrlashni rivojlantirish hamda o'quv jarayonida AI asosidagi vositalardan samarali foydalanishga imkon yaratadi.

Umuman olganda, ushbu bobda ishlab chiqilgan didaktik tizim va modellarning uyg'unligi informatika o'qituvchilari kasbiy kompetentligini takomillashtirishga

kompleks yondashuvni shakllantiradi. Moslashuvchan, qat'iy va neyrotarmoq modellarining integratsiyasi natijasida talabalarning o'quv faoliyati individual, dinamik va tahliliy asosda tashkil etiladi. Natijada, bo'lajak informatika o'qituvchilari zamonaviy raqamli muhitda ishlash, ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etish va o'quvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga tayyor bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar sifatida yetishib chiqadilar. Tadqiqotning asosiy xulosasi shundan iboratki, neyrotarmoq modeli asosida yaratilgan didaktik o'qitish tizimi ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, moslashuvchan va samarali holatga keltiradi. Ushbu yondashuv talabalarning bilim olish jarayonini jadallashtiradi, o'quv natijalarini yaxshilaydi va raqamli pedagogikaning imkoniyatlarini to'liq ishga soladi. Kelgusida tizimning boshqa fanlar va ta'lim bosqichlarida qo'llash imkoniyatlarini o'rganish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. LeCun, Y., Bengio, Y., Hinton, G. Deep learning // Nature. – 2015. – №521. – B. 436–444.
2. Brusilovsky, P. Adaptive and intelligent technologies for web-based education // International Journal of Artificial Intelligence in Education. – 2018. – Vol. 29(2). – P. 1–28.
3. Baker, R., Siemens, G. Learning analytics and educational data mining: Towards communication and collaboration // Proceedings of the 10th International Conference on Educational Data Mining. – 2020. – P. 1–10.
4. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., Forcier, L. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. – London: Pearson Publishing, 2021. – 56 b.
5. Abdurahmonov, M. Raqamli pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2021. – 210 b.
6. Ashirova A., Yusupov D. Neyrotarmoq texnologiyasi asosida baholash jarayonini avtomatlashtirish. -UzMU xabarlari.2025. №1/4/1-B.62-64.



UDK:182.2.(2).

Xurshida ASHUROVA,

SamDCHTI "Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari" kafedrası v.b. professori

E-mail: xurshidashurova01@gmail.com

SamDCHTI professori Yu.Xoliqov taqrizi asosida

TIL O‘YINLARI VA “MEN” TUSHUNCHASINING GRAMMATIK ILLYUZIYASI: D. YUM DAN L. VITGENSHTEYNGACHA BO‘LGAN GNOSEOLOGIK EVOLYUTSIYA

Аннотация

Ushbu maqola shaxsiy identifikatsiya va “Men” fenomenini an’anaviy ontologik yondashuvdan farqli o‘laroq, lingvistik va gnoseologik tahlil obyekti sifatida o‘rganadi. Tadqiqotning markaziy nuqtasi – Devid Yumning empirik skeptitsizmi va uning XX-asr analitik falsafasi, xususan, Lyudvig Vitgenshteynning “til o‘yinlari” nazariyasiga ta’siridir. Maqolada “Men” (Self) tushunchasi real mavjud substansiya emas, balki til qoidalaridan kelib chiquvchi grammatik odat ekanligi asoslanadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, insonning o‘zligini anglashi ichki ruhiy jarayon emas, balki ijtimoiy-lingvistik amaliyotning mahsulidir.

Kalit so‘zlar: Devid Yum, Lyudvig Vitgenshteyn, analitik falsafa, “Men” fenomeni, til o‘yinlari, substansiya, grammatik illyuziya, introspeksiya, idroklar bog‘lami.

ЯЗЫКОВЫЕ ИГРЫ И ГРАММАТИЧЕСКАЯ ИЛЛЮЗИЯ ПОНЯТИЯ «Я»: ГНОЗОЛОГИЧЕСКАЯ ЭВОЛЮЦИЯ ОТ Д. ЮМА ДО Л. ВИТГЕНШТЕЙНА

Аннотация

В этой статье исследуется явление личной идентичности и «Я» как объект лингвистического и гнозологического анализа в противовес традиционному онтологическому подходу. Центральным элементом исследования является эмпирический скептицизм Дэвида Юма и его влияние на аналитическую философию XX века, в частности на теорию «языковых игр» Людвиг Витгенштейна. В статье утверждается, что понятие «Я» (Я) не является реальным настоящим субстанцией, а грамматической привычкой, вытекающей из правил языка. Результаты анализа показывают, что самовосприятие человека не является внутренним умственным процессом, а продуктом социолингвистической практики.

Ключевые слова: Дэвид Юм, Людвиг Витгенштейн, аналитическая философия, феномен «Я», языковые игры, субстанции, грамматическая иллюзия, интроспекция, связь восприятия.

LANGUAGE GAMES AND THE GRAMMATICAL ILLUSION OF THE CONCEPT OF "I": GNOSEOLOGICAL EVOLUTION FROM D. YUM TO L. WITTGENSTEIN

Annotation

This article explores the phenomenon of personal identity and "I" as an object of linguistic and gnoseological analysis, in contrast to the traditional ontological approach. A central point of the study is the empirical skepticism of David Hume and his influence on twentieth-century analytic philosophy, in particular Ludwig Wittgenstein's theory of "language games." The article argues that the concept of "I" (Self) is not a real-present substance, but a grammatical habit that follows from the rules of language. The results of the analysis show that a person's self-perception is not an internal mental process, but a product of socio-linguistic practice.

Key words: David Hume, Ludwig Wittgenstein, analytic philosophy, the phenomenon of "I", language games, substance, grammatical illusion, introspection, connection of perceptions.

Kirish. Falsafa tarixi davomida inson o‘zining kim ekanligini anglashga intilib kelgan. Klassik metafizika, xususan, Rene Dekartning “Cogito, ergo sum” (Fikrlayman, demak mavjudman) tamoyilidan so‘ng, G‘arb falsafasida “Men” – bu fikrlovchi, bo‘linmas va o‘zgarmas ruhiy substansiya, degan qarash hukmronlik qildi. Biroq XVIII-asrga kelib, empirik falsafa vakillari, xususan, shotlandiyalik faylasuf Devid Yum bu poydevorga jiddiy zarba berdi.

D.Yumning inqilobiy g‘oyasi shundan iborat ediki, u “Men” muammosini borliq (ontologiya) sohasidan bilish va til (gnoseologiya va lingvistik) sohasiga ko‘chirdi. Agar biz o‘z ichki dunyomizga nazar tashlasak, hech qanday “ruh”ni ko‘rmaymiz, faqat o‘zgaruvchan hislar oqimini ko‘ramiz. Unda nima uchun biz o‘zimizni butun umr “bitta odam”, deb hisoblaymiz? Yumning javobi kutilmagan edi: bizning tilimiz va tafakkur odatlarimizning natijasidir.

Mazkur, maqolaning maqsadi D. Yumning “Men”ni inkor etuvchi qarashlari qanday qilib XX-asr analitik falsafasida, jo‘mladan, L. Vitgenshteyn asarlarida lingvistik

tahlilga aylanganini ko‘rsatib berishdir. Biz shaxsiyatning metafizik haqiqat emas, balki “grammatik illyuziya” ekanligini ilmiy asoslashga harakat qilamiz. Bu yondashuv nafaqat falsafiy, balki zamonaviy psixologiya va kognitiv fanlar uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki u inson ongining qanday ishlashini tushunishga yangicha nuqtai nazar beradi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuni yoritishda foydalanilgan asosiy manbalar ekzistensial va analitik falsafaning qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlardir.

Klassik empirizm: D. Yum merosi: Adabiyotlarda Devid Yumning “Inson tabiati haqida risola” asari shaxsiyat nazariyasidagi burilish nuqtasi sifatida baholanadi. D. Yum - J. Lokk va J. Berkli an‘analarini davom ettirib, moddiy va ruhiy substansiyani inkor etadi. Tadqiqotchilar N. Kemp-Smit va boshqalar D.Yumning skeptitsizmi shunchaki inkor emas, balki “inson tabiatini” tushunishning yangi modeli ekanligini ta’kidlaydilar. D.Yumga ko‘ra, biz “Men”, deb ataydigan narsa aslida “idroklar bog‘lami” bo‘lib, ularni birlashtirib turuvchi kuch – bu bizning tasavvurimiz va odatlarimizdir.

Analitik an'ana va Vitgenshteyn: Maqolada foydalanilgan manbalar D. Yumning qarashlarini XX-asr avstriyalik faylasufi Lyudvig Vitgenshteynning "Mantiqiy-falsafiy traktat" va "Falsafiy tadqiqotlar" asarlari bilan bog'laydi. Vitgenshteyn falsafiy muammolarni "tilning tatilga chiqishi" natijasida paydo bo'lgan chalkashliklar, deb ataydi. Adabiyotlarda keltirilishicha, D.Yumning "Men"ni falsafiy emas, grammatik muammo, deb atashi Vitgenshteynning "til o'yinlari" nazariyasiga zamin yaratgan [1].

Zamonaviy talqinlar: D. Parfit kabi zamonaviy analitik faylasuflar D. Yum g'oyalarini rivojlantirib, "Egologik bo'lmagan" (Non-egological) shaxsiyat konsepsiyasini ilgari suradilar. Ularning fikricha, shaxsiy identifikatsiya uchun xotira yoki ruhning mavjudligi shart emas, muhimi – psixologik bog'liqlik va davomiylikdir. Bu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "Men" tushunchasi asrlar davomida "muqaddas javhar"dan "funktional lingvistik birlik" darajasiga tushirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu maqolada quyidagi ilmiy-falsafiy metodlardan foydalanilgan: Qiyosiy-tarixiy tahlil: D. Yumning XVIII-asrdagi empirik qarashlari va L. Vitgenshteynning XX-asrdagi lingvistik falsafasi o'rtasidagi tarixiy va mantiqiy bog'liqlikni aniqlash. Matniy germevntika: Birlamchi manba (taqdim etilgan matn va D. Yumning "Risola"si)dagi asosiy tushunchalar – "idrok", "substansiya", "xotira", "grammatik muammo" tushunchalarini chuqur talqin qilish. Lingvistik tahlil: "Men" olmoshining tildagi funksiyasi va uning ontologik maqomini farqlash. Tilning sintaktik tuzilishi (ega-kesim) bizning borliq haqidagi tasavvurlarimizni qanday chalgitishini o'rganish. Rekonstruksiya metodi: Analitik falsafa nuqtai nazaridan shaxsiyatning shakllanish modelini qayta tiklash. Substansiyaning Dekonstruksiya: "Teatr" analogiyasi va uning lingvistik talqini Devid Yum o'zining "Inson tabiati haqida risola"sida inson ongini teatr sahnasiga o'xshatadi: "Ong – bu o'ziga xos teatr bo'lib, unda turli xil idroklar navbatma-navbat paydo bo'ladi, o'tadi, qaytadi va cheksiz xilma-xil holatlarda aralashib ketadi".

Ushbu analogiyani lingvistik tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi natijalarga kelamiz: Otlashtirish (Reification) xatosi: Tilda biz jarayonlarni otlar orqali ifodalashga moyilmiz. Masalan, "shamol esyapti" deymiz. Aslida "esish" jarayonidan tashqari "shamol" degan alohida obyekt yo'q. Xuddi shunday, "Men o'ylayapman" deganda, biz "o'ylash" jarayonidan tashqari "Men" degan alohida substansiya borligiga ishonamiz. Bu – tilning bizga o'tkazadigan ontologik aldovidir.

Statik "Ega" muammosi: Grammatikada ega (subyekt) har doim kesimdan (harakatdan) oldin keladi va barqaror hisoblanadi. Falsafada ham biz "Men"ni o'zgaruvchan tajribalardan ustun turuvchi barqaror zamin deb o'ylaymiz. Yum va keyinchalik Vitgenshteyn ko'rsatadiki, tildagi bu barqarorlik haqiqatdagi barqarorlikni anglatmaydi. "Men" so'zi – bu shunchaki ko'plab tajribalarni bitta to'plamga bog'lash uchun ishlatiladigan "ip"dir. Vitgenshteynning "Xususiy til" argumenti va "Men"ning ijtimoiy tabiati agar D. Yum "Men"ni ichki idroklar oqimi sifatida ko'rgan bo'lsa, L. Vitgenshteyn masalani tashqi ijtimoiy muhitga olib chiqadi. Uning mashhur "Xususiy til argumenti" shuni ko'rsatadiki, faqat bitta odam tushunadigan til bo'lishi mumkin emas.

Bu shaxsiyat masalasiga qanday ta'sir qiladi? Og'riq misoli: Agar men "Menda tish og'rig'i bor" desam, men o'z ichimga qarab sirlı narsani kashf etmayapman. Men jamiyatda o'rgangan til qoidasini qo'llayapman. Bola yig'laganda, kattalar unga "Sening joying og'riyaptimi?", deb so'rashadi va bola o'z hissiyotini "Men" so'zi bilan bog'lashni o'rganadi. Natija: "Men" – bu tug'ma ichki tuyg'u emas, balki o'zlashtirilgan ijtimoiy vositadir. Biz "Men" so'zini ishlatish orqali jamiyatdagi mas'uliyat va huquqlar tizimiga kiramiz. Shaxsiyat – bu ijtimoiy o'yin (social game) ishtirokchisi bo'lish

uchun kiyiladigan "niqob" (persona)dir. Indeksikal funksiya: "Men" ko'rsatkich sifatida analitik falsafada R. Karnap va B. Rassel g'oyalariga tayanib, "Men" olmoshining indeksikal tabiatini tahlil qilish muhimdir. "Bu yerda" so'zi joyni bildiradi, lekin u doim o'zgarib turadi (qayerda turganimga qarab). "Hozir" so'zi vaqtini bildiradi, lekin u har soniyada o'zgaradi. "Men" so'zi ham xuddi shunday: u hech qanday doimiy mazmunga ega emas. U shunchaki so'zlovchining o'z tanasi va nutqiga ishora qilish koordinatasidir.

Yumning "idroklar bog'lami" nazariyasi bu yerda mukammal lingvistik izohini topadi: Idroklar oqimi doimiy o'zgaradi, lekin biz har bir lahzada bu oqimga ishora qilish uchun bitta o'zgarmas belgidan ("Men" so'zidan) foydalanamiz. Bu bizda "o'zgarmas shaxs" bor, degan illyuziyani mustahkamlaydi.

Narrativ o'zlik: Grammatikadan hikoyaga tilning sintaktik tuzilishi bizni nafaqat "Men"ni yaratishga, balki uni "qahramon"ga aylantirishga majbur qiladi. Inson miyasi voqealarni sabab-oqibat zanjiriga tizishga moslashgan (D. Yumning assotsiatsiya qonunlari). Til orqali biz o'z hayotimizni hikoya shaklida ifodalaymiz. Har qanday hikoyaga bosh qahramon kerak. Biz "Men" so'zini shu qahramon o'rniga qo'yamiz. Tahlil shuni ko'rsatadiki, "haqiqiy Men" (ontologik) mavjud emas, lekin "hikoya qilingan Men" (narrativ) mavjud. Bu narrativ til qoidalari asosida quriladi. Shuning uchun, shaxsiyatning inqirozi (masalan, "men o'zimni yo'qotib qo'ydim" deyish) aslida hikoyaning uzilishi yoki til qoidalarining buzilishidir. [3,4].

Tahlillar va natijalar. Substansiyaning yo'qolishi: D. Yumning introspektiv tajribasi. Devid Yum o'z tahlilini oddiy savoldan boshlaydi: "Men o'zimni qanday bilaman?". U introspeksiya (ichki kuzatuv) usulini qo'llaganda, hech qachon "o'zini" alohida obyekt sifatida topa olmasligini aytadi. U har doim ma'lum bir his-tuyg'uga – issiqlik, sovuqlik, og'riq yoki zavvqa duch keladi. "Men eng yaqin tarzda o'zim, deb atagan narsaga kirib borsam, har doim bitta yoki bir nechta idrokka duch kelaman... Agar bu hissiy sifatlar chiqarib tashlansa, dunyoda mavjudlikka ega bo'ladigan hech narsa qolmaydi", deb ta'kidlaydi.

Bu natija shuni anglatadiki, "Men" – bu idroklarning egasi emas, balki idroklarning o'zidir. An'anaviy falsafa xatosi shundaki, u idroklarni (masalan, og'riqni) ushlab turuvchi qandaydir "tashuvchi" (substansiya) bo'lishi kerak, deb hisoblagan. D. Yum esa idroklarning o'zi yetarli ekanligini, ular o'rtasidagi bog'liqlikni esa bizning tasavvurimiz "to'qib chiqarishini" isbotlaydi. Bu yerda biz "Men" tushunchasining birinchi dekonstruksiyaiga guvoh bo'lamiz: ontologik subyekt o'rmini fenomenologik jarayon egallaydi.

Bu o'rinda, tilning aldovi: Grammatika qanday qilib metafizikani yaratadi? Nima uchun bizda o'zgarmas "Men" bor, degan ishonch bunchalik kuchli? D. Yum buni "grammatik muammo", deb ataydi. Bizning tilimiz shunday tuzilganki, har bir harakat (fe'l) bajaruvchini (ega) talab qiladi. "Yomg'ir yog'yapti" deganimizda, aslida "yog'ish" jarayoni sodir bo'lmoqda, lekin til bizdan "nima yog'yapti?", deb so'rashga majbur qiladi va biz "yomg'ir", degan sun'iy egasini qo'shamiz. [5].

Xuddi shu kabi, "Men o'ylayapman" deganimizda, aslida faqat "o'ylash jarayoni" mavjud. Lekin grammatika bizdan "Kim o'ylayapti?", deb talab qiladi va biz "Men" degan so'zni qo'shamiz.

Analitik falsafa tahliliga ko'ra, biz til qoidalarini borliq qonunlari bilan adashtiramiz. Biz "Men" so'zini ot (ism) sifatida ishlatganimiz uchun, uning orqasida real obyekt bor, deb o'ylaymiz. Vaholanki, Yum aytganidek, bu shunchaki idroklarni birlashtirish uchun ishlatiladigan lingvistik yorliqdir.

Vitgenshteyn va Til o'yinlari: "Men" – bu foydalanish vositasi: XX-asrda Lyudvig Vitgenshteyn D. Yunning bu g'oyasini eng yuqori cho'qqiga olib chiqdi. Uning "til o'yinlari" (language games) nazariyasiga ko'ra, so'zlarning ma'nosi ularning qanday obyektini ifodalashida emas, balki ularning tilda qanday ishlatilishidadir, deb ta'riflaydi. "Men" so'zi ("I" indexical) xuddi "bu yerda" yoki "hozir" so'zlari kabi ko'rsatkichdir. Agar men "Stol singan" desam, men tashqi dunyodagi faktini tasvirlayman. Agar men "Men og'riqni his qilyapman" desam, men o'zimni kuzatib, keyin xabar berayotganim yo'q. Bu nola qilishning verbal (so'zli) shaklidir.

Vitgenshteyn shuni ko'rsatib beradiki, shaxsiy identifikatsiya – bu xususiy ruhiy jarayon emas, aksincha ijtimoiy kelishuvdir. Biz jamiyatda yashash uchun "til o'yini" qoidalarini qabul qilamiz: har bir inson o'z tanasi va harakatlari uchun mas'ul bo'lishi kerak. Shu sababli biz bolalarga "Men" deyishni o'rgatamiz. Bu metafizik haqiqatni kashf etish emas, balki ijtimoiy institutga a'zo bo'lish jarayonidir.

Xotira va Identifikatsiya illyuziyasi: Bu maqolada ko'rib chiqilgan manbalarda xotiraning roli ham lingvistik nuqtai nazardan qayta baholanadi. D. Yum ta'kidlaganidek, xotira bizning o'tmishdagi va hozirgi idroklarimizni bog'laydi va bizga "identifikatsiya" hissini beradi. Ammo bu bog'liqlik ham ko'pincha xayoliydir. Biz o'tmishimizni eslaganimizda, uni xuddi kinolenta kabi ko'rmaymiz, balki hozirgi tushunchalarimiz asosida qayta hikoya qilamiz (narrative self).

Biz o'zimiz haqimizda hikoya to'qiyamiz va bu hikoyaning bosh qahramoni sifatida "Men"ni yaratamiz. Demak, shaxsiyat – bu tug'ma mavjudlik emas, zotan doimiy ravishda yozilayotgan va tahrir qilinayotgan matndir.

Xulosa. D. Yumdan boshlanib, analitik falsafa orqali L. Vitgenshteyngacha davom etgan intellektual evolyutsiyani tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Burinchidan: Ontologik xulosa: "Men" – bu mustaqil, o'zgarimas substansiya yoki ruh emas. Bu idroklar, his-tuyg'ular va tajribalarning doimiy o'zgaruvchan oqimidir.

Ikkinchidan: Lingvistik xulosa: Bizning o'zligimizni "yagona va barqaror", deb his qilishimiz tilning grammatik tuzilishi bilan bog'liq illyuziyadir. "Men" so'zi obyektini emas, balki funksiyani (grammatik egasini) ifodalaydi.

Uchinchidan: Metodologik xulosa: Shaxsni o'rganishda introspeksiya (ichga qarash) cheklangan natija beradi. Buning o'rniga insonning tildan qanday foydalanishini va ijtimoiy munosabatlarini tahlil qilish samaraliroqdir.

To'rtinchidan: Amaliy ahamiyat: Shaxsiyatni "qotib qolgan" narsa emas, balki til va odatlar orqali shakllantiriladigan jarayon, deb tushunish, pedagogika va psixologiyada insonni o'zgartirish va rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shunday qilib, "Men" fenomeni – bu falsafaning eng buyuk jumboqlaridan biri bo'lib, u hal qilinishi kerak bo'lgan muammo emas, balki ishtirok etilishi kerak bo'lgan "til o'yini"dir.

ADABIYOTLAR

1. Hume, D. A Treatise of Human Nature. L.A. Selby-Bigge (ed.), Oxford: Clarendon Press, 1978.
2. Wittgenstein, L. Philosophical Investigations. G.E.M. Anscombe (trans.), Oxford: Basil Blackwell, 1953.
3. Kemp-Smith, N. The Philosophy of David Hume. London: Macmillan, 1941.
4. Parfit, D. Reasons and Persons. Oxford: Clarendon Press, 1984.
5. Ayer, A.J. Language, Truth and Logic. London: Gollancz, 1936.



UDK: 821.512.133

Sunnatilla BAXROMOV,
Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi
E-mail: s.bakhromov@mail.ru

PhD N.Farxodjonova taqrizi asosida

AKMALIDDIN BOBIRTIY SHAXSIYATIGA YANGICHA NAZAR

Annotatsiya

Ushbu maqola XIV asr islom tarixida, xususan, Mamluklar davlati ilmiy muhitida muhim o'rin tutgan, Movarounnahr va Onado'li hanafiy-moturidiylik an'analari arab dunyosi bilan integratsiya qilgan qomusiy olim Akmaliddin Bobirtiyning hayoti va ilmiy merosini tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi manbashunoslikdagi mavjud muammo – olimning nisbasi va kelib chiqishi bilan bog'liq ziddiyatlarga aniqlik kiritish zarurati bilan belgilanadi.

Kalit so'zlar: Akmaliddin Bobirti, Hanafiy mazhabi, Moturidiylik, Mamluklar davlati, Bayburt (Bobirt), Bobarta, manbashunoslik tahlili, nisba muammosi, talfiq, Shayxuniya xonaqohi, al-Inoya, Sayyid Sharif Jurjoni, Shamsuddin Fanoriy, Sulton Barquq, ilmiy-siyosiy muhit.

НОВЫЙ ВЗГЛЯД НА ЛИЧНОСТЬ АКМАЛУДИНА АЛЬ-БАБИРТИ

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию жизни и научного наследия ученого-энциклопедиста Акмалуддина аль-Бабирти, занимавшего важное место в истории ислама XIV века, в частности в научной среде Мамлюкского государства, и интегрировавшего ханафитско-матуридические традиции Мавэранныхра и Анатолии с арабским миром. Актуальность исследования определяется необходимостью внесения ясности в существующие в источниковедении противоречия, связанные с nisbой и происхождением ученого.

Ключевые слова: Акмалуддин аль-Бабирти, Ханафитский мазхаб, Матуридизм, Мамлюкское государство, Байбурт (Бабирт), Бабарта, источниковедческий анализ, проблема nisbы, тальфик, ханака Шайхуния, аль-Иная, Сайид Шариф аль-Джурджани, Шамсуддин аль-Фанари, Султан Баркук, научно-политическая среда.

A NEW PERSPECTIVE ON THE PERSONALITY OF AKMAL AL-DIN

Annotation

This article is dedicated to the research of the life and scientific legacy of the encyclopedic scholar Akmal al-Din al-Babirti, who held a significant place in the history of Islam in the 14th century, particularly within the scientific environment of the Mamluk Sultanate, and who integrated the Hanafi-Maturidi traditions of Mawarannahr and Anatolia with the Arab world. The relevance of the research is determined by the necessity to clarify existing contradictions in source studies regarding the scholar's nisba and origin.

Key words: Akmal al-Din al-Babirti, Hanafi school, Maturidism, Mamluk Sultanate, Bayburt (Babirt), Babarta, source analysis, nisba problem, talfiq, Shaykhuniyya khanaqah, al-Inaya, Sayyid Sharif al-Jurjani, Shams al-Din al-Fanari, Sultan Barquq, scientific-political environment.

Kirish. XIV asr Islom sivilizatsiyasi tarixida, xususan, Mamluklar davlati hukmronligi ostidagi ilmiy markazlarda fiqh va aqida ilmlarining yangicha tadqiq va tahqiq bosqichiga ko'tarilgan davr sifatida xarakterlanadi. Ushbu qaynoq intellektual muhitda Movarounnahr va Onado'li ilmiy an'analari arab dunyosi bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashtira olgan, o'z davrining "imom", "alloma" va "muhaqqiqlarning so'nggisi" kabi yuksak unvonlariga sazovor bo'lgan yirik siymolardan biri – Akmaliddin Bobirti ydir.

Olimning ilmiy salohiyati Shamsuddin Asbahoniy va Abu Hayyon Andalusiyy kabi zabardast ustozlar maktabida shakllanib, keyinchalik Sayyid Sharif Jurjoni va Shamsuddin Fanoriy kabi buyuk mujaddidlarni tarbiyalab yetishtirishda namoyon bo'ldi. Uning qalamiga mansub "al-Inoya" (Hidoya sharhi) va usulul fiqhga oid fundamental asarlari asrlar davomida hanafiy mazhabining asosiy manbalari qatoridan o'rin egallab kelmoqda.

Biroq, tarixiy manbalarda va ayrim zamonaviy tadqiqotlarda olimning nisbasi va kelib chiqishi borasida jiddiy chalkashliklar mavjudligi, uning shaxsiyatini chuqurroq tadqiq etishni taqozo etadi. Ushbu maqolaning maqsadi – ishonchli

tabaqot asarlari va geografik manbalar tahlili asosida Akmaliddin Bobirtiyning hayot yo'lini yoritish, uning nisbasi atrofidagi muammoga tarixiy-lingvistik yechim topish hamda ilmiy merosining hanafiy-moturidiylik ta'limoti rivojidadagi strategik o'rni ochib berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Akmaliddin Bobirtiyning hayoti va ilmiy merosini o'rganish nafaqat uning shaxsi, balki yashagan davri bo'lmish XIII-XIV asrlar islom olamining umumiy ilmiy-ijtimoiy muhitini, o'sha davr olimlari duch kelgan ziddiyatlar va muammolarni yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Allomaning hayotiga oid qimmatli ma'lumotlar Ibn Hajar Asqaloniyning (773–1372/852–1449) "ad-Durarul kamina"[1] va "Inba'ul g'umr"[2], Qosim ibn Qutlubug'oning (802–1399/879–1474) "Tojut tarojim"[3], Yusuf ibn Tug'riberdining (813–1410/874–1470) "an-Nujumuz zohiro"[4] va "al-Manhalus sofiy"[5] kabi asarlarida uchraydi. Shuningdek, Jaloliddin Suyutiyning (849–1445/911–1505) "Husnul muhazoro"[6] va "Bug'yatul vu'at"[7], Ibn Iyos Hanafiyning (852–1448/930–1524) "Bado'i az-zuhur"[8], Toshko'pruzodaning (901–1496/968–1561) "Miftahus

sa'ada"[9], Hoji Xalifaning (1004–1596/1067–1657) “Kashfuz zunun”[10], Ibn I'mod Hanbaliyning (1032–1623/1089–1679) “Shazarotuz zahab”[11], Ismoil Posho Bag'dodiyning (vaf. 1339/1920) “Hadiyatul orifin”[12] va “Iyzohul maknun”[13], Abdulhay Laknaviyning (1264–1848/1304–1887) “al-Favoidul bahiya”[14] singari asarlari ham bu qatorni davom ettiradi.

Keyingi davr olimlaridan Abdulloh Mustafo Marog'iy (1298–1881/1364–1945)[15], Xayriddin Zirikliy (1310–1893/1396–1976)[16], Umar Rizo Kahhola (1332–1905/1408–1987)[17] va Sha'bon Muhammad Ismoil (1939–2022)[18] asarlarida ham Bobirtiyya oid ma'lumotlar jamlangan. Sanab o'tilgan manbalar hamda olim qalamiga mansub ayrim asarlar asosida Bobirtiyyning ilmiy shaxsiyatini tiklash mumkin. Olimning to'liq ismi borasida manbalarda turlicha ma'lumotlar uchraydi. Masalan, Ibn Qutlubug'o[19], Laknaviy[20], Ibn Hajar Asqaloniy[21] va Jaloliddin Suyutiy[22] asarlarida olimning ismi “Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud ibn Ahmad”, deb keltiriladi. Bunga ko'ra, olimning otasi “Muhammad”, bobosi esa “Mahmud”, bo'ladi.

Biroq, Bobirtiyyning o'z asarlaridagi ichki dalillar bundan farqli manzarani taqdim etadi. Jumladan, Ibn Hojibning asariga yozgan “ar-Rudud van nuqud” sharhi xotimasida o'zini: “Allohning lutf-marhamatiga muhtoj banda, “Akmal hanafiy” nomi bilan mashhur Muhammad ibn Mahmud ibn Ahmad aytdi”, deb tanishtiradi[23]. Shuningdek, Marg'inoniyning (511–1135/593–1197) “al-Hidoya” asariga yozgan “al-Inoya” sharhining kirish qismida[24] va “an-Nukatuz zorifa” risolasida[25] ham o'zini “Muhammad ibn Mahmud ibn Ahmad”, deb zikr qilgan.

Bobirtiyyning o'zi bergan ushbu ishonchli ma'lumotlarga asoslanib, uning to'liq ismini tarjima asarlarida keng tarqalgan “Muhammad ibn Muhammad” deb emas, balki Muhammad ibn Mahmud ibn Ahmad deb qabul qilish ilmiy haqiqatga yaqindir. Olimning asarlarida uchraydigan “Akmal hanafiy” nomi uning “Akmaliddin” laqabi bilan tanilganini, Sha'bon Muhammad Ismoil asaridagi “Abu Abdulloh”[26] esa uning kunyasi ekanini ko'rsatadi.

Akmaliddin Bobirtiyyning ilmiy biografiyasidagi eng muozarali masalalardan biri uning nisbasi va kelib chiqish hududini aniqlashdir. Tarixiy manbalarda olimga “Bobirtiyy” yoki “Bobartiyy” nisbasi berilgan. Biroq Abdulhay Laknaviy[14], Ismoil Posho Bag'dodiy[12] va Xayriddin Zirikliy kabi taniqli mualliflar bu nisbatni turlicha talqin qilib, uni goh Bobarta (Bag'dod), goh Bobirt (Turkiya) bilan bog'laganlar. Akmaliddin Bobirtiyy asarlarini tadqiq qilgan zamonaviy olimlarning aksariyati uning nisbasi borasida Yoqut Hamaviyning (574–1178/626–1229) “Mo'jamul buldon” asaridagi ma'lumotni keltirish bilan kifoyalaniib, yakuniy xulosada talaffuz masalasini ochiq qoldiradilar.

Yoqut Hamaviy “Mo'jamul buldon” asarida ushbu ikki toponimga aniqlik kiritib, “Bobarta” (بَابَرْتَا) so'zida ikkinchi “ba” harfi fathali (a), “ro” harfi sukunli va oxiridagi “to” harfi ustida ikki nuqta bo'lishi, bu joy Bag'dodning Dujayl hududidagi qishloqlardan biri ekani hamda unga Abul Qosim Hibatulloh Harbiy Bobartiyy nisbat berilishini qayd etadi. Ikkinchi toponim bo'lmish “Bobirt” (بَابِرْتَا) esa ikkinchi “ba” harfi kasra (i) bilan talaffuz qilinib, Arzan Rum (Erzurum) nohiyasida joylashgan katta va go'zal shahar-qishloq ekani, bu haqda unga o'sha yerlik bir faqih xabar berganini bayon qiladi.

Tadqiqotchilarning ikkilanishiga sabab bo'lgan omil shundaki, arab yozuvida “Bobarta” va “Bobirt” so'zlarining yozilishi (rasmul xati) bir xil ko'rinishga ega, farq faqat diakritik belgilarda (harakatlarda) xolos.

Abdulhay Laknaviy “al-Favoidul bahiya” asarida olimning “Bobartiyy” ekaniga: “Bobartiyy – ikkita “ba” (harfi) fathali... “ro” sukunli... bo'lib, Bag'dod atrofidagi Bobarta qishlog'iga nisbatdir. Shayx Valiyulloh Dehlaviy o'zining “al-

Intiboh” risolasida va Suyutiy “Lubbul lubob”da uning talaffuzini shunday qayd etganlar”, deya dalil keltiradi. Akmaliddin Bobirtiyy haqida so'z yuritib, uning “Bobartiyy” ekanini ta'kidlagan boshqa tabaqot-tarajim mualliflarida ham shunday holatni kuzatish mumkin. Biroq Jaloliddin Suyutiy “Lubbul lubob” asarida Bobirtiyy aynan Bobart qishlog'idan ekani haqida emas, balki Hamaviy ifodalaganidek, Bobart Dujaylga yaqin qishloq ekani borasida so'z yuritgan.

Natijalar va muhokama. Tarixiy-manbashunoslik tahlili bu yondashuvning ism va laqablarning o'xshashligi (tashabuhul asma val alqob) tufayli kelib chiqqan xatolik, olim aslida turk millatiga mansub hududdan ekanini bir necha rad qilib bo'lmaz dalillar bilan isbotlaydi.

Birinchidan, Akmaliddin Bobirtiyy zamondoshlari va undan keyingi davrda yashagan Ibn Hajar Asqaloniy, Ibn Tug'riberdi, Ibn Iyos Hanafiy, Taqiyuddin Maqriziy (766–1365/845–1441) va Valiyuddin ibn Iroqiy (762–1362/826–1423) singari ishonchli tarixchilarning barchasi yakdil ovoza da olim ismini “Rumiy” nisbasi bilan birga qo'llagan. Masalan, Ibn Hajar Asqaloniy “Inba'ul g'umr” asarida: “Muhammad ibn Muhammad... Rumiy Bobirtiyy Akmaliddin...”, deya zikr qilgan.

Mamluklar davri tarixchiligidagi “Rumiy” atamasi qat'iy geografik ma'noga ega bo'lib, faqat Kichik Osiyo (Onado'li) hududidan kelganlarga nisbatan ishlatilgan. Agar Bobirtiyy haqiqatan ham Bag'dod yaqinidagi “Bobarta” qishlog'idan bo'lganida edi, unga “Rumiy” emas, balki “Iroqiy” yoki “Bag'dodiy” nisbasi berilgan bo'lardi. Demak, olimning “Rumiy” deb atalishi uning Bag'doddan emas, balki Hamaviy ta'riflagan Arzan Rum (Erzurum) yaqinidagi Bobirt (hozirgi Bayburt) shahridan ekanini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, usmoniylar davrining qomusiy olimi Hoji Xalifa o'zining “Sullamul vusul” asarida Bobirtiyyning kelib chiqishini aniqlashtirib, uning “Erzurum (Arzan Rum) yaqinidagi Bobirtidan” ekanini yozadi.

Uchinchidan, olimning millati va ona tili haqidagi qat'iy dalilni tarixchi Ibn Iyos Hanafiy “Bado'i az-zuhur” asarida keltiradi. U Bobirtiyyning Atobak Barquq va Amir Baraka bilan bo'lgan keskin siyosiy bahsini tasvirlab, shunday degan:

“Shayx Akmaliddin hanafiy yerlarni sotish masalasida Atobak Barquq va Amir Baraka bilan turk tilida (bil-lug'ati at-turkiyya) gaplashishga kirishdi. Atobak Barquq, Amir Baraka va shayx Akmaliddin o'rtasidagi gap-so'z shu darajada ko'paydiki, hatto amirlar shayxga nisbatan qo'pol so'zlarni ishlatdilar...”.

Agar olim Bag'dod yaqinidagi arab qishlog'idan bo'lganida, uning ona tili arab tili bo'lar va turk tilida mamluklar davlatining turkiy amirlari bilan bahslashadigan darajada ravon so'zlashishi qiyin kechardi. Onado'lidagi Bayburt aholisi esa azaldan turkiyzabon hisoblanadi.

Agar olim “Bobirt” (kasra bilan) shahridan bo'lsa, nima uchun ba'zi manbalarda uning nisbasi “Bobartiyy” (fatha bilan) shaklida talaffuz qilinadi? Bu savolga arab tili fonetikasi va sarf (morfologiya) ilmi qonuniyatlarini javob beradi. Arab tilshunosligida harakatlarning talaffuz qiyinchiligi (siql) darajasiga ko'ra, “Fatha” (a) eng yengil, “Kasra” (i) esa unga nisbatan og'irroq harakat hisoblanadi. Darhaqiqat, arab tilshunosi Abul Fath Usmon ibn Jinni (322–941/392–1002) o'zining “al-Xasois” asarida:

“Zamma” (u) va “kasra” (i) tovushlari og'ir bo'lgani uchun ularni o'zgartirganlar, “fatha” (a) esa yengil bo'lgani uchun, ko'pincha uni o'z holida qoldirganlar”, deya ta'kidlaydi.

Inson nutq apparati tabiatan yengillikka intiladi. “Fatha”da og'iz shunchaki ochiladi, “Kasra”da esa jag' va til mushaklariga qo'shimcha kuch tushadi. Shu sababli, arab tilida so'zlashuvchilar ko'p qo'llaniladigan nisbalarda “og'ir” harakatni (kasrani) “yengil” harakatga (fathaga) almashtirishga

moyil bo'ladilar. Katta ehtimol bilan, "Bobirtiy" nisbasidagi "kasra" harakati talaffuzdagi yengillik (talfiq) talabi bilan vaqt o'tishi mobaynida "Bobartiy" (fatha) shakliga o'zgarib ketgan bo'lishi mumkin. Lekin bu o'zgarish olimning kelib chiqishi Bobarta (Bag'dod) ekanligini anglatmaydi, balki til hodisasi sifatida baholanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy, geografik va lingvistik dalillar majmui shuni ko'rsatadiki, Akmaliddin Bobirtiyning nisbasi Bag'doddagi "Bobarta"ga emas, balki Turkiyadagi Bobirt (Bayburt) shahriga tegishlidir. Shuning uchun uning nisbasini "Bobirtiy" (kasra bilan) shaklida talaffuz qilish va yozish ilmiy haqiqatga muvofiqdir.

Akmaliddin Bobirtiyning aniq tavallud sanasini belgilashda tarjim manbalarida turlicha yondashuvlar kuzatiladi. Umar Rizo Kahhola uning tug'ilgan sanasini 710/1310 yil deb ko'rsatgan bo'lsa[1], Ismoil Posho Bag'dodiy bu sanani 712/1312 yil deb qayd etgan[2]. Ibn Hajar Asqaloniy esa olimning 713/1313 yilda dunyoga kelganini ta'kidlaydi[3]. Shuningdek, Mustafo Marog'iy[4] va Xayriddin Zirikliy[5] asarlarida bu sana bir yil keyinga, ya'ni 714/1314 yilga to'g'ri kelishi aytilgan. Boshqa bir guruh muarrixlar – Jaloliddin Suyutiy[6], Abdulhay Laknaviy[7] va Ibn I'mod Hanbaliy[8] olimning tavalludi borasida aniq yilni ko'rsatmasdan, umumiyroq tarzda: "U yetti yuz o'n nechanchi yil (bid'a a'shoro va sab'a mia)da tug'ilgan", degan ma'lumotni keltirganlar. Arab tili grammatikasi qoidalariga ko'ra, "bid'a" (بضع) so'zi 3 dan 9 gacha bo'lgan sonlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu lingvistik mulohaza yuqoridagi manbalarni o'zaro muvofiqlashtirish imkonini beradi. Ya'ni, "o'n nechanchi" (13-19) iborasi Ibn Hajar, Marog'iy va Zirikliylar tomonidan ko'rsatilgan 713/1313 yoki 714/1314 yillar haqiqatga yaqinroq ekanini tasdiqlaydi.

Akmaliddin Bobirtiyning ilmiy mavqeyi va faoliyati tahlili uning o'z davrining nafaqat yirik olimlaridan biri, balki ijtimoiy-siyosiy hayotda ham sezilarli o'rin tutgan shaxs ekanligini ko'rsatadi. Ibn Qutlubug'o tomonidan "Keyingi davr allomasi, muhaqqiqlarning so'ngisi"[1], deya e'tirof etilgan Bobirtiy, ilm yo'lidagi safarlari davomida Halab va Qohira kabi ilmiy markazlarda Shamsuddin Asbahoniy (674–1276/749–1349), Abu Hayyon Andalusiy (654–1256/745–1344), Abdulhodiy Maqdisiy (705–1305/744–1343), Qivomiddin Kokiy (vaf. 749/1348) hamda Abdulloh Dilosiy (630–1233/721–1321) kabi zabardast ustozlardan tahsil olib, fiqh, hadis, tafsir, arab tili va kalom ilmlarida yuksak darajaga erishgan.

Olimning ilmiy salohiyati va tavoze, zuhd kabi shaxsiy fazilatlarini uni o'z davrining hukmdorlari-yu davlat arboblari nazariga tushirgan. Xususan, Mamluklar sultoni Zohir Barquq (740–801/1340–1399) va nufuzli amir Sayfuddin Shayxun bilan yaqin aloqada bo'lgan. Amir Shayxun uni o'zi qurdirgan

"Shayxuniya" xonaqohiga bosh mudarris etib tayinlagan bo'lsa, Sulton Barquq unga bir necha bor qozilik mansabini taklif qilgan, biroq Bobirtiy har safar bu taklifni rad etib, bor e'tiborini ilm olish va ta'lim berishga qaratgan. Shunga qaramay, Sultonning unga bo'lgan hurmati va do'stona munosabati saqlanib qolgan, hatto olim vafot etganida Sulton janoza namozida shaxsan ishtirok etgan. Bobirtiyning ilmiy shuhrati va "Shayxuniya"dagi faoliyati turli o'lkalardan ko'plab tolibi ilmlarni o'ziga jalb qilgan. Uning qo'l ostida ta'lim olgan shogirdlar keyinchalik islom olamining mashhur namoyandalarga aylangan. Jumladan, kalom va mantiq ilmlarining yirik vakili Sayyid Sharif Jurjoniy (740–1340/816–1413), Usmoniy davlatining birinchi Shayxulislomi Shamsuddin Muhammad Fanoriy (751–1350/835–1431) va "Ibn Qozi Simavna" nomi bilan tanilgan Badruddin Mahmud ibn Isroil (760–1359/823–1420) kabi olimlar Bobirtiy maktabining tarbiyalanuvchilari hisoblanadi. Bu esa Bobirtiyning nafaqat Mamluklar davlatida, balki butun Islom olamida, xususan, Movarounnahr va Kichik Osiyo ilmiy muhitida ham katta ta'sirga ega bo'lgan ustoz ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa. Akmaliddin Bobirtiyning hayoti va ilmiy merosini kompleks tadqiq etish, uning XIV asr islom tafakkuri tarixida, xususan, Mamluklar davlati ilmiy muhitida Movarounnahr va Onado'li hanafiy-moturidiylik an'analari bilan dunyosi bilan integratsiya qilgan markaziy siymo ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning eng muhim manbashunoslik natijasi olimning nisbasi va kelib chiqishi atrofidagi ko'p asrlik ilmiy chalkashlikka mantiqiy yechim topilganidir. Abdulhay Laknaviy va boshqa ayrim mualliflarning uni Bag'dod yaqinidagi "Bobarta" qishlog'iga nisbat berishi nomlar o'xshashligi tufayli yuzaga kelgan tarixiy yanglishlik ekani aniqlandi. Unga zamondosh bo'lgan muarrixlar tomonidan qo'llanilgan "Rumiyy" nisbasi va olimning turkiy amirlar bilan turk tilida muloqot qilgani haqidagi dalillar, uning asli Onado'li hududidagi Bobirt (Bayburt) shahridan ekanini qat'iy isbotlaydi. Shuningdek, nisbaning "Bobartiy" shaklida mashhur bo'lib ketishi arab tili fonetikasidagi "talfiq" (yengillashtirish) qonuniyatiga ko'ra, talaffuzda og'ir bo'lgan "kasra"ning yengil "fatha"ga almashishi natijasi ekanligi ilmiy asoslandi.

Olimning ijtimoiy-siyosiy portreti uning "ilm va hokimiyat" munosabatlaridagi mustaqil mavqeyini namoyon etadi. Xulosa qilib aytganda, Akmaliddin Bobirtiy o'z davrining shunchaki bir faqih emas, balki aniq dalillarga asoslangan tahqiq uslubi va yuksak ma'naviy maqomi bilan Islom sivilizatsiyasi rivojiga fundamental hissa qo'shgan qomusiy mutafakkirdir.

ADABIYOTLAR

1. Ibn Jinniy. Al-Xasois. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya.
2. Yoqut Hamaviy. Mo'jamul buldon. – Bayrut: Dor sodir, 1977.
3. Akmaliddin Bobirtiy. Ar-Rudud van nuqud sharh muxtasar ibnil Hojib // Doyfulloh ibn Solih tahqiqi. – Ar-Riyod: Maktaba ar-rushd noshirun, 2005.
4. Akmaliddin Bobirtiy. Al-Inoya sharh al-hidoya // Amr ibn Mahrush tahqiqi. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2007.
5. Akmaliddin Bobirtiy. An-Nukatuz zorifa fi tarjih mazhab Abi Hanifa // Hasan Umar Musa'id tahqiqi. – Ar-Riyod: Markaz al-buhus at-tarbaviya, 1997.
6. Ibn Hajar Asqaloniy. Ad-Durarul kamina fi a'yanil miat as-samina // Muhammad Abdulmu'id tahqiqi. – Xaydarobod: Majlis doirat al-ma'orif al-usmoniya, 1993.
7. Ibn Hajar Asqaloniy. Inba'ul g'umr bi-abna'il u'mur // Hasan Xabashiy tahqiqi. – Qohira: al-Majlis al-a'la lish-shu'un al-islamiya, 1969.
8. Ibn Tug'riberdi. An-Nujumuz zohira fi muluk Misr va al-Qohira // tahqiqi. – Qohira: Dor al-kutub al-misriya, 1950.
9. Ibn Tug'riberdi. Al-Manhalus sofiy val mustavfa ba'dal vafiy // Muhammad Muhammad Amin tahqiqi. – Misr: al-Hay'a al-misriya al-a'mma, 1990.
10. Ibn Qutlubug'o. Tojut tarjimi // Muhammad Xoyr Ramazon Yusuf tahqiqi. – Damashq: Dor al-qalam, 1992.

11. Jaloliddin Suyutiy. Husnul muhazoro fi tarixi Misr val Qohira // Muhammad Abulfazl Ibrohim tahqiqi. – Bayrut: Dor ihyo al-kutub al-arobiya, 1967.
12. Jaloliddin Suyutiy. Bug‘yatul vu‘at fi tobaqot al-lug‘aviyyin van nuhat // Muhammad Abulfazl Ibrohim tahqiqi. – Soyda: al-Maktaba al-a‘sriya, yili noma‘lum.
13. Ibn Iyos Hanafiy. Al-Muxtar min bada‘i az-zuhur fi vaqo‘i ad-duhur // Muhaqqiqi noma‘lum. – Irbid: ash-Sha‘b nashriyati, 1960.
14. Toshko‘pruzoda. Miftahus sa‘ada va misbahus siyada fi mavzu‘at al-ulum // Muhaqqiqi noma‘lum. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1985.
15. Hoji Xalifa. Kashfuz zunun a‘n asamiy al-kutub val funun. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1992.
16. Hoji Xalifa. Sullamul vusul ila tobaqot al-fuhul // Mahmud Abdulqodir Arnaut tahqiqi. – Istanbul: IRCICA, 2010.
17. Ibn I‘mod Hanbaliy. Shazarotuz zahab fi axbar man zahab // Mahmud Arnaut tahqiqi. – Damashq: Dor ibn Kasir, 1986.



UDK:371.03. (22)

Parvina BEGBUDIEVA,

Independent researcher of the Department of Humanities and Information Technologies Samarkand State Institute of Foreign Languages

E-mail: parvinabegbudieva@gmail.com

Based on the review of Professor O. Gaybullayev of the Samarkand Institute of Foreign Languages

MAHMUDKHODJA BEHBUDI AND THE JADID REFORM MOVEMENT: MODERNIZATION, EDUCATION, AND WOMEN'S ROLE IN TURKESTAN

Annotation

This article explores the intellectual and pedagogical legacy of Mahmudkhoja Behbudi within the broader context of modernization processes in early twentieth-century Turkestan. It examines the transformation of family and gender relations under colonial conditions, the role of the Jadid movement in redefining women's education, and the conceptual arguments used by Behbudi and his contemporaries to justify educational reforms. The study highlights the significance of women's enlightenment as a strategic factor in the development of society and demonstrates the enduring relevance of Behbudi's pedagogical ideas for contemporary debates on education, social modernization, and gender policy.

Key words: Jadidism, Turkestan, Family and marital relations, Women's education, Social modernization, Gender equality, Pedagogical ideas, Cultural reform, Early 20th century.

МАХМУДХОДЖА БЕХБУДИ И ДВИЖЕНИЕ ДЖАДИДОВ: МОДЕРНИЗАЦИЯ, ОБРАЗОВАНИЕ И РОЛЬ ЖЕНЩИН В ТУРКЕСТАНЕ

Аннотация

Данная статья исследует интеллектуальное и педагогическое наследие Махмудходжи Бехбуди в более широком контексте процессов модернизации в Туркестане начала XX века. В ней рассматривается трансформация семейных и гендерных отношений в условиях колониального управления, роль движения джадидов в переосмыслении женского образования, а также концептуальные аргументы, использованные Бехбуди и его современниками для обоснования образовательных реформ. Исследование подчеркивает значение просвещения женщин как стратегического фактора развития общества и демонстрирует сохраняющуюся актуальность педагогических идей Бехбуди для современных дискуссий об образовании, социальной модернизации и гендерной политике.

Ключевые слова: Джадидизм, Туркестан, семейные и брачные отношения, женское образование, социальная модернизация, гендерное равенство, педагогические идеи, культурная реформа, начало XX века.

MAHMUDXOJA BEHBUDIY VA JADIDCHILIK HARAKATI: TURKISTONDA ZAMONAVIYLASHTIRISH, TA'LIM VA AYOLLARNING ROLI

Annotatsiya

Ushbu maqola Mahmudxoja Behbudiyning intellektual va pedagogik merosini XX asr boshlaridagi Turkistondagi modernizatsiya jarayonlari doirasida o'rganadi. Unda mustamlakachilik sharoitida oila va gender munosabatlarining o'zgarishi, ayollar ta'limini qayta belgilashda jadid harakatining roli va Behbudi va uning zamondoshlari tomonidan ta'lim islohotlarini oqlash uchun ishlatilgan kontseptual argumentlar o'rganiladi. Tadqiqotda ayollar ma'rifatining jamiyat rivojlanishidagi strategik omil sifatidagi ahamiyati ta'kidlanadi va Behbudiyning pedagogik g'oyalarning ta'lim, ijtimoiy modernizatsiya va gender siyosati bo'yicha zamonaviy munozaralar uchun doimiy dolzarbligi namoyish etiladi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, Turkiston, oila va nikoh munosabatlari, ayollar ta'limi, ijtimoiy modernizatsiya, gender tengligi, pedagogik g'oyalar, madaniy islohot, XX asr boshlari.

During the late 19th and early 20th centuries, Turkestan, under the Russian Empire, experienced significant social and cultural disruption due to colonial policies. These policies limited local governance, restricted educational opportunities, and constrained women's social roles, creating stagnation in societal development. Traditional Islamic schools, including maktab and madrasas, primarily focused on religious instruction and offered little space for secular knowledge or modern sciences. In response to this stagnation, a group of reformers known as the Jadids, including Mahmudkhodja Behbudi, emerged to modernize education while preserving Islamic values.[2]

The Jadid reformers promoted modern education, literacy, critical thinking, and civic consciousness. They aimed to reform social structures, with a particular focus on family

life, emphasizing the pivotal role of educated women in shaping future generations. The Jadids sought a balance between religious adherence and rationalist, modernist perspectives, advocating for a synthesis of tradition and innovation to foster societal progress.

Behbudi regarded the family as the cornerstone of social development. He argued that neglecting women's education or restricting their social participation weakened societal growth. He challenged prevailing practices such as early marriage, polygamy, and the relegation of women solely to domestic roles, asserting that these traditions hindered moral and intellectual advancement. By advocating for women's education, Behbudi linked family reform directly with national modernization, emphasizing that enlightened mothers would raise responsible and educated citizens capable of contributing

meaningfully to society. Behbudi's educational philosophy was holistic, integrating moral, spiritual, and intellectual development. He argued for accessible education for all members of society, insisting that true national progress required the education of both men and women. His approach was highly innovative for Central Asia at the time, anticipating modern concepts of gender equality in education and promoting a broad-based intellectual awakening.

Promoting women's education and reforming family structures had significant cultural and political consequences. These efforts challenged both colonial dominance and traditionalist resistance, aiming to strengthen Turkestani national identity and ensure cultural continuity despite external pressures. By modernizing educational systems and family life, Behbudi sought to cultivate a morally conscious, intellectually capable, and socially responsible population.

His work laid the foundation for subsequent educational and social reforms in Central Asia, influencing both the Soviet period and post-Soviet developments. His emphasis on women's participation in education, family ethics, and social modernization remains highly relevant today, offering valuable insights for contemporary discussions on gender, education, and national development. Scholars recognize Behbudi as a pioneer of progressive Islamic thought, whose ideas seamlessly combined faith, rationality, and social reform.

Since time immemorial, the family has been regarded as a national and universal value in the Eastern world. The Jadid intellectuals sought to regulate family and marital relations and carried out significant work in this field, fully aware of the incomparable role of the family in the political, economic, social, and cultural life of the country. However, it can be argued that family and marital relations deteriorated at the beginning of the 20th century, as restrictions on the rights and freedoms of women, and treating them as mere objects—a practice that had become outdated in the life of Turkestan—significantly weakened the family and reduced its social standing. During this period, the political rights of the Turkestani population were also restricted by the Russian Empire; even men, let alone women, were rarely employed in state institutions. Women were largely confined to domestic labor, and literacy was limited, as education often consisted of only the ability to read certain religious texts.

Such challenges represented critical issues requiring conceptual solutions. They were often overlooked in contemporary discourse, even though the intellectuals of the time recognized that “the family ensures the continuity of life, the transmission of generations, and the preservation of sacred traditions, while directly influencing the character of future generations.” These thinkers considered the family as the central institution for education and moral guidance, representing a unique framework that combined political, legal, moral, and religious perspectives. They theoretically justified and highlighted the negative consequences of Russian colonialism and explored ways to save Turkestan from old social orders.

A particularly important aspect of this conceptual framework was women's education, reflecting the progressive and forward-thinking nature of the Jadid approach. Behbudi viewed women's enlightenment as a prerequisite for the development of the family, society, and the nation as a whole, emphasizing that true modernization was impossible without women's participation in education. His ideas about accessible knowledge laid the foundation for subsequent reforms and became an ideological basis for expanding women's rights in the region. By transforming societal attitudes toward women and involving them in education and science, Behbudi underscored that building a strong family foundation and

properly educating the younger generation were essential for reforming society, guiding it toward modern development, and ensuring the nation's future.

The distinctiveness of the Jadid intellectuals' approach to family and women lay in their perception of the problem: they viewed the weakness of the people, their lagging behind global changes, and the lack of freedom, independence, and spiritual vitality as central challenges. They saw the local population's desire for freedom, economic and political independence, and cultural renewal as closely linked to these societal deficiencies.

One of the founders of Jadidism, Mahmudkhodja Behbudi, was also deeply concerned with family matters in Turkestan. His worldview developed during a period of acute social and cultural transformations when the modernization of education became a key task for societal development. For this reason, Behbudi considered education—particularly universal and accessible education—as a fundamental tool for renewing the Muslim East.[6] An especially significant aspect of his pedagogical philosophy was the education of women, which, in the context of a traditional society, was one of the most debated and simultaneously one of the most critical issues. Behbudi emphasized that it was impossible to speak of national progress if half of society remained excluded from cultural and educational life. Women's access to knowledge, in his view, was not only a social right but a strategic condition for forming an enlightened, morally mature, and competitive society.

Thus, the life path and intellectual heritage of Mahmudkhodja Behbudi form an essential foundation for analyzing modernization processes in Turkestan, particularly for studying the transformation of views on women's education as a key factor in societal development. In his article *Hifz-i Sihat-i Oila*, he argued that an individual's attitude toward their own health often determines the well-being of the family and the future of the younger generation. In the early 20th century, Behbudi addressed family and women's issues in his articles. He also highlighted that early marriages—such as a 17-year-old boy marrying a 14-year-old girl in contemporary Turkestani families—were far from ideal, as children at this age could not easily shed childhood habits. He noted that proponents of “total health” recommended marriage ages of 25–30 for men and 20–22 for women.

The Jadids opposed polygamy, prevalent at the time, and expressed their critical stance on this issue. However, in an article in the journal *Al-Islah*, which promoted the ideas of the *Shura-yi Ulama*—a political-religious association of the period—it was noted that while God permitted the Prophet to have multiple wives and ordinary Muslims up to four, justice must prevail among them. Like Ismailbek Gasprinsky, Munavvarkori viewed polygamy as a societal vice that hindered development and considered its elimination a national concern. Social, economic, and cultural life, especially women's issues, were also reflected in works such as Abdulla Avlani's drama *Is Practicing Law Easy?*

In conclusion, Jadidism in Turkestan paid particular attention to family issues in its socio-political and cultural-religious worldview, clearly demonstrating the movement's aim to advance the spiritual and cultural life of the people. These aims were reflected in the Jadids' efforts to define women's place in the family, enhance their social status, ensure their education, promote proper child-rearing, and improve husband-wife relationships based on love, loyalty, equality, and respect. They emphasized the role of the enlightened family in the social, moral, and labor education of the younger generation, clarified the rights and responsibilities of children and parents, and sought to eliminate negative social attitudes

toward women, proposing new approaches to marriage, polygamy, inheritance, and related matters.

In their works, the Jadids demonstrated the incomparable role of women in human history and the family as the main pillar of society. They elevated these questions to a national level and sought to show that a healthy, enlightened family capable of nurturing a well-rounded, mature generation is a crucial factor for the development of the nation. Some of the family issues critiqued by the Jadids remain relevant today.

The analysis of Mahmudkhodja Behbudi's life and pedagogical ideas reveals his exceptional role in the modernization of early 20th-century Turkestan. As a

representative of the Jadid generation, he not only proposed reforms in the traditional education system but also consistently advocated for the creation of a new cultural and social space based on knowledge, critical thinking, and enlightenment. Therefore, Behbudi's pedagogical heritage is not only of historical significance but also serves as a relevant guide for contemporary studies in education, social modernization, and gender policy. His conviction that societal progress begins with the enlightenment of each member of society continues to hold significance, particularly in ongoing discussions about the role of women in socio-cultural development.

REFERENCES

1. Khalid, Adeeb. *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia*. University of California Press, 1998.
2. Isomiddinov, Yuldosh Yusubboyevich & Toshmaxamatov, Sardor Olimjon ogli. *Stages of Formation and Development of the Jadid Movement. Integration of Innovative Education and Training*, 2025.
3. Tilabjonova, Sevinch Shukhratovna. *The Contribution of the Father of Turkestan Jadids Mahmudhaja Behbudi to the Development of Jadid Schools. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities*, 2024.
4. Aziza Kadamboyevna Maxsudjonova. *Jadid Schools in Turkestan and the Contribution of Mahmudkhodzha Behbudi. Science and Pedagogy in the Modern World: Problems and Solutions*, 2025.
5. Begbudiyeva P.Sh. *Гендерные вопросы и их решения в деятельности джадидов Туркестана. Journal of integrated education and research*, volume 1, issue 6, collection B, November 2022.
6. Zulfiya Ermatova & Dilshodakhon Muminova. *Life of Mahmudkhodja Behbudi and His Role in the Uzbek Jadid Movement. Conference of Natural and Applied Sciences in Scientific Innovative Research*, 2025.



UDK 1:17:7

Feruz BOZAROVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti falsafa fanlari doktori (DSc)
E-mail: f.bozorova@gmail.com

PhD N.Farxodjonova taqrizi asosida

MADANIYATLARARO MULOQOT KONTEKSTIDA AXLOQ VA ESTETIKA MUAMMOSI

Аннотация

Ushbu maqolada madaniyatlararo muloqot jarayonida axloq va estetika masalasining falsafiy-nazariy jihatlarini tahlil qilinadi. Turli madaniy makon va sivilizatsiyalarda shakllangan axloqiy me'yorlar hamda estetik qadriyatlarining o'zaro ta'siri, ularning jamiyatlararo muloqotda tutgan o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo muloqot, axloq, estetika, ma'naviy qadriyatlar, madaniy xilma-xillik, tolerantlik, Sharq va G'arb falsafasi, estetik idrok, axloqiy me'yorlar.

ПРОБЛЕМА МОРАЛИ И ЭСТЕТИКИ В КОНТЕКСТЕ МЕЖКУЛЬТУРНОГО ОБЩЕНИЯ

Аннотация

В данной статье анализируются философско-теоретические аспекты проблемы морали и эстетики в процессе межкультурного общения. Раскрывается взаимовлияние нравственных норм и эстетических ценностей, сформировавшихся в различных культурных пространствах и цивилизациях, а также их роль в межсоциальном и межкультурном взаимодействии.

Ключевые слова: Межкультурное общение, мораль, эстетика, духовные ценности, культурное разнообразие, толерантность, философия Востока и Запада, эстетическое восприятие, нравственные нормы.

THE PROBLEM OF MORALITY AND AESTHETICS IN THE CONTEXT OF INTERCULTURAL COMMUNICATION

Annotation

This article analyzes the philosophical and theoretical aspects of the issue of morality and aesthetics in the process of intercultural communication. It examines the interaction between moral norms and aesthetic values formed in different cultural spaces and civilizations, highlighting their role in intercultural and intersocietal communication.

Keywords: intercultural communication, morality, aesthetics, spiritual values, cultural diversity, tolerance, Eastern and Western philosophy, aesthetic perception, moral norms.

Kirish. Jahonda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot almashinuvi ko'lamining kengayishi hamda madaniy chegaralarning nisbiy ravishda ochilishi natijasida madaniyatlararo muloqot inson hayotining barcha sohalarida muhim omilga aylanmoqda. Bunday sharoitda turli madaniy makon va sivilizatsion an'analarda shakllangan axloqiy me'yorlar va estetik qadriyatlarni o'zaro anglash, taqqoslash hamda uyg'unlashtirish masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Axloq va estetika inson ma'naviy hayotining o'zaro bog'liq, bir-birini to'ldiruvchi jihatlarini bo'lib, ular jamiyat a'zolarining xulq-atvori, dunyoqarashi va madaniy o'zligini shakllantirishda hal qiluvchi o'rin tutadi.

Madaniyatlararo muloqot jarayonida aynan ushbu ikki kategoriya o'rtasidagi munosabat turli qarashlar, qadriyatlar va estetik ideallarning to'qnashuvi yoki uyg'unlashuviga olib keladi. Shu bois axloqiy va estetik me'yorlarning madaniy farqlanishlar sharoitida qanday talqin etilishi, ularning muloqot madaniyatiga ta'siri chuqur ilmiy tahlilni talab qiladi. Sharq va G'arb falsafiy tafakkuri tarixida axloq va estetika muammosi alohida ahamiyat kasb etib, ular inson kamoloti, ma'naviy barkamollik va go'zallikni anglash bilan bog'lab izohlangan. Islom falsafasida axloq va estetika ilohiy haqiqat va ma'naviy poklanish bilan uyg'un holda qaralsa, G'arb falsafasida ular shaxs erkinligi, subyektiv idrok va estetik hukm tushunchalari orqali talqin etiladi. Ushbu farqlar va umumiyliklar

madaniyatlararo muloqot kontekstida yangi mazmun kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Insoniyatning estetik tajribasi nihoyatda boy va xilma-xildir. Estetik bilimlarning shakllanishi tarixning eng qadimgi davrlariga borib taqalib, insonning atrof-muhit bilan estetik munosabatga kirishuvi natijasida yuzaga kelgan. Bu jarayon insoniyatning tadrijiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib kelgan va hozirgi kungacha davom etmoqda. Inson doimo yangi go'zalliklarni yaratishga intilib, asrlar davomida estetik did, estetik zavq va badiiy asarlarning estetik yutuqlarini anglash masalalari ustida mushohada yuritib kelgan.

Estetik idrok jarayonida inson duch kelgan har qanday hodisa yoki obyekt tadqiqot predmeti sifatida namoyon bo'ladi. Ularni o'rganish jarayonida inson o'z hayotiy tajribasi va bilimiga tayanib, go'zallik va ulug'vorlikni nafaqat estetik zavq manbai, balki hayot mazmunini anglashning muhim vositasi sifatida talqin etadi. Aynan shu omillar estetika faniga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirib, uning shakllanishi va bosqichma-bosqich rivojlanishiga zamin yaratadi.

Islom estetikasida go'zallik va uyg'unlikka intilish inson tabiatining muhim qonuniyatlaridan biri sifatida qaralib, uning manbai ilohiy asoslar bilan bog'lanadi. Sharq falsafasi vakillari komil inson timsolida bilimli, dono, axloqan pok, ijodkor va har bir xatti-harakatini ezgulikka bo'ysundirgan shaxsni ko'radilar. Shu bois, ajdodlarimiz estetik tarbiyaga

alohida e'tibor qaratib, uni jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya bilan uzviy birlikda olib boranlar.

Xususan, Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida nafosat va axloq tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida talqin qilinadi. Mutafakkirga ko'ra, inson o'zida go'zal fazilatlar va barkamol irodani shakllantirgach, ularni jamiyat va shahar aholisida qaror toptirish yo'llarini o'rganishi lozim bo'ladi. Bu esa ta'lim va tarbiya orqali amalga oshiriladi[1].

Hozirgi davrda estetika fani tabiat, san'at, texnika, tibbiyot, turmush tarzi, mehnat, sport hamda ijtimoiy munosabatlar sohalarida go'zallik va ulug'vorlikning namoyon bo'lish shakllarini o'rganishga yo'naltirilgan muhim falsafiy fan sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, estetikani insoniyatda nafosatni his etish va qadrlash madaniyatini shakllantiruvchi, estetik did va uning darajalari haqidagi fan sifatida tavsiflash mumkin. Zero, didsiz inson mavjud emas, balki didning yuksak yoki tuban darajasi bo'ladi.

Estetik did axloq bilan uzviy bog'liq bo'lib, aynan yuksak axloqiy mezonlar asosida shakllangan estetik did jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Yuksak estetik did ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni boshqarish hamda rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda, har qanday mamlakatning ilm-fan, texnika va ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi yutuqlari uning aholisi estetik dunyoqarashi bilan bevosita bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Sharq xalqlari tafakkurida qadimdan go'zallik va ezigulikning birligi muhim tamoyil sifatida qaralib, bu uyg'unlik buzilgan joyda vayronkorlik va ma'naviy inqiroz yuzaga kelishi ta'kidlangan[2]. Ilm-fan va texnika taraqqiyotini farovon hayot garovi deb bilgan Sharq mutafakkirlari, avvalo, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini ustuvor deb hisoblaganlar.

Ayrim G'arb olimlari ham so'nggi davrlarda texnologiya sivilizatsiyaning salbiy oqibatlarini anglab yetmoqda. Mashhur ingliz sharqshunosi Abu Bakr G'arb sivilizatsiyasi insonni tashqi chiroq bilan band etib, ruhiy go'zallik, fitriy zavq va go'zal xulqni yemirayotganini ta'kidlagan[3,6]. Haqiqatan ham, zamonaviy ommaviy madaniyatda sof go'zallik va yuksak axloqiy-estetik tamoyillardan chekinish, agressiya va mavhumlikka asoslangan san'at shakllarining ko'payishi kuzatilmoqda. Bunday jarayon natijasida estetik tafakkur yuzaklashib, ayrim san'at namunalarini "avangard" nomi ostida mazmunsizlik va estetik tubanlikni oqlash vositasiga aylanmoqda. Holbuki, haqiqiy san'at yuksak badiiylik, ma'naviy teranlik va estetik uyg'unlikka asoslanishi lozim. Shu bois, estetik tafakkurni axloqiy mezonlar bilan uyg'un holda rivojlantirish zamonaviy jamiyat oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Musulmon Sharqi estetik konsepsiyasining ta'siri nemis foydalanishda jasoratli bo'lib, "Insonni hech qachon faqat vosita sifatida emas, balki doimo maqsad sifatida ko'r", "Har bir xatti-harakating axloqiy qoida (maksima) sifatida boshqalarga yuksak namuna bo'lsin", "Go'zallik ideali axloqiy ezigulikdir, bunday ideal sifatida faqat inson bo'lishi mumkin" kabi g'oyalarda ko'rish mumkin.

Kantning falsafiy-estetik merosi nafaqat G'arb, balki global ahamiyatga ega bo'lgan Haqiqat, Go'zallik va Ezigulikning yaxlit falsafiy tizimini tashkil etadi. Uning tadqiqotlarida nafis san'at turlari va ijod jarayoni, axloqiy qoidalar, go'zallik va ulug'vorlik, did hukmi, ilm va axloq masalalari ustuvor o'rin egallaydi.

Immanuel Kant fikricha, san'atning asosiy vazifasi "atrof-olamni insoniy ruh bilan qayta tiklash"dan iborat. San'at orqali go'zallik va ulug'vorlikni his etishga o'rgatish mohiyatan axloqiy tarbiya bilan dialektik bog'liq jarayon bo'lib, insonning go'zal qalb va yuksak axloq sohibi bo'lib kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Kantga ko'ra, san'at insonni o'z aqliy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga, olamga go'zallik va ezigulik ulashishga undaydi hamda chinakam Inson bo'lishga da'vat etadi.

Kant falsafasida go'zallik mavhum hodisa bo'lsa-da, u muayyan belgilarga ega: beqaror emasligi, balki berarazlik, umumahamiyatlilik, tushunchalarga asoslanmaslik va "maqsadsiz maqsadga muvofiqlik" xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Go'zallik yoqimlilikka aylanib ketmasligi uchun u manfaatdan holi, ya'ni beraraz idrok etilishi lozimligini ta'kidlar ekan, Kant bu fikri bilan Imom G'azzoliyning qadriyatlar ierarxiyasida Allohga muhabbatdan keyingi o'rinda turuvchi "beraraz go'zallikka muhabbat" haqidagi qarashlarini eslatadi. Xuddi shuningdek, go'zallikning "maqsadsiz maqsadga muvofiqligi" haqidagi g'oya Abu Nasr Forobiy ta'limotidan keyin Kant tomonidan falsafiy jihatdan asoslab beriladi.

Forobiy, shuningdek, Ibn Sino va Ibn Rushd ta'limotlarida tabiat va inson oliy ilohiy go'zallikning tajallisi sifatida ikki shaklda mavjud bo'lishi ta'kidlanadi: yashirin (potensial) asos sifatida va ochiq-oydin, faol shaklda. Kant ushbu g'oyani noumenallik va fenomenallik tushunchalari orqali izohlaydi. Noumenallik inson bilish chegarasidan tashqarida bo'lgan "narsa o'zida"ni, fenomenallik esa bilish mumkin bo'lgan "narsa biz uchun"ni anglatadi.

Kant fikricha, inson go'zallik va ulug'vorlikning faqat fenomenal jihatini estetik dunyoqarashi darajasida idrok etadi, ularning noumenal mohiyati esa bilishdan yiroqdir. Shu sababli sof go'zallikning asl mohiyatini to'liq anglash inson uchun mumkin emas. Bu qarash Kantning ulug'vorlik haqidagi ta'limotida ham o'z ifodasini topib, uning ilohiy borliq bilan bog'liqligiga ishora qiladi.

Immanuel Kant ulug'vorlik masalasini tahlil qilar ekan, uni tabiatda mustaqil holda mavjud bo'lgan hodisa sifatida emas, balki insonning ichki ma'naviy-idrokiiy holati bilan bog'liq kategoriya sifatida talqin qiladi. Kantga ko'ra, tabiatda uchraydigan ulug'vor hodisalar aslida go'zallik obyektlari bo'lib, inson ularni o'z qalbi va aqli orqali ulug'vorlik sifatida idrok etadi. Demak, ulug'vorlik tashqi voqelikdan ko'ra, insonning ichki dunyosida – qalb va tafakkurda mavjud bo'lib, uni anglash insonning immanent xususiyati hisoblanadi.

Kant sof ulug'vorlikni yovvoyi tabiat bilan bog'lar ekan, ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan o'simlik yoki juda kichik jonzo'ning tuzilishi va xatti-harakatlari insonni hayratga solishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv tasavvufdagi qarashlar bilan uyg'unlashib, borliqda mavjud bo'lgan har bir narsa-hodisa, uning funksiyasi qanchalik kichik bo'lmasin, universal ilohiy go'zallikning zarrachasi ekanligi haqidagi g'oyani ifodalaydi.

Natijalar va muhokama. G'arb estetikasidan farqli ravishda Sharq estetik tafakkurida go'zallik va komillik qarama-qarshi kategoriyalar – xunuklik yoki nomutanosiblik bilan emas, balki mutlaq go'zallik, mutlaq komillik va uyg'unlik bilan qiyoslanadi. Sharq estetikasining o'ziga xos jihati shundaki, u xunuklikni go'zallikka qarama-qarshi mustaqil kategoriya sifatida tan olmaydi. Go'zallik estetik ideal sifatida universallik, mutlaqlik, cheksizlik va uyg'unlik bilan bog'lanib, zamon va makon, tarixiylik va ijtimoiylik chegaralaridan ustun turadi.

Kant ham xunuklikni go'zallikka qarama-qarshi qo'ymaydi, balki uni go'zallikning yuksak ijobiy mohiyatini ochib beruvchi vosita sifatida talqin etadi. Xunuklikni san'atda

jonli va tabiiy tasvirlash orqali, bir tomondan, insonni ushbu hodisa bilan “tanishtiradi”, ikkinchi tomondan esa xunuklikka nisbatan estetik va axloqiy nafratni shakllantirib, undan yiroqlashishga undaydi. Shu tariqa xunuklik san’at asariga emas, balki hodisaning o’ziga nisbatan salbiy munosabatni uyg’otadi.

Kant estetik nazariyasida go’zallik berarazlik, umumahamiyatlilik, tushunchalarga asoslanmaslik va “maqsadsiz maqsadga muvofiqlik” kabi xususiyatlarga ega bo’lib, uning rivoji ulug’vorlik kategoriyasi orqali davom ettiriladi. Bu jarayonda go’zallik chegaralanmagan, dinamik estetik hodisa sifatida namoyon bo’ladi.

Tasavvuf ta’limotida esa go’zallik, uyg’unlik va komillik o’z manbasini Allohdan oladi va insonda ham mujassam bo’lishi mumkin. Sof ilohiy go’zallik Allohga bo’lgan ulug’vor va ekstaz holatidagi muhabbat orqali namoyon bo’ladi. Tasavvufga ko’ra, oliy go’zallik va borlik uyg’unligini aql, mantiq yoki ilmiy bilish orqali to’liq anglash mumkin emas; bu haqiqat faqat qalbiy kechinma, intuitiv idrok, trans va mistik muhabbat orqali his etiladi.

Shu bois, tasavvufda Alloh estetiklashtirilgan timsollarda – yaratuvchi va bunyodkor kuch, ilohiy ishq sababli mastlik manbai, mutlaq go’zallik, ilohiy nur va donolik timsoli sifatida ifodalanadi. Bu yondashuv Sharq estetik tafakkurida ulug’vorlik va ilohiy muhabbatning markaziy o’rin egallashini yaqqol ko’rsatadi.

Sharq falsafasining diqqat markazida insonning axloqiy va intellektual kamoloti masalasi turadi. Aynan ushbu maqsad Immanuel Kant estetik qarashlarining ham asosini tashkil etadi. Kant Kopernik tomonidan ilm-fan doirasidan siqib chiqarilgan antropotsentrizmni qayta tiklab, uni falsafa va insoniyat tafakkurining markaziga olib chiqdi. Unga ko’ra, borliqdagi hodisalar inson aql-idroki orqali anglanadi va mazmun kasb etadi; ya’ni, olam “inson atrofida” tafakkuriy jihatdan shakllanadi.

Kantning mashhur “Kopernikona to’ntarishi” mohiyatan musulmon metafizikasiga xos bo’lgan “olaning o’tkinchiligi va illyuzion xarakteri” haqidagi g’oyalari bilan ma’lum darajada uyg’unlashadi. U bilish jarayonida obyekt emas, balki subyektning faol rolini asoslab, voqelikning inson ongida konstruksiya qilinishini ta’kidlaydi[4]. Shu bilan birga, Kant Sharq tafakkuriga tanqidiy munosabat bildirgan holda, fors va arab mutafakkirlarining spekulativ tafakkurga intilganini, biroq mantiqiy qoidalarni asosan Aristotel an’analariidan olganini qayd etadi. Shunga qaramay, u Sharq va Islom madaniyatiga xos ayrim g’oyalarni ijodiy o’zlashtirib, G’arb va Sharq estetik tafakkurining organik sinteziga erishadi. Bu holat Bibliya va Qur’ondagi obrazlarning uyg’unlashuvi, tor diniy dunyoqarashdan chiqish imkonini beruvchi falsafiy manba sifatida namoyon bo’ladi.

Biroq tasavvufga xos bo’lgan, ijodni faqat payg’ambarlar faoliyatiga xos deb bilish yoki ijodiy ilhomni passiv kuzatuv bilan cheklash Kant qarashlariga mutlaqo ziddir. Kant har bir insonni bilim olishga, o’z aqlidan mustaqil

foydalanishga, ijodkorlik va faollikka chorlaydi. U ma’rifatparvarlik ruhida “insonlarga tayyor fikrlarni emas, balki fikrlashni o’rgatish zarur” degan tamoyilni ilgari suradi.

Faylasuf fikricha, aprior ratsionallik nafaqat bilish va axloq sohalarining, balki estetik anglash jarayonining ham asosiy metodologik poydevorini tashkil etadi. Shu jihatdan Kant estetikasi insonning aqliy, axloqiy va estetik kamolotini yaxlit holda talqin etuvchi universal falsafiy tizim sifatida namoyon bo’ladi.

Faylasuf estetik hissiyot insonda bevosita axloqiy hissiyotlarni kuchaytirishini asoslashga intiladi. Estetik tajriba jarayonida inson qalbida oliy va umuminsonga xos estetik ideallarning tubanlik va jaholat ustidan g’alaba qozongani bilan bog’liq ichki tartib va uyg’unlik holati vujudga keladi. Aynan shu holat orqali inson, Kant ta’kidlaganidek, o’zining ulug’vor mohiyatini his etadi, mavjudligidan quvonch va hayrat tuyadi hamda hayotining ma’nosi, go’zalligi va betakrorligini chuqur anglay boshlaydi. Biroq zamonaviy G’arb estetik tafakkuri ushbu yo’nalishda izchil rivojlanayotgani kuzatilmaydi. Inson faoliyatining deyarli barcha shakllarini bevosita moddiy manfaat bilan bog’lash natijasida G’arb san’ati tobora “shou-biznes” xarakteriga ega bo’lib bormoqda. Bunday jarayonda san’at va estetikaning aniq, barqaror konseptual asosi yo’qolib, mavhum ideallar va vaqtinchalik moda talablari bilan belgilanadigan, tezkor o’zgaruvchan “kaleidoskopik estetika” ustuvorlik qilmoqda.

Xulosa. Ko’plab hollarda “estetik konsepsiya” yoki “estetik kompozitsiya” nomi ostida taqdim etilayotgan ishlarda chuqur falsafiy mazmun emas, balki terminologik xilma-xillik va tashqi shakl bilan cheklanish holati namoyon bo’ladi. Yaqindan tahlil qilinganda, bunday yondashuvlar mohiyatan estetik rang-baranglikni emas, balki mazmunsiz nomlar almashuvini ifodalayotgani ayonlashadi. Estetik bilim va metodologik tayyorgarlikdan yiroq mualliflar tomonidan yaratilayotgan “san’at asarlari”da shakl va mazmun o’rtasidagi nomutanosiblik kuchayib, san’atning axloqiy va estetik mustaqilligi izdan chiqmoqda.

Natijada, o’tgan asrlarda jahon madaniyati va butun insoniyat uchun ulkan ahamiyatga ega bo’lgan san’at durdonalari yaratilgan G’arb makonida bugungi kunda “avangard”, “ersats-san’at” kabi nomlar ostida mazmunsiz va yuzaki ijod namunalari keng tarqalmoqda. Yagona estetik va axloqiy poydevorga ega bo’lmagan bunday “ijod” shakllari turli submadaniyatlar tomonidan individuallik, yangilik yoki “shok-qadriyat” sifatida ommaga singdirilmoqda.

Shuningdek, kundalik va o’rtacha didni rag’batlantiruvchi, ezgulik va yovuzlik, go’zallik va xunuklik o’rtasidagi tub farqlarni inkor etuvchi, shaklni mazmundan ajratishga asoslangan G’arbona madaniy mahsulotlar inson ongini real hayotda sodir bo’layotgan jiddiy ijtimoiy va ma’naviy muammolardan chalg’itishga xizmat qilmoqda. Bu orqali mavjud qarama-qarshiliklarni inkor etish yoki ularni unutishga undovchi g’oyalari turli vosita va usullar orqali keng targ’ib qilinayotgani kuzatiladi.

ADABIYOTLAR

1. Форобий. Абу Наср. Фозилодамларшаҳри. Т., Абдулла Қодирийномидагихалкмеросинашриёти., 1993.
2. Г.Т.Маҳмудова, С.М.Арифханова. Зардуштийлик фалсафаси. Т.: Ношир. 2014.
3. Аҳмад Муҳаммад Мубашшир Аҳмад. Ислоҳ Ҳазораси. Т.: Мовороуннаҳр. 2004.
4. Иммануил Кант. Сочинения в 8 т. Т 5, 8. Чоро, 1994.
5. Абдулла Шер. Эстетика. Т.: “Ўзбекистон”. 2014.



Zavqiddin BURXANOV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi
E-mail:zavqiddinburxonov914@gmail.com

DSc, professor M.E.Axmedova taqrizi asosida

MEDIATEXNOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION METODIKASI

Annotsatsiya

Ushbu maqolada mediatexnologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishning innovatsion metodikasi ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli media vositalari, interfaol platformalar, multimodal resurslar va moslashuvchan o'quv muhiti orqali talabalarning til kompetensiyalarini kompleks shakllantirish mexanizmlari yoritiladi. Mediatexnologiyalar ta'lim jarayonida kommunikativ, nutqiy, leksik-grammatik, pragmatik va madaniy-lingvistik ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, innovatsion metodikaning didaktik asoslari, o'qitish jarayonidagi algoritmik bosqichlar, refleksiv tahlil usullari hamda mediaresurslardan pedagogik maqsadga yo'naltirilgan foydalanish shart-sharoitlari asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarda lingvistik kompetensiyalarni barqaror rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va media-savodxonlikni kuchaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: Mediatexnologiya, innovatsion metodika, lingvistik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, multimodal ta'lim, mediaresurslar, raqamli pedagogika, interfaol platformalar, til o'qitish texnologiyalari, media-savodxonlik, til ko'nikmalari, bo'lajak o'qituvchilar tayyorlovi, raqamli ta'lim muhit, didaktik yondashuv.

ИННОВАЦИОННАЯ МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ МЕДИАТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Аннотация

В данной статье с научной и педагогической точки зрения анализируется инновационная методология развития языковых компетенций будущих учителей на основе медiateхнологического подхода. В исследовании освещаются механизмы комплексного формирования языковых компетенций учащихся посредством цифровых медиа, интерактивных платформ, мультимодальных ресурсов и гибких учебных сред. Медiateхнологии рассматриваются как эффективный инструмент развития коммуникативных, речевых, лексико-грамматических, прагматических и культурно-лингвистических навыков в образовательном процессе. Также обосновываются дидактические основы инновационной методологии, алгоритмические этапы учебного процесса, методы рефлексивного анализа и условия педагогического использования медиаресурсов. Результаты исследования дополнены практическими рекомендациями, направленными на устойчивое развитие языковых компетенций учителей, повышение качества образования и укрепление медиаграмотности.

Ключевые слова: медiateхнологии, инновационная методология, языковая компетенция, коммуникативная компетенция, мультимодальное образование, медиаресурсы, цифровая педагогика, интерактивные платформы, технологии обучения языку, медиаграмотность, языковые навыки, подготовка будущих учителей, цифровая образовательная среда, дидактический подход.

INNOVATIVE METHODOLOGY OF DEVELOPING LINGUISTIC COMPETENCES IN FUTURE TEACHERS BASED ON A MEDIATECHNOLOGICAL APPROACH

Annotation

This article analyzes the innovative methodology for developing linguistic competencies in future teachers based on the media technology approach from a scientific and pedagogical point of view. The study highlights the mechanisms for the complex formation of students' language competencies through digital media, interactive platforms, multimodal resources and flexible learning environments. Media technologies are considered as an effective tool for the development of communicative, speech, lexical-grammatical, pragmatic and cultural-linguistic skills in the educational process. The didactic foundations of the innovative methodology, algorithmic stages in the teaching process, reflexive analysis methods and conditions for the pedagogical use of media resources are also substantiated. The results of the study are enriched with practical recommendations aimed at the sustainable development of linguistic competencies in future teachers, improving the quality of education and strengthening media literacy.

Keywords: Media technology, innovative methodology, linguistic competence, communicative competence, multimodal education, media resources, digital pedagogy, interactive platforms, language teaching technologies, media literacy, language skills, training of future teachers, digital learning environment, didactic approach.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar, global axborot kommunikatsiya vositalari va media platformalarining keng qo'llanilishi bo'lajak o'qituvchilar tayyorlov jarayonida yangi metodik

yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi kunda nafaqat tilni bilish, balki axborotni qayta ishlash, multimodal matnlarni tahlil qilish, turli kommunikativ vaziyatlarda muloqot

strategiyalarini ongli qo'llay bilish kabi ko'nikmalar majmuasini o'z ichiga oladi. Shu bois mediatexnologik yondashuv til ta'limining zamonaviy paradigmasida strategik ahamiyat kasb etib, o'quv jarayonini integrativ, interfaol va kreativ asosda tashkil etishga imkon yaratmoqda.

Mediatexnologiyalar yordamida o'qitish til materialini ko'rgazmali, eshituv va ko'ruv signallari bilan boyitilgan, multimodal shaklda taqdim etish imkonini beradi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning fonetik, leksik-grammatik, kommunikativ va pragmatik kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli platformalar orqali tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarda mustaqil ta'limga qiziqish uyg'otadi, media-savodxonlikni oshiradi va real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi. Xalqaro tajriba ham ta'lim jarayonida mediatexnologiyalarni qo'llash o'quvchilar til o'zlashtirish sur'atlari, motivatsiya darajasi va nutqiy faolligi sezilarli oshishini tasdiqlaydi. Shunga qaramay, mediatexnologik yondashuvning ilmiy asoslarini, uni bo'lajak o'qituvchilar tayyorloviga maqsadli integratsiyalash mexanizmlarini va lingvistik kompetensiyalar rivojiga ta'sirini chuqur o'rganish zarurati mavjud.

Metodologik qism. Ushbu tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy ta'limning raqamli transformatsiyasi, mediatexnologik yondashuvning didaktik imkoniyatlari va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishning kompetensiyaviy modeli tashkil etadi. Metodologik yondashuvning markazida talabning faol subyekt sifatida o'quv jarayonidagi ishtiroki, mediaresurslar orqali bilimni konstruktiv o'zlashtirish hamda multimodal axborot bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirish tamoyillari yotadi.

1. Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari

Tadqiqot quyidagi ilmiy konsepsiyalarga tayanadi:

Konstruktivizm nazariyasi – talabning o'quv faoliyati davomida bilimni mustaqil qurish jarayoni, media vositalari orqali faol fikrlashni rag'batlantirish.

Multimodal ta'lim konsepsiyasi – audio, vizual, grafik va matnli axborotlarning integratsiyasi orqali til ko'nikmalarini chuqurlashtirish.

Kommunikativ til o'qitish nazariyasi – real kommunikativ vaziyatlarga mos, interfaol media topshiriqlar orqali kompetensiyalarni rivojlantirish.

Media pedagogika – media vositalarni didaktik jarayonga maqsadli integratsiyalash tamoyillari.

Kompetensiyaviy yondashuv – bo'lajak o'qituvchilarning lingvistik, kommunikativ, pragmatik va madaniy-lingvistik kompetensiyalarini kompleks baholash mezonlari.

2. Tadqiqotning metodlari

Tadqiqot jarayonida ilmiy natijalarning ishonchliligi va obyektivligini ta'minlash maqsadida quyidagi metodlar qo'llanildi:

Nazariy tahlil – mediatexnologik ta'lim, lingvistika va pedagogika bo'yicha xorijiy hamda mahalliy manbalar, ilmiy maqola va monografiyalardan o'rganildi.

Pedagogik tajriba – bo'lajak o'qituvchilar guruhlarida mediatexnologiyaga asoslangan mashg'ulotlar tashkil etildi.

Kuzatuv – o'quv jarayonida media-interfaol topshiriqlarning talaba faolligi va nutqiy kompetensiyalariga ta'siri o'rganildi.

Suhbat va anketa – talabalarining media vositalardan foydalanish bo'yicha fikr va motivatsiya darajasi tahlil qilindi.

3. Tadqiqot obyekti va predmeti

Tadqiqot obyekti: bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida mediatexnologiyalarni qo'llash.

Tadqiqot predmeti: mediatexnologik yondashuv orqali lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishning innovatsion metodikasi.

4. Tadqiqotning metodik modeli

Tadqiqotda ishlab chiqilgan metodika quyidagi bosqichlardan iborat:

Tayyorlov bosqichi – media resurslar tanlanadi, platformalar (Padlet, Quizlet, LearningApps, Kahoot) didaktik maqsadga moslashtiriladi.

Integratsiya bosqichi – multimodal kontent asosidagi mashg'ulotlar tuzilib, talabalarining til ko'nikmalarini faollashtiruvchi interfaol topshiriqlar ishlab chiqiladi.

Amaliy bosqich – media vositalar yordamida real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish, og'zaki va yozma nutqni ishlab borish.

Refleksiya va baholash – talabalarining faoliyati raqamli baholash vositalari orqali tahlil qilinadi, lingvistik kompetensiyalar darajasi diagnostika qilinadi.

Takomillashtirish bosqichi – metodikaning samaradorligi asosida jarayon qayta ko'rib chiqiladi va optimallashtiriladi.

Adabiyotlar tahlili. Mediatexnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish zamonaviy pedagogika va til o'qitish metodikasining ustuvor tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida ko'plab ilmiy manbalarda keng yoritilgan. Jahon tajribasi mediatexnologik yondashuvning lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o'rni nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham asoslanganini ko'rsatadi.

XXI asr ta'limi bo'yicha xalqaro tadqiqotchilar (R. Mayer, H. Jenkins, G. Kress va boshqalar) multimodal axborot muhiti o'quv jarayoniga chuqur integratsiyalashganini ta'kidlaydilar. Ularning ishlarida media vositalar orqali o'quv materialining vizual, eshituv va grafik kanallar orqali qabul qilinishi tilni tez va samarali o'zlashtirishga xizmat qilishi qayd etiladi. Xususan, Kressning multimodal nazariyasida matnni idrok etish jarayoni bir nechta modal birliklar uyg'unligida tahlil qilinadi, bu esa lingvistik kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishga imkon yaratadi. Til o'qitish metodikasida kommunikativ yondashuvni targ'ib qiluvchi tadqiqotlar (J. Richards, D. Nunan) media resurslar real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirishga yordam berishini, ayniqsa, o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalar, pragmatik kompetensiya va madaniyatlararo muloqot malakasini shakllantirishda media vositalar samaradorligini asoslaydi. Ularning fikricha, mediatexnologiyalar orqali yaratilgan muhit til o'rganuvchi uchun tabiiy tilda muloqot qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham mediatexnologik ta'limning dolzarbligi keng yoritilgan. O'zbekiston olimlari (A. Jo'rayev, N. G'afforova, R. Qurbonova va boshqalar) ta'limning raqamlashtirilishi o'quv faoliyatini takomillashtirish, mustaqil o'qish ko'nikmalarini oshirish va pedagogik jarayonni individualashtirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Ular multimodal materiallar til o'rganishda kontekstual ma'no, emotsional ta'sirchanlik va nutqiy faollikni kuchaytirishini ilmiy asoslaydilar.

Media pedagogika sohasidagi tadqiqotlar (S. Livingstone, T. Buckingham, P. Fraillon) media-savodxonlikni shakllantirishni ta'limning asosiy komponenti sifatida ko'rib, talabning media bilan ishlash madaniyati uning fikrlash, tahlil, axborotni qayta ishlash qobiliyatiga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, media pedagogika lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishda mustaqil fikrlashni faollashtiruvchi kuchli vositadir.

O'rganilgan adabiyotlar tahliliga ko'ra, mediatexnologik yondashuv til o'rgatishning quyidagi ilmiy asoslangan jihatlarini ta'minlaydi:

-lingvistik kompetensiyalarni integrativ rivojlantirish;

-multimodal axborot bilan ishlash ko'nikmasini kuchaytirish;

-real kommunikativ vaziyatlarni simulyatsiya qilish;

-o'quv motivatsiyasi va faolligini oshirish;

-talabning mustaqil o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

Shu bilan birga, adabiyotlar ayrim cheklovlarni ham ko'rsatadi: mediatexnologiyalarni faol qo'llash uchun o'qituvchining media-savodxonligi yetarli darajada bo'lishi, texnik ta'minotning mukammal bo'lishi va media materiallarning didaktik jihatdan to'g'ri tanlanishi zarur. Ilmiy manbalar mediatexnologik yondashuvni bo'lajak o'qituvchilarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali va ilmiy asoslangan yo'li sifatida e'tirof etadi. Ushbu adabiyotlar sharhi mazkur tadqiqotning nazariy asosini mustahkamlab, innovatsion metodika ishlab chiqish uchun konseptual asos yaratadi.

Natijalar. Tadqiqot davomida mediatexnologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodika amaliy sinovdan o'tkazildi va quyidagi ilmiy asoslangan natijalarga erishildi.

Lingvistik kompetensiyalarning rivojlanish dinamikasi. Eksperimental guruhlarda media vositalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning lingvistik ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirdi. Diagnostik testlar natijalariga ko'ra:

Leksik boylik o'rtacha

Grammatik strukturalarni qo'llay olish qobiliyati yaxshilandi;

Talaffuz va intonatsion ko'nikmalar rivojlandi;

Pragmatik kompetensiya – nutqiy vaziyatga mos gap qurish qobiliyati oshdi;

Madaniy-lingvistik kompetensiya esa mustahkamlandi.

Bu natijalar media vositalar taqdim etadigan multimodal ma'lumot oqimi til materialini qabul qilishni osonlashtirishi, shuningdek, muloqot ko'nikmalarini faol o'stirishini ko'rsatadi.

Media vositalar yordamida talabalarda real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish qobiliyati shakllandi. Xususan, qisqa videorolik va podkastlar asosida muloqot ssenariylarini yaratish ularning nutqiy faolligini sezilarli kengaytirdi.

Mustaqil ta'lim ko'nikmalarining kuchayishi. Raqamli platformalardan (Padlet, Quizlet, Kahoot, Google Classroom) foydalanish natijasida talabalarda:

mustaqil ma'lumot izlash,

-multimodal manbalarni tahlil qilish,

-o'z-o'zini baholash,

-refleksiv fikrlash

-ko'nikmalari kuchaydi.

Media asosidagi metodikaning ilg'or pedagogik afzalliklari. Metodika quyidagi ustunliklari bilan ajralib turdi:

-o'quv materiali ko'rgazmaliligi va eshituv-vizual tasvirlarning uyg'unligi;

-kommunikativ vaziyatlarni virtual modellashtirish imkoniyati;

-refleksiv o'qitishga sharoit yaratishi;

-talabning individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirishi;

-tahlil, sintez, interpretatsiya kabi yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishi. Bu imkoniyatlar metodikaning amaliy samaradorligini oshirdi va uni lingvistik ta'limda qo'llashning dolzarbligini tasdiqladi. Eksperimental va an'anaviy o'qitish asosida o'qitilganda kompetensiya ko'rsatkichlari qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, mediatexnologiyalardan foydalangan guruhning umumiy

lingvistik rivojlanish ko'rsatkichi yuqori, og'zaki nutq faolligi oshdi, topshiriqlarni bajarish tezligi tezlashdi. Bu natijalar metodikaning an'anaviy yondashuvdan ustun ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Muhokama. Mediatexnologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishning innovatsion metodikasi Ushbu tadqiqotda qo'llangan mediatexnologik yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali natijalar bergani muhokama jarayonida yaqqol ko'rinadi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, media vositalar bilan integratsiyalashgan ta'lim jarayoni o'qituvchilarda motivatsiya, til materialini o'zlashtirish sifati, mustaqil fikrlash hamda kommunikativ faoliyatni sezilarli darajada kuchaytiradi.

Avvalo, tajriba davomida aniqlangan asosiy holatlardan biri – mediatexnologiyalar o'qituvchilarni faol subyekt sifatida o'quv jarayoniga jalb qilishi. An'anaviy yondashuvda o'qituvchi markazida bo'lgan jarayon media asosidagi metodikada ko'proq o'quvchi faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bu tilni amaliy o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Video darsliklar, podkastlar, audiomatlar, interaktiv ekran va mobil ilovalar orqali o'qituvchilar real til muhitiga yaqinlashadi, bu esa lingvistik sezgirlikni tabiiy shakllanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, tadqiqot natijalari ko'rsatganidek, mediatexnologik yondashuv o'qituvchilarning nutqiy kompetensiyalarini yaxshilash bilan birga, ularda madaniy-lingvistik tafakkurni ham rivojlantiradi. Media kontent ko'pincha real kommunikativ vaziyatlar, madaniy kontekst va ijtimoiy-lingvistik holatlarni aks ettirganligi sababli, bo'lajak o'qituvchilar nafaqat til tizimini, balki tilning ijtimoiy faoliyatdagi o'rnini ham chuqurroq anglashi mumkin bo'ladi.

Uchinchidan, o'quv jarayoni mobaynida mediatexnologiyalarning baholash jarayoniga qo'shgan hissassi ham muhim. Raqamli platformalar orqali talabalarning nutqiy faoliyati muntazam monitoring qilinib bordi, bunda avtomatlashtirilgan tahlil, audio yozuvlarni solishtirish, matnlarni sun'iy intellekt orqali tahlil qilish kabi imkoniyatlar o'quv yutuqlarini aniq baholashga sharoit yaratdi. Bu jarayon o'qituvchiga vaqt tejash, o'quvchi esa o'z xatolari ustida tezkor ishlash imkonini oldi.

Xulosa. Mediatexnologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishning innovatsion metodikasi

Yurtlangan tadqiqot natijalari mediatexnologik yondashuvning bo'lajak o'qituvchilarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Media vositalarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi til o'rganishni faollashtiruvchi, qiziqarli va amaliy tajribaga asoslangan pedagogik muhit yaratadi. Bu yondashuv o'qituvchilarni real kommunikativ vaziyatlarga yaqinlashtiradi, ularning tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish kabi asosiy til ko'nikmalarini kompleks shakllantirishga yordam beradi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, mediatexnologiyalar orqali tashkil etilgan mashg'ulotlar o'qituvchilarning motivatsiyasini oshiradi, mustaqil ta'lim olish faoliyatini kuchaytiradi va lingvistik tafakkurni rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Audio va video materiallar, interaktiv platformalar, mobil ilovalar va sun'iy intellekt asosidagi dasturlar talabalarning til muhitini chuqurroq his qilishiga, nutq faoliyatidagi xatolarni tezda aniqlab bartaraf etishiga imkon yaratadi. Shuningdek, tadqiqotdan kelib chiqqan xulosalardan biri – mediatexnologik yondashuv nafaqat lingvistik kompetensiyalarni, balki o'qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR

1. Naurizbaeva A.S. Metodika obucheniya konstruirovaniyu predlojeniy: na urokax Karakalpakskogo yazyka v nachal'nykh klassax shkol s russkim yazykom obucheniya. Avtoref. diss. kand.ped.nauk.– T.: 2002. – 31 b.
2. Bekniyazova N.I. Ta'lim qoraqlpoq tilida olib boriladigan maktablarning boshlang'ich sinflarida o'quvchilar so'z boyligini oshirish (predmet belgisini bildirgan so'zlar misolida). Ped. fan. nomli diss. –T.:1998. 134 b.
3. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-2-3-4 sinflar darsliklari. –T.: 2021.- 118 b.,
4. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldasheva Sh., Shodmonqulova D. (Boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari uchun) Ona tili. Darslik. –T.: O'qituvchi, 2020. – 158 b., 5. Axmedova M.E., Rasulova G.K., Hamroyev G'.H., Kuranbayeva X.A. Ona tili va o'qish savodxonligi metodikasi. Darslik. "Zuxra baraka biznes" MCHJ. -T.: 2023. – 298 b.



Nilufar DO'MAROVA,
Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi o'qituvchisi

PhD, M.Djakbarova taqrizi asosida

POSSIBILITIES OF IMPLEMENTING DIFFERENTIAL TEACHING WITH THE HELP OF DIGITAL EDUCATIONAL TOOLS (ON THE EXAMPLE OF SKILLS DEVELOPMENT)

Annotation

This article analyzes the possibilities of implementing differential training through the use of digital educational tools in the process of professional development. The study showed the role of digital resources in the educational process, their adaptation to the individual characteristics of the audience and their effectiveness in the development of professional competencies. Practical aspects of combining an interactive and differential approach were also highlighted in the skill development system.

Key words: Digital learning tools, differentiated instruction, professional development, professional competence, interactive technologies, individual approach.

ВОЗМОЖНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ)

Аннотация

В данной статье анализируются возможности реализации дифференцированного обучения за счет использования цифровых образовательных инструментов в процессе повышения квалификации. В исследовании показана роль цифровых ресурсов в образовательном процессе, их адаптация к индивидуальным особенностям обучаемых и эффективность в развитии профессиональных компетенций. Также были рассмотрены практические аспекты интеграции интерактивного и дифференциального подходов в систему повышения квалификации.

Ключевые слова: Цифровые образовательные инструменты, дифференцированное обучение, повышение квалификации, профессиональная компетентность, интерактивные технологии, индивидуальный подход.

RAQAMLI TA'LIM VOSITALARI YORDAMIDA DIFFERENSIAL O'QITISHNI AMALGA OSHIRISH IMKONIYATLARI (MALAKA OSHIRISH MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada malaka oshirish jarayonida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish orqali differensial o'qitishni amalga oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli resurslarning ta'lim jarayonidagi roli, ularning tinglovchilarning individual xususiyatlariga moslashuvi va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi samaradorligi ko'rsatildi. Shuningdek, malaka oshirish tizimida interaktiv va differensial yondashuvni birlashtirishning amaliy jihatlari yoritildi.

Kalit so'zlar: Raqamli ta'lim vositalari, differensial o'qitish, malaka oshirish, kasbiy kompetensiya, interaktiv texnologiyalar, individual yondashuv.

Kirish. Bugungi ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, bilim va ko'nikmalarini yangilash zaruratini kuchaytirmoqda. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning individual imkoniyatlarini, bilim darajasini va o'rganish sur'atlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Raqamli ta'lim vositalari (onlayn platformalar, interaktiv taqdimotlar, virtual laboratoriyalar, simulyatorlar) tinglovchilarning o'zlashtirish jarayonini moslashtirish va differensial yondashuvni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, malaka oshirish kurslarida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda differensial o'qitishni tashkil etish, tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va amaliy tayyorgarligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Differensial o'qitish - bu o'quv jarayonini tinglovchilarning bilim darajasi, qobiliyati, kasbiy tajribasi va o'rganish sur'atlariga moslash orqali tashkil etish yondashuvidir. Ushbu metod pedagogik jarayonda quyidagi tamoyillarga tayangan:

1. Individuallashtirish va shaxsga yo'naltirilganlik: ta'lim mazmuni, metodlari va vositalarini har bir tinglovchining individual xususiyatlari, bilim darajasi, tajribasi va qiziqishlariga moslashtirish. Bu yondashuv tinglovchining o'z sur'atida o'rganishiga, kuchli tomonlarini rivojlantirishga va zaif jihatlarni mustahkamlashga imkon beradi. Masalan, raqamli platformalarda tinglovchi o'ziga mos modulni tanlay oladi, videodarslarni qayta ko'rish va mustaqil mashqlarni bajarishi mumkin. Shu bilan birga, individuallashtirish tinglovchida o'z faoliyatiga mas'uliyat va motivatsiyani oshiradi.

2. Topshiriqlar darajasi bo'yicha farqlanish: o'quv vazifalari murakkablik darajasi bo'yicha farqlanishi, tinglovchining bilim va ko'nikma darajasiga mos vazifalarni tanlash imkonini yaratadi. Bu yondashuv o'quv jarayonini bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga o'tish tamoyili asosida tashkil etadi. Masalan, boshlang'ich darajadagi tinglovchilar nazariy bilimlarni qayta ko'rib chiqsa, ilg'or tinglovchilar real kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish va yechim ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Natijada, har bir tinglovchi o'z darajasida muvaffaqiyatga erishadi va o'ziga bo'lgan ishonchi oshadi.

3. Moslashuvchan o'quv faoliyati: ta'lim jarayonida individual va guruhli ishlarni uyg'unlashtirish orqali tinglovchilarning faolligi va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish. Moslashuvchanlik o'quv faoliyatini turli shakllarda tashkil etish imkonini beradi: individual mashqlar, guruh muhokamaları, onlayn forumlar yoki interaktiv seminarlar. Bu usul tinglovchilarga o'z bilimlarini boshqalar bilan muvofiqlashtirish, tajriba almashish va o'z fikrini asoslab yetkazish imkonini beradi.

4. Reflektiv va mustaqil faoliyatni rivojlantirish: tinglovchilar o'z bilimlarini tahlil qilish, baholash va amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Refleksiya jarayoni orqali tinglovchi o'z kuchli va zaif

1-jadval

Differensial ta'lim tamoyillari va ularni amaliyotga tatbiq etish

Tamoyil	Ta'lim jarayonidagi ifodasi	Raqamli vositalar orqali amalga oshirish	Kutilayotgan natija
Individuallashtirish va shaxsga yo'naltirilganlik	Har bir tinglovchining individual xususiyatlari va bilim darajasiga mos ta'lim mazmuni va metodlarini tanlash	Onlayn platformalar, modul tizimi, interaktiv videodarslar	Tinglovchining o'z sur'atida o'rganishi, motivatsiyaning oshishi, kuchli tomonlarning rivojlanishi
Topshiriqlar darajasi bo'yicha farqlanish	Vazifalarni murakkablik darajasiga qarab taqdim etish	Onlayn testlar, darajalashtirilgan vazifalar	Har bir tinglovchi o'z darajasida muvaffaqiyatga erishadi, bilimlarni mustahkamlash
Moslashuvchan o'quv faoliyati	Individual va guruhli ishlarni uyg'unlashtirish	Video-muloqot, chat, forumlar, interaktiv seminarlar	Tinglovchilarning jamoaviy ishlash va muloqot ko'nikmalari rivojlanadi, tajriba almashish
Reflektiv va mustaqil faoliyatni rivojlantirish	O'z bilimini tahlil qilish, baholash va amaliyotga tatbiq etish	Onlayn test natijalari, case-study, loyiha ishlari	Tinglovchilar o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, kasbiy kompetensiyalari rivojlanadi

Raqamli ta'lim vositalari ushbu tamoyillarni amalga oshirishda samarali yordam beradi. Masalan, onlayn testlar va interaktiv platformalar tinglovchilarning bilim darajasini tezkor aniqlashga, virtual laboratoriyalar va simulyatorlar esa amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Malaka oshirish tizimida raqamli texnologiyalarning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Individual yondashuvni ta'minlash – har bir tinglovchi o'z sur'ati va darajasiga mos o'quv materiallarini tanlashi mumkin.

Amaliyot bilan uzviy bog'lanish – virtual laboratoriyalar va case-studylarda bilimlarni real kasbiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyati.

Nazorat va baholashning soddaligi – onlayn testlar va interaktiv monitoring orqali bilim va ko'nikmalarni tezkor baholash.

Tinglovchilarni motivatsiyalash – interaktiv o'yinlar, simulyatorlar va multimedia vositalari o'quv jarayonini qiziqarli qiladi.

tomonlarini aniqlaydi, xatolarini tahlil qiladi va kasbiy rivojlanish strategiyasini belgilaydi. Masalan, onlayn test natijalarini tahlil qilish, case-study yechimlarini muhokama qilish yoki mustaqil loyihalarni ishlab chiqish orqali tinglovchi o'z bilimini mustahkamlaydi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Ushbu tamoyillar birgalikda differensial ta'lim texnologiyasining samarali amalga oshirishini ta'minlaydi. Natijada, tinglovchilar bilimlarni ongli va chuqur o'zlashtiradi, amaliy ko'nikmalarini mustahkamlaydi, shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiradi hamda kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishga tayyor bo'ladi (1-jadval).

Masofaviy va fleksibil ta'lim – raqamli platformalar orqali tinglovchilar o'z vaqtini o'zi boshqarishi mumkin.

Malaka oshirish kurslarida differensial yondashuv usullari raqamli vositalar yordamida samarali tarzda qo'llanadi. Bu usullar tinglovchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bilim, ko'nikma va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi (1-rasm).

1. Darajalashtirilgan topshiriqlar: onlayn platformalar yordamida tinglovchining bilim darajasi va malaka darajasi avtomatik aniqlanadi va unga mos vazifalar tanlanadi. Masalan, platforma oddiy, o'rta va murakkab darajadagi topshiriqlarni taqdim etadi, bu esa tinglovchilarning bilimlarni bosqichma-bosqich va o'z sur'atida o'zlashtirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, darajalashtirilgan topshiriqlar individual yondashuvni kuchaytiradi va har bir tinglovchining o'z imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga yordam beradi.

2. Modul asosida o'qitish: har bir modul interaktiv darslar, videolektsiyalar, onlayn testlar va mustaqil ishlar bilan boyitiladi. Tinglovchilar modulni o'rganib,



1-rasm. Differensial yondashuv usullari

nazariy bilimlarni egallab, so'ngra amaliy mashqlarni bajaradi. Raqamli vositalar orqali modul asosida o'qitish tinglovchilarga o'zlashtirish sur'atini mustaqil belgilash,

materialni qayta ko'rish va bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi.

3. Case va amaliy vaziyatlar: virtual simulyatorlar, interaktiv vaziyatlar va case-study metodlari yordamida

tinglovchilar real kasbiy muammolarni tahlil qiladi va yechim ishlab chiqadi. Bu yondashuv nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga, analitik fikrlash va muammo yechish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli vositalar bu jarayonni yanada qiziqarli va interaktiv qiladi, shuningdek, tinglovchilarni mustaqil fikrlashga undaydi.

4. Loyiha va mustaqil ishlar: guruhlar raqamli platformalarda loyihalarni ishlab chiqadi, ularni taqdim etadi va bir-birini baholaydi. Bu yondashuv tinglovchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi, mas'uliyatni oshiradi va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Onlayn vositalar loyiha jarayonini kuzatish, o'zgarishlarni kiritish va natijalarni saqlash imkonini beradi.

5. Individual va guruhli faoliyatni uyg'unlashtirish: Onlayn forumlar, video-muloqot vositalari, chat va interaktiv platformalar yordamida tinglovchilar birgalikda ishlaydi, tajriba almashadi va muammolarni birgalikda hal qiladi. Ushbu usul shaxsiy va jamoaviy kompetensiyalarni birgalikda rivojlantirishga xizmat qiladi, shuningdek, masofaviy ta'lim sharoitida ham samarali hamkorlikni ta'minlaydi.

Mazkur differensial yondashuvlar orqali malaka oshirish kurslari nafaqat bilim va ko'nikmalarni oshirishga, balki tinglovchilarning o'z faoliyatini tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va kasbiy muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Raqamli vositalar esa bu jarayonni interaktiv, moslashuvchan va motivatsion qiladi, natijada ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Masalan, "Ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish" mavzusidagi malaka oshirish kursida:

Tinglovchilar avval darajalashtirilgan onlayn test orqali bilim darajasini aniqlaydi.

Keyin modul asosida video-lektsiyalar va interaktiv materiallarni o'rganadi.

Guruhlar virtual case-studyni tahlil qilib, yechim ishlab chiqadi.

Loyihalar tayyorlanib, onlayn platformada taqdim etiladi.

Kurs yakunida reflektiv baholash va natijalarni tahlil qilish amalga oshiriladi.

Bu jarayon tinglovchilarning bilim, ko'nikma, muloqot va reflektiv kompetensiyalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Malaka oshirish kurslarida raqamli ta'lim vositalari yordamida differensial yondashuvni qo'llash natijalari tinglovchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish darajasini sezilarli darajada oshirganini ko'rsatdi. Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy jihatlar kuzatildi:

Bilim komponenti. Darajalashtirilgan topshiriqlar va modul asosida o'qitish orqali tinglovchilar nazariy bilimlarni tez va samarali o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Onlayn testlar natijalari shuni ko'rsatdiki, tinglovchilarning o'rtacha bilim darajasi kurs boshida 65% bo'lgan bo'lsa, kurs yakunida 88% ga yetdi. Bu raqam differensial yondashuv va individual yondashuv samaradorligini tasdiqlaydi.

Faoliyat komponenti. Case-study va virtual simulyatorlar yordamida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish kuzatildi. Tinglovchilar real kasbiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni tahlil qilish va yechim ishlab chiqish qobiliyatlarini oshirdi. Loyihalar va guruh ishlarini baholash natijalari shuni ko'rsatdiki, tinglovchilarning amaliy kompetensiyalari 70% dan 90% gacha o'sdi.

Shaxsiy-kommunikativ component. Individual va guruhli faoliyatni uyg'unlashtirish, onlayn forumlar va video-muloqotlar orqali muloqot ko'nikmalari rivojlantirildi. Tinglovchilar bir-biri bilan tajriba almashdi, guruh ichida vazifalarni taqsimlash va birgalikda ishlash qobiliyatlarini mustahkamladi.

Reflektiv component. Tinglovchilar kurs davomida o'z faoliyatini tahlil qildi, xatolarini aniqladi va amaliy yechimlarni takomillashtirdi. Onlayn baholash va reflektiv mashqlar orqali tinglovchilar o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, shaxsiy rivojlanish rejasini ishlab chiqdi. Refleksiya natijalari o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirganini ko'rsatdi.

Xulosa va takliflar. Raqamli ta'lim vositalari yordamida differensial o'qitishni amalga oshirish malaka oshirish jarayonida samaradorlikni oshiradi, tinglovchilarning individual xususiyatlarini hisobga oladi va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini interaktiv, moslashuvchan va motivatsion qiladi, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi. Shu sababli, malaka oshirish tizimida raqamli vositalardan foydalanish va differensial yondashuvni uyg'unlashtirish pedagogik jarayonning sifatini sezilarli darajada oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi islohotlar va ta'lim tizimi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 184 bet.
2. Xodjayev B.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 256 bet.
3. Azizxo'jayeva N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 212 bet.
4. Musurmonova O. Kasbiy kompetensiya va uni rivojlantirish metodlari. – Toshkent: Ilm-fan, 2021. – 198 bet.
5. UNESCO. Competency-based Education and Training. – Paris: UNESCO, 2020. – 132 bet.



Sadoqat DO'STYOROVA,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: sadoqatdustyorova92@mail.ru

Axborot texnologilari va menejment universiteti dotsenti, PhD Z.Kenjayev taqrizi asosida

EXPLANATION OF THE CONCEPT OF SPIRITUALITY IN THE WORK OF YUSUF KHOS HAJIB "KUTADGU BILIG"

Annotation

This article highlights Yusuf Khos Hajib's view of the perfect man in his work "Kutadgu Bilig" ("Wisdom of Knowledge"), which in a purely Turkic language calls all the characteristics of human spirituality not "spirituality", but "knowledge", identifying the word "spirituality" with "knowledge" and embodying in artistic images the knowledge that a person must acquire to enrich his spiritual world, that is, the path to achieving happiness.

Key words: Spirituality, spiritual, spirituality, morality, virtue, ethics, perfection, knowledge of Kutadgu, kut, wealth, happiness, blessing, knowledge, justice, state, mind, contentment, full land.

ОБЪЯСНЕНИЕ ПОНЯТИЯ ДУХОВНОСТИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА «КУТАДГУ БИЛИГ»

Аннотация

В данной статье освещается взгляд Юсуфа Хос Хаджиба на совершенного человека в его произведении «Кутадгу билиг» («Мудрость знания»), который на чисто тюркском языке называет все характеристики духовности человека не «духовностью», а «знанием», отождествляя слово «духовность» со «знанием» и воплощая в художественных образах те знания, которые человек должен приобрести для обогащения своего духовного мира, то есть пути достижения счастья.

Ключевые слова: Духовность, духовный, духовность, мораль, добродетель, нравственность, совершенство, знание Кутадгу, кут, богатство, счастье, благословение, знание, справедливость, государство, разум, довольство, полная земля.

YUSUF XOS HOJIBNING "QUTADG'U BILIG" ASARIDA MA'NAVIYAT TUSHUNCHASINING YORITILISHI

Annotatsiya

Mazku maqola Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida inson ma'naviyatiga xos bo'lgan jamiki xususiyatlarini "ma'naviyat" deb emas, sof turkiy tilda "bilig" deb keltirib, "ma'naviyat" so'zini "bilim" bilan tenglashtirgani va insonning ma'naviy dunyosini boyitishda egallashi lozim bo'lgan bilimlarni, ya'ni baxt-saodatga erishish yo'llarini badiiy obrazlarda gavdalandirib ko'rsatib berilganini, komil inson haqidagi qarashlarini yoritadi.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, ma'naviy, ruhoniyat, maoniy, fozil, axloqiy, komil, komillik, Qutadg'u bilig, qut, boylik, baxt, baraka, bilig, adolat, davlat, aql, qanoat, tugal er.

Kirish. Inson o'zining aqliy, ruhiy, hissiy dunyosini, imon-e'tiqodini umumlashtirib har xil tushunchalar yordamida ifodalagan. Ulardan ba'zilar ancha umumiy va keng mazmunda qo'llangan bo'lsa, ba'zi birlaridan inson ichki dunyosining aniq bir tomonlarini, qirralarini, yoki aniq holatini ifodalashda foydalanilgan. Eng umumiy tushunchalardan biri sifatida "ma'naviyat" tushunchasi vujudga kelgan. O'z navbatida ma'naviyatning turli jihatlari, tomonlari, maqomi, bosqichlari ilm-fanda, adabiyotda, falsafada o'z aksini topgan. Masalan: hirs, nafs, ibo, hayo, sadoqat, vafo, imon, e'tiqod, sahiylik, komillik, komil inson, o'zligini bilish, Ollohni tanish, maorif, ma'rifat, haqiqatga intilish va hokazo. Ezgulikni anglatuvchi tushunchalar bilan birga uning muqobili bo'lgan yovuzlik, vijdotsizlik, axloqsizlik, joxillik, yovuzlik, baxillik va hokazo tushunchalar ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki bu tushunchalarsiz inson ezgulikni, ma'naviyatni teran o'rgana olmagan.

Inson hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan narsalardan bir qismi uning jismoniy yashashi, moddiy ehtiyoji bilan bog'liq bo'lgan. Ikkinchisi, odamlarning aqli, bilimlari, bir- biriga bo'lgan munosabati, jamoada o'zaro qo'llab-quvatlashi, birgalikda harakat qilishi, qiziqishi, ichki ruhiy kechinmalari, hayoliy dunyosi va hokazolar ham nihoyatda zarurligini anglab bo'lgan.

Yangi O'zbekistonni barpo etish, uchinchi Renessans poydevorini yaratuvchi barkamol avlodni tarbiyalashda ma'naviyatning ahamiyatini Prezident Shavkat Mirziyoyev o'zining ko'plab asarlarida alohida ta'kidlagan. Xususan, "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida shunday yozgan: "Biz uchun ma'naviyat – insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda ko'rish yo'lidagi ezu intilishlar, ibratli fazilatlar majmasidir.

Boshqacha aytganda, ma'naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir" [1]

Yangi O'zbekistonning yangi erkin kamol topgan yuksak ma'naviyatli insonini tarbiyalash uchun, avvalo ma'naviyat tushunchasi mazmun-mohiyatini, uning zamon talablariga moslashib rivojlanishini o'rganish zarur. Bu tushuncha mumtoz adabiyotimizda allomalarimiz tomonidan keng qo'llanilgan, ayniqsa nafs va hirsni yengib, Ollohni va o'z shaxsini, yashashdan maqsadini anglashda, komillikka erishishda ma'rifatli, ma'naviyatli bo'lishning ahamiyatini ta'kidlaganlar.

Yusuf Xos Hojib ham o'zining "Qutadg'u bilig" asarida insonning ma'naviy dunyosini boyitishda egallashi lozim bo'lgan bilimlarni, ya'ni baxt-saodatga erishish yo'llarini badiiy obrazlarda gavdalandirib ko'rsatib beradi. U inson

ma'naviyatiga xos bo'lgan jamiki xususiyatlarini "ma'naviyat" deb emas, sof turkiy tilda "bilig" deb keltirib, "ma'naviyat" so'zini "bilim" bilan tenglashtirgan va insonni baxtli qiladigan narsa bu – bilim deb aytgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida ma'naviyat masalasi yoritilishi va insonning ma'naviy dunyosini boyitishdagi xizmati bir qator olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xorij olimlaridan B.Y. Vladimirtsov aynan turkiy xalqlar madaniyati jihatidan, P.P.Vernadskiy va A.N.Kononovlar axloqiy jihatlaridan kelib chiqib o'rgangan. O'zbek olimlaridan S.I.Ibragimov, M.Qosimov, G'.Karimova, Sh.Shohmuhameddovlar asarning ma'naviy, axloqiy, falsafiy jihatlarini, davlat boshqaruvi, komil inson, adolat, tenglik, axloq, insonparvarlik qarashlarini tahlil qilib o'rganishgan. Tadqiqotda Qosimjon Sodiqov, Manzar Abdulkayrov, Ismoil Soifnazarovning maqolalari o'rganildi va foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanilgan: tizimlilik, tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, obyektivlik, vorisiylik va yangilanish, qiyoslash, umumlashtirish va boshqa dialektik usullar.

Tahlil va natijalar. Yusuf Xos Hojib inson hamma narsaga bilim orqali erishadi: yaxshi hushmuomalaliylik, mehr-oqibat, vafo, sadoqat, fidoiylik, adolatli bo'lish va hokazo. Bularning hammasi axloqiy bilimlardir Tabiat va jamiyatga xos jihatlar esa ilmiy bilimlar orqali o'rganiladi. U inson hayoti davomida bilishi mumkin bo'lmagan narsa yo'qligini hamda bilim bilan yechilmaydigan hech bir jumboq bo'lmashligini aytib, faqatgina bilim osmon sari yo'l ochib berishini, buning uchun esa to'xtamasdan va tinmasdan ilm olish lozimligini uqtiradi.

"Jami ezguliklar bilim nafidur,

Bilim hatto osmon sari yo'l ochur" [2]

Yuqoridagi bayti orqali adib o'zining falsafiy qarashlarida islomdagi so'fiylik ta'limoti o'z ta'sirini ko'rsatgan deyishimiz mumkin. "Bilim hatto osmon sari yo'l ochur" deganda tasavvufdagi Haq yo'liga erishish ya'ni, Olohdan vasliga erishni nazarda tutganligi yaqqol ko'rinib turibdi. Yusuf Xos Hojibning o'zi tariqatparvar bo'lmagan bo'lsada, parhezdorlarga nisbatan hurmati yuqori ekanligini ham ta'kidlagan edi.

Mutafakkir asarni "Qutadg'u bilig" deb nomlashining o'zidanoq inson ma'naviyati, e'tiqodi asosini bilimlar tashkil qilishini ta'kidlagan. Boshqacha aytganda, ma'naviyatning negizi, Forobiy talqiniga ko'ra, ijobiy bilimlar tizimidir.

Yusuf Xos Hojib asarida bilimning insoniyat kamoloti uchun qanchalik foydasi borligini, bilimni insonlarga yuksak ta'riflar berganini va shu bilan birga bilimsiz insonlarning tuban va razilliklarini o'z o'g'itlarida qayta-qayta ta'kidlaganini ko'rishimiz mumkin.

Elga bek bo'lmoqqa bilimdir moya,

Bilimsiz aql ishga qilmas kifoya,

Xato qilsa bek, ey baxtiyor sardor,

Hukm-amri cho'kmasdan davolash darkor.

Bu beklilik dardiga davo bilim, bil,

Ey hushxulq, idrokdan unga shifo qil [3]

"Qutadg'u bilig" dagi "qut" so'zi turkiy tilda "boylik", "baxt", "baraka" [4] degan ma'noni bildirsa, "bilig"(yoki "bilik") esa eski turkiy tilda "bilim", "ilm", "aql" (Keturdilar hakimi nuqtadonni, Bilik birla jahon ichra jahonni. A. Navoiy, Farhod va Shirin) ma'nosini ifodalaydi [4]. Ijtimoiy ong, o'zlikni anglash, oliy maqsadlar qo'yish, maqsadga intilish – bu tushunchalarning hammasi "Qutadg'u bilig", ya'ni yaxshilikka, ezgulikka, baxt-saodatga qaratilgan bilimlardir.

Inson ma'naviy dunyosini yoritib beradigan "ma'naviyat" va "ma'naviy" tushunchasi bilan bir qatorda mumtoz allomalimiz "ruhoniyyat", "maoniy", "fozil",

"axloqiy", "komillik" tushunchalarini ham qo'llagan. "Ruhoniyyat" tushunchasi sharq va g'arb mumtoz adabiyotida dunyoviy tushunchadan ham ko'proq diniy mazmunda ishlatilgan. Din arboblari bejiz ruhoniylar deb atalmaydi.

Yusuf Xos Hojib esa o'z asarida ota-bobolarimizning komil inson haqidagi qarashlarini, komil inson o'zida shakllantirishi va rivojlantirishi kerak bo'lgan bilimlarni: adolat, davlat, aql va qanoatni turli badiiy obrazlar orqali majoziy ma'noda gavdalantiradi. Adolat – podshoh Kuntug'di, davlat – vazir Oy to'ldi, aql – vazirning o'gli Ugdilmish va qanoat – O'zgurmish timsolida tasvirlagan. Inson komillikka qanday erishishi mumkinligini esa qahramonlarining hayot yo'li, bir-biri bilan suhbat, bahs-munozarasi, savol-javobi, pand-nasihati orqali ko'rsatib bergan. U Komillikka erishgan insonni "tugal er" (tugal kishi) deb keltirgan. Biz o'sha davrning qarashlaridan va qadriyatlaridan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, Yusuf Xos Hojib "Tugal er" deb faqat er yigit kishiga nisbat berganini ko'rishimiz mumkin. Bu orqali esa o'z davri jamiyatida asosiy mas'uliyat ham yigit kishi zimmasida ekanligini ham ko'rsatib beradi.

Mutafakkir kishining ma'naviy yuksalishida ikki bosqichni ajratadi: birinchisi – balog'at; bunga ixlos qilsa, har bir bilimli, uqishli kimsa erishuvi mumkin. Kishi kamolotining ikkinchi bosqichi tugallikdir. Unga har kimsaning yetishuvi mushkul. Adibning takidlashicha, tugal erda ikki sifat uyg'unlashmog'i kerak: biri – bilim; ikkinchisi – (zakovat). Ana shu sifatleri bilan kishi tugallikka erishadi deb yozadi:

Bu ikkisi biriksa, bo'lur er tugal,

Tugal er ajunug' tamam er tugal.

(Tarjimasi: Bu ikkisi biriksa, kishi tugal bo'ladi. Tugal er olamni tugal qo'lga oladi) [5].

Yusuf Xos Hojib ham, Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida yoritganidek odob-axloq, ilm, insoniylik va adolat doirasida fikr yuritadi hamda podshoh va amaldorlardan tortib dehqonu hunarmandgacha ya'ni jamiyatdagi barcha toifalarning vazifalari haqida o'z mulohazasini keltiradi. Ko'rishimiz mumkinki Yusuf Xos Hojib ham, Abu Nasr Forobiy ham o'z zamonasidagi jamiyatning axloqiy meyorlaridan kelib chiqib insonning jamiyat oldidagi vazifasi va burchlarini tushuntirib berishga harakat qilgan va hozirgi zamonaviy tilda izohlanayotgan o'z davrining "ideal inson"ni yoritib bergan. "Har bir shaxs baxt-saodatga eltuvchi faoliyat bilan qancha uzoqroq va avvalgidan yanada yaxshiroq shug'ullanaversa uning ko'ngli, ruhiy holati ham shunga muvofiq komilroq, fozilroq bo'lib borad. Kamolot orqali, baxt-saodatga intiluvchi zot qalbi tobora poklanib, yaxshiliklar qilganiga o'zining ham ko'ngli o'sib, zavqi oshib boraveradi" [6].

Ma'naviyat tushunchalari hisoblanadigan "tenglik", "adolat" ni Yusuf Xos Hojib shunday deydi:

Ko'nilik uzala kesan – men ishig,

Adirmas – ma begsig ya qulsig' kishig [7]

(Tarjimasi: Ishni to'g'rilik, ya'ni adolat yuzasidan hal qilaman, Bek yo qulni farqlab o'tirmayman)

Bunda adolatni "to'g'rilik" tushunchasi bilan izohlaydi. Jamiyatdagi ijtimoiy mavqedan qat'iy nazar barcha insonlarni teng, barobar ekanligini va ularga adolat me'zonlari birdek qo'llanilishi kerakligi izohlanayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida o'z davrining ilg'or ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy – axloqiy masalalari madaniyati, ilm-fani, urf-odati va an'analari, tutmush tarzi, qadriyatleri, e'tiqodiy qarashlari, o'g'il-qiz tarbiyasi, kishining ichki ma'naviy olami, uning fazilatlarini yoritib bergan. U komil insonning asosiy xususiyatlarini quyidagicha talqin qilib bergan: bilimni inson o'zidagi bilimni to'g'ri qo'llay olishi, adolatli inson esa har bir ishda adolat bilan

ish yuritishi va jamiyatdagi muvozanatni ta'minlay olishi kerakligini, axloqli va pok inson bo'lish uchun esa amali, so'zi va niyati pok bo'lishini, mas'uliyatli inson bo'lish uchun o'z bilimini va kuchini faqatgina o'z manfaatiga yo'lida qo'llamay, jamiyat farovonligi yo'lida ham sarflashi kerakligini, ichki dunyosi boy, nafsini jilovlay oladigan, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga amal qiladigan inson ma'naviy boy inson ekanligini ko'rsatib berolgan.

Aytishimiz mumkinki Yusuf Xos Hojib inson ma'naviyatini nafaqat diniylik, shuningdek dunyoviylik mazmunida ham yoritib bergan. Turkiy xalqlar axloqiy ongi, diniy va dunyoviy madaniyati va ma'naviyatining yanada chuqurroq o'rganilishiga Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonining ahamiyati yuqori hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Янги ўзбекистон стратегияси [Матн] / Ш.М.Мирзиёев. – Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 2021. – 267-б.
2. Каримов Қ. Илк бадий дoston. – Тошкент, 1976. – 30 б.
3. Ю-91 Юсуф, Хос Ҳожиб
4. Қутадғу билиг / Юсуф Хос Ҳожиб. (2-нашр) – Тошкент: Akademnashr, 2016. 540 б
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 га яқин сўз ва сўз бирикмаси, Ж, V. Шукрона – Ҳ / Масъул муҳаррир А. Мадвалиев. – Т.: "Ўзбекистон нашриёти" давлат унитар корхонаси, 2020. – 389б; 260б
6. "O'zAS", 2010-yil 10-dekabr, 50-son.
7. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. 2-nashri, T.: 2012. 45-46-b.
8. Юсуф Хос Ҳожиб, "Қутадғу билиг". – Т.: Ўзбекистон ССР "Фан" нашриёти, 1972.



UDK:612: 796.10

Nilufar DUSCHANOVA,
Urganch Ranch texnologiya universiteti, PhD

PhD D.Elmuratova taqrizi asosida

NEYROPEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA ADABIY SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Аннотация

Maqolada neyropedagogika fanining asosiy tamoyillari adabiy savodxonlikni shakllantirish jarayoniga tatbiq etilishi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Adabiy matnni idrok etish, anglash, tahlil qilish va ijodiy qayta ishlash jarayonlarining neyrobiologik, kognitiv va psixolingvistik mexanizmlari ochib beriladi. Multisensor yondashuv, emotsional uyg‘onish, assotsiativ bog‘lanishlar, metakognitiv strategiyalar va neyrotilshunoslik asoslari o‘quvchilarda adabiy savodxonlikni shakllantirishga qanday ta’sir ko‘rsatishi ilmiy dalillar asosida yoritiladi. Neyropedagogik texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni harakatga keltiruvchi neyron plastiklik, diqqat jarayonlari, emotsional xotira va semantik tarmoqlar faoliyati bilan bog‘liq holda tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Neyropedagogika, adabiy savodxonlik, kognitiv jarayonlar, neyrobiologiya, psixolingvistika, emotsional xotira, multisensor yondashuv.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЛИТЕРАТУРНОЙ ГРАМОТНОСТИ НА ОСНОВЕ НЕЙРОПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ

Аннотация

В статье проводится научно-теоретический анализ применения основных принципов нейропедагогике в процессе формирования литературной грамотности. Раскрываются нейробиологические, когнитивные и психолингвистические механизмы восприятия, понимания, анализа и творческой переработки художественного текста. На основе научных доказательств рассматривается влияние мультисенсорного подхода, эмоциональной активации, ассоциативных связей, метакогнитивных стратегий и основ нейролингвистики на формирование литературной грамотности учащихся. Роль нейропедагогических технологий в образовательном процессе анализируется в связи с нейронной пластичностью, процессами внимания, эмоциональной памятью и функционированием семантических сетей.

Ключевые слова: Нейропедагогика, литературная грамотность, когнитивные процессы, нейробиология, психолингвистика, эмоциональная память, мультисенсорный подход.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING LITERARY LITERACY THROUGH NEUROPEDAGOGICAL APPROACHES

Annotation

The article provides a scientific and theoretical analysis of the application of the fundamental principles of neuro-pedagogy to the process of developing literary literacy. It reveals the neurobiological, cognitive, and psycholinguistic mechanisms involved in the perception, comprehension, analysis, and creative transformation of literary texts. The study highlights, based on scientific evidence, how multisensory approaches, emotional activation, associative connections, metacognitive strategies, and the foundations of neurolinguistics influence the development of students' literary literacy. The role of neuro-pedagogical technologies in the educational process is examined in relation to neural plasticity, attention processes, emotional memory, and the functioning of semantic networks.

Key words: Neuro-pedagogy, literary literacy, cognitive processes, neurobiology, psycholinguistics, emotional memory, multisensory approach.

Kirish. Ta’lim jarayonida adabiy savodxonlikni rivojlantirish bugungi kunda nafaqat metodik muammo, balki psixologik va neyrobiologik mexanizmlar bilan chambarchas bog‘liq ilmiy yo‘nalishga aylangan. Zamonaviy neyropedagogika idrok, diqqat, xotira, emotsional intellekt va til tizimlarining o‘zaro aloqasi orqali o‘quvchida adabiy matnni qabul qilish, tahlil etish va ijodiy qayta ishlash jarayonlarining fiziologik asoslarini ochib beradi. Adabiy savodxonlik endilikda faqatgina badiiy matnni o‘qish malakasi emas, balki matnning ma’no qatlamlarini anglash, konseptual fikrlash, metaforik tasavvurni rivojlantirish, personajlar ruhiy holatini tushunish va matnga emotsional javob berish qobiliyati sifatida talqin qilinmoqda. Shunday ekan, o‘quv jarayonini neyropedagogik prinsiplar asosida tashkil etish ta’lim samaradorligini sezilarli oshiradi.

Adabiyotlar sharhi. Kuznetsovaning fikricha, neyropedagogika ta’lim jarayonini miya faoliyati qonuniyatlari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan kompleks ilmiy yo‘nalish bo‘lib, bunda emotsional faollik, diqqatning boshqarilishi, multisensor idrok, assotsiativ tarmoqlarni shakllantirish kabi omillar o‘quvchining matnni chuqurroq anglashida hal qiluvchi o‘rin tutadi [1]. Uning tadqiqotlarida o‘quv jarayonida vizual, eshituv va kinestetik kodlarning uyg‘un ishlatilishi adabiy savodxonlikning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ilmiy dalillar bilan asoslangan.

Levitinning fikricha, inson miyasi ma’lumotlarni semantik bloklarga ajratish orqali tartiblaydi va bu jarayon badiiy matnni idrok etishda ham muhim mexanizm hisoblanadi [2]. U adabiy o‘qish jarayonida diqqatning dinamik boshqarilishi, eslashni yengillashtiruvchi kontekstual bog‘lanishlar va hissiy signallar o‘rtasidagi muvozanatni inson

xotirasining asosiy tamoyili sifatida izohlaydi. Bu esa adabiy savodxonlikni rivojlantirishda kognitiv murakkablikni to'g'ri dozada berish zarurligini ko'rsatadi.

Immordino-Yangning ta'kidlashicha, o'quvchilar matn bilan emotsional jihatdan bog'lanmaguncha chuqur o'rganish jarayoni sodir bo'lmaydi [3]. U affektiv neyrofanlar tadqiqotlariga tayangan holda emotsional tajriba va bilish jarayonlari bir-biridan ajralmasligini isbotlaydi. Badiiy matnni tahlil qilishda personajlarning kechinmalariga kirib borish, dramatik vaziyatlarni his etish va voqelikni o'z hayoti bilan taqqoslash neyron plastiklikni kuchaytirishi haqida ilmiy asoslangan fikrlar bildiradi.

Gazzaniga ta'riflagan kognitiv neyrobiologiya konsepsiyasiga ko'ra, adabiy o'qish jarayonida bir vaqtning o'zida bir necha neyron tizimlar – semantik xotira, til tahlili, vizual tasvirlarni qayta ishlash, emotsional markazlar – parallel tarzda ishlaydi [4]. Muallifning ilmiy izlanishlari badiiy matnning aynan ko'p qatlamli ko'rinishda qabul qilinishini miya tuzilmasi bilan bog'lab tushuntiradi. Bu yondashuv adabiy savodxonlikni faqat tilga oid ko'nikma emas, balki integrativ kognitiv jarayon sifatida talqin qilishga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Adabiy savodxonlik murakkab kognitiv jarayonlarga tayanadi. O'quvchi matni idrok etayotganda miya po'stlog'ining bir nechta bo'limlari bir vaqtning o'zida faollashadi: frontal soha – ma'no izlash jarayonini boshqaradi, temporal soha – matn mazmunini kodlaydi, parietal soha – mantiqiy bog'lanishlarni qayta ishlaydi. Ayniqsa, badiiy matndagi obrazlar va syujetlar amigdala va gipokamp tizimida emotsional xotira mexanizmlarini harakatga keltiradi. Bu esa o'quvchining voqeani chuqurroq his qilishi va matni yaxshi eslab qolishiga yordam beradi. Metafora, epitet, ramz kabi badiiy unsurlar miyadagi tasviriy fikrlash markazlarini faollashtirib, konseptual tahlil qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Adabiy savodxonlikni rivojlantirish uchun o'quvchi idrok qilish–anglash–tahlil–baholash–ijodiy qayta yaratish bosqichlarini neyrobiologik qonuniyatlarga mos holda o'zlashtirishi zarur.

Neyropedagogika o'qitish jarayonini miya faoliyati imkoniyatlariga mos moslashtirishni tavsiya qiladi. Uning birinchi tamoyili – emotsional uyg'onishdir. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, o'quvchi matnga emotsional jihatdan bog'langanida miya po'stlog'ida dopamin faol ajraladi, bu esa o'qish jarayonini zavqli qiladi va bilimning mustahkamlanishini tezlashtiradi. Adabiyot darslarida dramatik epizodlar, konfliktlar, personajlar ruhiy olamiga kirib borish, muallif tasvirlagan hissiyotlarni jonli tasavvur qilish aynan shu mexanizmi ishga soladi.

Ikkinchi tamoyil – assotsiativ bog'lanishlar yaratish. Matndagi voqealarni o'quvchilarning shaxsiy tajribasi bilan bog'lash, personajlarni real hayotdagi tipajlar bilan taqqoslash, voqealarni vizual xaritalar yordamida ifodalash neyron aloqalarni mustahkamlaydi. Uchinchisi – multisensor yondashuv, ya'ni nafaqat ko'rish, balki eshitish, harakat, rang, tasvir, audio dramatisatsiya, videoxronika kabi ko'p kanalli ta'sirlar orqali matni o'zlashtirish.

To'rtinchi tamoyil – diqqatni boshqarish. Badiiy matn ustida ishlashda qisqa pauzalar, ritmik almashuvlar, “miya damlari”, muhim g'oyalarni klasterlashtirish miyada ortiqcha yuklanishning oldini oladi. Beshinchi tamoyil – metakognitiv refleksiya bo'lib, o'quvchi o'qiyotgan matnini qayta baholaydi, o'z fikrlash strategiyasini tahlil qiladi, qaysi usul bilan ma'no anglash samaraliroq bo'lganini tushunadi.

Neyrotilshunoslik lug'at boyligi, sintaktik konstruksiyalar, matnning lingvopoetik qatlamlari bilan bog'liq neyron faoliyatni o'rganadi. Badiiy matnning obrazga yo'naltirilgan til qurilishi o'quvchida semantik tarmoqlarni faollashtiradi. Masalan, metaforik ifodalar miyada faqat til

markazlarini emas, balki harakatni boshqaruvchi motor korteksini ham faollashtiradi. Shu bois o'quvchilar matndagi tasvirlarni “ko'rib”, “his qilib”, “jonlantirib” o'qiydi. Sintaktik murakkablik o'quvchining fikrni tartibga solish ko'nikmalarini kuchaytiradi, poetik ritm esa eshitish-musiqiy markazlarni ishga solib, matnni estetik idrok etishni mustahkamlaydi. Adabiy savodxonlikni shakllantirishda poetik matnlarning roli shundan kelib chiqadiki, ular miyani ko'p kanalli idrokka majbur qiladi.

Neyropedagogik yondashuvlar o'quv jarayoniga bir qator samarali texnologiyalarni olib kiradi. “Vizual kodlash” texnologiyasi asosida o'quvchilar matni ranglar, belgilar, diagrammalar yordamida tuzadi, bu esa semantik strukturalarni aniq ko'rsatadi. “Hissiy xarita” texnologiyasi personajlarning kechinmalarini miya uchun oson qayta ishlanadigan grafik tizimga aylantiradi. “Kognitiv skriptlar” usuli syujetni bosqichma-bosqich modellashtirishga yordam beradi. “Interaktiv dramatisatsiya” o'quvchilarning kattaroq kortikal zonalarini ishga solib, o'rganilgan badiiy matnning mohiyatini chuqurroq anglashini ta'minlaydi.

Shuningdek, neyrofeedback elementlari qo'llanilganda o'quvchilar diqqatni jamlash, matnni tahlil qilish, mantiqiy bog'lanishlarni ochish bosqichlarida o'z kognitiv jarayonini boshqarishni o'rganadi. Bu esa adabiy savodxonlikni barqaror kompetensiyaga aylantiradi.

Badiiy matn bilan ishlash jarayonida motivatsiya, emotsional xavfsizlik muhiti, o'qituvchining muloqot uslubi, o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchi katta rol o'ynaydi. Neyropsixologik tadqiqotlarda isbotlanganki, ijobiy emotsiyalar bilan o'qilgan matn miya tomonidan tezroq kodlanadi va uzoq muddatli xotirada mustahkam joylashadi. Adabiy ta'limda psixologik qo'llab-quvvatlash, individual yondashuv, o'quvchining o'z fikrini erkin ifodalashi uchun imkoniyat yaratish neyron plastiklikni kuchaytiradi. O'quvchilar personajlar taqdiriga ruhiy yaqinlik sezganda empatiya markazlari faol ishlaydi, bu esa tahlil jarayonini yanada mazmunli qiladi.

Natijalar. Neyropedagogikaning adabiy savodxonlikka tatbiqi o'quv jarayonining faqat tashkiliy qismiga emas, balki matn ustida ishlashning chuqur psixik mexanizmlariga ham aloqador. Badiiy matnni o'qiyotgan o'quvchi undagi voqelikni idrok etar ekan, miyada “o'quvchi modeli” deb ataladigan kognitiv konstruksiya shakllanadi. Bu model syujet, makon-vaqt, personajlar o'rtasidagi ichki aloqalar, sabab-oqibat tizimi, hissiy nuqtalar va muallif pozitsiyasining bir butun semantik tuzilmasidir. Neyropsixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nurli sohaning (angular gyrus) faollashuvi aynan shu modelni shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, o'quvchida matnning chuqur mantiqiy skeleti hosil bo'ladi. Demak, adabiy savodxonlik matni “o'qish” emas, balki badiiy olamni ongda qayta yaratish jarayonidir.

Badiiy matnning emotsional ta'siri ham neyrotizimlar darajasida aniq tushuntiriladi. Matndagi keskin burilishlar, konfliktiy vaziyatlar, dramatik cho'qqilar amigdala tizimini faollashtiradi. Bu faollashuv diqqatning keskin jamlanishiga, voqeani kuchli eslab qolishga va personajlarga nisbatan empatiyaning kuchayishiga xizmat qiladi. O'quvchi asardagi biror sahnani “ko'nglidan o'tkazganida” gipokamp xotira markazi chuqur iz qoldiradi. Bu ilmiy mexanizm adabiy ta'limda emotsional rezonansning qanchalik muhimligini namoyon etadi. Shuning uchun zamonaviy adabiyot darslari nafaqat informatsiyani berishga, balki hissiy uyg'onish orqali matnni mazmunan chuqurlashtirishga yo'naltirilishi zarur.

Xulosa va munozara. Neyropedagogik yondashuvlar adabiy savodxonlikni shakllantirish jarayoniga yangi ilmiy mazmun olib kiradi. Miya faoliyati qonuniyatlariga

moslashtirilgan o'qitish jarayoni o'quvchilarda matnni chuqur anglash, badiiy tasavvur, tahlil qilish, baholash va ijodiy yondashuv kompetensiyalarini barqaror rivojlantiradi. Multisensor o'qitish, emotsional uyg'onish, assotsiativ bog'lanishlar, kognitiv skriptlar, vizual modellash kabi usullar miya neyron tarmoqlarini kuchaytirib, adabiy savodxonlikni

zamonaviy ta'limning poydevoriy kompetensiyasiga aylantiradi. Neyropedagogikaning ilmiy-nazariy prinsiplari adabiy ta'limning metodologiyasini boyitadi, o'quvchini matnning ichki olamiga yetaklaydigan samarali mexanizmga aylanadi.

ADABIYOTLAR

1. Kuznetsova, A. V. Neyropedagogika: teoriya i praktika. Moskva: Yurayt, 2021. 278 s.
2. Levitin, D. J. The Organized Mind: Thinking Straight in the Age of Information. New York: Dutton, 2014. 512 p.
3. Immordino-Yang, M. H. Emotions, Learning, and the Brain: Exploring the Educational Implications of Affective Neuroscience. New York: W.W. Norton & Company, 2015. 208 p.
4. Gazzaniga, M. S. Cognitive Neuroscience: The Biology of the Mind. Cambridge: MIT Press, 2019. 744 p.
5. Dehaene, S. Reading in the Brain: The New Science of How We Read. New York: Penguin Books, 2010. 388 p.
6. Bransford, J. D., Brown, A. L., Cocking, R. R. How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School. Washington: National Academy Press, 2000. 374 p.



UDK: 372.881.111.1:004

Gulzira JANGIROVA,

Senior Lecturer of the Department of Uzbek Language and Social Sciences at the Batir Zakirov Institute of National Variety Arts under the State Conservatory of Uzbekistan
E-mail: Dzangirivag@gmail.com

Based on the review of M. A. Abdullayeva, PhD

THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE EDUCATION

Annotation

This article explores the theoretical and practical foundations of integrating digital technologies into English language education. It provides a scientific analysis of the impact of digital tools on learners' motivation, language competencies, and overall educational effectiveness. Furthermore, the advantages of modern platforms and interactive applications in teaching English, as well as the methodological approaches necessary for their effective implementation, are examined.

Key words: Digital technologies, English language education, online platforms, interactive methods, mobile applications, artificial intelligence, virtual classroom, multimedia resources, distance learning, learner motivation, communicative competence, independent learning, digital pedagogy, educational effectiveness.

INGLIZ TILI TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tili ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llashning nazariy va amaliy asoslari yoritiladi. Raqamli vositalarning o'quv motivatsiyasi, til kompetensiyalari va ta'lim samaradorligiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy platformalar va interaktiv dasturlarning ingliz tilini o'rgatishdagi afzalliklari hamda ularni samarali tatbiq etish uchun zarur metodik yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, ingliz tili ta'limi, onlayn platformalar, interaktiv metodlar, mobil ilovalar, sun'iy intellekt, virtual sinf, multimediyaga resurslari, masofaviy ta'lim, o'quv motivatsiyasi, kommunikativ kompetensiya, mustaqil o'rganish, raqamli pedagogika, ta'lim samaradorligi.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРИМЕНЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация

В данной статье раскрываются теоретические и практические основы применения цифровых технологий в процессе обучения английскому языку. Научно анализируется влияние цифровых инструментов на учебную мотивацию, развитие языковых компетенций и повышение эффективности образовательного процесса. Кроме того, рассматриваются преимущества современных платформ и интерактивных программ в обучении английскому языку, а также методические подходы, необходимые для их эффективного внедрения.

Ключевые слова: Цифровые технологии, обучение английскому языку, онлайн-платформы, интерактивные методы, мобильные приложения, искусственный интеллект, виртуальный класс, мультимедийные ресурсы, дистанционное обучение, учебная мотивация, коммуникативная компетенция, самостоятельное обучение, цифровая педагогика, эффективность обучения.

Introduction. In the 21st century, the rapid development of digital technologies has brought about profound transformations in the global education system. Processes of digitalization have led to the renewal of educational content, forms, and methods, requiring the enrichment of traditional teaching approaches with modern pedagogical technologies. In the field of English language education—recognized as the primary means of international communication—the use of digital resources plays a crucial role in enhancing learning effectiveness, personalizing the educational process, and supporting the comprehensive development of learners' language competencies.

The accelerated integration of modern information and communication technologies into the educational process has introduced new methodological approaches in English language teaching. Online learning platforms, interactive software, mobile applications, AI-based learning tools, as well

as video and audio resources serve as effective pedagogical mechanisms that activate learner engagement, foster communicative competence, and support the development of practical language skills. The extensive use of multimedia and virtual learning environments enables learners to practice English in contexts close to real communicative situations, making the language acquisition process more natural and engaging.

According to contemporary educational demands, teaching supported by digital technologies expands learners' independent learning skills, ensures differentiated instruction, provides instant feedback, and offers unlimited access to learning materials. Therefore, studying the theoretical foundations of digital tools in English language education and analyzing their practical effectiveness has become one of the most relevant directions in current scientific research.

This study aims to analyze the theoretical foundations of utilizing digital technologies in English language education, identify their pedagogical advantages, and explore mechanisms for their practical implementation. The research also seeks to develop methodological recommendations that contribute to the modernization and improvement of the teaching and learning process.

Literature review. In recent years, the use of digital technologies in English language education has become one of the most significant research areas within the international academic community. Numerous studies have explored digital didactics, multimodal learning, mobile learning, AI-based instructional systems, and online learning platforms, most of which confirm the positive impact of digital tools on learning effectiveness.

R. Blake (2016) highlights that digital learning tools—particularly Computer-Assisted Language Learning (CALL) technologies—accelerate the language acquisition process, increase learner motivation, and create greater opportunities for interaction in the target language. J. Warschauer (2018) emphasizes that digital communication tools such as forums, chats, blogs, and virtual classrooms enhance social interaction among learners, promote collaboration, and contribute to the development of communicative competence.

Research on multimodal approaches (Mayer, 2014; Kress, 2010) demonstrates that the combined use of video, audio, and interactive materials leads to more effective learning outcomes. These studies affirm that multimedia resources are particularly beneficial in developing listening comprehension, pronunciation, and contextual vocabulary acquisition.

Studies on mobile learning conducted by Stockwell (2017) and Burston (2018) show that mobile applications such as Duolingo, Memrise, and Busuu significantly enhance learner autonomy, support vocabulary development, and facilitate daily language practice. The gamification elements embedded in these applications have been scientifically proven to substantially increase learner motivation.

Research on AI-based educational systems has grown rapidly in recent years. AI tools such as Grammarly, Speak AI, and ChatGPT are increasingly recognized for their pedagogical value, offering automatic error detection, text analysis, and personalized feedback during the language learning process (Reinders & White, 2020).

Local researchers have also contributed to the study of digital technologies in English language education. M. Kholmatova (2021) stresses that platforms such as Zoom, Google Classroom, and Quizlet enhance learner engagement, support collaborative learning, and foster communicative skills. Additionally, government programs aimed at advancing digital education in Uzbekistan serve as a strong foundation for introducing innovative approaches to foreign language instruction.

An analysis of the literature demonstrates that digital technologies serve as effective tools that make English language teaching interactive, flexible, and learner-centered. They facilitate the integrated development of all language components—phonetics, vocabulary, grammar, speaking, and writing. However, some studies also identify challenges such as insufficient technical infrastructure, limited digital literacy among teachers, and potential overdependence on technology among learners.

Overall, the literature review indicates that the theoretical foundations of using digital technologies in English language education are well established, while empirical findings confirm their effectiveness. Nevertheless, ongoing research is required to ensure pedagogically sound and

purposeful integration of these technologies into the teaching and learning process.

Research Methodology. This study is aimed at examining the theoretical and practical aspects of using digital technologies in English language education, and a comprehensive methodological approach was employed throughout the research process. The methodology is based on an integrated system of theoretical and empirical methods, determined by the multifaceted nature of the research problem.

1. Theoretical Methods

Within the framework of the theoretical approach, scientific literature related to English language teaching methodology, digital pedagogy, multimodal learning, mobile learning (m-learning), artificial intelligence tools, and online education concepts was thoroughly analyzed. The following methods were applied:

Literature analysis – studies by local and international scholars concerning the impact of digital technologies on educational effectiveness were examined.

Comparative method – the functional capabilities of various digital platforms, their influence on the learning process, and their effectiveness levels were compared.

Theoretical generalization – based on existing scholarly views, general conclusions were drawn regarding the role and pedagogical significance of digital technologies in the process of English language teaching.

2. Empirical Research Methods

To determine the practical effectiveness of digital technologies, several empirical methods were employed:

Survey method – questionnaires were administered to 50 English language teachers and 100 students, focusing on the use of digital platforms, mobile applications, and artificial intelligence tools. The survey included questions related to learner motivation, classroom participation, and academic performance.

Observation method – lessons conducted using digital tools were systematically observed to assess learners' active participation, interaction, task performance quality, and the development of language competencies.

Statistical analysis – quantitative data obtained from surveys and observations were processed using descriptive and comparative statistical techniques, ensuring the reliability of experimental results.

The methodological framework of the research is grounded in constructivism, learner-centered education, multimodal learning, and communicative competence development theories. All these theoretical foundations support didactic objectives such as activating learner engagement through digital technologies, fostering independent knowledge acquisition, and enabling language use in real communicative contexts.

Conclusion/Recommendation. The conducted theoretical and empirical investigations demonstrate that the use of digital technologies in English language education has become an integral component of modern pedagogy. Digital platforms, mobile applications, artificial intelligence tools, multimedia resources, and virtual learning environments significantly contribute to the individualization, interactivity, and overall effectiveness of the learning process. Research findings confirm that learners in groups where digital technologies were used consistently showed faster development in vocabulary acquisition, listening comprehension, oral communication, writing proficiency, and grammatical competence compared to those taught through traditional methods.

Digital technologies enhance learners' motivation, foster independent learning skills, create environments closely

resembling real communicative situations, and provide opportunities for immediate error analysis and feedback. However, certain challenges—such as insufficient technical infrastructure, low levels of digital literacy among teachers and students, poor internet connectivity, and the risk of excessive dependence on technology—must also be acknowledged.

Overall, the integration of digital technologies into English language education is a crucial factor for improving the quality of teaching, developing learners’ communicative competence, and ensuring their global competitiveness.

Recommendations

Based on the findings, the following recommendations can be made:

Developing digital competence: Organize regular training sessions and professional development courses for English language teachers to improve their ability to effectively use modern digital tools.

Improving technical infrastructure: Equip educational institutions with reliable internet access, modern computers, interactive whiteboards, and multimedia devices.

Systematizing the digitalization of the educational process: Implement online platforms such as Moodle and Google Classroom for conducting lessons, and digitize assessment and monitoring systems.

Integrating AI-based tools: Expand the use of technologies such as ChatGPT, Grammarly, and Speak AI to automatically analyze students’ written and spoken language and provide personalized feedback.

Using gamification elements: Incorporate motivational game-based tools such as Kahoot, Quizlet, and Wordwall into the teaching process to increase learner engagement.

Expanding interactive multimedia resources: Make extensive use of videos, podcasts, virtual tours, and animated materials to strengthen listening comprehension and pronunciation skills.

REFERENCES

1. Blake, R. (2016). *Technology and the Teaching of Foreign Languages*. Georgetown University Press.
2. Warschauer, M. (2018). *Learning in the Digital Age: New Media and Language Education*. Routledge.
3. Mayer, R. E. (2014). *The Cambridge Handbook of Multimedia Learning*. Cambridge University Press.
4. Kress, G. (2010). *Multimodality: A Social Semiotic Approach to Contemporary Communication*. Routledge.
5. Stockwell, G. (2017). “Mobile Learning in Language Education: Current Trends and Future Directions.” *Language Learning & Technology*, 21(3), 21–30.
6. Burston, J. (2018). “Twenty Years of MALL Project Implementation: A Meta-analysis.” *ReCALL*, 30(1), 20–38.
7. Reinders, H., & White, C. (2020). *AI in Language Education: Benefits and Challenges*. Springer.
8. Халмарова, М. (2021). “Ingliz tili ta’limida raqamli platformalarning samaradorligi.” *O‘zbekiston pedagogika jurnali*, 4(2), 45–52.



Zarnigor JURABAYEVA,
Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

DSc, dots. M.Qo'ldasheva taqrizi asosida

METHODOLOGY FOR DEVELOPING SPEECH THROUGH SYNTACTIC MODELS IN PRIMARY GRADE STUDENTS

Annotation

This article will highlight the theoretical foundations of the use of syntactic models in elementary school native language lessons, the methodology of their application and the didactic possibilities in the development of oral and written speech of students. It is scientifically substantiated that syntactic modeling is an effective technology in students in the formation of skills for understanding grammatical units, analyzing sentence construction, consistently expressing content and stating an idea in a logical order.

Key words: Syntactic model, modeling, primary class, native language, speech development, grammatical skills, interactive methods.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ РЕЧИ ЧЕРЕЗ СИНТАКСИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация

В данной статье освещаются теоретические основы использования синтаксических моделей на уроках родного языка в начальных классах, методика их применения и дидактические возможности в развитии устной и письменной речи учащихся. Научно обосновано, что синтаксическое моделирование является эффективной технологией в формировании у учащихся навыков понимания грамматических единиц, анализа конструкции предложения, Свяznego выражения содержания и выражения мысли в логическом порядке.

Ключевые слова: Синтаксическая модель, моделирование, начальный класс, родной язык, развитие речи, грамматические навыки, интерактивные методы.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA SINTAKTIK MODELLAR ORQALI NUTQNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida sintaktik modellardan foydalanishning nazariy asoslari, ularni qo'llash metodikasi va o'quvchilarning og'zaki hamda yozma nutqini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari yoritiladi. Sintaktik modellashtirish o'quvchilarda grammatik birliklarni anglash, gap qurilishini tahlil qilish, mazmuni izchil ifodalash va fikrni mantiqiy tartibda bayon etish malakalarini shakllantirishda samarali texnologiya ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: Sintaktik model, modellashtirish, boshlang'ich sinf, ona tili, nutqni rivojlantirish, grammatik ko'nikma, interfaol metodlar.

Kirish. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, ularni fikrni aniq, izchil va grammatik jihatdan to'g'ri bayon etishga o'rgatish ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Ona tili darslarida qo'llaniladigan sintaktik modellar mazkur maqsadga erishishda samarali metodlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Sintaktik modellashtirish orqali o'quvchi gapning tarkibiy qismlarini anglaydi, gap qurilishini tahlil qiladi, qismlarning o'zaro bog'lanishini ko'radi hamda nutq jarayonida ularni ongli ravishda qo'llashni o'rganadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sintaktik modellashtirish orqali nutqni rivojlantirish bo'yicha ilmiy manbalar tahlili ushbu yo'nalishning nazariy-metodik asoslari ko'plab olimlar tomonidan izchil o'rganilganini A. N. Gvozdev, L. V. Shcherba, A. A. Leontyev kabi tilshunos va psixologiyat olimlar o'quvchilar nutqining rivojlanishi grammatik qurilmalarni ongli tushunish bilan chambarchas bog'liq ekanini ta'kidlaydilar. Ularning tadqiqotlarida sintaksisni o'rgatishda ko'rgazmali modellarni qo'llash bolaning tilni o'zlashtirish jarayonini soddalashtirishi qayd etilgan. Shuningdek, Vygotskiy va Leontyevlarning psixologik yondashuvlari sintaktik modellar orqali o'quvchining fikrlash jarayonini faollashtirish, mantiqiy bog'lanishlarni idrok etish va nutq

strukturasi ustidan ongli nazoratni shakllantirishga xizmat qilishini ilmiy asoslab beradi. Zamonaviy metodik tadqiqotlarda (T. G'afforova, G. Qosimova, R. Safarova va boshqalar) sintaktik modellar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqida grammatik ongni shakllantiruvchi samarali vosita sifatida talqin etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Sintaktik model - bu gapning tuzilishini soddalashtirilgan, sxema ko'rinishida tasvirlash orqali o'quvchiga grammatik munosabatlarni ko'rsatib beruvchi didaktik vosita. Bunday modellar o'quvchilarda:

grammatik kategoriyalarni tez tushunishi;

gap bo'laklarining vazifasini anglash;

mazmuni izchil tuzish;

nutq jarayonida mustaqil fikr bildirish kabi ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Ayniqsa boshlang'ich sinfda abstrakt grammatik tushunchalarni bevosita tushuntirish o'quvchilarga qiyinchilik tug'diradi. Sintaktik modellar esa mazkur jarayonni ko'rgazmali, tushunarli va esda qolarli qiladi.

Sintaktik modellashtirish metodikasi asosan uch bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich: Model bilan tanishtirish. O'qituvchi gapning sxematik ko'rinishini taqdim etadi, asosiy bo'laklarni

belgilaydi va ularning vazifasini tushuntiradi. Masalan: ega-kesim, ega-kesim- aniqlovchi va hokazo.

2-bosqich: Model asosida gap tuzish. O'quvchilar berilgan modelga mos gaplar yaratadi. Ushbu jarayon ularning tasavvurini, lug'at boyligini va grammatik tahlil ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

3-bosqich: Mustaqil modellashtirish. O'quvchi mustaqil ravishda matndan gap tuzadi, uni sxema shakliga keltiradi yoki aksincha, sxemani mazmunli gapga aylantiradi. Bu bosqich kreativ fikrlashni rivojlantiradi.

Ona tili darslarida quyidagi interfaol metodlar bilan sintaktik modellarni qo'llash juda samarali:

“Sxema bo'yicha gap qurish” metodi tavsiya etiladi. O'quvchilarga ma'lum sxema beriladi, ular undan foydalanib mazmunli gap tuzadilar. Bu metod har bir o'quvchining fikrlashini faollashtiradi.

Mavzu: “Hayvonlar” (Ega-kesim-sifatlovchi bo'lak asosida gap tuzish)

Sinf: 2–3-sinflar uchun mos “Sxema bo'yicha gap qurish” metodi - o'quvchilarga gapning soddalashtirilgan sxemasi berilib, ular shu sxema asosida mustaqil mazmunli gap tuzadigan interfaol yondashuvdir. Mazkur metod grammatik ko'nikmalarni mustahkamlaydi, lug'at boyligini kengaytiradi va analitik fikrlashni rivojlantiradi.

1-bosqich. Sxema bilan tanishtirish

O'quvchilarga quyidagi sxema ko'rsatiladi:

ega- sifatlovchi- kesim

O'qituvchi sxemaning ma'nosini tushuntiradi:

ega — gap kim yoki nima haqida ekanini bildiradi.

sifatlovchi — ega haqida qo'shimcha ma'lumot beradi.

kesim — harakat yoki holatni bildiradi.

Namuna: hayvon- rangi/sifati - nima qiladi?

2-bosqich. Sxema bo'yicha gap tuzishga tayyorlash

O'qituvchi o'quvchilarga rasmlar, kartochkalar yoki slaydlar asosida hayvonlar haqida so'zlar beradi:

- hayvonlar: quyon, mushuk, ot, sher, ayiqlar;

- sifatlar: oq, kichkina, tez, kuchli, yumshoq;

- kesimlar: sakraydi, yuguradi, uxladi, yugurmoqda,

ovlaydi.

Bolalar so'zlar ma'nosini aniqlaydi va ularni sxemaga qanday joylash mumkinligini muhokama qiladi.

3-bosqich. Sxema asosida gap qurish

O'qituvchi sxemani taxtaga yozadi:

ega –sifatlovchi- kesim.

O'quvchilar mos so'zlarni tanlab, gap tuzadilar.

Misollar:

Quyon — kichkina — sakraydi.

→ □ “Kichkina quyon sakraydi.”

Ot — tez — yuguradi.

→ □ “Tez ot yuguradi.”

Mushuk — yumshoq — uxladi.

→ □ “Yumshoq mushuk uxladi.”

Bu bosqichda har bir o'quvchi gapni ovoz chiqarib aytadi, o'qituvchi tahlil qiladi.

4-bosqich. Mustaqil ijodiy mashq

O'qituvchi murakkabroq sxema beradi:

ega –sifatlovchi –kesim -qayerda?

O'quvchilar mustaqil gap yaratadilar:

Sher — kuchli — ovlaydi — o'rmonda.

→ □ “Kuchli sher o'rmonda ovlaydi”.

Quyon — oq — yuguradi — dalada.

→ □ “Oq quyon dalada yuguradi”.

Bu bosqich nutqni bog'lash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

5-bosqich. Guruhli ijodiy ish. O'quvchilar 3–4 kishilik guruhlariga ajratiladi. Har bir guruhga alohida sxema va rasm tarqatiladi:

Sxema variantlari:

Ega-kesim-hol.

Ega-sifatlovchi –kesim-vaqt.

Ega-kesim- nima bilan?

Guruhlar o'z sxemasi bo'yicha gap tuzadi va sinfga taqdim etadi. Masalan:

“Bo'rilar tungi paytda uvillaydi.”

“Tez ayiq bugun yugurdi.”

“Sariq qush qanotlari bilan uchmoqda.”

“Sxema bo'yicha gap qurish” metodi dars jarayonida quyidagi natijalarni beradi:

✓ Grammatik birliklarning vazifasini ongli tushunish;

O'quvchi gapning tuzilishini sxemada ko'rganligi uchun uni yodlashdan ko'ra anglaydi.

✓ Fikrni izchil bayon etish;

Bolalar sxema asosida gap tuzishda mantiqiy ketma-ketlikka amal qilishni o'rganadi.

✓ Lug'at boyligini oshirish;

Har safar yangi so'zlar bilan sxema to'ldiriladi.

✓ Mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirish;

O'quvchi bir sxemadan cheksiz xil gaplar tuza olishi orqali kreativ tafakkurini rivojlantiradi.

✓ O'quvchi faolligini oshiradi.

Har bir o'quvchi o'z gapini yaratadi - bu ularning dars jarayonidagi ishtirokini kuchaytiradi (1-rasm).



1-rasm. Sintaktik modellashning nutq rivojiga ta'siri

O'tkazilgan tajriba natijalari shuni tasdiqlaydiki, boshlang'ich sinf ona tili darslarida sintaktik modellashtirish texnologiyalaridan muntazam foydalanish o'quvchilarning nutq kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantiradi. Xususan, o'quvchilar gap qurishda yo'l qo'yiladigan

grammatik xatolarni kamaytiradi, fikrlarni mantiqan bog'lab ifodalash ko'nikmasi shakllanadi, sintaktik birliklardan ongli ravishda foydalanishni o'zlashtiradi. Shuningdek, ularning faol va passiv lug'at boyligi kengayib, mustaqil matn yaratish malakasi ham izchil rivojlanadi. Bularning barchasi sintaktik

modellashirishning o'quvchilarning nutqni to'g'ri, aniq va mazmunli shakllantirish jarayonida samarali metod ekanligini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sintaktik modellashirish asosida nutqni shakllantirish jarayoni amaliy kuzatishlar, tajriba-sinov ishlari va dars jarayonining tahlili orqali o'rganildi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning grammatik savodxonligi, gap qurish ko'nikmalari, tahlil-sintez faoliyati hamda og'zaki-yozma nutqdagi faollik darajasi aniqlangan mezonlar asosida baholandi. Sintaktik modellar qo'llanilgan dars jarayonining tahlili. Darslarda model, sxema va grafik tasvirlardan foydalanish o'quvchilarning:

mavzu mazmunini tezroq anglashiga;
grammatik birliklar orasidagi bog'lanishlarni ko'rishiga;
gap bo'laklari vazifasini tushunib olishiga;

og'zaki nutqda to'g'ri gap tuza olishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi.

Tahlillarga ko'ra, modelga asoslangan mashqlar an'anaviy izohli-talim usullariga nisbatan o'quvchilarni o'quv jarayoniga faolroq jalb qildi. Bunda ayniqsa "Model asosida gap tuzish", "Matndan sxema yaratish" va "Modelni davom ettir" mashqlari yuqori natija beradi.

Xulosa va takliflar. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida sintaktik modellashirishdan foydalanish o'quvchilarning grammatik tushunchalarni chuqur anglashiga, nutq faolligini oshirishga, mustaqil fikrlash va bog'lanishli nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Sintaktik modellarning ko'rgazmalilik, soddalik va funksional yondashuvga asoslangani ularni zamonaviy ta'lim sharoitida samarali texnologiyalardan biri sifatida qo'llash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston. Toshkent. 2022. 212-bet.
2. Abdullayeva, Q. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 256 b.
3. G'ulomov, A., & Usmonov, A. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Fan, 2020. – 312 b.
4. Yo'ldosheva, D. Boshlang'ich ta'limda til o'rgatishning innovatsion metodlari. – Toshkent: Talqin, 2021. – 198 b.
5. Rasulov, R. Sintaksis nazariyasi va uni o'qitish metodikasi. – Toshkent: Universitet, 2018. – 274 b.
6. Hasanov, B. O'quvchilarda nutq o'stirish texnologiyalari. – Buxoro: Durdon, 2022. – 220 b.



Mamlakat IBODOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: ibodova@gmail.com

Toshkent amaliy fanlar universiteti professori G'.H. Hamroyev taqrizi asosida

ONA TILI DARSLARIDA MUMTOZ BADIY MATNLARNI O'QIB TUSHUNISHGA O'RGATUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH

Аннотация

Maqolada mumtoz matni o'qib tushunish ko'nikmasi ustida olib borilgan tadqiqotlar va ularning natijalari bayon qilingan. Unda, asosan, badiiy matnlar tahlilida lug'atlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Mumtoz matnlarning o'quvchilar tomonidan o'qib tushunilmasligi ularning mazkur davr adabiyotiga qiziqmaslikka olib kelishi bilan bog'liq muammo va echimlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: matn, o'qib tushunish, lug'at ustida ishlash, savol va topshiriqlar, mumtoz matnlar, badiiy matn, ona tili mashg'ulotlari.

РАБОТА НАД УЧЕБНЫМИ ЗАДАНИЯМИ, ОБУЧАЮЩИМИ ЧТЕНИЮ И ПОНИМАНИЮ КЛАССИЧЕСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕСТОВ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В статье изложены исследования и их результаты по навыку чтения и понимания классического текста. Основное внимание в ней уделяется развитию навыков работы со словарями при анализе художественных текстов. Были изучены проблемы и решения, связанные с тем, что непонимание классических текстов читателями приводит к их отсутствию интереса к литературе этого периода.

Ключевые слова: текст, понимание прочитанного, работа со словарем, вопросы и задания, классические тексты, художественный текст, уроки родного языка.

WORK ON ACADEMIC ASSIGNMENTS THAT TEACH READING AND UNDERSTANDING CLASSICAL LITERARY TEXTS IN NATIVE LANGUAGE LESSONS

Annotation

The article presents research and its results on the skill of reading and understanding classical text. It focuses on developing vocabulary skills in the analysis of literary texts. The problems and solutions related to the fact that readers' misunderstanding of classical texts leads to their lack of interest in the literature of this period were studied.

Keywords: text, reading comprehension, dictionary work, questions and assignments, classical texts, fiction text, native language lessons.

Kirish. Davlatning taraqqiyoti uning yoshlariga berilayotgan ta'lim sifati, o'quvchilarining egallagan ko'nikma va malakalariga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ta'lim sifatini baholashning xalqaro talablari orasida o'qish savodxonligi, matni tushunish ko'nikmasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, xalqaro baholash tadqiqotlari o'quvchida hayotiy ko'nikmalarning shakllanganlik darajalarini turli aspektlarda tekshirib ko'radi. Jumladan, o'quvchilarning o'qish savodxonligini ham. Ma'lumki, o'qish savodxonligi matn ustida ishlashni taqozo qiladi. Jahon tajribasida matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan o'quv topshiriqlari ko'pincha lug'atlariga bog'lanadi.

Mamlakatimiz xalqaro baholash dasturida qatnashishi ko'zda tutilmoqda. Unda o'quvchilarning o'qish savodxonligi ham tekshirib ko'riladi. Shu nuqtai nazardan o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirish masalasi bugungi kun ona tili va adabiyot ta'limining asosiy maqsadiga aylandi. O'quv lug'atlaridan dars jarayonida samarali foydalanilmasagina o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matn bilan ishlash ko'nikmasining rivojlanish sur'ati oshadi.

Zero, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi

uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1], – deb ta'kidlanishi ona tili ta'limi oldiga mamlakatimiz yoshlarini o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda erkin hamda savodli bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo'yadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Ona tili" darslarida ham, oliy ta'limda ham negadir o'quv lug'atlaridan samarali foydalanilmaydi bu o'zbek o'quvchilariga o'z ona tilini mukammal bilmaslikka, undan unumli foydalana olmaslikka sabab bo'lmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'lim mazmuni masalasi insoniyat tarixida eng qadimiy va ayni vaqtda eng dolzarb masalalardan biri sanaladi. Bu tabiiy hol, albatta. Chunki insonlar taraqqiyotning hamma davrlarida ham "Nimani o'qitish kerak?" degan muhim savolga hamisha javob izlab kelgan va bu jarayon davom etmoqda. Ta'lim mazmuni tushunchasi turlicha talqin qilinadi. I.Ya. Lerner [2] va M.N. Skatkin [3] kabi ayrim olimlar ta'lim mazmuni deganda o'rganish uchun tanlangan va o'quvchilarning o'zlashtirishlari uchun metodik jihatdan ishlangan boy ijtimoiy tajribaning bir qismi sifatida tushunsa, boshqa bir guruh olimlar bu tushuncha bilan birga uni o'rganish usullarini ham angelaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Respublikamizda ham ona tili o'qitish kompetentsiyaviy yondashuvga asoslandi, tayanch

kompetentsiyalar negizida har bir fanga doir alohida kompetentsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi. O'zbek tili faniga doir esa nutqiy va lingvistik kompetentsiyalar tanlandi, tilning barcha sathlarni o'qitish shu ikki mezonga asoslandi. O'quvchilarning ona tilidan egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini xalqaro baholash tizimlariga moslash, shu talablar asosida o'qitish yo'lga qo'yilmoqda. Darslik mualliflari tomonidan o'quvchi ma'nosini bilmaydigan so'zlar to'g'ri ajratilgan va uning ma'nolari tanlash imkoniyati qoldirilgan holda keltirilgan.

Tahlil va natijalar. Lug'at bilan ishlashda nafaqat she'riy, balki nasriy matnlar ham baravar tahlil obyekti sifatida tanlangan. Jumladan 29-darsning "Matn va lug'atlar ustida ishlash" rukni hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil qilingan. Biz ham quyidagicha matn va topshiriq berishimiz mumkin: Matnni diqqat bilan o'qing Navoiy ijodiga mansub tanbehlarning ma'nolarini izohlang. Quyidagi topshiriqlarini bajaring.

1. TANBIH

Qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik – zulmkorlik va noqobil odamga tarbiya hayfidir. Unisini tarbiyangni ayab nobud qilma, bunisiga tarbiyatingni zo'ye' qilma.

Qit'a:

Qobiliyatliga tarbiyat gavhardek qimmatli,
U najosatga tushsa topgan tozalab yuvadi.
Agar ituzumga may aralashtirib suv bersa,
Bunday parvarish uni pok qila oladimi.

2. TANBIH

Hazil, qilaverehdan hurmatsizlik ortadi; Hazilning oxiri janjalga olib keladi. Ko'p hazillashish – nomus va hayo pardasini chok etadi; adab va hurmat egalarini beburd va beobro' qiladi. Qo'lingdan kelgancha ta'zim va adab binosini yiqitma; hayo va hurmat pardasidan tashqari chiqma!

Ruboiy:

Hayo bilan adab e'tiqoddan nishondir.
Hurmat bilan ta'zim – saodatga sabab.
Hayoli va adabli deb tanilganlar
Maqsudiga kech yetushsa, taajjublanish joizdir.

3. TANBIH

Baxil bugun topganini asrab qo'ysa, ertaga uning qabri bugungi ro'zg'oridek qorong'i bo'ladi...

Yumshoq ko'ngilli va hayoli odam hamma joyda azizdir, kattalar nazarida yanada qadrliroq. Yomonlik va yaramaslikni kim qilibdiki, jazosini tortdi, yaxshilik va to'g'rilik urug'ini kim ekibdi, hosilini teribdi.

Bayt:

Yaxshilik urug'ini soch, dehqonga aytiladigan so'z shu;
Har nimaki bugun ekding, shuning hosiliga ko'z tut.

4. TANBIH

Qariyalar muhtojlikka tushib qolsa, kasb – hunar qila olmasa va tilashga tili bormasa, ularga rahm – shafqat qilishga shoshil va qo'lingdan kelgancha ehson qil. Lekin kambag'al yigit ketmon chopo olsa, o'tin tashimoqni uddalasa, unga ehson qilmoq – isrof qilmoqdir.

5. TANBIH

Bilmaganni so'rab o'rgangan – olim; orlanib so'ramagan – o'ziga zolim. Oz – oz o'rganib – dono bo'lur; qatra – qatra yig'ilib – daryo bo'lur. O'rganishdan qochgan – dangasa; o'rganishdan qochish uchun yuziga vaj – bahona eshigini ochgan – ish yoqmas; zahmat chekib ilm o'rgangan – donishmand.

Bayt:

Ilmdan chetda qolgan odam xalq orasidagi qaysar johil,
O'rganishga qattiq kirishgan – jahon allomasi.

6. TANBIH

Tinch va xotirjamlik bilan ichilgan yovg'on umoch, xijolat va mashaqqat bilan yeyilgan qandli kulchadan

yaxshiroq. Eski chopon bilan bemalol tuproqda o'tirmoq – zarbof to'n kiyib birov oldida turgandan yaxshiroq.

Qit'a:

O'zidek bir kimsaga qaram bo'lib,
Shodlik bilan atlas-kimxob ustida o'tirgandan
Barcha qiynovlardan xotirni jam qilib,
Kambag'allik buyrasi ustida o'tirishlik ko'p ortiqdir.

7. TANBIH

Odam – dunyolarga teng sharaf egasidir. It esa – jirkanch maxluqdir. Ammo yaxshilikni bilmaydigan bevafo odam – yaxshilikni unutmaydigan va vafodor itdan pastdir. Vafodor qo'tir it – vafosiz go'zal, barno yigitdan yaxshiroqdir.

8. TANBIH

Aqlli odam el xatosini ko'rib, xulosa chiqaradi va to'g'ri yo'lni tanlaydi. Buni u xatosini boshqalar sezishidan va yuziga solishidan oldin qiladi.

Qit'a:

Oqil boshqalarda xato ko'rsa o'zini tortadi,
O'zini to'g'ri yo'l sari moyil qiladi.
Uning xatosiga el e'tiroz bildirib,
Yuziga qarab aybini aytishiga o'rin qoldirmaydi.

9. TANBIH

Umrni g'animat bil; sog'lik va omonlikka shukur qil. Boylik orttirish yo'lini axtarma; kamsuqumlik bilan iftixor qil. E'tiqodningni hammaga aytib yurma; pulingni sovurma. Kamtarona ravish qil; - beozorlik bilan ko'ngilni ovut.

Befoyda gapni ko'p aytma, foydalik gapni eshitishdan hech qaytma. Oz gapirgan – oz yanglishadi; oz egan – oz kasallanadi. Ochlik negizida hikmat bor; to'qlik tagida g'aflat bor. Qorin to'yg'azish hirsini ko'ngildan yo'q qil; o'zing och qolsang ham – bir ochni to'q qil. O'zingni yasantirishni xayolingdan chiqar; go'zal libos kiyishni istasang, bir yaling'ochning egmini butkar. Libos har qancha zebodir, kiyganingdan kiydirganing yaxshidir.

Bayt:

To'nni har qancha avaylab kiysang ham eskiradi.
Agar yalong'ochga kiydirsang to'zimas to'n o'sha bo'ladi.

1- topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga mos javob berilmagan qatorni aniqlang.

- A) tozalangan qamish cho'pidan to'qilgan to'shama.
- B) o'rinsiz yoki ortiqcha ishlatish, yo'q qilish.
- C) atlas mato
- D) yaxshi tarbiya, ma'qul harakat.

2- topshiriq. Berilgan tanbehlarga mos maqollarni tanlang.

- A) Och qornim- tinch qulog'im.
- B) Har kim ekanin o'rar.
- C) Ilm izlagan yetar, Izlamagan- yitar.
- D) Aqlning o'lchovi idrok.
- F) Kuningni sot- ro'shnolik ol
- G) Bilingki, bevafo, ko'ngil qo'ymoq xatodir.
- H) So'zni aytgin uqqanga, Jonni jonga suqqanga.
- I) Fozillar fazilati- hayot ziynati
- J) Muhtojni boqish savob, dangasani boqish isrof.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quv materiallarini mustahkamlash uchun taklif etilgan to'rtta topshiriqdan atigi bittasi lug'at bilan ishlashga yo'naltirilgan. Bu holat, garchi joriy yilda yangilangan va takomillashirilgan darsliklarda matn bilan ishlashga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, lug'at boyligini rivojlantirish masalasining yetarli darajada yoritilmaganini ko'rsatadi. Vaholanki, til o'rganish jarayonida lug'at bilan ishlash o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda matnni to'g'ri va chuqur anglashida muhim o'rin tutadi.

Shu munosabat bilan, o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishda mavzularni lug‘atlar bilan uzviy va tizimli tarzda bog‘lash zarur. Har bir mavzu doirasida yangi so‘z va iboralarni aniqlash, ularning ma‘nosini izohlash, sinonim va antonimlarini topish, so‘zlarning uslubiy va semantik xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan topshiriqlarni ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, izohli, tarjima va terminologik

lug‘atlardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish o‘quvchilarning mustaqil ishlash malakalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, tilni samarali o‘rgatish jarayonida lug‘atlar asosiy o‘quv vositalaridan biri sifatida qaralishi lozim. Lug‘at bilan ishlashga yo‘naltirilgan topshiriqlarni tizimli ravishda darslik va o‘quv jarayoniga kiritish til ta‘limining sifatini oshirishga, o‘quvchilarning til birliklarini ongli va maqsadli o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2016. –14-б.
2. Mahbub ul-qulub. Alisher Navoiy. – Toshkent: Yoshlar nashri- yot uyi, 2018. – 172 b.
3. Лернер И.Я. Ознакомление учащихся с методами науки как средство связи обучения с жизнью. (К вопросу об исследовательском принципе в обучении) //И.Я.Лернер //Сов. педагогика. 1963. - №10. - С. 15-27.
4. Скаткин М.Н. Современный урок / М.Н.Скаткин, И.Я.Лернер //Нар. образование. 1985. - № 1. - С.102-111.



UDK: 159.9(575.1)

Malika ISLAMOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: malika.daniyeva@gmail.com

O'zMU fan nomzodi, PhD R. Omonov taqrizi asosida

FORMATION AND STRUCTURE OF TELEPRODUCTION ACTIVITIES: THE IMPACT OF ADVANCED FOREIGN EXPERIENCES ON NATIONAL PRACTICE

Annotation

Modern television remains one of the most accessible media. At the same time, it performs a number of important social functions that affect crucial social processes. As the television industry develops, new professions are emerging in it, and the demand for it in practice is growing rapidly. A television producer is one of such modern professions. A television producer is actually not only an organizer, but also a creator in television production. The producer exercises artistic, organizational and financial control over the creation of a television work and is responsible for ensuring that contracts concluded with a company, studio or editorial office comply with the requirements and terms of the contract.

Key words: Television, television industry, television journalist, television producer, television project, history of production.

ФОРМИРОВАНИЕ И СТРУКТУРА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ОБЛАСТИ ТЕЛЕПРОДУКЦИИ: ВЛИЯНИЕ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА НА НАЦИОНАЛЬНУЮ ПРАКТИКУ

Аннотация

Современное телевидение остается одним из самых доступных средств массовой информации. В то же время оно выполняет ряд важных социальных функций, влияющих на важнейшие социальные процессы. По мере развития телевизионной индустрии в ней появляются новые профессии, и спрос на них на практике быстро растет. Телевизионный продюсер — одна из таких современных профессий. Телевизионный продюсер фактически является не только организатором, но и создателем в телевизионном производстве. Продюсер осуществляет художественный, организационный и финансовый контроль над созданием телевизионного произведения и отвечает за то, чтобы контракты, заключенные с компанией, студией или издательством, соответствовали требованиям и условиям контракта.

Ключевые слова: Телевидение, телевизионная индустрия, тележурналист, телепродюсер, телевизионный проект, история производства.

TELEPRODYUSERLIK FAOLIYATINING SHAKLLANISHI VA TARKIBI: ILG'OR HORIJYI TAJRIBALARNING MILLIY AMALIYOTGA TA'SIRI

Annotatsiya

Zamonaviy televideniye eng qulay ommaviy axborot vositalaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga u hal qiluvchi ijtimoiy jarayonlarga ta'sir qiluvchi bir qator muhim ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Teleindustriya rivojlanar ekan, unda yangi kasblar ham paydo bo'lmoqda va amaliyotda unga bo'lgan talab shiddat bilan o'sib bormoqda. Teleprodyuser ana shunday zamonaviy kasblardan biridir. Televizion prodyuser aslida nafaqat tashkilotchidir balki televizion ishlab chiqarishda ijodkor ham sanaladi. Prodyuser televizion asarning yaratilishi ustidan badiiy, tashkiliy va moliyaviy nazoratni amalga oshiradi va kompaniya, studiya yoki tahririyat bilan tuzilgan shartnomalar shartnoma talablari va shartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun javobgardir.

Kalit so'zlar: Televideniye, teleindustriya, telejurnalist, teleprodyuser, teleloyiha, prodyuserlik tarixi.

Kirish. XXI asrning raqamli media makonida televideniye endi faqat axborot yetkazuvchi vosita emas, balki mamlakatning madaniy, iqtisodiy va siyosiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi strategik sohaga aylandi. O'zbekistonda oxirgi o'n yilliklarda davlat telekanallari bilan bir qatorda nodavlat telekanallarining jadal rivojlanishi, xalqaro OTT-platformalarining kirib kelishi, kontent ishlab chiqarishning bozordagi raqobat mexanizmlariga moslashuvi prodyuserlik faoliyatini professional asosda rivojlantirishni talab qilmoqda.

Biz keyingi yillarda, ulug' ajdodlarimiz boshlab bergan ibratli an'analarni davom ettirib, demokratik jamiyatning muhim sharti va tamoyili bo'lgan ommaviy axborot vositalarini izchil rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratmoqdamiz. Ana shunday yondashuv tufayli media makonimizga ilg'or loyiha va texnologiyalar, yangicha mulkiy munosabatlar jadal kirib kelmoqda. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan 2 ming

400 ga yaqin ommaviy axborot vositalarining 65 foizi nodavlat sektor hissasiga to'g'ri kelayotgani, xususiy nashrlar, teleradiokanallar, internet resurslari tobora ortib, ulardan foydalanuvchilar soni 14,7 milliondan 32,7 millionga yetgani, axborot kontentlarini yaratuvchilar safi kengayib borayotgani, hech shubhasiz, mamlakatimizning media sohasidagi salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, milliy mediakontentni rivojlantirish yo'lida yosh ijodkorlar, mustaqil studiya va prodyuserlik markazlari faoliyati qo'llab-quvvatlanayotgani virtual makonda yuksak sifatli, raqobatbardosh loyihalar paydo bo'lishi uchun zamin yaratmoqda. Mamlakatimizda fuqarolarning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini, matbuot va so'z erkinligining qonuniy ijrosini ta'minlash bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmogda.

Prodyuserlik — televideniye va kinoda ijodiy-ma'muriy boshqaruv, loyihaning kontsepsiyasidan tortib moliyalashtirish, ijro etuvchilarni tanlash va auditoriyaga yetkazilgunga qadar bo'lgan butun jarayonni birlashtiruvchi faoliyatdir. O'zbekistonda prodyuserlik amaliyoti televideniye sohaning tashkil topishi va rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning boshlang'ich bosqichlari sovet davrining texnik-tashkiliy sharoitlari va davlat mediyasining ideologik funksiyalari doirasida shakllangan.

Yevropa va Yaponiya tajribasi bilan tanishgan holda, O'zbekiston kontekstiga bog'lash uchun quyidagi amaliy xulosalar olindi:

1. Model moslashtirish — Yaponiya tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda ham ichki (in-house) prodyuserlik imkoniyatlarini kuchaytirish bilan bir qatorda, kichik prodyuserlarni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy mexanizmlar (grantlar, koproduksiya fondlari) joriy etish lozim.

2. Texnik-ijodiy kompetensiyalar — 8K kabi yuqori texnologik loyihalar Yaponiya misolida prodyuserlardan yangi texnik bilimlarni talab qilmoqda; shuning uchun O'zbekistonda prodyuserlar uchun texnik mashg'ulotlar va post-production kurslarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

3. Ijodiy mustaqillik va kichik ishlab chiqaruvchilar — JFTC hisobotidagi tavsiyalar asosida, kichik prodyuserlarning bozordagi pozitsiyasini kuchaytirish uchun adolatli shartnoma mexanizmlari va raqobatni qo'llab-quvvatlash choralari ehtiyoj bor.

Bu esa o'z navbatida prodyuserlikning yangi bosqichga ko'tarilishini davlat darajasida qo'llab-quvvatlash zarurligini tasdiqlaydi. Shu boisdan, milliy teleindustriyada prodyuserlikning shakllanishi, rivojlanishi va hozirgi muammolarini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish masalasi dolzarb va asosli hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlartahlili. Prodyuserlik nazariyasi va amaliyoti bo'yicha xorijda John Thornton Caldwell, Mark Deuze, Jason Mittell, Christine Geraghty, Janet Wasko, Toby Miller, John Corner, Justin Wyatt, Paul McDonald va boshqalar keng qamrovli ilmiy izlanishlar mavjud. Rossiyalik olimlar • Vladimir Kolyada, Maria Shilina, Sergey Muratov, Evgeniy Primakov, Tatyana Samoilenko, Irina Bocharova, Olga Kuznetsova, Aleksey Vorontsov, Natalya Trofimova, Andrey Vartanov va boshqalarning ilmiy izlanishlari o'rganildi. O'zbekistonda esa televideniye rivojlanishi va OAV boshqaruvi bo'yicha tadqiqotlar olib brogan Yusuf Hamdamov, Shavkat Ibragimov, B.S. Sayfullayev va boshqalarning ilmiy ishlari o'rganildi. Lekin davlat va nodavlat telekanallari faoliyati misolida prodyuserlikning shakllanish bosqichlari, rivojlanish dinamikasi va muammolarini kompleks tarzda o'rganishga bag'ishlangan fundamental ishlar yetarli emas.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – O'zbekiston teleindustriyasida prodyuserlik faoliyatining tarixiy shakllanishi, hozirgi rivojlanish bosqichlari va tizimdagi muammolarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslarni takliflar ishlab chiqishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Prodyuserlik tushunchasining nazariy asoslari va xalqaro rivojlanish tajribasini tahlil qilish.

2. O'zbekiston davlat va nodavlat telekanallarida prodyuserlik faoliyatining paydo bo'lishi va evolyutsiyasini bosqichma-bosqich o'rganish.

3. Raqamli transformatsiya sharoitida prodyuserlikning zamonaviy modellari va samaradorlik mezonlarini aniqlash.

4. Kadrlar tayyorlash, moliyalashtirish, huquqiy baza hamda ijodiy erkinlikka doir mavjud muammolarni kompleks baholash.

5. Xorijiy tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, sotsiologik so'rov, yarim tuzilmaviy intervyu, shuningdek media iqtisodiyoti va madaniyatshunoslik usullari qo'llanadi. Empirik ma'lumotlar sifatida prodyuserlar, ijodiy guruh a'zolari va auditoriya vakillari bilan o'tkazilgan so'rovnoma, shuningdek rasmiy statistika va telekanal arxivlari asos qilib olinadi.

Tahlil va natijalar. Teleindustriyada prodyuserlik faoliyatining institutsional va professional rivoji nafaqat kontent sifatini oshiradi, balki milliy media bozorining iqtisodiy barqarorligi, xalqaro raqobatbardoshligi va madaniy xilma-xilligini ta'minlaydi. Davlat siyosati, nodavlat sektorining erkin tashabbuslari hamda raqamli texnologiyalar uyg'unligi bu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

O'zbekiston davlat va nodavlat telekanallari misolida prodyuserlikning shakllanish bosqichlari birinchi bor kompleks ilmiy yondashuv asosida tizimli tahlil qilindi. Milliy teleindustriyada raqamli transformatsiya sharoitida prodyuserlikning institutsional modeli ishlab chiqildi. Xorijiy tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirishning amaliy mexanizmlari – kadrlar tayyorlash, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va huquqiy meyorlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Izlanishlar natijalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

O'zbekiston teleindustriyasi uchun prodyuserlikka oid o'quv dasturlari, malaka oshirish kurslari va kadr tayyorlash strategiyalarini ishlab chiqishda;

Davlat va xususiy telekanallarni boshqarish hamda kontent ishlab chiqarish strategiyalarini;

OAVni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda bevosita qo'llanishi mumkin.

So'nggi o'n yillikda O'zbekiston axborot-madaniy makonida televideniye nafaqat axborot vositasi, balki ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning muhim omiliga aylandi. 2023 yil yakunlariga ko'ra, Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga binoan, aholining 78 foizi asosiy axborot manbai sifatida televideniye tanlaydi, shuningdek 65 foiz tomoshabin haftasiga kamida uch marta xususiy telekanallarni tomosha qiladi. Shu bilan birga, Raqamli rivojlanish vazirligi 2024 yilgi hisobotida O'zbekiston teleindustriyasida tijoriy reklama hajmi 2019 yilga nisbatan 42 foizga oshganini, raqamli platformalar bilan integratsiya esa 35 foizga yetganini qayd etadi. Raqobatning keskinlashuvi va raqamli media muhitining kengayishi teleindustriyada prodyuserlik faoliyatini professional asosda rivojlantirishni taqozo etmoqda. Prezidentning "Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish va ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash to'g'risida"gi farmonlari hamda "2030 yilgacha media sohasini rivojlantirish strategiyasi"da belgilangan vazifalar mazkur mavzuning dolzarbligini davlat darajasida tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Tahliliy adabiyotlarda qayd etilishicha, O'zbekiston prodyuserlari hozirgi kunda nafaqat texnik-tashkiliy, balki brend, marketing va multiplatforma bo'yicha ham strategik qarorlar qabul qiluvchi mutaxassislar sifatida shakllanmoqda. Bu esa prodyuserlik kasbining an'anaviy "efir tashkilotchisi" obrazidan kreativ va biznes-yo'nalisli mutaxassislikka evolyutsiyasini anglatadi.

Muammolar va rivojlanish istiqbollari analitik manbalar prodyuserlik sohasidagi asosiy muammolarni quyidagicha belgilaydi:

kadrlar tayyorlashdagi nomutanosiblik: ijodiy va biznes ko'nikmalarga ega prodyuserlar yetishmasligi.

moliyalashtirish va mustaqil loyiha ishlab chiqishdagi qiyinchiliklar, ayniqsa sifatli serial va hujjatli filmlarga sarmoya yetishmovchiligi.

kontent sifati va xalqaro standartlarga mos kelishi masalalari — texnik jihatdan ham, ssenariy hamda rejissorlik darajasida rivojlanish talab etiladi.

Istiqbolda ilmiy-ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, xalqaro treninglar va rezidentura dasturlarini yo'lga qo'yish, shuningdek, multiplatforma uchun mos biznes-model va grantlarni kengaytirish orqali prodyuserlikning professional darajasi oshishi mumkinligi ta'kidlanadi.

O'zbekistonda prodyuserlik faoliyati televizion infratuzilmaning paydo bo'lishi bilan birga rivojlana boshladi va sovet davrida asosan davlat nazorati ostida tashkil etildi. Mustaqillikdan keyin ommaviy axborot maydonining liberallashtirilishi va xususiy telekanallarning paydo bo'lishi prodyuserlik amaliyotining tijoriy va kreativ jihatdan tezkor rivojlanishiga turtki berdi. So'nggi yillarda raqamli transformatsiya va multiplatforma talablarining kuchayishi prodyuserning ro'lini kengaytirib, uni strategik, kreativ va biznes qobiliyatlari uyg'unligiga ega mutaxassisga aylantirmoqda. Kelayotgan yillarda kadrlar tayyorlash, moliyalashtirish mexanizmlari va sifatli kontent ishlab chiqarish sohalaridagi islohotlar prodyuserlik amaliyotini yanada professional darajaga ko'tarishi kutiladi.

ADABIYOTLAR

1. <https://www.spot.uz/oz/2021/05/20/ott/> "O'zbekistonda "OTT platformasi" ishga tushdi" 20.05.2021
2. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga Prezident tabrigi. 27.06.2025
3. Yaponiya Performance Excellence Online Assotsiatsiyasi jurnali, 7-jild, 1-son
4. Report on Fact-Finding Survey on Transactions for the Production of TV Programs (Overview) July 29, 2015 Japan Fair Trade Commission
5. "O'zbekistonda televizion rivojlanish tarixi" Boysunov B.P. Vaisova N.A.
6. Gubin D. P. radio va televizorning ichki oshxonasi. M.: 2016 yil.
7. Kellison K. televizorda ishlab chiqarish: amaliy yondashuv. Minsk: 2008 yil.



UDK:18:321(575:1)

Qobuljon ISROILOV,
Samarqand Zarmed universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail:isroilovqobuljon9918@gmail.com
Jamol JURAKULOV,
Samarqand Zarmed universiteti dotsenti, PhD

Toshkent amaliy fanlar universiteti Informatika kafedrasida mudiri G.Taylokova taqrizi asosida

JADIDCHILIK HARAKATI: TARIXIY SHAKLLANISHI, MA'RIFIY ISLOHOTLARI, ZAMONAVIY TA'LIM BILAN UYG'UNLASHUVI VA DAVLAT SIYOSATIDA TUTGAN O'RNINI

Аннотация

Ushbu ilmiy maqolada jadidchilik harakatining tarixiy ildizlari, ma'rifiy islohotlarning mazmuni, ta'lim tizimidagi yangiliklari va milliy uyg'onish jarayoniga qo'shgan hissasi har tomonlama tahlil etilgan. Shuningdek, bugungi O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi pedagogik texnologiyalar va "Jadidlar merosi"ga davlat darajasida berilayotgan e'tibor bilan uyg'unlik nuqtalari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, yangi usul maktablari, kompetensiya, milliy uyg'onish, pedagogik innovatsiyalar, davlat siyosati, ma'rifat.

ДЖАДИДИСТСКОЕ ДВИЖЕНИЕ: ЕГО ИСТОРИЧЕСКОЕ СТАНОВЛЕНИЕ, РЕФОРМЫ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ, ИНТЕГРАЦИЯ С СОВРЕМЕННЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ И МЕСТО В ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКЕ

Аннотация

В данной научной статье всесторонне анализируются исторические корни движения джадидов, содержание образовательных реформ, нововведения в системе образования, его вклад в процесс национального возрождения. Выявлены точки соприкосновения с реформами, реализуемыми в системе образования Узбекистана сегодня, новыми педагогическими технологиями, вниманием, уделяемым на государственном уровне «Наследию джадидов».

Ключевые слова: джадидизм, новометодные школы, компетентность, национальное возрождение, педагогические новации, государственная политика, просвещение.

THE JADIDIST MOVEMENT: ITS HISTORICAL FORMATION, EDUCATIONAL REFORMS, ITS INTEGRATION WITH MODERN EDUCATION, AND ITS PLACE IN STATE POLICY

Annotation

This scientific article comprehensively analyzes the historical roots of the Jadid movement, the content of educational reforms, innovations in the education system, and its contribution to the process of national revival. It also reveals points of convergence with the reforms being implemented in the education system of Uzbekistan today, new pedagogical technologies, and the attention paid at the state level to the "Heritage of Jadids."

Keywords: Jadidism, new method schools, competence, national revival, pedagogical innovations, state policy, enlightenment.

Kirish. XX asr boshlarida O'rta Osiyo hududida sodir bo'lgan jadidchilik harakati o'zbek xalqining ma'naviy, madaniy va siyosiy uyg'onishiga zamin yaratgan eng yirik tarixiy jarayonlardan biridir. Mazkur harakat millatning tarixiy o'zligini anglash, zamon talablariga mos yangi ma'rifiy muhitni shakllantirish, ta'lim sohasini tubdan isloh qilish hamda jamiyat hayotini yangilashga qaratilgan harakat sifatida namoyon bo'ldi.

Bugungi globallashuv sharoitida jadidchilik merosi nafaqat tarixiy fenomen sifatida, balki zamonaviy ta'lim siyosati, pedagogik texnologiyalar, milliy mafkura va demokratik davlat barpo qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatayotgan konseptual asos sifatida qayta o'rganilmoqda. Jadidlar jamiyatni isloh qilishning yagona yo'li sifatida ta'lim va matbuot modernizatsiyasini ko'rdilar. Bugun esa mustaqil O'zbekistonning ta'lim tizimida jadidlarning islohotlar mohiyati zamonaviy bilimlar tizimi bilan uyg'unlashib, yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan "Zamonga mos ta'lim-millat taraqqiyotining poydevori" g'oyasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "Harakatlar

strategiyasi", "Yangi O'zbekiston ta'lim konsepsiyasi", "Milliy o'quv dasturi" kabi yirik islohotlar bilan uyg'unlashmoqda.

Mustaqillik yillaridan buyon O'zbekistonda jadidlar merosiga bo'lgan e'tibor yangi bosqichga ko'tarildi: ularning asarlari qayta nashr qilindi, ilmiy markazlar ochildi, maktab va oliy ta'lim tizimiga jadid pedagogikasiga bag'ishlangan yangi kurslar joriy qilindi, davlat darajasida xotira maskanlari barpo etildi.

Adabiyotlar tahlili. Jadidchilik harakatini ilmiy o'rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tizimli tus oldi. Avvaliga bu mavzu ideologik cheklovlar tufayli tor doirada tadqiq etilgan bo'lsa, mustaqillikdan keyin yangi ilmiy yondashuvlar shakllandi. Avloniy, Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi jadidlarning asarlari o'z davrining ma'naviy-ma'rifiy holatini batafsil aks ettiradi. Avloniy asarlarida axloqiy tarbiya, ta'lim metodikasi va ijtimoiy islohotlar tahlil qilinadi. Behbudiy esa dunyoviy bilimlarni o'qitish zaruriyatini, maktablarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash masalasini ilgari suradi.

Yurtimizda B. Qosimov, M. Jalolov, Sh. Rashidov, H. Boltaboev, A. Abdullayev, I. Sodiqov kabi olimlar

jadidchilikning siyosiy, pedagogik va madaniy asoslarini chuqur tadqiq qilganlar. Monografik tahlillarda jadidlarning milliy uyg'onish jarayonidagi o'rni, yangi maktablar tarmog'i, matbuot, sahna san'ati va milliy o'zlikni tiklashga qo'shgan hissalarini yoritiladi. Adrienne Edgar, Adeeb Khalid, Edward Allworth singari xorijiy tarixchilar jadidchilikni modernizatsiya jarayonining Markaziy Osiyodagi o'ziga xos modeli sifatida baholaganlar. Ularning ishlari jadidchilikni global modernizm harakatlari bilan qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim, madaniyat, tarixiy xotira, jadidlar merosiga bag'ishlangan qarorlari harakatning bugungi davrdagi davlat siyosatidagi o'rni aniqlashga yordam beradi. Jadidchilik harakati tasodifiy ravishda yuzaga kelmagan bo'lib, u bir nechta chuqur ijtimoiy, madaniy va siyosiy omillar ta'sirida shakllangan.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar: XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston iqtisodiy jihatdan zaif, ta'lim tizimi esa o'rta asrchiq qoidalari tayanar edi. Maktablar soni ko'p bo'lsa-da, o'qitish samaradorligi past, raqamli va tabiiy fanlar deyarli o'qitilmas edi. Savodxonlikning pastligi va jamiyatning modernizatsiyaga ehtiyoji jadidchilik zaminini yaratdi.

Madaniy-ma'rifiy omillar: Ismoil G'aspirali boshchiligidagi Qrim jadidchiligi va uning "til, fikr, ish birligi" g'oyalari Turkistonga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu g'oyalar asosida yangi maktablar ochila boshladi. Bunda Fitratning Istanbulda olgan ta'limi, Behbudiy va Avloniyning jadid matbuotidagi faoliyati katta rol o'ynagan.

Siyosiy omillar: Rossiya imperiyasi tarkibida qolgan Turkiston jamiyatida milliy ongning o'sishi, mustamlakachilik siyosatining kuchayishi jadidlarning milliy uyg'onish g'oyalarini yanada mustahkamladi.

Mazkur maqola doirasida jadidchilikni quyidagi uch bosqichli model orqali talqin qilishni lozim topdik:

1-bosqich: Ma'rifiy uyg'onish bosqichi (1890–1905) Bu davrda yangi usul maktablari ochildi, birinchi darsliklar yaratildi, maktab islohoti jadidchilikning asosiy mazmunini tashkil qildi.

2-bosqich: Madaniy va matbuot uyg'onishi (1905–1917) "Turkiston", "Taraqiy", "Shuhrat", "Oyina" kabi nashrlar jamiyatni uyg'otdi. Sahna san'atining paydo bo'lishi, teatrning shakllanishi yangi madaniy muhit yaratdi.

3-bosqich: Siyosiy uyg'onish avtonomiya harakati (1917–1920) Jadidlarning siyosiy maydonga chiqishi, Turkiston muxtoriyatining e'lon qilinishi harakatning eng yuqori bosqichi bo'ldi.

Jadidchilik harakatining eng muhim tarkibiy qismi – ta'lim islohoti bo'lib, u o'z davri uchun inqilobiy yangilik sifatida maydonga chiqdi. Jadidlar ta'limni jamiyatni yangilashning bosh yo'li deb bildilar va "Maktab – millatning yuragi" tamoyilini ilgari surdilar. Jadidlarning ta'limga bo'lgan yondashuvi bugungi zamonaviy pedagogikaning ko'plab elementlaridan ham oldinda edi.

Jadid maktablarining asosiy yangiliklari quyidagilardan iborat edi:

1) Tovush (fonetik) usuli. Bu usul o'quvchilarning savod chiqarish jarayonini osonlashtirdi. An'anaviy maktablarda harf nomlarini yodlash asosida o'qitilgan bo'lsa, jadid maktablari tovush asosida o'qitishga o'tdi. Bu zamonaviy fonetik metodning tarixiy ildizidir.

2) Dunyoviy fanlarni o'qitish. Matematika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik kabi fanlar o'qitildi. Bu fanlar o'quvchini fikrlashga, tahlil qilishga, real hayotni tushunishga

o'rgatardi. Bu esa o'sha davr uchun ulkan yangilik edi.

3) Darslik va qo'llanmalar yaratish. Jadidlar quyidagi asarlarni darslik sifatida yozdilar:

- Avloniy – "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim";
- Munavvarqori – "Adibi avval", "Adibi soniy";
- Fitrat – "Rahbari najot", "Oila", "Qiyos ul-lug'at";
- Behbudiy – "Kitob ul-atfol".

Bu darsliklar zamonaviy metodikaga tayanib yozilgan bo'lib, bugungi Milliy o'quv dasturidagi integratsiya yondashuvining boshlang'ich shakli hisoblanadi.

4) Ko'rgazmali ta'lim. Jadidlar dars jarayonida jadvallar, xaritalar, rasmlar, tajriba vositalaridan foydalanarlar. Bu bugungi multimedia vositalari, interaktiv taxta va vizual resurslardan foydalanishning tarixiy asosidir.

5) Mazmunli, qisqa va soddadarslar. Jadidlar darsning uzun emas, balki mazmunli bo'lishi kerakligini ta'kidlaganlar. Bu zamonaviy "minimal yuklama – maksimal natija" metodikasi bilan mos keladi.

Jadid pedagogikasi faqat tarixiy hodisa emas - u bugungi ta'limning intellektual poydevorini tashkil etadi. Jadidlarning asosiy pedagogik tamoyillarini quyidagicha izohlash mumkin:

1) Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Jadidlar o'quvchini subyekti sifatida ko'rganlar. Har bir bolaga individual yondashish, qobiliyatini ochish g'oyasi ilgari surilgan. Bu bugungi

kompetensiyaviy model va differensial ta'limga to'la mos keladi.

2) Tanqidiy fikrlash. Behbudiy gazeta va jurnallar orqali yoshlarni savol berishga, fikrlashga undardi. Bu bugungi: critical thinking, debate texnologiyasi, Case-study, Bloom taksonomiyasi bilan uyg'unlashadi.

3) Amaliy ko'nikmalar. Jadidlar maktabda faqat nazariya emas, balki hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish zarurligini aytganlar. Bu bugungi: STEAM, PBL (Project-based learning) va problemli ta'limning o'zidir.

4) Tarbiya va ma'naviyat birligi. Avloniyning mashhur g'oyasi: "Axloq tarbiyasiz ta'lim – maqsadsiz ish". Bugungi ta'limda bu: milliy g'oya, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va vatanparvarlik kompetensiyasi ko'rinishida davom etmoqda

Jadid matbuoti – o'zbek xalqining siyosiy fikrlashida burilish yasagan hodisadir. Matbuot xalqni uyg'otish, erkin fikrni shakllantirish, zamonaviy fan va madaniyatni targ'ib qilish vositasi bo'ldi. Jadidlar nashr etgan asosiy gazetalar va jurnallar: "Taraqiy", "Xurshid", "Sadoi Turkiston", "Shuhrat", "Oyina" va boshqalar. Bu nashrlarda ijtimoiy adolat masalalari, ayollar ta'limi, iqtisodiy modernizatsiya, milliy uyg'onish hamda mustamlaka siyosatining oqibatlarini muntazam tahlil qilinar edi. Buning natijasida xalqning dunyoqarashi kengaydi, turkistonlik ziyolilar o'zaro fikr almasha boshladilar, adabiyot, teatr, san'at rivojlandi, siyosiy ong shakllandi. Bugungi kunda bu jarayonning davomi sifatida: bloggerlik madaniyati, tahliliy jurnalistika, ochiq axborot siyosati va internet matbuoti jarayoni davom etmoqda.

Jadidlar Turkistonda professional teatrning asoschilari bo'lganlar. Teatr ular uchun xalqni tarbiyalash, ijtimoiy adolat g'oyalarini targ'ib qilish, zamonaviy madaniyatni targ'ib etish vositasi edi. Jadid teatri nafaqat san'at, balki ta'limning amaliy shakli sifatida jamiyat muammolarini ochiq ko'rsatdi, tomoshabinni fikrlashga undadi, sahna orqali yangi dunyoqarash paydo bo'ldi. Bu bugungi edutainment (education + entertainment) - ta'limiy ko'ngilochar texnologiyalarning tarixiy ildizidir.

Jadidlarning eng inqilobiy ishlari – qizlar maktablarini ochish bo'ldi. Behbudiy, Avloniy, Cho'lpon va Fitratlar ayollar savodxonligi, ularning jamiyatdagi o'rni, oilaviy madaniyat hamda sog'lom millat tarbiyasi masalalarida yoshni hayratga soladigan jasorat ko'rsatdilar. Bugungi ta'lim tizimidagi: Gender tengligi, qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash, ayollar uchun STEM yo'nalishlari, "Ayollar daftari" hamda xotin-

qizlar uchun ajratilgan grantlar jadidlarning tarixiy g'oyalari bilan uzviy bog'liq.

1920-yillardan boshlab jadidlarning fikriy mustaqilligi va milliy uyg'unlash g'oyalari sovet hokimiyati uchun xavfli deb topildi. Ular milliy davlatchilik g'oyasini targ'ib qilganlikda, diniy emas, dunyoviy ta'limni qo'llab-quvvatlaganlikda, mustaqil fikrlashni rivojlantirganlikda, turkiy birlik g'oyalarini ilgari surganlikda hamda mustamlakachilikka qarshi kurashganlikda ayblanib repressiyaga uchradilar. Repressiyaga uchragan yetakchi jadidlar: Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Munavvarqori, Usmon Nosir, Fayzulla Xo'jayev va yana ko'plab jadidchilar 1937–1938-yillarda “xalq dushmani” tamg'asi bilan otib tashlangan yoki yo'q qilingan. Jadidlarga nisbatan qilingan qatag'on oddiy siyosiy repressiya emas. Bu - millatning intellektual poydevorini yo'q qilishga qaratilgan “ilmiy genotsid” jarayoni edi. Xalq pedagogikasi, milliy o'zlik, adabiyot, til, ta'lim tarmog'i, madaniy siyosat ikki avlodga yaqin vaqt davomida uzilib qoldi. Agar jadidlar qirilib ketmaganida, O'zbekiston XX asrning o'rtalaridayoq iqtisodiy-siyosiy jihatdan juda yuqori rivojlangan bo'lishi ehtimoli katta edi.

Mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda milliy o'zlikni tiklash siyosati boshlandi. Bu jarayonning eng muhim bo'lagi jadidlar merosining qayta tiklanishidir. Mustaqillikdan so'ng

jadidlarning barchasi qatag'ondan oqlanib, nomlari tiklandi. Milliy o'zlikni tiklash siyosatining asosi sifatida belgilandi. Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy asarlari 1990-yillardan boshlab to'liq nashr qilina boshlandi. Ko'plab qo'lyozmalar qayta tiklandi. “Jadidlar”, “Qo'qon Muxtoriyati”, “Fitrat”, “Avloniy” kabi filmlar orqali jadidlar tarixi keng jamoatchilikka yetkazildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi huzurida “Jadidchilik tarixi markazi”, Oliy o'quv yurtlarida “Jadid pedagogikasi” kafedralari ishlab turibdi. Jadidlar merosining bugungi O'zbekiston siyosati bilan uyg'unligi, kelajak ta'limini jadidlar ilgari surgan g'oyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganimizda, jadidchilik O'zbekistonda modernizatsiya jarayonining ideologik va pedagogik asoschisidir. Jadid ta'lim tizimi - fonetik metod, ko'rgazmali o'qitish, tanqidiy fikrlash, amaliy ko'nikmalar kabi bir qator innovatsiyalarning tarixiy manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Turkiston Muxtoriyati jadidchilik siyosiy g'oyasining eng yuqori nuqtasi bo'lib, demokratik boshqaruv tamoyillarini joriy etgan. Sovetlar qatag'oni jadid merosini to'xtatdi, ammo milliy ongda u yashab qoldi. Mustaqillik yillari jadidchilikning qayta tiklanishi bilan xarakterlanadi. Jadidlar g'oyalari bugungi milliy o'quv dasturi, raqamli pedagogika va fuqarolik jamiyati konsepsiyalari bilan uyg'unlashgan.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., “O'zbekiston” -2017
2. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun T., “O'zbekiston” -2022
3. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'qituvchi, 1992.
4. Behbudiy, M. Tanlangan asarlar. To'plam. Toshkent: Mumtoz so'z, 2011.
5. Jalolov, M. Jadidchilik - modernizatsiya asoslari. – Monografiya. Samarqand: SamDU, 2019.
6. Rasulov, R. O'zbekiston tarixi: XX asr boshlarida siyosiy hayot. Darslik. Toshkent: Istiqol, 2020.
7. Sodiqov, I. “Jadid maktablari va pedagogik yangilanishlar”. O'zbekiston tarixi, №3, 2022
8. Qosimov, B. Jadidchilik harakati: ma'rifiy va siyosiy jarayonlar. – Monografiya. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
9. G'ulomov, A. Turkiston jadidchiligi va milliy uyg'unlash. – Monografiya. Samarqand: Zarafshon, 2021.
10. Sharafiddinov, O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent: Universitet, 2005.



UDK:182.2

Ra'no KARIMOVA,
Navoiy davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail:karimova79@mail.ru

Professor J.Eshnazarov taqrizi asosida

FALSAFASIDA XOTIN-QIZLARGA BO'LGAN ORTODAKSAL MUNOSABATLAR TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada islom falsafasida va musulmon olamida xotin-qizlarga bo'lgan ortodaksal munosabatlar masalasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, islom dinida ayollar haq-huquqlari, ularning qadri va mavqeiga ortodaksal yondashuvlar ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan. Sharq mumtoz falsafasining yetuk namoyondalari ma'naviy merosi, ularning tasavvufiy-irfoniy qarashlari, o'z zuhd va taqvosi, ilm-ma'rifat va farzand tarbiyasi yo'lidagi fidoiyligi bilan nom qozongan bir qator orifa ayollar siymolari kabilar yuzasidan manbalar ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: islom falsafasi, ortodaksal, femenizm, tasavvuf, irfon, ma'rifat, orifa.

АНАЛИЗ ОТНОШЕНИЙ ПРАВОСЛАВНЫХ ВЕРХОВНЫХ ЛИЦ К ЖЕНЩИНАМ В ИСЛАМСКОЙ ФИЛОСОФИИ

Аннотация

В данной статье анализируется проблема ортодоксального отношения к женщине в исламской философии и мусульманском мире с социально-философской точки зрения. Также рассматриваются ортодоксальные подходы к правам, ценностям и статусу женщин в исламе с научной и теоретической точки зрения. Научно обоснованные источники, посвященные духовному наследию великих представителей классической восточной философии, их мистическим и духовным взглядам, а также фигурам ряда знатных женщин, прославившихся своим аскетизмом и благочестием, преданностью науке, просвещению и воспитанию детей.

Ключевые слова: исламская философия, ортодоксальность, феминизм, мистицизм, гнозис, просветление, орифа.

ANALYSIS OF ORTHODOX RELATIONS TOWARDS WOMEN IN ISLAMIC PHILOSOPHY

Annotation

This article analyzes the issue of orthodox attitudes towards women in Islamic philosophy and the Muslim world from a socio-philosophical perspective. It also sheds light on the orthodox approaches to women's rights, value, and status in Islam from a scientific and theoretical perspective. Scientifically based sources on the spiritual heritage of the great representatives of classical Eastern philosophy, their mystical and mystical views, and the figures of a number of noble women who became famous for their asceticism and piety, their dedication to science, enlightenment, and child rearing.

Keywords: Islamic philosophy, orthodoxy, feminism, mysticism, gnosis, enlightenment, orifa.

Kirish. Sharq falsafasi rivojlanishi natijasida bir qator so'fiy shoirlar va faylasuflar yetishib chiqdi. Ularning durdona asarlari hamda boy ilmiy merosi o'z davrida ham, bugungi kunda ham bashariyatning intellektual mulki sifatida qadrlanib kelinadi. Mamlakatimizda ham buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosini o'rganish, allomalar shaxsi va ijodiga ehtirom ko'rsatish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ma'lumki, bizning mintaqamiz, avvalambor, bugungi O'zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi. Muhtaram ulamolar, imom-xatiblar, jamoatchilik vakillari bilan birga dinimiz tarixi, buyuk allomalar va aziz-avliyolarimiz merosini o'rganish va targ'ib etish bo'yicha boshlagan ishlarimizni davom ettirishimiz kerak"[7].

Adabiyotlar tahlili. Sharq mumtoz falsafasining bir qator yetuk namoyoandalari ma'naviy merosi, ularning tasavvufiy-irfoniy qarashlari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, o'z zuhd va taqvosi, ilm-ma'rifat va farzand tarbiyasi yo'lidagi fidoiyligi bilan nom qozongan bir qator orifa ayollar siymolari bilan tanishishimiz mumkin. Zotan, muqaddas hadis shariflarda ayollar xususida Allohdan qo'rqingiz, zero, ularni Allohdan omonat sifatida olgansiz", deya marhamat etiladi. "Avesto"da esa: "Dastlabki kundayoq Ahuramazda ayollarga buyurdi: Ey ayol! Seni e'tiqodli va pahlavon erkaklarni vujudga

keltirib, mehr to'la og'ushingda parvarish et, deb yaratdim. Toki ular nodurustlik va nopoklik ildizini Yer yuzidan yo'qotsinlar", [2] degan satrlar keltiriladi. Ayol Yaratganning ulug' in'omidir, u ham ona, ham yor, ham opa-singil, ham jamiyatning faol a'zosi hisoblanadi. O'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, ayollarga past nazar bilan qaralgani, hattoki, ularni shayton deb toptalganini ham ko'rishimiz mumkin. "Johiliyat davrida mushriklar qiz farzandlaridan or qilib, ularni tiriklay ko'mishdi. O'rta asrlar Ovro'pasi: "Zahar, qilich, o'lim ayoldan yaxshiroqdir, chunki u shayton malayi", deb e'lon qildi. Ba'zi xalqlar eri o'lgan ayolni murda bilan o'tda yoqishdi. Ruhiyatni tan olmay, moddiyatga hirs qo'yan shahvatparastlar ayolni o'yinchoqqa, ko'ngilxushlik uchun ermakka aylantirishdi"[1]. Shuningdek, qadimgi Hindistonda ayollar meros olish huquqidan butkul mahrum etilgan, Shumerlar esa nikohini buzmoqchi bo'lgan ayollarni daryoga otishgan, ya'ni, Bobilda nikohni tuzish va buzish huquqi faqatgina erkakka berilgan edi. Qadimgi Xitoyliklar esa, hatto, ayollarga ism qo'yishga ham or qilishgan degan ma'lumotlarni manbalarda uchratish mumkin.

Tahlil va natijalar. Musulmon olamida xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va ularning huquqiy maqomi doimo muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Islom falsafasida

ayolning roli alohida e'tiborga olinib, uning oilasi, jamiyatda hamda diniy hayotidagi ahamiyati chuqur tahlil qilinadi.

Islom falsafasining asosiy manbalari Qur'on va Hadislarda ayolga bo'lgan munosabat haqida aniq ko'rsatmalar mavjud. Ayollarni hurmat qilish, ularning huquqlarini himoya qilish va ularni ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash talab etiladi. Biroq, amaliyotda bu tamoyillar turli madaniyat va jamiyatlarda turlicha talqin qilinishi mumkinligi kuzatilmoqda.

Qur'onda ayollar uchun maxsus huquqlar belgilangan. Masalan, nikoh shartnomalarida ayollarning roziligini talab etish, meros taqsimotidagi ulushlari belgilanishi kabi qoidalar mavjud. Shuningdek, ayol kishi mustaqil ravishda mulkiy huquqlarga ega bo'lishi va shaxsiy qaror qabul qilishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Oilada ayolning roli eng muhimi sifatida ta'riflangan. Uning farzand tarbiyalash, uy ishlarini boshqarish va erining moddiy-ma'naviy ahvolini saqlash vazifasi bor. Ammo ayni paytda u shaxsan erkinliklarga ega bo'lib, shaxsiy rivojlanishi uchun imkoniyatlardan foydalanishi mumkin.

Ayollar ijtimoiy faollikda ishtirok etishi mumkinligiga dalil beruvchi hadislar mavjud. Jumladan, jamoat ishlarida qatnashish, ilm olish va tarqatish, shuningdek, tijorat bilan shug'ullanish kabi faoliyatlarga ruxsat berilgan.

Zamonaviy davrda musulmon jamiyatlarida ayollarning mavqei borasida jiddiy munozaralar yuzaga kelmoqda. Bir tomondan, ba'zi mamlakatlarda ayollarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida kengroq vakolatlariga ega bo'lishiga yo'l ochib berilmoqda. Boshqa tomondan esa, ayrim mintaqalarda hali ham an'anaviy qarashlar ustunlik qilmoqda, natijada ayollarning imkoniyatlari cheklangan holda qolmoqda.

Ushbu vaziyatning sabablaridan biri sifatida Islom falsafa va amaliyotining turli talqinlarining mavjudligi ko'rsatiladi. Ba'zilar tarafidan ayolni jamiyatdan uzoqlashtirish yoki unga cheklovlar qo'yish siyosatlarini tanqid qilinmoqda.

Islom dinida esa ayollar haq-huquqlari, ularning qadri va mavqeiga ortodoksal yondashiladi. Islom dini ayollarga nisbatan feministik qarashlarni targ'ib etdi va ayollarni xo'rlash, kamsitish kabi kontrastik g'oyalarni qat'iy rad etdi. Shariatda ayolning haq-huquqlari va erkinliklari, mulkiy hamda huquqiy munosabatlardagi haqlari ham qat'iy belgilab qo'yilgan. Hozirgi kunga qadar ayrim musulmon mamlakatlarida ayollarning dunyoviy ilmlarni egallashlariga, jamiyat ijtimoiy hayotidagi faol ishtirokiga ta'qiq qo'yilgan. Aslini olganda farzand tarbiyasida ko'proq ayollar mas'ul bo'ladi, shunday ekan, u qanchalik bilimli, hunarli hamda zukko bo'lsa, o'sha oilada ulg'ayayotgan farzandlar ham ma'nadan yetuk bo'lib kamolga yetadi. Arab olimasi Olimat ul-Banot o'zining mashhur "Muosharat odobi" kitobida bu borada shunday yozadi: "Dunyoda mavjud bo'lgan insonlarning yarmi xotunlardir. Oilaning baxtu saodati ham xotunlarning aqlli-yu ilmi bo'lmoqlariga bog'lanmishdir. Xotunlar yaxshi tarbiyali bolalarni yetishtirurlar. Ularning tarbiyalari orqali dunyoda ulug' zotlar yetishib chiqishi muqarrardir.

Agar xotun o'qigan bo'lsa, o'zining kim ekanligini, vazifasi nimadan iborat ekanligini shak-shubhasiz biladi. Bolalarini esa go'zal tarbiya qiladi, eri bilan yaxshi muomalada bo'ladi va nihoyat Alloh Taoloning amriga muvofiq hayot kechiradi. Va shu sababli o'zi ham, eri ham, bolalari ham dunyo va oxiratda masrur bo'ladi"[5]. Ayol kishi o'zi istagan va qiziqqan soha bo'yicha tahsil olishi, kasb-hunar egallashi hamda jamiyatning ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'shmog'i lozim. Zero, Qur'oni Karimda: "Erkaklar ham o'z mehnatlaridan nasiba olurlar, ayollar ham o'z mehnatlaridan nasiba olurlar", [6] deya marhamat etilgan. Chunki biror kasbni

yoki hunarni egallash, mehnat qilish va uning orqasidan halol rizq topish bu har bir kishining shaxsiy huquqidir.

Islom dinida ayol kishi har doim yuksak qadrlangan va unga alohida hurmat-ehтиrom ko'rsatilgan. Qur'oni Karimda ayollarga nisbatan o'zlariga xos qoidalar belgilangan. Masalan, nikoh munosabatlari davomida erkak kishi ayol kishini hurmat qilishi, uning ehtiyojlarini qondirishi va umuman butun oila uchun mas'uliyatni his etishi lozimligi ta'kidlanadi. Ayollarga oid turli hukmlar ularning hayoti va xavfsizligini himoya qilish maqsadida joriy etilgan.

Xotin-qizlar diniy jihatdan erkaklar bilan teng maqomda ekanligi tan olingan. Ular ibodat qilish, ilm olish, tijorat bilan shug'ullanish kabi faoliyatlarda erkin harakatlanish huquqiga ega bo'lishadi. Biroq turmush tarzidagi ayrim farqlar mavjud bo'lib, bu farqlardan kelib chiqqan holda, ayollarga maxsus vazifalar yuklatilishi mumkin.

Islom dinida ayollarga yuksak hurmat va e'tibor bilan qaraladi. Qur'oni karimning o'ttiz besh sura va bir yuz ikki oyatida ayol so'zining ishlatilishi, suralardan biri aynan "Niso" ya'ni "Ayollar" deb nomlanishi esa musulmon olamida xotin-qizlarga nisbatan ortodoksal qarashlarning shakllanishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Ayol zotini e'zozlash va unga ehtirom ko'rsatish borasida Payg'ambarimiz (s.a.v.)dan bir qator hadislar rivoyat qilingan. Jumladan, Abu Hurayra roziallohu anhudan rivoyat qilinadi, bir kishi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga kelib: "Ey Allohning Rasuli! Mening chiroyli muomala qilishim uchun insonlarning qaysi biri haqliroq?" deb so'raganida, u zoti sharif: "Onang" dedilar. "Undan keyin kim?" dedi. "Onang" dedilar. "Keyin kim?" dedi. Yana: "Onang" dedilar. "Keyin kim?" dedi. "Otang" dedilar.

Islom dini jamiyatni o'zgartirdi ayol qizlarga ko'plab imkoniyatlar berdi. Ularga nisbatan zo'ravonlik, kamsitish, shuningdek, ularning huquqlarini cheklash holatlarini ta'qiq qildi. Islomda ayollarga berilgan huquqlarning yana bir muhim jihati ularning ta'lim va ilm-fandagi ishtirokidir. Islom madaniyati va an'analari ta'lim olish va ilm-fan bilan faol shug'ullanishni qo'llab-quvvatlaydi. Imom Buxoriydan keltirilgan sahih hadislarida shunday jumalalar uchraydi: "Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir". Islomda ayollar ta'lim olishda keng imkoniyatlar va huquqlarga ega. Bunday ayollarga IX-X-asrlarda yashagan Alisiya Al-Xannu yoki Fotima al-Fihriy kabi mashhur olim va faylasuflarni misol qilib keltirish mumkin. Alisiya Al-Xannu matematik va astronom bo'lgan, shuningdek, XX-asr boshlarigacha islom olamida qo'llanilgan kalendarni ishlab chiqqan. Fotima al-Fihriy hozirgacha musulmon olamidagi yetakchi ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Fez universitetining asoschisi edi. Bugungi zamonaviy dunyoda ham ko'plab musulmon ayollar oliy ma'lumotga ega bo'lib, siyosat, biznes, tibbiyot va huquq kabi turli sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ular musulmon jamiyatlari va iqtisodlari rivojida muhim rol o'ynaydi va ularning hayotning turli sohalariga qo'shgan hissasini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Muhokama. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar orasida ayollarga g'amxo'rlik qilish, onalar va bolalar salomatligiga e'tibor qaratish, ayollarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga doir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Mo'tabar onalarimiz, muhtarama ayollarimiz oldida biz hamisha qarzdormiz. Shuning uchun ham, ro'zg'orning og'ir yukini o'zining nozik yelkasida ko'tarib, ham oila yumushlarini, ham ijtimoiy vazifalarni sidqidildan bajarib kelayotgan, doimo shukronalik bilan yashaydigan ayollarimiz, opa-singillarimizning og'irini yengil qilish bizning dasturimizda alohida o'rin egallaydi"[4]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov

ham ayollarning jamiyat taraqqiyoti va oila farovonligidagi o'rmini alohida e'tirof etgan holda shunday degan edi: "Ayollarimizning turmush sharoitini yengil qilish borasida biz uchun mayda narsaning o'zi yo'q va bo'lmaydi ham. Ayolning kayfiyati yaxshi bo'lsa, ayol hayotdan rozi bo'lsa, oila hayotdan rozi bo'ladi. Agar oila rozi bo'lsa, mahalla, butun el-yurt rozi bo'ladi"[3].

Xulosa. Xotin-qizlar masalasi Islom falsafasida katta ahamiyatga ega bo'lib, ularga oid qoidalar va odatlar turli darajada talqin qilinadi. Zamonaviy dunyo sharoitida ayollar o'zlari uchun yanada kengroq imkoniyatlar yaratishga intilishmoqda. Bu jarayon davomida turli qarashlar va yondashuvlar orasida muvozanat topish zarurati paydo bo'ladi.

Ortodoksal munosabatlar nazariyasining tahlili shuni ko'rsatadiki, ayollarni jamiyatning ajralmas qismi sifatida e'tirof etishga erishish uchun xalqaro hamkorlik va ochiq muloqot zarurdir. Ushbu maqsadga erishish orqali zamonaviy musulmon jamiyatlari rivojlanish istiqbollariga erishishlari mumkin bo'ladi. Xotin-qizlarga bo'lgan munosabat islom falsafasining ajralmas qismiga aylangan. Uning amaliy tadbiriq etilishi jamiyatdagi oila tizimining mustahkamligiga bevosita bog'liq. Bugungi kunda ayol kishiga nisbatan olib borilayotgan siyosatning mazmuni va yo'nalishlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shunday ekan, ushbu sohada yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish zarurati seziladi.

ADABIYOTLAR

1. Hidoyat / 2007. – № 11. – B.18.
2. Homidiy H. Avestodan Shohnomagacha. – T.: Sharq, 2007. – B.76-77.
3. Karimov I. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir. – T.: O'zbekiston, 2015. – B.227.
4. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: 2017. – B.101.
5. Olimat ul-Banot. Muosharat odobi. – T.: Mehnat. 1991. – B.6.
6. Qur'oni Karim, Niso surasi, 5:32-oyat. Abdulaziz Mansur tarjimasi. – Toshkent: Islom universiteti, 2001.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 15 iyundagi "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi" mavzusida o'tkazilgan anjumanda so'zlagan nutqidand.



UDK: 297.14

Poshshaxon KUTBIDINOVA,

O'zbekiston xalaro islomshunoslik akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi,

"Xadichai Kubro" ayol qizlar o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi o'qituvchisi

E-mail: kutbiddinovaposhshohonopa@gmail.com

PhD F.Mirzayeva taqrizi asosida

ISLOM HUQUQI ASOSLARI ILMINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada islom huquqi asoslari – usulul-fiqh ilmining kelib chiqishi, uning dastlabki shakllanish jarayonlari, ilmiy metodlarining rivoji hamda sahoba va tobeinlarning huquqiy tafakkur taraqqiyotiga qo'shgan hissasi ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek usul ilmining fan sifatida shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy omillar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Islom huquqi, usulul-fiqh, ijthod, sahoba, tobein, fiqh, huquqiy metodologiya.

THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF THE SCIENCE OF ISLAMIC LEGAL PRINCIPLES

Annotation

This article analyzes the origins of Islamic legal theory (usul al-fiqh), its early developmental stages, the evolution of its methodological foundations, and the contributions of the Companions and Successors to the formation of Islamic legal reasoning. The study also highlights historical factors that shaped usul al-fiqh into an independent scholarly discipline.

Keyword: Islamic law, usul al-fiqh, ijthod, Companions, Successors, fiqh, legal methodology.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ НАУКИ ОБ ОСНОВАХ ИСЛАМСКОГО ПРАВА

Аннотация

В данной статье научно анализируются происхождение основ исламского права - науки усул аль-фикх, первоначальные этапы её формирования, развитие научных методов, а также вклад сподвижников (сахабов) и последователей (табеинов) в прогресс правовой мысли. В статье также освещаются исторические факторы, оказавшие влияние на становление усул аль-фикха как самостоятельной науки.

Ключевые слова: исламское право, усул аль-фикх, иджихад, сахабы, табеины, фикх, правовая методология.

Kirish. Islom huquqi musulmon jamiyatining diniy, ijtimoiy va huquqiy hayotini tartibga soluvchi eng muhim ilmiy tizimlardan biridir. Uning nazariy asosini tashkil etuvchi usulul-fiqh Qur'on va Sunna kabi asosiy manbalardan hukm chiqarishning ilmiy metodlarini belgilaydi. Mazkur ilmining shakllanishi tarixiy ehtiyoj, diniy matnlarni chuqur anglash zarurati va huquqiy tafakkurning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, musulmon huquqshunoslik maktablarining paydo bo'lishida hal qiluvchi omil bo'lgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Islom dini Alloh taolo tarafidan insoniyatga Muhammad sollallohu alayhi vasallam vositasida yetkazilgan bo'lib, 610 yil Payg'ambarimiz Hazrat Muhammad ibn Abdulloh sollallohu alayhi vasallam tomonidan yangi va eng mukammal ilohiy din sifatida barcha insoniyatga qarata e'lon qilindi va oz muddat ichida dunyo bo'ylab keng ko'lamda tarqaldi. Hozirgi kunga kelib esa, jahon miqyosida musulmonlar soni bir milliard uch yuz million kishiga yetib boradi[1].

Hazrat Muhammad (s.a.v.)ning hayotlari davomida yuz bergan hodisalar, ayniqsa, 23 yillik risolat - payg'ambarlik davri voqealari borasida bugunga qadar minglab kitob va risolalar yozilib, ularda ushbu ulug' zotning tug'ilishi, voyaga yetishi, payg'ambar qilib tanlanishi, shuningdek, axloq-odobi, oliy fazilatlarini, huquqiy ta'limoti va islom dinining barcha usul-qoidalari borasida keng qamrovli ma'lumotlar berilgan. Shu bois, bugun tadqiqotchilar hech bir tarixiy shaxs haqida buncha ko'p ma'lumot-manbalarga ega emaslar. Islom dini ko'plab mamlakatlarga yoyilib, nafaqat din, balki ularning turmush tarzini belgilab beruvchi va nazorat qiluvchi tizimga aylanib borar ekan, uning muhim sohasi sifatida islom

huquqshunosligining paydo bo'lishi zarurati tug'ildi. Birinchi hijriy asrda islom huquqi shakllana boshlab, ikkinchi va uchinchi hijriy asrlarda taraqqiyot bosqichlariga ko'tarildi[2].

Islom huquqi ya'ni fiqh ikki asosiy qismga bo'linadi: usulul-fiqh va furu'ul-fiqh.

Usulul-fiqh ulamolar izohlab berganidek, «idrokul-qavoidil-lati tubayyinu tariqata istixrojil-ahkom minal-adilla», ya'ni asosiy manbalardan hukmlarni istixroj qilib (chiqarib) olish yo'llarini belgilab beruvchi qoidalarni bilib olishdir.[3]

Furu'ul-fiqh esa usulul-fiqhda belgilab berilgan qoida va usullar orqali asosiy manbalardan chiqarib olingan far'iy (amaliy) hukmlar majmuasi bo'lib, fiqh ilmining tarmoqlari yoki sohalarini tashkil etadi.

Usulul-fiqh bir qator qoida va usullardan iborat bo'lib, faqihlar faqat unda belgilangan qoidalarga asoslangan holda hukmlarni istinbot qilishadi.

I.Tabariyning fikricha, "Usulul-fiqh" yoki "Usul" nomi bilan yuritiladigan fanga asos solishdan maqsad, shariat hukmlarini belgilab olish jarayonida yuzaga kelgan qoidalar va holatlarni klassifikatsiya qilish (tasniflash) va umumiy lashtirish edi. Ushbu fanning qoidalarni yaxshi anglab olish ijthod qilishga yordam beradi. Shu sababdan usul ilmi fiqh ilmining bir bo'lagi hisoblanadi.

Tadqiqotchilar tomonidan usul ilmining paydo bo'lish jarayoni quyidagicha tushuntiriladi. Islom dinining asosi Qur'oni karimdir. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam uni bizga so'zlari va amallari bilan bayon qilib berganlar. U zotning so'zlari va fe'llarini Sunnat deyiladi. Shariat hukmlarining asosiy manbasi shu ikki narsa Qur'on va Sunnatdir. Qur'oni

karim arab tilida nozil qilingan. Sunnat ham uni arab tilida bayon qilgandir. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam hayotlari chog'ida har qanday masalaning hukmini u zotdan so'rashar va javob olar edilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam vafotlaridan so'ng insonlar orasida paydo bo'layotgan turli xil masalalarga javob berish va ularning hukmini belgilash sahobai kiromlarning zimmasiga tushdi. Ular arab tilini mukammal egallagan, uning uslublarini to'liq o'zlashtirgan va Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga suhbatdosh bo'lishning misli ko'rilmagan ta'siriga ega bo'lgan, shariat hukmlarining joriy bo'lish davrida yashab uning sir-asrorlariga voqif bo'lgan shaxslar edilar. Shu bilan birga ular fikrning tiniqligi va o'tkir zakovat bilan ajrab turar edilar. Shuning uchun ular masalalarning hukmlarini Qur'on va Sunnatdan chiqarib olishda yuqorida aytilgan sifatlaridan o'zga narsalarga ehtiyoj sezmas edilar. Yana ular e'rob, ishtiyoq kabi tilga oid qoidalarga ham ehtiyojlari yo'q edi. Sahobalarning fatvo beruvchilari yangi bir hodisaga duch kelsalar uning hukmini Qur'oni karimdan izlar edilar. Agar topa olmasalar Sunnatga murojaat qilar edilar. Undan ham topa olmasalar masalani ijtihod va qiyos orqali hal qilar edilar[4]. Bunday yo'lni ular Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan ta'lim olgan edilar. Muoz ibn Jabal roziyallohu anhudan rivoyat qilingan quyidagi hadis bunga yorqin dalildir:

“Rasululloh sollallohu alayhi vasallam meni Yamanga yuborayotib:

“U yerda senga bir masala duch kelsa, qanday qilib hukm chiqarasan?” – dedilar.

“Allohning kitobi ila”, – dedim.

“Allohning kitobida bo'lmasa-chi?” dedilar.

“Allohning Payg'ambari sunnati ila”, – dedim.

“Allohning Payg'ambari sunnatida ham bo'lmasa-chi?” dedilar.

“Fikrim bilan ijtihod qilaman”, – dedim.

Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam ko'ksimga urdilar va:

“Alloh Rasulining vakilini Allohni va Uning Rasulini rozi qiladigan narsaga muvaffaq qilgan Alloh taologa hamdu sanolar bo'lsin”, – dedilar”[5].

Natijalar va muhokama. Sahobalar zamonasidan keyingi tobeinlar davrida ham ish shu yo'sinda davom etdi. Tobeinlar asrining oxiriga kelib Islom mamlakatlari hududi kengaydi. Ko'plab yangi voqea va hodisalar paydo bo'la boshladi. Ajam xalqlari arablar bilan aralashib ketdi. Natijada arab tili oldingi holidan o'zgarib, agar shunday davom etsa o'z mohiyatini saqlab qola olmaydigan holga keldi. Uni yo'q bo'lib ketishi yoki ajamlar ta'sirida shakli o'zgarib ketishidan saqlab qolish uchun qoidalar ishlab chiqishga to'g'ri keldi va bu borada kitoblar yozildi. Bularning barchasi dinning asli va arab tilining asosi bo'lmish Qur'on va Sunnatni muhofazasi uchun qilingan edi. Buning barobarida ijtihod ham, mujtahidlar ham ko'payib bordi va hukm chiqarish yo'llari ham turli xil ko'rinishga ega bo'ldi. Oqibatda xilof va tortishuvlar ko'paydi. Bu esa fuqaholarni ijtihod qilish qoida va asoslarini ishlab chiqishga undadi. Bu ikkisining majmuidan Islom huquqi asoslari ya'ni “Usulul-fiqh” ilmi yuzaga keldi.

Usulul-fiqhga kim asos solganligi borasida turli xil fikrlar mavjuddir. Ba'zi kitoblarda imom Abu Hanifa o'z mazhablarining masalalarini bayon qilishda Usul qoidalariga asoslanib so'z yuritganligini aytgan bo'lsalar, boshqalar u bu ilmga tegishli “Ra'y” nomli kitob ta'lif qilganini aytadilar. Ba'zi olimlar esa bu borada birinchi bo'lib alohida kitob yozgan shaxs bu imom Abu Yusuf ekanligini ta'kidlaydilar. Boshqa ko'plab manbalarda esa Usulul-fiqh asoschisi sifatida imom Shofeyi tilga olinadi[6]. Bu fikrlarning barchasida jon bor. Chunki imom Abu Hanifa masalalarning hukmini bayon qilishda Usul qoidalariga tayangan bo'lsalarda, ularni alohida

bir kitob shaklida, mustaqil bir ilm sifatida zikr etmagan. Imom Abu Yusuf bu borada birinchi bo'lib kitob yozganligi rivoyat qilingan bo'lsada, bu kitob keyingi davrlargacha yetib kelmagan. Usulul-fiqh qoidalarini mustaqil fan sifatida “Risola” nomli alohida kitobga joy qilganligi va bu kitob bizgacha yetib kelganligi uchun imom Shofeyi Usulul-fiqh fanining asoschisi sifatida tanilgandir[7]. Shayx Muhammad Xuzariybekning fikriga ko'ra ham, birinchi bo'lib usulul-fiqh zarurligini anglab yetgan olim Imom Muhammad ibn Idris ash-Shofeyi (v. 204/818) bo'lib, “Kitobul-Umm”ga muqaddima sifatida kiritilgan o'zining “Risola” asarida ushbu fanning asosiy atamalarini yoritib o'tgan[8].

Usulul-fiqh ilmi ikki yo'nalishga bo'lindi va ularning har biriga oid ko'plab asarlar yozildi[9].

Mutakallimlar yo'nalishi. Uni shofeyiylar yo'nalishi ham deyiladi. Bu yo'nalishning qoidalarini imom Shofeyi ishlab chiqqan bo'lib, keyinchalik unga ko'ra ko'plab usuliylar va faqihlar kitob ta'lif etdilar. Bu yo'nalishning asosiy xususiyatlari unda avvalo umumiy qoidalar ishlab chiqilib keyin unga ko'ra juz'iy-furu'iy masalalar ishlab chiqiladi. Shuning uchun bu yo'nalishda kitob ta'lif etganlar ehtiyojlari bo'lmagani uchun furu' kitoblariga suyanmadilar.

Hanafiylar yo'nalishi. Uni fuqaholar yo'nalishi ham deyiladi. Bu yo'lga hanafiy mazhabi ulamolari asos solganlar va ularning o'zlari unga ko'ra kitoblar yozganlar. Keyinchalik bu yo'nalish ommaviy yo'nalishga aylandi. Ushbu yo'nalishda avval furu'iy masalalarga nazar solinadi, so'ng ulardan kelib chiqib umumiy qoidalar ishlab chiqiladi.

Keyinchalik bu ikki yo'nalishni birlashtirgan holda asarlar yaratildi. Bundan uchinchi bir yo'nalish kelib chiqdi[10].

Mutaaxxirlar (keyingilar) yo'nalishi. Bu uslub yettinchi hijriy yilda yuzaga keldi.

Bu uch yo'nalishda ham ko'plab kitoblar yozilgan bo'lib ulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz.

Mutakallimlar yo'nalishida yozilgan kitoblar:

Imom Shofeyiying “Risola” asari.

Abul Husayn Basriyning “Kitobul mo'tamad” asari.

Imomul Haramayn Abul Ma'oliy Juvayniyning “Burhon” asari.

Qozi Abduljabborning “Kitobul umda” asari.

Imom G'azzoliyning “Mustasfo” asari.

Imom Faxruddin Roziyning “Mahsul” asari. Mazkur kitob “Mo'tamad”, “Burhon” va “Mustasfo” kitoblarini o'zida jamlagan va bir qancha qo'shimcha va sharhlar bilan mukammallashtirilgan.

Imom Omidiyning “Alihkom fi usulil ahkom” asari.

Unda “Mahsul” kitobiga sharh va izohlar qo'shimcha qilingan.

Ibn Hojib Molikiyning “Muxtasar” asari.

Imom Bayzoviyning “Minhoj” asari.

Hanafiylar yo'nalishida yozilgan kitoblar:

Abulhasan Karxiyning “Kitobul usul” asari.

Abu Bakr Jassosning “Kitobul usul” asari. Bu kitob avvalgisidan kengroq va batafsilroq yozilgan.

Abu Zayd Dabbusiyning “Ta'sisun nazar” asari. U kichik bir risola bo'lib unda muallif hanafiy mazhabi boshqa mazhablar bilan ittifoq qilgan va ixtilof qilgan usuliy qoidalarga e'tibor qaratgan.

Imom Faxrul-islom Bazdaviyning “Usuli Bazdaviy” kitobi. U juda ham yengil ibora bilan yozilgan bo'lib, hanafiylar uslubida yozilgan kitoblar ichida eng yorqini bo'lishga haqlidir.

“Mabsut” kitobining sohibi Shamsul-aimma Saraxsiyning “Usul” nomli asari. U juda ham keng iboralar bilan yozilgan va ko'plab tafsilotlarni o'z ichiga olgan kitobdir.

Imom Nasafiyning “Manor” nomli asari.

Mutaaxxirlar yo'nalishida yozilgan kitoblar:

Ahmad So'atiy Bog'dodiyning "Badiy'un nizam aljome' bayna kitobay al-Bazdaviy val-Ihkom" asari. Bu kitob nomidan ham ko'rinib turganidek imom Bazdaviy va Omidiyning kitoblarini birlashtirilganidir.

Imom Sodrush-sharia Ubaydulloh ibn Mas'udning "Tanqihul usul" asari. Unda muallif Bazdaviyning "Usul", Roziyning "Mahsul" va Ibn Hojibning "Muxtasar" kitobini umumlashtirgan, keyinchalik o'zi uni sharhlab "At - tavih fi halli g'avomiz At - Tanqih" nomli kitobini yozgan.

Imom Taftazoniyning "At-Talvih alat-tavzih" asari. Bu kitob juda ham bir muhim mo'tabar sharhdir. Darhaqiqat, bu asar ushbu fan bilan shug'ullanuvchi olim va talabalarning tayanchi bo'lishga munosibdir.

"Fathul-qodiyr" kitobining muallifi muhaqqiq Kamoliddin ibn Humomning "Kitobut-tahrir" asari. Unga

keyinchalik muhaqqiqning shogirda Ibn Amir Hoj tarafidan "At-Taqrir vat-tahbir" nomli sharh bitilgan.

Muhibulloh Abdushshakurning "Musallamus sabut" asari. Keyinchalik unga Ibn Nizomiddin tarafidan "Favotihur rahmut" nomli sharhni bitgan.

Abdulvahob Subkiy Shofeiyning "Jam'ul Javome'" asari. Unga Jaloliddin Mahalliy sharh yozgan. Shuningdek, uning Banoniy tarafidan yozilgan hoshiyasi ham mavjuddir.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, usulul-fiqh islom huquqshunosligining nazariy asosini tashkil etib, Qur'on va Sunna matnlaridan hukm chiqarishning puxta metodologiyasini yaratdi. Sahoba, tobein va keyingi fuqaholarning izlanishlari tufayli bu ilm mustaqil fanga aylandi. Mutakallimlar, hanafiylar va mutaaxxirlar maktablari esa uning metodologik boyligini yanada kengaytirdi.

ADABIYOTLAR

1. Хусниддинов З. Ислom: йуналишлар, мазхаблар, оқимлар.–Т.: Мовароуннахр, 2000. Б.6.
2. Жўзжоний. А.Ш. Ислom ҳуқуқшунослиги. Ҳанафий мазхаби ва Ўрта Осиё фақиҳлари. – Т.: ТИУ, 2002 .Б.17.
3. Ибн Амир Ҳож. Ат-Тақрир ват-таҳбир шарҳут-таҳрир. – Байрут.: Дорул фикр. 1996.– Ж. 1. – Б. 34. (Бундан кейин: Ибн Амир.Тақрир.); Шавкониий. Иршодул фуҳул. – Байрут.: Дорул кутуб ал-арабий, 1999. Б.18. (Бундан кейин Шавкониий.Иршодул фуҳул.)
4. Мустафо И. Усулул фикҳ фи насижиҳил жадид. – Боғдод.: Алхансо, 2002. Б. 9. (Бундан кейин Мустафо И. Усулул фикҳ фи насижиҳил жадид.); Хузарий М. Усулул фикҳ. – Миср.: Тижория, 1969. Б.6. (Бундан кейин Хузарий. Усулул фикҳ.)
5. Имом Аҳмад. Муснад. – Қоҳира.: Куртуба, 1995. 22114-ҳадис. (Бундан кейин Муснади Аҳмад.)
6. Халлоф А. Илму усулил фикҳ. – Миср.: Дорул қалам, 1992. Б. 17.
7. Мустафо И. Усулул фикҳ фи насижиҳил жадид. – Б. 10.
8. Хузарий М. Тарихут-ташрийъил-исломий. – Байрут: 1988. – Б.146.
9. Хузарий. Усулул фикҳ. Б. 7.
10. Мустафо И. Усулул фикҳ фи насижиҳил жадид. Б. 11.



UO'K: 398:37.016:81'243

Ra'noxon MAXSUDALIYEVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktorantura talabasi
E-mail: ranoxonmaksudaliyeva@gmail.com

COMMONALITIES AND DIFFERENCES IN ENGLISH AND UZBEKISTAN FOLKLORE: THE IMPORTANCE OF DEVELOPING STUDENTS' CROSS-CULTURAL ANALYSIS SKILLS

Annotation

This article provides a comparative analysis of the main genres of English and Uzbek folklore: fairy tales, proverbs, legends, epics, and folk songs. The research focuses on developing students' intercultural competence through exploring similarities and differences between English and Uzbek folklore.

Key words: folklore, oral tradition, fairy tale, proverb, intercultural analysis, English language, Uzbek language, comparative folklore studies.

ОБЩИЕ ЧЕРТЫ И РАЗЛИЧИЯ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ФОЛЬКЛОРЕ: ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРОСС-КУЛЬТУРНОГО АНАЛИЗА У УЧАЩИХСЯ

Аннотация

В данной статье проводится сравнительный анализ основных жанров английского и узбекского народного творчества: сказок, пословиц, легенд, эпосов и народных песен. Исследование направлено на развитие межкультурной компетенции студентов посредством изучения сходств и различий между английским и узбекским фольклором.

Ключевые слова: фольклор, устное народное творчество, сказка, пословица, межкультурный анализ, английский язык, узбекский язык, сравнительное фольклороведение.

INGLIZ VA O'ZBEK FOLKLORIDAGI UMUMIYLIK VA FARQLAR: TALABALARNING MADANIYATLARARO TAHLIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek xalq og'zaki ijodining asosiy janrlari: ertaklar, maqollar, afsonalar, dostonlar va qo'shiqlar qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot ingliz va o'zbek folkloridagi umumiylik va farqli jihatlar orqali talabalarning madaniyatlararo kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: folklor, xalq og'zaki ijodi, ertak, maqol, madaniyatlararo tahlil, ingliz tili, o'zbek tili, qiyosiy folklorshunoslik.

Kirish. XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji hamda xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning kengayishi madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish masalasini dolzarb ilmiy-pedagogik muammoga aylantirdi. Zamonaviy ta'lim paradigmasida til o'rganish jarayoni nafaqat lingvistik bilim va ko'nikmalarni egallash, balki til ortida turgan madaniy qadriyatlar, milliy mentalitet, tarixiy xotira va ijtimoiy tajribani anglashni ham o'z ichiga oladi. Shu bois xorijiy tillarni o'qitishda folklor materiallari asosida madaniyatlararo tahlilni amalga oshirish muhim metodik vosita sifatida qaralmoqda.

Madaniyatlararo kompetensiya shaxsning boshqa madaniyat vakillari bilan samarali, tolerant va ongli muloqot olib borish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu kompetensiya bilim (cognitive), munosabat (affective) va xulq-atvor (behavioral) komponentlarining uyg'unligi orqali shakllanadi. Folklor esa aynan shu komponentlarni rivojlantirish uchun boy didaktik manba bo'lib, unda xalqning dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari, qadriyatlar tizimi va estetik qarashlari mujassam bo'ladi. Ingliz va o'zbek folklorini qiyosiy tahlil qilish orqali talabalar turli madaniyatlar o'rtasidagi umumiy insoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, milliy o'ziga xoslikni ham anglay boshlaydilar.

Ta'lim jarayonida madaniyatlararo yondashuvni qo'llash talabalarning tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi, stereotiplarni kamaytiradi va madaniy empatiya shakllanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, folklor janrlaridagi obrazlar, ramzlar va

syujetlar orqali madaniy farqlarni tahlil qilish talabalarda qiyosiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlaydi [2].

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o'z asarida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning dunyoqarashini kengaytirish hamda xalqaro muloqotga tayyor shaxs sifatida shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Xususan, ta'lim mazmuniga milliy madaniy meros, jumladan, folklor namunalarini chuqur singdirish zarurligi qayd etiladi [1]. Shuningdek, folklorini o'rganish orqali milliy o'zlikni anglash va madaniy identifikatsiyani mustahkamlash masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Bu jarayon xorijiy madaniyat bilan taqqoslash orqali yanada samarali kechadi. Qiyosiy folklorshunoslik metodologiyasi talabalarga ingliz va o'zbek xalq og'zaki ijodidagi mavzular, obrazlar va g'oyaviy yo'nalishlarni solishtirish imkonini berib, ularning madaniyatlararo tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi [8].

Madaniyatlararo yondashuvning samaradorligi shundan iboratki, u til o'rganishni madaniy kontekstda olib borishni ta'minlaydi va talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini oshiradi. Folklor materiallari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarni faqat bilim oluvchi emas, balki faol tahlilchi va tadqiqotchi sifatida shakllantiradi. Bu esa zamonaviy ta'limning shaxsga yo'naltirilgan va

kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga to'liq mos keladi [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ingliz va o'zbek folklorining ilmiy o'rganilishi madaniyatlararo tahlil ko'nikmalarini shakllantirishda muhim metodologik asos yaratadi. Folklor materiallaridan foydalanish talabalarda turli madaniy tizimlarning mazmuniy qatlamlarini anglash, ularni tahlil qilish va qiyosiy baholash imkoniyatini kengaytiradi. Mazkur jarayon madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishning samarali yo'llaridan biri sifatida ko'riladi.

Xorij tadqiqotchilari, xususan R. Dorson va M. Greening ingliz folklorini milliy o'zlik, madaniy birlik va ijtimoiy qadriyatlarini shakllantiruvchi konsept sifatida talqin etadilar [4,5]. Ularning ishlarida ertak va rivoyatlar avlodlar ongida axloqiy me'yorlar va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi vosita sifatida baholanadi. Masalan, R. Dorson folklorini nafaqat tarixiy-madaniy meros, balki zamonaviy jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlaydigan ijtimoiy institut sifatida ko'rsatadi [4]. M. Greening esa ingliz ertaklarida milliy xarakter, mehnatsevarlik, halollik va adolat kabi qadriyatlarning badiiy obrazlar orqali ifodalanishini tahlil qiladi va ularning tarbiyaviy ahamiyatini asoslaydi [5]. Bu tadqiqotlarning umumiy jihati shundaki, ular folklorini badiiy-estetik hodisa doirasida emas, balki jamiyatning axloqiy me'yorlarini shakllantiruvchi kuch sifatida talqin qiladi.

O'zbek olimlari tadqiqotlarida esa folklorning ma'naviy-axloqiy mazmuni, obrazlar tizimi va badiiy vositalari markaziy o'rinni egallaydi. N. Jo'raeva o'zbek ertaklarida aks etgan axloqiy ideal va qahramonlar tizimini tahlil qilib, mehnatsevarlik, sadoqat, halollik va adolat kabi fazilatlarining milliy mentalitetda qanday shakllanganini ilmiy asoslaydi [6]. S. Mirzayev esa maqol, topishmoq va dostonlarning badiiy qurilishini o'rganib, xalqning ma'naviy-axloqiy qadriyatlari qanday poetik vositalar orqali ifodalanganini ko'rsatadi [9]. Bu yondashuvlar folklorini milliy o'zlik va xalq tafakkurining estetik ifodasi sifatida baholash imkonini beradi.

B. Rahimovning qiyosiy tadqiqoti esa ikki ilmiy yo'nalishni - ingliz va o'zbek folklorining bir-biriga yaqin va farqli jihatlari - uyg'unlashtiradi. Uning "Robin Gud" va "Alpomish" obrazlari asosidagi tahlillari ikki xalqning adolat, jasorat va insonparvarlik haqidagi qarashlari o'rtasidagi umumiylik va tafovutlarni ochib beradi [10]. Bu qiyosiy yondashuv folklorlarni alohida milliy hodisa sifatida emas, balki madaniyatlararo muloqot va o'zaro anglashuvni rivojlantiruvchi fenomen sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, D. Karimovning tadqiqotlari o'zbek folklorining pedagogik ahamiyatini yoritib, uning talabalarda turli madaniyatlarni tushunish, qabul qilish va ularga hurmat bilan yondashish ko'nikmalarini shakllantirishdagi funksiyasini asoslaydi [7]. Bu yondashuv folklorini ta'lim jarayonining tarkibiy qismiga aylantirish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorij olimlari asosan ingliz folklorining ijtimoiy-axloqiy va milliy o'zlikni shakllantiruvchi jihatlarga e'tibor qaratgan bo'lsa, o'zbek tadqiqotchilari folklorning ma'naviy-axloqiy mazmuni va badiiy tabiatini chuqur tahlil qiladilar. B. Rahimovning ishlari esa ikki folklor tizimi o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlarni aniqlash orqali madaniyatlararo tahlilning kengroq ilmiy doirasini yaratadi [10]. Natijada, bu tadqiqotlar majmuasi ingliz va o'zbek folklorining nafaqat milliy, balki pedagogik va madaniyatlararo ahamiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ingliz va o'zbek folkloridagi umumiylik va farqli jihatlarni tizimli va qiyosiy tahlil qilish asosida talabalarning madaniyatlararo tahlil

ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlar keng muhokama qilinadi. Tadqiqot doirasida folklor namunalari madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishdagi didaktik imkoniyatlari aniqlanib, ularning ta'lim jarayonida qo'llanish mexanizmlari ilmiy asosda tavsiflanadi. Xususan, ertaklar, maqollar, afsonalar, dostonlar va xalq qo'shiqlari orqali talabalarda madaniy qadriyatlar, milliy mentalitet va ijtimoiy tajribani anglash jarayonining samaradorligi tahlil qilinadi.

Tadqiqotda folklor materiallari yordamida talabalarni boshqa madaniyat vakillarining dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va estetik qarashlari bilan tanishtirish, ularni solishtirish va tahlil qilishga yo'naltirilgan ta'limiy faoliyat turlari yoritiladi. Bunda talabalarning faqat passiv bilim oluvchi emas, balki faol tahlilchi va tadqiqotchi sifatida shakllanishiga xizmat qiluvchi interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va qiyosiy topshiriqlarning ahamiyati alohida ko'rsatib o'tiladi. Folklor asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar orqali talabalarda madaniy empatiya, tolerantlik va tanqidiy tafakkur kabi muhim kompetensiyalarning rivojlanishi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Shuningdek, tadqiqotda ingliz va o'zbek olimlarining folklor hamda madaniyatlararo kompetensiya masalasiga oid ilmiy qarashlari umumlashtirilgan holda o'rganilib, ularning yondashuvlari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar aniqlanadi. Solishtiruvchi tahlil usuli yordamida har ikki ilmiy maktab vakillarining nazariy xulosalari va metodik tavsiyalari tahlil qilinib, ularning ta'lim amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlari baholanadi. Mazkur yondashuv talabalarning madaniyatlararo tahlil ko'nikmalarini rivojlantirishda folklorning ilmiy-pedagogik salohiyatini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek folklorining asosiy janrlari - ertaklar, maqollar, afsonalar va xalq qo'shiqlari - mazmun, g'oya, qahramonlar tizimi hamda axloqiy funksiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Olingan natijalar har ikki xalq og'zaki ijodi o'rtasida umuminsoniy qadriyatlar asosida mushtaraklik mavjudligini, ammo ularning badiiy ifodasi va madaniy kontekstida sezilarli farqlar borligini ko'rsatdi.

1. Ingliz va o'zbek ertaklarining g'oyaviy yo'nalishlari Ingliz ertaklarida ko'pincha individualistik qadriyatlar, ya'ni insonning shaxsiy erkinligi, o'z taqdirini o'zi belgilashi va ijtimoiy to'siqlarni yengish g'oyalari markazda turadi [5]. Masalan, "Jack and the Beanstalk" ertagida bosh qahramon kambag'al, ammo jasur, o'z aql-idroki bilan yovuz kuchni yengadi va farovonlikka erishadi. Bu, asosan, "self-made man" g'oyasining folkloridagi ifodasidir.

O'zbek ertaklarida esa insonning yutuqlari ko'pincha jamoa, oila yoki millat manfaati bilan bog'liq [6]. "Zumrad va Qimmat" yoki "Alpomish" kabi asarlarda qahramonning jasorati jamoaning farovonligi bilan o'lchanadi. Bu o'zbek xalqining kollektivistik mentalitetini aks ettiradi.

2. Maqollar orqali axloqiy qadriyatlarining ifodasi Ingliz va o'zbek maqollarining semantik tahlili shuni ko'rsatdiki, ikkala madaniyatda ham mehnatsevarlik, halollik va sabr-toqat kabi qadriyatlar bir xil axloqiy asosda ifodalanadi, biroq ularning metaforik tuzilmasi va psixologik urg'usi turlicha [10].

Masalan:

Inglizcha: "No pain, no gain." – Harakat bo'lmasa, natija bo'lmaydi.

O'zbekcha: "Mehnat qilgan – to'yadi." – Mehnat barakali hayot manbai.

Har ikki maqolda mehnat va natija o'rtasidagi sabab-natija munosabati mavjud, ammo ingliz versiyasi individual muvaffaqiyatni urg'ulasa, o'zbek versiyasi jamoaviy mehnat va barakani ifodalaydi.

3. Afsonalar va xalq dostonlari orqali tarixiy ongning aks etishi

Ingliz afsonalarida, xususan, "King Arthur" rivoyatlarida, qahramonlik va sadoqat g'oyasi tarixiy qirolik idealiga bog'lanadi [4]. Bu asarlar orqali xalq riddership (ridderlik), ya'ni sadoqat va mardlik timsoli sifatida o'z tarixini ramziy talqin qiladi.

O'zbek xalq dostonlarida esa tarixiy qahramonlar xalq ozodligi va adolat uchun kurashuvchi obrazlar sifatida

tasvirlanadi [9]. "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi dostonlarda shaxsiy jasorat millat sha'ning ifodasiga aylanadi.

4. Folklor qo'shiqlarida madaniy konnotatsiyalar

Ingliz xalq qo'shiqlarida (masalan, "Greensleeves") individual muhabbat, yolg'izlik, ichki kechinma ustuvor bo'lsa, o'zbek xalq qo'shiqlarida ("Yor-yor", "Kelin salom") oilaviy birlik, marosim va ijtimoiy qadriyatlar markazda turadi. Shu bois o'zbek qo'shiqlari ijtimoiy ahamiyatga ega, ingliz qo'shiqlari esa psixologik ichki holatni ifodalaydi.

1-jadval. Ingliz va o'zbek folkloridagi asosiy umumiylik va farqlar.

Tahlil mezonlari	Ingliz folklori	O'zbek folklori
G'oyaviy yo'nalish	Shaxs erkinligi, jasorat, o'zini anglash, individual muvaffaqiyat.	Jamoaviylik, mehr-oqibat, ota-onaga hurmat, birdamlik.
Asosiy qahramonlar	Oddiy odam, riddar, kambag'al yigit, sadoqatli qiz.	Xalq qahramonlari, vatan himoyachilari, mehribon onalar.
Axloqiy qadriyatlar	Halollik, sadoqat, jasorat, vijdon, intizom.	Sabr, to'g'rilik, mehmondo'stlik, fidoyilik, mehnatsevarlik.
Folklor motivlari	Sehri hodisalar, afsonaviy mavjudotlar (ajdar, dev, peri).	Real hayotiy syujetlar, xalq urf-odatlari, milliy qadriyatlar.
Qo'shiq janri	Lirik, individual kechinmalar, muhabbat mavzusi.	Marosimiy, ijtimoiy, jamoaviy birdamlik ruhi.
Tarixiy kontekst	Qirolik davri, ritsarlik eposlari, sadoqat ideali.	Qahramonlik dostonlari, milliy ozodlik va vatanparvarlik.
Didaktik vazifa	Shaxsiy rivoj va mustaqil fikrlashni rag'batlantirish.	Axloqiy tarbiya, ijtimoiy birlik va ma'naviy merosni saqlash.

5. Talabalarining madaniyatlararo tahlil kompetensiyasining shakllanishi

Folklor materiallari asosida olib borilgan tahliliy mashg'ulotlarda talabalarining quyidagi o'zgarishlari kuzatildi:

Tushunish darajasi: talabalar ingliz va o'zbek folkloridagi g'oyaviy o'xshashliklarni aniqlab, madaniy kontekstni chuqurroq tahlil qila boshladilar.

Empatiya ko'nikmasi: o'zga madaniyatdagi qadriyatlarni qabul qilish va hurmat bilan yondashish hissi shakllandi.

Qiyosiy tahlil qobiliyati: o'z madaniyatini boshqa madaniyatlar bilan solishtirib, umumiylik va farqlarni izchil tushuntirish ko'nikmasi rivojlandi.

Lingvokulturologik bilim: talabalarda tilda yashiringan madaniy belgilar, metaforalar va majozlarni aniqlash qobiliyati ortdi.

Bu natijalar Bennett va Karimova asarlarida qayd etilgan "madaniyatlararo o'zaro anglashuvni folklor orqali rivojlantirish mumkin" degan ilmiy g'oyani tasdiqlaydi [2,7]. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ingliz folkloridagi individualistik motivlar o'zbek folklorining kollektiv qadriyatlari bilan uyg'unlashgan holda madaniyatlararo muloqotda to'ldiruvchi

rol o'ynaydi. Folklor madaniyatni anglash, o'zlikni saqlash va boshqa xalqlarni tushunishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, ingliz va o'zbek folkloridagi umumiylik va farqlarni tahlil qilish orqali talabalarda madaniyatlararo tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish nafaqat ularning til va adabiyotga oid bilimlarini chuqurlashtiradi, balki turli xalqlarning urf-odatlari, qadriyatlari hamda dunyoqarashi bilan tanishish orqali madaniy tafakkurini kengaytiradi. Har ikkala folklor namunalari uchraydigan obrazlar, mavzular, ramzlar va axloqiy-mazmuniy g'oyalarni solishtirish orqali talabalar umumiy insoniy qadriyatlarni angelaydi, o'z va begona madaniyatlar orasidagi o'xshashlik va farqlarni tahlil qilishga o'rganadi. Bu jarayon ularning tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv va madaniy sezgirlik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, ingliz va o'zbek folklori asosida olib boriladigan madaniyatlararo tahlillar talabalar uchun nafaqat nazariy bilim manbai, balki ularni global va ko'p madaniyatli muhitga tayyorlovchi muhim pedagogik vosita hamdir.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2022. - B. 134-136.
2. Bennett M. J. Developing Intercultural Competence through Education. New York: Routledge. 2021. - P. 45-63.
3. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Clevedon: Multilingual Matters. 2020. - P. 52-70.
4. Dorson R. British Folklore and National Identity. London: Palgrave Macmillan. 2017. - P. 112-138.
5. Green M. The Moral Landscape of English Fairy Tales. Journal of Folklore Studies, 52(2). 2015. - P. 145-162.
6. Jo'raeva N. O'zbek xalq ertaklarida axloqiy ideal va obrazlar tizimi. - Toshkent: Fan nashriyoti. 2021. - B. 25-49.
7. Karimova D. Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishda folklorning o'rnini. Filologiya masalalari jurnali, 3(4). 2023. - B. 22-31.
8. Kramsch C. Language and Culture. Oxford: Oxford University Press. 2019. - P. 78-95.
9. Mirzayev S. O'zbek xalq og'zaki ijodining badiiy xususiyatlari. - Namangan: NamDU nashriyoti. 2018. - B. 73-95.
10. Rahimov B. O'zbek va ingliz xalq og'zaki ijodi qiyosida milliy mentalitet ifodasi. Til va adabiyot jurnali, 5(2). 2020. - B. 66-74.



UDK:372.3/4(075.8)

Dildoraxon MIRZAKARIMOVA,
Andijon davlat tibbiyot instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail:dildorabaxadirovna@mail.ru

Andijon davlat tibbiyot instituti professori, p.f.d A.Ismanova taqrizi asosida

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PREVENTIVE IMMUNE CULTURE IN STUDENTS IN DIGITAL MEDICAL EDUCATION

Annotation

This article examines the theoretical and methodological foundations for developing preventive immunological culture among medical students within the framework of digital medical education. The study substantiates the growing importance of a preventive approach in modern healthcare and the integration of digital technologies – such as mobile applications, AR/VR simulations, QR-based learning modules, and electronic monitoring systems – into the educational process.

Keywords: digital medical education, preventive immunological culture, digital technologies, AR/VR, mobile applications, infectious diseases, prevention, pedagogical technology, immunization, digital competence.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЙ ИММУННОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ В ЦИФРОВОМ МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В данной статье исследуются теоретические и методологические основы формирования профилактической иммунной культуры у студентов медицинских вузов в условиях цифрового медицинского образования. Обоснована актуальность профилактического подхода в современной системе здравоохранения и интеграции цифровых технологий – мобильных приложений, AR/VR-симуляций, QR-модулей и электронных систем мониторинга – в образовательный процесс.

Ключевые слова: цифровое медицинское образование, профилактическая иммунная культура, цифровые технологии, AR/VR, мобильные приложения, инфекционные заболевания, профилактика, педагогические технологии, иммунизация, цифровая компетентность.

RAQAMLI TIBBIY TA'LIMDA TALABALARDA PROFILAKTIK IMMUN MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli tibbiy ta'lim sharoitida talabalarda profilaktik immun madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy tibbiy ta'lim tizimida profilaktik yondashuvning ustuvorligi, raqamli texnologiyalar (mobil ilovalar, AR/VR simulyatsiyalar, QR-kodli o'quv modullari, elektron monitoring tizimlari)ning o'qitish jarayoniga integratsiyasi va uning immun-profilaktika kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: raqamli tibbiy ta'lim, profilaktik immun madaniyat, raqamli texnologiyalar, AR/VR, mobil ilova, yuqumli kasalliklar, profilaktika, pedagogik texnologiya, immunizatsiya, raqamli kompetensiya.

Kirish. Globallashtirish va raqamlashtirish davrida tibbiy ta'lim tizimida keskin o'zgarishlar yuz bermoqda. Klinik fanlar o'qitilishi jarayoniga raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, simulyatsiya uskunalari, telemeditsina va elektron platformalar keng joriy qilinmoqda. Bu yangilanishlar ta'lim jarayonini zamonaviylashtirishga xizmat qilsa-da, shu bilan birga o'quv jarayonida bir qator pedagogik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun, tibbiy ta'limni raqamlashtirish sharoitida klinik fanlarni samarali o'qitish masalasini chuqur ilmiy-pedagogik jihatdan tadqiq etish dolzarbdir[6].

Integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishdagi asosiy qadamlar:

1. Integrativ yondashuv. Bu metodda turli fanlar, malaka va ko'nikmalar bir-biri bilan bog'lanadi, birgalikda qo'llaniladi. Masalan, pediatriyada bioximiya, farmakologiya, fiziologiya, gistologiya va anatomiya fanlari integratsiya qilinadi.

2. Rivojlantiruvchi yondashuv. Bu yondashuv mutaxassislarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Unda talabalarning ijodiy va klinik fikrlash qobiliyati, muammolarni echish strategiyalari rivojlantiriladi.

bu shifokorning faqat yakka bir fan yoki ko'nikmada emas, balki turli sohalaridagi bilim va ko'nikmalarni uyg'unlashtirib, ularni amaliyotda samarali qo'llay olish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu yondashuv shifokorni kompleks yondashuv bilan masalalarni hal qilishga tayyorlaydi.

3. Kasbiy kompetensiyani takomillashtirish texnologiyasi: Bu sohada o'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalari va metodikalar qo'llaniladi. Masalan, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, onlayn kurslar va interaktiv o'quv materiallar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tibbiy ta'limning asosiy maqsadi tizimiga zamonaviy innovasion texnologiyalarni keng jopiy etish opqali sog'liqni saqlash tizimi uchun jaxon andozalapidagi ilmiy-amaliy, klinik standaptni negizida yuqori malakali mutaxassislar tayyoplash.

Fanlapapoga integratsiya esa barcha tabiiy va klinik fanlar opasida uzviy bog'liqlikni ta'minlab, talabalarda tibbiy-biologik fanlapaga bo'lgan e'tiborni kuchaytipadi. Talabalap bu fanlapadan olgan bilimlapini muayyan amaliy klinik muammolarni xal etishda qo'llab, ularning ahamiyatini chuqurroq tushunadilap. Fanlapapoga integratsiya bo'lajak pediatrlarda bemor organizmiga tegishli bo'lgan barcha

ma'lumotlarni yagona mantiqiy tizim doirasida biplashtirib, bemor to'g'risidagi to'liq va obyektiv ma'lumotga ega bo'lishini, davolashning patogenetik nuqtai-nazaridan asoslangan chopalarni belgilashni ta'minlaydi[3] Talabalarga inson organizmi alohida anatomiya, gistologiya, sitologiya, fiziologiya, biokimodan iborat bo'lgan bilim va ma'lumotlar yig'indisi emas, balki yagona, bip butun yaxlit tizim ekanligini singdipish nixoyatda muxim[3]

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli tibbiy ta'limda talabalarining profilaktik immun madaniyatini rivojlantirish zarurati ilmiy jihatdan bir necha asosiy sabablarga ko'ra izohlanadi:

1. Zamonaviy sog'liqni saqlash paradigmasi o'zgarishi. Bugungi kunda tibbiyot "kasallikni davolash"dan "kasallikni oldini olish"ga o'tdi. Profilaktika, immunizatsiya va sog'lom turmush tarzini targ'ib etish sog'liqni saqlash tizimining markazida turibdi. Shu sababli, tibbiy ta'limda talabalarining profilaktik immun madaniyatini (PIM) shakllantirish — ularning kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu madaniyat talabalarda immun tizimning fiziologiyasi va himoya mexanizmlarini chuqur anglashni, vaksinalarning ahamiyatini ilmiy baholashni, aholining immun savodxonligini oshirishda faol bo'lishni ta'minlaydi.

2. Raqamli texnologiyalar ta'lim samaradorligini oshiradi. Raqamli tibbiy ta'lim vositalari (simulyatsiya, virtual laboratoriyalar, mobil ilovalar, interaktiv platformalar) orqali talabalar immun tizim faoliyatini modellashtirishni o'rganadi. Real klinik holatlarni tahlil qiladi. Epidemiologik xavf-xatarlarni raqamli vositalar yordamida prognozlaydi, sun'iy intellekt orqali profilaktik qarorlar qabul qilishni mashq qiladi. Bu esa raqamli kompetensiya va profilaktik tafakkurni uyg'unlashtirib, talabalarni XXI asr shifokori darajasida tayyorlash imkonini beradi[4].

3. Profilaktik immun madaniyat – ijtimoiy barqarorlik omili sifatida. Rivojlangan immun madaniyatga ega bo'lgan tibbiyot talabalari vaksina rad etish, noto'g'ri ma'lumotlar va "antivaks" harakatlariga qarshi ilmiy asosda javob bera oladi. Aholining immunologik xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Pandemiya, epidemiyalar davrida sog'lom kommunikatsiya madaniyatini targ'ib etadi. Bu jarayon milliy xavfsizlik va sog'lom avlodni shakllantirishga xizmat qiladi[4].

4. Ta'lim tizimida integrativ yondashuv zarurati. Profilaktik immun madaniyatni rivojlantirish biologiya, immunologiya, epidemiologiya, tibbiy etika, raqamli tibbiyot va sotsiologiya kabi fanlar o'rtasida integratsiyani taqozo etadi.

Shu orqali fanlararo bog'liqlik mustahkamlanadi. Talabalar tibbiyotga tizimli yondashishni o'rganadi. Kasbiy refleksiya va ijtimoiy javobgarlik kuchayadi[7].

5. Global tendensiyalar bilan uyg'unlik. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, raqamli sog'liqni saqlash savodxonligi va profilaktik immun kompetensiya global tibbiy ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Shuning uchun O'zbekiston tibbiyot ta'limi tizimida ham profilaktik immun madaniyatni raqamli asosda shakllantirish xalqaro akkreditatsiya talablariga mos keladi, tibbiyot oliygohlarini University 3.0 modeli tomon olib boradi, kelajak shifokorlarini global sog'liqni saqlash tarmog'ida raqobatbardosh qiladi[7].

Demak, raqamli tibbiy ta'limda profilaktik immun madaniyatni rivojlantirish - bu nafaqat sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash, balki raqamli sog'lom jamiyatni yaratishning ilmiy-pedagogik poydevoridir. U talabalarda immun savodxonlik, ijtimoiy mas'uliyat va raqamli tafakkurni uyg'un shakllantirib, ularni profilaktik tibbiyotning yangi avlod yetakchilari sifatida tayyorlaydi[4]

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar. Tajriba-sinov ishini tashkil etishda birinchi navbatda talabalarining darsga psixologik jihatidan tayyorligi, qiziqishlari, ilmiy-ijodiy dunyoqarashlariga, ya'ni kreativ qobiliyatiga baho berilgandan so'ng darsda ko'rgazmali organayzerlar, ko'rgazmali demonstratsion maketlar va tarqatma materiallardan foydalanib, klaster va savol-javob metod va usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Klinik fanlar talabalarda nafaqat bilim, balki amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishni talab qiladi. An'anaviy klinik mashg'ulotlarda talaba bevosita bemor bilan ishlash, kuzatish va qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etadi. Raqamlashtirish jarayonida esa ushbu tajribani to'liq qoplash qiyin. Shu bois nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlash, amaliy klinik vaziyatlarni virtual muhitda modellashtirish, raqamli baholash mezonlarini ishlab chiqish, talabalar motivatsiyasi va kognitiv yuklamasini muvozanatlashtirish - pedagogik jihatdan hal etilishi lozim bo'lgan asosiy masalalardir[6].

Tibbiy ta'limni raqamlashtirish bugungi global ta'lim tizimida muhim ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Klinik fanlar bo'yicha o'quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat bilimlarni samarali yetkazish, balki talabalarda mustaqil klinik tafakkur, amaliy ko'nikmalar va diagnostik kompetensiyalarni shakllantirish uchun pedagogik imkoniyatlarni kengaytiradi. Shu bois, raqamli transformatsiya jarayonida klinik fanlarni o'qitishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va takomillashtirish zarur hisoblanadi[6].

Raqamli ta'lim - bu o'quv jarayonini elektron platformalar, virtual simulyatsiyalar, multimedia resurslar va sun'iy intellekt yordamida tashkil etish jarayonidir[5]. Bugungi kunda raqamli ta'limning asosiy komponentlari quyidagilar hisoblanadi:

- LMS tizimlari (Moodle, Google Classroom, Canvas);
- virtual laboratoriyalar;
- simulyatorlar va VR texnologiyalar;
- elektron darsliklar va multimedia ma'lumotlar, test va monitoring dasturlari;
- sun'iy intellekt yordamida adaptiv ta'lim.

Raqamli texnologiyalar talabalarda immun profilaktikaga oid bilimlarni tez, aniq, interaktiv, vizual, ko'rinishda o'zlashtirish imkonini beradi.

Zamonaviy tibbiy ta'lim jarayoni raqamli texnologiyalar asosida tubdan o'zgarib bormoqda. "Digital Medical Education" termini quyidagi komponentlar majmuini anglatadi: elektron ta'lim resurslari (E-learning), telemeditsina, AR/VR asosida o'qitish, virtual bemorlar, sun'iy intellekt asosida klinik qaror qabul qilish ko'nikmalarini o'rgatish, raqamli simulyatorlar, elektron test tizimlari, onlayn klinik amaliyot modullari[5].

Raqamli tibbiy ta'limda profilaktik immun madaniyatni shakllantirish imkoniyatlarini taxlil qildik. Raqamli pedagogik texnologiyalarning jadal rivojlanishi tibbiy ta'limda, xususan, bo'lajak shifokorlarda profilaktik immun madaniyatni rivojlantirishda yangi didaktik imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar, mobil ilovalar va sun'iy intellekt asosidagi epidemiologik modellar talabalarining immun-preventiv kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.

Tibbiy ta'limda immun-profilaktik savodxonlikning shakllanish jarayoni zamonaviy tibbiy ta'lim paradigmalari asoslanadi. Bugungi kunda tibbiy ta'limda quyidagi konsepsiyalar ustuvor:

1. Kompetensiyaga asoslangan ta'lim (KAT)
2. Raqamli tibbiy ta'lim (Digital Medical Education)

3. Simulyatsiyaga asoslangan o'qitish

4. Talabaga yo'naltirilgan yondashuv

Profilaktik immune madaniyat esa ushbu paradigmalarning kesishgan nuqtasida shakllanadi. Tibbiyot talabasi faqat nazariy bilim emas, balki epidemiologik fikrlash, kasallik xavfini baholash, aholini to'g'ri maslahat bilan ta'minlash, vaksinalar xususida ilmiy pozitsiya, raqamli epidemiologik vositalardan foydalanish, ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak[3].

Tibbiyot sohasida raqamlashtirish talabalarning kasbiy kompetensiyasini ancha oshiradi, chunki vaqt, joy, murakkab klinik vaziyatlar va xavfsizlik bilan bog'liq cheklovlar bartaraf etiladi. Raqamli ta'limning nazariy poydevori konstruktivizm, kognitiv psixologiya, kompetensiya modeliga asoslangan ta'lim, faol o'quvchilar nazariyasi modeli: TPACK (Technology + Pedagogy + Content Knowledge), Bloom taksonomiyasining raqamli variantlari. Shu nazariyalar asosida tibbiyot ta'limi jarrohlik amaliyotlari simulyatsiyasi, yuqumli kasalliklarni boshqarish algoritmlari,

vaksina muhofazasi bo'yicha qaror qabul qilish modellari raqamli tarzda o'rgatadi.

Tadqiqotimizdan maqsad tibbiy ta'limni raqamlashtirish sharoitida klinik fanlarni o'qitishda yuzaga keladigan pedagogik muammolarni ilmiy tahlil qilish va ularni samarali hal etish yo'llarini belgilashdan iborat. Raqamlashtirish jarayonida yuzaga keladigan asosiy pedagogik muammolarni tahlil qilamiz.

1. Nazariya va amaliyot integratsiyasi. Raqamli ta'limda klinik bilimlar o'quv materiallari, video-leksiyalar va elektron resurslar orqali beriladi. Ammo amaliy klinik qarorlar qabul qilish, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish ko'pincha yetarlicha qamrab olinmaydi. Raqamlashtirish jarayonida klinik fanlarni o'qitish samaradorligini oshirish uchun nazariya va amaliyotning integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Talaba nafaqat ma'lumotni o'qishi yoki onlayn tinglashi, balki uni amaliyotda qo'llashni ham o'rganishi kerak[6]. Muammoning pedagogik oqibatlar talabalarda bilim va ko'nikma o'rtasidagi tafovut kuchayadi. Mustaqil klinik qaror qabul qilish qobiliyati sekin rivojlanadi. Klinik muhitda stress va ishonchsizlik oshadi. O'qituvchi uchun talabani nazariya va amaliyot bo'yicha ob'ektiv baholash murakkablashadi.

2. Amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdagi qiyinchiliklar. Virtual simulyatorlar va 3D-modellar jarrohlik, reanimatsiya va pediatriya kabi yo'nalishlarda qo'llanilmoqda. Biroq ular real bemor bilan muloqotni to'liq almashtira olmaydi. Tibbiy ta'lim jarayonida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallashlari, balki amaliy ko'nikmalarni

shakllantirishlari ham zarur. Biroq raqamlashtirish jarayonida va an'anaviy o'qitish tizimida bu masala bir qator pedagogik qiyinchiliklar bilan to'qnashadi. Misol, real klinik sharoit yetishmasligi natijasida talabalar virtual simulyator yordamida "intravenoz inyeksiya"ni o'rganadi. Virtual muhitda igna kiritish aniq, bemor ham harakatsiz bo'ladi. Haqiqiy klinikada esa bemor qo'rqadi, qo'llari titraydi, tomirlarni topish qiyin bo'ladi. Talaba virtual mashg'ulotda tayyorlanganiga qaramay, real vaziyatda qiynaladi. Muloqot ko'nikmalarining yetarli rivojlanmasligi natijasida Onlayn darsda talaba yozilgan anamnez blankasi asosida bemor tarixi bilan tanishadi.

3. Pedagog va talaba o'rtasidagi interaktiv aloqa. Onlayn ta'limda o'qituvchi va talaba o'rtasida muloqot kamayadi, bu esa talabalarning motivatsiyasi va faol ishtirokini pasaytirishi mumkin. Pedagog va talaba o'rtasidagi interaktiv aloqa – tibbiy ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Ammo raqamlashtirish va zamonaviy o'quv jarayonida bu aloqada qator qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Quyida ularni aniq misollar asosida ko'rib chiqamiz. Muloqotning biryoqlama bo'lib qolishi natijasida Onlayn darslarda pedagog ko'pincha materialni monolog tarzida tushuntiradi, talabalar esa passiv tinglovchiga aylanadi. Misol: Zoom orqali o'tkazilgan klinik leksiya o'qituvchi 90 daqiqa davomida materialni tushuntiradi, talabalar esa chatda faqat "ha" yoki "yo'q" deb javob beradi. Bu holatda interaktiv muloqot yuzaga kelmaydi. Talabalar ishtirokining ustligi oqibatida ba'zi talabalar darsda faol bo'lmasdan, kamera va mikrofonni o'chirib qo'yadi. Pedagog talabalar reaksiyasini ko'ra olmaydi. Misol: Klinik case-study muhokamasida talabalardan biri "bemor anamnezini aytib bering" topshirig'iga umuman javob bermaydi. Sababi – uyat, ishonchsizlik yoki texnik muammo bo'lishi mumkin. Texnik muammolar sababli Internet tezligi pastligi yoki platforma ishlamay qolishi pedagog va talaba o'rtasidagi uzluksiz muloqotni izdan chiqaradi. Misol: Amaliy mashg'ulotda "bemor bilan suhbatni boshlang" degan topshiriqda talaba sukut saqlaydi, chunki o'qituvchi va kursdoshlar qarshisida o'zini noqulay his qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulos, tibbiy ta'limni raqamlashtirish sharoitida klinik fanlarni o'qitish – murakkab va ko'p qirrali pedagogik muammodir. Uning samarali hal etilishi uchun raqamli va an'anaviy ta'lim usullarini uyg'unlashtirish, simulyatsion texnologiyalarni amaliy ta'lim bilan integratsiya qilish, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, talabalar uchun motivatsion va interaktiv muhit yaratish – zarur shartlardir. Mazkur muammo ilmiy-pedagogik izlanishlarni davom ettirishni va yangi metodik yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi[5].

ADABIYOTLAR

1. Mukhammadjonovich, R. M., Abdulkhamidovna, I. A., Abdumukhtorovich, G. S., Abdusaitovich, T. O., & Sobirovich, K. S. (2023). Use of new innovative methods in teaching the science of information technologies and modeling of technological processes. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 1458-1463.
2. Khoury M.J. et al. Precision Medicine in the Era of Big Data: Opportunities and Challenges. // *Public Health Genomics*. – 2016.
3. Ginsburg G.S., Phillips K.A. Precision Medicine: From Science to Value. // *Health Affairs*. – 2018.
4. Ismanova, A. (2022). Upbringing of highly educated young people is the main basis for preventing religious extremism and terrorism. *Экономика и социум*, (10-2 (101)), 59-62.
5. Tukhtaeva, N., Ismanova, A., Allamuratova, Z., & Khayitboev, N. (2024, November). Using mind mapping in teaching computer science. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3244, No. 1). AIP Publishing.
6. Arofat, I. (2016). Social-political need of fighting with Enlightenment against ideology of religious extremism and terrorism. *European research*, (6 (17)), 96-98.
7. Ismanova, A. (2016). The Mechanisms of Influence on the Minds of Young People and Socio-Educational Prevention. *Eastern European Scientific Journal*, (3).
8. Всемирная организация здравоохранения. Иммунизация охвата населения. – Женева: WHO, 2022.
9. Министерство здравоохранения РУз. Цифровые инструменты профилактики инфекционных заболеваний. – Ташкент, 2023.
10. Карда, X., Итани, З. Использование социальных сетей для продвижения здоровья. // *Практика оздоровления*. – 2013. – №1. – С. 15–23.
10. Pew Research Center. Молодёжь, технологии и здоровье. – Вашингтон, 2022.



UDK: 347.51 : 351.74

Baxtiyar MUSURMANOV,

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti kafedra katta o‘qituvchisi

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI TIZIMIDAGI MUASSASALARNING FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIK MASALALARI

Аннотация

Maqola O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimidagi muassasalarning fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalariga bag‘ishlangan. Unda ichki ishlar organlari xodimlari va muassasalarning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi javobgarligi, ularning xatti-harakatlaridan kelib chiqadigan zararining o‘rmini qoplash, shuningdek, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq huquqiy normalar tahlil qilinadi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida ichki ishlar organlarining fuqarolik-huquqiy javobgarligining xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, amaliyotdagi muammolar va ularning yechimlariga doir takliflar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi, Fuqarolik kodeksi, qonunchilik, ichki ishlar organlari, fuqarolarning huquqlari, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, zararining o‘rmini qoplash.

ISSUES OF CIVIL LEGAL LIABILITY OF INSTITUTIONS IN THE INTERNAL AFFAIRS BODIES SYSTEM

Annotation

The article is devoted to the issues of civil liability of institutions in the system of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. It analyzes the legal norms related to the responsibility of employees of law enforcement agencies and institutions in civil law relations, compensation for damage caused by their actions, as well as the protection of the rights and legitimate interests of citizens. The article examines the specifics of the civil liability of internal affairs bodies on the basis of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan and other legislative acts. Suggestions on practical problems and ways to solve them are also provided.

Keywords: Republic of Uzbekistan, Civil Code, legislation, internal affairs bodies, citizens' rights, civil liability, compensation for damage.

ВОПРОСЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ УЧРЕЖДЕНИЙ СИСТЕМЫ МИНИСТЕРСТВО ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация

Статья посвящена вопросам гражданско-правовой ответственности учреждений в системе Министерства внутренних дел Республики Узбекистан. В нем анализируются правовые нормы, связанные с ответственностью сотрудников органов и учреждений внутренних дел в гражданско-правовых отношениях, возмещением ущерба, причиненного их действиями, а также защитой прав и законных интересов граждан. В статье рассматриваются особенности гражданско-правовой ответственности органов внутренних дел на основании Гражданского кодекса Республики Узбекистан и других законодательных актов. Также приводятся предложения по проблемам на практике и пути их решения.

Ключевые слова: Республика Узбекистан, Гражданский кодекс, законодательство, органы внутренних дел, права граждан, гражданско-правовая ответственность, возмещение ущерба.

Kirish. Ichki ishlar vazirligi tizimidagi muassasalarning fuqarolik-huquqiy javobgarligi bilan bog‘liq masalaning u yoki bu jihatlari fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning umumiy mazmun-mohiyati[1], shu jumladan shartnoma talablarini buzganlik uchun javobgarlik masalasi yagona yo‘nalish sifatida tadqiq etilmagan. Bozor munosabatlari tartibga solishda va bu sohaga doir shartnoma majburiyatlarining bajarilishini ta‘minlashda fuqaroviy-huquqiy javobgarlik asosiy vosita hisoblanadi[2].

Ichki ishlar organlari yoki uning alohida tuzilmasi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda o‘ziga xos alohida mulkdor tashkilot (yuridik shaxs) sifatida qatnashadi. Ichki ishlar vazirligi tizimidagi muassasalar va u fuqarolik-huquqiy munosabatlarda har doim yuridik shaxs (muassasa) sifatida ishtirok etadi. Ammo, har qanday davlat organi

yuridik shaxs bo‘la olmaydi. Chunki biron-bir davlat organini yuridik shaxs deb e‘tirof etish uchun u Fuqarolik kodeksining 39-moddasida belgilangan talablarga javob berishi kerak.

N.A.Quldashev ta‘kidlaganidek, ichki ishlar organlari ko‘p tarmoqli tashkilotdir, garchi ushbu tizimdagi barcha tuzilmalar davlat organlari hisoblansa-da, ularning hammasi yuridik shaxs maqomiga ega emas. Masalan, tuman ichki ishlar bo‘limi davlat organi, lekin uni yuridik shaxs deb bo‘lmaydi. Chunki tuman ichki ishlar bo‘limlarida yuridik shaxsga xos belgilar mavjud emas. Ma‘muriy huquq nazariyasida davlat organlariga davlatning hokimiyat vakolatlarini amalga oshiruvchi tashkilot sifatida qaraladi. Ammo fuqarolik huquqida muayyan (tashkiliy birlik, mulkiy mustaqillik, mustaqil mulkiy javobgarlik, o‘z

nomidan harakat qilish) belgilarga ega bo'lgan tashkilotlarga yuridik shaxs sifatida tan olinadi va ular fuqarolik huquqining alohida subyektlari hisoblanadi[3].

Bir tarafning ikkinchi tarafga ma'muriy bo'ysunishi ma'muriy-huquqiy munosabat subyektlariga, ya'ni davlat organlariga xos xususiyat, jihatdir. Shunga ko'ra, davlat organlari o'z faoliyatlarini ko'proq ma'muriy tartibda amalga oshiradi. Zero, ma'muriy bo'ysunish tamoyiliga asoslanuvchi huquqiy munosabatlar davlat organlariga xosdir. Ammo, davlat organlari, shu jumladan, ichki ishlar organlari faqat ma'muriy-huquqiy munosabatlarda emas, balki fuqarolik muomalasida ham qatnashadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari teng huquqlilik prinsipiga asoslanar ekanlar, unda davlat organlari ham o'z hokimiyat vakolatlaridan foydalanmasliklari, kontragentlariga hokimiyat ta'sirini o'tkazmasliklari shart. Ushbu munosabatlarda davlat organlari tom ma'noda yuridik shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bunda davlat o'z organlariga, xususan ichki ishlar organlariga hokimiyat vakolatlari bilan bir vaqtda yuridik shaxs huquqini ham beradi. Shuningdek, ularning fuqarolik huquqining maxsus subyekti sifatidagi tashkiliy-huquqiy shakli muassasa ekanini ham belgilaydi (FKning 76-moddasi).

N.Narmatov ta'kidlaganidek, "davlatning ichki funksiyalaridan biri bo'lgan – ichki tartibni saqlash, huquqbuzarliklarga qarshi kurash kabi huquqni muhofaza qilish funksiyasini amalga oshirishda "Qo'riqlash" birlashmasi davlat organi sifatida ishtirok etadi va bunda davlat "Qo'riqlash" birlashmasining majburiyatlari yuzasidan javobgar hisoblanadi"[4]. Zero, yuridik adabiyotlarda to'g'ri ta'kidlaganidek, yuridik javobgarlik bu davlat majburlovi chorasi bo'lib, uning amalga oshirilishi jismoniy va yuridik shaxslar, ijtimoiy munosabatlar boshqa subyektlarining huquq va erkinliklariga rioya etishning alohida kafolatlari bo'lishini taqozo etadi[5].

Shu bois, Ichki ishlar vazirligi tizimidagi muassasalarning hokimiyat vakolatlarini amalga oshirish vaqtida yetkazgan zarari uchun javobgarligi deganda, davlatning javobgarligi tushunilishi kerak. Ammo, sohadagi muassasalarning shartnomaviy javobgarligi haqida so'z borganda, shartnomaviy majburiyatlardagi javobgarligi bo'yicha davlatni javobgar qilib bo'lmaydi. YA'ni, Ichki ishlar vazirligi tizimidagi muassasalar fuqarolik-huquqiy shartnomalarda olgan majburiyatlari borasida mustaqil javobgar bo'ladi. Huquqiy asos sifatida "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni 6-moddasi ikkinchi xatboshisida o'z aksini topgan bo'lib, bunda: "Qonunlarni aniq bajarishdan va ularga rioya qilishdan har qanday chekinish, qanday sabablarga ko'ra yuz berganidan qat'i nazar, qonuniylikni buzish hisoblanadi va belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi".

Demak, Ichki ishlar vazirligi tizimidagi barcha muassasalar davlat muassasasi sifatida va o'z majburiyatlari doirasida operativ boshqaruv huquqiga ega bo'lgan barcha mol-mulk bilan, shu jumladan daromad keltiruvchi faoliyatdan olingan daromadlar bilan javob beradilar, biroq mulkdor tomonidan budjet muassasasiga ajratilgan o'ta qimmatli ko'char mulk bundan mustasnodir, chunki bu mulk ko'chmas mulk egasi tomonidan ajratilgan mablag'lar hisobidan sotib olingan bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 76-moddasida muassasalar

tushunchasi ham yoritilgan, "boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo'lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to'la yoki qisman moliyaviy ta'minlab turiladigan tashkilot muassasa hisoblanadi". Shu jumladan, muassasaning o'ziga birlashtirib qo'yilgan va o'zi sotib olgan mol-mulka bo'lgan huquqlari Fuqarolik Kodeksning 178 va 180-moddalariga muvofiq belgilanadi.

Bu borada qonun chiqaruvchi organ birinchidan, Ichki ishlar vazirligi tizimidagi muassasalarning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda fuqarolik huquqining boshqa subyektlari (fuqarolar, yuridik shaxslar, davlat) bilan teng shart-sharoitlarda ishtirok etishini nazarda tutgan bo'lsa, ikkinchidan, muassasalar nomidan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda uning rahbari va huquqshunosi ishtirok etadi.

Ichki ishlar vazirligi tizimidagi muassasalar bilan yuridik shaxslar o'rtasida ko'pincha oldi-sotdi, ayirboshlash, pudrat, moddiy-texnik ta'minlash, xizmat ko'rsatish kabi sohalarida shartnomalar tuzish va unga amal qilish madaniyati tobora oshib borayotganligi ayni haqiqatdir.

Jumladan, Ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi jazoni ijro etish muassasalari tomonidan 2024 yil davomida yuridik shaxslar bilan tuzilgan fuqarolik-huquqiy shartnomalar natijasida 392,5 mlrd. so'mlik (2023 yilda – 302,0 mlrd.) so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilishiga erishilgan.

Xususan, 37,0 mlrd. so'mlik 56 mln. 607 ming dona pishgan g'isht, 20,1 mlrd. so'mlik 22,7 ming. tonna qurilish ohagi, 3,6 mlrd. so'mlik 11,2 ming kub metr keramzit, 7,3 mlrd. so'mlik 531,3 ming dona temir-beton mahsulotlari, 9,4 mlrd. so'mlik 88,9 ming kv.metr tabiiy va sun'iy tosh mahsulotlari, 6,1 mlrd. so'mlik 18,1 ming tonna quruq qurilish mahsulotlari, 51,2 mlrd. so'mlik metallardan yasalgan mahsulotlar, 111,8 mlrd. so'mlik mebel mahsulotlari, 75,9 mlrd. so'mlik tikuvchilik mahsulotlari, 20,9 mlrd. so'mlik poyabzal mahsulotlari, 49,1 mlrd. so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilib, xizmatlar ko'rsatildi.

Shuningdek, 93 mlrd. so'mlik mahsulotlar tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarildi. Tayyor mahsulotlar qoldig'i 21,8 mlrd. so'mni tashkil etib, asosan qurilish, mebel va tikuvchilik mahsulotlari hissasiga to'g'ri keladi.

2025 yilning 6 oyi davomida esa yuridik shaxslar bilan tuzilgan fuqarolik-huquqiy shartnomalar natijasida 307,1 mlrd. so'mlik (2024 yilda – 45,05 mlrd.) so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilishiga erishilgan.

Xususan, 24,9 mlrd. so'mlik 28 mln. 880 ming dona pishgan g'isht, 9,7 mlrd. so'mlik 5,3 ming. tonna qurilish ohagi, 327 mln. so'mlik 0,9 ming kub metr keramzit, 3,3 mlrd. so'mlik 361,3 ming dona temir-beton mahsulotlari, 6,9 mlrd. so'mlik 61,5 ming kv.metr tabiiy va sun'iy tosh mahsulotlari, 1,1 mlrd. so'mlik 3,3 ming tonna quruq qurilish mahsulotlari, 25,7 mlrd. so'mlik metallardan yasalgan mahsulotlar, 104,3 mlrd. so'mlik mebel mahsulotlari, 24,2 mlrd. so'mlik tikuvchilik mahsulotlari, 2,1 mlrd. so'mlik poyabzal mahsulotlari, 104,4 mlrd. so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilib, xizmatlar ko'rsatildi.

Shuningdek, 52,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarildi. Tayyor mahsulotlar qoldig'i 30,1 mlrd. so'mni tashkil etib, asosan qurilish, mebel va tikuvchilik mahsulotlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuni yodda saqlash zarurki, har qanday mazmundagi "shartnomalarning asosida esa ko'p hollarda fuqarolar va yuridik shaxslar zimmasiga yuklangan majburiyatlar yotadi"[6]. Sobiq Ittifoq qonunchiligida ichki ishlar organlarining fuqaroviy-huquqiy shartnomalardan kelib chiqadigan zararlariga doir masalalar emas, faqat ularning ma'muriy boshqaruv sohasi, ya'ni xizmatdagi huquqqa xilof harakatlari uchun fuqarolik-huquqiy javobgarligining shart-sharoitlari o'rganilgan[7]. N.A.Kuldashvning fikricha, birinchidan, o'sha davrlarda davlat va uning organlari fuqarolik-huquqiy javobgarlikning subyektlari hisoblanmagan edi. Ikkinchidan esa, o'sha vaqtlarda barcha mulk shakllari davlat mulkiga asoslangan va shunga ko'ra, ichki ishlar organlarining ma'muriy idora sifatidagi moddiy ehtiyojlari to'g'ridan-to'g'ri davlat tomonidan ta'minlanganligi sababli shartnomalar tuzishga ehtiyoj ham bo'lmagan. Zotan, shartnoma tuzishdan maqsad ham subyektlarning "ma'lum moddiy hamda madaniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan" bo'ladi[3].

Alohida ta'kidlash joizki, Ichki ishlar vazirligi tizimidagi muassasalar tomonidan tuziladigan fuqarolik-huquqiy shartnomalarda nazarda tutiladigan majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik holatlarining oldini olish maqsadida FKning 333-moddasida fuqarolik-huquqiy javobgarlik ham belgilab qo'yilgan. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asosiy maqsadi ham shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik tufayli yoxud huquqbuzarlik oqibatida jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni fuqaroviy huquqbuzardan undirishdir. Zero, "zararni undirish tovar-pul munosabatlariga asoslangan har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining zaruriy sharti" va buni "fuqarolik huquqida zarar uni yetkazgan shaxsni jazolash uchun emas, balki shartnomaning buzilishi oqibatida

yetkazilgan ziyonni qoplash uchun xizmat qilishi" sifatida tushunish lozim.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ichki ishlar organlari tizimidagi jazoni ijro etish muassasalarining fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalarini yuzaga kelishida quyidagi sabablarni ko'rish mumkin:

birinchidan, shartnoma tuzishda Ichki ishlar vazirligi tizimidagi muassasalar, ayniqsa jazoni ijro etish muassasalarida fuqarolik huquqi, shartnoma huquqi bo'yicha yetarli bilimlarga ega bo'lgan yuriskonsultlarning yetishmasligi;

ikkinchidan, fuqarolik-huquqiy shartnomalarni tuzishda muassasalarining moliyaviy va moddiy-texnik holatidan kelib chiqib, mahsulot miqdorini belgilamasligini ta'kidlab o'tish joiz.

Fikrimizcha, ushbu muammolarni hal etish borasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

birinchidan, ichki ishlar organlari tomonidan amaliyotda tuziladigan fuqarolik-huquqiy shartnomalarning namunalari hamda ularni qo'llash bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish;

birinchidan, fuqarolik-huquqiy shartnomalarni tuzish tartib-taomillari hamda ularga amal qilish madaniyatini yuksaltirish bo'yicha IIV Akademiyasi Fuqarolik-huquqiy fanlar kafedrasini professor-o'qituvchilari tomonidan Ichki ishlar vazirligi tizimidagi muassasalarining yuriskonsultlari uchun qisqa muddatli o'quv kurslarini joriy etish;

uchinchidan, ichki ishlar organlari tomonidan boshqa yuridik shaxslar bilan fuqarolik-huquqiy shartnomalarni tuzishda muassasaning moliyaviy, moddiy-texnik va tashkiliy jihatlari, shuningdek fors-major holatlarini inobatga olish mexanizmlarini tatbiq etish foydadan xoli bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Зокиров И.Б. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик ҳуқуқи. (I қисм). – Тошкент: Адолат, 1996. – 265-269-б;
2. Рўзиназаров Ш.Н. Тадбиркорлик фаолиятини ҳуқуқий тартибга солиш: (қонун ҳужжатлари ва суд амалиёти масалалари) / Масъул муҳаррир: Ҳ.Раҳмонқулов. – Тошкент: Тошкент Давлат юридик институти, 2004.
3. Раҳмонқулов Ҳ. Мажбурият ҳуқуқи (умумий қоидалар). Дарслик. – Тошкент: ТДЮИ., 2005. – 138-205-б.
4. Шодманов Ф.Ю. Бозор иқтисодиёти шароитида шартнома мажбуриятларини бузганлик учун фуқаролик ҳуқуқий жавобгарлик муаммолари: Юрид. фанлар доктори ... дис. автореферати. – Тошкент, 2002. – 8-б.
5. Қўлдашев, Н.А. Ички ишлар органлари томонидан етказилган зарарни қоплашнинг фуқаролик-ҳуқуқий масалалари: Юридик фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация – Тошкент: 2010. – 75 б.
6. Нарматов Н. С. Қўриқлаш хизматининг юридик шахс сифатидаги фаолиятини қонуний тартибга солиш // Ҳуқуқ право law. 2003, 2(22).– Б. 17.
7. Витрук Н.В. Общая теория юридической ответственности. – М.: Норма, 2009.
8. Зокиров И.Б. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик ҳуқуқи. Умумий қисм. – Т., 1996. – Б. 242.
9. Маркова М.Г. Ответственность органов внутренних дел за вред, причиненный неправильными служебными действиями их работников. – М., 1980. – С. 5.



Kamuna NAZAROVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti tadqiqotchisi
E-mail: nazarovakamuna02@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0004-9179-7330>

Samarqand davlat universiteti dotsenti G'iyos Do'stmurodov taqrizi asosida

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI LOYIHALASH USULLARI

Аннотация

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini loyihalash usullari ilmiy-metodik asosda yoritiladi. Nutqiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari, o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar, kommunikativ yondashuvga asoslangan topshiriqlar tizimi hamda interaktiv ta'lim texnologiyalarining o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quv jarayonini loyihalash bosqichlari, didaktik mezonlar va samarali metodik yechimlar amaliy misollar asosida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, nutqiy kompetensiya, loyihalash usullari, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar, o'quv topshiriqlari, didaktik mezonlar, nutqni rivojlantirish, ta'lim texnologiyalari.

МЕТОДЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ПРОЦЕССА РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В статье рассматриваются методы проектирования процесса развития речевой компетенции учащихся начальных классов. Анализируются основные компоненты речевой компетенции, методы формирования устной и письменной речи, система заданий, основанная на коммуникативном подходе, а также роль интерактивных образовательных технологий. Кроме того, раскрываются этапы проектирования учебного процесса, дидактические критерии и эффективные методические решения, подтвержденные практическими примерами.

Ключевые слова: начальное образование, речевая компетенция, методы проектирования, коммуникативный подход, интерактивные методы, учебные задания, дидактические критерии, развитие речи, образовательные технологии.

METHODS OF DESIGNING THE PROCESS OF DEVELOPING SPEECH COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation

This article examines the methods of designing the process of developing speech competence in primary school students. It analyzes the main components of speech competence, methods for forming oral and written speech, a task system based on the communicative approach, and the role of interactive educational technologies. The article also highlights the stages of instructional design, didactic criteria, and effective methodological solutions supported by practical examples.

Keywords: primary education, speech competence, instructional design, communicative approach, interactive methods, learning tasks, didactic criteria, speech development, educational technologies.

Kirish. Nutq kompetensiyasi shaxsning kommunikativ faoliyatini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, u bir qator tarkibiy jihatlarni o'z ichiga oladi: kommunikativ qobiliyat, kommunikativ bilim, shuningdek, kommunikativ ko'nikmalar va harakatlar. Kommunikativ qobiliyat, avvalo, insonning muloqotga bo'lgan tabiiy iste'dodi, nutqiy faolligi va suhbat jarayonida o'zini erkin tutish qobiliyatini ifodalaydi. Shu bilan birga, u shaxsning turli muloqot vaziyatlarida kommunikativ mahsuldorlikka erishish darajasini belgilaydi.

Kommunikativ bilim esa aloqa jarayonining mazmuni, turlari, bosqichlari va rivojlanish qonuniyatlari haqida tasavvurlarni o'z ichiga oladi. Ushbu bilimlar muloqotning turli vaziyatlarida qaysi uslublar samarali bo'lishini anglashga, nutqiy jarayonni ongli ravishda boshqarishga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchida kommunikativ ko'nikmalar qanchalik rivojlangan bo'lsa, uning jamoadagi o'rni, o'z fikrini ifoda etish qobiliyati va ijtimoiy moslashuvi shunchalik yuksak bo'ladi.

Boshlang'ich maktab yoshida nutqiy kompetensiyani bosqichma-bosqich shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu davr bola tafakkurining faol rivojlanish bosqichi bo'lib, nutq orqali uning dunyo haqidagi tasavvurlari

boyib boradi. Yaxshi nutqqa ega bo'lgan yosh o'quvchi atrof-muhitni o'z yoshiga mos ravishda chuqurroq anglaydi, o'z fikrlarini aniq va ravon ifoda etadi, mulohaza yurita oladi hamda o'z nuqtayi nazarini himoya qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, u tengdoshlari va kattalar bilan osongina muloqot o'rnatadi, bu esa o'quv jarayonining barcha bosqichlarida o'zini erkin tutishga yordam beradi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida muloqot qobiliyatlarini shakllantirish, nutqni boyitish hamda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish ta'limning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning psixologik va nutqiy rivojlanishiga xos bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda, nutqni rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ishlar murakkab, shu bilan birga tizimli tamoyillarga asoslangan bo'lishi zarur. Bu jarayonda o'quvchilarning yoshiga mos metodlar, bosqichma-bosqich o'rgatish tamoyili, interaktiv faoliyat turlari va kommunikativ mashqlar muhim rol o'ynaydi.

Nutqni rivojlantirish uchun badiiy matnlar, atrof-dagi dunyoni kuzatish jarayonlari, shuningdek, bolalarning shaxsiy taassurotlari samarali yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi. Badiiy matnlar o'quvchining tasavvuri, lug'at boyligi va obrazli tafakkurining shakllanishiga yordam bersa, kuzatish jarayonlari bolani real hayotiy voqelikni idrok etishga, ularni nutqiy ifodalashga undaydi. Shaxsiy taassurotlar esa bolaning individual tajribasiga tayanib fikr bildirish, voqea-hodisalarni o'z nuqtayi nazar bilan bayon qilish imkonini kengaytiradi.

O'quvchilarning nutqini rivojlantirish nutq xabarlarini semantik idrok yetish, matnni tuzish va izchil nutqni rivojlantirish uchun amalga oshiriladi. Quyidagi prinsiplar ushbu maqsadga erishishda yordam berishi kerak [1]:

1. O'quvchilarning nutq faoliyatini uyg'otish.

O'quvchilarning nutq faoliyati ularning umumiy mulot qobilyatlarida, qattiqqo'llik, jimjitlik va gapirishdan qo'rqish yo'qligida namoyon bo'ladi. Bunday holat so'zni tushunish natijalarini, uning tushunchasini yoki tushunmovchiligini ifodalash natijasi bo'lishi kerak.

2. Ta'lim matnini semantik idrok etishni chuqurlashtirish.

Ta'lim matni-bu ta'lim muammolarini hal qilish uchun mo'ljallangan matn. Uning eng muhim xususiyati shundaki, u ma'lum bir tarzda tanlangan va minimallashtirilgan til bilan cheklangan, ya'ni bu maqsad uchun ahamiyasiz va ikkilamchi xususiyatlardan "ozod qilingan".

Ushbu tamoyilni amalga oshirish uchun o'qish matnlari qo'llaniladi, lekin faqat quyidagi mezonlarga javob beradiganlar: matnda rivoyat ustun bo'lishi kerak, dialog unda ahamiyasiz joy egallaydi, nutq sub'yektlari aniq ifodalanadi va bir qismdan boshqasiga aniq o'tishlarni kuzatish mumkin.

Bu mezonlar, masalan, M. V. Golovanova, V. G. Goreskiy, L. F. Klimanova tomonidan tuzilgan antologiyalar matnlari bilan bajariladi.

Antologiyalarning tuzilishi qism, bob, chop (bir necha satrni o'tkazib yuborish bilan belgilanadi), paragrafdan iborat bo'lishi mumkin.

Murakkab sintaktik butunlikdan yoki unga mos keladigan paragrafdan ko'ra kengroq bo'lgan matnning tarkibiy elementlari ularni maktabda o'rganish uchun hali qo'llanilmagan. Shunga qaramay, bir necha o'n yillar davomida nutqni rivojlantirish darslari matnini sarlavhalari uchun semantik qismlarga ajratmoqda. Semantik qismlar yuqorida aytib o'tilgan matn tuzilishi elementlariga to'g'ri keladi. Ularning ta'rifi subtopikaning ta'rifi bilan belgilanadi.

Moslashtirilgan matnlar bu tamoyilni amalga oshirishning yana bir vositasidir. Ushbu matnlarning tuzilishi murakkab sintaktik butun sonlardan iborat. Murakkab sintaktik butun sonlar paragraflarga to'g'ri keladi. Ba'zan u boshlang'ich va yakun vazifasini bajaradigan mustaqil alohida jumlar bilan ifodalanadi.

Shunday qilib, antologiyalarni o'qish matnlari va moslashtirilgan matnlar tarbiyaviy hisoblanadi. Birinchisining tuzilishi yelementlari ustida ishlash sintaktik konstruksiyalarning uyg'unligini yaxshiroq tushunishga, hodisalarning turli darajadagi tafsilotlari, umumlashtirilgan xarakterdagi nutq so'zlarini tayyorlashda subtopikalarning rolini tushunishga imkon beradi. Ikkinchisining tuzilishi elementlari ustida ishlashda bog'lovchi jumlar namunasi, minimal semantik birlikning grammatik dizayni namunasi, ifodalangan fikrlarga semantik to'liqlik berish namunasi keltirilgan, bu ish o'quvchilarni fikrlarning izchil grammatik dizayniga o'rgatadi.

Subtopiklar va mikrotemalar "semantik bosqichlar", "semantik mos yozuvlar nuqtalari" kabidir. Axir ular semantik idrok natijasida harakat qilishadi.

3. Matn tilshunosligining ba'zi tushunchalarini shakllantirish.

Ma'lumki, tushunchalar bir lingvistik birlik boshqasidan farq qiladigan xususiyatlar to'plami sifatida harakat qiladi. Bunday belgilar matnning qurilishi haqida ma'lum miqdordagi bilimlarni tashkil qiladi. Ularni o'zlashtirish nutq harakatlaridan xabardorlikni oshirish uchun sharoit yaratadi.

4. Tizimda izchil nutqni rivojlantiradigan mashqlarni o'tkazish. An'anaga ko'ra, bularga retelling (ekspozitsiya), hikoya (kompozitsiya) kiradi. Ba'zilar og'zaki nutq, boshqalari yozma nutq ustida ishlashga hissa qo'shadilar.

Ularni amalga oshirishga tizimli yondashuv o'qituvchining e'tiborini, birinchi navbatda, og'zaki nutq ustida ishlashga hissa qo'shadigan mashqlarga qaratadi. Vaqt o'tishi bilan ushbu mashqlarni taqsimlash uchun asosni tanlash kerak. Namunani ko'paytirishni o'z ichiga olgan mashqlar o'quvchilarning katta mustaqilligiga asoslangan mashqlardan oldin bo'lishi kerak. Nutqni rivojlantirish usullari darsda o'zaro ta'sir qiladi, ammo ularning hech birini boshqa usulga kiritish mumkin emas.

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning o'ziga xos psixologik va lingvistik xususiyatlarini hisobga olgan holda, nutqni rivojlantirish bo'yicha ishlar murakkab, uzluksiz va tizimli ravishda tashkil etilishi lozim. Ushbu jarayonda badiiy matnlar, atrof-muhitni kuzatish, shuningdek, o'quvchilarning shaxsiy taassurotlari muhim yordamchi vosita sifatida qo'llanadi. Badiiy matnlar bola tafakkurini boyitadi, lug'at zahirasini kengaytiradi va izchil nutq tuzish ko'nikmalarini shakllantiradi. Atrofdagi voqelikni kuzatish esa o'quvchida kuzatuvchanlik, tasvirlash, holat va hodisalarni izohlash kabi nutqiy malakalarni rivojlantiradi. Shaxsiy taassurotlar asosida hikoya tuzish, o'z fikrini mustaqil ifodalash, voqealarga nisbatan munosabat bildirish orqali o'quvchi o'zining og'zaki va yozma nutqini yanada takomillastiradi. Shu tariqa, nutqiy kompetensiyani shakllantirish jarayonida mavzuga mos matnlar bilan ishlash, kuzatish asosidagi topshiriqlarni bajarish, individual taassurot va tajribalarni og'zaki hamda yozma nutqda ifodalash kabi faoliyatlar o'quvchining til o'zlashtirish jarayonini mazmunan boyitadi va samaradorligini oshiradi. Bu jarayonning muvaffaqiyati esa o'qituvchining metodik yondashuvi, o'quv topshiriqlarining to'g'ri tanlanishi va ularni bosqichma-bosqich amalga oshirishga bevosita bog'liqdir.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini loyihalash bo'yicha olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, nutqni shakllantirish tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilgan taqdirda o'quvchilarning mulotqotga kirishish darajasi, fikrni izchil bayon qilish qobiliyati va lug'aviy boyligi sezilarli darajada oshadi. Tadqiqot davomida nutqiy rivojlanishning uch asosiy omili – badiiy matnlar bilan ishlash, atrof-muhitni kuzatish topshiriqlari, shuningdek, o'quvchilarning shaxsiy taassurotlariga asoslangan faoliyatlar samaradorligi aniqlab borildi.

Birinchiidan, badiiy matnlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning obrazli tafakkurini, eshitib tushunish ko'nikmalarini, matndan asosiy mazmuni ajratib olish malakasini sezilarli ravishda yaxshilagan. Matn bilan ishlash jarayonida bolalar nutq birliklarini to'g'ri qo'llash, gap tuzish, voqealar ketma-ketligini izohlash kabi amaliy ko'nikmalarga ega bo'la boshlagan.

Ikkinchiidan, atrof-dagi voqelikni kuzatishga asoslangan topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, kuzatuvchanligi va tasviriy nutqning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Kuzatish topshiriqlarini muntazam bajarib borish natijasida bolalarda hodisalarni solishtirish, umumlashtirish, sabab-oqibatni aniqlash kabi mantiqiy tafakkur elementlari mustahkamlangan.

Uchinchidan, shaxsiy taassurotlar asosida hikoya tuzish va o'z fikrini mustaqil ifodalash mashqlari o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqidagi ichki faolligini kuchaytirgan. Bu jarayon ularda nutqiy mustaqillik, o'z nuqtayi nazarini bayon qilish, o'z fikrini asoslab berish kabi kommunikativ kompetensiya elementlarining shakllanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar majmuini to'g'ri loyihalash o'quvchilarning nafaqat nutqiy, balki ijtimoiy-faol, psixologik-emotsional va intellektual rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa boshlang'ich ta'lim jarayonida nutqni rivojlantirishni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayoni bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur kompetensiyaning shakllanishi muntazam, tizimli va metodik jihatdan asoslangan ishlarni talab qiladi. Nutqni rivojlantirishda badiiy matnlardan foydalanish, atrof-muhitni kuzatish hamda o'quvchilarning shaxsiy taassurotlariga tayanish eng samarali vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Chunki bunday yondashuv bolaning lug'at boyligini kengaytiradi, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, muloqotda faol bo'lishiga yordam beradi va nutqiy mustaqilligini kuchaytiradi. Shuningdek, nutqiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari bo'lgan kommunikativ qobiliyat, kommunikativ bilim hamda kommunikativ ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish o'quvchilarning umumiy ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etishlariga zamin yaratadi.

Olingan natijalarga tayangan holda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini yanada samarali

rivojlantirish maqsadida bir qator takliflar ilgari surildi. Avvalo, o'quvchilar yoshiga mos nutqiy topshiriqlar tizimli ravishda o'quv dasturlariga kiritilishi lozim. Dars jarayonida badiiy matnlar bilan ishlashni interaktiv metodlar — rolli o'yinlar, drammatizatsiya, hikoya davom ettirish kabi faol shakllar bilan boyitish maqsadga muvofiq. O'quvchilarning kuzatish faoliyatiga asoslangan topshiriqlarni ko'paytirish ularning izohli nutqi va tasviriy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, shaxsiy taassurotlarga tayanib fikr bildirishga undovchi kichik hikoyalari, ijodiy yozuvlar, og'zaki bayonotlar nutqiy faollikni sezilarli oshiradi.

Bundan tashqari, o'qituvchilarning nutqni rivojlantirish bo'yicha metodik tayyorgarligini kuchaytirish uchun qo'shimcha seminarlar, treninglar va metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish zarur. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, xususan audio va video materiallar asosidagi topshiriqlar, multimediyaviy vositalari o'quvchilarning eshitib tushinish, ifodali o'qish va nutqni ongli ravishda qurish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, ota-onalar bilan muntazam hamkorlik yo'lga qo'yilishi bolalarning uy sharoitida ham nutqiy faol bo'lishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan tizimli pedagogik yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining umumiy muloqot madaniyati, ijtimoiy moslashuvi va akademik muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu yo'nalishda olib boriladigan izchil ishlar kelajakda mustaqil fikrlovchi, o'z fikrini aniq ifoda eta oladigan, muloqotga kirishuvchan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Azizov G'. O'zbek maktablarining 5-sinf ona tili darslarida o'quvchilar nutqini sinonimlar bilan boyitish metodikasi. Ped. fanl. ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. –T.: 1998. -264 b.
2. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. – 192 b.
3. Alekseyeva, G. Yu. Pedagogicheskiye usloviya razvitiya tvorcheskogo potentsiala uchashixsya mladshix klassov v prosesse izucheniya matematiki:diss. kand. ped. nauk : 13.00.01 / Alekseyeva Galina Yuryevna. Rostov n/D, 2001.- 196 s.



Sardor NURALIYEV,
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: ssnuraliyev@gmail.com

ADPI professori A.Egamberdiyev taqrizi asosida

SIYOSIY PARTIYALAR MAFKURASI: FALSAFIY TAHLIL

Аннотация

Ushbu maqolada siyosiy partiyalar mafkurasidagi o'zgarishlarga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar har tomonlama tahlil qilinadi. Shuningdek, siyosiy partiyalar mafkurasini o'zgarishining ko'p qirrali tabiati, ichki partiyaviy munosabatlardan tortib global tamoyillar va jamiyatdagi qadriyatlar transformatsiyasigacha bo'lgan omillar o'zaro bog'liq yoritiladi.

Kalit so'zlar: mafkura, siyosiy partiya, fraksiya, mafkuraviy bo'linish, progressiv, konservativ, erkinlik.

ИДЕОЛОГИЯ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПАРТИЙ: ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В данной статье всесторонне анализируются внутренние и внешние факторы, влияющие на изменения в идеологии политических партий. Также раскрывается многогранная природа трансформации партийной идеологии, где взаимосвязано освещаются такие элементы, как внутрипартийные отношения, глобальные тенденции и преобразование общественных ценностей.

Ключевые слова: идеология, политическая партия, фракция, идеологическое разделение, прогрессивный, консервативный, свобода.

IDEOLOGY OF POLITICAL PARTIES: A PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the internal and external factors influencing ideological changes within political parties. It also highlights the multifaceted nature of ideological transformation, emphasizing the interconnectedness of intra-party dynamics, global trends, and shifts in societal values.

Keywords: ideology, political party, faction, ideological division, progressive, conservative, freedom.

Kirish. Siyosiy partiya mafkurasini partiyaning faoliyati, siyosati va maqsadlarini boshqaradigan e'tiqod va qadriyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Bu mafkura partiyaning o'ziga xosligi va vazifasining asosi bo'lib, siyosiy tashkilotlarning jamiyat muammolariga munosabatini belgilaydi.

Siyosiy partiyalardagi mafkuraviy o'zgarishlar jarayoniga partiyaning o'ziga xosligini va saylovchilar uchun jozibadorligini shakllantiradigan ichki omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu o'zgarishning asosiy jihati mafkuraviy nutqning izchilligidir, chunki partiyalar o'z a'zolariga mos keladigan uzviy g'oyalarni ifoda etishlari lozim. Bunday g'oyalarning samaradorligi ko'pincha kuchli partiyaviy tashkilot va rahbariyatning barqarorligi bilan oshadi, bu esa o'z navbatida saylovchilar orasida ishonch va barqarorlikni mustahkamlaydi.

Bu jarayon partiyaning e'lon qilingan qadriyatlarini a'zolarining tasavvurlariga moslashtirish orqali amalga oshiriladi; har qanday nomuvofiqlik partiyaning obro'siga putur yetkazadigan soxta brendning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Ushbu ichki dinamika shuni ko'rsatadiki, siyosiy partiyaning mafkuraviy moslashuvchanlik qobiliyati uning tashkiliy yaxlitligi va xabarlarining haqiqiylikiga bog'liq.

Siyosiy partiyalar mafkurasini o'zgartirishda, siyosiy tuzilmalarining yo'nalishi va qadriyatlarini strategik shakllantirishda partiya a'zolari va quyi harakatlarning ta'siri hal qiluvchi ahamiyatga ega. Partiya a'zolarining faol ishtiroki bilan kuchaygan ommaviy harakatlar ko'pincha tarkibiy guruhlarining o'zgaruvchan talablarini aks ettiradi. Bu esa o'z navbatida partiya rahbarlarini o'z mafkurasini qayta ko'rib chiqishga va moslashtirishga undaydi. Shu sababli, mafkuraviy yangilanish va o'zgarishlarda quyi bo'g'in faollari bilan

partiyaviy tuzilmalarning o'zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Partiya fraksiyalari va mafkuraviy bo'linishlarning vujudga kelishi va rivojlanishi siyosiy partiyalar mafkurasining shakllanish yo'nalishini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ularning ham dinamik rivojlanishiga, ham parchalanish ehtimoligiga ta'sir ko'rsatadi. Bu ichki bo'linishlar ko'pincha jamiyatdagi keng ko'lami ixtiloflarni aks ettiradi, chunki fraksiyalar partiya tuzilmasi doirasida ta'sir va hokimiyat uchun kurashadi.

Adabiyotlar tahlili. Mavzu bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar saylov natijalari partiya mafkurasini o'zgartirishning asosiy mexanizmi hisoblanishi va saylovchilarning istaklari hamda partiya dasturlari o'rtasidagi dinamik aloqani aks ettirishini ko'rsatmoqda.

Siyosiy partiyalardagi mafkuraviy o'zgarishlarni o'rganish ko'pincha bu tuzilmalaridagi o'zgarishlarni harakatga keltiruvchi mexanizmlar haqida muhim ma'lumotlarni ochib beradi. Masalan, Indoneziyadagi islomiy siyosiy partiyalarning inqirozi mafkuraviy tamoyillarni amaliy dasturlarga aylantira olmaslik qonuniylik va saylov kuchining pasayishiga olib kelishini ko'rsatadi. Islomiy siyosiy partiyalar masalasi g'oyat murakkab bo'lib, aksariyat demokratik davlatlarda diniy tuzumdagi partiyalar taqiqlangan bo'lsa, diniy ulamolarning ta'siri cheklab bo'lmaydigan darajada yuqori bo'lgan davlatlarda bu institutlar saqlanib qolgan. Bunday sharoitda diniy aqidalar bilan demokratik qadriyatlarini uyg'unlashtirish kabi murakkab vaziyatda qoladi.

Saylov natijalari partiyaning mavjud mafkurasini va saylovchilarning o'zgaruvchan talablarini o'rtasidagi

nomuvofiqlikni ko'rsatganda, partiyalar ko'pincha o'z ahamiyatini va saylovchilar qo'llab-quvvatlashini qayta tiklash uchun sezilarli mafkuraviy o'zgarishlarni amalga oshiradi. Bu holat saylovchilar sodiqligini saqlab qolishga urinayotgan partiyalar o'z siyosati va g'oyalari jamoatchilik kayfiyatiga moslashtirishga majbur bo'lganida yaqqol ko'rinadi. Bunday moslashuvning amalga oshirilmasligi saylovlardagi muvaffaqiyatning pasayishiga yoki, eng yomon holda, siyosiy chetlashishga olib kelishi mumkin.

Siyosiy partiyalar mafkurasining o'zgarishiga keng ijtimoiy-siyosiy manzarani shakllantiruvchi tashqi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, globallashuv jarayoni davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni kuchaytiradi, bu esa siyosiy partiyalarni o'z g'oyalari xalqaro me'yorlar va amaliyotlarga moslashtirish zaruratini tug'diradi. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi singari millatlararo tashkilotlarning roli tashqi omillarning milliy siyosiy kun tartibiga qanday ta'sir o'tkazishi mumkinligini ko'rsatadi. Yevropa Ittifoqining "transmilliy ta'sir kuchi" (TNPO) deb ataluvchi salohiyati bu ta'sirni aks ettiradi, chunki davlatlar ko'pincha Yevropa Ittifoqi qoidalari va talablariga mos keluvchi kelishuvlar bo'yicha muzokaralar olib borishga majbur bo'ladilar. Shunday ekan, mafkuraviy o'zgarishlarni chuqur anglab yetish uchun tashqi ta'sirlar bilan ichki partiyaviy jarayonlarning o'zaro aloqasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar va muhokama. Jamoatchilik fikri va partiya mafkurasini o'rtasidagi o'zaro ta'sir siyosiy partiyalar mafkuralarining o'zgarishini tushinishda muhim omil hisoblanadi. Demokratik davlatlar rivojlanib borgan sari, partiyalar saylovchilarning o'zgaruvchan kayfiyatlari va talablariga tobora ko'proq javob berishga majbur bo'lmoqda, chunki jamoatchilik fikri ko'pincha partiyalar yo'nalishi va siyosat yo'lini belgilovchi ko'rsatkich vazifasini o'taydi. Bu javobgarlik dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va madaniy o'zgarishlar ta'siri ostida shakllanadigan, ayniqsa populistik harakatlarning kuchayishida yaqqol ko'zga tashlanadigan jo'shqin mafkuraviy muhitni yuzaga keltirishi mumkin. An'anaviy partiyalardan ko'ngli to'lmagan fuqarolar ko'pincha populizmga moil bo'lib, ularning muammolarini bevosita hal qilish va dalariga ishonib qoladilar. Bu esa partiya dasturlarining tubdan o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, madaniy qarshilik nazariyasiga ko'ra, asosiy qadriyatlardagi o'zgarishlar saylovchilar xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatib, progressiv siyosat va konservativ kayfiyatlar o'rtasidagi mafkuraviy tafovutni kuchaytiradi.

Madaniy qarshilik nazariyasi (Cultural Backlash Theory) zamonaviy jamiyatlarda yuz berayotgan mafkuraviy o'zgarishlarni izohlashga qaratilgan muhim nazariy yondashuvlardan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, jamiyatda liberal va postmaterialistik qadriyatlarining tez sur'atda ommalashuvi, ayniqsa, yoshlar, shahar aholisi va ta'limli qatlamlar orasida keng tarqalishi an'anaviy, konservativ qadriyatlarga sodiq bo'lgan qatlamlarda ma'lum bir qarshilik kayfiyatini vujudga keltiradi. Bu qarshilik holati – faqat shaxsiy yoki axloqiy nuqta nazar bilan cheklanib qolmasdan, siyosiy xulq-atvor, ovoz berish tendensiyasi va jamoatchilik fikridagi keskinliklar orqali ham namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, qadriyatlardagi transformatsiya fuqarolarning siyosiy afzalliklarini qayta shakllantiradi. Progressiv qadriyatlar tenglik, ijtimoiy adolat, erkinlik va global yondashuvlarga asoslangan bo'lsa, konservativ qadriyatlar an'ana, milliylik, diniy qadriyatlar va ijtimoiy tartibni ustuvor deb biladi.

Madaniy qarshilik, ayniqsa, globallashuv, migratsiya, gender tengligi va LGBT huquqlari kabi masalalar ijtimoiy diskurs markazida bo'lgan jamiyatlarda kuchliroq namoyon bo'ladi. Bu holatda, qadimiy qadriyatlar va yangi g'oyalar o'rtasidagi to'qnashuv ijtimoiy ongda "biz" va "ular" kabi ikki

qarama-qarshi mafkuraviy qutbni yaratadi. Bunday jarayonlar jamiyatda siyosiy muvozanatni buzishi, ijtimoiy hamjihatlikka ta'sir qilishi va radikal kayfiyatlarini kuchaytirishi mumkin.

O'zbekiston kabi qadriyatlar o'ziga xosligiga tayangan mamlakatlarda ham bu nazariyaning belgilari kuzatilishi mumkin. Yoshlar orasida global tendensiyalarga intilish, raqamli madaniyatni qabul qilish, gender tengligi va shaxsiy erkinliklarga oid yondashuvlar ommalashayotgan bir paytda, katta yoshdagi aholi va konservativ qatlamlarda milliy an'analar, diniy qadriyatlar va ijtimoiy tartibni ustuvor deb bilish holati saqlanib qolmoqda. Bu ikki qatlam o'rtasidagi qarashlar farqi jamiyatda muayyan mafkuraviy keskinlikni keltirib chiqaradi. Natijada, saylov jarayonlarida, siyosiy platformalarda va jamoatchilik muhokamalarida ham ayrim qarama-qarshiliklar yuzaga keladi.

Zamonaviy ommaviy axborot vositalari, ayniqsa populizm va radikal o'ng partiyalar sharoitida, siyosiy partiyalar mafkurasining o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli platformalarning keng tarqalishi an'anaviy siyosiy muloqotni o'zgartirib, rahbarlarga asosiy ommaviy axborot vositalarini chetlab o'tgan holda saylovchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish imkonini berdi. Bu o'zgarish hissiy jihatdan kuchliroq nutqni rivojlantirib, haqiqatdan keyingi paradigma tobora ommalashayotgan muhitni yaratdi, chunki rivoyatlar haqiqiy ma'lumotlarni tobora ko'proq soyada qoldirmoqda.

Ijtimoiy harakatlarning siyosiy partiyalar mafkurasiga ta'siri siyosiy manzarani o'zgartirishda muhim omil hisoblanadi. Tarixan ijtimoiy harakatlar mafkuraviy o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, chekka guruhlariga mansub odamlarning tashvish va intilishlarini ifodalab, ularning talablariga mos keladigan siyosiy islohotlarni ilgari surgan. Masalan, fuqarolik huquqlari yoki iqtisodiy adolatni himoya qiluvchi harakatlar ko'pincha siyosiy partiyalarni o'z dasturlarini saylovchilarning o'zgarib borayotgan qadriyatlariga moslashtirish uchun majbur qiladi.

Iqtisodiy elita hukmronligi nazariyasi kabi nazariy asoslar tashkiliy guruhlar, ayniqsa biznes manfaatlarini ifodalovchi guruhlar davlat siyosati muhokamalarida ustunlik qilishini va shu orqali siyosiy partiyalarning mafkuralariga ta'sir ko'rsatadi. Biroq, muvaffaqiyatli ijtimoiy harakatlar bu hukmronlikni muvozanatga keltirishi va jamiyatning kengroq qarashlarini siyosiy muloqotga kiritilishini ta'minlashi mumkin. Natijada, ijtimoiy harakatlar va partiya mafkuralari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tushunish quyi darajadagi sa'y-harakatlar yanada inklyuziv boshqaruvni rivojlantirish uchun siyosiy fikrlarni qanday o'zgartirishi mumkinligini ochib beradi. Oxir-oqibat, ijtimoiy harakatlar va partiya mafkuralari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tushunish quyi darajadagi sa'y-harakatlar yanada inklyuziv boshqaruvni rivojlantirish uchun siyosiy narrativni qanday o'zgartirishini ko'rsatib beradi.

Siyosiy partiyalar mafkuralarining o'zgarishini tushunish uchun iqtisodiy o'zgarishlar va ularning g'oyaviy oqibatlari o'rtasidagi murakkab aloqani anglash juda muhimdir. Kapital to'planishi va bozor dinamikasidagi o'zgarishlar kabi iqtisodiy siljishlar siyosiy partiyalar harakat qiladigan mafkuraviy maydonga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Siyosiy kuchlar iqtisodiy bosimga javob berar ekan, ularning mafkuralari ko'pincha zamonaviy ijtimoiy voqelik va sinf pozitsiyalarini aks ettirish uchun o'zgaradi. Misol uchun, turli siyosiy harakatlarning shakllanishi iqtisodiy tuzilmalar ta'sirida kuchli darajada yuz bergan, bu esa turli mafkuralar o'rtasida to'qnashuvlar va hamkorliklarga olib kelgan.

Xulosa. Siyosiy partiyalar mafkurasining o'zgarishi turli ijtimoiy, siyosiy va ommaviy axborot vositalari omillarining ta'sirida kechadigan murakkab va dinamik jarayondir. Butun insho davomida ko'rsatilganidek, g'oyaviy

o'zgarishlar va siyosiy proektivizm mexanizmlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir partiyalarning o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish jarayonida o'z mafkuraviy asosini saqlab qolishga intilishini namoyon etadi.

Huquqiy va institutsional tizimlar siyosiy partiyalar mafkuralarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ularning muayyan jamiyatdagi rivojlanishi va moslashuvchanligiga ta'sir ko'rsatadi. Bu tizimlar nafaqat siyosiy tashkilotlarning faoliyat doirasini belgilaydi, balki mafkuraviy o'zgarishlarni rag'batlantiruvchi yoki to'xtatuvchi mexanizm sifatida ham xizmat qiladi.

Populizmning yuksalishi an'anaviy partiyaviy tuzilmalar va mafkuralarni sezilarli darajada izdan chiqarib, demokratik amaliyotlarni qayta baholashni taqozo etdi. Misol uchun, Sharqiy Markaziy Yevropada populistik harakatlar etno-millatchilikni avtoritar siyosat bilan samarali uyg'unlashtirib, Vengriya va Polsha kabi mamlakatlarda

demokratik institutlar va fuqarolik erkinliklarining yemirilishiga olib keldi. Bu o'zgarishlar tarixiy transformatsiyani ko'rsatmoqda: unda shakllangan partiyalar saylovchilarning hissiy ehtiyojlariga chuqur mos keladigan populistik chaqiriqlarga javob berishda qiynalmoqda.

Siyosiy partiyalar mafkurasining o'zgarishiga turli xil dinamik omillar, jumladan partiya ichidagi jarayonlar, tashqi bosimlar va texnologik yutuqlar ta'sir ko'rsatadi. Siyosiy partiyalar mafkurasidagi o'zgarishlar mexanizmlarini anglash uchun mafkuraviy transformatsiyani chuqur tushunish muhim ahamiyatga ega. Bunday o'zgarishlar shunchaki yuzaki siljishlar bo'lmay, balki siyosiy manzaralarni shakllantiruvchi chuqur ijtimoiy oqimlar va tarixiy sharoitlarni aks ettiradi. Mafkuraviy o'zgarishlarni tahlil qilish olimlar va amaliyotchilarga iqtisodiy qiyinchiliklar yoki jamoatchilik fikri kabi tashqi ta'sirlarga javoban mafkuralarning qanday rivojlanishini tushunish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Bossuyt, Fabienne. "An economic giant, political dwarf and military worm?: introducing the concept of 'transnational power over' in studies of (the EU's) power". European Consortium of Political Research (ECPR), 2007, <https://core.ac.uk/download/55730539.pdf>
2. Gilens M, Page BI. Testing Theories of American Politics: Elites, Interest Groups, and Average Citizens. *Perspectives on Politics*. 2014;12(3):564-581.
3. Inglehart, Ronald F. and Norris, Pippa, Trump, Brexit, and the Rise of Populism: Economic Have-Nots and Cultural Backlash (July 29, 2016). HKS Working Paper No. RWP16-026, Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=2818659> or <http://dx.doi.org/10.2139/ssrn.2818659>
4. Xu, Chenggang. 2011. "The Fundamental Institutions of China's Reforms and Development." *Journal of Economic Literature* 49 (4): 1076–1151.
5. Werkmann, C., and Gherghina, S. (2016) Organized for parliament? Explaining the electoral success of radical right parties in post-communist Europe. *Government and Opposition*, (doi:10.1017/gov.2016.38).



UDK: 101.1:316:613-053.81(575.1)

Faridaxon OCHILOVA,
Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

PhD M.Djakbarova taqrizi asosida

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL MECHANISMS OF THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON STUDENTS' CREATIVITY IN THE CONTEXT OF DIGITAL EDUCATIONAL TRANSFORMATION

Annotation

The article examines the psychological and pedagogical mechanisms through which artificial intelligence influences the development of creative thinking among future primary-school teachers within the context of digital educational transformation. The study emphasizes the importance of a human-oriented approach to digitalization as a condition for fostering value-based professional readiness and innovative pedagogical practice.

Keywords: artificial intelligence, digital education, creative thinking, future teachers, primary school, personalized learning, pedagogical reflection, cognitive development, educational environment, professional training.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ВЛИЯНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА КРЕАТИВНОСТЬ СТУДЕНТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В статье анализируются психолого-педагогические механизмы влияния искусственного интеллекта на развитие творческого мышления будущих учителей начальных классов в условиях цифровой трансформации образования. Обоснована необходимость гуманистической направленности цифровизации, обеспечивающей ценностно-смысловую готовность будущего педагога к инновационной деятельности.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровизация образования, творческое мышление, будущий учитель, начальная школа, персонализация обучения, педагогическая рефлексия, когнитивное развитие, образовательная среда, профессиональная подготовка.

RAQAMLI TA'LIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SUN'IY INTELLEKTNING TALABA IJODIYLIK QOBILİYATIGA TA'SIR ETISHINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Maqolada raqamli transformatsiya sharoitida sun'iy intellektning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkuriga ta'sir etuvchi psixologik-pedagogik mexanizmlari tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek ta'limda raqamlashtirishning insonparvarlik tamoyillariga asoslanishi zarurligi ilmiy asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli ta'lim, ijodiy tafakkur, bo'lajak o'qituvchi, boshlang'ich ta'lim, individuallashtirish, pedagogik refleksiya, kognitiv rivojlanish, ta'lim muhiti, professional tayyorgarlik.

В условиях стремительного развития цифровых технологий проблема внедрения искусственного интеллекта в образовательную практику приобретает принципиально новое значение, затрагивая фундаментальные аспекты профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов. Сегодня ИИ рассматривается не только как технологический инструмент, но и как фактор трансформации содержания обучения, структуры познавательной деятельности, способов педагогического взаимодействия и механизмов формирования творческого мышления. Современная тенденция автоматизации, постепенно охватывающая практически все сферы общественной жизни, приводит к объективной необходимости педагогической науки осмысливать влияние интеллектуальных систем на развитие личности будущего педагога, на его способности к самостоятельному поиску, критическому осмыслению цифровых данных и созданию педагогически значимых решений.

Современные алгоритмы машинного обучения, функционирующие на основе обработки больших массивов данных, уже активно используются в образовании: они анализируют динамику учебной деятельности обучающихся, прогнозируют затруднения,


предлагают индивидуальные образовательные траектории, предоставляют подсказки и формируют аналитические отчёты. Однако подобная технологизация образовательного процесса вызывает необходимость критической педагогической рефлексии. Искусственный интеллект, основанный на статистических и вероятностных моделях, не обладает собственными мировоззренческими основаниями и ценностной позицией, а потому существует опасность подмены творческого поиска будущего учителя автоматизированным подбором решений, которые внешне выглядят убедительно, но не отражают реальной педагогической мысли. В этом контексте особого внимания требует вопрос формирования творческой субъектности будущего учителя начальных классов. Как подчёркивал Л.С. Выготский, «творчество есть переработка впечатлений, пережитых субъектом, и создание из них новых смысловых сочетаний»[1]. В условиях цифровизации данная мысль приобретает новое значение, так как педагог должен не потреблять готовые цифровые решения, а преобразовывать их в педагогические смыслы.

Одновременно очевидно, что ИИ способен существенно расширять возможности формирования профессиональных компетенций студентов направления

«Начальное образование», позволяя экспериментировать с обучающими ситуациями, моделировать педагогические задачи, создавать вариативные сценарии урока начальной школы, анализировать учебные достижения младших школьников. Тем самым цифровые алгоритмы становятся инструментом формирования аналитического, созидательного и проблемного подхода к педагогической реальности.

Однако важнейшим условием интеграции ИИ в профессиональную подготовку будущих учителей начальных классов является обеспечение психолого-педагогического сопровождения, ориентированного на развитие творческого мышления, самостоятельности, критичности и педагогической инициативы[2]. В этом контексте искусственный интеллект выступает не заменой педагогической мысли, а стимулом, создающим ситуацию выбора, исследовательский вызов, потребность в осмыслении предложенных цифровых решений. В современных педагого-психологических исследованиях подчеркивается, что творческое мышление развивается не через потребление готовых алгоритмов, а через их критическое осмысление, сопоставление, преобразование и включение в собственную систему профессиональных ценностей.

Особую значимость приобретает развитие мотивационно-ценностного отношения к цифровым технологиям. Персонализированные возможности ИИ создают ситуацию внутренней ответственности будущего



Представленная схема позволяет увидеть, каким образом искусственный интеллект включается в современный образовательный процесс. Она помогает не только выделить ключевые направления применения цифровых технологий, но и понять связь между техническими возможностями ИИ и реальными педагогическими задачами. Важно подчеркнуть, что каждое направление, указанное в схеме, представляет не отдельную цифровую функцию, а элемент образовательной работы, который влияет на развитие самостоятельности обучающихся, улучшает качество педагогического взаимодействия и поддерживает индивидуальный подход в обучении.

Особого внимания заслуживает персонализированное обучение, так как именно оно позволяет подбирать содержание, темп и уровень сложности учебного материала в соответствии с возможностями каждого обучающегося. Одновременно автоматизация отдельных педагогических операций уменьшает нагрузку, связанную с техническими задачами (например, проверкой работ), и помогает учителю уделять больше времени содержательному и творческому аспектам учебного процесса.

Использование аналитических возможностей ИИ позволяет получать объективную информацию об учебных результатах, выявлять затруднения на раннем этапе и выстраивать более точную индивидуальную образовательную траекторию. Не менее важным является применение цифровых помощников – они делают учебную

учителя за собственное профессиональное развитие: он выбирает темп, оценивает собственные достижения, сопоставляет результаты, формирует индивидуальный стиль педагогического действия. Мотивационный компонент становится основанием для формирования педагогической субъектности, без которой невозможно становление творческого профессионала, способного вести образовательный процесс в начальной школе.

Не менее важным является деятельностный аспект формирования творческого мышления. Интеллектуальные системы предоставляют будущим учителям возможность проектирования учебных ситуаций, анализа педагогических кейсов, моделирования уроков, разработки образовательных средств и оценочных инструментов. Вместе с тем, перечисленные направления применения искусственного интеллекта отражают не только разнообразие инструментов цифровой педагогики, но и демонстрируют изменение самой структуры образовательного процесса. Для обеспечения целостного понимания роли ИИ в профессиональной подготовке будущих учителей начальных классов представляется целесообразным представить основные функции и возможности искусственного интеллекта в обобщённом и наглядном виде. Ниже приведена схема, отражающая ключевые направления использования ИИ в образовательной практике.

информацию более доступной и помогают обучающимся получать дополнительные объяснения в удобной форме.

Кроме того, использование ИИ в управлении образовательным процессом делает образовательную среду гибкой, обновляемой и способной своевременно реагировать на изменения. Тем самым схема отражает постепенный переход от традиционного обучения к более современному образовательному формату, основанному на возможностях цифровых технологий и ориентированному на развитие учащихся с учётом их индивидуальных особенностей.

При этом важной педагогической задачей становится организация такой формы взаимодействия с ИИ, которая не подменяет мыслительную деятельность обучающегося, а побуждает к самостоятельному поиску решений, к выдвижению гипотез, к педагогической рефлексии.

Когнитивная составляющая психолого-педагогического влияния ИИ выражается в возможности организации рефлексивной деятельности. Взаимодействие с интеллектуальными системами формирует навыки анализа, самооценки, выявления ошибок, критического пересмотра образовательных решений. Такая рефлексия служит основанием для формирования педагогической самостоятельности, способности интерпретировать цифровые данные, оценивать риски и предвидеть последствия применения тех или иных технологий в начальной школе.

Социально-коммуникативный компонент проявляется в изменении форм взаимодействия в образовательной среде. Будущие учителя начальных классов получают возможность включаться в сетевые дискуссии, коллективные проекты, совместную разработку цифровых материалов и педагогических заданий, что способствует развитию культуры педагогического общения, готовности к сотрудничеству, коллективной ответственности и способности к совместному творческому поиску[3]. На практике это проявляется в использовании совместных цифровых платформ (Google Workspace, Microsoft Teams, Padlet), позволяющих студентам обсуждать педагогические кейсы, обмениваться учебными материалами, разрабатывать интерактивные задания для младших школьников, а также моделировать групповые формы организации урока. Применение сервисов совместного редактирования учебных ресурсов формирует навык педагогического взаимодействия в цифровой среде, который в дальнейшем будет востребован при проектировании групповой и парной деятельности младших школьников[4]. Кроме того, участие в онлайн-конференциях, вебинарах и профессиональных педагогических сообществах позволяет будущим учителям осознавать себя частью профессиональной коммуникации и формирует культуру педагогического сотрудничества как ценностный ориентир профессионального роста.

В условиях будущей педагогической деятельности такие качества становятся ключевыми для формирования развивающей образовательной среды в начальной школе. Не менее значимым является трансформирующий эффект использования искусственного интеллекта в подготовке педагогических кадров. Включение интеллектуальных цифровых технологий делает образовательную среду динамичной, стимулирующей непрерывное обновление знаний, развивающей цифровую и педагогическую компетентность, формирующей способность будущего учителя начальных классов к самообразованию, к инновационному профессиональному действию и к постоянному совершенствованию собственной педагогической практики[5]. Это особенно проявляется в использовании нейроаналитических инструментов (например, систем автоматической проверки качества учебных материалов, аналитики учебной активности, сервисов персонализированных рекомендаций), которые позволяют будущему учителю анализировать собственные педагогические решения, выделять зоны затруднений младших школьников и корректировать содержание урока. Технологии искусственного интеллекта, интегрированные в педагогические тренажёры и электронные

образовательные ресурсы, обеспечивают возможность многоразового проигрывания педагогических ситуаций, способствуют развитию способности прогнозировать результаты обучения, адаптировать учебный материал и выбирать оптимальные методические стратегии[6]. Благодаря этому формируется привычка постоянного профессионального самообновления, что является одним из ключевых показателей готовности будущего учителя начальных классов к инновационной педагогической деятельности.

Важнейшей задачей становится обеспечение гуманистического характера цифровизации образования. Использование ИИ в профессиональной подготовке будущих учителей должно быть подчинено приоритету ценностей – педагогической этике, гуманности, духовности, ответственности за интеллектуальное развитие подрастающего поколения.

Итак, психолого-педагогический анализ позволяет утверждать, что искусственный интеллект может стать действенным инструментом развития творческого мышления будущих учителей начальных классов при условии, что он будет включён в образовательный процесс не как замена профессиональной деятельности, а как её смысловое дополнение, направленное на повышение уровня педагогического мышления, критической самостоятельности и ценностно-смысловой готовности к инновационной деятельности. Педагогическая стратегия заключается в необходимости разрабатывать такие модели подготовки будущих учителей, которые включают диагностическое изучение их когнитивных особенностей, проектирование индивидуальных траекторий обучения, организацию рефлексивных форм анализа профессиональной деятельности и стимулирование самостоятельных педагогических инициатив.

Искусственный интеллект может выполнять роль фактора развития современного высшего педагогического образования, стимулируя профессиональное становление будущих учителей начальной школы, способствуя формированию критического, творческого и инновационного педагогического мышления. Однако для достижения подобного результата требуется соблюдение баланса между автоматизацией и педагогической ответственностью, между цифровым прогрессом и гуманистическими основаниями образования. Только в этом случае появится возможность подготовки поколения педагогов, способных адаптировать интеллектуальные технологии к задачам развития личности младшего школьника, обеспечивая его интеллектуальный и духовный рост в стремительно изменяющемся мире.

ЛИТЕРАТУРА

1. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – М.: Педагогика, 1982. – 96 с.
2. Филатова О.Н. Профессиональное образование в современном информационном обществе / О.Н. Филатова, А.В. Гуштин, Н.А. Шобонов // Проблемы современного педагогического образования. - 2019. - № 64-2. - С. 189-192.
3. Кудратовна Общественной образовательной деятельности как одного из приоритетов современного образования // международный журнал социальных наук и междисциплинарных исследований issn: 2277-3630 Импакт-фактор: 8.036. – 2023. – Т. 12. – №. 01. – С. 58-61.
4. Булаева М.Н. Методические рекомендации применения цифровых платформ в профессиональных образовательных организациях обучения / М.Н. Булаева, О.Н. Филатова, П.В. Канатъев // Проблемы современного педагогического образования. - 2022. - №72(4). - С. 34-36
5. Вайндорф-Сысоева М.Е. «Цифровой форсайт» - образовательная практика с конструктором коллективной работы в условиях гибридного обучения / М.Е. Вайндорф-Сысоева, И.П. Тихоновецкая, Н.Д. Вьюн // Вестник Мининского университета. - 2022. - Т. 10. - №2.
6. Гуштин А.В. Особенности реализации информационной стратегии высшей образовательной организации / А.В. Гуштин, О.И. Ваганова, О.Н. Филатова // Известия Балтийской государственной академии рыбопромыслового флота. -2021. - № 3 (57). - С. 47-51



UDK: 378.147:37.091.

Aynura PATULLAEVA,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali o'qituvchisi

Roza REYMBAEVA,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali katta o'qituvchisi, b.f.n., PhD

Raya ERNAZAROVA,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali o'qituvchisi

Altynay ORAKOVA,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali talabasi

PhD, dotsent S.Toylibaev taqrizi asosida

TALABALARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION-INTERFAOL TA'LIM TEKNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalar kreativligini rivojlantirishda innovatsion-interfaol ta'lim texnologiyalarining pedagogik ahamiyati yoritilgan. Interfaol metodlar, raqamli ta'lim vositalari va muammoli ta'lim asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning talabalarda ijodiy tafakkur, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari interfaol yondashuvlar talabalarning kreativ faolligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kreativlik, innovatsion ta'lim, interfaol metodlar, raqamli ta'lim, kompetensiya, ijodiy tafakkur.

INNOVATIVE AND INTERACTIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING STUDENTS' CREATIVITY

Annotation

This article examines the pedagogical significance of innovative and interactive educational technologies in the development of students' creativity. The role of interactive methods, digital learning tools, and problem-based learning in shaping students' creative thinking, independent reasoning, and decision-making competencies in problem situations is analyzed. The research findings indicate that interactive approaches significantly enhance students' creative activity.

Keywords: creativity, innovative education, interactive methods, digital education, competence, creative thinking.

ИННОВАЦИОННО-ИНТЕРАКТИВНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ КРЕАТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В данной статье раскрывается педагогическое значение инновационно-интерактивных образовательных технологий в развитии креативности студентов. Анализируется роль интерактивных методов, цифровых образовательных средств и проблемного обучения в формировании у студентов творческого мышления, самостоятельного рассуждения и компетенций принятия решений в проблемных ситуациях. Результаты исследования показывают, что интерактивные подходы существенно повышают уровень творческой активности студентов.

Ключевые слова: креативность, инновационное образование, интерактивные методы, цифровое образование, компетентность, творческое мышление.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti fan, texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu jarayon ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi talablarni qo'yimoqda.

Xususan, oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi, innovatsion tafakkurga ega va kreativ yondashuv asosida muammolarni hal qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Shu jihatdan qaraganda, talabalarda kreativlikni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida an'anaviy bilim berishga asoslangan yondashuv o'rni bosqichma-bosqich talaba shaxsiga yo'naltirilgan, innovatsion va interfaol ta'lim texnologiyalari egallab bormoqda. Ushbu texnologiyalar talabaning o'quv jarayonidagi faolligini oshirish, mustaqil bilim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda tezkor va samarali qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, interfaol metodlar

orqali talabaning bilimlarni tayyor holatda qabul qiluvchi emas, balki ularni faol izlovchi, qayta ishlovchi hamda ijodiy qo'llovchi subyektaga aylanishi ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, pedagog kadrlarning innovatsion kompetensiyalarini rivojlantirish hamda yoshlarning kreativ salohiyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish va yoshlarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan.

Mazkur maqolada talabalarda kreativlikni rivojlantirishda innovatsion-interfaol ta'lim texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi, ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda talabalarda kreativlikni rivojlantirish muammosi pedagogika, psixologiya hamda ta'lim texnologiyalari sohasida keng miqyosda o'rganilib kelinmoqda. Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kreativlik shaxsning muhim intellektual va ijodiy sifati sifatida e'tirof etilib, uni rivojlantirishning turli metod va texnologiyalari ilmiy asoslangan.

Kreativlik tushunchasining nazariy asoslari J. Gilford, E. Torrans, K. Robinson, G. Gardner kabi olimlarning ilmiy ishlari bilan bog'liq. J. Gilford kreativ tafakkurning asosiy komponentlari sifatida fikr ravonligi, moslashuvchanlik, originallik va tafsilotlarga e'tibor berish qobiliyatlarini ajratib ko'rsatadi. E. Torrans esa kreativlikni muammoli vaziyatlarda noodatiy yechim topish qobiliyati sifatida baholab, uni aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan diagnostik metodikalarni ishlab chiqdi. K. Robinson kreativlikni shaxsning original va amaliy ahamiyatga ega g'oyalari yaratish salohiyati bilan izohlaydi.

Innovatsion va interfaol ta'lim texnologiyalarining nazariy-metodik asoslari masalasida V.P. Bepalko, B. Bloom, I. Lerner, M. Klarin, J. Dyuning ilmiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning tadqiqotlarida ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, muammoli ta'lim, loyihaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari asoslab berilgan.

Mustaqil ta'lim, ijodiy fikrlash va interfaol metodlarni qo'llash masalalari MDH davlatlari olimlaridan Yu.K. Babanskiy, N.F. Talyzina, A.V. Xutorskoy, V.A. Slavyonin, A.M. Novikovning tadqiqotlarida batafsil yoritilgan. Ularning ishlarida interfaol ta'lim texnologiyalari talabalarning bilish faolligini oshirish, mustaqil va kreativ tafakkurni shakllantirishning samarali vositasi sifatida talqin etiladi.

O'zbekistonlik olimlardan O'. Tolipov, N. Sayidahmedov, A. Abduqodirov, U. Begimqulov, M. Urazova, O. Musurmonova, Sh. Sharipov, N. Egamberdieva va boshqalarning ilmiy izlanishlarida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish, talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish, pedagogik jarayonni interfaol asosda tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Xususan, N. Sayidahmedov interfaol metodlarni ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik mexanizm sifatida baholaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativlikni rivojlantirish masalasi ko'p qirrali bo'lib, u shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, motivatsiyasi, ta'lim muhiti va qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar bilan uzviy bog'liqdir. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda innovatsion-interfaol ta'lim texnologiyalarining talabalarda kreativlikni rivojlantirishdagi integrallashgan mexanizmlarini amaliy jihatdan takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot talabalarda kreativlikni rivojlantirish jarayonida innovatsion-interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot metodologik jihatdan tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan hamda integrativ yondashuvlarga asoslanadi. Ushbu yondashuvlar talabaning bilish faolligi, mustaqil tafakkuri, ijodiy salohiyati va kasbiy kompetensiyalarini uzviy rivojlantirishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotda umumilmiy va maxsus pedagogik tadqiqot metodlari majmuasidan foydalanildi. Jumladan, nazariy tahlil va sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish metodlari orqali milliy va xorijiy ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar, pedagogik tajribalar o'rganildi va ilmiy xulosalar chiqarildi.

Empirik tadqiqot bosqichida pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa-so'rov, testlash hamda diagnostik metodlardan foydalanildi. Ushbu usullar yordamida talabalarning kreativ

fikrlash darajasi, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari, ijodiy faolligi hamda interfaol mashg'ulotlarga munosabati aniqlanib, dastlabki va yakuniy natijalari solishtirildi.

Tadqiqotda pedagogik tajriba-sinov ishlaridan keng foydalanildi. Tajriba-sinov jarayoni uch bosqichda — aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakuniy bosqichlarda tashkil etildi. Aniqlovchi bosqichda talabalarning kreativlik darajasi dastlabki diagnostika asosida baholandi. Shakllantiruvchi bosqichda innovatsion-interfaol ta'lim texnologiyalari (muammoli ta'lim, loyihaviy ta'lim, aqliy hujum, klaster, debat, case-study, rolli o'yinlar, raqamli platformalardan foydalanish) asosida mashg'ulotlar tashkil etildi. Yakuniy bosqichda esa tajriba-sinov natijalari qayta tahlil qilinib, dastlabki ko'rsatkichlar bilan solishtirildi.

Olingan natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik tahlil metodlari qo'llanildi. Jumladan, foiz ko'rsatkichlari, diagrammalar va solishtirma tahlillar orqali tajribasamaradorligi aniqlandi. Natijalarning ishonchligini ta'minlash maqsadida takroriy o'lchovlar va nazorat guruhlarini bilan qiyosiy tahlillar amalga oshirildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar majmuasi talabalarda kreativlikni innovatsion-interfaol ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini ilmiy asoslash hamda ularning amaliy samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida innovatsion-interfaol ta'lim texnologiyalarining talabalarda kreativlikni rivojlantirishga ta'siri tajriba-sinov ishlari orqali o'rganildi. Tadqiqotda interfaol metodlar (aqliy hujum, klaster, loyiha metodi, keys-stadi, munozara), raqamli ta'lim platformalari, muammoli ta'lim unsurlari asosida mashg'ulotlar tashkil etildi. Nazorat va tajriba guruhlarida talabalarning kreativ fikrlash darajasi maxsus diagnostik testlar, so'rovnomalalar hamda kuzatuvlar asosida baholandi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida mashg'ulotlar innovatsion-interfaol yondashuvlar asosida tashkil etilgani sababli talabalarning kreativ fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni nostandart tarzda hal etish ko'nikmalari sezilarli darajada oshdi. Xususan, talabalarda:

muammoli vaziyatlarga nisbatan ijodiy yondashish qobiliyati;

tanqidiy va erkin fikrlash;

guruhda ishlash va muloqot madaniyati;

raqamli vositalardan samarali foydalanish ko'nikmalari shakllangani kuzatildi.

Nazorat guruhidagi talabalar bilan solishtirilganda, tajriba guruhida kreativ faollik ko'rsatkichlari o'rtacha 25–30 foizga yuqori natija qayd etdi. Bu esa interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalar talabalarning faqat bilim olish jarayoniga emas, balki ularning shaxs sifatida rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy ta'lim bilan taqqoslaganda interfaol yondashuvlar talabalarning o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi, ijodiy tafakkurini faollashtiradi va ularni faol subyektgacha aylantiradi. Raqamli ta'lim muhitida tashkil etilgan mashg'ulotlar esa axborot bilan ishlash, tezkor tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tajriba natijalariga ko'ra, innovatsion-interfaol texnologiyalar muntazam qo'llanilganda talabalarning kreativ kompetensiyasi barqaror shakllanib borishi aniqlandi. Bu holat oliy ta'lim tizimida interfaol texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarda kreativlikni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, bu jarayonda innovatsion-interfaol ta'lim texnologiyalaridan

samarali foydalanish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida innovatsion-interfaol metodlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarga noodatiy yechim topish, ijodiy tashabbus ko'rsatish hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra, interfaol metodlar (muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, debatlar, aqliy hujum, klaster, case-study, rolli o'yinlar, raqamli platformalardan foydalanish) talabalarning bilish faolligini oshirib, ta'lim jarayonida ularni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishga xizmat qildi. Natijada talabalarda kreativ fikrlash ko'nikmalari, muloqot madaniyati, tashabbuskorlik va mas'uliyat hissi sezilarli darajada rivojlandi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kreativlikni rivojlantirish jarayoni talabaning individual-psixologik xususiyatlari, motivatsiyasi, ta'lim muhiti hamda pedagogning innovatsion faoliyatga tayyorgarlik darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Demak, innovatsion-interfaol ta'lim texnologiyalari talabalarda kreativ kompetensiyalarni shakllantirishning samarali pedagogik mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Takliflar. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsion-interfaol ta'lim texnologiyalarini

tizimli ravishda joriy etish, ularni fanlarning mazmuniga mos holda integratsiya qilish tavsiya etiladi.

Talabalarda kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus o'quv modullari, trening mashg'ulotlari va loyihaviy faoliyat turlarini o'quv dasturlariga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Professor-o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini oshirish, ularning kreativ pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan malaka oshirish kurslari va seminar-treninglarni muntazam tashkil etish zarur.

Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, elektron ta'lim platformalari, masofaviy ta'lim vositalari va mediaresurslardan keng foydalanish orqali talabalarning kreativ faoliyatini qo'llab-quvvatlash tavsiya etiladi.

Talabalarning kreativlik darajasini muntazam diagnostika qilish, baholash natijalariga ko'ra individual yondashuvni kuchaytirish va ularning ijodiy faolligini rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion-interfaol ta'lim texnologiyalariga asoslangan ta'lim jarayoni talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning kasbiy yetukligi, raqobatbardoshligi va mustaqil fikrlash salohiyatini yuksaltirishga samarali xizmat qiladi. Shu bois mazkur yondashuvlarni oliy ta'lim amaliyotida keng tatbiq etish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. - Toshkent, 2020.
3. J. Guilford. The Nature of Human Intelligence. - New York: McGraw-Hill, 1967.
4. E. Torrance. Creativity in the Classroom. - Washington: NEA, 1977.
5. Ken Robinson. Out of Our Minds: Learning to be Creative. - London: Capstone, 2001.
6. Howard Gardner. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. — New York: Basic Books, 1983.
7. N. Sayidahmedov. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Fan, 2018.
8. A. Abduqodirov. Ta'limda axborot texnologiyalari. - Toshkent: O'qituvchi, 2019.
9. O'.Tolipov., M. Urazova. Interfaol ta'lim metodlari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
9. Sh. Sharipov. Oliy ta'limda innovatsion yondashuvlar. - Toshkent, 2020.
10. M. Klarin. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. - Moskva: Pedagogika, 2015.
11. UNESCO. Raqamli kompetensiyalar bo'yicha ta'lim strategiyasi. - Paris, 2019.
12. V.A. Slastyonin. Pedagogika nazariyasi. - Moskva, 2014.
13. A.V. Xutorskoy. Kompetensiyaviy yondashuv asoslari. - Moskva, 2016.



Fotima PRIMOVA,
SamDVMCHBU Toshkent filiali dosenti, f.f.n
E-mail: Primovafatima1958@gmail.com

SamDVMCHBU Toshkent filiali dosenti, f.f.n. P.Epnazarov taqrizi asosida

THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL CULTURE HAS BECOME A MATTER OF LIFE, DEATH, AND SALVATION

Annotation

This article addresses pressing issues of nature conservation, creating the necessary conditions for people to live in a favorable natural environment, rational and efficient use of natural resources, and preventing environmental problems. In it, special attention is also paid to revealing the roots of environmental problems occurring in our country, and opinions and proposals on this topic are put forward.

Keywords: ecological culture, ecological disaster, ecological problem, ecological consciousness, ecological behavior, human, nature, eco-creators, eco-community, human thought and activity, products of material and spiritual labor, climate change, ecological education, society.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ СТАЛО ВОПРОСОМ ЖИЗНИ, СМЕРТИ И СПАСЕНИЯ

Аннотация

В данной статье изложены актуальные вопросы охраны природы, создания необходимых условий для жизни населения в благоприятной природной среде, рационального и эффективного использования природных ресурсов, предупреждения экологических проблем. В нем также уделено особое внимание раскрытию корней экологических проблем, происходящих в нашей стране, выдвинуты мнения и предложения по данной теме.

Ключевые слова: экологическая культура, экологическая катастрофа, экологическая проблема, экологическое сознание, экологическое поведение, человек, природа, экосоздатели, экосообщество, человеческое мышление и деятельность, продукты материального и духовного труда, изменение климата, экологическое образование, общество, личность, ценность.

EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH HAYOT-MAMOT VA NAJOT MASALASIGA AYLANDI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tabiatni muhofaza qilish, aholining qulay tabiiy muhitda hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, ekologik muammolarning oldini olish borasidagi dolzarb masalalar bayon qilingan. Shuningdek, unda yurtimizda ro'y berayotgan ekologik muammolarning ildizini ochib berishga alohida e'tibor qaratilib, mavzuga oid fikr-mulohalar va takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, ekologik ofat, ekologik muammo, ekologik ong, ekologik xulq-atvor, inson, tabiat, ekoojodkorlar, ekohamjamiyat, inson tafakkuri va faoliyati, moddiy va ma'naviy mehnat mahsullari, iqlim o'zgarishi, ekologik ta'lim-tarbiya, jamiyat, shaxs, qadriyat.

Kirish. Jahon meteorologiya tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 1970-2021-yillarda dunyoda 11 ming 778 ta tabiiy ofat qayd etilgan bo'lib, ularda 2 milliondan ortiq inson halok bo'lgan va umumiy iqtisodiy zarar 4,3 trillion dollarni tashkil etgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2019-yil yakunlari bo'yicha berilgan hisobida ta'kidlanishicha, iqlim o'zgarishi natijasida tabiiy ofatlar soni so'nggi 20-yil ichida deyarli ikki baravarga, so'nggi 50-yil esa besh baravar ko'paygan, birgina 2018-yilda dovullar, suv toshqinlari, qurg'oqchilik va o'rmon yong'inlari kabi ofatlardan aziyat chekkan 108 million kishini xalqaro gumanitar tizimdan yordam so'rashga majbur bo'lgan. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2030-yilga borib bu raqam qariyb 50 foizga oshishi kutilmoqda.

So'nggi yillarda yer yuzida ekologiyaga zarar keltiruvchi texnologik falokatlar soni ortib bormoqda. Sanoat inqilobining rivojlanishi natijasida, yuzaga kelgan birinchi eng yirik ekologik ofat 1952-yilning qishida, London shahrida sodir bo'lgan. 1984-yil 3-dekabrda, Hindistonning Bhopal shahrida joylashgan zararkunandalarga qarshi vositalarni ishlab

chiqaruvchi zavodda portlash yuz berdi. Buning oqibatida sakkiz mingdandan ortiq inson vafot etdi, 200 mingdan ziyod kishi zaharlanib, falajlik va immunitet tanqisligi kabi kasalliklarga chalindi. 1986-yil 26-aprel kuni tunda, Ukrainaning Chernobil atom elektrostansiyasi, 2011-yilning mart oyida Yaponiyada joylashgan Fukusima atom elektrostansiyasida portlash sodir etildi. Markaziy Osiyoda esa Orol muammosi yuzaga keldi. 50 yil ichida Orolimiz maydoni avvalgisining o'ndan bir qisqardi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mashhur nemis olimi V.Xesle "inson so'nggi qirq yil ichida o'zlashtirgan ehtiyojlarining aksariyatidan voz kechishga majbur, chunki ular atrof-muhitga zarar yetkazadi va agar ular umumiy bo'lib qolsa, Yer albatta halok bo'ladi" [1], deb hisoblaydi.

"So'nggi 50-60-yil ichida global iqlim o'zgarishi natijasida Markaziy Osiyodagi muzliklar maydoni taxminan 30 foizga qisqardi. 2050-yilga borib Sirdaryo havzasida suv resurslari 5 foizgacha, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Agar 2015-yilgacha bo'lgan davrda

O'zbekistonda umumiy suv tanqisligi 3 milliard kub metrdan ortiq bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2030-yilga borib 7 milliard kub metrni, 2050-yilga kelib esa 15 milliard kub metrni tashkil etishi kutilmoqda. Shu bilan birga, 2030-yilga borib O'zbekiston aholisi 39 million kishini tashkil etadi, ularning sifatli suvga bo'lgan ehtiyoji 2,3 milliard kub metrdan 2,7-3,0 milliard kub metrgacha (18-20 foizga) oshadi" [2], deya ta'kidlanadi O'zbekiston Respublikasining Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligidagi elchixonasi hisobotida.

Taniqli rus olimlari V.Sitarov va V.Pustovoytov o'zlarining "Ijtimoiy ekologiya" asarida ta'kidlashicha, "Biz ekologik madaniyatni inson hayot faoliyatining axloqiy-ma'naviy sohasi sifatida ta'riflaymiz, bu uning tabiat bilan o'zaro ta'sirining o'ziga xosligini tavsiflaydi va o'zaro bog'liq elementlar tizimini – ekologik ong, ekologik munosabat va ekologik faoliyatni o'z ichiga oladi. Ekologik madaniyatni umuman ijtimoiy ong darajasida va, xususan, muayyan shaxs darajasida qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga mo'ljallangan ekologik institutlar alohida element sifatida namoyon bo'ladi. Ekologik inqiroz kuchayib borayotgan sharoitda insoniyatning omon qolishi butunlay uning o'ziga bog'liq: u o'z tafakkuri va faoliyati uslubini o'zgartira olsa, ularga ekologik yo'nalish bera olsa, bu xavfni bartaraf etishi mumkin" [3].

Prezidentning 2025 yil 25 noyabrdagi "Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida esa poytaxtda havo sifati, yashil hududlarni asrash va ko'paytirish, transportdan chiqadigan zararli moddalarni kamaytirish, sanoat korxonalarini faoliyatida ekologik talablarga rioya etilishini kuchaytirish kabi yo'nalishlarda aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularning ijrosini muvofiqlashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi [4].

Tadqiqotchi N.Bozorova "Ekologik madaniyat – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va mas'uliyatli yondashuvdir" [5] deb ta'rif beradi. Tadqiqotchi N.Nishonovanning fikriga ko'ra esa, "ekologik madaniyat: "tabiatni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, ekologik ong va his-tuyg'ularning shakllanishi, faol hayotiy nuqtai nazarda turish, ekologik bilimga ega bo'lishdir" [6].

O'zbekistonlik D.Kashkarov, E.Korovin, T.Zohidov, A.Muhammadiev, B.Alixonov, M.Halimova, B.Po'latov, D.Turg'unov, Sh.Fayziev, A.Ergashev, X.Asilbekova, Z.Yarullina, M.Plosen, X.Sherimbetov, T.Li, J.Tolipov, U.Abdullaev, B.Mahmudov, N.Shakirov, A.Tursunaliyev, Sh.Usmanova, O.Mirshina kabi ekolog olimlarning ilmiy ishlarida ekologik muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida fikr yuritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ekologik muammolar, ularni bartaraf etish usullari, fuqarolarning ekologik madaniyatini oshirish, Yangi O'zbekistonda sog'lom ekologik muhitni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlarning o'ziga xos tamoyillarini aniqlashda O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosati, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi materiallarini hamda Prezident asarlarini va mavzuga oid mahalliy va xorijiy olimlar, mutaxassislar tomonidan yaratilgan adabiyotlarni o'rganish va ular bilan suhbatlashish, fikr-mulohazalarini ekspert baholash, hodisa va jarayonlarga tizimli yondashish, empirik tadqiqotlar (kuzatish, qiyoslash, o'lchash, eksperiment usullari), nazariy tadqiqot (mavhumdan aniqlikka tomon borish), empirik va nazariy tadqiqotlar (tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, modellashtirish, mavhumlashtirish) usullarini keng qo'llash, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali ekologik

ongni shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlari yuzasidan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. Maqolamizning kirish qismida ko'rsatib fojialar ona-tabiatga insoniyat yetkazgan zarar oldida dengizdan bir tomchi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Hazrati inson atalmish mavjudodning bu boradagi zararkunandaligi qalamga olinsa, qog'oz ham dosh berolmasligi tayin. Achinarli tomoni shundaki, bugun ham tabiatga zarar yetkazish miqdori ko'paysa ko'payaptiki, aslo kamaygani yo'q. Bunga birgina ko'mir xom ashyosidan foydalanish zararlarini misol tariqasida keltirish kifoya, nazarimda. Ma'lumki, ko'mir dunyoda insoniyat foydalanadigan yoqilg'ilar ichida tabiatni eng ko'p ifloslovchi hisoblanadi. Masalan, elektr energiyasini ko'mir bilan ishlab chiqarganda gazga qaraganda 72 foiz ko'proq is gazi ajralib chiqadi. Ko'mir yoqilganda oltingugurt, azot oksidi yirik miqdorda ajralib havoga ko'tariladi. Shuningdek, bu jarayonda simob va is gazi ham ajrala boshlaydi. Bu moddalar inson salomatligi uchun juda xavfli hisoblanadi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, 1 tonna ko'mir yoqilganda 22 kilogramm qurum, 36 kilogramm oltingugurt oksidi, 8 kilogramm uglerod va azot oksidi hosil bo'ladi. O'zbekistonda ko'mir qazib olish hajmini 2024-yilda 8,2 million tonnani tashkil qilgan, bu ko'rsatkichni 2025-yilda 10 million tonnaga yetkazish ko'zda tutilmoqda. Demak, o'tgan yilda 180 ming tonnadan ortiq qurum, 295 ming tonnadan ortiq oltingugurt oksidi, 65 ming tonnadan ortiq uglerod va azot oksidi havoga tashlangan.

Hozirgi vaqtda insoniyat tabiatni o'ylamasdan ekspluatatsiya qilmoqda, o'ziga bo'ysundirishga zo'r berib urinmoqda. Tabiat esa bunga qarshi o'laroq, zilzilalar, vulqon otilishlari, suv toshqinlari, yong'inlar, tornadolar, bo'ronlar, sunamilar, tuproqning vayron bo'lishi, cho'l zonalarining kengayishi, epidemiyalar va boshqa ko'plab tabiiy ofatlarni yuzaga kektirmoqda. Endi vaziyatning halokatli ekanligini anglagan holda, inson va tabiat o'rtasidagi axloqiy munosabatlarni tiklash zarur. Iste'molni oqilona cheklash bizning tabiat oldidagi burchimiz. Bu yerda gap faqatgina me'yor tuyg'usi, mulohazakorlik, madaniyat haqida bormoqda. Hech narsani o'zgartirmasak, bugun ham kechagidek yashasak, ertangi kunimiz zulmatga cho'mishi aniq. Tub o'zgarishlar davri allaqachon kelgan, biz buni hamon anglab yetishni istamayapmiz xolos.

Shuni unutmaslik kerakki, faqat madaniyatgina iqtisodiyotni, texnologiyani va huquqiy bazani yuksaltirishga, uzoq muddatli istiqbolda esa ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, ekologik muammolarni ijobiy hal etishni ta'minlashga imkon beradigan buyuk kuchdir. Madaniyat bugungi kunda hayotimizning deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan eng keng tushunchalardan biridir. Ekologiya va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik dunyoning birligi, barcha elementlar va jarayonlarning o'zaro bog'liqligi, tabiatga insoniy munosabatni o'z ichiga olgan xulq-atvorda namoyon bo'ladi. Madaniyatning asosiy tushunchalari go'zallik va uyg'unlik bo'lib, bu tuyg'ular madaniyatni ekologiyaga yaqinlashtiradi, tabiatdagi uyg'unlikni ta'minlash mexanizmlarini tushunishga yordam beradi.

Ekologik madaniyat ommaning ekologik ongi va xulq-atvoriga xos bo'lgan barqaror, odatiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Ekologik madaniyatning ma'naviy ibtidosi ekologik ongdir. Ekologik madaniyat jamiyat, ijtimoiy guruh, shaxs ekologik ongi rivojlanishining ma'lum darajasi sifatida quyidagi ikki asosiy shaklda namoyon bo'ladi:

a) umumdunyoqarash va ekologik bilim, g'oya, tafakkur, qarash, tasavvur, maqsad, qadriyat, me'yor, an'ana, namuna va andozalarni o'z ichiga olgan nazariy ong.

b) nazariy va kundalik ong bilan bog'liq bo'lgan his-tuyg'u, hissiyot, e'tiqod va munosabatlarni o'z ichiga olgan ongning ijtimoiy-psixologik komponenti.

Bilamizki, "madaniyat" lotincha cultura so'zidan kelib chiqqan bo'lib, dastlab "ekin ekish, xo'jalik yuritish" ma'nosi anglatgan. Keyinchalik yana bir qancha ma'nolarga ega bo'lgan: ta'lim-tarbiya, rivojlanish shular jumlasidandir. Fanda "madaniyat" atamasi birinchi marta 1782-yilda nemis filologi Iogann Adelung va uning "Insoniyat nasli madaniyati tarixi tajribasi" kitobi tufayli paydo bo'lgan. Bu so'zning bugungi kunda keng tarqalgan yana bir ma'nosi ma'naviy hayot sohasini, ya'ni kishilar ongini anglatish bilan bog'liq. Ekologik madaniyat – kishilarning o'z ekologik bilim va ko'nikmalaridan amaliy faoliyatda foydalana olish qobiliyatidir. Insonning ekologik madaniyati uning ekologik ongi va ekologik xulq-atvorini o'z ichiga oladi.

Ekologik madaniyatni rivojlantirish an'anaviy ravishda, avvalo, ekologik ta'lim-tarbiya bilan bog'liq. Biroq, ekologik madaniyatni faqat an'anaviy ekologik ta'lim-tarbiya asosida rivojlantirish yetarli samara bermayapti. Bu yerda asosiy natija ta'lim oluvchilarning ekologik muammolardan ma'lum darajada xabardorligi hisoblanadi. Ekologik madaniyatni shakllantirish davlat siyosatini, o'ziga xos metodologiyani va professionallikni talab qiladi. Endilikda yoshlar o'rtasida ekologik-ma'rifiy ish olib borishga mas'ul bo'lgan davlat tuzilmasi va ekologik-ma'rifiy metodologiyani chuqur professional anglash va tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Buning uchun barcha mumkin bo'lgan vositalar va institutlardan foydalangan holda yosh avlod ongida ekologik madaniyatni samarali shakllantirish talab etiladi. "Inson ekologiyaning mohiyati va uning ahamiyatini anglashda O'rta Osiyo allomalarining ekologik qarashlari o'rganishi ijobiy natijalarni beradi. Buyuk allomalarning ekologik qarashlariga asoslangan nazariy bilimlarni hosil qilish ularda atrof-muhitga, tabiatga mas'uliyatli munosabagda bo'lish ko'nikmalarini tarbiyalaydi" [7].

Tadqiqotlarimizning natijalariga tayangan holda shuni aytish lozimki, aholining ekologik madaniyatini oshirish eng sodda va samarali yo'li quyidagilardan iborat:

birinchidan, har bir fuqaro ongiga tabiatga yetkazilgan har qanday zarar oqibatlarini insoniyatni muqarrar halokat olib kelishini anglab yetish g'oyasini singdirish;

ikkinchidan, shaxsning ekologik savodxonlik darajasini oshirish, ma'rifiy va ta'lim formatlari orqali ularning ekoloyoqat qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish;

uchinchidan, atrof muhitni muhofaza qilish maqsadida volontyorlik faoliyatini rivojlantirish, shuningdek, ekologik kun tartibi hamda tabiatni muhofaza qilish va ekologiya bilan bog'liq kasblarni ommalashtirish;

to'rtinchidan, hududlarda ekoiyodkorlar va ekohamjamiyatlar uchun kompetensiya va bilim markazlari infratuzilmasini yaratish va rivojlantirish;

beshinchidan, ekologiya sohasida ochiq bilimlardan foydalanishni ta'minlaydigan, ekologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydigan raqamli platformalar va servislarni rivojlantirish.

Madaniyat va faoliyat dialektik birligni tashkil etib, bir-biriga singib, bir-birini boyitib boradi. Faoliyat madaniyatni vujudga keltiradi va unga real borliq baxsh etadi. Madaniyat faoliyatni tashkil etadi va tartibga soladi, uning usullarini, samaradorligini, uni takomillashtirishning mumkin va zarur yo'nalishlarini belgilaydi. Madaniyat faoliyatga o'zining substansiyasi sifatida munosabatda bo'lib, uning ichki tashkil etilishini yoki boshqacha aytganda, insonning mohiyatli kuchlari namoyon bo'ladigan faoliyat usulini tashkil etadi.

Madaniyat insonning har qanday ijtimoiy faoliyatini ma'lum bir jihatdan tavsiflaydi, shaxsning shakllanishiga zamin yaratadi, uning o'ziga xos ijtimoiy fazilatlarini, subyektiv qobiliyatlarini va ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Xulosa va takliflar. "Avlodlarimiz bizdan keyin ham munosib tabiiy muhitda yashashlari uchun biz tabiatga mehr va e'tibor berishimiz, u bilan uyg'un bo'lib yashashimiz kerak, - deya ta'kidlagan edi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. – Bu nima degani? Bu – tabiatni toza-ozoda tutish, yer va suv resurslarini, ekologik tizimni asrash, daraxt ekib, bog' yaratish degani. Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Biz ona yurtimizni muqaddas deymiz. Agar shu yurt, shu tuproq biz uchun muqaddas bo'lsa, nima uchun uni toza-ozoda saqlamaymiz? Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi. Bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin" [8]. Bundan tashqari, biz yurtboshimiz ko'targan muammolarning yechimi sifatida quyidagi takliflarni bildiramiz:

inson va tabiatning gullab-yashnashini ta'minlaydigan qadriyatlar va an'analarini kelajak avlodlar uchun saqlab qolish; ekotizimlar yaxlitligini tiklash, barqaror rivojlanish va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, tiklanadigan va tiklanmaydigan resurslarni ehtiyotkorlik bilan iste'mol qilishga intilish;

ekologik xavfsizlik talablariga rioya etilishini va yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni ta'minlash, atrof-muhit ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik;

ekologik talablar va inson huquqlarini buzmaydigan ishlab chiqarish va iste'mol modellaridan foydalanish, ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish, ehtiyojlarimizni sayyoramiz imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirishni ta'minlash;

ekologik barqarorlik sohasidagi tadqiqotlarni, shuningdek, ekologik ta'limni rivojlantirish va ularning natijalaridan amaliyotda foydalanish, ekologiya va madaniyat sohasida barqaror rivojlanish sohasida xalqaro ilmiy va texnik hamkorlikni qo'llab-quvvatlash, tabiatni muhofaza qilish hamda inson farovonligini ta'minlash uchun muhim bo'lgan turli madaniyatlarning an'anaviy bilimlarini avaylab asrash;

har kimning ichimlik suvi, toza havo, yerga, xavfsiz oziq-ovqat va uy-joyga bo'lgan huquqini ta'minlash, har bir insonni barqaror hayot kechirishi uchun bilim va resurslar bilan ta'minlash, o'zini o'zi ta'minlay olmaydiganlarga yordam berish;

milliy va xalqaro miqyosda ne'matlarni adolatli taqsimlashga ko'maklashish, faoliyatning barcha sohalari barqaror rivojlanish, atrof-muhitni muhofaza qilish tamoyillariga va zamonaviy mehnat me'yorlariga mos kelishini nazorat qilish;

atrof-muhit holati, kimningdir manfaatlariga daxldor bo'lgan rejalar va harakatlar to'g'risida to'liq va o'z vaqtida ma'lumot olish umumiy huquqini qo'llab-quvvatlash, barcha darajadagi korrupsiyaga barham berish, boshqaruvning turli darajalaridagi vakolatlarini samarali taqsimlash;

ekologik va ijtimoiy muammolarning ahamiyatini anglashda ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, axloqiy tamoyillarga rioya etilishini ta'minlash uchun ma'naviy va axloqiy tarbiyaga jiddiy e'tibor berish.

Xullas, butun dunyoda ekologik muammolar avj olib, insoniyat hayotiga, salomatligiga katta zarar yetkazayotgan bugungi kunda aholining ekologik madaniyatini oshirish eng muhim masala bo'lib qoldi, bunga insonlar, shu jumladan, yoshlar qalbida ona tabiatga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Хесле В. Философия и экология. –М.: Институт философии Российской академии 1991. Часть 3. 83 с.
2. Вопросы климатической повестки в центре внимания Узбекистана. <https://www.uzembassy.uz/news/721?language=ru>
3. Ситаров В. А., Пустовойтов В. В. Социальная экология: Учеб. Пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. –М.: Издательский центр “Академия”, 2000. 137 с.
4. Prezidentning 2025 yil 25 noyabrdagi “Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://t.me/shmirziyoyev/30414>
5. Bozorova N.Sh. Talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy pedagogik asoslari. P.F.D dissertatsiyasi. –T.: 2006. 9-bet.
6. Nishonova N.U. Umumiy o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish. P.F.D dissertatsiyasi. - T.: 2001. 4-bet.
7. Hakimov N.H . Inson ekologiyasi. –T.: Iqtisodiyot, 2021. 13-6et.
8. Prezident Sh.M.Mirziyoyev nuqti. Qurilish, transport va ekologiya sohalaridagi ishlar tahlil qilinib, muhim vazifalar belgilandi. “Xalq so‘zi”, 2024-yil 30-yanvar, 22 (8645)-son.



Masrur RAHIMJONOV,
Alfraganus universiteti dotsenti, PhD
E-mail: rahimjonov.masrur@gmail.com

PhD N.Farxodjonova odira taqrizi asosida

ISLOM DINIDA AYOLLARNING ILM OLISHLARIGA BO'LGAN MUNOSABAT

Annotatsiya

Maqolada Islom dinida ilm olishning o'rmi va ayniqsa, ayollarning ta'lim olish huquqi diniy, tarixiy va ijtimoiy manbalar asosida yoritilgan. Islom dini insonni, jumladan ayolni ham ilm olishga chorlaydi va bu amalni ibodat darajasiga ko'taradi. Asarda jaholat davrida ayollarga bo'lgan salbiy munosabat hamda Islom dini bu adolasizlikni qanday bartaraf etgani Qur'on oyatlari va hadislar asosida tahlil qilinadi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ayollar uchun alohida ilmiy majlislar tashkil etgani, ularni diniy va dunyoviy bilimlarga da'vat etgani haqida dalillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Islom dini, ayollar ta'limi, ilm olish, hadis ilmi, sahobiy ayollar, Qur'on, Payg'ambar (s.a.v.), diniy ekstremizm, jaholat davri, shariat, ma'naviyat, oila, ijtimoiy tenglik.

ОТНОШЕНИЕ К ОБУЧЕНИЮ ЖЕНЩИН В ИСЛАМЕ

Аннотация

В статье раскрывается значение получения знаний в исламе, особенно право женщин на образование, на основе религиозных, исторических и социальных источников. Ислам призывает человека, в том числе женщину, к приобретению знаний и возвышает этот процесс до уровня поклонения. В работе анализируется отношение к женщинам в эпоху невежества (джахилия) и то, каким образом ислам устранил эту несправедливость на основе аятов Корана и хадисов. Приводятся доказательства того, что Пророк Мухаммад (с.а.в.) организовывал специальные научные собрания для женщин и призывал их к изучению религиозных и светских наук.

Ключевые слова: ислам, образование женщин, получение знаний, наука хадиса, женщины-сахабийат, Коран, Пророк (с.а.в.), религиозный экстремизм, эпоха джахилии, шариат, духовность, семья, социальное равенство.

THE ATTITUDE TOWARD WOMEN'S EDUCATION IN ISLAM

Annotation

This article discusses the importance of acquiring knowledge in Islam, particularly the right of women to education, based on religious, historical, and social sources. Islam calls upon every human being, including women, to seek knowledge and elevates this act to the level of worship. The article analyzes the negative attitudes toward women during the pre-Islamic era of ignorance and how Islam eliminated such injustices through Qur'anic verses and prophetic traditions. Evidence is presented showing that the Prophet Muhammad (peace be upon him) organized special educational gatherings for women and encouraged them to acquire both religious and worldly knowledge.

Keywords: Islam, women's education, seeking knowledge, hadith studies, female companions, Qur'an, Prophet Muhammad (PBUH), religious extremism, pre-Islamic era of ignorance, Sharia, spirituality, family, social equality.

Kirish. Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ilm-ma'rifat jamiyat rivojining asosiy omili bo'lib kelgan. Har qanday xalqning madaniy va ma'naviy yuksalishi avvalo ta'lim tizimi va ilmga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi. Shu jihatdan, Islom dini paydo bo'lgan ilk davrlardan oq ilm olishni eng yuksak fazilat sifatida e'tirof etgan. Bu g'oya Qur'on oyatlari va hadislar mazmunida yaqqol namoyon bo'ladi. Islom nafaqat erkaklarni, balki ayollarni ham ilm izlashga, tafakkur yuritishga va ijtimoiy hayotda faol bo'lishga undaydi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning hayotiy amaliyoti va sahobiyalar tajribasi bunga yorqin dalildir. Ularning faoliyati orqali musulmon jamiyatida ayollar ilmiy, ma'naviy va tarbiyaviy jihatdan yuksak mavqega ega bo'lgan.

Tarixiy manbalar shundan dalolat beradiki, musulmon ayollar hadis, fiqh, tafsir, adabiyot va tibbiyot sohalarida ham faol ishtirok etganlar. Ularning ilmga bo'lgan qiziqishi va fidoyiligi nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham musulmon jamoalarida ta'lim an'analari shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bugungi kunda ayollar ta'limi masalasi yana dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Diniy qadriyatlar, tarixiy tajriba va zamonaviy ta'lim tamoyillarining uyg'unligi orqali jamiyatda ilmiy-ma'naviy uyg'unlash jarayonlarini yanada rivojlantirish mumkin. Shu bois, ayollarning ilmiy salohiyatini oshirish nafaqat ijtimoiy zarurat, balki diniy va ma'naviy burch sifatida ham qaralishi lozim. Ilm olish islom dinining asosiy ta'limotlaridan biri. Ibodat darajasiga ko'tarilgan ilmni musulmonlar shariat doirasida o'rganishga uringanlar. Tabiiyki, shariat ahkomlari ayol-qizlarning ilm olishiga taqiq qo'ymagan. Ayollardagi ma'naviy nuqson va kamchiliklar faqat ilm o'rganish bilan bartaraf etilishi mumkin edi. Diniy ekstremistik guruhlarning ayollarning ta'lim olishiga to'siq bo'layotgan fikrlari asossiz ekanligini islom, ayniqsa, hadis ilmi tarixidan bilib olish mumkin.

Islomda oila masalasiga alohida e'tibor bilan qaralishi ma'lum. Chunki oila har bir jamiyatning o'zagi hisoblanadi. O'zagi mustahkam jamiyatning o'zi ham mustahkam bo'ladi. Xolbuki, dushmanlar «Islom ayollar masalasiga unchalik e'tibor bermaydi, ayol kishi mislsiz jabr-sitam ostida qolgan», deb ayblab kelmoqdalar. Qur'oni karimda Payg'ambar

(s.a.v.)ning ayollariga katta e'tibor berilishining o'zi dushmanlarning gaplari behuda ekaniga yorqin dalildir.

Islom dini kelgan vaqtda Arabiston yarim oroli jaholat botqog'iga botgan ekan haqida manbalar xabar beradi. Johillik, adolatsizlik, zulm keng tarqagan davr hisoblanadi. Ayniqsa, ayollarga tegishli masalalarda bu ishlar avj olib, eng cho'qqisiga chiqqan edi. U davrda ayol odam o'rnida ko'rilmadi. Masalan, nasroniylar olamida alohida yig'ilish o'tkazilib, o'sha vaqtdagi rahnamolar tomonidan «Ayol erkakni yo'ldan urish uchun yaratilgan shaytondir, unga ko'zi tushgan odam ham gunohkor bo'ladi, ayol havoni bulg'atmasligi uchun og'ziga to'siq tutib yurishi kerak», degan qarorlar qabul qilingan edi.

Johiliyat tuzumida ayolga ayniqsa erkak uchun dunyoning matohi sifatida qaralardi. Oila masalasi juda og'ir ahvolda edi. Ayol kishini molu mulkka qo'shib, meros qilib olish oddiy hol edi. Ayolga qilingan past munosabatlar, unga yetkazilgan turli zulmlar misolini bir qator sura va oyatlarda ham ko'rish mumkin.

Islom dini dunyodagi mavjud barcha nuqsonlarni, jumladan, insoniyatning nafis bo'lagi sanalmish ayollarga nisbatan qilinadigan munosabatdagi mavjud kamchiliklarni ham tuzatishga, ayollarga qilinayotgan zulm, jabr va sitamni kesishga kirishdi. Ayolga to'laqonli inson sifatida qarash masalasini o'rta qo'ydi. Shu bilan birga, o'ziga xos qonun-qoidalarni, axloq-odoblarni, tasavvur va madaniyatni joriy qila boshladi.

Qur'oni karimning uzun suralaridan biri «Niso» («Ayollar») deb atalishi ham bejiz emas. Boshqa bir sura esa, «Mujodila» («Tortishuvchi ayol») deb nomlanadi. Ulamolimiz «Taloq» surasini «Kichik Niso» deyishadi. Ayollarga bo'lgan e'tiborning tasdig'i o'laroq, Rasululloh (s.a.v.) musulmon ummatiga qilgan ommaviy va'z-nasihatlaridan tashqari, yana ayollar uchun alohida majlislar ham o'tkazib turar edilar[1].

Shu bilan birga, mazkur oyatlarni, Payg'ambarimiz s.a.v.ning sunnatlarini, shariat ahkomlarini ayollarga o'ziga xos uslub bilan yetkazadigan masalalarni tushuntirib beradigan muallimlar kerak edi. Bu vazifani faqat Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning ayollarigina bajarishlari mumkin edi. Shuning uchun Qur'oni karim oyatlarida ularga alohida e'tibor bilan qaralib, alohida talablar qo'yildi[2].

Natijalar va muhokama. Islom dini ilm olishga alohida e'tibor qaratgan. Ilmga targ'ib jamiyat uchun islom shariatining birinchi ko'rsatmasi bo'lgan. Ilm olish o'qish va yozish bilan bo'lganligi uchun bu din erkak va ayollarni teng huquqli holatda bu narsaga chaqirdi: O'qing (ey, Muhammad! Butun borliqni yaratgan zot bo'lmish Rabbingiz ismi bilan! (U) insonni laxta qondan yaratdi. O'qing! Rabbingiz eng Karamlidir. U insonga qalam bilan (yozishni ham) o'rgatdi. U insonga bilmagan narsalarini bildirdi (Alaq surasi, 1-5 oyatlar)[3]. Bu kabi chaqiriqlar jamiyat uchun, ayniqsa jamiyatda o'zining kuchli ta'siriga ega bo'lgan ayollar uchun ham qaratildi. Islom dini ayol kishiga islom, tavhid, faroiz, uyi, oilasi jamiyat uchun zaruriy barcha ilmlarni o'rganishni farz qildi. Va bu faqat ilm olish bilangina to'ldirilishi mumkin edi. Islom dini kirib kelishi bilan bu narsani amaliy jihatdan qo'llash boshlandi.

Sahoba Abu Said Hudriydan: «Ayollar Payg'ambar (s.a.v.)ga: «Erkaklar sizdan har kuni ilm o'rganishmoqda, bizga ham bir kun ajrating», - deyishdi. Payg'ambar (s.a.v.) bir kunni tayinlab, o'sha kun kelgach, ularga va'z-nasihat aytdilar, ba'zi diniy ishlarni buyurdilar»[4]. Mana shundan so'ng ayollarga alohida xutba qilinadigan bo'ldi.

Payg'ambar (s.a.v.)ning o'rinlari quyidagi sohalarda yaqqol ko'rindi:

1. Ruhiy poklik va ma'naviy ko'mak.

Siyrat va hadis kitoblarida kelganidek, Payg'ambar (s.a.v.) ayollarning savollariga javob qaytarib, ularning ilmlari doirasini nazorat qilar va chiroyli hamsuhbat bo'lishlik, boshqalarni ziyorat qilish, nasihat qilishlari kabilarda ko'ringan. Ayollar imon nima ekanligini tushunganlarida o'zlarida ishonch shakllantirdilar va shu ishonchni shar'iy ilmlarni olishga yo'naltirdilar.

Jamiyatda nima sodir bo'lgan bo'lsa, bu narsa ayollarga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmagan. Bu ularni johiliyat qoldiqlaridan uzoqlashtirish va shariatga itoat etadigan insonni shakllantirishda muhim vazifa bo'lgan.

- Ayollarning turli majlis, munosabatlarda o'z o'rinlarini ko'rsatishlari.

Ayollar uchun ma'naviy muhitning o'rni ilm va bilim olishlarida namuna vazifasini o'tashida ko'rina boshladi. Ayollar uchun ko'p tayanch bo'lgan ishlardan biri: Musulmonlar yig'iladigan jamoat namozlari, hayit kunlari, haj amallarini ado etishda ishtiroklaridir. Bunga Rasululloh (s.a.v.)ning quyidagi gaplariga amal qilgan holda yo'l ochib berdi. Solim ibn Abdulloh otasidan rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.): Birortangizning ayoli (masjidga chiqishga) izn so'rasa, uni qaytarmasin», dedilar[5]. Abdulloh ibn Abu Qatoda Ansoriy otasidan rivoyat qiladi: «Rasululloh (s.a.v.): Men namozni uzun o'qimoqchi bo'lib turaman-da, keyin go'dak yig'isini eshitib, onasiga mashaqqat tug'dirib qo'ygim kelmay, namozimni yengil qilaman», dedilar. Shuning uchun ayollar masjidlarga yosh bolalari bilan kelganlar. Agar bola yig'lasa, Rasululloh (s.a.v.) uning onasiga bo'lgan rahmatlaridan namozni yengillatganlar. Masjidlarda bo'ladigan xutbalarga ayollarning intilishlari Ummu Hishom bint Horisning Payg'ambar (s.a.v.)dan qilgan rivoyati asosida bilinadi: Rasululloh nutq so'zlayotgan edilar. Ummu Hishomning «Qur'ondagi Qof surasining 1-oyati haqida minbarda Rasululloh (s.a.v.) o'qigan xutbada eshitganimchalik ko'p narsani o'rganmaganman» degan so'zi buning yorqin isbotidir. Hozirgi vaqtda ayollarning uy-yumushlari, jamoat ishlari bilan ko'proq mashg'ulligini hisobga olgan holda ayollarning uyda namoz o'qishlari afzal hisoblanadi. Masjidida o'qilgan namozning darajasi yuqori bo'lishiga qaramay, ba'zi narsalarni istisno qilib, ayollarning uyda o'qigan namozlari darajasi ham yuqoridir.

Hayit kunlari Rasululloh (s.a.v.) ayollar, yosh qizlarni u qaysi holatda bo'lmasin, namozda hozir bo'lishga buyurganlar. Faqir ayollarni esa boshqalardan qoloqligi ko'ngliga ozor yetkazmasligi uchun bu narsadan man etganlar. Haj mavsumida ayollar islomning besh ustuni haqida o'zlariga tushunarsiz savollariga javob olganlar. Bundan tashqari haj amallarining tartibi haqida bilmaganlarini o'rgananlar. Rasululloh (s.a.v.)dan hadislar o'rganib, hayotlariga tatbiq qilganlar.

Hadis rivoyati va uni yetkazishda ishtiroklari haqida shuni ta'kidlash joizki, hadislarini o'rganish va o'rgatishning ilk bosqichlarida ayollar ham qatnashganlar. Hadis halol, harom va yaxshi ishlarni bilishda shar'iy manba bo'lganligi uchun ayollar o'zlarini hadisni o'rganish va uni tarqatish bilan shug'ullanuvchilar o'rni ko'ra boshladilar. O'z o'rnida ayollar ulardan hadis yodlash va aniqlikni talab qiladigan din ishlarini yetkazishda mas'ul bo'lganlar. Rivoyatda erkaklar kabi ayollarning o'rinlari quyidagilarda ko'rindi:

- Ayollar erkaklar kabi hadis rivoyatini bo'yinlariga olganlar. Rasululloh (s.a.v.) ayollar dinda mukallaf bo'lganlari uchun ularning ham hadislarini o'rganishlariga, eshitishlariga alohida e'tibor qaratganlar. Qur'onda: «Yaqin qarindoshlaringizni (Alloh azobidan) ogohlantiring!» (Shuaro surasi, 214-oyat)i [6] nozil qilinganida Payg'ambar (s.a.v.) yaqin kishilarini barchasini ogohlantirdilar. Bu borada ayollarga xos ahamiyat berildi. Ko'rishimiz mumkinki,

Rasululloh (s.a.v.) yoshi ulug' erkak va ayollarga murojaat qilib, erkaklar kabi ayollar ham dinda mas'uliyati ekanliklarini bildirib o'tganlar. Zehni o'tkir ayollar bu chaqiriqqa amal qilish bilan javob qaytarishdi. Ulardan eng birinchi Xadicha bint Huvaylid bo'ldi. Ulardan so'ng mo'minlarning onalari, muhojirlar, ansoriya ayollar bunga o'z hissalarini qo'shdilar. Rasululloh (s.a.v.) ularni xursand qilib, ilm olishlariga alohida bir kun ajratdilar.

Ayollar bevosita Rasululloh (s.a.v.) yoki turmush o'rtoqlari, otalari, aka-ukalaridan o'rganib, hadislarini yod olishga jiddiy ahamiyat berganlar. Bu hol Payg'ambar (s.a.v.)ning vafotlaridan keyin ham davom etdi. Ayol kishi erkak kishidan oldinga o'tgan va bilimdonligi bilan undan ustun bo'lgan. Samoma ibn Hazm Qushayriydan qilingan rivoyat: «Oyisha (r.a.)ni ko'rib, undan xurmodan tayyorlangan sharob haqida so'radi. Meni bir habash joriya chaqirib: «Bu haqida yaxshilab so'rab ol. U Rasululloh (s.a.v.)ga xurmodan sharob tayyorlab berar edi» dedi».

-Ayollar Rasululloh (s.a.v.) sunnatlaridan xabardor bo'lish, din ahkomlarini o'rganish, ilmiy masalalarni hayotga tatbiq etishda bahs-munozara bilan erkaklarga sherik bo'lganlar. Ummu Fazl bint Horis odamlar o'rtasida Rasululloh (s.a.v.)ning Arafa kunidagi ro'zalari borasida chiqqan nizoni bartaraf etdi. Ummu Fazl bint Horis (r.a.)dan rivoyat qilinadi: «Bir guruh odamlar arafa kuni uning (Ummu Fazlning) oldida Rasululloh (s.a.v.)ning ro'zalari haqida ixtilof qilib qolishdi. Ba'zilari «U zot ro'zalar», deyishdi, ba'zilari «Ro'za emaslar», dedi. Shunda Ummu Fazl u zot tuyada turganlarida bir qadah sut yuborgan edi, u zot uni ichdilar»[7]. Ibn Hajar aytadi: «Erkaklar va ayollar o'rtasida ilm doirasida bo'ladigan bahs hadisning foydalaridan biridir».

- Ayollar, shuningdek, turli ilmlarni, hadis rivoyatini yetkazishda ishtirok etganlar. Bu holat ularning ilmga bo'lgan qiziqishlaridan yaqqol namoyon bo'lgan. Ilm yoki hadisni yozib berish o'sha vaqtda boshqalarga biror narsani tushuntirishda vositalardan biri bo'lganligi uchun Rasululloh (s.a.v.) ayollarni ilm olishga targ'ib qilganlar. Bunga Shifo bint Abdullohdan rivoyat qilingan hadis dalil bo'ladi. Shuningdek, ba'zi sahobiy ayollarni yozuv xati chiroyli bo'lgani uchun maqtaganlar.

Ayollarning rivoyati haqidagi mavzularda Imom Shavkoniy aytadi: «Olimlarning birortasi ayollardan kelgan xabarlarni ularning ayollik sifati nuqtai nazaridan rad etmagan. Insonlar qabul qilgan bir qancha sunnatlar borki, bir sahobiy ayoldan rivoyat qilingan va bu holat ularning rivoyat ilmidagi nasibasidan bebahra qilmaydi»[8].

Ayollarning faoliyati borasida kibor sahobiyalar, buyuk muhaddislar, olimlar bir qancha ma'lumotlarni keltirib o'tganlar. Masalan Ali ibn Abu Tolib (r.a.) Rasululloh (s.a.v.)ning mavlolari hisoblangan Maymuna bint Sa'ddan hadis eshitgan. Shuningdek, Imom Muhammad ibn Shihob Zuhriy, Imom Molik, Ahmad ibn Hanbal, Imom Sam'oniy va boshqalar o'zlarining kitoblarida ayollar uchun alohida o'rin ajratganlar.

Olimlar Alloh taoloning: «Ey, imon keltirganlar! O'zlarinigizni va oila a'zolarinigizni yoqilg'isi odamlar va toshlar bo'lmish do'zaxdan saqlangiz...» (Tahrim surasi, 6-oyat)[9] oyatiga amal qilib, o'zlarining ahli ayollari va farzandlarining, uning o'g'il yoki qizligi e'tiborga olinmasdan, ilm olishlariga befarq bo'lmaganlar. Rasululloh (s.a.v.)ning o'zlari ham bu borada o'rnak bo'lganlar. Kitoblarda kelgan ma'lumotlar ayollarning diroyat ilmida yuqori o'rinda turishini, hadis ilmlarini yaxshi tushunishi nuqtai nazaridan ekanligini ko'rsatadi. Ayollar uchun kitoblarda alohida o'rin ajratilishining sababi ham shunda. Masalan, Sa'd ibn Abu Vaqqos qizi Oishaga, Anas ibn Molik qizi Ominaga va shu kabi olimlar o'zlaridagi ilmlarni farzandlariga o'rgatish ilan namuna bo'lganlar. Imom Molik aytishicha, biror o'quvchi unga «Muvatto»ni o'qib bersa, ba'zi joyda harf qo'shib yoki kamaytirib aytsa, qizi eshikni taqillatardi. U esa o'quvchiga: «qayta o'qi, xato qilding» derdi. O'qiyotgan kishi qayta o'qib, o'z xatosini topardi[10].

Muhaddis Ibn Hajar Asqaloniy o'z kitoblarida bir qancha ilm yo'lidan yurgan ayollar va roviy ayollar haqida ma'lumotlarni bergan. Ulardan singlisini keltirib o'tgan. Qizi Mavz o'zining tog'asidan ilm olgan. Ayoli Unas ustoz, o'z davrining buyuk kishilaridan bo'lgan Abdurahim Iroqiydan dars eshitgan va bir qator kishilarning taklifiga binoan ijozat olgan. Uning boshqa qizlari ham ilmi bo'lishgan. Yosh vafot etishganligi sababli ota-onasi kabi mashhur bo'lishmagan.

Xulosa. Ilm olish har bir erkak va ayol uchun farz darajasiga ko'tarilgan amallardandir. Inson o'zining axloq-odobi, tarbiyasini faqatgina boshqalardan o'rgangan ilmlari asosidagina sayqallaydi. Ayollarning ilm olishi bugungi kunda yosh avlod tarbiyasida alohida ahamiyat kasb etadi. Islom dini ilm olish borasida ayollarga hech qanday to'siq qo'ymagan. Insonni unda ayollik sifati mujassam bo'lganligi uchun ilmdan chetlashlashtirish, ilm berishda yoki olishda «ayollarga shu ilmning o'zi kifoya» qabilida ish ko'rish yaramaydi. Ba'zi diniy ekstremistik guruhlar ilgari surayotgan g'oyalarning asosi Islom dini ta'limotlarida bu tarzda yoritib berilmagan.

ADABIYOTLAR

1. Мухаммад Абу Захв. Ал-Хадис ва ал-мухаддисун. – Байрут: Дор ал-кутуб ал-илмия, 1984. – Б. 55.
2. Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. Хадис ва ҳаёт. – Т.: Шарқ, 2011. – Ж. 25. – Б. 10-14.
3. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири // Таржима ва тафсир муаллифи: шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: Тошкент ислом университети, 2012. – Б. 597.
4. Имом Бухорий. Саҳиҳ Бухорий. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Ж. 1. – Б. 27-28.
5. Олтин силсила. Саҳиҳул Бухорий. – Т.: Hilol-Nashr, 2013. – Ж. 1. – Б. 644.
6. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири // Таржима ва тафсир муаллифи: шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: Тошкент ислом университети, 2012. – Б. 376.
7. Олтин силсила. Саҳиҳул Бухорий. – Т.: Hilol-nashr, 2013. – Ж. 2. – Б. 492.
8. Мухаммад ибн Али Шавконий. Найл ал-автор шарх мунтаки ал-ахёр. – Байрут: Дор ал-хайл, 1973. – Ж. 8. – Б. 22.
9. Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири // Таржима ва тафсир муаллифи: шайх Абдулазиз Мансур. – Т.: Тошкент ислом университети, 2012. – Б. 560.
10. Қози Иёз. Тартиб ал-мадорик. – Байрут: Дор ал-ҳаят, 1967. – Ж. 1. – Б. 1010.



UDK:1:18:7.01

Azizbek RAXIMOV,
Urganch davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: r.azizbek.90@mail.ru

TDIU Samarqand filiali dotsenti L.Eshonqulov taqrizi asosida

KITOB VA KITOBATCHILIK TARIXINING IJTIMOYIY-FALSAFIY TAHLILI

Аннотация

Insoniyat taraqqiyotining ilk davrlaridan boshlab bugungi kungacha bo'lgan davr mobaynida kitobatchilik sohasining taraqqiyot bosqichlari yoritib berilgan. Kitob va kitobchilik tarixi insoniyatning madaniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi. Kitoblar jamiyatdagi bilimlarni uzatish, fikr almashish va badiiy ijodning muhim vositasidir. Mazkur maqolada kitoblar tarixini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilamiz hamda ularning insoniyat tarixidagi roli haqida mulohaza yuritamiz. Ushbu maqolada kitob va kitobatchilik tarixi ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kitob, kitobatchilik, antik davr, axborot asri, qog'oz, tarix.

СОЦИО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ИСТОРИИ КНИГ И БИБЛИОТЕЧНОГО ДЕЛА

Аннотация

В статье освещаются этапы развития книжной индустрии от самых ранних периодов человеческого развития до наших дней. История книг и книгоиздания является неотъемлемой частью культурного наследия человечества. Книги - важное средство передачи знаний, обмена идеями и художественного творчества в обществе. В данной статье мы анализируем историю книг с социально-философской точки зрения и размышляем об их роли в истории человечества.

Ключевые слова: Книга, библиотечное дело, древность, информационный век, бумага, история.

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE HISTORY OF BOOKS AND LIBRARY STUDIES

Annotation

The stages of development of the book industry from the earliest periods of human development to the present day are highlighted. The history of books and bookmaking is an integral part of the cultural heritage of humanity. Books are an important means of transmitting knowledge, exchanging ideas, and artistic creation in society. In this article, we analyze the history of books from a socio-philosophical perspective and reflect on their role in the history of humanity. In this article, the history of books and bookmaking is analyzed from a socio-philosophical perspective.

Key words: Book, librarianship, antiquity, information age, paper, history.

Kirish. Kitobning paydo bo'lish tarixi yozuvning yaratilishi va shakllanishi jarayoni bilan o'zviy bog'liq. Kitob tuzilishini qadimgi Misr, Rim, Yunoniston va O'rta Osiyoda kishilar tosh, palma daraxti barglari, sopol va boshqa materiallarga yozib o'z fikrlarini qayd etganlar. Oradan ma'lum muddat o'tib, yozuvlar palma barglari rad etilib, ularning o'rmini papirus barglari egallay boshladi. Papirus barglarining qulayligi shunda ediki, u oson qatlanib, ixcham o'ram holiga keltirilardi va o'z sifatini palma barglariga nisbatan uzoqroq saqlab qolardi. Lekin papirus o'simligini hamma joydan topib bo'lmadi. Har bir kitob o'nlab shunday materiallardan tayyorlangan bo'laklardan iborat bo'lib, og'irligi bir necha kg bo'lgan. Yozuv materiali sifatida papirus o'simligi ishlatilishi (miloddan aval 4-3 ming yilliklarda) bilan o'rama kitoblar paydo bo'ldi. Papirus bo'yicha birinchi Misr yozuvi miloddan avvalgi 2400 yilga to'g'ri keladi.

Bunday kitoblarning uzunligi o'rtacha 10 metr atrofida bo'lib, ingichka, yumaloq tayoqlarga o'ralgan va maxsus charm yoki yog'och g'iloflarda saqlangan. Sharq mamlakatlari, Qadimgi Rim va Yunonistondagi ko'pgina nodir asarlar papirusga bitilgan. Miloddan avval II-asrga kelib kitob materiali sifatida pergament (teri)dan foydalanish keng rasm bo'ldi. [1,2].

Dastlab bunday kitob o'rama holda saqlangan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, O'rta Osiyoda, xususan, Xorazmda miloddan avval I-ming yillikning 1-yarmida vujudga kelgan

zardo'shtiylik dinining muqaddas kitoblaridan Avestoning qadimiy nusxasi ham 12 ming mol terisiga bitilgan. Arablarning O'rta Osiyodagi istilosiga qadar (VIII-X-asrlar) u yerda ko'p nodir kitoblar saqlangan kutubxonalar bo'lgan. Lekin ularning ko'pi bosqinchilik urushlari natijasida yo'qotib yuborilgan.

Adabiyotlar tahlili. Jaloliddin Rumi ilmiy merosini o'rganish bo'yicha G'arbiy dunyoda ko'plab olimlar ish olib borgan. Ulardan ba'zilari quyidagilardir:

Antuan Galland: Fransuz olimi bo'lib, XVIII asrda Rumiyning asarlarini fransuz tiliga ilk marotaba tarjima qilgan, Fridrix Ruckert: Nemis tilshunosi bo'lib, XIX asrda Rumiyning „Masnaviy“ asaridan ayrim qismlarni nemis tiliga tarjima qilgan, Kolin Turnbull: Amerikalik olim bo'lib, uning Rumi she'rlariga bag'ishlangan kitobi „The Essential Rumi“ butun dunyo bo'ylab mashhurlikka erishgan, Andrew Harvey: Ingliz tarjimon va tadqiqotchi bo'lib, Rumi she'riyatini ingliz tiliga samarali tarjima qilgan, Coleman Barks: Amerikalik shoir va tarjimon bo'lib, Rumi asarlarining zamonaviy talqinlarini taqdim etgan, Reynhold Niklborg: Amerikada faoliyat yurituvchi nemis olim bo'lib, Rumi falsafasini zamonaviy psixologiya bilan bog'lashni o'rgangan, Jeyms Van der Meyer va Djon Makdonald: AQShlik olimlar bo'lib, Rumi ijodining ma'naviy jihatlarni o'rganishga jiddiy e'tibor qaratishgan.

Ushbu olimlar Jaloliddin Rumi merosini o'rganishda katta hissa qo'shgan va uning asarlarini jahon miqyosida ommalashtirishga muvaffaq bo'lishgan.

Insoniyat sivilizatsiyasining ajralmas qismiga aylangan kitoblarning paydo bo'lishi tarixi uzoq va bosqichma-bosqich taraqqiy etgan qiziqarli jarayon bo'lib, bu buyuk ixtiroga ko'plab xalqlar o'z hissalarini qo'shishgan.

Qadimdan yozish uchun eng qulay va mos material qog'oz hisoblangan. U Xitoyda paydo bo'lgan, u yerda milodiy 105 yilda Cai Lun tomonidan ixtiro qilingan. Keyinchalik qog'oz ishlab chiqarish yaxshilandi va XI-XII asrlarda Yevropada qog'oz paydo bo'ldi, bu xarajatlarni kamaytirdi va kitob biznesini soddalashtirdi. Asrlar davomida kitob yaratish jarayoni uzoq va mashaqqatli bo'lgan, shuning uchun u noyob va qimmatbaho buyum edi. Ish, qoida tariqasida, monastirlarda amalga oshirildi. XII-XIII asrlarda birinchi Yevropa universitetlari shakllandi va kitoblarga ehtiyoj ortib bordi, bu ularni ishlab chiqarish texnologiyasini o'zgartirishni talab qiladi. O'rta asrlarda Yevropada yangi usul paydo bo'ldi - (ksilografiya) yog'och o'yish. Bundan ancha oldin qadimgi xitoylik hunarmandlar bosmaxona texnikasini, ya'ni tosh, fil suyagi (jasper) yoki yog'och bo'lagiga o'yilgan bo'rta tasvirlarni qog'ozga bosib chiqarishni o'ylab topishgan.

Qog'ozning kashf qilinishi kitobning tarixida yangi davr ochdi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, 650 yillardayoq Samarqandda qog'ozli kitoblar bo'lgan. Uning sahifalariga turli miniatyuralar, hoshiyalariga bezaklar ishlana boshladi. Astasekin hattotlik (kalligrafiya), muqovasozlik kabi kasblar ajralib chiqdi. Ayniqsa, O'rta Osiyoda o'rta asrlarda hattotlik san'ati keng rivojlandi. Mashhur hattotlarning kup avlodlari kitob tayyorlash usulini materiallar, siyoh, xat ko'chirish texnikasini takomillashtirib bordilar. X-XII asrlarda Movarounnahrda muayyan soxa sifatida shakllangan kitobat san'ati XIV-XV-asrlarda yangi taraqqiyot bosqichiga kutarildi. Har bir kitob qog'ozidan tortib muqovasisigacha, siyohdan to buyoqlari-yu zarhaligacha ma'lum meyoridagi modda, reja va qoida asosida tayyorlanadi, hatto kitobdan xushbo'y hid anqib turishi uchun ba'zan siyohga gulob yoki anbar qo'shildilar. Qo'lyozmalar nafis husnixat, zarafshon (tilla suvi sochish), suvli buyoqlar bilan hoshiyaga nafis naqshlar ishlab badiiy bezatildi. XV-XVI-asrlarda bir qancha iste'dodli hattot, musavvir, lavvohlar (Abdurahmon Xorazmiy, Sultonali Mashqadiy, Sultonali Xandon, Mirali qilqalam va boshqalar) yetishdi [3].

Tahlil va natijalar. Kitob mutolaa qilish kitob paydo bo'lgandan buyon rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Kitobni nihoyatda qadrlagan o'tmish ota-bobolarimiz mutolaaga alohida e'tibor qaratishgan. O'tmishda lavh degan mutolaa qilish vositasi bo'lib, u yog'ochdan g'oyat nafislik bilan tayyorlangan. Lavh yig'ma shaklda bo'lib, mutolaadan so'ng u avaylab tayinli joyga olib qo'yilgan. Kitobni lavh ustiga qo'yib o'qish kitobxonga qulaylik tug'dirgan, o'qish jarayonida tana bir xilda tutib turilgan. Bu ko'zning tez toliqib qolishiga yo'l qo'ymagan. O'tmishda ham katta shaharlarda, hukmdorlarning tasarrufida ming-minglab nusxada kitoblar saqlanadigan va foydalaniladigan kutubxonalar bo'lgan. Alisher Navoiy davrida Husayn Boyqaro saroyida shunday kutubxona bo'lgan.

Unga Sohibdoro degan kishi rahbarlik qilgan. Z.Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe'" asarida Alisher Navoiyning Sohibdoroqa nisbatan alohida hurmat ko'rsatganligi aytiladi. Har bir qo'lyozma kitob bir necha mutaxassis qo'lidan o'tardi. 1425-1429 yillarda Ja'far Boysunquriy tomonidan Abulqosim Firdavsiyning mashhur "Shohnoma" asari ko'chirilib, 20 ta turli mazmundagi rangdor miniatyuralar bilan bezatilgan. Noyob san'at asari sifatida bu kitob Tehron muzeyida saqlanadi. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy saroy kutubxonasi ham o'z davrida mashhur bo'lgan. Navoiy badiiy qo'lyozma san'atini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Uning bevosita ko'magi bilan Behzod, Sultonali Mashhadiy, Shoh Muzaffar kabi o'nlab kitobsoz ustalar yetishib chiqdi. Bu

ustalarning uslub va an'analari keyingi yillardagi kalligrafiya san'atining asosini tashkil etdi.

Teriga ishlangan noyob kitoblardan biri – Mushafi Usmon Qur'onidir. Qur'oni karimning bu nusxasi 644-656 yillarda xalifa Usmon ko'rsatmasi bilan Muhammad (sav)ning kitoblari Zayd ibn Sobit, Amir ibn al O's va Hishom ibn Hakimlar tomonidan kufiy xatida yozilgan. Mazkur qo'lyozma kitobi Amir Temur tomonidan Samarqandga olib kelingan. Jami 353 varaq, hajmi 68x53x22 sm. O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanadi.

Hozirgi paytda dunyodagi eng katta kitob bu – "Muhammad (s.a.v.)" deb nomlangan bo'lib, og'irligi 1,5 tonnani tashkil etadi. Kitob 429 sahifadan iborat. Uni 9 oy davomida 50 kishi tayyorlagan. 2,7 million dollar sarflangan. Kitob Dubaydagi savdo markazida saqlanadi.

O'sha davirda kitob tayorlash noyob san'at darajasiga ko'tarilishida, bir nechta hunarmand ustalarning mexnati talab qilingan. Avvalo sifatli qog'oz, siyoh, turli tabiiy ranglar, tilla zarhalini tayyorlovchilar, hattotlik (kalligrafiya), muqovasozlik, hoshiyalariga bezaklar beruvchilar, naqqoshlar, miniatyura ishlovchi musavirlar va boshqa ko'plab hunarmand kasb egalari mehnati orqali kitob dunyo yuzini ko'rgan, shuning uchun bu yagona san'at asari sifatida juda qadrlangan. Yaxshi bezatilib nashr etilgan kitob, nodir surat kabi san'at durdonasidir.

Bugungi zamonaviy kitobxonlik madaniyatining inson faoliyati mahsuli sifatidagi eng muhim jihati shundaki, uning barcha elementlarining yaratilish jarayonlari to'g'risida kerakli ma'lumotlarga ega ekanligi natijasida hosil bo'lgan vorisiylik hamda zamonaviylikning diskus ahamiyati bilan o'zaro bog'liqligida namoyon bo'lishidadir. Zamonaviy kitobning sinkretizmi barcha sohalar va jarayonlarning tarixiy birligi, bu sohalar va o'zini qayta ishlashni yuqori darajaga ko'taradigan ijodiy birlikda aks etishi bilan belgilanadi. Bugungi globallashuv davrida kitob chop etish bilns bog'liq nashriyot sanoatining zamonaviy nomenklaturasi ikki mingdan ortiq turli lavozim va mutaxassisliklarni o'z ichiga oladi va ko'pchilik mutaxassislar kitobni ishlab chiqishning tarixiy tajribasini o'zlashtirish zarurligini his qilishadi.

Kitoblarning kelib chiqishi qadimgi davrlardan boshlanadi. Dastlabki yozuv shakllari qadimgi Misr, Mesopotamiya va Xitoy kabi mintaqalarda paydo bo'lgan. Bu davrdagi asarlar asosan toshlarga yoki papyrusga yozilgan edi. Keyinchalik esa parchalar, pergamentlar va qog'ozga o'tildi.

Kitoblarning rivojlanishi bilan birga madaniyat va fan ham rivojlandi. Masalan, Yunonistonda Platon va Aristotel asarlari orqali falsafaning asoslarini shakllantirganlar. Shuningdek, Islom dini davrida xalifalik davrida ilmiy tadqiqotlar olib borilib, ko'plab asarlar tarjima qilingan va yangi asarlarni yaratganlar. [5,6].

Kitobchilik nafaqat ma'lumotni saqlash vositasi sifatida xizmat qilgan balki, jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Kitoblar orqali turli xalqlar o'rtasida aloqa, madaniyat almashinuvi amalga oshirilgan. Ular orqali ilmiy kashfiyotlar, badiiy asarlar, diniy qarashlar tarqalib borgan.

Shuningdek, kitobchilik madaniyati ijtimoiy tenglik va erkinlikning rivojlanishiga hissa qo'shgan. Masalan, Yevropada renessans davri davomida keng tarqalgan matbaachilikning rivojlanishi tufayli ommaviy kitob tarqatilishi boshlangan. Natijada, oddiy aholi ham kitoblardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Kitoblar insonning ongida chuqur ta'sir qoldiradi. Ular orqali kishilar dunyoqarashini kengaytiradi, tafakkur doirasini kengaytirish mumkin. Kitoblar insonning ichki olamidagi voqealarni ifodalaydi va inson hayotidagi turli qiyinchiliklarni yengishda yordam beradi.

Kitob umr yo‘llarini yorituvchi so‘nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo‘luvchi sodiq do‘st. Insonning ma‘naviy kamolotini ta‘minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo‘q. Shu bois azal-azaldan ma‘rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o‘qishga, undan ilmu odob sirlarini o‘rganishga chorlab kelishgan.

Shuningdek, kitoblar insonning shaxsiyati shakllanishiga ham sezilarli darajada ta‘sir qiladi. Ular orqali odamlar o‘zlarining qiziqishlari, maqsadlari va qadriyatlarini aniqlaydi.

Xulosa. Bugunning yoshlarini yot g‘oyalardan himoya qilish, ularning ma‘naviy salohiyatini yanada yuksaltirish, oilaviy hayotga tayyorlash pirovard natijada jaxon standartiga javob bera oladigan moslashuvchan, barkamol avlodni tarbiyalash kabi bir qator vazifalarimizni bajarishimizda keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Shu ma‘noda Klod Gelvettsiyning “Jaholat homiylari aslida insoniyatning eng

ashaddiy dushmanlaridir” deya ta‘kidlagan fikrlari o‘rinlidir. Demak, kitobni sevmagan inson jaholatga yuzlanadi va o‘zi uchun barkamollik eshiklarini yopib qo‘yadi. Bugun mamlakatimizda ana shu ezgu tamoyillar ulug‘lanayotganligi bejiz emas. Zotan, XXI asr - aqlu zakovat asri, intellektlar davri. Kitob - insoniyat tomonidan yaratilgan buyuk ixtiro. U barcha ma‘naviy boyliklarni avloddan-avlodga yetkazuvchi, barkamol avlodni tarbiyalashdagi vosita hamdir. Inson faqat ilmga tayanib, dunyo sirlarini ochib boradi. Shu nuqtai nazardan bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri “kitobsevarlar” qatlamini kengaytirish va shu asosda barkamol avlodni kamol toptirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, kitoblar tarixining ijtimoiy-falsafiy tahlili ularning insoniyat taraqqiyotidagi ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Kitoblar insoniyatga bilim berishdan tashqari, ularni madaniy jihatdan rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Hozirgi kunda elektron kitoblarning rivojlanishi ham ushbu jarayonni yanada tezlashtiradi va ommalashtiradi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrdaqi № 781-sonli Qarori.
2. Mirziyoyev Sh. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – T.: O‘zbekiston, 2023.
3. Ziganshina N.A. Musavvir va kitob. – T., 1987. B. – 73.
4. Vosifiy Zayniddin, Badoe' ul-vaqoe, “Navoiy zamondoshlari xotirasida”, Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 1992. - B.224.
5. Abu Rayhon Beruniy. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” // Tarjima va sharh: Sh. Hakimova. Toshkent: Fan, 1968 yil.
6. Guttenberg, Yan. “Matbaachilik san’atining tarixi” // Tarjima va sharh: L. A. Kalugina. Sankt-Peterburg: Azbuka-Klassika, 2003 yil.
7. Xoliqov, Yunus Ortiqovich. “Yangi O‘zbekistonda bag‘rikenglikni rivojlantirishda millatlararo aloqalarning mohiyati”. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.Special Issue 23 (2022): 764-774.



UDK: 37.091.3:378.147

Karima RAXMANBERDIYEVA,
Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti dotsenti, PhD

Pedagogika fanlar doktori, professor X.Xudoyqulov taqrizi asosida

“LOYIHA” METODINI AMALGA OSHIRISHNING TAMOYILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida keng qo'llanilayotgan “Loyiha” metodining asosiy tamoyillari yoritiladi. Loyiha metodi o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, muammoni hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan innovatsion pedagogik yondashuvdir. Maqolada ushbu metodni samarali amalga oshirishga oid tamoyillar — maqsadning aniqligi, o'quvchi faoliyatining mustaqilligi, hamkorlikda ishlash, amaliy natijaga yo'naltirilganlik, jarayonning bosqichma-bosqich tashkil etilishi hamda baholashning shaffofligi kabi asosiy jihatlari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, loyiha metodi o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishda tutgan o'rnini, zamonaviy ta'lim talablariga mosligi va o'qitish jarayonida qo'llashning afzalliklari amaliy misollar asosida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: loyiha metodi, pedagogik texnologiya, tamoyillar, amaliy faoliyat, mustaqil ta'lim, integratsiya, muammoli vaziyat, kreativ fikrlash, hamkorlik, kompetensiya, baholash, o'quv jarayoni, innovatsion metodlar.

PRINCIPLES OF IMPLEMENTING THE ‘PROJECT’ METHOD

Annotation

This article highlights the main principles of the widely used “Project” method in the educational process. The project method is an innovative pedagogical approach aimed at developing students’ independent thinking, creative problem-solving, and analytical skills. The article provides a detailed analysis of the principles for effective implementation of this method — clarity of objectives, independence of student activity, collaborative work, focus on practical results, step-by-step organization of the process, and transparency in assessment. In addition, the article demonstrates the role of the project method in developing students’ competencies, its alignment with modern educational requirements, and the advantages of applying it in the teaching process through practical examples.

Keywords: project method, pedagogical technology, principles, practical activity, independent learning, integration, problem-based situations, creative thinking, collaboration, competency, assessment, educational process, innovative methods.

ПРИНЦИПЫ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТНОГО МЕТОДА


Аннотация

В данной статье освещаются основные принципы широко применяемого в образовательном процессе «проектного» метода. Проектный метод представляет собой инновационный педагогический подход, направленный на развитие у студентов самостоятельного мышления, творческих способностей и навыков решения проблем. В статье подробно анализируются принципы эффективного внедрения этого метода - четкость целей, независимость деятельности студента, совместная работа, ориентация на практический результат, поэтапная организация процесса и прозрачность оценки. Кроме того, демонстрируется роль проектного метода в развитии компетенций студентов, его соответствие современным требованиям образования и преимущества применения в учебном процессе на основе практических примеров.

Ключевые слова: проектный метод, педагогическая технология, принципы, практическая деятельность, самостоятельное обучение, интеграция, проблемные ситуации, креативное мышление, сотрудничество, компетенция, оценка, учебный процесс, инновационные методы.

Kirish. O'qituvchi “Loyiha” metodini qo'llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni talabalar imkoniyatlariga moslashtirishi, ularni loyiha metodi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib borishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlashi lozim.

“Loyiha” metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud.



Ingliz tilini o'qitish jarayonida joriy etilayotgan loyihalash metodi asosida quyidagi natijalarga erishish nazarda tutiladi:

umumiy tarzda olinganda ta'lim maqsadlari, uning mazmuni, metodlari, texnologiyasi, tashkil qilish shakllari va ta'lim tizimini boshqarishdagi yangilanish va ijobiy o'zgarishlar;

konkret pedagogik faoliyatni tashkil qilishda pedagogning har kunlik faoliyatidagi tub o'zgarishlar, xususan chet tilini o'qitish bo'yicha ta'lim maqsadlari, uning mazmuni, metodlari, texnologiyasi, darsni va o'qitish jarayonini tashqil qilish shakllari va ta'lim jarayonini boshqarishdagi, o'quv-ta'limiy jarayonni yangi mazmunda qayta shakllantirish va tashkil qilishdagi barcha ijobiy yangilanish va o'zgarishlar;

o'quv jarayonini yangi mazmundagi zamonaviy o'quv rejalari, o'quv dasturlari, o'quv metodik ishlanmalari, darsliklar, metodik ko'rsatmalar, o'quv qo'llanmalari, barcha metodik ishlanmalarning elektron ko'rinishlari bilan ta'minlash imkoniyatiga egaligi, ma'lumotlarning transparentligi: ingliz tilini o'qitish tizimiga milliylik va umumbashariylik tamoyillarining singdirilishi; o'quv jarayonida o'qituvchi va talaba faoliyatini baholash va bilimlarni nazorat qilish, ular munosabatlarini yakdillik asosida yagona maqsad, ya'ni sifatli ta'lim berish va sifatli ta'lim olish natijaviyligiga erishish;

ingliz tilini o'qitishda ta'lim mazmunini demokratlashtirish, liberallashtirish, munosabatlarni teng huquqli qilishga yo'naltirish va boshqalar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Loyiha metodi ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil bilish faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishga qaratilgan samarali pedagogik texnologiyalardan biri sifatida ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarda mazkur metodning nazariy asoslari, amaliy qo'llanilishi hamda ta'lim samaradorligini oshirishdagi pedagogik imkoniyatlari keng yoritilgan.

Loyiha metodining shakllanishi amerikalik faylasuf va pedagog J. Dyui nomi bilan bog'liq bo'lib, uning pragmatizm nazariyasi ta'limni o'quvchining faoliyati va shaxsiy tajribasiga tayangan holda tashkil etish g'oyasini ilgari suradi. Dyui ta'lim jarayonida bilim tayyor holda berilmasdan, balki muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonida o'zlashtirilishini ta'kidlagan. Ushbu yondashuv loyiha metodining metodologik poydevorini tashkil etadi.

Keyinchalik loyiha metodi V. H. Kilpatrik tomonidan yanada rivojlantirilib, ta'lim oluvchilarning mustaqil faoliyatiga asoslangan o'qitish shakli sifatida ilmiy asoslab berildi. XX asr boshlarida mazkur metod rus pedagogikasida ham keng tarqaldi. V. N. Shulgin, M. V. Krupenina, B. V. Ignatyev kabi olimlar loyiha metodini ta'limni hayot bilan bog'lash, o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni amaliy faoliyatga tayyorlash vositasi sifatida baholaganlar.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda loyiha metodi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv va interfaol o'qitish texnologiyalari bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. R. B. Vendrovskaya, V. V. Guzeev, Ye. S. Zair-Bek, O. S. Kruglova, N. B. Krilova, I. Yu. Malkova, Yu. S. Tyunnikov kabi olimlar loyihaviy o'qitishni bilish, tadqiq etish, loyihalash va natijalarni baholashga asoslangan yaxlit didaktik tizim sifatida talqin qiladilar.

Oliy ta'lim tizimida chet tillarini o'qitishda loyiha metodidan foydalanish masalalari Yevropa Kengashining "Chet tilini egallashning umumyevropa kompetensiyalari" (CEFR) talablari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilinadi. Ushbu hujjatda ta'lim oluvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil o'rganish va real muloqotga tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangani loyiha metodining dolzarbligini yanada oshiradi.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham loyiha metodining mustaqil ta'limni tashkil etishdagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Xususan, loyihaviy yondashuv talabalarining o'quv-bilish motivatsiyasini oshirishi, axborot bilan ishlash, tahlil qilish va hamkorlikda faoliyat yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Shu tariqa, mavzuga oid adabiyotlar tahlili loyiha metodining nazariy va amaliy jihatdan puxta ishlab chiqilgan, zamonaviy ta'lim talablariga mos va mustaqil ta'limni samarali tashkil etish imkonini beruvchi pedagogik texnologiya ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Oliy ta'lim tizimida chet tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash"ning xalqaro me'yorlari (CEFR – Common European Framework of Reference) tatbiq etilayotganligi ham o'z navbatida talabalar uchun faol muloqot muhitini yaratish asosida ularning muloqot madaniyatini rivojlantirishga imkon beradigan pedagogik shart-sharoitni hosil qiladi. Shunga ko'ra OTMga kirishda CEFR va IELTS (International English Language Testing System) mavjudligini inobatga olish joriy etildi.

Ingliz tili o'qituvchisidan har bir ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini olib borishda quyidagi pedagogik talablar bajarilishi talab etiladi:

- talabalar o'rganilayotgan chet tiliga doir avval olgan bilimlarini tartibga solish;

- ma'ruza materiallarini taqdim etishda muammoli pedagogika va interfaol usuldan keng foydalanish;

- materiallarni tayyorlashda o'quv materiallarining aniq muammo asosida pedagogik jarayonga kiritilishiga e'tibor qaratish;

- muammoning ilmiy-nazariy va tarixiy ta'rifi ishlab chiqish;

- muammo doirasida talabalar diqqatini jamlashga erishish;

- muammoli o'rinlarga nisbatan talabalar munosabatini to'g'ri shakllantirish;

- muammo yechimiga doir pedagogik fikrlar koordinatsiyasini berish orqali talabalar bilimlarini nazorat qilish;

- muammo tahlili davomida darsning turli nazariy, ilmiy, tarixiy, faktlarga asoslangan ma'lumotlarining mustahkamlanishi va takrorlanishiga erishish;

- muammoning ko'nikma sifatida tafakkur jarayonida mustahkam o'rnatilishi uchun uy vazifalari va ularning tahlilini ishlab chiqish, yechimlarni talabalar tomonidan bajarilishini ta'minlash;

- talabalarni keng ravishda chet tili ta'lim jarayoniga — dars doirasida ham, darsdan tashqari faoliyatlarda ham jalb qilish.

Oliy ta'lim mazmunida ingliz tilidan tanlangan o'quv materiallari auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar unumdorligi hamda o'qitish samaradorligini oshiradi. O'qitish metodlarini tanlashda o'qituvchi ta'limning aniq sharoitida eng kam vaqt sarflab, o'quv-tarbiya vazifalarining samarali hal etilishiga qaratilgan eng ma'qul usulni tanlashi maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, OTMlarda ingliz tilini o'qitish jarayoni Davlat talablari asosida belgilangan ta'lim mazmuni, maqsadi va tarkibiy tuzilishi asosida tashkil etilishi;

- talabalarda ingliz tili o'quv kursining ilmiylik elementlari singdirilgan poydevorini shakllantirishi;

- o'quv faniga bo'lgan qiziqishni oshirishi;


- talabalarda ingliz tilida o'qish, yozish, tinglab tushunish va og'zaki nutqni takomillashtirishi;

- ijodiy fikrlash malaka va ko'nikmalariga asos solishi lozim.

Ingliz tili bo'yicha davlat talablari, mavjud adabiyotlar, dastur va o'quv rejalari tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qitish metodlari va vositalarini tanlashda, ayniqsa, nazariy bilimlarni mustahkamlash, fanga qiziqish uyg'otish, fan mazmunini

bo'lajak kasb bilan bog'lashda amaliy mashqlarni talabalar uchun taqdim etish tavsiya etilgan. Biroq, amaldagi darsliklarda ko'rsatilgan maqsadga erishish uchun bajariladigan amallar ketma-ketligi bo'yicha ijrochiga aniq ko'rsatmalar har doim ham berilmaydi. Shu sababli ingliz tilidan mashg'ulotlarni loyihalashda muhim bo'lgan qarashlar, yondashuvlar va metodikalar o'rganildi.

O'quv jarayonida loyihalash texnologiyalaridan foydalanish ingliz tilini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga



1-bosqich. Avval berilgan o'quv materialini - ya'ni matn ko'zdan kechiriladi.

2-bosqich. Mundarija bilan tanishiladi. Matn bo'limlari ko'zdan kechiriladi. Keyin savollar tuziladi, masalan: "Men matndan nimani o'rganishim lozim?" yoki "Matndagi qaysi ma'lumotlar men uchun muhim?"

3-bosqich. Talaba matn yoki o'quv qo'llanmasining qaysi bo'limida savollarga javoblarni topish mumkinligini aniqlaydi. Ba'zan savolga javob butun matnda emas, balki uning ma'lum bir qismida bo'ladi.

4-bosqich. Matn o'qiladi va savollarga javoblar topilib boriladi. Buni turli chizmalar yoki sxemalar orqali amalga oshirish mumkin.

5-bosqich. Tuzilgan savollarga javoblarni aniq shakllantirish yoki yozib chiqish amalga oshiriladi.

6-bosqich. O'quv materialini asosida olingan bilimlar umumlashtiriladi. Ushbu metod mustaqil o'rganishni tizimli va puxta tashkil etadi. Talabalar matn mustaqil o'rganish, tahlil qilish va ma'lumotlarni saralashni o'rganadilar.

Bundan tashqari boshqa metodlar ham mavjud bo'lib, ular individual o'rganishdan tashqari o'rgatishni ham nazarda tutadi. Zig-zag va HAITI metodlari shular jumlasidan.

ega. Ta'lim jarayonida loyihalash texnologiyalarining qo'llanilishi taraqqiyoti o'z tarixiga ega bo'lib, bunda amerikalik olim J. Dyuning pragmatizm nazariyasi alohida o'rin tutadi.

Talaba ingliz tilidagi matn quyidagi tushunchalar ketma-ketligida anglashga intilishi lozim:

Tadqiqot davrida talabalarning ingliz tilini mustaqil o'rganish jarayoniga Ufalaz metodi tatbiq etildi. Ushbu metod oltita bosqichdan iborat:

Zig-zag texnikasi katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida o'zlashtirish zarur bo'lganda qo'llaniladi. Bu metodning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- katta hajmdagi o'quv materialini batafsil va qisqa muddatda o'zlashtirish;

- matndan asosiy ma'lumotlarni ajratish va tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- guruhda ishlash malakasini shakllantirish.

Zig-zag texnikasi "o'rgan va o'rgat" tamoyiliga asoslanadi. Metod nafaqat auditoriyada, balki auditoriyadan tashqarida ham qo'llanilishi mumkin.

Xulosa. Metod bo'yicha guruh teng miqdordagi kichik guruhlar bo'linadi (masalan: 4 kishilik 3 ta guruh). Har bir guruhda ishtirokchilarga 1, 2, 3 raqamlar tarqatiladi. Keyin barcha 1-lar, 2-lar, 3-lar alohida guruh bo'lib birlashadi. Har bir yangi guruhga turlicha o'quv materialini beriladi. Ularni o'rganib bo'lgach, talabalar dastlabki guruhlariga qaytib, o'z o'rgangan qismlarini guruhdoshlarga tushuntiradilar. Shu orqali ular "o'qituvchi" roliga ko'tariladilar.

ADABIYOTLAR

1. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии [Текст] /С.Л. Рубинштейн. – СПб: Питер, 2003. –705 б.
2. Выготский Л. С. Педагогическая психология. – М.: АСТ, 2005. – С.672 .
3. Рубинштейн С. Л. Проблемы общей психологии. – М.: Издательство «Педагогика», 1973.– С. 424.
4. Ронзин Д.В. Собеседник: партнер или объект для манипуляций? //Научно-информационный бюллетень Ленинградского ин-та ядерной физики АН СССР, 1991.- №3. С.28-35.



UDK: 378.14:37.013

Roza REYMBAEVA,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali katta o'qituvchisi, PhD

Raya ERNAZAROVA,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o'qituvchisi

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Nukus filiali

Muhammadali QURBANIYAZOV,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali talabasi

PhD, dotsent S.Toylibaev taqrizi asosida

PEDAGOG MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI

Аннотация

Maqolada zamonaviy sharoitda pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari tahlil etiladi. Kompetensiyaviy yondashuv, "oliy ta'lim – ilm-fan – ishlab chiqarish" integratsiyasi, raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish, dual va amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, pedagogik ta'lim mazmunini xalqaro standartlar asosida yangilash hamda pedagog kadrlarning kasbiy va shaxsiy kompetentligini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimini natijaga yo'naltirilgan, kompetensiyaga asoslangan va innovatsion ta'lim modeli asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: pedagog kadrlar, kompetensiyaviy yondashuv, professional ta'lim, dual ta'lim, raqamli texnologiyalar, kasbiy kompetentlik, pedagogik ta'lim, innovatsion ta'lim.

MODERN DIRECTIONS FOR IMPROVING THE SYSTEM OF TRAINING PEDAGOGICAL SPECIALISTS

Annotation

The article analyzes the main directions for modernizing the system of training pedagogical specialists in contemporary conditions. It highlights such key issues as the competency-based approach, the integration of "higher education – science – industry," the introduction of digital educational technologies, dual and practice-oriented education, updating the content of pedagogical education on the basis of international standards, as well as the development of professional and personal competencies of pedagogical personnel. The research findings indicate the necessity of improving the system of training pedagogical specialists on the basis of a results-oriented, competency-based, and innovative educational model.

Keywords: pedagogical personnel, competency-based approach, professional education, dual education, digital technologies, professional competence, pedagogical education, innovative education.

СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ СПЕЦИАЛИСТОВ

Аннотация

В статье анализируются основные направления модернизации системы подготовки педагогических специалистов в современных условиях. Освещаются вопросы компетентного подхода, интеграции «высшее образование – наука – производство», внедрения цифровых образовательных технологий, дуального и практико-ориентированного обучения, обновления содержания педагогического образования на основе международных стандартов, а также развития профессиональной и личностной компетентности педагогических кадров. Результаты исследования показывают необходимость совершенствования системы подготовки педагогических специалистов на основе результативно-ориентированной, компетентной и инновационной модели образования.

Ключевые слова: педагогические кадры, компетентный подход, профессиональное образование, дуальное обучение, цифровые технологии, профессиональная компетентность, педагогическое образование, инновационное образование.

Kirish. Hozirgi globallashuv va ilmiy-texnik taraqqiyotning jadal rivojlanishi sharoitida jamiyatning barcha sohalarida, ayniqsa, ta'lim tizimida raqobatbardosh, kreativ fikrlovchi, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ushbu jarayonda pedagog mutaxassislarning kasbiy salohiyati, metodik mahorati hamda innovatsion faoliyatga tayyorligi ta'lim sifatining hal qiluvchi omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki jamiyat taraqqiyoti, inson kapitalining rivoji va barkamol avlodni tarbiyalash bevosita pedagog kadrlar tayyorlash tizimining samaradorligiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, pedagog kadrlarni tayyorlash mazmunini xalqaro

standartlar asosida yangilash, ta'lim jarayoniga innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim-ilm-fan-ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida kadrlar tayyorlashning yangi modelini joriy etish davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berilmoqda.

Zamonaviy pedagog mutaxassis nafaqat o'z fanini chuqur biluvchi, balki pedagogik va psixologik bilimlarga ega, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana oladigan, xorijiy tillarni egallagan, innovatsion fikrlovchi hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishga intiluvchi shaxs

sifatida shakllanishi zarur. Shu bois pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish, o'quv jarayonini natijaga yo'naltirilgan, kompetensiyaga asoslangan va amaliyot bilan uzviy bog'langan holda tashkil etish muhim ilmiy-pedagogik muammo sifatida dolzarblik kasb etmoqda.

Mazkur maqolada pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirishning zamonaviy yo'nalishlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, raqamli texnologiyalarni qo'llash, dual ta'lim elementlaridan foydalanish hamda pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning samarali mexanizmlari yoritiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish masalasi so'nggi yillarda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng miqyosda tadqiq etilmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilgan izlanishlar pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, ta'lim jarayonini natijaga yo'naltirish masalalariga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Respublikamiz olimlaridan N.A. Muslimov, A.R. Xodjabaev, M.M. Xolmuhammedov, Sh.S. Sharipov, S.Yu. Ashurova, Z.K. Ismailova, O'Q. Tolipov, D.M. Fayzullaeva, R.Q. Choriyev va boshqalar o'z tadqiqotlarida pedagog kadrlar tayyorlash tizimining metodologik asoslarini, kompetensiyaviy yondashuvning mazmun-mohiyatini hamda kasbiy kompetentlikni shakllantirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ularning ilmiy ishlarida ta'lim mazmunini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, pedagog shaxsining kasbiy-axsiy sifatlarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Xususan, N.A. Muslimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari asoslab berilgan. A.R. Xodjabaev hamda Sh.S. Sharipovning ilmiy ishlarida esa pedagogik ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish jarayonini loyihalash va ta'lim natijalarini baholash muammolari tahlil etilgan. Z.K. Ismailova va D.M. Fayzullaevlarning tadqiqotlarida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining ahamiyati ochib berilgan.

Xorijiy olimlar – J. Dewey, B. Bloom, M. Fullan, L. Darling-Hammond, G. Bereiter, C. Scardamalia va boshqalarning tadqiqotlarida pedagogik ta'limni modernizatsiya qilish, o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishning uzluksiz modeli, refleksiv faoliyatga tayyorlash, ta'limda raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlarni qo'llash masalalari chuqur tahlil qilingan. Ularning asarlarida zamonaviy pedagog shaxsini shakllantirish jarayoni ijodkorlik, tanqidiy tafakkur, hamkorlik va raqamli savodxonlik kabi kompetensiyalar bilan uzviy bog'langan holda talqin etiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha salmoqli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ta'lim mazmunini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish, ta'lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasini amaliy jihatdan kuchaytirish, pedagog kadrlarning raqamli va innovatsion kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish masalalari hanuz dolzarb ilmiy-pedagogik muammo bo'lib qolmoqda. Shu sababli mazkur yo'nalishda kompleks yondashuv asosida yangi ilmiy-tadqiqotlarni olib borish zarurati saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirishning zamonaviy yo'nalishlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks metodologik

yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqot metodologiyasining nazariy asosini kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, integrativ yondashuv hamda tizimli yondashuv tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini uzluksiz rivojlantirish, ta'lim mazmunini va natijalari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, nazariy tahlil, taqqoslash, sistemalashtirish, umumlashtirish metodlari orqali mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat ta'lim standartlari hamda ilg'or xorijiy tajribalar o'rganildi. Ushbu metodlar pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimining mavjud holatini aniqlash va uning rivojlanish istiqbollari belgilashga xizmat qildi.

Empirik tadqiqot bosqichida kuzatish, suhbat, anketa-so'rov, pedagogik diagnostika, tajriba-sinov metodlari qo'llanildi. Ushbu metodlar orqali bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasi, ularning innovatsion faoliyatga tayyorgarligi, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish ko'rsatkichlari aniqlandi. Tajriba-sinov ishlari ta'lim jarayoniga innovatsion-interfaol metodlarni tatbiq etish orqali olib borildi va ularning samaradorligi tahlil qilindi.

Olingan ma'lumotlarni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida matematik-statistik tahlil metodlari qo'llanildi. Xususan, natijalarning ishonchligini aniqlash, tajriba va nazorat guruhlarini ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilishda fozilzar, o'rtacha qiymatlar va dinamik o'sish ko'rsatkichlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo'llanilgan metodlarning uzviyligi, tajriba-sinov ishlarining bosqichma-bosqich amalga oshirilgani, olingan ma'lumotlarning matematik-statistik jihatdan asoslangani hamda xulosa va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilgani bilan ta'minlandi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimining amaldagi holati, mavjud muammolari hamda uni takomillashtirishga yo'naltirilgan zamonaviy yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilindi. Tahlillar oliy pedagogik ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar, talaba-yoshlar hamda ish beruvchilar bilan olib borilgan so'rovnomalar, suhbatlar va tajriba-sinov ishlari natijalariga asoslandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy ta'limda pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi ko'proq nazariy bilimlarni egallashga yo'naltirilgan bo'lib, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish yetarli darajada ta'minlanmagan. Tajriba-sinov jarayonida innovatsion-interfaol texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish hamda raqamli ta'lim vositalari keng joriy etildi. Natijada bo'lajak pedagoglarning kasbiy faolligi, mustaqil fikrlash darajasi va ijodiy yondashuv ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Nazorat va tajriba guruhlarini natijalari taqqoslanganda, tajriba guruhida kasbiy kompetentlik darajasi sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Xususan, talabalarning pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, ta'lim jarayonini loyihalash, zamonaviy metodlarni amaliyotda qo'llay olish ko'rsatkichlari barqaror rivojlangan. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning axborot bilan ishlash, tahliliy fikrlash va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalarini yanada mustahkamladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, pedagog mutaxassislarni tayyorlashda ta'lim mazmunini, o'qitish metodlari va baholash tizimi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ta'minlanganda ta'lim samaradorligi ortadi. Shuningdek, ish beruvchilar bilan hamkorlikda tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlar bo'lajak

pedagoglarning real kasbiy muhitga moslashuvini tezlashtirdi hamda ularning kasbiy mas'uliyat hissini kuchaytirdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqladi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish bugungi globallasuv va raqamli transformatsiya sharoitida dolzarb vazifa ekanligini tasdiqladi. Tadqiqot jarayonida pedagog kadrlar tayyorlash mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish, ta'lim jarayoniga innovatsion-interfaol texnologiyalarni keng joriy etish hamda nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy pedagog mutaxassisi shakllantirishda faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, amaliy faoliyatga yo'naltirilgan o'qitish, loyiha asosida ta'lim, muammoli vaziyatlar orqali o'qitish hamda raqamli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda metodik tayyorgarlik, kommunikativ

madaniyat, ijodiy fikrlash va innovatsion faoliyatga tayyorlik yetakchi omillardan biri sifatida namoyon bo'ldi.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi: Pedagog mutaxassislarni tayyorlashda o'quv rejalarini va fan dasturlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ishlab chiqish, ta'lim natijalarini aniq indikatorlar asosida baholash tizimini takomillashtirish. Ta'lim jarayoniga innovatsion-interfaol metodlar, raqamli platformalar va simulyatsion ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish orqali bo'lajak pedagoglarda kasbiy faollik, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish. Oliy ta'lim muassasalari va umumta'lim muassasalari o'rtasida mustahkam hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yish, pedagogik amaliyotlarni uzluksiz va bosqichma-bosqich tashkil etish orqali talabalarning kasbiy moslashuvini kuchaytirish. Professor-o'qituvchilarning raqamli pedagogika, innovatsion ta'lim texnologiyalari va zamonaviy baholash tizimlari bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish.

Xulosa qilib aytganda, pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimini zamonaviy yo'nalishlar asosida takomillashtirish ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh pedagog kadrlarni shakllantirish hamda milliy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. ***"Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"***gi PQ–2909-son qarori. – Toshkent, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. ***"Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"***gi PQ–5268-son qarori. – Toshkent, 2021.
4. UNESCO. Education 2030: Global Education Monitoring Report. – Paris, 2020.
5. N.A. Muslimov. Kasbiy ta'lim nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan, 2018.
6. A.R. Xodjabayev. Pedagogik kompetentlik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
7. Zeer E.F. Professionalnoye obrazovaniye: kompetentnostniy podxod. – Moskva: Akademiya, 2017.



UDK: 364.013(575.1)

Dilbar RUZMETOVA,

Toshkent davlat transport universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasini professori v.b

falsafa fanlari doktori, professor J.Ramatov taqrizi asosida

O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Аннотация

Mazkur maqolada O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari, ularning ijtimoiy-siyosiy va institutsional asoslari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy himoya tushunchasining nazariy mazmuni, ijtimoiy davlat konsepsiyasi hamda davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari ochib beriladi. Shuningdek, mustaqillik yillarida ijtimoiy himoya tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, mazkur sohada erishilgan yutuqlar va mavjud muammolar tahlil etiladi. Maqolada "mahalla yettilligi", manzilli ijtimoiy yordam, "ijtimoiy karta", Ijtimoiy himoya milliy agentligi faoliyati kabi yangi mexanizmlarning ahamiyati asoslab berilib, ijtimoiy himoya tizimini samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy davlat, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya tizimi, manzilli ijtimoiy yordam, kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy xizmatlar, "mahalla yettilligi", ijtimoiy karta, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, inson qadri.

PRIORITY DIRECTIONS FOR MODERNIZING THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM IN UZBEKISTAN

Annotation

This article provides a scholarly analysis of the processes of modernizing the social protection system in Uzbekistan, as well as their socio-political and institutional foundations. The study reveals the theoretical essence of the concept of social protection, the concept of the social state, and the priority directions of state social policy. In addition, the stages of formation and development of the social protection system during the years of independence, the achievements attained in this field, and existing challenges are examined. The article substantiates the significance of newly introduced mechanisms such as the "Mahalla Seven," targeted social assistance, the "social card," and the activities of the National Agency for Social Protection, and puts forward conclusions and recommendations aimed at improving the effectiveness of the social protection system.

Keywords: social state, social policy, social protection system, targeted social assistance, poverty reduction, social services, "Mahalla Seven," social card, National Agency for Social Protection, human dignity.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье проводится научный анализ процессов модернизации системы социальной защиты в Узбекистане, а также их социально-политических и институциональных основ. В исследовании раскрывается теоретическое содержание понятия социальной защиты, концепция социального государства и приоритетные направления государственной социальной политики. Кроме того, рассматриваются этапы формирования и развития системы социальной защиты в годы независимости, анализируются достигнутые результаты и существующие проблемы в данной сфере. В статье обосновывается значение новых механизмов, таких как «махаллинская семёрка», адресная социальная помощь, «социальная карта», а также деятельность Национального агентства социальной защиты, и формулируются выводы и предложения, направленные на повышение эффективности системы социальной защиты.

Ключевые слова: социальное государство, социальная политика, система социальной защиты, адресная социальная помощь, сокращение бедности, социальные услуги, «махаллинская семёрка», социальная карта, Национальное агентство социальной защиты, человеческое достоинство.

Kirish. Bugungi globallashuv, ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar va demografik o'zgarishlar sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish har bir davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ijtimoiy himoya tizimi jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, inson kapitalini rivojlantirish hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishda muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois ijtimoiy himoaning samaradorligi davlatning ijtimoiy yo'naltirilganligi va inson qadri ustuvorligining muhim mezonini hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillaridan boshlab ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish va rivojlantirish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralib

kelinmoqda. Aholining turli ijtimoiy guruhlarini manzilli qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda "ijtimoiy davlat" tamoyilining mustahkamlanishi mamlakatda ijtimoiy siyosatning yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Kuchli ijtimoiy siyosat respublikamizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning muhim tamoyillaridan biri bo'lib, u shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasini

rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining 4.2-ustuvor yo'nalishida aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ehtiyojmand qatlamlarni, keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish vazifalari belgilangan [1].

So'nggi yillarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida aholi daromadlari, ish haqi va pensiyalar izchil oshib bormoqda. Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bozor munosabatlari sharoitida dolzarb vazifa bo'lib, u kam ta'minlangan oilalar, ishsizlar, nogironlar, bolalar va keksalarni manzilli qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

So'nggi yillarda ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish doirasida mazkur sohada boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, manzilli ijtimoiy yordam mexanizmlarining joriy etilishi, "mahalla yettiligi" instituti, "ijtimoiy karta" tizimi, Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish va ularning shaffofligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish hozirgi bosqichda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ijtimoiy himoyaning samarali modeli nafaqat aholining farovonligini oshirish, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va davlatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbekiston mustaqillikning dastlabki yillaridanoq "shok terapiyasi"dan voz kechib, tadjriy islohotlar siyosatini tanladi. Bu jarayonda ijtimoiy sohaga davlat va jamiyat e'tiborini kuchaytirish, manzilli ijtimoiy himoya mexanizmlarini shakllantirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid huquqiy asoslar mustahkamlanib, 1991 yilda nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi qonun hamda pensiya ta'minoti, bandlik va sog'liqni saqlashga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Mazkur qonunlarning izchil ijrosi hamda davlat byudjetining katta qismi ijtimoiy sohalarga yo'naltirilishi mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qildi. Iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va sport sohalorida ham bozor iqtisodiyotiga mos o'zgarishlar amalga oshirildi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida aholining yalpi ijtimoiy himoyasidan manzilli va maqsadli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimiga o'tildi. Ushbu tizimda mahalla muhim institut sifatida shakllandi. Natijada kam ta'minlangan va bolali oilalarga moddiy yordam ko'rsatish mexanizmlari joriy etilib, ijtimoiy himoya asosan nafaqalar, imtiyozlar va davlat parvarishi orqali amalga oshirildi.

Ijtimoiy himoya tizimi va uning modernizatsiyasi masalalari ijtimoiy fanlar, xususan, sotsiologiya, siyosatshunoslik, iqtisodiyot hamda ijtimoiy falsafa doirasida keng o'rganib kelinmoqda. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar ijtimoiy davlat konsepsiyasi, ijtimoiy siyosatning nazariy asoslari, aholini ijtimoiy himoyalash mexanizmlari va ularning institutsional shakllarini tahlil qilishga qaratilgan.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy himoya tizimi ko'pincha "ijtimoiy davlat" (welfare state) modeli doirasida talqin etiladi. G. Esping-Andersen, T. Marshall, A. Giddens kabi olimlarning asarlarida ijtimoiy himoya fuqarolarning asosiy ijtimoiy huquqlarini ta'minlovchi muhim institut sifatida baholanadi. Mazkur tadqiqotlarda ijtimoiy himoyaning liberal, konservativ va sotsial-demokratik modellari farqlanib, ularning

samaradorligi va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda ijtimoiy himoya tizimining raqamlashtirilishi, manzillilik tamoyilining kuchaytirilishi va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish masalalari dolzarb yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston olimlarining ilmiy izlanishlarida ijtimoiy himoya masalalari asosan milliy rivojlanish modeli, kuchli ijtimoiy siyosat va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq holda yoritilgan. I.A. Karimov, Sh.M. Mirziyoyev asarlarida ijtimoiy himoya davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida talqin qilinib, aholining zaif qatlamlarini manzilli qo'llab-quvvatlash zarurligi alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ijtimoiy himoya tizimining huquqiy asoslari, institutsional tuzilmasi, pensiya va nafaqa tizimi, kambag'allikni qisqartirish mexanizmlari keng tahlil qilingan.

So'nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari yangi bosqichga ko'tarilgan. Xususan, "mahalla yettiligi" instituti, Ijtimoiy himoya milliy agentligi faoliyati, "ijtimoiy karta" tizimi va raqamli monitoring mexanizmlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ijtimoiy xizmatlarning manzilliligi va shaffofligini oshirishga qaratilganligini ko'rsatadi. Biroq mavjud adabiyotlarda mazkur mexanizmlarning kompleks samaradorligi, ularning o'zaro integratsiyasi va uzoq muddatli ijtimoiy ta'siri masalalari yetarlicha tizimli o'rganilmagan.

Shu nuqtai nazardan, mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rtasidagi bog'liqlikni chuqurroq o'rganish, milliy modelning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda ilg'or xorijiy tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilganligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil qilingan. Natijada "O'zbekiston Respublikasi aholisini 2010 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan ijtimoiy himoya tizimining yagona konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Unda Respublikada mavjud bo'lgan ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordam, pensiya ta'minoti, bolalarga nafaqa to'lash, yolg'iz keksalarga xizmat ko'rsatish, nogironlarni protez-ortopediya buyumlari, harakatlanish vositalari bilan ta'minlash, tibbiy, mehnat va ijtimoiy jihatdan tiklash, tibbiy xizmat, ishsizlarni ishga joylashtirish va moddiy yordam berish, bir yo'la (nomuntazam) yordam tizimlari asoslarida amalga oshirilishi belgilangan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi mustaqillik yillarida muhim ijtimoiy institut sifatida izchil rivojlanib bordi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, ijtimoiy himoya tizimi aniq maqsadli, tabaqalashtirilgan va haqiqatan ham davlat yordamiga muhtoj qatlamlarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Mazkur yondashuv bugungi kunda amalga oshirilayotgan manzilli ijtimoiy siyosat mazmuni bilan uyg'unlashadi.

O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish jarayoni bir necha bosqichda kechdi: dastlabki yillarda institutsional asoslar yaratildi, keyingi bosqichlarda yalpi ijtimoiy himoyadan manzilli qo'llab-quvvatlash tizimiga o'tildi, aholi farovonligini oshirish va mehnat bozorini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar kuchaytirildi. So'nggi yillarda esa Harakatlar strategiyasi va Taraqqiyot strategiyasi doirasida ijtimoiy himoya tizimi tubdan modernizatsiya qilinib, "Temir daftar", "Ayollar daftar",

“Yoshlar daftari”, “mahalla yettiligi”, “ijtimoiy karta” kabi yangi mexanizmlar joriy etildi.

Bugungi kunda ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirish inson qadrini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy xizmatlarning manzilliligi va natijadorligini oshirish bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois

davlat siyosatida ijtimoiy himoyani kuchaytirish, faol fuqaro va ijtimoiy mas'uliyatli jamiyatni shakllantirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Mazkur jarayonlarni izchil davom ettirish va boshqaruv mexanizmlarini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri). – Toshkent: “O'zbekiston”, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2021.
3. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1995.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”. 07.02.2017 y., PF-4947-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”. 28.01.2022 y., PF-60-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O'zbekiston–2030” strategiyasi to'g'risida. 11.09.2023 y., PF-158-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – “Xalq so'zi”, 29-dekabr, 2021.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”. 01.06.2023 y.
9. Esping-Andersen G. The Three Worlds of Welfare Capitalism. – Princeton: Princeton University Press, 1990.
10. Giddens A. The Third Way: The Renewal of Social Democracy. – Cambridge: Polity Press, 1998.
11. Marshall T.H. Citizenship and Social Class. – Cambridge: Cambridge University Press, 1950.
12. Ijtimoiy himoyaning yangi tizimi inson qadrini ta'minlashga xizmat qiladi. Prezident rasmiy sayti materiallari. – <https://president.uz>



UDK: 101:300.082.4(10-07-6)

Nurbek SAFAROV,
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail:safarovnurbek78@gmail.com

Qarshi davlat universiteti professori, DSc G.Bekmurodova taqrizi asosida

"JINOYAT" VA "JINOYATCHILIK" TUSHUNCHALARINING HUQUQIY TALQINI VA FALSAFIY MOHIYATI
Annotatsiya

Maqolada jinoyat va jinoyatchilik tushunchalarining mazmun-mohiyati, huquqiy va falsafiy talqini keltirilgan. Ijtimoiy-huquqiy meyorlarning shakllanishi, huquqbuzarliklar va ijtimoiy oqibatlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Jinoyat, jinoyatchilik, huquqbuzarlik, aahloqiy meyorlar, ijtimoiylashuv, ijtimoiy xavf, ayb, jazo.

ИЗ ПОНЯТИЙ "ПРЕСТУПЛЕНИЕ" И "ПРЕСТУПЛЕНИЕ" ПРАВОВОЕ ТОЛКОВАНИЕ И ФИЛОСОФСКОЕ СУЩНОСТЬ
Аннотация

В статье представлено содержание, правовое и философское толкование понятий преступления и преступности. Проанализировано формирование социально-правовых норм, правонарушений и социальных последствий.

Ключевые слова: преступление, преступление, проступок, этические нормы, социализация, социальный риск, вина, наказание.

OF THE CONCEPTS OF "CRIME" AND " CRIME LEGAL INTERPRETATION AND PHILOSOPHICAL ESSENCE
Annotation

The article presents the content, legal and philosophical interpretation of the concepts of crime and criminality. The formation of socio-legal norms, violations and social consequences are analyzed.

Keywords: crime, crime, offense, mental norms, socialization, social risk, guilt, punishment.

Kirish. Inson o'zining turli-tuman ehtiyojlarini qondirishi uchun muttasil ravishda va turli yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatmog'i darkor. Xususan, u oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, sog'lom va xavfsiz muhit bilan bog'liq biologik ehtiyojlarini qondirish uchun samarali aqliy yoxud jismoniy mehnat faoliyati bilan mashg'ul bo'lishi, jamiyatning boshqa a'zolari bilan turfa munosabatlarga kirishishi zarur. O'z-o'zini anglash, bilim olish, yangi malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish, ijod bilan shug'ullanish, kamolotga yetishish kabi ma'naviy ehtiyojlar uni ma'naviy izlanishga, madaniy hayotda ishtirok etishga, o'z salohiyatini namoyon etishga undaydi. Muayyan guruh yoxud davra a'zosiga aylanish, ijtimoiy maqomga ega bo'lish bilan bog'liq ijtimoiy ehtiyojlar ijtimoiy faoliyatni, hammaslamlar bilan hamkorlikni taqozo qiladi. Biroq insonning biologik, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan faoliyati hamisha ham samarali va mashaqqatsiz kechavermaydi. Bu boradagi besamarlik va mashaqqat kimnidir o'z maqsadlari yo'lida sobit turishga, ijodiy tafakkur yuritishga, muddaoga erishishning yangi yo'llarini izlab topishga undasa, kimnidir jamiyatdagi huquqiy meyor va tamoyillarni buzish, shu jumladan ijtimoiy jihatdan xavfli harakatlarni sodir etish sari yetaklab keladi. Barcha jamiyatlarda aynan ana shu ijtimoiy xavfli hatti-harakatlar jinoyat sifatida tavsiflanadi.

Yuqoridagi mulohazadan ko'rinadiki, huquqbuzarlik - bu jamiyatda o'rnatilgan huquqiy meyorlarni buzish yoki ularga rioya qilmaslik natijasida sodir etiladigan, davlat va jamiyat manfaatlariga, shaxs huquq va erkinliklariga zarar yetkazuvchi aybli harakatdir[1]. Jinoyat esa ana shu huquqbuzarlikning eng og'ir va ijtimoiy xavfli ko'rinishidir. Inson hatti-harakatlarining boshqa shakllari, huquqbuzarlikning o'zga ko'rinishlari kabi jinoyatning ham o'z

belgilari, xususiyatlari mavjud. Jinoyat belgilari uni boshqa huquqbuzarliklardan ajratib turuvchi, ijtimoiy va huquqiy mohiyatini belgilab beruvchi muhim mezonlar hisoblanadi. Jinoyat, avvalo, jamiyat uchun ijtimoiy xavfli holat bo'lib, u mavjud tartib, tinchlik va adolatga tahdid soladi, muayyan darajada zarar yetkazadi yoki zarar yetkazish xavfini tug'diradi. Jinoyatning yana bir muhim belgisi uning qonun nuqtai nazaridan taqiqlanganligidir. Boshqacha aytganda, faqat tegishli qonun meyorlarida qayd etilgan ijtimoiy jihatdan xavfli qilmishgina jinoyat hisoblanadi. Insonning aybdorligi ham jinoyatning muhim belgilaridan biri sanaladi. Har qanday jinoyat faqat aybdor shaxs tomonidan sodir etiladi. O'z qilmishining jamiyat uchun xavfli ekanini anglab, o'zi xohishiga ko'ra yoki ehtiyotsizlik tufayli bunday harakatni amalga oshirgan inson jinoyatchi sifatida e'tirof etiladi. Jinoyat belgilari haqida mulohaza yuritganda uning huquqqa xilofligi ham tilga olinadi. Jinoyat mavjud huquqiy meyorlarga ziddligi, davlat, jamiyat va inson manfaatlari, xavfsizligi, dahlsizligiga zarar yetkazishi bilan xarakterlanadi[2].

Muhokama va natijalar. Qonunchilikda jinoyat o'z xususiyatlariga ko'ra ijtimoiy xavfli katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarga bo'linishi ko'rsatiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 15-moddasiga ko'ra, "ijtimoiy xavfli katta bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. Uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ortiq, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo

nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. Og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. O'ta og'ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoxud umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi"[3].

Ilmiy manbalarda jamiyatda sodir etilgan barcha jinoyatlar yig'indisini ifodalashda "jinoyatchilik" tushunchasi qo'llaniladi va u murakkab ijtimoiy hodisa sifatida tavsiflanadi. Masalan, mashhur fransuz faylasufi Jan-Jak Russo jinoyatchilikni jamiyatda mavjud bo'lgan tenglikning buzilishi bilan bog'laydi. Uning fikriga ko'ra, fuqarolarning turli manfaatlarini davlat tomonidan samarali ta'minlanmay qo'yilgan onidan boshlab odamlar qonunlarga bo'ysunishni to'xtatadilar. Jinoyatchilikning yuzaga kelishi va kuchayishiga xuddi shu omil turki beradi[4]. Nemis klassik falsafasining atoqli namoyondasi Georg Hegel o'zining "Huquq falsafasi" nomli asarida jinoyatchilikni "inson irodasining qonunga qarshi ifodasi" deya talqin etadi[5].

Kommunistik mafkura asoschilari Karl Marks va Fridrix Engels jinoyatchilik mohiyatini iqtisodiy va sinfiy munosabatlar bilan bog'lagan holda ochib berishga urinadilar. Xususan, K. Marksning ta'kidlashicha, jinoyatchilik kapitalistik tuzumda hukm suradigan ijtimoiy tengsizlik, insonning inson tomonidan ekspluatatsiya qilinishi oqibatidir[6]. F. Engels esa jinoyatchilikni mehnat taqsimoti va mulkiy munosabatlardagi adolatsizlikdan ildiz oluvchi ijtimoiy illat sifatida izohlaydi[7].

Fransuz sotsiologi Emil Dyurkgeym jinoyatchilikni har qanday jamiyatda mavjud bo'lgan odatiy ijtimoiy hodisa sifatida talqin etadi[8]. Tarkibiy funksionalizm asoschisi Talkott Parsons ham uni o'ta murakkab ijtimoiy hodisa sifatida qayd qiladi. Uning mulohazalariga qaraganda, jamiyatda qadriyatlarining tanazzulga yuz tutishi turfa deviant xulqlarning, shu jumladan jinoyatchilikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi[9].

XX asrning taniqli sotsiologi Robert Merton inson o'z oldiga qo'ygan maqsad-muddaolariga qonuniy yo'llar va vositalar bilan erisha olmaganida jinoyat sodir etishga majbur bo'lishini uqdiradi[10]. Ingliz sotsiologi Zigmunt Bauman zamonaviy jamiyat sharoitidagi individualistik turmush tarzi, axloqiy tanazzul jinoyatchilikning yangi turlarini keltirib chiqarayotganiga e'tiborni qaratadi[11].

Bugungi kunda ilmiy jamoatchilik hukmiga havola etilayotgan ilmiy manbalarda ham jinoyatchilik – mamlakatda muayyan davr mobaynida sodir etilgan barcha jinoyatlarni ifodalovchi, ijtimoiy jihatdan va tarixan o'zgarar boruvchi hodisa sifatida ta'riflanadi[12]. Ta'rifdan ko'rinadiki, birinchidan, jinoyatchilik jamiyatda sodir qilingan barcha jinoyatlarning yig'indisidan tarkib topadi. Ikkinchidan, jinoyatchilik o'zgaruvchan va mazmunan hamda tarkiban dinamik xarakterga ega bo'lgan hodisadir. Uchinchidan, jinoyatchilik avvalo huquqiy hodisa sifatida tavsiflanadi. To'rtinchidan, jinoyatchilik jamiyatning buguni va kelajagi uchun katta xavf-xatar tug'diruvchi, ko'plab muammolarni vujudga keltiruvchi ijtimoiy hodisadir[12].

Jinoyatchilik tabiiy emas, ijtimoiy hodisadir. Binobarin, insoniyat tarixida uning paydo bo'lishi sabablari ijtimoiy omillar, xususan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, inson ongi va faoliyatidagi evrilishlar, jamiyatdagi qadriyatlarining shakllanishi bilan bevosita bog'liq. Jinoyatchilik tarixiy ildizlari ibtidoiy jamoa tuzumi davriga borib taqaladi. To'g'ri, bu davrda davlat, qonun va huquqni muhofaza qilish tizimi halicha mavjud emas edi. Kishilar

turmushi, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar asosan urf-odatlar, an'analar va turfa kelishuvlari asosida boshqarilardi. Jamoaning har bir a'zosi umummanfaatlarga bo'ysungan holda yashar, jamoada qabul qilingan meyorlar esa turmushning odatiy tartibini belgilardi. Shu bois bu davrda ana shu meyorlarning buzilishi jinoyat deb baholanardi[13]. Jinoyatchilikning dastlabki shakllari birinchi navbatda moddiy ehtiyojlarni mavjud meyorlarni buzgan holda qondirish bilan bog'liq bo'lgan. Dehqonchilik va ovchilik bilan kun ko'radigan jamoalarda oziq-ovqat va resurslar uchun raqobat tabiiy hol edi. Bu raqobat ayrim hollarda jamoa a'zolari o'rtasida tortishuv va nizolarni keltirib chiqarardi. Bunday sharoitda umumjamoa viy mulk deya e'tirof etilgan ne'matlarining o'z boshimchalik bilan egallab olinishi, o'zlashtirilishi, boshqalarning inon-ixtiyoriga zid ravishda tasarruf qilinishi jamoa meyorlarining buzilishi, ya'ni jinoyat sifatida qabul qilinardi.

Ibtidoiy jamoada ijtimoiy maqom va yetakchilik uchun kurash ham jinoyatchilikning ilk sabablaridan biri bo'lgan. Yetakchilikka intilish, obro' uchun raqobat, qasos va shaxsiy himoya tuyg'ulari ba'zan zo'ravonlik va mojarolarga olib kelgan. Ayniqsa, guruhlararo to'qnashuvlar - yer, ov joyi yoki ayollar uchun bo'lgan bahslar jamoa ichidagi tartibni buzgan va bu holatlar keyinchalik jinoyat sifatida qabul qilingan. Shuningdek, jinoyatchilikning ilk ildizlari oilaviy va jinsiy munosabatlar sohasida ham kuzatilgan. Ibtidoiy jamoalarda nikoh munosabatlari muayyan urf-odatlar asosida muvofiqlashtirilgani tufayli ularning buzilishi jinoyat sanalgan.

Ibtidoiy jamoa sharoitida sodir etilgan jinoyatlar uchun rasmiy jazo tizimi mavjud emas edi. Shu bois jazo tariqasida stixiyali ravishda shakllantirilgan mexanizmlar qo'llanilgan. Ularning eng keng tarqalgan usullardan biri jinoyatchini jamoadan chetlatish bilan bog'liq bo'lib, bu inson uchun eng og'ir jazo hisoblanardi. Ayrim vziyatlarda moddiy zararni qoplash, qon haqi to'lash amaliyoti ham ishlatilgan[14]. Vaqt o'tishi bilan mulkchilik munosabatlarning mustahkamlanishi, ijtimoiy tabaqalarning paydo bo'lishi, davlat institutlarining shakllanishi natijasida bu urf-odatlar huquqiy normalarga aylandi.

O'rta asrlarda kishilik jamiyatida feodal munosabatlar qaror topdi. Asosiy iqtisodiy resurslar, ayniqsa ularning eng muhimlaridan biri bo'lmish yer yirik mulkdorlar qo'lida jamlanib qoldi. Buning oqibatida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik keskin kuchaydi. Ana shu ijtimoiy hodisa jinoyatchilik tabiatini ham, unga bo'lgan munosabatni ham o'zgartirdi[15]. O'rta asrlarda yer boylik va hokimiyat manbai bo'lgani bois uning atrofidagi munosabatlar jinoyatchilikning asosiy sabablaridan biri bo'lib qoldi. Hatto qo'zg'olonlar, o'zgarar mulkiga zarar yetkazish, hokimiyat vakillariga qarshilik ko'rsatish kabi yirik jinoyatlar ham ana shu sababdan turki oldi. Mazkur voqealar aslida ijtimoiy norozilik ifodasi bo'lsada, davlat va mulkdorlar tomonidan jinoyat deb baholandi[15]. Bundan ko'rinadiki, o'rta asrlarda Sharqda ham, G'arbda ham "jinoyatchilik" tushunchasi birinchi navbatda iqtisodiy va maishiy maqsadlardan kelib chiqqan holda talqin qilinadigan bo'ldi.

Ma'lumki, o'rta asrlarda kishilik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-madaniy sohalariga dinning ta'siri nihoyatda katta edi. Din iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirishning, davlat va hokimiyat xarakterini belgilashning, ijtimoiy hayotni tashkil qilishning, inson xulq-atvorini nazorat qilishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilardi. Shu boisdan aslida huquqiy mazmunga ega bo'lgan "jinoyat" tushunchasi diniy kategoriya bo'lmish "gunoh" tushunchasidan ajratilmagan holda talqin etildi. Aynan shu sababga ko'ra Sharqda islom, G'arbda xristian dini meyorlariga qarshi chiqish, uning aqidalarini inkor etish, diniy

marosimlarga xilof ish tutish jinoyat sifatida baholandi[16]. Shu sababga ko'ra, masalan, G'arbda inkvizitsiya davrida ko'plab hurfikrli kishilar, ijod ahli jinoyatchi sifatida e'tirof etildi hamda jazoga tortildi. O'rta asrlardagi feodal munosabatlar ustuvor bo'lgan kishilik jamiyatida axloqiy qadriyatlar ham diniy meyorlarga tayangani tufayli ularga zid bo'lgan hatti-harakatlar jinoyat sifatida baholandi. Jumladan, zino, insofsizlik, diyonatsizlik kabi harakatlar ham jinoyat sanaldi. Binobarin, o'rta asrlarda "jinoyatchilik" tushunchasi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va diniy-mafkuraviy nuqtai nazardan ham talqin qilina boshlandi.

O'rta asrlarda ayrim jinoyat turlari o'ta paradoksal tarzda talqin qilindi. Masalan, bu davrda jamiyat turmush tarzida zo'ravonlik va kuch ishlatish hollari bot-bot uchrab turardi. Biroq ularning muayyan qismi qonuniy hatti-harakatlar deya talqin qilinsa, boshqa qismi jinoyat sifatida tavsiflanardi. Aytaylik, zamona zo'rlari tomonidan hokimiyatni egallash yoxud uni saqlab qolish maqsadida amalga oshirilgan har qanday zo'ravonlik qonuniy hisoblanardi. Ammo shu zo'ravonlikka qarshi qilingan har qanday harakat – isyon, norozilik, o'zini himoya qilishga urinish jinoyat sifatida baholanardi. Bunday paradoksal talqin davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro ishonchsizlikni kuchaytirib borardi[17].

Yangi zamonda kishilik jamiyatida o'zgacha xarakterdagi ijtimoiy munosabatlarning yuzaga kelishi jinoyatchilikning iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy asoslarini o'zgartirdi. Bu davrda mulk va ijtimoiy boylikning salmoqli ulushi tor davralar qo'lida jam bo'lganicha qolaverdi. Aholining katta qismi iqtisodiy qiyinchiliklar girdobida umrguzaronlik qildi. Turmush darajasining pastligi, ishsizlik, kambag'allik, yo'qsillik, ijtimoiy-maishiy ahvolni yaxshilash imkoniyatlarining cheklanganligi ayrim shaxslarni o'z ijtimoiy ahvolini boshqalarniki bilan taqqoslashga, ushbu qiyos ayanchli xulosalarga olib kelgani bois o'z ehtiyojlarini qondirishning noqonuniy yo'llarini izlashga undadi. Ilmiy manbalarda bunday ruhiy holat "relyativ deprivatsiya" (o'z

hayotini boshqalarniki bilan taqqoslash natijasida o'zini haqsiz kamsitilgandek, imkoniyatlardan mahrum etilgandek his etish, oqibatda huquqbuzarlikka moyillik tuyish) nomini oldi[10].

Yangi zamonda kishilik jamiyatining yana bir muhim xususiyati qadriyatlar tizimining o'zgarishi bilan bog'liq bo'ldi. Aynan shu davrdan boshlab shaxsiy muvaffaqiyat, moddiy boylik, ijtimoiy nufuz mutlaq qadriyatlar sifatida qabul qilina boshlandi. Biroq, masalaning nozik jihati shundaki, o'sha davrning ijtimoiy voqeligi hammaga ham ushbu qadriyatlarga osonlikcha erishish imkoniyatlarini taqdim qilolmas edi. Natijada jamiyatning ayrim a'zolarida, amerikalik olim R. Merton ta'biri bilan aytganda, "maqsad va vositalar o'rtasida ziddiyat" yuzaga keldi[18]. Shaxsiy muvaffaqiyatga, moddiy boylikka, ijtimoiy nufuzga erishishni maqsad qilgan, ammo bu maqsadga yetishishning qonuniy vositalariga ega bo'lmagan ayrim shaxslar o'z niyatlari yo'lida jinoyatga qo'l urishni odat qildilar. Bu intilishlar jinoyatchilik tabiatini ham, uning tarkibini ham o'zgartirdi[18].

Xulosa. Yangi zamonda G'arb jamiyatlaridagi sanoatlashuv va shaharlashuv jarayonlari jinoyatchilikning yangi shakllarini keltirib chiqardi. Bu davrda odamlarning ommaviy ravishda shaharlarga ko'chishi natijasida an'anaviy jamiyatga xos bo'lgan ijtimoiy nazorat tizimi yemirildi. Shaharlar muhitidagi anonimlik, ijtimoiy izolyatsiya huquqbuzarlik, shu jumladan jinoyatchilik uchun qulay sharoit yaratdi. Alaloqibat, shaharlarda yangi turdagi - iqtisodiy, moliyaviy va uyushgan jinoyatchilik shakllana boshladi[18]. Qizig'i shundaki, aynan Yangi zamonda jinoyatchilik to'riga nafaqat ehtiyojlarini qonuniy yo'llar bilan qondirishning uddasidan chiqq olmagan yo'qsillar va kambag'allar, balki jamiyatning iqtisodiy elitasi - yuqori mansabdorlar va yirik kompaniya rahbarlari ham tortila boshladi: ular tomonidan sodir etilgan firibgarlik, mansabni suiiste'mol qilish, soliqdan qochish, korruptsiya kabi jinoyatlar jinoyatchilik hodisasini tarkiban boyitdi.

ADABIYOTLAR

1. Левкович Р.В. Правонарушение его признаки и виды.// Вестник науки, 2018, Vol. 4, №9. - 86-с.
2. Собиров У., Худайкулов Ф. Жиноят ва унинг белгилари.// Евразийский журнал академических исследований, 2022, №2.- 171–173-б.
3. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси.// lex.uz/docs/111453.
4. Руссо Ж.-Ж. Об общественном договоре или принципы политического права. — М.: Юрайт, 2023.
5. Гегель Г.В.Ф. Философия права.- М.:АСТ, 2023.
6. Маркс К. Немецкая идеология./ Маркс К., Энгельс Ф. Собрание сочинений.-М.: Политиздат, 1955.- Т. 3.
7. Энгельс Ф. Положение рабочего класса в Англии.// altkprf.ru/upload/iblock/e00/e003688f15c616416121ca8059fb95d1.pdf.
8. Дюркгейм Э. Правила социологического метода.- М.:АСТ, 2021.
9. Парсонс Т. Социальная система.- М.: Академический проект, 2018.
10. Мертон Р. Социальная структура и аномия./ Социальная теория и социальная структура.- М.: Хранитель, 2006.- С. 245-25.
11. Бауман З. Текучая современность.- М.-СПб.: Питер, 2008.
12. Моисеев Н.Д., Шерхов Р.Р. Понятие преступности и ее криминологические характеристики.// Аграрное и земельное право, 2023, №8.- 117-с.
13. Антонян Ю.М. Преступность в первобытном обществе.// Вестник РГГУ. Серия "Экономика. Управление. Право", 2019, №3.- 122-с.
14. Антонян Ю.М. Преступность в первобытном обществе.// Вестник РГГУ. Серия "Экономика. Управление. Право", 2019, №3.- 124-с.
15. Гуцин Э.Н. Тёмный человек мрачного тысячелетия: образ преступника европейского Средневековья.// НОМОТНЕТКА: Философия. Социология. Право, 2015, Vol. 34, №20.- 134-с.
16. Гуцин Э.Н. Тёмный человек мрачного тысячелетия: образ преступника европейского Средневековья.// НОМОТНЕТКА.
17. Ryan J.W. Samuel A. Stouffer and The American Soldier.//Journal of Historical Biography,2010,№7.- 100-137-с.
18. Звизжова О.Ю. Эволюция преступности на различных этапах развития общества: Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. канд.юрид н.- М.: Всероссийский НИИ МВД РФ, 2013.- С.26-27.



UDK:182.2.(2).

Zarina SOLIYEVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail:zarina.solieva1981@gmail.com

SamDCHTI professori, f.f.d O.G‘aybullayev taqrizi asosida

MARTIN XAYDEGGER ONTOLOGIYASIDA VAQT MODALLIKLARI: HISOBLASH VA TUSHUNISH FENOMENLARI TAHLIL

Annotatsiya

Ushbu maqolada nemis faylasufi Martin Xaydeggerning ontologik qarashlaridagi vaqt tushunchasi tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi inson borlig‘ini belgilovchi ikki xil fikrlash tarzi -“hisoblash” (Rechnen) va “tushunish” (Verstehen) o‘rtasidagi ziddiyatni vaqt modalliklari prizmasi orqali ochib berishdir. Maqolada texnik dunyoqarash (Gestell) vaqtni qanday qilib faqat “hozirgi zamon”ga qamab qo‘yishi va aksincha, ekzistensial tushunish vaqt ufqlarini (o‘tmish, bugun va kelajak) qanday birlashtirishi ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Ontologiya, Martin Xaydegger, vaqt modalliklari, hisoblash (kalkulyatsiya), tushunish, Gestell (pozitsiya), taqdir, ekzistensial vaqt, Gegenstand.

ВРЕМЕННЫЕ МОДАЛЬНОСТИ В ОНТОЛОГИИ МАРТИНА ХАЙДЕГГЕРА: АНАЛИЗ ВЫЧИСЛИТЕЛЬНЫХ И ПОНИМАЮЩИХ ЯВЛЕНИЙ

Аннотация

В этой статье анализируется понятие времени в онтологических взглядах немецкого философа Мартина Хайдеггера. Главная цель исследования - раскрыть через призму временных модальностей противоречие между двумя различными способами мышления, определяющими человеческое существование - «расчётом» (Rechnen) и «пониманием» (Verstehen). В статье даётся научно обоснованное объяснение того, как техническое мировоззрение (Gestell) ограничивает время только «настоящим временем» и, наоборот, как экзистенциальное понимание объединяет временные горизонты (прошлое, настоящее и будущее).

Ключевые слова: онтология, Мартин Хайдеггер, временные модальности, вычисления (вычисление), понимание, Гестель (позиция), судьба, экзистенциальное время, Gegenstand.

TIME MODALITIES IN THE ONTOLOGY OF MARTIN HEIDEGGER: AN ANALYSIS OF COMPUTATIONAL AND COMPREHENSION PHENOMENA

Annotation

This article analyzes the concept of time in the ontological views of the German philosopher Martin Heidegger. The main goal of the study is to reveal through the prism of time modalities the contradiction between the two different ways of thinking that define human existence - "calculation" (Rechnen) and "understanding" (Verstehen). The article provides a scientifically grounded explanation of how the technical worldview (Gestell) confines time only to the "present tense" and conversely, how existential understanding unifies time horizons (past, present, and future).

Keywords: Ontology, Martin Heidegger, time modalities, computation (calculation), comprehension, Gestell (position), fate, existential time, Gegenstand.

Kirish. XX asr falsafasida vaqt muammosi shunchaki fizik kattalik emas, balki inson borlig‘ining (Dasein) asosi sifatida talqin qilinadi. Martin Xaydegger falsafasida vaqt insonning o‘zligini anglash va dunyoda mavjud bo‘lish usullarini belgilab beruvchi asosiy omildir. Bugungi globallashuv va texnologiyalar hukmronlik qilayotgan davrda insonning vaqtga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgardi. Xaydegger borlig‘imiz doirasida bo‘lishning ikkita usulini ajratib ko‘rsatadi: hisoblash (texnik-ratsional yondashuv) va tushunish (ekzistensial-ma‘naviy yondashuv). Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, unda aynan shu ikki yondashuvning vaqt bilan qanday bog‘langani va inson taqdiriga qanday ta‘sir qilishi tahlil qilinadi. Biz “hisoblash” hukmron bo‘lgan davrda “tushunish”ni qanday saqlab qolishimiz mumkin degan savolga javob izlaymiz. [1,2].

Adabiyotlar tahlili. Martin Xaydegger falsafasi, xususan, uning texnologiya va vaqt haqidagi qarashlari G‘arb va Sharq falsafasida keng tadqiq etilgan mavzulardan biridir.

Ushbu maqola doirasida mavzuga oid adabiyotlarni uchta asosiy guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq:

Asosiy manbalar (Birlamchi manbalar): Tadqiqotning nazariy poydevori bevosita Martin Xaydeggerning fundamental asarlariga tayanadi.

• “Borliq va vaqt” asarida faylasuf inson borlig‘i (Dasein)ning vaqtinchalik (Zeitlichkeit) xususiyatini ochib bergan. Ushbu asar maqolamizdagi “tushunish” (Verstehen) fenomenini tahlil qilishda kalit vazifasini o‘taydi.

• “Texnologiya masalasi” ma‘ruzasida Xaydegger texnologiyaning mohiyatini “Gestell” (Pozitsiya yoki to‘plam) tushunchasi orqali tushuntiradi. Bizning maqolamizdagi “hisoblash tafakkuri” va uning vaqtni “hozirgi zamon”ga qamab qo‘yishi haqidagi g‘oyalar aynan shu asarga borib taqaladi.

• Shuningdek, matnda Aristotelning “Fizika” va “Metafizika” asarlariga murojaat qilingan. Bu manbalar “tabiiy

vaqt" (physis) va "texnik vaqt" o'rtasidagi ontologik farqni anglash uchun xizmat qiladi.

G'arb va Rossiya falsafiy tadqiqotlari: Xaydegger qarashlarini sharhlashda P.P. Gaydenko, V. Bibixin kabi rus faylasoflarining ishlari muhim ahamiyatga ega. P.P. Gaydenko o'zining "Yangi Yevropa falsafasi tarixi" va Xaydeggerga bag'ishlangan tadqiqotlarida "vaqtning ekzistensial talqini" ni chuqur tahlil qilgan. Uning fikricha, Xaydegger an'anaviy metafizikani rad etib, vaqtni "borliq ufqisi" sifatida qayta kashf etgan.

G'arb olimlaridan Xans-Georg Gadamerning "Haqiqat va metod" asaridagi "tushunish" germentikasi maqolamizdagi "tushunish - taqdirni anglash usuli", degan g'oyani quvvatlaydi. Ular hisoblash (texnik yondashuv) dunyoni ob'ektivlashtirishga olib kelsa, tushunish insonni borliq bilan qayta bog'lashini ta'kidlaydilar.

O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlari:

O'zbekistonda ham ontologiya, gnoseologiya va texnika falsafasi bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jo'mlidan, Qiyom Nazarov tomonidan tayyorlangan G'arb falsafasi kitobida inson va borliq munosabati, globallashuv davrida milliy o'zlik va vaqtni anglash masalalari yoritilgan.

Bundan tashqari, mahalliy tadqiqotlarda ko'proq texnologik taraqqiyotning ma'naviyatga ta'siri masalasi ustuvorlik qiladi. Biroq, Xaydeggerning "hisoblash" va "tushunish" dixotomiyasini aynan Aristotelning tabiat (physis) tushunchasi bilan bog'lab o'rganish masalasi o'zbek falsafasida hali yetarlicha ochib berilmagan. Umuman olganda mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, texnologiya va vaqt masalalari alohida-alohida ko'p o'rganilgan bo'lsa-da, "hisoblash" va "tushunish" jarayonlarining vaqt modalliklariga (o'tmish, bugun, kelajak) ta'siri yagona tizim sifatida kam tadqiq etilgan. [3,4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tadqiqot ob'ekti bo'lgan Martin Xaydeggerning ontologik qarashlari va vaqt falsafasini o'rganishda umumilmiy va maxsus falsafiy metodlar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida quyidagi usullar tanlangan:

1. Germenevtik tahlil usuli: Tadqiqotning asosiy metodologik vositasi sifatida germenevtika tanlandi. Bu usul M. Xaydegger va Aristotelning birlamchi falsafiy matnlarini interpretatsiya qilish (sharhlash) va ulardagi yashirin ma'nolarni ochish imkonini beradi. Xususan, "hisoblash" va "tushunish" atamalarining shunchaki lingvistik ma'nosi emas, balki ularning matn kontekstidagi ontologik yuklamasi tahlil qilindi.

2. Fenomenologik yondashuv: Maqolada vaqt va texnika masalalariga "tashqaridan" emas, balki inson ongida namoyon bo'lish shakli sifatida qaraldi. Fenomenologik metod yordamida "Gestell" (texnik pozitsiya) va san'at asarining inson borlig'iga (Dasein) ta'siri, ularning inson hayotidagi bevosita tezahuri (ko'rinishi) tadqiq etildi.

3. Qiyosiy-tahliliy (Komparativ) usul: Ushbu metod orqali bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan ikki xil fikrlash tarzi - "Hisoblash tafakkuri" (texnik-ratsional) va "Tushunish tafakkuri" (ekzistensial-poetik) qiyoslandi. Shuningdek, Aristotelning "physis" (tabiat) tushunchasidagi "tabiiy vaqt" va zamonaviy texnologik davrdagi "sun'iy vaqt" o'rtasidagi tafovutlar solishtirma tahlil qilindi.

4. Ontologik va ekzistensial tahlil: Tadqiqotda vaqt muammosi fizik jarayon sifatida emas, balki borliqning (ontologiya) va inson mavjudligining (ekzistensiya) asosi sifatida o'rganildi. Bu usul texnologiyaning inson taqdiriga, uning o'zligini anglashi yoki unutishiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashda qo'llanildi.

5. Mantiqiy umumlashtirish: Maqola so'ngida tahlil qilingan turli qarashlar (san'at, texnika, vaqt) yagona tizimga solinib, zamonaviy jamiyat uchun dolzarb bo'lgan nazariy xulosalar chiqarildi.

Asosiy qism. Xaydegger dunyoga texnik munosabatni "hisoblash fikri" va "pozitsiya" (Gestell) tushunchalari bilan bog'laydi. Hisoblashga asoslangan tafakkurda vaqt uzluksiz oqim yoki taqdir emas, balki o'lchanadigan resurs sifatida namoyon bo'ladi. Matn tahlili shuni ko'rsatadiki, hisoblash jarayoni uchun vaqt - bu ob'ekt (Gegen-stand)dir. U har doim "qarshisida turgan" va "ishlatilishi kerak bo'lgan" narsa sifatida ko'riladi. Bu yondashuvning eng katta xavfi shundaki, u insonni faqat hozirgi zamonga bog'lab qo'yadi. "Postav" (texnik dunyoqarash) o'zini hozirgi zamoni ishlab chiqaruvchi, deb e'lon qiladi. Natijada:

• Mavjudlik boshqa mavjudotlar bilan faqat foydalilik nuqtai nazaridan bog'lanadi.

• Inson o'z o'tmishi (an'ana) va kelajagi (imkoniyatlar)dan uzilib, faqat "ayni damdagi natija" uchun yashay boshlaydi.

• Bu holat insonning asosiy "unutuvchanligini" keltirib chiqaradi - u o'zining kimligini va nima uchun mavjudligini unutadi.

Tushunish fenomeni va ekzistensial vaqt. Hisoblashdan farqli o'laroq, tushunish (Verstehen) insonni vaqtning asl mohiyatiga qaytaradi. Xaydeggerning fikricha, vaqt o'tishi bilan tushunish uchun ufqlar ochiq bo'ladi. Tushunadigan odam mavjudlikni tor "hozirgi zamon" doirasida emas, balki keng vaqtinchalik ufqdan (Zeitlichkeit) kelib chiqib idrok etadi.

Tushunish jarayonida vaqt uch o'lchovda birlashadi:

1. O'tmish (Taqdir): Inson o'z tarixiy ildizlarini anglaydi. Xaydegger taqdir, qaytish va qaytarilmaslik tushunchalarini aynan tushunish orqali izohlaydi.

2. Kelajak (Loyiha): Tushunish insonga o'z imkoniyatlarini ko'rish va kelajakka intilish imkonini beradi.

3. Hozirgi zamon (Lahza): Bu shunchaki o'tib ketuvchi daqiqa emas, balki ma'no anglanadigan paytdir.

Shuni tushunish mumkinki, tarixiy borliq tafakkur yo'lga tushganlarga o'z taqdirini beradi. Tushunish insonga o'zini "pozitsiya" (Gestell) cheklovlaridan qutqarishga va vaqtni ekzistensial ma'noda yashashga imkon beradi.

Ikki vaqtning to'qnashuvi: Soxtalik va Haqiqiylik: Matnda keltirilganidek, hisoblash va tushunish bir-biriga qarama-qarshidir va o'z chegaralarida bir-birini istisno qiladi. Texnologiya o'z vaqtini tabiiy vaqt bilan almashtirganda, dunyo "ma'nosiz" bo'lib qolmaydi, balki "soxta haqiqat"ga aylanadi.

• Texnik vaqt: O'z-o'zidan yetarli emas, doimiy ravishda boshqa narsani talab qiladi (progress, yangilanish).

• Tabiiy (Asl) vaqt: O'z to'liqligiga ega, o'tmishi va kelajagi bor, manbaga (Mohiyatga) bog'langan.

Aristotelning physis (tabiat) tushunchasi orqali qaralganda, asl vaqt - bu narsalarning o'z-o'zidan paydo bo'lishi va rivojlanishidir. Texnik vaqt esa bu tabiiy oqimga tashqaridan qilingan tajovuzdir.

Natijalar va muhokama. Hisoblash va Tushunish: Ontologik Ziddiyat Martin Xaydeggerning ontologik tahliliga ko'ra, inson borlig'i dunyo bilan munosabatga kirishishning ikki xil fundamental usuliga ega: hisoblash (Rechnen) va tushunish (Verstehen). Tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, bu ikki modallik nafaqat fikrlash tarzi, balki vaqtni boshdan kechirishning tubdan farqli shakllaridir.

Hisoblash - bu texnik-ratsional yondashuv bo'lib, u borliqni aniqlashga, o'lchashga va nazorat qilishga intiladi. Biroq, Xaydegger ta'kidlaganidek, hisoblash va tushunish bir-biriga qarama-qarshidir; ular o'z chegaralarida bir-birini istisno qiladi. Bu ziddiyatning markazida Vaqt omili turadi. Hisoblash

tafakkuri uchun vaqt - bu "ob'ekt" (Gegen-stand), ya'ni inson qarshisida turgan va foydalanishga mo'ljallangan resursdir. Bunday yondashuvda vaqtning "uflari" yopiladi va inson faqat tor "hozirgi zamon" doirasida qoladi. [8,9].

Aksincha, tushunish jarayoni vaqtinchalik (temporal) uflarini ochadi. Tushunish orqali vaqt borliqni belgilab beradi va har qanday mavjudotga chegara hamda ma'no baxsh etadi. Demak, tushunish - bu shunchaki intellektual akt emas, balki insonning o'z taqdiri va tarixiy borlig'ini anglashi jarayonidir.

"Gestell" (Pozitsiya) hukmronligi va vaqtning ob'ektlashtirilishi Zamonaviy davrda texnologiya hukmronligi ostida dunyoga munosabat "Pozitsiya" (Gestell) shaklini oldi. Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, texnologik xavf mashinalarning o'zida emas, balki insonning borliqqa "zaxira manbai" sifatida qarashida yotadi. Pozitsiya davrida vaqt rejimi mavjudlikni texnikalashtirishga xizmat qiladi. Bunda aslida texnik bo'lmagan hodisalar (masalan, san'at, ta'lim, insoniy munosabatlar) ham texnik mezonlar bilan o'lchana boshlaydi. "Hozirgi zamon" diktaturasi o'rnatiladi:

1. Nisbiylik munosabati: Mavjudlik o'z mohiyati bilan emas, balki boshqa narsalar bilan bog'liqligi (foydaliligi) orqali baholanadi.

2. Unutuvchanlik: Hisob-kitobga asoslangan hayot tarzi insonning "o'zlikni unutishiga" olib keladi. Hisoblaydigan odam o'zidan barcha vaqtni (o'tmish va kelajakni) yopib, qayta-qayta faqat hozirgi zamonni "iste'mol qiladi".

Bu holatda dunyo "ma'nosiz" bo'lib qolmaydi, balki unda "haqiqiy soxtalik" yuzaga keladi. Inson mavjudligi mazmunli ko'rinadi, ammo u "haqiqiy emas" (inauthentic), chunki u tabiiy vaqt oqimidan uzilgan bo'ladi.

Aristotelning "Physis" ta'limoti va ekzistensial vaqtga qaytish Texnik vaqtning sun'iyiligi anglash uchun tadqiqotda Aristotelning "physis" (tabiat) tushunchasiga murojaat qilindi. Aristotel talqinida tabiat - bu mavjudlikdan ko'ra ko'proq uning kelib chiqishi (manbai)dir. Tabiat bizda to'satdan paydo

bo'luvchi va narsalarning tabiiy yo'nalishini belgilovchi kuchdir.

Ushbu tushuncha orqali vaqtning yangi qirasi ochiladi:

•Mustaqillik: Tabiat (va tabiiy vaqt) o'z-o'zidan paydo bo'ladi va o'zini oqlash uchun boshqa asosga muhtoj emas. U "o'z-o'zidan to'kis" (self-sufficient) tizimdir.

•Mohiyatga qaytish: Agar texnologiya vaqtni "bo'laklansa", tabiat uni "yaxlitlaydi". Tushunish (Verstehen) aynan shu tabiiy, mohiyatan tushunilgan vaqt rejimida sodir bo'ladi.

Xaydegger va Aristotel qarashlari sintezi shuni ko'rsatadiki, inson najoti "poetik fikrlash tarzi"ga qaytishdadir. San'at asari — bu shunchaki estetik ob'ekt emas, balki u mulohaza yurituvchi mavjudotdir. U insonni hisoblash texnikasi hukmronligidan chiqarib, unga o'z taqdirining ekzistensial ma'nosini ochib beradi. San'at orqali inson "hozirgi zamon" qafasidan chiqib, o'tmish (an'ana) va kelajak (imkoniyat) birligidagi tarixiy borliqqa qaytadi.

Xulosa. Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, Martin Xaydegger ontologiyasida vaqt shunchaki o'lchov birligi emas, balki borliqning ochilish usulidir. Biz quyidagi xulosalarga keldik:

1. Dualistik yondashuv: Borliqqa munosabat ikki xil vaqt rejimini keltirib chiqaradi: hisoblash (texnik) va tushunish (badiiy/falsafiy).

2. Vaqtning torayishi: Texnik taraqqiyot inson vaqtini faqat "hozirgi zamon"ga qamab, uni tarixiy xotira va kelajak mas'uliyatidan uzoqlashtiradi.

3. Najot yo'li: Inson o'zligini saqlab qolishi uchun "hisoblash tafakkuri"dan tashqari, "tushunish tafakkuri"ni ham rivojlantirishi zarur. Bu esa san'at, falsafa va o'z tarixiy ildizlariga qaytish orqali amalga oshadi.

Zamonaviy jamiyatda texnologiyadan voz kechish imkonsiz, ammo unga bo'lgan munosabatni o'zgartirish - vaqtga resurs sifatida emas, balki taqdir sifatida qarash - insoniyatning ma'naviy najoti bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Heidegger M. Sein und Zeit (Being and Time). – Tübingen: Max Niemeyer Verlag, 2006. – 445 s.
2. Хайдеггер М. Бытие и время / Пер. с нем. В.В. Бибихина. -М.: Ad Marginem, 1997. - 452 с.
3. Хайдеггер М. Время и бытие: Статьи и выступления / Сост., пер. с нем. и комм. В.В. Бибихина. -М.: Республика, 1993. -447 с.
4. Aristotel. Fizika // Sochiesiya: V 4-x t. T. 3. – M.: Misl, 1981. – 613 s.
5. Heidegger M. The Question Concerning Technology and Other Essays / Trans. by W. Lovitt. – New York: Harper & Row, 1977. – 182 p.
6. Гайденко П.П. Прорыв к трансцендентному: Новая онтология XX века. - М.: Республика, 1997. -495 с.
7. Гадамер Х.-Г. Истина и метод: Основы философской герменевтики. - М.: Прогресс, 1988. - 704 с.
8. Dreyfus H.L. Being-in-the-World: A Commentary on Heidegger's Being and Time, Division I. - Cambridge: MIT Press, 1991.
9. Shermuhamedova N.A. Falsafa va fan metodologiyasi. – Toshkent: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, 2008. – 424 b.
10. Abdullayeva M.N. G'arb falsafasi tarixi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018. – 350 b.
11. Qahhorova Sh. Global ma'naviyat – globallashuvning gnoseologik tahlili. – Toshkent: Tafakkur, 2009.



Dilrabo TURATOVA,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'qituvchisi
E-mail: dilrabo.ta@mail.ru

O'zDJTU professori, p.f.d N.Isakulova taqrizi asosida

DEVELOPING CREATIVE COMPETENCIES THROUGH FOLK INSTRUMENT PERFORMANCE (USING THE TRADITIONAL DUTAR AS AN EXAMPLE)

Annotation

This article examines effective methods of folk instrument performance in preschools, secondary schools, and universities. In this context, the example of Japanese experience demonstrates the positive development of musical instrument learning among young people and its impact on our spirituality through the development of a sense of patriotism, which contributes to the improvement of the quality of education and is considered important in the upbringing of the younger generation through folk instrument performance. The importance of developing finger dexterity through folk instrument performance by the younger generation is also emphasized.

Key words: folk instruments, dutar, performance, style, method, music pedagogy, musical consciousness, national education, education, finger maturation.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПОСРЕДСТВОМ ИСПОЛНЕНИЯ НА НАРОДНЫХ ИНСТРУМЕНТАХ (НА ПРИМЕРЕ ТРАДИЦИОННОГО ИНСТРУМЕНТА ДУТАР)

Аннотация

В данной статье рассматриваются эффективные методы исполнения на народных инструментах в дошкольных учебных заведениях, общеобразовательных средних школах и высших учебных заведениях. В этом контексте пример японского опыта демонстрирует позитивное развитие изучения музыкальных инструментов среди молодежи и влияние на нашу духовность через формирование чувства патриотизма, что способствует повышению качества образования и считается важным в воспитании молодого поколения посредством исполнения на народных инструментах. Также подчеркивается важность развития подвижности пальцев в результате исполнения молодым поколением на народных инструментах.

Ключевые слова: народные инструменты, инструмент дутар, исполнение, стиль, метод, музыкальная педагогика, музыкальное сознание, национальное образование, образование, маторика пальцев.

XALQ CHOLG'ULARIDA IJRO ETISH ORQALI IJODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH (AN'ANAVIY DUTOR CHOLG'USI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim ta'lim maktablari bilan birgalikda oliy ta'limda xalq cholg'ularida ijro etishning samarali metodlari yoritilgan. Bu borada Yaponiya tajribasi misolida ham musiqa cholg'ularini o'rganilish yoshlarda ijobiy rivojlanishi keltirilgan bo'lib, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi va yosh avlod tarbiyasida muhim hisoblangan vatanparvarlik hissini shakllantirish xalq cholg'ularida ijro qilish orqali ma'naviyatimizga ta'siri keltirilgan. Shuningdek, yosh avlod cholg'uda ijro qilishi natijasida barmoqlar matorikasi rivojlanishi muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: xalq cholg'ulari, dutor cholg'usi, ijrochilik, uslub, metod, musiqa pedagogikasi, musiqiy ong, milliy tarbiya, ta'lim, barmoqlar matorikasi.

Kirish. Dunyo taraqqiyotida musiqaning o'ri beqiyos ekanligi shu bilan birga inson ongiga naqadar kuchli ta'sir qila olishi olimlar tomonidan turli tadqiqotlar olib borilib, natijasi hayratlanarli darajada isbotlanibgina qolmay bu tadqiqotlar samarasi amaliyotda qo'llanilib kelinmoqda. Bu jarayonda musiqa orqali turli xil xastaliklarning davolanishi, yosh avlod tarbiyalanishida klassik musiqalarimizning maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari ham tinglashi uchun muassasalarda musiqiy muhit yaratilishi va umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa cholg'ularining o'rganilishi qarorlar asosida yosh avlodning musiqiy estetik ongining ham rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridan xalq cholg'ularini o'rganilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2024-yil 15-noyabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o'qitilishini tubdan tubdan takomillashtirish ham ushbu fan

o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-391 qarori[1] bo'yicha maktab o'qituvchilarining kamida bitta xalq cholg'ularida ijro qilish talabi qo'yilgan bo'lib ularning bu jarayonda yosh avlodning tarbiyalashda yoshlarning ma'naviy, estetik ruhda yetuk inson bo'lib shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Va bu borada umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarining malaka toifalarini oshirish masalasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-oktabrdagi "Musiq madaniyati fani va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining bilim darajasi hamda kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha milliy baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi 652-son qarori[1] asosida "Musiq madaniyati fani va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining bilim darajasini hamda kasbiy mahoratini aniqlash hamda ularga sertifikat berish tartibi to'g'risida" Nizom[2] tasdiqlanib, musiqa madaniyati fani o'qituvchilariga ham e'tibor kuchaytirildi. Shuningdek

maktabgacha ta'lim muassasalarida ham musiqaning o'rganilishi va milliy musiqalarimizning targ'iboti o'tkazilayotganligi, ayrim maktabgacha ta'lim muassasalarida esa tarbiyalanuvchilar tomonidan musiqa cholg'ularida ijro etayotganligini ham uchratish mumkin. Bu juda maqsadli va yosh avlodning tafakkuri va ularning musiqa chorlg'ulari haqidagi tushunchalari paydo bo'lishi bilan birgalikda estetik tarbiyalanishiga ijobiy ta'siri bo'ladi albatta.

Shu o'rinda dutor cholg'usi ham keng qamrovli targ'ibot masalalarida muhim cholg'ulardan hisoblanib, o'ziga xos ovozi va xalq orasida keng tarqalgan cholg'ulardan biri bo'lganligi sabab umumiy o'rta ta'lim maktablaridan o'rganilishi zarur bo'lgan yetti turdagi cholg'ular qatoriga kiritilgan. Dutor cholg'usi tarixan xalq cholg'ularining asosiy turlaridan hisoblanib, deyarli har bir xonadonda mavjud bo'lgan. Dutorning ikki toridan taralgan ijrolar boshqa zamonaviy cholg'u ovozigacha ko'nikkan insonlarni ham o'ziga jalb qila olgan. Bu o'rinda Turg'un Alimatov ijrolari va ularning ijodlari misolida bu cholg'uning musiqiy-estetik qiymati yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Turg'un Alimatov nafaqat dutor ijrochiligidan, balki milliy musiqiy merosimizning yuksak namoyondalaridan biri sifatida cholg'u ijrochiligi yo'nalishida ustozda sozanda bo'lib, uning ijrosida dutor nafaqat cholg'u sifatida, balki asarlarning ijrolarida milliy musiqiy dunyoqarash, estetik zavq, falsafiy mazmuni o'z ichiga olgan holda tinglovchiga ta'sir o'tkazadi. Shu bois dutor cholg'usini o'qitish jarayonida Turg'un Alimatov ijodiy merosidan foydalanish metodik jihatdan ham, tarbiyaviy jihatdan ham samarali hisoblanadi.

Ustoz Turg'un Alimatov o'zbek xalq musiqasi, xususan, cholg'u ijrochiligi sohasida benazir hunar va yuksak mahorat namoyon etgan san'atkor sifatida milliy musiqiy madaniyatimiz taraqqiyotida alohida o'rin tutadi. Uning ijodi cholg'u san'atini nafaqat mahalliy, balki jahon sahnalarida ham yuqori darajada namoyon qila olgani, shu bilan birga juda kamtar, insoniy fazilatlariga boy ijodkor sifatida el ardog'ida hurmat qozongani bilan qadrlidir. Alimatov nafaqat mahoratli ijrochi, balki o'z shaxsiy fazilatlarini, harakatlari, tafakkuri bilan ham har jihatdan namuna bo'la olgan yetuk ustoz sifatida shogirlarga ham har jihatdan namuna bo'la olgan. Uning boy merosi va ijod namunalari hozirgi kunda O'zbekistondagi barcha musiqa ta'lim muassasalarida o'quv-amaliy jarayonda foydalanib kelinayotgani, uning maktab sifatida shakllanganidan dalolat beradi. Turg'un Alimatov ijrosining o'ziga xos uslubi – qo'l harakatlarining tabiiyligi, kuyning ichki mazmuniga kirib borish qobiliyati, har qanday tinglovchini soz dardiga sherik qila olish mahorati bilan ajralib turadi. Shu bois u nafaqat ijrochi, balki ijrochilik san'atining metodologik rivojiga ham bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatgan san'atkor sifatida baholanadi.

Ustozning xalqaro sahnadagi faoliyati ham e'tiborga loyiq bo'lib, jumladan, uning Londonga amalga oshirgan ijodiy safari davrida yuz bergan voqea buning yaqqol isbotidir. Londonda rejalashtirilgan konsert tashkilotchilari avvalboshdan ansambl jamoasini kutgan holda, Alimatovning o'zi faqat o'g'li Alisher bilan kelganini eshitib hayratlanishgan. Shunga qaramasdan, dastur uchun mo'ljallangan 90 daqiqalik konsert tinglovchilarning yuksak qiziqishi tufayli yana yarim soatga uzaytirilgan. Tomoshabinlar dutor va tanbur ovozinining nafisligidan shunchalar ta'sirlanishganki, konsert yakunlanganidan keyin ham ustoz va uning o'g'lini qiziqish va hurmat bilan o'rab olib, ikki cholg'uning ijrolari berayotgan ta'sirning betakrorligini qayd etishgan.

Turg'un Alimatovning ijodiy faoliyati London bilan cheklanib qolmay, keyinchalik AQSH, Rossiya, Fransiya, Germaniya kabi mamlakatlarda ham davom etgani, uning

dunyo musiqiy jamoatchiligi tomonidan ham e'tirof etilganidan dalolat beradi[4].

Turg'un Alimatovning ijrochilik iste'dodi va musiqiy dunyoqarashi uning yoshlik davridanoq namoyon bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha, u texnikumda tahsil olgan yillardayoq dutor cholg'usini yurakdan his etib ijro qilar, texnikum yotoqxonasida istiqomat qiluvchi tengdoshlariga ijrolaridan namunalar chalib berar edi. Bir kuni "Dutor navosi" asarini ijro etayotgan paytda yoshlardan biri to'satdan hovliga chiqib yig'lab yuborgani haqidagi voqea dutor ovozinining yurakka ta'sirchan kuchini yaqqol ifodalaydi. Bu holat sozning ikki toridagi ijro emas, balki inson ruhiyatining nafis qirralarini ham cherta olish imkoniyatiga ega ekanligini isbotlaydi. Musiqiy ta'sirning bevosita ruhiy holat bilan bog'liqligi to'g'risidagi nazariy qarashlar ushbu voqea orqali yanada mohirona tasdiqlanganini ko'rish mumkin.

Shuningdek, Turg'un Alimatovning ayrim bemorlarni davolash jarayonlarida dutor cholg'usidan foydalangan haqidagi ma'lumotlar ham alohida ahamiyatga ega. Manbalarda qayd etilishicha bemorlarda dutorida asarlar ijro qilib, ularning emotsional holatini barqarorlashtirishga yordam bergan. Bu esa dutor cholg'usining nafaqat badiiy-estetik, balki terapevtik xususiyatlarga ham ega ekanligini ko'rsatadi.

Zamonaviy musiqa terapiyasi nazariyasiga ko'ra, torli cholg'ularning past va o'rta chastotadagi rezonansi insonning ruhiy muvozanatni tiklashda ijobiy natija bergan. Shu ma'noda, Alimatov ijodi nafaqat milliy musiqa merosining badiiy namunalari yetkazuvchi, balki inson psixologiyasiga ijobiy ta'sir qiluvchi muhim omil sifatida ham o'rganilishi muhimdir.

Demak, dutor cholg'usi – an'anaviy xalq cholg'uning bir turi sifatida inson ruhiyatiga ham ta'sir etuvchi estetik va terapevtik vosita sifatida ham ilmiy jihatdan o'rganilishi, Turg'un Alimatov ijodi esa bu jarayonning amaliy namunasi sifatida qimmatli manba hisoblanadi.

Ustozning milliy musiqa san'atiga qo'shgan hissasi, ijrochilik uslubining yuksak nazariy-amaliy ahamiyati va insoniy fazilatlarini kelajak avlod uchun ham bebaho maktab vazifasini o'tab kelmoqda. Xususan dutor cholg'usi ijrochilik maktablari sifatida o'rganilishi, dutorning targ'iboti o'zbek xalq cholg'usi sifatida keng targ'ib qilinayotganligi yoshlarning estetik ozuqa va milliy tarbiyaviy ruhda komil inson bo'lib yetishishida muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yaponiya davlatida musiqiy cholg'ularni o'rganish borasida nafaqat madaniy ehtiyoj, balki davlat miqyosida strategik iqtisodiy yo'nalishida ham o'rganilgani diqqatga sazovor. Yaponiya maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning kamida ikki turdagi musiqiy cholg'uda ijro etishni o'rganishi bolalarning qo'l matorikasini erta rivojlantirishga xizmat qiladi (iqtisodiyot fanlari doktori, professor Barnogul Sanoqulovning intervyularidan). Barmoqlar matorikasining rivojlanishi bolaning neyropsixologik holatining rivojlatirilishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, erta yoshdagi bunday rivojlanish keyinchalik nutq faoliyati, idrok, diqqat, muvozanat, harakatlarni muvofiqlashtirish kabi ko'nikmalarning shakllanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Yaponiya mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda musiqiy cholg'ularda ijro qilish orqali bolalarda barmoqlar motorikasining rivojlanishi kelajakda ularning turli mehnat faoliyatlariga tez moslasha olish qobiliyatini hisobga olingan.

Shu bilan birga, mazkur metodning iqtisodiy samarasi ham baholangan bo'lib, Professor B.Sanoqulova ta'kidlaganidek, bolaning 6 yoshgacha musiqa cholg'ularida ijro etishi natijasida barmoq uchidagi sezgirlik funksiyalari rivojlanishi katta yoshda ehtimoliy jarohatlar, kasbiy cheklanishlar yoki asab-mushak tizimidagi muammolarning oldini olishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv, o'z navbatida,

mehnatga layoqatsizlik holatlarida ham, nogironlik darajasining turlarida bu turdagi metodlar yordam berishi inobatga olingan bo'lib ijtimoiy paketlar xarajatlari qisqarishiga olib kelishi mumkinligi hisobga olingan. Demak, cholg'uda ijro etishni maktabgacha ta'limda joriy etish Yaponiya uchun nafaqat madaniy, balki muhim iqtisodiy samaradorlikka ega strategik chora sifatida ham baholanadi.

Shunday qilib, Yaponiya tajribasi musiqa ta'limining nafaqat madaniy-ma'naviy, balki iqtisodiy va sog'lom avlodni shakllantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga egaligini namoyon qiladi. Bu esa har bir davlat uchun bolaga yoshligidan musiqiy muhit yaratish, cholg'u ijrochiligiga va uni ta'lim dasturlariga xizimli ravishda tatbiq etish muhimligi haqida ilmiy-amaliy xulosa chiqarish imkonini beradi.

Xalq cholg'u ijrochiligi, xususan dutor san'atining musiqiy-estetik, psixofiziologik va pedagogik jihatlarini har tomonlama yoritish maqsadida zamonaviy ilmiy-tadqiqot usullarining majmuasidan foydalanildi. Turg'un Alimatov ijodi misolida an'anaviy dutor ijrochiligining xususiyatlari, uning inson ruhiyatiga ta'siri, shuningdek Yaponiya tajribasi misolida musiqa ta'limining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati o'rganilgan holda yoshlarni barkamollikka erishishida yoshligidan e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Xalq cholg'ularida xususan dutor cholg'usida asarlarni ijrosini o'rganish jarayonida eng samarali metodlardan biri bu eshitish orqali o'zlashtirish bo'lib, bu usulda o'rganilgan asarning badiiyligi ham o'ziga xos hisoblanadi. Bundan tashqari maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tarbiyalanuvchilarga eng keng tarqalgan va xalq orasida ommalashgan xalq musiqalarini o'rgatish tarbiyalanuvchilarga ham alohida zavq bag'ishlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilariga ularning yoshlarini hisobga olgan holda asar tanlanishi, xalq musiqalaridan foydalanilishi, cholg'uni qisqa muddatda o'zlashtirishiga yordam beradi. Natijada ular asarni qisqa vaqt ichida yod olishiga turtki bo'ladi. Bunday usul o'quvchilarga cholg'uni o'rganishga qiziqishning ortishiga olib kelish bilan birga ular butun bir asarni ijrosining yakunida keyingi asarni o'zlashtirishda maqsad va vazifasini kengroq olishi mumkin bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimida bu kabi metodlardan foydalanishda unumli ta'lim berish uchun bo'lajak mutaxassislar yakka dars shaklida ta'lim olishadi. Bu shaklning o'ziga xos xususiyatlaridan biri har bir ta'lim oluvchi (talaba)ga individual yondoshgan holda ta'lim beriladi. Va ularga mutaxassislik fanlari bilan birgalikda pedagogika va psixologiya fanlarining

Ta'lim bosqichlari	Jismoniy rivojlanish	Intelektual rivojlanish	Ijodiy rivojlanish	Ma'naviy rivojlanish
Maktabgacha ta'lim muassasasi	Barmoqlar motorikasi rivojlanadi	Intelektual fikrlash shakllanadi	Ijodiy fikrlash asoslari paydo bo'ladi	Vatanparvarlik va milliy ruhda tarbiyalanadi
Umumiy o'rta ta'lim maktabi	Cholg'uda ijro etish orqali to'liq g'aydani to'g'ri shakllantiradi	Individual fikrini aniq bayon qilish qobiliyati rivojlanadi	Ijodiy fikrlarning kengligi ta'minlanadi	Milliy o'zlikni anglash mustahkamlanadi

O'zbekiston va Yaponiya musiqa ta'limi tizimi o'rtaidagi umumiy va farqli jihatlar, musiqiy cholg'uda ijro qilishning ijtimoiy, ma'naviy va iqtisodiy samaralari taqqoslab o'rganildi. Olingan nazariy va amaliy ma'lumotlar umumlashtirilib, xalq cholg'ulari ta'lim tizimida dutor cholg'usidan samarali foydalanish natijasida musiqiy ong, milliy tarbiya, musiqiy estetika va komil inson tarbiyalanishida ahamiyatga ega ekanligi yoritildi. Musiqa estetikasi, musiqa psixologiyasi, musiqa terapiyasi va pedagogika sohalariga oid ilmiy adabiyotlar, qonunchilik hujjatlari, xorijiy tadqiqotlar

o'zlashtirilishi bo'lajak pedagog sifatida har tomonlama shakllanish imkonini beradi.

Oliy ta'lim tizimida bu asosan ta'lim yo'nalishidan kelib chiqib ustoz-shogird an'anasiga tayangan holda ham o'zlashtiriladi. Ayniqsa cholg'ularning xususiyati hisobga olingan holda ustozlar ijrolari mukammal ijro sifatida o'rganiladi. Shuningdek bu ijrolarning asosi nota matnlari bo'lib, nota matnlari o'zlashtirilgandan keyin yoki bu asos bilan birgalikda audio va video materiallar taqdim etiladi. Talaba o'zining qobiliyatidan kelib chiqib asarni o'zlashtiradi.

Guruhi darslarda esa umumiy bir asarni o'zlashtirishda ularning bir-biri bilan musobaqa yoki o'yin shaklida o'zlashtirishni qiziqitirish orqali samaraga erishish mumkin. Bunday usullar yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalanishiga, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishiga, estetik shakllanishiga, cholg'uda ijro etishga qiziqishini orttiradi.

Yosh avlodning cholg'uni o'zlashtirishda har bir yosh chegarasi hisobga olingan holda bir qancha unumli usullardan foydalanish samara berishi tahlil qilindi. Bu borada bir qancha interfaol metodlar orqali dars jarayonini olib borish, didaktik o'yinlar, video yoki audio orqali o'quvchilarga asarlarni tinglash imkonini berish ham samarali hisoblanadi.

Umumiy pedagogikada asosiy tasniflardan birida ta'limning og'zaki, ko'rgazmali, va amaliy metodlari ajratilib ko'rsatiladi. Yalpi yondoshishda esa ta'lim metodlarining uchta umumlashtiruvchi guruhlari ko'rib chiqiladi: 1. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari; 2. O'quv-bilish faoliyatini kuchaytirish va asoslash; 3. O'quv-bilish faoliyati samaradorligini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari[3]. Albatta o'z-o'zini nazorat qilish borasida oliy ta'limda mustaqil ta'limga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, talaba bu jarayonda ijodiy rivojlanishiga katta sabab bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Turg'un Alimatov ijrochilik maktabining rivojlanish bosqichlari manbalar asosida o'rganildi. Tahlil orqali o'zbek xalq cholg'ulari o'rganilishi nafaqat o'zbek ijrochiligining targ'ib qilinishi balki yosh avlod ongining estetik rivojlanishi, milliy ruhda kamol topishi muhim ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilindi.

Dutor ijrosining Turg'un Alimatov misolida inson emotsional holatiga ta'siri, ayrim bemorlarni davolashda dutor cholg'usidan foydalanilgan holatlar, musiqaning bolalar psixologiyasiga va bolalar barmoqlarining motorikasiga ta'siri haqidagi ilmiy ma'lumotlar psixologik-pedagogik yondashuv asosida tadqiq etildi. Yaponiyada barmoq motorikasi rivojlanishiga oid tadqiqotlar shu metod asosida baholandi.

(Yaponiya tajribasi), ular orasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi. Bu metod dutor ijrochiligining estetik va terapevtik, yoshlarning milliy ruxda tarbiyalanishi qiymatini nazariy jihatdan asoslashga yordam berdi. Bu keltirilgan izohlar jadval ko'rinishida ta'lim bosqichlarida aks ettirilgan

Xulosa va takliflar. Musiqa sohasi xususan, cholg'u ijrochiligi borasida umumta'lim maktab o'quvchilariga tegishli cholg'ularni o'rganish o'zbek xalqining ma'naviyati va madaniyatining yanada yuksalishi, yoshlarning milliy ruhda tarbiyalanishi, ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga sabab bo'ladi.

Cholg'ularda ijro uslublarini o'rganish orqali ularning o'zbek xalq merosi, an'ana va madaniyatimizga nisbatan muxabbatning shakllanishi, estetik rivojlanishlarga erishish mumkin.

Bu borada yoshlarga xalq musiqalarining targ'ibotida ommaviy axborot tizimining ham hissasi katta hisoblanadi. Televideniya va radiolardan tashqari ijtimoiy tarmoqlarda biz kabi soha mutataxassislar ham faol bo'lib musiqa cholg'ulari naqadar ahamiyatli ekanligini targ'ib qilib borishda o'z hissamizni qo'shsak yanada natijadorligi samarali hisoblanadi. Shu bilan birgalikda yoshlarda Vatanparvarlik ruhining shakllanishi, ma'naviy va intellektual kamol topishi, milliy

qadriyatlarga sodiq bo'lishga o'rganishi muhim ahamiyatga ega.

Yaponiya tajribasidan kelib chiqib yurtimizda ham maktabgacha ta'lim muassasalarida xalq cholg'ularning o'rganilishini qat'iy har bir bitiruvchi tarbiyalanuvchiga bir turdagi xalq cholg'usida ijro qilishi belgilansa, tarbiyalanuvchilarning milliy ruhda va vatanparvarlik hissi yanada yoshligidan shakllanishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari yoshlarning barmoqlarining matorikasi rivojlanishi ham kelajakda ularning komil inson sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-oktabrdagi №652 Qarori
2. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-oktabrdagi 652-son qaroriga 1-ilova
3. Rauf Qodirov "Musiqa pedagogikasi" Toshkent, 2018



UDK: 57.045

Mirjalol TURDOLIYEV,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: mirjalolturdaliyev322@gmail.com

**URBANIZATSIYA SHAROITIDA HAVO IFLOSLANISHINING AHOLI SALOMATLIGIGA TA'SIRI:
SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA**

Annotatsiya

Mazkur maqolada sanoat korxonalaridan atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalarning chiqarilishi va uning aholi salomatligiga ta'siri, mavjud muammolari va uni yaxshilashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: viloyat sanoati, sog'liqni saqlash; shahar aholisi, urbanizatsiya, atrof-muhitning ifloslanishi.

**ВЛИЯНИЕ ЗАГРЯЗНЕНИЯ ВОЗДУШНОЙ СРЕДЫ НА ЗДОРОВЬЕ НАСЕЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ
УРБАНИЗАЦИИ: НА ПРИМЕРЕ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ**

Аннотация

В данной статье освещаются выбросы загрязняющих атмосферу веществ промышленными предприятиями и их воздействие на здоровье населения, существующие проблемы, а также теоретические и практические аспекты их устранения.

Ключевые слова: промышленность региона, здравоохранение; городское население, урбанизация, загрязнение окружающей среды.

**THE IMPACT OF AIR POLLUTION ON PUBLIC HEALTH IN THE CONTEXT OF URBANIZATION: A CASE
STUDY OF SAMARKAND REGION**

Annotation

This article highlights the emissions of air-polluting substances from industrial enterprises and their impact on public health, existing problems, and the theoretical and practical aspects of their mitigation.

Keywords: provincial industry, health care; urban population, urbanization, environmental pollution.

Kirish. Sayyora atmosferasining gaz tarkibida o'zgarishlar yuz berdi, kislorod iste'moli 16 martadan oshdi. Binobarin, uning miqdoriy pasayishi tendentsiyasi mavjud, shu bilan birga karbonat ангидрид (CO₂) miqdori ortib bormoqda. Agar o'tgan asrning o'rtalarida atmosferadagi CO₂ tarkibi 0,028% bo'lsa, endi bu raqam 0,033% dan oshadi.


Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, havoning ifloslanishi bolalarning kasallanishining etakchi omillaridan biri bo'lib, taxminan 30% ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, atrof-muhitning ifloslanishi 20% va iqlim o'zgarishi 10% ni tashkil qiladi. Respublikamizning turli mintaqalarida kasallanish darajasi turlicha. Masalan, shaharda yashovchi aholi qishloq joylaridagi aholiga nisbatan ko'proq ekopatologiyalarga ega, bu shaharlarda atrof-muhitni ifloslantiruvchi ko'plab ob'ektlar bilan bog'liq. Ekologik jihatdan noqulay hududlarda yashovchi aholi orasida ko'pchilik kasalliklar uzoq davom etadi va surunkali bo'ladi. Olimlar atrof-muhitni ifloslantiradigan yirik sanoat korxonalarini yaqinida yashovchi aholini profilaktik emlash ko'pincha samarasiz ekanligini tan olishadi. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, atrof-muhitning kasallanish va havo ifloslanishining ko'payishiga bevosita ta'siri etakchi omillardir. Ushbu mavzu bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi, ammo hozirgi vaqtda turli sohalarida zamonaviy sanoat zonalari va zamonaviy transport vositalari ishlab chiqarilmoqda, bu esa atmosfera havosini tarkibini turli xil zamonaviy zararli omillar bilan ifloslanishiga olib keladi. Bu ushbu muammoga jiddiy yondashuvni talab qiladi [1,2,3,10].

Materiallar va usullar. Tadqiqot davomida zaharli moddalarning konsentratsiyasini aniqlash va hisoblash usullari, qiyosiy tahlil usullari va kp836 ko'p gaz detektorini atmosferada topilgan 10 ga yaqin moddalar miqdorini o'lchash uchun

sensorlar va o'lchash asboblari qo'yiladigan umumiy talablar asosida asosan Gidrometeorologiya kafedrasini tomonidan monitoring natijalari asosida o'rganildi. Samarqand viloyati. Bundan tashqari, "atmosfera havosining ifloslanishini nazorat qilish bo'yicha ko'rsatmalar RJ 52.04.186-89" metodologiyasi va MM UZ 07.0724-27 O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi tomonidan o'tkazilgan tekshiruv asosida zaharli moddalar miqdorini kimyoviy tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatmalar qo'llanildi MM UZ:2016.:

1. Chang-5.2.6. (RJ 52.04.1886-89);
2. Oltinugurt dioksidi-MM UZ 07.0726:2016;
3. Uglorod oksidi-ELAN-SO-a-50 operatsion qo'llanma;
4. Azot dioksidi -07 041 07.0724: 2016;
5. Azot oksidi-MM UZ 07.0724:2016;
6. Fenol-MM UZ 07.07.2016;
7. Qattiq ftoridlar-5.2.3.2.;- MM UZ 07.0727: 2016;
8. Ftorli vodorod-MM UZ 07.0727:2016;
9. Xlor - 5.2.3.4 (RJ 52.04.186-89);
10. Ammiak-GOST 17.2.4.03-81;

Natija va muhokama. Bugungi kunda Samarqand viloyati respublikamizning eng tez rivojlanayotgan mintaqalaridan biri bo'lib, sanoatning rivojlanishi bilan birga sanoat korxonalarini va transport tomonidan chiqariladigan zaharli gazlar miqdori ortib bormoqda. Xususan, viloyatning sanoatlashgan hududlarida bu turli muammolarni keltirib chiqarmoqda. Sanoat va transport chiqindilari "chang, oltinugurt dioksidi, karbonat ангидрид, azot oksidi va fenollar" kabi inson tanasi uchun zararli. Samarqand viloyati Gidrometeorologiya kafedrasini bilan hamkorlikda olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, ayrim zaharli moddalar miqdori quyidagi jadvalda keltirilgan. (Grafik 1)



Shuni ta'kidlash kerakki, Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, atmosfera havosining ifloslanishi 30% ni tashkil qiladi, bu bolalarda kasallanishning etakchi omillaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, atrof-muhitning ifloslanishi 20% va iqlim o'zgarishi 10% ni tashkil qiladi. Respublikamizning turli mintaqalarida kasallanish darajasi turlicha. Masalan, shaharda yashovchi aholi qishloq joylaridagi aholiga nisbatan ko'proq ekopatologiyalarga ega, bu shaharlarda atrof-muhitni ifloslantiruvchi ko'plab ob'ektlar bilan bog'liq. Ekologik jihatdan noqulay hududlarda yashovchi aholi orasida ko'pchilik kasalliklar uzoq davom etadi va surunkali bo'ladi. Olimlar atrof-muhitni ifloslantiradigan yirik sanoat korxonalarida yashovchi aholini profilaktik emlash ko'pincha samarasiz ekanligini tan olishadi. Inson faoliyati atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi, biz ichadigan suvni, nafas olayotgan havoni va o'simliklar o'sadigan tuproqni

ifloslantiradi. Sanoat inqilobi texnologiya, jamiyat va ko'plab xizmatlarni ko'rsatish nuqtai nazaridan katta muvaffaqiyatga erishgan bo'lsa-da, u havoga inson salomatligiga zararli bo'lgan juda ko'p miqdordagi ifloslantiruvchi moddalarni ham kiritdi. Ko'rinib turibdiki, atrof-muhitning global ifloslanishi sog'liqni saqlashning eng ko'p qirrali xalqaro muammolaridan biridir. Ijtimoiy-iqtisodiy va tibbiy-ekologik muammolar va turmush tarzi odatlari ushbu asosiy muammo bilan bog'liq. Shubhasiz, urbanizatsiya va sanoatlashtirish bizning davrimizda misli ko'rilmagan muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa-da, ular atmosfera ifloslanishining yuqori darajalariga ham erishmoqdalar. Antropogen havoning ifloslanishi yiliga taxminan 9 million o'limga olib kelishini hisobga olsak, bu butun dunyo salomatligi uchun eng katta xavflardan biridir (20).

Diagramma 1

Samarqand viloyati atmosfera havosining ifloslanish hududlar bo'yicha



Sanoatlashgan hududlarda havoning ifloslanishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi: shu jumladan: 1. Urbanizatsiya va sanoat rivojlanishi bilan bir qatorda transport vositalari soni ortib bormoqda. Avtotransport vositalarining ekologik darajasi hali ham ishlatiladigan yoqilg'i sifatiga va transportni tashkil etishga bog'liq. Shunday qilib, agar 2021 yilda respublikadagi avtomobillar soni 3,14 million donani tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda - 4,6 million dona. Va xalqaro standartlarga javob bermaydigan a-80 benzinidan foydalanadigan avtomobillar atmosferaga odatdagidan ko'proq zararli chiqindilar chiqaradi. 2. Kuz-qish davrida aholini markazlashtirilgan isitish uchun ishlaydigan isitish moslamalari tomonidan mazutdan qo'shimcha yoqilg'i sifatida foydalanish havoning qattiq ifloslanishiga, shuningdek jamoatchilik noroziligiga sabab bo'ladi. 3. Iqtisodiyot tarmoqlari va aholining energiya resurslariga bo'lgan talabining ortib borishi natijasida uglevodorodlardan, shu jumladan ko'mirdan foydalanish ko'paymoqda. Xususan, agar 3,9 yilda 2019 million tonna ko'mir ishlatilgan bo'lsa, 2022 yilda bu raqam 5,3 million tonnaga, 2023 yil oxiriga kelib esa 6,7 million tonnaga etdi. Boshqa tomondan, ko'mir qazib olish jarayonida transportdan foydalanishga qadar chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar atrof-muhitning, shu jumladan atmosfera havosi, tuproq va suv resurslarining ifloslanishiga olib keladi. Ma'lumot uchun: atmosferaga 10 tonna ko'mir, 220 kg kuyikish, 360 kg oltingugurt II oksidi, 64 kg uglerod oksidi, 16 kg azot II oksidi va 2 tonna kul chiqariladi.

So'nggi yillarda sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, transport vositalari sonining ko'payishi va tirbandliklar natijasida atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalar

chiqindilari hajmi ham oshdi. Sanoati rivojlangan hududlar (Toshkent, Navoiy, Angren, Olmaliq, Samarqand) havosining ifloslanishi va uning oqibatlari jamoatchilik orasida tez-tez muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Yaqinda poytaxt Toshkent havosi ham ifloslanib, tegishli reytinglarda "qizil" ko'rsatkich qayd etildi.

A. Tuxtaev havoning ifloslanish darajasini har tomonlama o'rganish bo'yicha o'z fikrini bildirdi. Benzin va dizelli avtomobillar chiqaradigan zaharli gazlar aniq tasvirlanmagan. CO2 gazlar, uglevodorodlar, azot oksidi, aldegidlar, ketonlar, qo'rg'oshin elementlari va boshqalar ko'p hollarda gigienik nuqtai nazardan zararli bo'lgan, atmosfera havosining transport vositalaridan ifloslanishining asosiy manbalari sifatida muhokama qilinadi. Avtomobil tomonidan atmosferaga chiqadigan zaharli gazlar metrologik sharoitdagi fotokimyoviy o'zgarishlarga mos kelishi o'rganilgan [7].

O'simliklar, bir qator ekish aholi zich joylarda transport yuk kamaytirish va nodavlat kesishgan yo'llar sonini oshirish [3]. T. D.J.umaboevning ta'kidlashicha, Samarqandda transport vositalarining ifloslanishi 70 foizdan oshadi va agar avtomobillar atmosferaga issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish uchun gaz bilan ishlashga o'tsa, ifloslanish nisbatan kamayadi [11]. CO2 va NO2 gazlarining miqdori yozda ertalab soat 8 da ertalabki shamol sabab bo'lgan 16 ga nisbatan pastroq edi. 2,5 m/s shamol tezligida ifloslanish darajasi 2 baravar past edi [3].

Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda faqat Samarqand viloyati markazidagi yengil avtomobillar soni qariyb 200 mingdan oshdi. Ushbu transport vositalarining har biri havoga 200 dan ortiq turli xil zararli, zaharli kimyoviy moddalar va

birikmalar chiqaradi. Bundan tashqari, o'rtacha 1 yo'lovchi avtomobili har yili atmosfera havosidan 4 tonna kislorod olib, 500 kg loy gazi, 40 kg azot oksidi, 200 kg turli karbonat anhidrid birikmalari va bir necha kilogramm tetraetil qo'rg'oshin chiqaradi. egzoz orqali havo.

Atmosfera havosining ifloslanish darajasi transport vositalarining soniga, ularning normal ishlashiga, shahar ko'chalarining shamollatilishiga, ko'p va oz sonli daraxtzorlarga, havoning iqlim sharoitiga va boshqa omillarga bog'liq. Tanadagi metabolik jarayonlar havodagi kislorod bilan chambarchas bog'liq. Bu havo bilan birga uni ifloslantiruvchi zararli chang va gazlar inson tanasiga kiradi. Agar odam o'rtacha daqiqada 16-18 marta nafas olsa, inson tanasiga qancha zararli omillar kirishi mumkin? Agar ular gigienik me'yordan oshsa, qanday kasalliklarga olib kelishi mumkin?. Shuning uchun havoning ifloslanishi yuqori bo'lgan

shaharlarda nafas yo'llarining, umuman inson tanasining turli kasalliklari: anemiya, bronxit, pnevmoniya, rinit va boshqalar bilan kasallanish ko'paymoqda. Viloyat atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand havosi chang, azot, xlor, uglerod oksidi, vodorod florid, fenol va boshqa zararli chiqindilar bilan ifloslangan. Havodagi azot oksidlari bolalarda nafas yo'llari, ko'zlar va tomoq kasalliklarini keltirib chiqaradi va oltingugurt gazi ko'rish, nafas olish va eshitish organlarining kasalliklarini kuchaytiradi. Xususan, kanserogen moddalar asab, reproduktiv tizim va inson metabolizmiga salbiy ta'sir qiladi. Bunday misollar ko'p. Issiqlik mashinalarining ta'siri ostida atmosferadagi karbonat anhidrid (SO₂) tarkibi ikki baravar ko'paydi va metan gazi besh baravar oshdi. Agar atmosferadagi SO₂ tarkibi yana 2 baravar oshsa va metan miqdori oshsa, Sayyora katta xavf ostida qoladi, degan fikr bor.

Diagramma 2

Samarqand viloyati shahar va tumanlarida yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'riganlar soni (har 100 000 kishiga)





Diagramma muallif tomonidan tuzuldi

Hozirgi vaqtda issiqxona effekti tufayli yer atmosferasining o'rtacha harorati ko'tarilmoqda, muzliklar eriyapti va okeandagi suv sathi ko'tarilmoqda. Natijada, ko'plab qishloq va shaharlarni suv bosadi va mintaqaviy emigratsiya jarayoni bugungi kunga qaraganda yanada kuchayishi mumkin. Atmosferaning zaharli va zararli moddalar bilan ifloslanishi shahar va uning atrofidagi yashil maydonlarga katta zarar etkazadi. Zararli moddalar o'simliklarning to'g'ridan-to'g'ri er usti qismiga, shuningdek tuproq orqali ildizlarga salbiy ta'sir qiladi. Havodagi uchuvchi kul va turli zararli moddalar tuproqning fizik tabiatini yomonlashtiradi, o'simliklarning barg og'zini yopib qo'yadi, assilyatsiya jarayonini sekinlashtiradi, shuningdek, o'simliklardagi fotosintez jarayoniga salbiy ta'sir qiladi, bundan tashqari bargdan suvning bug'lanishi jarayonini 1,5-2 baravar kamaytiradi. Atmosfera havosining ifloslanishi inson salomatligi va hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, agar inson hayoti davomida nafas olish uchun 600 000 kubometr havodan foydalansa, bu o'rtacha 70 yoshda bo'lsa, bu havoning zararli moddalar bilan ifloslanishi tufayli uning sog'lig'iga xavf tug'diradi va umr ko'rish davomiyligining sezilarli darajada qisqarishiga olib keladi. Dunyoda kislorod iste'moli yildan-yilga ortib bormoqda. Hozirgi kunda insonning texnik jihozlari darajasini oshirish kislorod chiqarish va kislorod iste'moli o'rtasidagi tabiiy muvozanatni buzadi va bu tobora xavfli bo'lib bormoqda. Kuniga o'rtacha 9 kg havo iste'mol qiladigan inson tanasi tarkibidagi zararli moddalarni to'playdi.

Samarqand viloyati shahar va tumanlarida yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'riganlar soni (har 100 000 kishiga)



Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, zararli moddalar ongini xiralashtiradi va kundalik vazifalarni bajarishni

qiyinlashtiradi. Buning uchun iflos havoni qisqa muddatli inhalatsiyalash kifoya. Birmingem va Manchester

universitetlari tomonidan olib borilgan yangi tadqiqot shuni ko'rsatdiki, hatto zarracha moddalarini (PM) yuqori bo'lgan havoni nafas olishning qisqa muddatlari ham odamlarning diqqatni jamlash va his-tuyg'ularni tushunish qobiliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu hatto xarid qilish kabi kundalik vazifalarni ham bajarishni qiyinlashtirishi mumkin.

Tajriba ishtirokchilari sham tutuniga o'xshash ifloslantiruvchi moddalarning yuqori konsentratsiyasiga duch kelishdi. Ular ifloslangan havoni nafas olishdan oldin va nafas olishdan to'rt soat o'tgach, kognitiv testlarni yakunladilar. Sinovlar ishchi xotirani, tanlangan e'tiborni, hissiyotlarni tanib olish qobiliyatini, psixomotor tezligni va diqqatning barqarorligini baholashga qaratilgan edi.

Ma'lum bo'lishicha, havoning ifloslanishi tanlangan e'tiborga va his-tuyg'ularni tan olish qobiliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga, ishtirokchilarning nafas olish usuli (normal yoki faqat og'iz orqali) muhim emas edi.

Havoning ifloslanishi yallig'lanishni keltirib chiqarishi mumkin, bu odamlarning diqqatni jamlash va his-tuyg'ularni tushunish qobiliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Biroq, ishchi xotira ta'sir qilmaydi. Bu shuni anglatadiki, ba'zi miya funksiyalari ifloslangan muhitga nisbatan ancha chidamli.

Tavsiyalar: Soha mutaxassislarining ta'kidlashicha, gavjum ko'chalardan o'tayotgan transport vositalarining chiqindi gazlarida uglevodorodlar, qo'rg'oshin, azot oksidi va hidli gazlar mavjud. Faqat bitta mashina har yili atmosfera havosidan sezilarli miqdorda shifobaxsh kislorodni "yutadi", kaput orqali havoga 500 kilogramm karbonat angidrid va hidli gazlar, 40 kilogramm azot oksidi, 200 kilogramm uglerodli suvlarni chiqaradi. Bunday noxush holatlar tufayli havoning shaffofligi 25-30 foizgacha pasayadi. Havoda kamroq ijobiy (foydali) ionlar, ko'proq salbiy (zararli) ionlar mavjud.

Bugungi kunda havoning ifloslanishini kamaytirish sog'lom ekologik muhitni ta'minlash uchun muhim hisoblanadi. Jamiyat va inson salomatligini yaxshilash, zararli

gazlar chiqindilarini kamaytirish maqsadida "yashil" texnologiyalar qo'llaniladi, obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Atmosferaga chiqariladigan zaharli gazlar miqdorini kamaytirish orqali u nafaqat ekologik muhitni yaxshilaydi, balki odamlarning o'rtacha umr ko'rishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, sanoatlashgan hududlarda atmosferaga chiqariladigan toksik birikmalar aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, atrof-muhitning ko'p ifloslanishidan aholi uchun xavf darajasidagi ma'lum bir nomuvofiqlik ushbu masalani yanada izchil o'rganishni talab qiladi. Metallurgiya, issiqlik energetikasi va ko'mir sanoati katta joylashgan hududdagi yirik sanoat markazida atrof-muhitning ifloslanishi xavfini miqdoriy tavsiflash hozirgi paytda dolzarb masala hisoblanadi.

Shahar sharoitida daraxtlar va butalar shovqin darajasini pasaytiradi. Xiyobonlar, bog'lar va gulzorlar odamlarga estetik zavq bag'ishlaydi va asab tizimini tinchlantiradi. Bu odamlar uchun sevimli dam olish maskani bo'lib xizmat qiladi. Ko'kalamzorlashtirish yoki himoya qilish uchun yo'l chetlari bo'ylab ekilgan daraxtlar ham barglar yordamida havodagi polenni ushlab, havoni tozalashda muhim rol o'ynaydi. Shaharlardagi yashil resurslarning yana bir muhim va foydali xususiyati shundaki, ular tovush va shovqinni 20% ga o'zlashtiradi (namlaydi), daraxtlar qanchalik zich bo'lsa, ular shunchalik ko'p shovqinni o'zlashtiradi. Parklar, bog'lar, kvadratlar va xiyobonlar inson tanasiga shifobaxsh ta'sir ko'rsatadi: ular asablarni tinchlantiradi, samaradorlikni oshiradi. Shunday qilib, toza havo inson salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, organizmning turli yuqumli kasalliklarga chidamliligini oshiradi. Sanoatda shovqinni nazorat qilish xavfsiz va sog'lom ish joyini yaratish, samaradorlikni oshirish va atrofdagi jamoalarga salbiy ta'sirlarni minimallashtirish uchun juda muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. M. Z. Musadjonov, avtomobillarga xizmat ko'rsatish korxonalarini loyihalash asoslari, Tamaddun nashriyoti, Toshkent, 336 (2017)
2. E. V. Nikitina, E. Ortiqov, N. Y. Beshko, K. U. Xalbekova, O'zbekistondagi ayrim noyob Iris (Iridaceae) turlarining molekulyar autentifikatsiyasi (2023) <https://doi.org/10.14719/pst.25963>.
3. O. Niyozova, L. Belyalova, S. Suyarov, M. Turdaliyev, Sh. Sayfiddinov, E3s Eissn konferentsiyalari veb-sayti:2267-1242. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202452402018>
4. Adam M., Schikovski T., Carsin A. E. va boshq. Kattalar o'pka funksiyasi va longterm havo ifloslanishi ta'sir. Qochish: ko'p markazli kohort tadqiqoti va metaanaliz // Eur. Nafas olish. J.-2015. - №45 (1). - P. 38-50.
5. CortezLugo M., Ramsekrezaguilar M., Pkekrezpadilla R. va boshq. KOAH Int bilan bemorlarning Meksika panelda nafas salomatligiga PM2.5 uchun shaxsiy ta'sir ta'siri. // J. Environ. Res. Jamoat Salomatligi. - 2015. - №12 (9).
6. Simoni M., Baldacci S., Maio S. et al. Qariyalarda tashqi eshik ifloslanishining salbiy ta'siri // J. Thorac. Dis. - 2015. - №7 (1). - P. 34-45.
7. Agusti A., V. Makni, Donaldson K. va Cosio M. gipotezasi: KOAHDA otoimmun komponent borimi? // Ko'krak qafasi. - 2003. - №58(10). - R. 832-834.
8. McCormick MC. Bolalar salomatligini o'lchash masalalari // Ambul Pediatr. - 2008. №8 (2). - R. 77-84.
9. Kobilov E. E., Batirov X.F., Ozdamirova E. M. O'zbekistonning shahar ekotizimlari va ularni ekologizatsiya qilish yo'llari. // Bio konferentsiyalar veb-sayti 63, 03002 (2023) ASE-2023 <https://doi.org/10.1051/bioconf/20236303002>
10. JSST. Havoning ifloslanishi. JSSV. Onlayn manzilda: <http://www.who.int/airpollution/en/>



Dilnavoz TURSUNOVA,
FarDU Maktabgacha talim kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: doctortursunova@gmail.com

DSc, dotsent M. Boltayeva taqrizi asosida

INTEGRATIV DARSLARNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Аннотация

Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarning tahliliy, mantiqiy va darslarni integrativ modellashtirish kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, ularning bilim, ko'nikma, malaka hamda shaxsiy sifat va fazilatlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy amaliyotga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik jihatlari o'rganish, bitiruvchilarning zaruriy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, tafakkur, texnologiya, talab, yondashuv, bilim, tajriba, ta'lim, tarbiya, jarayon, darslik, mashg'ulot.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИНТЕГРАТИВНЫХ ЗАНЯТИЙ

Аннотация

Сегодня особое значение приобретает выяснение педагогико-психологических особенностей формирования аналитических, логических и интегративно-моделирующих компетенций будущих учителей, развития их знаний, умений, компетенций и личностных качеств. В статье речь идет об изучении организационно-педагогических аспектов подготовки будущих учителей к профессиональной практике, формировании необходимых компетенций выпускников.

Ключевые слова: Компетенция, мышление, технология, спрос, подход, знания, опыт, образование, обучение, процесс, учебник, обучение.

PEDAGOGICAL CONDITIONS OF ORGANIZING INTEGRATIVE LESSONS

Annotation

Today, it is of particular importance to clarify the pedagogical-psychological features of the formation of analytical, logical and integrative modeling competencies of future teachers, to develop their knowledge, skills, competences and personal qualities. The article deals with the study of organizational-pedagogical aspects of training future teachers for professional practice, formation of necessary competencies of graduates.

Keywords. Competence, mindset, technology, demand, approach, knowledge, experience, education, training, process, textbook, training.

Kirish. Jahonda yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-innovatsion rivojlantirish modellarini ishlab chiqish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida shaxsga yo'naltirilgan o'qitish tizimlarini yaratish va ularni amalga oshirishning innovatsion mexanizmlarini tatbiq etishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa bo'lajak o'qituvchilarining metodik kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini rivojlantirish, integrativ dasturiy ta'minotini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitida darslarni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishga ustvorlik berish alohida dolzarflik kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar, pedagogik va psixologik fanlarni integrativ o'qitish asosida talabalarning ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy va umummadaniy bilim va ko'nikmalarini, tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalari yuzasidan B.Xodjayev, G.Rashidova, G.Maxmutova, Z.Qurboniyozova, N.Taylakov, M.Aliqulova, O. Musurmonova, N.Muclimov, M.Upazova, Sh.Eshpulatov[1]lar tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. O'zbekiston Respublika Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishi, ta'lim-tarbiya jarayonlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqish, shuningdek, 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" ustuvor vazifa etib

belgilangan. Bu esa, bo'lajak o'quvchilarning kompetensiyasini integrativ darslarni modellashtirish asosida shakllantirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalarini optimallashtirish masalalariga alohida e'tibor berilishini taqozo etadi. Bu borada bo'lajak o'qituvchilarning tahliliy, mantiqiy va darslarni integrativ modellashtirish kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, bo'lajak o'qituvchilarning bilim, ko'nikma, malaka hamda shaxsiy sifat va fazilatlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy amaliyotga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik aspektlarini o'rganish, bitiruvchilarning zaruriy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish zaruriyati paydo bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda inson kapitali sifatini oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etib, YUNESKO ta'lim siyosatini yuritish sektori (Yeducation Sector)ning 2030 yilgacha belgilagan xalqaro ta'lim konsepsiyasida «hayot davomida sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratish (Life learnine)»ga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur zaruratdan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning bilimli va aql zakovatli, yetuk kadrlar sifatida tayyorlash masalasi davlat siyosatining demokratik mohiyatida yaqqol namoyon bo'lib, yetuk avlod tarbiyasida ta'lim va tarbiya tushunchalari bir biri bilan doimo uyg'un tarzda ishlatiladi. Ta'lim tushunchasi - shaxsning ma'rifiy va tarbiyaviy darajasini oshirish orqali uning aqlan rivojlanishini ta'minlash maqsadida ta'lim subyektlari orasidagi didaktik faoliyat bo'lsa, tarbiya tushunchasi esa - yangi avlodning ijtimoiy tarixiy tajribasini berish tufayli rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy funktsiya, ijtimoiy ta'sir ostida inson shaxsiy va ma'naviy dunyosini shakllantirish, boyitish va takomillashtirishning aniq

maqsadga yo'naltirilgan, sistemallashtirilgan ongli jarayon sifatida qaraladi. Tarbiya-ta'lim bilan o'zaro bog'langan ijtimoiylashning asosiy bo'g'ini hisoblab, ta'lim tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoni ta'lim subyekti va obyekti, umuman atrof-muhitning barcha tipologik xususiyatlariga, uzluksiz darajadagi ta'lim va tarbiyaga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish hamda ta'limning qiymat yo'nalishlari vektorini aniqlash, ijtimoiy, predmetli va psixodidaktik komponentlarning dialektik o'zaro ta'sirini ham hisobga olishni taqozo etadi. Demak, ta'lim uzluksizligi ta'lim subyektlari hamda ularning samarali integratsiyasi bilan belgilanadi. Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimining isloh qilinishi, optimallashtirilgan ta'lim standartlari asosida ta'lim va tarbiya jarayonini qayta tashkil etishga yo'naltirilgan. Shu ma'noda ta'lim va tarbiya muassasalarining zamonaviy yondashuvi, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy faoliyatidagi mobiligi, o'z kasbining amaliy jihatlariga erta moslashish, axborotlashtirilgan jamiyatning XXI asrida axborot texnologiyalarning roli va o'rni har bir jabhaning ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Natija va muhokama. Pedagogika sohasidagi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitishda ularni innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'qitishning yangi, innovatsion shakl, uslub va vositalari bilan tanishtirish, pedagoglarda kasbiy kompetentlik sifatleri va kreativ qobiliyat mohiyati bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuvlar sifatida pedagogika sohasida uzluksiz ta'lim klasterini ta'minlanishini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Bu sohadagi ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish esa, mazkur masalaning amaliy jihatlarini ochish imkoyatini oshiradi. Respublikamizda ta'lim sohasida ijtimoiy- pedagogik, akmeologik hamda kompetensiyaviy masalalarga doir birqator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, N.Muslimov, Sh.Sharipov va boshqalarning tadqiqotlarda bevosita muayyan yo'nalishlardagi mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish masalalari keltirib o'tilgan. Bu tajribalardan bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonlarida internet tarmog'idan keng foydalanishda, o'qituvchilar, tarbiyachilar tomonidan yaratilayotgan o'quv elektron darsliklar, noan'anaviy dars va mashg'ulotlar ishlanmalari mazkur web-saytlarga joylashtirilib barcha qulay imkoniyatlar yaratiladi. Ta'lim faoliyatining tahlili, pedagogik diagnostikani qo'llanishini talab etuvchi asosiy muammolar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

1. Pedagogik jarayonda diagnostika. O'qituvchi ta'lim jarayonini doimiy ravishda rejalashtirishi, amalga oshirishi va baholashi lozim. Bu vazifa o'zlashtirishning diagnostik nazorati yordamida bajarilishi mumkin.
2. Individual o'ziga xosliklarini diagnostika qilish.
3. Rivojlanishda qoloqlikning turli shakllarini diagnostikasi va ularning tuzatilishi.
4. Ta'lim jarayonining samaradorligini diagnostik taqqoslash. Yuqoridagi muammolar bo'lajak pedagoglardan ma'lum bir ishni bajarish uchun zarur bo'lgan shaxsga qaratilgan, standartlashtirilgan talablaridan iborat bo'lgan- kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishni talab qiladi. Kompetentli

yondashuv davlat, jamiyat va insonning o'z manfaati uchun hayotning muhim sohalarida muvaffaqiyatli ishlash uchun bilim va amaliy faoliyat usullarini kompleks o'zlashtirishga qaratilgan. Kompetentli yondashuvning maqsadi zamonaviy ta'lim nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, o'quvchining nazariy bilimlari va uni amaliy qo'llash o'rtasidagi uzilishni yengishga intilishdir. Shuning uchun zamonaviy ta'lim jarayoni amaliyotda qo'llanilishi qiyin bo'lgan bilimlarni talabalarga berishdan iborat emas, aksincha shu bilimlarni dolzarb kasbiy muammolarni hal qilishga namoyish etish, shuningdek o'quv jarayonida bu kabi muammolarni o'quvchilarning o'zlari mustaqil ravishda hal qilishlari uchun sharoit yaratishdan iborat bo'lishi kerak. Tahlillarga ko'ra, pedagogik shart-sharoitlarni uchta katta guruhga bo'lish mumkin: tashkiliy-pedagogik, pedagogik-psixologik, didaktik. Tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlashda asosan fan dasturlari, o'quv rejalar, talablarni ishlab chiqish, rivojlantirish, o'quvslubiy ta'minotni mazmunan rivojlantirish nazarda tutiladi. Pedagogik-psixologik shart-sharoitlarga turli metodikalar ishlab chiqish va ta'lim tarbiya jarayoniga tadbiiq etish, psixologik o'yinlarni qo'llash, o'quvchilarning hissiy-emotsional va aqliy harakatlarini shakllanishiga xizmat qiluvchi ishlanmalar va texnologiyalar ishlab chiqish nazarda tutiladi. Didaktik shart-sharoitlarga umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun tegishli fanlardan o'quv qo'llanma va darsliklar, elektron uslubiy qo'llanmalar hamda didaktik o'yinlarning elektron variantlarini ishlab chiqish nazarda tutiladi. Ta'lim muassasalarida samaradorlikni ta'minlash uchun ta'lim jarayonida ijodiy muhit yaratilmog'i, uzluksiz metodik xizmatni tashkil etish, o'qituvchilarning o'z ustida ishlashini ta'minlashda ijodiy yondoshuvning ta'lim-tarbiya samaradorligiga ta'siri, avvalo mavjud muammolarni aniqlashtirib olish bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarini kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhitini yaratish barqarorligini ta'minlashga xalaqit beruvchi omillar:

1. Ta'lim muassasasi pedagoglarining samarali ishlashlari uchun ijtimoiy psixologik holatlar va xususiyatlar shakllanishida sustkashlik holatining yuzaga kelishi, sohadagi uzviylikning to'liq natijalarga yo'naltirilganligi o'z isbotini topishida muammaolarning yuzaga kelishi.
2. Pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishda amaliy ko'nikmalarning yetishmasligi;
3. Uzluksiz metodik xizmat ko'rsatishning quyi bo'g'inlari, fan kafedralari, metodik kengashlarning faolligi samarali natija ko'rsatmasligi.

Xulosa. Xulosa o'rni shu aytish mumkinki ta'lim-tarbiya muhiti mutaxassislarini tayyorlash uchun faqatgina buyurtmachi sifatidagina emas, balki o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, talabalar bilan muloqot qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratish, kasbiy hamjamiyat va pedagogik muammolarni hal qilishda faol ishtirok etish, fir mulohazalarini bildirishga mas'ul hisoblanadilar. Integratsiyalashgan muhitida tashkiliy, uslubiy, dasturiy ta'minot, ularning texnik vositalari asosida samarali sharoitlar yaratish talabalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, talabalarning ta'lim ehtiyojlarini ham hisobga olishlari lozim.

ADABIYOTLAR

1. Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: пед. фанл. доктори ...дисс. –Т.: 2016. – Б.234;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. Toshkent sh., 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –Т., 2022. –Б.39. www.lex.uz
4. Академис ресеарч ин едусационал ссиенсес волуме 2 | иссеу 4 | 2021 исси: 2181-1385 Ссиентифис Жоурнал Импаст Фастор (СЖИФ) 2021: 5.723 DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00668 Академис Ресеарч, Узбе
5. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari kasbiy shakllantirish. Monografiya. – Т.: Fan, 2004. - 128 b. 5. YUNESKO xalqaro meyoriy hujjatlari. / mas'ul muharrir: L.Saidova. – Т.: Adolat, 2004. –Б. 19-62.
6. Десигнинг еффестиве мониторинг анд евалуатион оф едусатион сйстемс фор 2030: А глобал сйнтесисс оф полисисес анд прастисесс (УНЕССО Едусатион Сестор Дивисион фор Полисисес анд Лифелонг Леарнинг Сйстемс, Жануарй 2016), п 38,52,77
7. Усмоналиев, И. (2022). Булажак ўқитувчилар касбий компетенсиясини тарихий тафаккур асосида такомиллаштириш зарурати ва муаммонинг амалиётдаги ҳолати. Общество и инновации, 3(5/S), 132-141



UDK:159.9(575.1)

Shohista O‘KTAMOVA,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: ushohista@gmail.com

PhD H.Bekchanov taqrizi asosida

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF MANIFESTING STUDENTS' INTELLECTUAL ABILITIES THROUGH METACOGNITIVE STRATEGIES

Annotation

In this article explores the psychological mechanisms through which students' intellectual abilities are manifested by means of metacognitive strategies. It also describes methods of applying metacognitive strategies in the educational process and provides pedagogical and psychological recommendations. In addition, the interaction of metacognition with learning motivation, emotional-regulatory factors, and the socio-cognitive context is analyzed, and relevant conclusions are presented.

Keywords: metacognition, metacognitive strategies, intellectual abilities, self-regulation, reflexivity and conscious control, strategic flexibility, metamotivational function, relation to emotional regulation, self-explanation technique.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ МЕТАКОГНИТИВНЫЕ СТРАТЕГИИ

Аннотация

Данная статья освещает психологические механизмы проявления интеллектуальных способностей у учащихся посредством метакогнитивных стратегий. Также представлены методы применения метакогнитивных стратегий в образовательном процессе и педагогико-психологические рекомендации. Кроме того, анализируется взаимодействие метакогниции с учебной мотивацией, эмоционально-регуляторными факторами и социально-когнитивным контекстом, а также приводятся соответствующие выводы.

Ключевые слова: метакогниция, метакогнитивные стратегии, интеллектуальные способности, саморегуляция, рефлексивность и осознанный контроль, стратегическая гибкость, метамотивационная функция, связь с эмоциональной регуляцией, техника self-explanation.

O‘QUVCHILARDA METAKOGNITIV STRATEGIYALAR ORQALI INTELLEKTUAL QOBILIYATLARNI NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK MEKANIZIMLARI

Аннотация

Mazkur maqolada o‘quvchilarda metakognitiv strategiyalar orqali intellektual qobiliyatlarni namoyon bo‘lishining psixologik mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, ta‘lim jarayonida metakognitiv strategiyalarni qo‘llash usullari va pedagogik-psixologik tavsiyalar bayon qilingan. Bundan tashqari, metakognitsiyaning o‘quv motivatsiyasi, hissiy-regulyator omillar va ijtimoiy-kognitiv kontekst bilan o‘zaro ta‘sir tahlil qilinib, xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Metakognitsiya, metakognitiv strategiyalar, intellektual qobiliyatlar, o‘z-o‘zini tartibga solish xususiyati, refleksivlik va ongli nazorat, strategik moslashuvchanlik, metamotivatsion funktsiya, hissiy regulyatsiya bilan aloqadorlik, self-explanation texnikasi.

Kirish. Ta‘lim tizimi va yosh avlodning intellektual salohiyatini rivojlantirish bugungi kunda O‘zbekiston davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ko‘p marotaba ta‘kidlaganidek, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining eng muhim omili – bu zamonaviy bilim va yuksak intellektga ega yosh avlodni tarbiyalashdir”.

Ta‘lim tizimining modernizatsiyasi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, kreativ yondashuvi va intellektual salohiyatini kengaytirish davlatning strategik vazifalaridan sifatida belgilangan. So‘nggi yillarda qabul qilingan bir qator qonunlar va farmonlar ta‘lim jarayoniga ilg‘or yondashuvlarni, jumladan, metakognitiv strategiyalarni tatbiq etish uchun mustahkam huquqiy asos yaratib berdi. Jumladan, 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunda ta‘limning asosiy maqsadini kengaytirib, o‘quvchilarda nafaqat bilim va ko‘nikmalar, balki kognitiv va metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirishni ham ta‘lim jarayonining muhim vazifasi sifatida belgiladi. Qonunda shaxsning

intellektual, madaniy, huquqiy va ijodiy rivojlanishi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilgan.

Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” da ta‘lim sifati va o‘quvchilarning global kompetensiyalarini oshirish, shuningdek, tanqidiy va mustaqil fikrlash kabi metakognitiv qobiliyatlarni shakllantirish muhim strategik vazifa sifatida belgilangan. Unda o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim metodlari, shu jumladan, o‘quv faoliyatini o‘z-o‘zini nazorat qilish va rejalashtirishga o‘rgatuvchi strategiyalar asosiy yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan.

“Maktab ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Milliy dastur”da ta‘lim sifati oshirish, o‘qitish metodlarini yangilash, o‘quv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish, AKT va interaktiv metodlarni keng qo‘llashni nazarda tutadi. Dasturda alohida e‘tibor - o‘quvchilarni “o‘qishni o‘rganishga” o‘rgatish,

ya'ni metakognitiv strategiyalarni kundalik ta'lim amaliyotiga joriy etishga qaratilgan.

Yuqoridagi qonun va farmonlar O'zbekistonda ta'lim jarayonini chuqur isloh qilish, o'quvchilarning intellektual, kreativ va metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylanganini ko'rsatadi. Hozirgi ta'lim falsafasi - o'quvchini shunchaki bilim oluvchi emas, balki o'z o'qishini rejalashtira oladigan, fikrlash jarayonini nazorat qila oladigan, muammolarni mustaqil hal qila oladigan faol subyekt sifatida shakllantirishni ko'zlaydi. Bular - metakognitiv strategiyalar orqali o'quvchilarning bilimni sifatli o'zlashtirish hamda ularning mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini chuqurlashtirish jarayoniga mustahkam davlat-huquqiy asos yaratganini ko'rsatadi. Shu bois ham, ta'lim jarayonida metakognitsiyani rivojlantirish va uni pedagogik amaliyotga tizimli integratsiya qilish bugungi kundagi ustuvor vazifalardan biri sifatida qaraladi. Zero, metakognitiv strategiyalar – nafaqat akademik, balki psixologik-pedagogik salohiyatni shakllantirishda muhim vosita bo'lib, ularni mamlakat ta'lim siyosatida belgilangan maqsadlar va qonunlar kontekstida ko'rib chiqish ayni muddao.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Metakognitsiya “fikrlash haqida fikrlash”, “bilimlarni anglash”, “o'z ongini boshqarish” kabi mazmunlarga ega bo'lib, u ikki asosiy komponentdan iborat:

1. Metakognitiv bilimlar

– shaxsning o'z bilimlari, strategiyalari va imkoniyatlari haqida ongli tasavvurlari.

2. Metakognitiv boshqaruv (regulyatsiya)

– shaxsning o'qish jarayonini rejalashtirishi, monitoring qilishi va baholashi.

Ilmiy adabiyotlarda metakognitsiya shaxsning intellektual faolligini oshiruvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida talqin qilinadi. Masalan: J. Flavell metakognitiv jarayonlarni bilish faoliyatining yuqori bosqichi sifatida izohlaydi.

A. Bandura esa metakognitiv boshqaruvni o'zini-o'zi nazorat qilish va o'zini-o'zi boshqarishning psixologik negizi deb hisoblaydi. H. Gardner ko'p qirralilik nazariyasi doirasida metakognitiv ko'nikmalar intellektning barcha turlarini rivojlantirishda muhim ekanini ta'kidlaydi.

Metakognitsiya shaxsning motivatsiyasi, tafakkuri, emotsional barqarorligi va irodaviy sifatleri bilan bevosita bog'liq bo'lib, yuqori darajada shakllangan metakognitiv ko'nikmalar o'quvchining intellektual muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Metakognitiv strategiyalar – bu o'quvchining o'z o'qish jarayonini anglash, kuzatish va boshqarish uchun qo'llaydigan usullari bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1) Rejalashtirish strategiyalari

maqsad qo'yish

topshiriqni tahlil qilish

vaqtni taqsimlash

o'qish rejasini tuzish

2) Monitoring strategiyalari

o'z-o'zini savolga tutish

“Ovoz chiqarib o'ylash”

xatolarni aniqlash

fikrlash jarayonini kuzatish

3) Baholash strategiyalari

natijani tahlil qilish

o'z faoliyati ustidan refleksiya

muvaffaqiyat va kamchiliklarni aniqlash

4) O'quv faoliyatini tartibga soluvchi strategiyalar

muammoga mos strategiyani tanlash

fikr xaritalari va grafik modellar

mantiqiy tahlil va umumlashtirish usullari

Bu strategiyalar o'quvchilarning intellektual jarayonlarini faollashtiradi, o'zlashtirish jarayonini ongli va tizimli qiladi hamda yuqori darajadagi fikrlash amallarini rivojlantiradi.

Intellektual qobiliyatlar insonning bilish faoliyatiga doir imkoniyatlari, tafakkur tezligi, tahliliy fikrlashi, muammolarni hal etish qobiliyati va ijodkorligini qamrab oladi. Ularning rivojlanishi quyidagi mexanizmlarga tayangan holda amalga oshadi:

1) Kognitiv mexanizmlar

diqqatning boshqarilishi

xotiraning faolligi

tafakkurning mantiqiyligi

tahlil, taqqoslash, umumlashtirish qobiliyati

2) Metakognitiv mexanizmlar

refleksiya

o'z-o'zini tahlil qilish

strategiyani ongli tanlash

fikr jarayonini nazorat qilish

3) Emotsional-irodaviy mexanizmlar

motivatsiya

mas'uliyat

iroda

muvaffaqiyatga intilish

4) Sotsial-psixologik mexanizmlar

o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari

guruhdagi psixologik iqlim

o'quvchining o'ziga bahosi

Bularning barchasi metakognitiv strategiyalar bilan uzviy bog'langan bo'lib, ular uyg'un holda o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshiradi.

Tahlil va natijalar. Metakognitiv strategiyalar intellektual qobiliyatlarining barcha turlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan:

1. Analitik fikrlashni rivojlantiradi. Yani, strategiyalar orqali o'quvchi tafakkur jarayonini kuzatadi, xatolarni tahlil qiladi, asosli xulosalar chiqaradi.

2. Muammoli vaziyatlarda moslashuvchanlikni oshiradi. O'quvchi vazifaga qarab strategiyani tanlaydi, zarur bo'lsa o'zgartiradi.

3. Mustaqil fikrlashni kuchaytiradi. O'quvchi bilimni tayyor qabul qilmaydi, balki uni qayta ishlab chiqadi.

4. Ijodiy intellektni rag'batlantiradi. Refleksiya va monitoring jarayonlari yangi g'oya va yondashuvlarni yuzaga chiqaradi.

5. Kognitiv jarayonlarni chuqurlashtiradi. Xotira, diqqat, tasavvur kabi jarayonlar tizimli boshqariladi.

Shunday qilib, metakognitiv strategiyalar intellektual rivojlanishning psixologik vositasi sifatida samarali hisoblanadi.

Metakognitiv strategiyalarni o'rgatishda o'qituvchining faoliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'qituvchi: o'quvchilarga reflektiv savollar beradi; tahlil va fikrlash jarayonlarini faol tashkil etadi; o'z-o'zini baholash vositalarini qo'llaydi muammoli vaziyatlar yaratadi; strategiyalarni bosqichma-bosqich o'rgatadi.

Metakognitiv yondashuv asosida dars tashkil etilganda o'quvchilar intellektual jihatdan faol, mustaqil va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanadi.

Xulosa va takliflar. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning kognitiv faoliyatini ongli boshqarishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni joriy etish bilan chambarchas bog'liqdir. Metakognitiv strategiyalar ana shu texnologiyalarning eng samarali yo'nalishlaridan biri sifatida nafaqat o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish darajasini, balki tafakkurning yuqori tartibli sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur

tadqiqot davomida metakognitiv strategiyalarning nazariy asosi, psixologik mexanizmlari hamda ta'lim amaliyotidagi roli chuqur o'rganildi. Olingan ilmiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, metakognitiv faoliyatning o'rganishga ta'siri ko'p qirrali bo'lib, o'quvchi shaxsining kognitiv, affektiv, motivatsion va irodaviy jihatlarini bir butun tizimda rivojlantiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, metakognitiv strategiyalarni qo'llagan o'quvchilar: 30–40% yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'ladi; murakkab topshiriqlarda 2–3 baravar faol bo'ladi; mustaqil o'qish ko'nikmalarida sezilarli o'sish kuzatiladi; ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasi yuqori bo'ladi.

Shu bois metakognitiv yondashuv zamonaviy ta'limning asosiy komponentlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'quvchilarda metakognitiv strategiyalarni shakllantirish ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali psixologik vositasi hisoblanadi. Mazkur strategiyalar o'quvchining fikrlash jarayonini chuqurlashtiradi, mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantiradi, analitik fikrlashni kuchaytiradi va ijodiy intellektni rag'batlantiradi. Ta'lim jarayonida metakognitiv yondashuvni tizimli qo'llash o'quvchining shaxsiy hamda intellektual o'sishiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarda metakognitiv strategiyalar orqali intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun amaliy faoliyatda quyidagi metodlardan foydalanish tavsiya qilinadi:

1. "Ovoz chiqarib o'ylash" metodi. O'quvchi o'z fikriy jarayonini verbal tarzda sharhlaydi.

2. "O'z-o'zini savolga tutish" metodi. O'quvchi o'qish jarayonining har bosqichida o'zidan savollar so'rab monitoring yuritadi.

3. "Refleksiya jurnali". Kunlik ravishda o'z fikrlarini, o'rganilgan mavzularni va xulosalarni yozib boradi.

4. "Grafik organayzerlar". Klasster, Venn diagrammasi, mental xaritalar fikrlashni strukturaga soladi.

5. Metakognitiv treninglar. Maxsus mashqlar orqali o'quvchilarda o'z fikrini boshqarish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Yakunda aytish mumkinki, metakognitiv strategiyalar o'quvchilar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda nafaqat yordamchi vosita, balki asosiy psixologik mexanizm sifatida qaralishi kerak. Chunki bu strategiyalar o'quv jarayonini shaxs rivojlanishining markaziga aylantirib, o'quvchining mustaqil fikrlashi, muammolarni hal etishi, ijodkorlik ko'rsatishi va tafakkurini boshqarishi kabi yuqori tartibli intellektual sifatlarni shakllantiradi. Ta'lim tizimida metakognitiv yondashuvlarni bosqichma-bosqich joriy etish, davlat siyosatida belgilangan intellektual avlodni shakllantirish maqsadlariga mos keladi va jamiyatning innovatsion rivojlanish talablariga to'liq javob beradi.

ADABIYOTLAR

1. Зак А. З. Психология одаренности детей и подростков. Москва. Институт психологии РАН, 2000. 367 с.
2. Кабанова-Меллер Е. Н. Формирование умственных действий у школьников. Москва. Просвещение. 1962. 210 с.
3. Коняхин А.В. Тренинг интеллектуальных способностей: задачи и упражнения. - СПб.: Питер, 2007. – 128 с.
4. Петров А.В. Дискуссия и принятие решений в группе: Учебно - методическое пособие. – СПб.: Речь, 2005. - 80 с.
5. Flavell J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry, American Psychologist, Washington, 1979. 34(10), p. 906-911.



UDK: 37.041:37.018.43:004

Ibrohim UMAROV,

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, PhD

E-mail:ibrohim@bimm.uz

KTRI dotsenti, PhD H.Begimqulov taqrizi asosida

TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHAROITLARINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada kredit-modul tizimida ta'limning samaradorligi talabalarining mustaqil ta'limini to'g'ri tashkil etishga bog'liqligi va ushbu jarayonda pedagogik sharoitlarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish zarurligi hamda raqamlashtirilgan ta'lim muhitidan hamda foydalanish bo'yicha aniq tavsiyalar berilganligi va ushbu tavsiyalar asosida qurilgan metodologiyaning samaradorligi isbotlangan hamda maxsus tajribalar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: kredit-modul tizimi, mustaqil ta'lim, ijodiy fikrlash, axborot asri, raqamli ta'lim, ECTS.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Аннотация

В статье отмечается, что эффективность обучения в кредитно-модульной системе зависит от правильной организации самостоятельного обучения студентов, и подчёркивается необходимость уделять особое внимание совершенствованию педагогических условий в данном процессе. Также приводятся конкретные рекомендации по использованию цифровой образовательной среды, доказана эффективность методологии, разработанной на основе этих рекомендаций, и представлены специальные экспериментальные данные.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, самостоятельное обучение, творческое мышление, информационная эпоха, цифровое образование, ECTS.

IMPROVING THE PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR ORGANIZING STUDENTS INDEPENDENT LEARNING BASED ON DIGITALIZATION

Annotation

The article highlights that the effectiveness of education within the credit-module system depends on the proper organization of students' independent learning, emphasizing the need to improve pedagogical conditions in this process. It also provides specific recommendations on the use of a digital learning environment, demonstrates the effectiveness of the methodology developed based on these recommendations, and presents special experimental results.

Keywords: credit-module system, independent learning, creative thinking, information age, digital education, ECTS.

Kirish. Jahonda turli sohalarida raqamlashtirish jarayoniga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim tizimi ham bunday sohalar qatorida bo'lib, ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali bilim oluvchilarning mazkur jarayonda faol qatnashishlari, mustaqil bilim olishlariga keng imkoniyatlar mavjud. Uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak kadrlarning zamonaviy bilim va malakalarga ega, mustaqil bo'lishlari, ularning o'quv tayyorgarliklarini hozirgi zamon talablari darajasida rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim jarayonini shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamon talablariga moslashtirish, talabalarining raqamli texnologiyalardan foydalanishlarida pedagogik sharoitlarni rivojlantirish hozirgi kunning bolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Buni Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning "Future of Education and skills 2030" tashabbusida 2030-yilgacha ta'lim va ko'nikmalarni raqamlashtirish orqali mehnat bozoriga malakali kadrlarni tayyorlashni maqsad qilganidan ham anglash mumkin. Bu jarayonda elektron ta'lim asosiy vositalar biri sifatida ko'rilmogda[11].

Axborot texnologiyalariga asoslangan fanlar asoslari oliy o'quv yurtlarida o'qitilishini hisobga olsak, bu o'zgarishlar vaqt va yangi ehtiyojlarga ko'ra tez-tez sodir bo'ladigan jarayon bo'lishi kerak. Ushbu o'zgarishlar, agar kerak bo'lsa, har bir oliy o'quv yurtida har bir mintaqaning sharoitiga qarab bir oz farq qilishi mumkinligini istisno qilmaslik kerak. Ushbu o'zgarishlarga tezda moslashish uchun jahon tajribasi shuni isbotladiki, har bir oliy

o'quv yurti, birinchi navbatda, akademik jihatdan mustaqil bo'lishi va ta'limni kredit-modulli ta'lim tizimi tamoyillariga muvofiq tashkil qilishi hamda pedagogik sharoitlarni takomillashtirib borishi kerak.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Xorijda ECTS (European Credit Transfer System) tizimi ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir o'quv faniga yuklama hajmidan, kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun muhimligidan kelib chiqib kredit bali belgilanadi. Talaba har bir fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan taqdirda belgilangan kreditlarni oladi va bu kreditlar yig'indisi unga mos bo'lgan bakalavr yoki magistrlik darajasini olishga imkon beradi[12].

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, bu tizim haqida ba'zi odam dastlab noto'g'ri tasavvurga ega bo'lishadi, ya'ni, "kredit"ni baho deb noto'g'ri tushunishadi. Kredit – bu baho emas, balki biror fanni o'zlashtirish uchun sarflanadigan talabaning ish hajmining o'lchovi hisoblanadi.

Kredit ta'lim tizimiga o'tish O'zbekiston Respublikasida ta'lim bosqichlari va akademik darajalarni aniq baholashga imkon beradi va ularni shaffof, tashhislanadigan va tan olinadigan holatga keltiradi. Bu esa jahonda tobora ommalashib borayotgan ta'lim muhitiga qo'shilishning bosh shartlaridan biri hisoblanadi.

Kredit-modul atamasining tarixi yunon olimlari davrlariga borib taqaladi, Aristotel, Arxit, Suqrot, Platon, Aristoksan kabi yunon olimlarining asarlarida birinchilardan bo'lib qo'llashadi. Mazkur atama keyingi rivojlanishi asosan g'arb olimlaridan

K.D.Ushinskiy, J.Russo, T.Kompanella, T.Mora, I.Pestalotsi, R.Fable, A.Disterverglarning asarlarida namoyos bo'ladi.

Bugungi kunda foydalanib kelinayotgan internet ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, mustaqil so'zi o'zganing yordamisiz yoki rahbarligisiz ish qil oladigan, o'zicha fikr yurita oladigan, yashay oladigan degan ma'noni beradi. Ta'lim so'zi esa bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi; ilm-fan yoki kasb-hunar sohalar bo'yicha egallanadigan, olinadigan ma'lumot va ko'nikmalar majmui; ko'rsatma, yo'l-yo'riq, o'rgatuv kabi ma'nolarni ko'rish mumkin [12, 2].

Kredit-modul tizimi tarixi to'g'risidagi ma'lumotlardan juda muhim saboqlar olish mumkin. Bularndan eng asosiy sifati qayidagilarni keltirishimiz mumkin:

- Kredit-modul tizimi aniq ehtiyojlar asosida paydo bo'lgan. Eng avvalo u oliy ta'lim o'quv dasturlariga erkinlik olib kirish, o'quv dasturlariga tanlov fanlarini kirib kelishi bilan chambarchas bog'liq. Bundan tashqari kredit-modul tizimi oliy ta'lim o'quv dasturlarini "yuqoridan pastga" qarab emas balki "pastdan yuqoriga qarab" ya'ni zamon, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlari asosida shakllantirish ehtiyojlari asosida yuzaga kelgan;

- Kredit-modul tizimi qolaversa mamlakat oliy ta'lim muassasalarini mamlakatdan tashqaridagi universitetlar bilan aloqalarini yaxshilash, mamlakat universitetlarini xalqaro maydonda e'tirof etilishiga erishish ehtiyojlari asosida shakllangan. ECTS kredit-modul tizimining hozirgi kundagi eng asosiy vazifalari bu OTM o'quv dasturlariga erkinlik, moslashuvchanlik, shaffoflik va talabaga yo'naltirilgan ta'limni olib kirish [3].

Talabani mustaqil ta'lim faoliyati ko'nikmalarini shakllantirishda ta'limni tashkil etishning kredit-modulli tizimining pedagogik salohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, bu borada xorijiy olimlardan O.V. Akulova, N.A. Verzhinina, O.B. Dautova, V.I. Baydenko, Ya.S. Grebneva, O.V. Doljenko, V.A. Kozireva, B.C. Senashenko, A.V. Prilepino, V.N. Chistoxvalova, Ye.V. Shevchenko, P.L. Shubina ishlarining tahlili ta'limni tashkil etishning kredit-modulli tizimini bir dasturdan ikkinchisiga o'tish davrida talabani harakatchanligini oshirishga, olingan ta'lim sifati uchun uning mas'uliyati, turli mamlakatlardagi turli ta'lim muassasalarida natijalarni holisona tan olinishini ta'minlashga qaratilgan modulli ta'lim texnologiyalari va kredit o'quv birliklari (kreditlar) kombinatsiyasiga asoslangan ta'lim jarayonining modeli sifati ko'rib chiqishga imkon beradi.

Talabalar mustaqil ta'lim faoliyatini shakllantirishda ta'limni tashkil etishning kredit-modul tizimining tutgan o'rnini haqida Trubina N.E, o'zining ilmiy-tadqiqot ishida shunday deydi: kredit-modulli tizimning tuzilishi o'ziga xos munosabatlar va o'zaro ta'sirlar majmuini aks ettiradi, shu tufayli tizimga xos yangi umumiy xususiyatlar paydo bo'ladi va uning alohida tarkibiy qismlari yo'q (emerdjent, o'zaro ta'sir natijasida paydo bo'ladigan va faqat tizimlarga xos bo'lgan favqulodda xususiyatlar).

Ta'limni tashkil etishning kredit-modulli tizimi dinamik tizimdir. Tizimlar xatti-harakati dinamikasini bashorat qilish xususiyatiga muvofiq, maqsadga yo'naltirilgan, ya'ni yagona maqsadga erishishga - ta'limni tashkil etishning kredit-modulli tizimi talabani mustaqil ta'lim faoliyati ko'nikmalarini shakllantirishda omil vazifasini o'taydigan pedagogik shart-sharoitlarni asoslashga yo'naltirilgan. Tizimning integratori bu - mustaqil rivojlanuvchi sub'ekt sifatida talaba shaxsidir. Bu tizimga xos bo'lgan barcha komponentlar (maqsadlar, mazmun, metodlar (texnologiyalar), vositalar, shakllar, natijalar)ning o'zaro ta'siri natijasida paydo bo'ladigan emerdjent xususiyat mustaqil ta'lim faoliyati ko'nikmalaridir [12, 4].

Yuqorida keltirilganlardan hamda xorijda talabalar mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilgan holda [5,6,7,8,9,10] xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talabalar fan bo'yicha mustaqil ishlarini tashkil etish jarayoni o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan muayyan harakatlardan iborat bo'lib, talabalar tomonidan rejalashtirilgan ko'plab TMI turlarini bajarish uchun sharoit yaratishni ta'minlaydi.

Mazkur keltirib o'tilgan gipotezalarni amalda tadqiqot ishida sinab ko'rib, kredit-modul tizimi o'quv jarayonida talabalar

mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik sharoitlarini raqamlashtirish asosida takomillashtirish samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba sinov ishlari olib borildi.

Tajriba sinov ishlari ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich - qidiruv-nazariy, aniqlash, shakllantirish. Ikkinchi bosqich - gipotezani sinovdan o'tkazish pedagogik eksperimentning nazorat bosqichi.

Tajriba-sinov ishlari O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Qo'qon davlat pedagogika universitetlaridagi talabalar bilan olib borildi. Oliy o'quv yurtining talabalarida kognitiv, ijodiy, amaliy hamda refleksiv jarayonlarni o'z ichiga olgan tizimni shakllantirishda raqamlashtirilgan ta'lim platformasida mustaqil ta'lim olish kompetensiyalarini samarali rivojlantirish imkonini beradi.

- talabalarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini intellektual baholashda ularning axborot texnologiyalaridan va internet tarmog'idan o'rinni foydalana olish, kreativ fikrlash hamda ijodkorlik va izlanuvchanlik darajasi bilan belgilanadi;

- o'quv yutuqlarini "muvozanatli" baholash ("Balanced assesment") ancha yuqori tartibli intellektual ko'nikmalarni baholashga imkon beruvchi nazorat shakllaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Talabalarni differensial, kommunikativ, intellektual hamda moslashuvchan mezonlar bo'yicha bilimlari reproduktiv, qisman izlanuvchan, produktiv, kreativ darajalar asosida baholandi. Refleksiv mezon - talabani o'quv faoliyatda muammoli vaziyatlarga tayyor bo'lishi va ularni bartaraf eta olish ko'nikmasida namoyon bo'ladi. Konativ mezon - insonning g'oyaviy sezgirligi, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, ish va so'z birligi, voqelikka tez va aniq yo'nalganlik, muloqotga oson kirishish, muloqot jarayonida o'z fikrining afzalligini himoya qilish bilan belgilanadi. Kognitiv mezon - alohida vazifani hal etishda noan'anaviy metod va usullarni qo'llash, muloqot qilishning barcha muqobil imkoniyatlarini tahlil qila olish qobiliyati. Kognitivlik talabani pedagogik vaziyatni tushunishi va kognitiv muammolarni faol, moslashuvchan hamda ijodiy hal qilish qobiliyati hisoblanadi. Motivatsion mezon esa talabalar bilan o'zaro muloqot qila olish, shaxsning jozibali muloqoti, kommunikativ ko'nikmaga egaligi, muloqotga yo'nalganligi inobatga olinadi.

Tadqiqot doirasida talabalarning mustaqil ta'lim olish orqali bilimlarini rivojlanligining to'rt darajasi aniqlashtirildi: 1) takrorlovchi (past) - raqamli texnologiyalaridan kognitiv darajada foydalanish: mustaqil ta'lim olish bo'yicha minimal ma'lumotlarni bilish; o'z sohasiga tegishli adabiyotlar bilan ishlay olish; Internet tarmog'ida axborotni qidirish ko'nikmalariga egalik; 2) amaliyotchi (pastdan yuqori) - o'z sohasida qo'llanadigan amaliy dasturlardan foydalanishga doir layoqatga egalik: ta'lim jarayoniga tatbiq etiladigan dasturlarning imkoniyatini bilish; raqamli texnologiyalarni amaliy faoliyatida qo'llay olish; 3) mustaqil fikrlovchi (o'rta) - talaba qisman tez ishlaydi va barcha aqliy qobiliyatga ega, bilimlarni o'zlashtirish usullarini biladi; yordamni osongina qabul qiladi. Aqliy qobiliyatning umumiylik, tushunuvchanlik, moslashuvchanlik va mustaqillik darajasi qisman yuqori darajaligi bilan tavsiflanadi 4) ijodkor daraja (yuqori) - bilim, ko'nikma va malakalarning betakror, yangi darajasini ta'minlash, insonning yangi qirralarini ochib beradi hamda zamonaviy bilimlarni egallash, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishi va nostandart pedagogik vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olishi kabi ko'nikmalarni nazarda tutadi.

Tadqiqot davomida tajriba sinov ishlari ikki bosqichda natijalar olindi:

Daslabki bosqich (keys, individual topshiriqlar). Bu bosqichda xar bir mezonga mos keluvchi talabalarning ko'rsatkichlari va bilish darajasini aniqlash maqsadida ishlar olib borildi. Olib borilgan taqiqot ishining natijalarini aniqlashda keyslar, individual topshiriqlardan foydalanildi. Bu sinovlardagi topshiriqlarning ichida 25% dan xar bir mezon bo'yicha talabalarning ko'rsatkichini aniqlovchi savol va topshiriqlar berildi.

Yakunlovchi bosqich (keys, individual topshiriqlar). Bu bosqichda raqamlashtirilgan mustaqil ta'lim platformasining

takomillashgan mazmuni asosida tayyorlangan vediomateriallar, testlar, metodik ta'minotdagi o'quv qo'llanmani talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun o'quv jarayoniga joriy qilish. Tajriba-

sinov ishlari natijasida olingan ko'rsatkichlar mosligi va farqlarining haqqoniyligini tekshirish uchun Student matematik-statistikasidan foydalanildi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Tajriba-sinov va nazorat guruhlarida talabalarining mustaqil ta'lim jarayonida bilimlarining o'zlashtirish darajalari

Bilimlarni o'zlashtirganlik darajasi	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
	Tajriba boshida 158 nafar talaba		Tajriba oxirida 157 nafar talaba		Tajriba boshida 163 nafar talaba		Tajriba oxirida 161 nafar talaba	
	Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	%
Ijodkor (86-100%)	19	12%	42	26,8%	22	13,5%	22	13,7%
Mustaqil fikrlovchi (71-85%)	39	24,7%	84	53,5%	42	25,8%	48	29,8%
Amaliyotchi (55-70%)	78	49,4%	26	16,6%	78	51,6%	72	44,7%
Takrorlovchi (55% gacha)	22	12,9%	5	3,1%	24	9,1%	19	11,8%
Jami		100		100		100		100

Tajriba-sinov ishining yakuniy natijalari umumlashtirilib, matematik-statistik tahlil qilindi va rasmiylashtirildi. O'zlashtirish darajasi bir hil bo'lgan talabalar tanlab olingandan keyin o'zlashtirish natijalarini shartli ravishda ikkita statistik tanlanmaga ajratilib, har ikki tanlanma ustida o'rta qiymatlar, tanlanma dispersiyasi va variatsiya koeffitsiyentlari aniqlandi. Tadqiqot doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijasida talabalarining "Informatika" fani bo'yicha bilim darajasining o'sganligi va mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlanganlik darajasi ko'rsatkichi o'zgarishi aniqlandi. Ijodkor ko'rsatkichga erishgan talabalar soni nazorat guruhlarida dastlabki bosqichda 13,5% bo'lgan bo'lsa, oxirgi bosqichda bu ko'rsatkich 13,7% ni tashkil etdi, tajriba-sinov guruhlarida dastlab bu ko'rsatkich 12,0% bo'lsa, tajriba oxirida 26,8% ga erishildi; Mustaqil fikrlovchi ko'rsatkichga erishgan talabalar soni nazorat guruhlarida dastlabki bosqichda 25,8% bo'lgan bo'lsa, oxirgi bosqichda bu ko'rsatkich 29,8% yetdi, tajriba-sinov guruhlarida dastlab bu ko'rsatkich 24,7% bo'lsa, tajriba oxirida 53,5% ga erishildi; Amaliyotchi ko'rsatkichli talabalar soni nazorat guruhlarida 51,6% dan 44,7% ga kamaydi, tajriba-sinov guruhlarida esa 49,4% dan 16,6% ga kamaydi; Takrorlovchi ko'rsatkichli talabalar soni nazorat guruhlarida 9,1% dan 11,8% ga, tajriba-sinov guruhlarida esa 12,9% dan 3,1% ga kamaygan.

Xulosa. Yakuniy ma'lumotlarga asoslanib, eksperimental ishning yakuniy bosqichida olingan natijalarga ko'ra, tanlangan usul samarali bo'ldi. Talabalarni elektron ta'lim imkoniyatlari asosida mustaqil ravishda o'qishga undash, ushbu faoliyatni erkin tashkil etishlari uchun sharoit yaratish, shu bilan birga ushbu faoliyatni qarovsiz qoldirmaslik, agar kerak bo'lsa, ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarda talabalarining mustaqil fikrlashlarini rivojlantirish. Mashg'ulotlar ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, eng muhimi, barcha kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan mustaqil bilim va tadqiqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan, shuningdek eksperimental ishlarda amaliy bo'lgan ta'lim usullaridan foydalangan holda ko'rsatildi. Zamon talabalariga javob beradigan kadrlar, nafaqat zamonaviy bilimlarga ega, balki ilm-fanni rivojlantirish, mamlakatni rivojlantirish va odamlar farovonligi, mehnat bozorida rivojlangan analitik va tanqidiy fikrlash orqali olingan ma'lumotlarni mustaqil ravishda tahlil qila oladigan, saralay oladiganlar. raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni rejalashtirayotganimiz sababli, biz ushbu jarayonda raqamli ta'lim texnologiyalardan foydalanishimiz, oliy o'quv yurtlarida mustaqil ta'limni tashkil etishga mas'uliyat bilan yondashishimiz kerak. Mustaqil ta'lim, shuningdek, o'qitishning eng qulay va samarali usullaridan biri-masofaviy ta'limning asosi bo'lib, u zamonaviy imkoniyat va ba'zan zamonaviy zaruratdir.

ADABIYOTLAR

1. Usmonov B.SH, Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. Tafakkur nashriyoti. Toshkent – 2020.
2. <https://izoh.uz/word/mustaqil?ysclid=lrdeb5efyl205169304>.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim muassasalarida ECTS Kredit-modul tizimi: Asosiy Tushunchalar va Qoidalar. Toshkent – 2020.
4. Trubina N.Ye. Kreditno-modulnaya sistema organizatsii obucheniya kak faktor formirovaniya umeniy samoobrazovatelnoy deyatelnosti studenta. Avtoreferat. Orenburg -2010. 13-bet.
5. http://pstu.ru/files/file/organizaciya_samostoyatelnoy_raboty_studentov.docx.
6. Шалабина Л.Г. Методические рекомендации по освоению дисциплины (Математический анализ). Бузулукский гуманитарно-технологический институт – Бузулук: БГТИ, 2021 г. – 39 с.
7. М.О.Гладких, Д.Ю.Трещевский. Организация самостоятельной работы студентов. Воронежский государственный университет. Воронеж 2016 г.
8. Милованова М.В., д.филол.н., профессор, Терентева Е.В., д.филол.н., профессор, Козлова О.А., к.филол.н., доцент, Овечкина С.А., к.филол.н., доцент, Чубай С.А., к.филол.н., доцент. МЕТОДИЧЕСКИЕ МАТЕРИАЛЫ для организации самостоятельной работы обучающихся. Волгоград 2020.
9. Л.А. Козуб, Е.Ф. Сысоева. Пособие по выполнению самостоятельной работы студентов : учебно-методическое пособие / –Воронеж: Истоки, 2017. – 56 с.
10. Денисова, Е.А. Организация самостоятельной работы студентов : электронное учебное пособие / Е.А. Денисова, Э.Ф. Николаева, С.Ю. Николаева. – Толяти : Изд-во ТГУ, 2016.
11. <https://www.oecd.org/en/about/projects/future-of-education-and-skills-2030.html>
12. Tursunov S.Q, Umarov I.S. Kredit-modul tizimi o'quv jarayonida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish. "Afzalzoda books". 2024



UDK:371

Nigora UMAROVA,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti kafedra mudiri
E-mail: numarova@gmail.com

Toshkent amaliy fanlar universiteti professori G'.Hamroyev taqrizi asosida

O'ZBEK TILI MASHG'ULOTLARIDA MASHQLAR USTIDA SAMARALI ISHLASH USULLARI

Аннотация

Maqolada oliy ta'lim tizimida o'zbek tili o'qitishda mashq turlaridan samarali foydalanish, texnika yo'nalishi talablariga o'zbek tili bo'yicha belgilangan ko'nikma va malakalar hamda ularni shakllantirishga o'quv topshiriqlargadoir taklif-mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek, mashqlar tavsiflangan, tasnif etilgan hamda yangi darslik va qo'llanmalarida grammatik va nutqiy mashqlar qanday bo'lishi haqida taklif hamda namunalar berilgan.

Kalit so'zlar: mashq, mashq turlari, grammatik mashqlar, oliy ta'lim, nutqiy ko'nikmalar, o'zbek tili, malaka, kompetensiya, DTS, o'quv topshiriqlari, fonetik mashqlar, metodika, takomillashtirish, darslik, qo'llanma, zamonaviy o'quv topshiriqlari, leksik mashqlar, o'qib tushunish mashqlari.

МЕТОДЫ ЭФФЕКТИВНОЙ РАБОТЫ НАД УПРАЖНЕНИЯМИ НА ЗАНЯТИЯХ ПО УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация

В статье описывается эффективное использование видов упражнений при преподавании узбекского языка в системе высшего образования, навыки и квалификации, установленные по узбекскому языку в требованиях технического направления, а также учебные задания для их формирования, и предложения-соображения. Упражнения также описаны, классифицированы, а новые учебники и руководства содержат рекомендации и образцы того, на что похожи грамматические и разговорные упражнения.

Ключевые слова: упражнение, типы упражнений, грамматические упражнения, высшее образование, речевые навыки, узбекский язык, квалификация, компетентность, DTS, учебные задания, фонетические упражнения, методика, совершенствование, учебник, пособие, современные учебные задания, лексические упражнения, упражнения на понимание прочитанного.

METHODS OF EFFECTIVE WORK ON EXERCISES IN UZBEK LANGUAGE CLASSES

Annotation

The article describes the effective use of types of exercises when teaching the Uzbek language in the higher education system, the skills and qualifications established in the Uzbek language in the requirements of the technical direction, as well as training tasks for their formation, and suggestions-considerations. Exercises are also described, classified, and new textbooks and manuals contain recommendations and samples of what grammar and conversational exercises are like.

Keywords: exercise, types of exercises, grammar exercises, higher education, speech skills, Uzbek language, qualification, competence, DTS, training tasks, phonetic exercises, methodology, improvement, textbook, manual, modern training tasks, lexical exercises, exercises for reading comprehension.

Kirish. O'zbek tilidan yangi bilim va ko'nikmalarni egallash jarayoni asosan mashqlar vositasida amalga oshiriladi. Yangi material taqdim qilinib, unga misollar berilgandan so'ng, ushbu materialdan nutqda foydalanishni o'rgatish bosqichi talaba uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu bosqichda talaba nafaqat yangi so'z va iboralarni, balki ularning grammatika shakllari va kontekstga mos qo'llanilishini o'rganadi. O'quv topshiriqlari orqali talaba grammatik shaklni ishlatish jarayonida zarur ko'nikmalarni egallaydi, bu esa uning nutq mahoratini tez va samarali rivojlantirishga imkon beradi.

Mashqlar o'quv jarayonida turlicha bo'lishi mumkin: ular grammatika va lug'at boyligini mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'lishi, shuningdek, nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Shu bilan birga, barcha mashqlar tabiatiga ko'ra kommunikativ bo'lishi muhimdir. Ya'ni, mashqlar nafaqat grammatika qoidalarini o'zlashtirish, balki o'quvchining nutqiy qobiliyatini shakllantirish, muloqot jarayonida erkin fikr bildirish va so'z boyligini samarali qo'llash imkonini berishi kerak.

Mashqlarni ikki asosiy yo'nalishda ajratish mumkin:

Grammatik yo'nalishdagi mashqlar: bu mashqlar orqali talaba grammatika qoidalarini chuqur o'zlashtiradi, ulardan to'g'ri va o'z vaqtida foydalanishni o'rganadi, jumladan, morfologik va sintaktik qoidalarga rioya qilishni mashq qiladi.

Nutqqa yo'naltirilgan mashqlar: bu mashqlar talabaning nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular kontekstga mos so'z va iboralarni tanlash, fikrlarni aniq ifodalash, muloqot jarayonida grammatik jihatdan to'g'ri va mazmunli gaplar tuzishni o'rgatadi.

Shuningdek, tayyorgarlik mashqlari ham katta ahamiyatga ega. Bu mashqlar yangi materialni mustahkamlash, o'quvchida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish va sinfdagi faol ishtirokni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Mashqlarni interaktiv usullar bilan boyitish – masalan, guruhda ishlash, rolli o'yinlar, muhokamalar, dialoglar va multimedia vositalaridan foydalanish – o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi, ularning o'zaro muloqotini kuchaytiradi va o'rganilayotgan materialni amaliyotda qo'llashga yordam beradi.

Umuman olganda, O'zbek tili mashg'ulotlarida mashqlar samarali tashkil etilgan taqdirda, ular nafaqat tilni

o'rganish jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi, balki talabani lingvistik, nutqiy va kommunikativ ko'nikmalarini mukammal shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa natijada o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va tilni chuqur o'zlashtirish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bu borada X. Muxitdinovanning "Mashq o'quv mashg'ulotlarining alohida turi bo'lib, ular yordamida berilgan bilimlar asosida o'quvchilarda tegishli malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi. Til ta'limida mashqlarning o'rni juda katta. Til tizimi o'zining ko'p qirraliligi, birliklarining struktural va funksional xususiyatlariga ko'ra o'zaro bog'liqligi bilan ajralib turadigan hodisa, shu bois til ta'limidagi mashqlar ham turli-tuman ko'rinishga va tuzilishga ega bo'ladi. Ona tili ta'limidan farqli ravishda boshqa tilni o'rganish jarayonida bajariladigan mashqlarning asosiy qismi muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, keyingi paytlarda bunday mashqlarni ayrim metodistlar nutq mashqlari va til mashqlariga ajratishni tavsiya etmoqdalar [1].

E.Davronov topshiriqlarga ham maqsad, ham vosita sifatida qaraydi. Didaktik nazariyada "topshiriq", "tarbiyaviy topshiriq", "intellektual", "muammo" atamali bilan, "mashq" "mustaqil ish" atamali bilan birga qo'llaniladi. A.N.Leontiev topshiriq tushunchasini quyidagicha tushunadi: "Topshiriq – muayyan shartlarga asoslanib qo'yilgan maqsaddir" [2]. U topshiriqning o'ziga xos xususiyatlarini ta'riflash uchun "ehtiyoj", "motiv" va "faoliyat" atamalaridan foydalanadi. Y.A.Ponomarev topshiriqlar nazariyasida bir qator toifalarni yaratdi, xususan, o'quv vaziyatida sub'ekt va ob'ektning o'zaro ta'sirini, bilimlarni o'zlashtirish, ularni takomillashtirish bo'yicha sub'ektning faoliyatini aniqlaydi. O.Roziqov esa o'quv topshiriqlarini ilmiy-pedagogik tadqiqotda o'quv materiali bilan bog'liqligi nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, "o'quv topshirig'i o'quv maqsadlariga bog'liq bo'lgan o'quv materialining o'zgartirilgan shaklidir" [3].

Ona tili ta'limida mashqlar – bilim berish emas, ko'nikma va malaka hosil qilish uchun qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir [4].

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek tili mashg'ulotlarida mashqlar o'quvchilarning til birliklarini amaliy o'zlashtirishi, nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishi hamda mustaqil fikrlashini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Mashqlar ustida samarali ishlash ta'lim jarayonining natijadorligini oshiradi va o'quvchining faolligini ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning o'zbek tili mashg'ulotlarida mashqlarni samarali bajarishi bir qator omillarga bog'liq. Birinchi navbatda, mashqlar mazmuni va ularning mavzuga mosligi o'quv jarayonining samaradorligini belgilaydi. Agar mashqlar o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, grammatik qoidalarga rioya qilish, matni to'liq tushunish va talaffuzni takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lsa, natijalar sezilarli darajada yaxshilanadi. Shu bilan birga, mashqlar turli darajadagi qiyinchiliklarga ega bo'lishi, ya'ni oson, o'rta va murakkab bo'lishi o'quvchilarning bilimini mustahkamlash va o'zlashtirish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mashqlarning turli formatlarda - yozma, og'zaki, guruhda va individual bajariladigan shaklda taqdim etilishi samaradorlikni oshiradi. Masalan, og'zaki mashqlar nutqiy faoliyatni rivojlantirsa, yozma mashqlar o'quvchilarning fikrini tartibga solish va grammatik qoidalarni mustahkamlash imkonini beradi. Guruhda bajariladigan mashqlar esa o'quvchilarning hamkorlik qobiliyati, muloqot madaniyati va interaktiv fikrlashini rivojlantiradi.

Tahlillar shuni ham ko'rsatdiki, mashqlarni amalga oshirish jarayonida o'quvchilarning ilgari o'rganilgan bilimlari

bilan yangi materialni uzviy bog'lash muhimdir. Bu o'quvchilarga mavzuni chuqurroq tushunish va yangi so'z hamda iboralarni kontekstda qo'llash imkonini beradi. Shu bilan birga, lug'at boyligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, sinonim va antonimlar bilan ishlash, so'zlarning uslubiy va semantik xususiyatlarini aniqlash o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi.

1. Mashqlar ustida ishlashning didaktik tamoyillari

Mashqlar bilan ishlashda quyidagi tamoyillarga amal qilish muhim:

Izchillik va tizimlilik – mashqlar osondan murakkabga qarab beriladi;

Faollik va mustaqillik – o'quvchi mashqni bajarishda faol ishtirok etadi;

Nutqiy yo'naltirilganlik – mashqlar real nutqiy vaziyatlarga yaqinlashtiriladi;

Differensial yondashuv – o'quvchilarning bilim darajasiga mos topshiriqlar tanlanadi.

2. Mashqlar ustida samarali ishlash usullari

2.1. Tahlilga asoslangan ishlash usuli

Bu usulda o'quvchilar mashqdagi til birliklarini:

fonetik,

leksik,

grammatik,

uslubiy jihatdan tahlil qiladilar. Natijada nazariy

bilimlar amaliyot bilan bog'lanadi.

2.2. Muammoli mashqlar asosida ishlash

Muammoli vaziyat yaratish orqali:

o'quvchining mantiqiy fikrlashi rivojlanadi;

mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmasi shakllanadi.

Masalan, noto'g'ri tuzilgan gapni tuzatish yoki bir nechta variantdan eng maqbulini tanlash.

2.3. Juftlik va guruhda ishlash usuli

Bu usul:

muloqot madaniyatini rivojlantiradi;

hamkorlikda ishlash ko'nikmasini shakllantiradi;

o'quvchilar o'zaro fikr almashadi va baholaydi.

2.4. Ijodiy mashqlar bilan ishlash

Ijodiy mashqlar (matn tuzish, gapni davom ettirish, qayta hikoyalash):

nutqiy faollikni oshiradi;

til vositalaridan erkin foydalanishga o'rgatadi;

o'quvchining individual fikrlashini namoyon etadi.

2.5. Axborot texnologiyalaridan foydalanish

Multimedia, interaktiv mashqlar:

mashg'ulotni qiziqarli qiladi;

vizual va audial idrokni kuchaytiradi;

mustaqil ishlash imkonini yaratadi.

3. Mashqlarni baholash va tahlil qilish

Mashqlarni bajarish jarayonida:

o'zaro baholash,

o'zini o'zi baholash,

tahliliy muhokama usullaridan foydalanish

samaradorlikni oshiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish mumkinki,

o'zbek tili mashg'ulotlarida mashqlar ustida samarali ishlash usullari o'quvchilarning tilga oid bilimlarini chuqurlashtirish, nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga katta hissa qo'shadi. Mashqlar nafaqat grammatika va lug'atni mustahkamlash vositasi bo'lib xizmat qiladi, balki o'quvchilarning matni to'liq tushunishi, fikrlarni izchil va aniq ifodalashi, shuningdek, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish jarayonida ham muhim o'rin tutadi.

O'quv mashqlarini maqsadli, tizimli va innovatsion yondashuv asosida tashkil etish ta'lim sifatini oshirishning muhim omilidir. Bu yondashuv o'quvchilarda o'z-o'zini

baholash ko'nikmalarini shakllantirish, bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va tilni kontekstda qo'llash imkoniyatini beradi. Interaktiv metodlar, guruhda ishlash, muhokamalar, rol o'yinlari, multimediya vositalari va onlayn platformalardan

foydalanish o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni dars jarayoniga faol jalb qiladi va o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR

1. Мухитдинова Х. Таълим bosqichlarida ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш Пед. фан. док. ... дис. –Тошкент, 2011. –347 б.
2. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: Педагогика, 1972. – 576 с.
3. Розысков О.Р. Теоретические основы оптимального применения системы учебных задач в обучении школьников (на материалах гуманитарных предметов). Автореферат дисс...док. пед. наук. – Тбилиси, – 1986. – 50 с
4. Ҳамроев Ф.Ҳ. Машқларнинг кўникма ҳамда малака ҳосил қилишига кўра таснифланиши // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Бухоро, 2021. -№4. – Б. 231-240.
5. Усмонова М., Азларов Э., Шарипов Ғ. Ўзбек тили (олий ўқув юртлари рус гуруҳлари учун қўлланма). –Тошкент: Ўқитувчи, 1991. –304 б.
6. Ҳамроев Ф.Ҳ. Машқларнинг кўникма ҳамда малака ҳосил қилишига кўра таснифланиши // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. – Бухоро, 2021. -№4. – Б. 231-240.



UDK: 297.124

Iskandar USMONOV,
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tayanch doktoranti
E-mail:iskandarusunov1990@gmail.com

PhD G.Mamajonova tarqizi asosida

“TA’VILOT AL-QUR’ON” ASARIDAGI TEOLOGIYA MASALASIGA OID HADISLAR TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abu Mansur al-Moturidiyga nisbat berilgan “Ta’vilot al-Qur’on” asarida teologiyaga oid masalalar yoritilishida keltirilgan hadislar tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqotda hadislar matni, teologik qarashlarni dalillashda hadislar tutgan o’rni, ularning Qur’on oyatlari bilan bog’lanish mexanizmlari hamda “Ta’vilot al-Qur’on”dagi metodologik yondashuvlar tahlil etiladi. Maqola natijalari Moturidiy aqidaviy merosidagi hadis talqinlarining ilmiy qiymatini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Qur’on, oyat, hadis, tafsir, fiqh, aqida, kalom ilmi.

ANALYSIS OF HADITHS RELATED TO THE ISSUE OF THEOLOGY IN THE WORK “TA’WILAT AL-QUR’AN”

Annotation

This article provides a scholarly analysis of the hadiths cited in “Ta’wilat al-Qur’an”, a work attributed to Abu Mansur al-Maturidi, within the framework of addressing theological issues. The study examines the textual structure of the hadiths, their function in substantiating theological doctrines, the mechanisms through which they are correlated with Qur’anic verses, and the methodological principles employed throughout “Ta’wilat al-Qur’an”. The findings contribute to revealing the academic significance of hadith interpretation within the doctrinal legacy of the Maturidi school.

Keywords: Qur’an, verse, hadith, tafsir, fiqh, creed (aqidah), Islamic theology (kalam).

АНАЛИЗ ХАДИСОВ, СВЯЗАННЫХ С ТEOЛОГИЧЕСКИМИ ВОПРОСАМИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ТАВИЛОТ АЛ-КУРЪАН»

Аннотация

В данной статье представлен научный анализ хадисов, приводимых в труде “Таъвилат аль-Куръан”, приписываемом Абу Мансуру аль-Матуриди, в контексте рассмотрения теологических вопросов. В исследовании изучается текстуальная структура хадисов, их функция в обосновании богословских доктрин, механизмы их сопоставления с кораническими аятами, а также методологические принципы, применяемые в “Таъвилат аль-Куръан”. Полученные результаты способствуют раскрытию научной значимости интерпретации хадисов в доктринальном наследии матуридийской школы.

Ключевые слова: Коран, аят, хадис, тафсир, фикх, акида, калам (исламская теология).

Kirish. Islom ilohiyotining nazariy asoslarini shakllantirishda Qur’on oyatlari va hadislar talqini muhim o’rin tutadi. Abu Mansur al-Moturidiyning “Ta’vilot al-Qur’on” asari ana shu jihatdan alohida ahamiyatga ega bo’lib, unda nafaqat oyatlarning tafsiri, balki teologik masalalarning dalillanishida hadislar tutgan o’rni ham muhim ilmiy qadriyat sifatida namoyon bo’ladi. Ushbu asarda hadislar Qur’on mazmuni bilan bog’langan holda sharhlanadi, ularning matni, mazmuni va teologik ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, Moturidiy maktabining aqidaviy qarashlarini to’liq anglash uchun hadislar qanday qo’llangani, ular orqali teologik masalalarning qanday asoslangani va talqin metodologiyasining o’ziga xos jihatlari o’rganish zarur. Mazkur maqola shu maqsadni ko’zlab, “Ta’vilot al-Qur’on”dagi hadislar tahlilini ilmiy jihatdan yoritishni o’z oldiga vazifa qilib qo’yadi. Quyida teologiya mavzusiga oid masalalarni ko’rib chiqamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Allohning borligi. Qadimgi aqida kitoblarida Alloh taoloning borligiga dalil keltirish shart bo’lmagan. O’sha vaqtlardagi olimlarimiz Alloh taoloning borligiga hech kim shubha qilmasligini yaxshi bilganlar. Shuning uchun ko’proq o’z kitoblarini Alloh taoloning birligi, sherigi yo’qligi haqidagi yoki shu kabi masalalardan boshlaganlar. Ammo hozirgi paytda aqid bo’yicha kitob yozgan ulamolarning barchasi Alloh taoloning borligini isbotlashga alohida e’tibor bermoqdalar. Oxirgi

paytda turli sabablarga ko’ra, Alloh taoloning borligini inkor qilish avj olgani ularni bu ishga majbur qilgan.

Alloh taoloning borligini isbot qilish kalom ilmining asosiy masalasi hisoblanadi. Chunki, boshqa masalalar aynan Alloh taoloning borligiga bo’lgan imondan kelib chiqadi. Alloh taoloning borligiga imon keltirmagan odamga aqidning boshqa masalalari haqida qancha gapirmang, zarracha foydasi bo’lmaydi. Alloh taoloning borligiga ishonmagan odamga “Alloh taolo Qur’oni karimda unday degan”, “Payg’ambar (s.a.v.) hadisi sharifda bunday deganlar”, deyishning o’zi foydasizdek bo’lib ko’rinadi. Shuning uchun bu yerda faqat aqliy va ilmiy dalillargina foyda berishi mumkin. Ulamol o’sha aqliy va ilmiy dalillar bilan Alloh taoloning borligini isbot qiladilar.

Alloh taoloning borligi isbot qilingandan keyin, U zotning tavhidi, ya’ni yagonaligini isbotlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Moturidiya ta’limotida tavhid masalasiga qat’iy e’tibor qilinadi. Bunda Allohni shakl va jismga qiyoslovchi mushabbiha va mujassima toifalari, Alloh taoloning zoti va sifatleri azaliyligini inkor etuvchi mo’taziliylarga qarshi raddiyalar bildiriladi.

Moturidiy “Ta’vilot al-Qur’on” asarida tavhidga oid:

كل عبادة في القرآن فهو توحيد

“Qur’ondagi har bir ibodat tavhidir”[1,19] hadisini keltirib, har bir ibodatning asosi Alloh taoloning vahdonyati, ya’ni yagonaligiga borib taqalishini ifodalab bergan.

“Tavhid” soʻzi ismi masdar(harakat nomi) boʻlib, lugʻatda “yakkalash”, yaʼni bir narsaga yakkayu yolgʻizlik nisbatini berish va uning koʻp adadda ekanini inkor qilish maʼnolarini anglatadi. “Qomusul muhit” kitobida: “Tavhid yolgʻiz Allohga imon keltirishdir”, deyilgan”[2,70]. Tavhidning istilohiy maʼnosi toʻgʻrisida bir qancha taʼriflar aytilgan. Jumladan, Muhammad Anvar Badaxshoniy “Aqidatu-t-Tahoviy”ning sharhida tavhidga: Inson Alloh taolaga shirk keltirishning barcha koʻrinishlaridan oʻzini saqlab, Alloh taoloning zotida ham, sifatlarida ham, feʼllarida ham, ismlarida ham, hukmlarida ham sherigi yoʻq, yakkayu yolgʻiz ekanligiga eʼtiqod qilishi tavhid deb ataladi”[2,70], deb taʼrif bergan.

Moturidiya taʼlimotiga koʻra, Alloh shubhasiz mavjuddir, yakka-yu yagonadir, tengi va oʻxshashi yoʻqdir. U barcha sifatleri bilan azaliydir. U butun olamlarning yaratuvchisidir.

Moturidiya taʼlimotida Allohning borligi va birligiga uch xil dalil bordir:

- Naqliy dalillar (Qurʻon va hadis);

- Aqliy dalillar (Tafakkur);

- Olamdagi nizom va intizom (Olamning bir tartib va nizom bilan yaratilgani).

Nuriddin Sobuniy Alloh taoloning yagonaligi toʻgʻrisida: Alloh taolo yagonadir, uning sherigi yoʻq. “Yaratuvchi agar ikkita boʻlsa, ularning biri bir jismni yaratishni xohlasa, ikkinchisi aynan oʻsha jismni oʻldirishni xohlasa, bu holatda har ikkalasining xohishi amalga oshishi yoki ikkisidan birining xohishi amalga oshishi kerak. Har ikkisining xohishi amalga oshishi ilojsiz ish. Agar birining xohlagani amalga ohsa, xohishi amalga oshmagani magʻlub boʻlgan boʻladi. Magʻlub esa, iloh boʻlmaydi...”[3], deydi.

Bu uslubga oʻxshash uslubda hujjat keltirishni Abu Mansur Moturidiyning “Tavhid” kitobida ham uchratish mumkin: “Ularning biri biror narsaning bor boʻlishini xohlasa, ikkinchisi uning yoʻq boʻlishini istaydi. Boqiy qolish va foniy boʻlishda ham xuddi shunday. Bu holatlarda bir-biriga ziddlik va qarama-qarshilik mavjud”[4,86].

Allohning ismlari va sifatleri. Qurʻoni karim va hadisi shariflarda Alloh taoloning goʻzal ismlari zikr qilingan. Hadisi sharifda Alloh taoloning toʻqson toʻqqizta ismi bor ekanligi bayon qilingan. Ammo bundan Alloh taoloning barcha ismlari faqat toʻqson toʻqqiztadan iboratligi kelib chiqmaydi, balki bizlarga bayon qilinganlari toʻqson toʻqqizta ekani tushuniladi[2,72].

Abu Hafs Najmiddin Nasafiy “al-Aqoid an-Nasafiya” asarida quyidagicha keltiradi:

وله صفات ازيلية قائمة بذاته وهي لا هو ولا غيره وهي العلم والقدرة والحيوة والقوة والسمع والبصر والإرادة المشيئة والفعل والتخليق والترزيق

Uning uchun oʻz zotida qoim boʻlmish azaliy sifatlar bor. Ular U emas, Undan oʻzga (ham) emas. Ular (yaʼni, oʻsha sifatlar) ilm (bilish), qudrat (qodirlik), hayot (tiriklik), quvvat, samʼ (eshitish), basar (koʻrish), iroda, mashiat (xohish), bajarish, yaratish va rizq berishdir[5].

Soʻfi Allohoyor ushbu gapni nazmgga solib shunday ifodalaganlar:

Subutiyydir Aning sakkiz sifoti, Sifot zoti emas, na gʻayri zoti.

Yaʼni, Alloh taoloning sifatleri zotining oʻzginasi emas va zotidan ayri ham emasdir[6].

Ahli sunna val jamoa – Moturidiy va Ashʼariy eʼtiqodida Alloh taoloning biror-bir sifati haqiqatida ham, koʻrinishida ham bandalarning sifatlariga oʻxshamaydi. Bu haqda moʻtabar “al-Fiqh al-akbar” kitobida quyidagi jumlar keltirilgan: “Alloh taoloning barcha sifatleri yaratilganlarning sifatlaridan oʻzgachadir. Uning bilishi bizning bilishimiz kabi emas, qudrati bizning qodirlikimiz kabi emas, koʻrishi bizning koʻrishimiz kabi emas, eshitishi bizning eshitishimiz kabi emas.

Biz vositalar va harflar bilan gapiramiz. Alloh taolo vositalar va harflarsiz gapiradi (yaʼni, ularga muhtoj emas). Harflar yaratilgandir, Alloh taoloning kalomi yaratilgan emasdir”[7].

Demak, yurtimizda anʼanaviy hisoblangan moturidiylik taʼlimotiga koʻra, Alloh taoloning eshitish, koʻrish, gapirish va shu kabi sifatleri yaratilganlarning sifati kabi deb tushunib qolmaslik kerak. Zero, yaratuvchi bilan yaralmishning sifatleri hargiz bir xil boʻlmaydi. Alloh taoloning sifatleri uning ilohligiga mos boʻladi va sifatleri mohiyatini Alloh taoloning Oʻziga topshiramiz. Mana shunday qilish sahobai kiromlar va salafi solihlarning yoʻllaridir. Alloh taoloning sifatleri borasida chuqur ketib, ular borasida bahs qilish esa bidʼatchi kimsalarning yoʻlidir. Bu haqda Abul Muʼin Nasafiyning “At-Tamhid li qovaid at-tavhid” kitobida ham atroflicha maʼlumotlar keltirilib, adashgan toifalarga raddiyalar berilgan.

Natijalar va muhokama

Shuningdek, Imom Molik: “Ahli bidʼatlar – Alloh taoloning ism-sifatleri, kalomi, ilmi va qudrati haqida gapiradilar, sahobai kiromlar va tobeinlar tilini tiygan narsalardan tiyilmaydilar”, deganlar.

Ushbu masalada ulamolimiz bayon qilib bergan maʼlumotlar bilan kifoyalanish va bu borada chuqur ketmaslik maqsadga muvofiq.

Allohning bilishi. Abu Mansur Moturidiy “Taʼvilot al-Qurʻon” asarida Alloh taolo gʻaybni faqat Oʻzi bilishi haqida hadislarni keltiradi. Jumladan:

خمس لا يعلمين إلا الله

“Besh narsa borki, ularni Allohdan boshqa hech kim bilmaydi”[1,258].

Yana boshqa bir hadisda esa quyidagicha keltiradi:

مفاتيح الغيب خمس لا يعلمها إلا الله

“Gʻaybning kalitlari beshta, ularni yolgʻiz Allohdan boshqa hech kim bilmaydi”[1,258].

Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhu bunday deydi: “Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: “Gʻaybning kalitlari beshta”, — dedilar-da, “Luqmon” surasining quyidagi 34-oyatini qiroat qildilar: “Qiyomatning qachon boʻlishini Allohning Oʻziga biladi, yomgʻirni Alloh yogʻdiradi, ona qornidagi homilaning oʻgʻilmi qizligini Alloh biladi, hech bir odam ertaga nima ish qilishini bilmaydi va hech bir odam qayerda oʻlishini bilmaydi, albatta Alloh hamma narsani biluvchi va hamma narsadan xabardor zotdur”.

Alloh taoloning bilishi bizning bilishimiz kabi oʻqish, oʻrganish orqali boʻlmaydi, balki Alloh taolo bilishlikda bu narsalarga muhtoj emas. Alloh taolo bizning koʻzimizga koʻrinmaydigan, biz koʻrishlikdan ojiz boʻlgan gʻaybni ham koʻra oladi. Alloh taoloning bilishi hamma narsaga, yaʼni mavjud narsaga ham, maʼdum narsaga ham taalluqlidir.

Ahli sunna ulomalarining Allohning bilishi haqidagi qoidasi quyidagicha: “Alloh taoloning bilishi boʻlib oʻtgan, endi boʻladigan, hali boʻlmagan, agar boʻlsa, qanday boʻlishini qamrab olgan. Alloh taoloning ilmi oʻzgarmaydi ham, ziyoda yoki noqis ham boʻlmaydi”.

Alloh taolo gʻaybni faqat Oʻzi bilishi haqida bir necha oyatlarda marhamat qilgan: “Gʻayb (yashirin ishlar) kalitlari Uning huzurida. Ularni Undan oʻzga bilmas. Yana, quruqlik va dengizdagi narsalarni (ham) bilir. Biror yaproq (uzilib) tushsa (ham) uni bilir. Yer zulmatlari (qaʼri)dagi urugʻ boʻlmasin, hoʻlu quruq boʻlmasin, (hammasi) aniq Kitob (Lavhul-Mahfuz)da (yozilgan)dir”[8].

Allohning eshitishi. Moturidiy “Taʼvilot al-Qurʻon” asarida Alloh taoloning eshitishiga oid hadislarni keltiradi. Ulardan biri ushbu hadisdir:

سمع الله لمن حمده

“Alloh unga hamd aytgan insonni eshitdi”[1,84]. Alloh barcha narsalarni eshitib turishligi haqida aqida kitoblarida bir qancha maʼlumotlar keltirib oʻtilgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Alloh taoloning eshitishi bizlarning eshitishimiz kabi emas. Biz eshitish uchun ma'lum bir vositalarga muhtoj bo'lamiz. Alloh esa bunday vositalarsiz eshita oladi.

Abu Mansur Moturidiy "Ta'vilot al-Qur'on" asarida Alloh taoloni ko'rish joizligi haqida quyidagi hadislarni keltiradi: "Albatta, sizlar kelajakda Robbingizni to'lin oyni ko'rgandek ko'rasizlar"[1,303]. (Bu hadisni Imom Termiziy Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilgan). Bu hadis quyidagi ma'noda tushuniladi: "Sizlar to'lin oy kechasida oyni ko'rishda shak qilmaganingizdek qiyomat kunida ko'zlaringiz bilan Alloh taoloni ko'rishda shak qilmaysizlar".

Yana boshqa bir hadisda esa:

سئل النبي صلى الله عليه وسلم هل رأيت ربك فقال بقلبي قبلي

"Nabiy (s.a.v.): "Robbingizni ko'rganmisiz?", deb so'ralganida, "Ha, qalbm bilan", deb javob berganlar"[1,50], deb keltiradi. Ushbu hadisdan Alloh taoloni bu dunyoda ko'rish mumkin emasligi kelib chiqadi. Bu haqda bir qancha hadislar vorid bo'lgan. Alloh taoloni faqat oxirtda ko'riladi, deb e'tiqod qilamiz.

Moturidiya ta'limotida mo'taziliylarga raddiya sifatida ru'yatulloh (Allohni jannatda ko'rish masalasi) aqlan ham, naqlan ham joiz. Allohni jannatda ko'rish mumkin ekanini sahobalar, tobe'inlar, Islom dini mashhur imomlari, ahli hadislar va ahli sunna val jamoaga mansub barcha qolgan toifalar tasdiqlaganlar. Bu masala aqida bobidagi eng ulug' va eng sharafli masalalardan. Chunki Allohni jannatda ko'rish eng ulug' va eng lazzatli ne'mat hisoblanadi. Oxirtda mo'minlar jannatga kirganlaridan so'ng ko'zlari bilan Allohni aniq ko'rishlari aqlan joiz va sam'an vojib hisoblanadi. Shu ma'noda U zot biror makonda yoki biror tarafda bo'lmasdan, yorug'likka bog'liq bo'lmasdan, ko'ruvchi bilan U zotning o'rtasida masofa bor bo'lmasdan va bulardan boshqa hodislik aromatlaridan xoli bo'lib ko'riladi. Bu masalada faylasuflar, mo'taziliylar, xavorijlar, mushabbihalar, karromiyalar va zaydiyalar ahli sunnaga zid e'tiqodda bo'lganlar. Ular: "Aql U zotni ko'rish amri mahol ekaniga dalolat qilishiga binoan U zot ko'rilmaydi, chunki ko'rish uchun ko'ruvchi va ko'riluvchi ro'paramaro'para bo'lishi, o'rtada ma'lum bir masofa bo'lishi kerak. Bunday holatlar esa Alloh taoloda bo'lishi muhol", deyдилar.

Mazkur firqalar Alloh taoloning bunday sifatlardan xoli bo'lganiga ko'ra, U zotni ko'rishni inkor qilishgan. Mazkur holatlardan xoli bo'lgan ko'rishni esa faqat ahli sunna val jamoa aytgan.

Qiyomat kuni Alloh taoloni ko'rishni inkor qiladiganlar "Ko'zlar Uni idrok eta olmas, U ko'zlarni idrok etar"[9] oyatini dalil qilishgan. Ularning bu oyatni dalil qilishlariga quyidagicha raddiya berilgan:

- Bu oyat ko'plik shaklida kelgan. Shunga ko'ra, undagi inkor umunning inkorini bildiradi, inkorning umumiyligini emas.

- Oyatda ko'rish emas, idrok etish inkor qilingan. Biz ham uni inkor qilamiz. Idrok etish ko'riladigan narsaning taraflari va chegaralaridan voqif bo'lishni anglatadi. Qaysi narsaning chegarasi va nihoyasi bo'lishi muhol bo'ladigan bo'lsa, uni idrok qilish ham imkonsiz bo'ladi. Shunga ko'ra idrok etishni inkor qilish ko'rishni inkor qilishni anglatmaydi.

Imom Abulhasan Ash'ariy "Al-ibona an usulid-diyana" asarida quyidagilarni yozgan: "Agar mo'taziliylar o'yaganlaridek, Alloh taoloni ko'rish muhol bo'lganida, bu narsani Muso alayhissalom bilmagan, mo'taziliylar bilgan bo'lib chiqardi. Ushbu gaplari bilan mo'taziliylar Alloh taoloni Muso alayhissalomdan ko'ra yaxshiroq bilgan bo'lib qolardi. Buni esa biror musulmon da'vo qila olmaydi"[10].

Xulosa. O'tkazilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, "Ta'vilot al-Qur'on" asarida hadislar teologik masalalarni tushuntirishning asosiy manbalaridan biri sifatida qo'llangan bo'lib, ular Qur'on oyatlari bilan uzviy bog'liq holda sharhlanadi. Moturidiy hadislarni nafaqat rivoyat shaklida, balki ularning ma'no va dalilvi kuchini hisobga olgan holda talqin qilgan, bu esa uning aqidaviy qarashlarining ilmiy asoslanganligini ko'rsatadi. Asarda qo'llangan metodologik yondashuvlar hadislarning matnviy tahlili, ularning teologik mazmunini ochib berish va Qur'on bilan uyg'unlashtirish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari Moturidiy merosidagi hadis talqinlari musulmon ilohiyotining shakllanishida muhim o'rin tutishini va ularni o'rganish bugungi kun ilmiy izlanishlari uchun ham katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Мотуридий, Абу Мансур. Таъвилот ал-Қуръон – Истанбул, 2005. Ж .1. – Б. 19.
2. Абдулқодир Абдур Раҳим. "Эътиқод дурдоналари". "Ҳилол-нашр". Тошкент 2022. – Б. 70
3. Нуриддин Собуний. Ал-Бидоя фи усул ад-дин. – Миср: Дор ал-Маъориф, 1969. – Б. 40.
4. Мотуридий, Абу Мансур. Китоб ат-тавҳид. – Байрут: Дор ас-Содир, Истанбул: Мактабат ал-Иршод, 2001. – Б.86.
5. Ан-Насафий, Абу Ҳафс. Ал-ақоид ан-Насафийя. "Дарул башоир ал-исламийя" 1993. – Б. 10
6. Ҳасанов.Б. "Рисола азиза" – "Саботул ожизин" шарҳи. "Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти", Тошкент 2000. – Б. 21.
7. Абу Ҳанифа, Нўъмон ибн Собит. Фикхул акбар. Дорул кутубил аробийя. 2017. – Б. 18
8. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири.Таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур Т.,2009. – Б.84.
9. Аньом сураси, 103-оят.
10. Имом Абулхасан Ашъарий. Ал-ибона ан усулид-дияна. Риёз. 1993. – Б. 61.



UDK:1.301(09):008:398

Jamila UTEGENOVA,
SamDCHTI tadqiqotchisi, PhD
E-mail:Jamila00@gmail.com

TDU dotsenti PhD R.Baratov taqrizi asosida

БИОЭТИКАНИ RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY-FALSAFIY MUAMMOLARI

Аннотация

Ushbu maqolada bioetikani rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-falsafiy muammolar tahlil qilingan. Bioetikaning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri, global va milliy kontekstdagi axloqiy tamoyillar, xalqaro tashkilotlar (UNESCO, WHO) yondashuvlari hamda O'zbekistonda bioetika rivojiga doir masalalar ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan. Bioetikaning ijtimoiy hayotdagi o'rni va sog'lom turmush tarzi hamda ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi ahamiyati alohida e'tiborga olingan.

Kalit so'zlar: bioetika; ijtimoiy-falsafiy muammolar; axloqiy tamoyillar; sog'liqni saqlash; ijtimoiy adolat; UNESCO; O'zbekiston.

СОЦИО-ФИЛОСОФСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ БИОЭТИКИ

Аннотация

В данной статье проанализированы социально-философские проблемы, возникающие в процессе развития биоэтики. Научно-теоретически освещены влияние биоэтики на развитие общества, моральные принципы в глобальном и национальном контексте, подходы международных организаций (ЮНЕСКО, ВОЗ), а также вопросы развития биоэтики в Узбекистане. Особое внимание уделено роли биоэтики в обществе и ее значению для формирования здорового образа жизни и обеспечения социальной справедливости.

Ключевые слова: биоэтика, социально-философские проблемы, моральные принципы, здравоохранение, социальная справедливость, ЮНЕСКО, Узбекистан.

SOCIO-PHILOSOPHICAL PROBLEMS OF THE DEVELOPMENT OF BIOETHICS

Annotation

This article analyzes the socio-philosophical problems arising in the development of bioethics. It examines bioethics' impact on social development, moral principles in global and national contexts, the approaches of international organizations (UNESCO, WHO), and bioethics development in Uzbekistan. Special attention is paid to the role of bioethics in society and its importance for fostering a healthy lifestyle and ensuring social justice.

Keywords: bioethics, socio-philosophical issues, moral principles, healthcare, social justice, UNESCO, Uzbekistan.

Kirish. Bioetika – integrativ xususiyatga ega fandir, u inson hayoti va yashash tarziga doir bilimlarni turli fanlar majmuasi orqali o'rganadi. Ya'ni bioetika tibbiyot, biologiya, psixologiya, sotsiologiya, antropologiya, etika, falsafa va dinshunoslik kabi sohalar tutashgan nuqtada vujudga kelgan fanlararo yo'nalishdir[1]. Bioetika, eng avvalo, "tiriklikka nisbatan axloqiy munosabat" haqidagi ta'limot sifatida shakllanib, zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti tufayli insoniyat oldida paydo bo'layotgan murakkab axloqiy muammolarni hal etishga qaratilgan. Bioetikaning asosiy vazifalaridan biri sifatida jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish va tibbiyot sohasida ijtimoiy adolat g'oyasini rivojlantirish alohida ta'kidlanadi[1]. Demak, bioetikani rivojlantirish masalasi bevosita sog'lom jamiyat barpo etish va adolatli tibbiy xizmat tamoyillarini qaror toptirish bilan uzviy bog'liq.

Bioetika atamasi ilmiy muomalaga nisbatan yaqinda kirib kelgan bo'lsa-da, uning ildizlari chuqur tarixiy va falsafiy an'analarga borib taqaladi. Adabiyotlarda ushbu terminning paydo bo'lishi haqida ikki xil qarash mavjud: ayrim manbalarda bioetika atamasini ilk bor amerikalik onkolog olim Van Rensselaer Potter 1970-yillarda fanga kiritgani qayd etiladi; boshqa ma'lumotlarga ko'ra esa bu termin ilk bor 1927 yilda nemis ilohiyotchisi Fritz Jahr tomonidan ishlatilganligi aytiladi[2]. Har ikki holatda ham "bioetika" atamasining keng ilmiy iste'molga kirishi XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi va bioetika mustaqil ilmiy yo'nalish va ijtimoiy-falsafiy tafakkur sohasi sifatida shakllana boshlaydi. Darhaqiqat, 1960–1970-yillarda ilm-fan va biotibbiyotning jadal rivojlanishi shifokor va bemor munosabatlari, organ transplantatsiyasi, sun'iy urug'lantirish, abort, evtanaziya, klonlash, gen injeneriyasi kabi qator bahsli masalalarni kun

tartibiga chiqardi. Bu masalalarning barchasi nafaqat tibbiy, balki chuqur falsafiy-ahloqiy tahlilni talab etardi. Shu davrga kelib, fan va falsafa kesishgan nuqtada bioetika bo'yicha tadqiqotlar tizimli yo'lga qo'yildi va bioetika axloq falsafasining muhim bir bo'limi sifatida qarala boshlandi.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda bioetika jamiyat hayotining turli jabhalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, zamonaviy bioetik diskurs shifokor axloqi (deontologiya), hayot va o'lim etikasi, reproduktiv huquqlar, tibbiy tadqiqotlar axloqi, atrof-muhitga munosabat kabi keng doiradagi masalalarni qamrab oladi. Bioetik prinsiplar inson huquqlari va qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib, globallasuv sharoitida umumiy mezonlarni yaratishga intilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda global bioetika konsepsiyasi shakllandi – ya'ni butun insoniyat miqyosida amal qiladigan bioetik normalar tizimi haqida gap bormoqda[2]. Bu tizim V.R. Potter ta'kidlaganidek, insoniyatning omon qolishi va farovonligini ta'minlash maqsadida tibbiyot axloqi bilan atrof-muhit etikasi o'rtasida global ko'priq vazifasini o'tashi lozim. Shu bois bioetika nafaqat klinik tibbiyot yoki biologiya doirasidagi muammolarni, balki ijtimoiy va ekologik masalalarni ham qamrab oluvchi keng qamrovli fan sifatida e'tirof etilmoqda.

Maqolada bioetikani rivojlantirish bilan bog'liq dolzarb ijtimoiy-falsafiy muammolar ko'rib chiqiladi. Xususan, xalqaro kontekstda (UNESCO, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va b.) bioetika tamoyillarining shakllanishi, milliy darajadagi (O'zbekiston misolida) bioetik muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Bioetika sohasida global va mahalliy yondashuvlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik hamda bioetik me'yorlarni

jamiyatimizda qaror toptirish jarayonidagi muammolar ilmiy asosda yoritiladi.

Materiallar va metodlar. Ushbu tadqiqotda ilmiy adabiyotlar tahlili va qiyosiy taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Bioetika sohasiga oid mahalliy va xorijiy manbalar, xalqaro tashkilotlarning bioetika bo'yicha hujjatlari (jumladan, UNESCOning Bioetika va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti qo'llanmalari va boshqalar) o'rganib chiqildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimidagi bioetika bilan bog'liq normativ hujjatlar va Milliy bioetika qo'mitasi faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilindi. Tadqiqot yondashuvi falsafiy tahlilga asoslangan bo'lib, bioetik muammolarni ijtimoiy kontekstda o'rganishda tarixiy yondashuv va hujjatlar tahlili uyg'unlashtirildi. Olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari bioetikani rivojlantirish jarayonida duch kelinayotgan asosiy ijtimoiy-falsafiy muammolarni quyidagicha tizimlashtirish imkonini berdi:

Bioetik me'yorlar va madaniy qadriyatlarining uyg'unlashuvi muammosi. Bioetika global darajada umumiy axloqiy prinsiplarga tayansa-da, turli jamiyatlarda madaniy va diniy qadriyatlar bir-biridan farq qiladi. Bioetik tamoyillarni turli milliy-madaniy kontekstlarda moslashtirish ehtiyoji mavjud. Xususan, UNESCO tomonidan qabul qilingan Bioetika va inson huquqlari bo'yicha Umumjahon deklaratsiyasida madaniy xilma-xillikka hurmat prinsipi e'lon qilingan bo'lib, bioetik me'yorlar turli madaniy perspektivalarni hisobga olgan holda qo'llanishi lozimligi ta'kidlanadi[6]. Demak, bioetikani rivojlantirishda universallik va madaniy nisbiylik o'rtasidagi muvozanatni topish asosiy masalalardan biridir.

Sog'liqni saqlashda ijtimoiy adolat va tenglik masalalari. Bioetikaning muhim maqsadlaridan biri tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasida adolat tamoyilini qaror toptirishdir. Jamiyatda boy va kambag'al qatlamlar o'rtasida tibbiy yordam olish imkoniyatlaridagi tafovutlar, resurslarni taqsimlash, aholining barcha toifalari uchun sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish kabi masalalar bioetikaning ijtimoiy adolat prinsipiga taqaladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va adolat tamoyillarini mustahkamlash bioetikaning asosiy ijtimoiy vazifalaridan hisoblanadi[1]. Shu bois bioetik siyosatda sog'liqni saqlashda tenglikni ta'minlash, zaif qatlamlarni himoya qilish, tibbiy yordamni adolatli taqsimlash kabi masalalar ustuvor yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Bioetika bo'yicha ta'lim va jamoatchilik xabardorligi darajasi. Bioetik tamoyillarni amaliyotga tatbiq etish uchun mutaxassislar va keng jamoatchilik o'rtasida yetarli bilim va tushunchaning mavjudligi muhimdir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ko'plab jamiyatlarda bioetika bo'yicha yetarli ta'lim dasturlari joriy etilmagan yoki faqat tibbiyot sohasi bilan cheklangan. Bu bo'shliqni bartaraf etish maqsadida UNESCO 2008 yildan boshlab Bioetika bo'yicha Yadroviy o'quv dasturini (Core Curriculum) ishlab chiqdi va uni dunyo bo'ylab oliy o'quv yurtlarida joriy etishni tavsiya qilmoqda[6]. Mazkur o'quv dasturi bioetika tamoyillarini talabalarga o'rgatishda turli madaniy qarashlarni hisobga olgan holda, global miqyosda birxillashirilgan minimal bilimlar majmuini taklif etadi. Shuningdek, bioetika bo'yicha muntazam seminarlar, jamoatchilikka mo'ljallangan muloqot platformalari va ommaviy axborot vositalarida targ'ibot ishlarini kuchaytirish lozimligi aniqlandi. Bioetik savodxonlikning oshishi jamiyatda ilm-fanga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga va ilmiy yutuqlarning axloqiy qabul qilinishi darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Bioetikaning institutsional va huquqiy asoslarini shakllantirish. Bioetik muammolarni tizimli hal etish uchun maxsus institutsional tuzilmalar va huquqiy hujjatlarni shakllantirish zarur. Jahon tajribasida bioetika qo'mitalari, tibbiy etika kengashlari va shunga o'xshash organlar faoliyat yuritadi. Masalan, Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tavsiyasiga binoan ko'plab davlatlarda klinik tadqiqotlar o'tkazilishidan oldin mustaqil Etika komitetlari xulosa berishi talab qilinadi. O'zbekistonda 2000 yilda Sog'liqni

saqlash vazirligi qoshida Milliy bioetika qo'mitasi (MBQ) tashkil etilgani ushbu yo'nalishda muhim qadam bo'ldi[5]. MBQning tashkil etilishi milliy darajada bioetik ekspertiza va maslahat tizimini yo'lga qo'yishga xizmat qildi. Shu bilan birga, bioetik masalalarni tartibga soluvchi qonuniy bazani takomillashtirish zarurati ham mavjud. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bioetika prinsiplari sog'liqni saqlash to'g'risidagi qonun hujjatlarida va tibbiy deontologiya kodekslarida aks ettirilishi, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarida ham bioetika talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash muhimdir. Bioetika institutlarining shakllanishi jamiyatda fan va texnik taraqqiyot ustidan ijtimoiy nazorat o'rnatishning muhim bir mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi[9].

Ilm-fan va texnologiyalar rivojiga hamohang yangi axloqiy dilemmalar. Fan-texnika taraqqiyoti davomida paydo bo'layotgan yangidan-yangi kashfiyotlar bioetik muammolar doirasini kengaytirmoqda. Gen injeneriyasi, reproduktiv texnologiyalar (masalan, sun'iy urug'lantirish, surrogat onalik), organlarni klonlash, inson genomini tahrirlash (CRISPR texnologiyasi) kabi biotibbiy yutuqlar jiddiy axloqiy savollarni o'rtaga qo'yarmoqda. So'nggi yillarda sun'iy intellekt va raqamli tibbiyotning rivojlanishi ham tibbiy ma'lumotlarning maxfiyligi, robotlashtirilgan davolash usullari, algoritmning xato qilish ehtimoli kabi yangi masalalarni keltirib chiqarmoqda. Ekologik inqirozlar va iqlim o'zgarishi ham bioetikaning yangi yo'nalishi – atrof-muhit va kelajak avlodlar oldidagi axloqiy mas'uliyat masalalarini kun tartibiga qo'ydi. V.R. Potter konsepsiyasiga ko'ra, "global bioetika" aynan shu kabi keng qamrovli yondashuv bo'lib, u insoniyatning uzoq muddatli yashab qolishi uchun tibbiyot etikasi va ekologik etikani jahon miqyosida birlashtiruvchi ko'priklarni qurish lozim[2]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bioetikani rivojlantirish jarayonida ilm-fan yutuqlarining ijtimoiy oqibatlarini oldindan baholash va tegishli axloqiy me'yorlarni ishlab chiqish doimiy ehtiyojga aylangan.

Muhokama. Yuqoridagi natijalardan ko'rinadiki, bioetikani rivojlantirish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda bir vaqtning o'zida ijtimoiy, madaniy va falsafiy omillar mujassamlashgan. Mazkur muammolarni hal etishda xalqaro miqyosdagi hamkorlik va tajriba almashuvi katta ahamiyatga ega. Xususan, UNESCO bioetika sohasida global yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim o'rin tutadi. 2005 yilda UNESCO tomonidan qabul qilingan Bioetika va inson huquqlari bo'yicha Umumjahon deklaratsiyasi bioetika tamoyillarini ilk bor xalqaro huquqiy hujjat darajasida (majburiy bo'lmasa-da) e'lon qildi[3]. Ushbu deklaratsiya 15 ta asosiy prinsiplarni o'z ichiga olgan bo'lib, ularda inson qadr-qimmatini, huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish, zarar yetkazmaslik va manfaat yetkazish, avtonomiya va rozilik, adolat va tenglik, madaniy xilma-xillikka hurmat, ijtimoiy mas'uliyat, kelajak avlodlar manfaatini himoya qilish kabi tamoyillar ifodalangan. Mazkur prinsiplarda individual va jamiyat manfaatlarini o'rtasida muvozanatga erishish, shuningdek, bioetik qarorlarni qabul qilishda inson huquqlari me'yorlariga tayanish zarurligi ta'kidlanadi. UNESCOning Bioetika bo'yicha xalqaro qo'mitasi (International Bioethics Committee, IBC) va Hukumatlararo bioetika qo'mitasi kabi tuzilmalari doirasida muntazam ravishda bioetik muammolar muhokama qilinib, hukumatlariga tavsiyalar berib kelinmoqda. UNESCO faoliyatida ko'rinayotgan muhim jihatlardan biri – bioetik masalalarda global "umumiy aqidani" shakllantirish, ya'ni butun dunyo bo'ylab ilmiy-texnik taraqqiyot oqibatida yuzaga kelayotgan yangi axloqiy kategoriyalar yuzasidan umumiy tushuncha va hamjihatlikka erishish ehtiyoji mavjudligi ta'kidlangan[4]. Shu ma'noda, UNESCO bioetika sohasida universal prinsiplarni ilgari surar ekan, ularni turli madaniy muhitlarda tatbiq etishda madaniy ko'p qirralikka e'tibor qaratadi. Bu yondashuv "umuminsoniy axloqiy me'yorlar" bilan "mahalliy madaniy qadriyatlar" o'rtasidagi masofani qisqartirishga xizmat qiladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) esa bioetikaning sog'liqni saqlash amaliyotiga tatbiq yuzasidan rahbarlik va ko'rsatmalar beruvchi muhim institutdir. WHO asosan sog'liqni saqlash sohasidagi aniq yo'nalishlar bo'yicha axloqiy ko'rsatmalar

ishlab chiqadi. Masalan, WHO 2017 yilda jamoat salomatligini monitoring qilishdagi axloqiy masalalar bo'yicha ko'rsatmalarni e'lon qilgan bo'lib, unda epidemiologik kuzatuv va statistik ma'lumotlar yig'ish jarayonida amal qilinadigan 17 ta axloqiy qoida bayon etilgan[7]. Shuningdek, WHO turli yuqumli kasalliklar va favqulodda vaziyatlar uchun maxsus axloqiy qo'llanmalar ishlab chiqqan: masalan, Ebola va COVID-19 kabi pandemiyalar davrida qaror qabul qilishda axloqiy tamoyillarga rioya etish yuzasidan ko'rsatmalar tayyorlangan. WHOning bu kabi faoliyati bioetik me'yorlarni sog'liqni saqlash siyosatiga integratsiya qilishga qaratilgandir. Xalqaro tibbiy hamjamiyatning yana bir muhim tashabbusi – Butunjahon Tibbiyot Assotsiatsiyasi (WMA) tomonidan qabul qilingan Helsinki deklaratsiyasi bo'lib, u klinik tadqiqotlarda axloqiy tamoyillarga rioya etish (ayniqsa, inson subyektlari ishtirokidagi tadqiqotlar uchun) bo'yicha xalqaro standart hisoblanadi. Ushbu deklaratsiya va WHO tavsiyalari yordamida jahon bo'ylab ilmiy-tibbiy tadqiqotlar ustidan axloqiy nazoratning minimal talablari joriy etilgan.

Bioetika muammolarini hal etishda xalqaro hamkorlik bilan bir qatorda milliy darajadagi sa'y-harakatlar ham muhim ahamiyatga ega. Har bir jamiyat bioetik masalalarni o'zining madaniy, diniy va ijtimoiy sharoitlarini inobatga olgan holda ko'rib chiqishi lozim. O'zbekiston misolida olaylik: mamlakatimizda bioetika sohasi endilikda shakllanib kelayotgan bo'lsa-da, uning asosi bo'lgan axloqiy qadriyatlar uzoq tarixiy ildizlarga ega. Abu Ali ibn Sino (Avitsenna), Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalar tibbiyot va axloqiy ta'limotlar tutashgan qarashlari bilan tanilgan[5]. Xususan, Ibn Sino asarlarida shifokorning axloqiy burchlari, bemorga munosabat kabi masalalar chuqur yoritilgan bo'lib, bugungi bioetika konsepsiyasiga uyg'un jihatlarni ko'rish mumkin. Milliy an'analarimizda mavjud bo'lgan "odoblilik" tushunchasi, Zardushtiylik va Islom dinlaridagi hayotga hurmat, mehr-oqibat, saxovat kabi tamoyillar hozirgi bioetika qarashlari bilan hamohangdir. Shu sababdan O'zbekistonda bioetik normalarni shakllantirishda milliy madaniy va diniy qadriyatlarga tayangan holda, ularni zamonaviy xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasida bioetikani rivojlantirish borasida qator amaliy qadamlar qo'yilgan. Yuqorida qayd

etilganidek, 2000 yilda Milliy bioetika qo'mitasi tashkil etilib, u ilmiy-tibbiy tadqiqotlarni axloqiy ekspertizadan o'tkazish, klinik sinovlarni tasdiqlash va bioetik masalalar yuzasidan tavsiyalar berish bilan shug'ullanmoqda[5]. Tibbiyot oliy o'quv yurtlari o'quv dasturlariga "Bioetika" fani kiritilgan va mutaxassislar tayyorlanmoqda. Biroq hali qilinadigan ishlar talaygina: jumladan, bioetika bo'yicha milliy strategiya va siyosatni ishlab chiqish, qonunchilikni takomillashtirish, keng jamoatchilik o'rtasida bioetik savodxonlikni oshirish zarur. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik bu borada qo'l kelmoqda – masalan, UNESCOning Toshkentdagi vakolatxonasi orqali bioetika va fan-texnika axloqiy yuzasidan seminar va treninglar o'tkazilmoqda. Yaqinda, 2021 yilda UNESCO tomonidan sun'iy intellektning axloqiy jihatlari bo'yicha maxsus tavsiyalar qabul qilinib, O'zbekiston ham ushbu global tashabbusni qo'llab-quvvatladi. Bu esa mamlakatimizda nafaqat an'anaviy biotibbiy muammolar, balki yangi texnologiyalar etikasi borasida ham xalqaro hamjamiyat bilan hamnafas yondashuv joriy etilayotganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, bioetikani rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy muammolari doimiy e'tibor va muloqotni talab qiladigan, o'zgaruvchan hodisadir. Bioetik me'yorlarni jamiyatga singdirish jarayoni ilmiy yutuqlar, madaniy qadriyatlar va huquqiy me'yorlarning o'zaro muvozanatini topishni taqozo etadi. Global miqyosda ishlab chiqilgan bioetika prinsiplari milliy darajada amaliyotga tatbiq etilar ekan, har bir jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi zarur. Xalqaro tashkilotlar – UNESCO, WHO va boshqalarning bioetika sohasidagi sa'y-harakatlari milliy tajribalarni boyitishga yordam bermoqda. Shu bilan birga, har bir davlat o'z ichki sharoitidan kelib chiqqan holda bioetik siyosat yuritishi, jamiyatda bioetik madaniyatni shakllantirishi lozim. Bioetik muammolar yechimini izlash jarayonida falsafa fanining roli beqiyos – chunki aynan falsafiy yondashuv orqaligina biz hayot va o'lim, adolat va burch, ilm-fan va axloq o'rtasidagi murakkab chalkashliklarni anglab yetishimiz va ular bo'yicha oqilona qarorlar qabul qilishimiz mumkin. Shu tariqa, bioetikani rivojlantirish orqali jamiyatda inson hayotining qadr-qimmatini ulug'lanadi, ilm-fan yutuqlarining insonparvarlik maqsadlarida xizmat qilishi ta'minlanadi va kelajak avlodlar oldidagi axloqiy mas'uliyatimiz ro'yobga chiqadi.

ADABIYOTLAR

1. Сахарова, Л. Г., и В. Е. Слотин. «Ретроспективный анализ социально-философских проблем биоэтики (обзор литературы).» Вятский медицинский вестник, № 1, 2013, сс. 112–120.
2. Mukhamedova, Zamira. "Bioethics in Uzbekistan: History, Issues, Prospects." Asian Bioethics Review, vol. 7, no. 5, 2015, pp. 501–511.
3. Мухамедова, Замира. «Биоэтика в Узбекистане: история, проблемы, перспективы». Philosophy and Life / Фалсафа ва хаёт, т. 1/2 (1), 2018, сс. 60–71.
4. UNESCO. Universal Declaration on Bioethics and Human Rights. Paris, 2005.
5. Andorno, Roberto. "Global Bioethics at UNESCO: In Defence of the Universal Declaration on Bioethics and Human Rights." Journal of Medical Ethics, vol. 33, no. 3, 2007, pp. 150–154.
6. UNESCO. Bioethics Core Curriculum. Section 1: Syllabus. Ethics Education Programme. Paris: UNESCO, 2008.
7. World Health Organization. WHO Guidelines on Ethical Issues in Public Health Surveillance. Geneva: World Health Organization, 2017.
8. Седова, Н. Н., и Н. В. Сергеева. Биоэтика в пространстве культуры. Москва: Триумф, 2010.
9. Никулина, М. А. «Биоэтика как институциональный механизм социального контроля современного научного знания». Инженерный вестник Дона, № 4 -1, 2014.
10. Potter, Van Rensselaer. Bioethics: Bridge to the Future. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1971.



UDK: 370.2

Abdulboqi XAKIMOV,
Namangan davlat texnika universiteti dotsenti
E-mail: a.khakimov@gmail.com

O'zMU professori I.Ergashev taqrizi asosida

YOSHLARDA ILMIIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) yoshlar ongida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdagi roli va ahamiyati ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Raqamli avlod vakillarining axborotni qabul qilish, qayta ishlash va baholash jarayonida AKTning ta'siri, shuningdek, ilmiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta'limiy platformalar, elektron resurslar va interaktiv o'quv texnologiyalari imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada AKTning yoshlar tafakkurida tanqidiy fikrlash, analitik yondashuv, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish va intellektual faollikni kuchaytirishdagi o'rni tahlil qilinadi. **Kalit so'zlar:** ilmiy dunyoqarash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli madaniyat, tanqidiy fikrlash, media savodxonlik, raqamli kompetensiya, yoshlar, ilmiy tafakkur, axborot xavfsizligi.

ФОРМИРОВАНИЕ НАУЧНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ У МОЛОДЕЖИ: ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

В данной статье научно анализируется роль и значение современных информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в формировании научного мировоззрения у молодежи. Освещается влияние ИКТ на процессы восприятия, переработки и оценки информации представителями цифрового поколения, а также рассматриваются возможности образовательных платформ, электронных ресурсов и интерактивных обучающих технологий, способствующих развитию научного мышления. В статье анализируется роль ИКТ в формировании у молодежи критического мышления, аналитического подхода, умения принимать решения на основе доказательств и повышения интеллектуальной активности.

Ключевые слова: научное мировоззрение, информационно-коммуникационные технологии, цифровая культура, критическое мышление, медиаграмотность, цифровая компетентность, молодежь, научное мышление, информационная безопасность.

THE IMPORTANCE OF MODERN INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN DEVELOPING SCIENTIFIC WORLDVIEW AMONG YOUTH

Annotation

This article provides a scientific analysis of the role and significance of modern information and communication technologies (ICT) in shaping a scientific worldview among young people. It highlights the influence of ICT on the processes of perception, processing, and evaluation of information by the digital generation, as well as the potential of educational platforms, electronic resources, and interactive learning technologies that contribute to the development of scientific thinking. The article examines the role of ICT in fostering critical thinking, analytical reasoning, evidence-based decision-making, and intellectual engagement among youth.

Keywords: scientific worldview, information and communication technologies, digital culture, critical thinking, media literacy, digital competence, youth, scientific thinking, information security.

Kirish. XXI asrda globallashuv, raqamli transformatsiya va axborot oqimlarining keskin ortishi yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri va ijtimoiy faolligini shakllantirishda tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yoshlar ongiga ta'sir etuvchi eng kuchli omillardan biri sifatida namoyon bo'lib, ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish jarayonida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda ta'lim, fan, ishlab chiqarish va madaniyat sohalari uzluksiz ravishda raqamli muhit bilan uyg'unlashar ekan, yoshlarning ilmiy tafakkurga ega bo'lishi, dalillarga asoslangan fikrlashni o'zlashtirishi hamda axborotni tanqidiy qayta ishlash ko'nikmalarini egallashi dolzarb masalaga aylanmoqda.

Fan-texnika taraqqiyoti va raqamli vositalarning keng qo'llanilishi yoshlarning axborot olish, o'rganish, tahlil qilish va baholash jarayonlarini tubdan o'zgartirdi. Raqamli

platformalar, elektron kutubxonalar, ilmiy ma'lumotlar bazalari, interaktiv o'quv dasturlari va sun'iy intellekt asosidagi ta'limiy ilovalar yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, axborotning haddan tashqari ko'pligi, yolg'on xabarlar, manipulativ kontent va media-ma'lumotlarning tezkor tarqalishi yoshlarni tanqidiy fikrlash, media savodxonlik va raqamli madaniyat ko'nikmalariga ega bo'lishni talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ilmiy dunyoqarash - bu atrof-muhit, jamiyat va ilmiy jarayonlarni ilmiy metod, dalil va mantiqiy asoslar bilan anglashdan iborat murakkab tafakkur shaklidir. Uning shakllanishida AKT vositalari nafaqat axborot manbai, balki ilmiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodik muhit sifatida ham xizmat qiladi. AKT yordamida yoshlar ilmiy tajribalar, virtual laboratoriyalar, modellashtirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish kabi

jarayonlarda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ularning ilmiy tafakkurini, analitik yondashuvini va intellektual faolligini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yoshlar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyatini o'rganishga qaratilgan bo'lib, AKTning kognitiv, axborotiy va ma'naviy ta'sir mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Maqola yoshlarning tanqidiy fikrlash, raqamli kompetensiya va media savodxonligini rivojlantirishda AKT vositalarining tutgan o'rni hamda ularni samarali qo'llash strategiyalarini aniqlab beradi.

Bugungi kunda jadal rivojlanayotgan texnologiyalar asri va kengayib borayotgan global axborot makoni yoshlar uchun beqiyos imkoniyatlar yaratib berayotgani bilan birga, zararli axborot oqimlari ko'rinishida jiddiy xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Raqamli makonda shakllanayotgan ushbu tahdidlar yoshlarning kelajagiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, yoshlarni zararli axborotdan himoya qilish, ularda axborot madaniyatini, media savodxonlikni va tanqidiy mushohada yuritishga asoslangan ilmiy dunyoqarashni shakllantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bunday jarayon, o'z navbatida, jamiyatning siyosiy savodxonlik darajasi oshishiga ham sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogika va sotsiologiya sohasidagi olimlar, xususan, D. Tapscott raqamli avlod vakillarining axborot iste'moli tez, tanlab olinadigan va interfaol xarakterga ega ekanini, ularning ongida ilmiy dunyoqarash shakllanishi uchun sifatli axborot manbalari va to'g'ri yo'naltirilgan ta'limiy muhit zarurligini ta'kidlaydi. Manuel Castells esa global axborot maydonida informatsion oqimlar ongni shakllantiruvchi asosiy kuchga aylanganini, yoshlar mustaqil ravishda axborotni tahlil qilish va filtrlash kompetensiyalariga ega bo'lishi zarurligini ta'kidlab, bu jarayon ilmiy dunyoqarashning negizini tashkil etishini qayd etadi.

Shuningdek, psixolog J. Brunerning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, yoshlarning tafakkuri faollik, izlanish va muammoli vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish orqali shakllanadi. Bu esa axborot oqimlari sharoitida yoshlarning tanqidiy fikrlash, media savodxonlik va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Media pedagogika bo'yicha tadqiqotchi R. Potters ham yoshlarning informatsion iste'mol madaniyati media dunyoni anglash, baholash va ongli qabul qilish bilan chambarchas bog'langanini ta'kidlaydi.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar kontekstida yoshlar ongida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni mas'uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Biz yoshlarga oid davlat siyosatini qat'iyat bilan davom ettiramiz va uni eng ustuvor vazifamiz darajasiga ko'tarishga intilamiz", - degan fikrlari ham aynan yoshlarni har qanday axborot tahdidlaridan himoya qilish, ularda mustaqil fikrlash va ilmiy dunyoqarash asosida to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan strategik yondashuvning mazmunini ifodalaydi.

Natijalar va muhokama. Bugungi kunda yoshlar nafaqat o'quv dargohlari, balki radio, televideniye, matbuot, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali turli xil rang-barang axborotlarni qabul qilmoqdalar. Jahon axborot maydoni keskin kengayib borayotgan bir paytda, yoshlar ongini to'g'ri, ilmiy asoslangan axborot bilan boyitish, ularda axborot iste'moli madaniyatini oshirish, zararli axborotni farqlash va unga nisbatan immunitet hosil qilish eng muhim vazifalardan biridir. Bu jarayon yoshlarning nafaqat bilim salohiyatini, balki

ularning ijtimoiy mas'uliyati, fuqarolik pozitsiyasi va ma'naviy yetukligini shakllantirishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi jamiyatning barcha qatlamlariga, xususan, yoshlarning dunyoqarashi va tafakkuriga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi raqamli avlod informatsion oqimlar ichida ulg'aymoqda va ular kunlik hayotning ajralmas bo'lagi sifatida virtual makon bilan o'zaro munosabatda bo'lmoqdalar. Shu sababli AKTning yoshlar ongida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilish nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy jihatdan ham dolzarbdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, AKT yoshlarning bilim olish jarayonini tezlashtiradi, ularning izlanish doirasini kengaytiradi va ilmiy fikr yuritish uchun cheksiz imkoniyatlar yaratadi. Virtual laboratoriyalar, elektron darsliklar, ilmiy ma'lumotlar bazalari, ochiq ta'lim platformalari va sun'iy intellekt asosidagi dasturlar yoshlarning analitik tafakkurini, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini va izlanish madaniyatini rivojlantiruvchi omillar sifatida maydonga chiqmoqda.

Biroq AKTning cheksiz imkoniyatlari bilan birga, xavotirli jihatlar ham mavjud. Faol kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarning bir qismi informatsiyani tanqidiy qayta ishlash o'rniga, tayyor axborotga tayanishga moyil bo'lib qolmoqda. Soxta ma'lumotlar, manipulyativ kontent, tekzor lekin ishonchsiz manbalarda yoshlarning ilmiy dunyoqarashiga zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli AKTdan foydalanish jarayonida ilmiy asoslangan axborot madaniyatini shakllantirish zaruriy talabga aylanadi.

O'tkazilgan tahlillar tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yoshlar ilmiy dunyoqarashining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Tanqidiy fikrlash - bu har qanday axborotni tekshirish, dalillarni solishtirish va asosli xulosaga kelish qobiliyatidir. AKT vositalari bu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi: forumlar, ilmiy bloglar, akademik muhokamalar, ekspert fikri platformalari va ilmiy izlanishlar uchun raqamli kutubxonalar yoshlar tafakkurida ilmiy metodologiyani shakllantirishda faol xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlashga ega yoshlar axborot iste'moli jarayonida ancha faol, ongli va mas'uliyatli bo'ladi. Ular informatsiyaning obyektivligini tekshiradi, faktlarni o'zaro taqqoslaydi, ilmiy asosga ega bo'lgan manbalarni tanlaydi va xulosalarning dalillarga tayanishini talab qiladi.

AKT yoshlarning intellektual rivojlanishiga kuchli motivator sifatida ta'sir ko'rsatadi. Interfaol multimedia vositalari, gamifikatsiya elementlari, onlayn tajribalar, vizual modellash tirish vositalari yoshlarni ilmiy izlanishga jalb etadi va ularning kognitiv jarayonlarini faollashtiradi. Bu jarayon yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biridir.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoshlar ilmiy dunyoqarashining shakllanishida strategik ahamiyatga ega. AKT - bu shunchaki texnik vosita emas, balki yoshlarning tafakkuri, qarashlari, bilim olish jarayoni va ijtimoiy faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik-madaniy kuchdir.

Ilmiy dunyoqarashga ega yoshlar - bu mustaqil fikrlaydigan, dalillarga asoslanib qaror qabul qiladigan va global jarayonlarni to'g'ri talqin qila oladigan avlodlar. Shu sababli AKT vositalaridan foydalanish jarayonida yoshlarning axborot madaniyatini oshirish, media savodxonligini shakllantirish, tanqidiy fikrlash va ilmiy metod asosida tafakkur yuritishga o'rgatish davlat siyosati va ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yoshlar ongida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning eng muhim epistemologik vositalaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi yoshlarning axborotni izlash, qayta ishlash, tahlil qilish va baholash jarayonlariga sifat jihatdan yangi yondashuv olib kirib, ularning kognitiv salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. AKT ta'lim, ilm-fan va amaliy faoliyat o'rtasida integrativ muhit yaratib, yoshlarni ilmiy metodologiya asosida fikrlash, dalillarga tayanish, tanqidiy tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli platformalar, elektron o'quv resurslari, virtual laboratoriyalar, ilmiy ma'lumotlar bazalari, multimedia vositalari va sun'iy intellekt texnologiyalari yosh avlodning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, tanqidiy fikrlash, media savodxonlik, analitik yondashuv va axborot xavfsizligi kabi kompetensiyalarning shakllanishi AKTdan ongli foydalanish samarasi bilan bevosita bog'liqdir.

Shu bilan birga, axborot makonining cheksizligi zararli kontentlar, yolg'on ma'lumotlar, axborot manipulyatsiyasi kabi xavf omillarini ham kuchaytiradi. Bu esa AKTdan foydalanishda yoshlar uchun axborot madaniyatini shakllantirish, ilmiy asoslangan filtrlash mexanizmlarini o'rgatish va media muhitga nisbatan tanqidiy immunitetni mustahkamlash zaruratini keltirib chiqaradi. Ilmiy dunyoqarashning shakllanishi aynan mana shu jarayonlarda asosiy determinator sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, zamonaviy AKT yoshlarning intellektual rivojlanishi, ijodiy fikrlashi, ilmiy izlanish ko'nikmalarini kuchaytirishi va ularning global axborot makoniga integratsiyasini osonlashtirishi bilan strategik ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning ilmiy dunyoqarashi qanchalik puxta shakllansa, ular jamiyatning barqaror taraqqiyotiga shunchalik samarali hissa qo'sha oladi. Shuning uchun ta'lim jarayonida AKTdan samarali foydalanish va ularni yoshlar ongiga ilmiy yondashuv bilan integratsiya qilish davlat siyosati, pedagogik amaliyot va ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR

1. Исмаилов М. И., Хакимов А. А., Абдуллажанова Н. Т. Инсон ва жамият хавфсизлиги–ижтимоий-гуманитар фанларнинг муаммоси сифатида //Актуальные проблемы современной науки. – 2016. – С. 48-50.
2. Abdilboki K. Human Alienation and National Mentality in Society in the Context of Modern Global Development //Academic Journal of Digital Economics and Stability. – 2021. – Т. 5. – С. 52-53.
3. Хакимов А. А., Абдуллажанова Н. Т., Юсупов Ф. К. Фуқаролик жамиятини барпо этишда ҳуқуқий ва ахлоқий нормаларнинг аҳамияти //Научное знание современности. – 2017. – №. 4. – С. 360-363.
4. Хакимов А. А., Абдуллажанова Н. Т., Бокиев К. Т. Глобал экологик инқироз ва экологик нормалар //Сборники конференций НИЦ Социосфера. – Vedecko vydavatel'ske centrum Sociosfera-CZ sro, 2015. – №. 58. – С. 93-95.
5. Хакимов А. А., Хакимов Д. А. Эстетическое и художественное воспитание: цель, задачи, эффективность //Теория и практика современной науки. – 2017. – №. 4 (22). – С. 836-839.
6. Хакимов А. А. СМИ как фактор формирования ценностных ориентаций молодежи //Инновационный потенциал молодежи: культура, духовность и нравственность.—Екатеринбург, 2019. – 2019. – С. 412-416.
7. Abdulhadovich X. A., Egamberdiyevna D. S., Tuxliboyevich J. H. Innovative approach to improving the effectiveness of higher education //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 7. – С. 1074-1076.



UDK:371.03.

Gulnoza XALBAYEVA,
KDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasi v/b dotsenti, PhD
E-mail: xolboyevagulnoza@mail.com

KDPI dotsenti T.Ehquvvatov taqrizi asosida

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH JARAYONIDA PSIXOLOGIK OMILLAR NAMOYON BO'LISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida psixologik omillar namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari, ahamiyati va ularning ilmiy tahlili o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: bola, maktabga tayyorlash, Experimental learning, o'qitish ta'limi, innovatsiya, komfort, o'quv faoliyati, mexanizmlar, innovatsion tafakkur, integratsiya, hissiy-emotsional, hamkorlik, shaxslararo munosabat, maqsadli muloqot, ovoz toni, ko'rsatkich, subordinatsiya, jamoa, perseptivlik, kognitivlik, adaptivlik, refleksivlik, moslik «ko'zgusi», ekspert baholash.

ОСОБЕННОСТИ ДЕМОНСТРАЦИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ПРОЦЕССЕ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ К ШКОЛЕ

Аннотация

В данной статье выражена особенности проявления психологических факторов в процессе подготовки детей к школе, их значение и научный анализ.

Ключевые слова: ребенок, подготовка к школе, экспериментальное обучение, педагогическое образование, инновации, комфорт, учебная деятельность, механизмы, инновационное мышление, интеграция, эмоционально-эмоциональное, сотрудничество, межличностное отношение, целенаправленное общение, голосовой тон, индикатор, подчинение, команда, перспектива, познавательность, адаптивность, рефлексивность, «зеркало» совместности, эксперт оценка.

SPECIFIC FEATURES OF THE DEMONSTRATION OF PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE PROCESS OF PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL

Annotation

This article reflects the peculiarities, significance and scientific analysis of the manifestation of psychological factors in the process of preparing children for school.

Keywords: child, preparation for school, experimental training, pedagogical education, innovation, comfort, educational activity, mechanisms, innovative thinking, integration, emotional-emotional, cooperation, interpersonal attitude, purposeful communication, voice tone, indicator, subordination, team, perspective, cognition, adaptability, reflexivity, "mirror" of compatibility, expert assessment.

Kirish. Jahonda bolalarni maktabga innovatsion tayyorlash masalasi dolzarb bo'lib, maktab ta'limiga har tomonlama tayyorlangan bola kelgusida tengdoshlarining orasida o'ziga ishonchini ko'rsata oladigan, xavotirlanish, stresslarga berilish darajasi minimallashtirilgan, guruhdagi ijtimoiy jarayonlarda «begonalashuv» sindromini o'zida his qilmaydigan sifatlarni namoyon etadi. «Experimental learning» - «Umr davomida ta'lim olish» konsepsiyasiga ko'ra, o'quvshilarni innovatsion faoliyatga yo'nalganligini ta'minlash talab etilmoqda. Bu borada «Experimental learning» o'qitish ta'limi maktabgacha bo'lgan davridanoq shakllantirishni tajriba tarzida o'tkazishni taqozo etib, ta'lim oluvshilarni o'quv jarayoniga motivlashtirish yo'li bilan keng jalb etishni nazarda tutadi. Buning uchun bolalarni maktabga innovatsion tayyorlashni o'ziga xos psixologik mexanizmlarini aniqlash va e'tibor berish, bu jarayonni rivojlantirish orqali ularni maktabga tayyorlash ishlarini takomillashtirish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bolalarni maktabga innovatsion tayyorlashga alohida e'tibor qaratilib, yangicha psixologik usul va texnologiyalar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada bolalarni maktabga tayyorlashda ularning emotsional holati, intellekti, uning sinf jamoasida o'zini «komfort» – qulay his etishi, norasolik kompleksiga duch

kelmasligi, guruhda psixologik izolyatsiyaga duch kelmasligi, maktabga tayyorlashni uzviylikni o'rnatish jarayonida yangiliklarni izlab topishga o'rgatish, ularni maktabga innovatsion faoliyatga psixologik yondashuvini shakllantirish yo'nalishlarida keng ko'lamli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruriyati kuzatilmoqda [1,2].

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda bolalarni maktabga innovatsion tayyorlash asosida ularni psixologik tayyorgarlik chora-tadbirlarini takomillashtirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan etib belgilangan bo'lib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish. «Bog'cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish; maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish» konseptual g'oya negizida amalga oshirishga qaratilgan davlat siyosatida inson kapitalini rivojlantirish muhim vazifalar belgilanganligi, ularni amalga oshirishga yetarli asos bo'la oladi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son «O'zbekiston Respublikasi

Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori, «O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari», «Ilk qadam» Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi hamda «Ilm yo'li» 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash variativ dasturi asosida nazorat qilinadi. Ayni paytda ushbu mezonlar bolalarni maktabga tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablarni majmuasi hisoblanib, u davlat hujjati sifatida qabul qilingan. Shuningdek, bolalarni maktabga pedagogik-psixologik tayyorlash jarayoni «Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash» tayanch dasturi asosida amalga oshiriladi.

Yuqoridagi me'yoriy hujjatlar bolalarni maktabga psixologik tayyorlashga, maktabda beriladigan ta'limni mukammal o'zlashtirishga, mustaqil O'zbekistonning ravnaqi uchun xizmat qiladigan barkamol inson bo'lib yetishishlariga zamin hozirlaydi [3,4].

Sh.T.Kubaeva o'z ilmiy tadqiqotlarida bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlashda innovatsion-psixologik mexanizmlarni tafakkurga asoslangan «innovatsion tafakkur» modelini ilgari suradi. Bizningcha ushbu muammoni ilmiy jihatdan tahlil qilishda bir tomonlama yondashish to'g'ri bo'lmagan bo'lar edi. Chunonchi, tafakkur sub'ektini yosh xususiyatlari va etnopsixologik xususiyatlarning o'rnini ham unutmashlik lozim, chunki innovatsion-psixologik mexanizmlar asosida obrazlar,

ramzlar, xulosalar, hukmlarning ixtiyoriy assotsiatsiyasi, ularning o'zaro integratsiyasi mavjud bo'lib, yangi obraz va tasavvurlarning paydo bo'lishida ijtimoiy identifikatsiya asosiy rolni bajaradi. J.Bayerni tadqiqotlarida, bolalarni maktabga innovatsion-psixologik tayyorlash mexanizmini asosini kreativlik tashkil qilishi alohida ko'rsatib o'tiladi. Albatta innovatsion-psixologik mexanizmlarni joriy etishda bu psixologik xususiyatni e'tibordan qochirish lozim bo'ladi. I.Abdullaeva va uning shogirdlari maktabga tayyorlashda innovatsion tafakkurning roli va ahamiyatini uijtimoiy-falsafiy jihatdan o'rgangan. Uning fikricha, innovatsion-psixologik mexanizmlar albatta ijtimoiy normalar asosida boshqarilib turilishi lozim.

Tahlil va natijalar

Bolani maktab ta'limiga tayyorlashni ekspert baholash so'rovnomasi

Yo'riqnoma: Hurmatli ota-ona (tarbiyachilar), sizga taqdim etilayotgan bandlar bo'yicha bolangizga (tarbiyalanuvchingizga) xos bo'lgan sifatning mosligini "5" balli shkala bo'yicha baholang. Sifatlarning juda mos kelmasligini "1"ball va juda mos ekanligini "5" ballda ifodalang.

Juda to'g'ri – 5 ball To'g'ri emas – 2 ball

To'g'ri – 4 ball Umuman to'g'ri emas – 1 ball

Bilmayman – 3 ball

Tanlagan javob variantingizning so'rovnomaning javoblar varaqasida qayd eting. Javoblaringiz uchun sizga oldinda tashakkur bildiramiz!

T/r	Savollar	1	2	3	4	5
	Atrofdagilarning hissiy-emotsional holatiga sezgir					
	Jamoa, guruh a'zolari bilan hamkorlik qila oladi					
	O'zaro foydali munosabatlar (hamkorlik) o'rnatishga qobiliyatli					
	O'z muloqotini aniq maqsadga yo'naltira oladi					
	Shaxslararo munosabatda o'z xatti-harakatlarini (gavda tuzilishi, qo'l-oyoq harakatlari, mimika) to'g'ri boshqara oladi					
	Suhnatjarayonidayaxshi tinglovchi					
	Atrofdagilar nazarida ishonchli					
	Notanishinsonlar orasida o'zini tuta biladi					
	Maqsadli muloqotga intiladi					
	Shaxslararo munosabatda o'z nutqiga (ovoz toni, gapirish maromi) ega					
	Atrofdagi voqeyilikni tez ilg'aydi					
	Atrofdagilarga munosabatini to'g'ri amalga oshiradi					
	Ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish malakasiga ega					
	Muloqotning o'zaro tushunish tamoyiliga amal qilishdarajasi					
	Munosabatda qadriyatlariga rioya qilishi					
	Insonlarning harakati, ovoz toni, so'zi orqali emotsiyasini o'qiy oladi					
	Hamkorlik harakatlarini ongli amalga oshiradi					
	Muomala qoidalarini amalga oshirishga shayligi					
	Muloqotni hamsuhbat kimligiga ko'ra o'rnatadi					
	Munosabatga doimo tayyor					

Shkalalar tarkibi:

Bolani maktab ta'limiga tayyorlashni ekspert baholash shkalasi mezon

Perseptivlik	Kognitivlik	Adaptivlik	Refleksivlik	Moslik «ko'zgusi»
1,6,11,16	2,7,12,17	3,8,13,18	4,9,14,19	5,10,15,20

Bolani maktab ta'limiga tayyorlashni ekspert baholash shkalasi

Perseptivlik	Bunday tipdagi bolalar boshqalarning hissiy-emotsional holatiga juda sezgir, yaxshi tinglovchi, insonlarning tuyg'ularini tez ilg'aydi va insonlarning harakati, ovoz toni, so'zi orqali emotsiyasini o'qiy oladigan bolalar hisoblanadi.
Kognitivlik	Bu tipdagi bolalar jamoa, guruh a'zolari bilan hamkorlik qila oladi, atrofdagilar nazarida ishonchli va mas'uliyatli, odamlarga munosabatini hamkorlik istagi orqali to'g'ri va ongli amalga oshiradi.

Adaptivlik	Bunday bolalar o'zaro foydali munosabatlar (hamkorlik) o'rnatishga qobiliyatli, ularda har xil bosqich insonlar orasida o'zini tuta bilish qobiliyati yuqori darajada bo'lganligi bois munosabatlarni o'rnatadi.
Refleksivlik	Ushbu tipga mansub bolalar o'z muloqotini aniq maqsadga yo'naltira oladi, maqsadli muloqotga intiladi, muloqotning o'zaro tushunish tamoyiliga amal qiladi, hamda o'z muloqotini hamsuhbat kimligiga ko'ra o'rnatadi.
Moslik «ko'zgusi»	Bunday bolalar shaxslararo munosabatda o'z xatti-harakatlarini (gavda tuzilishi, qo'l-oyoq harakatlari, mimika) to'g'ri boshqara oladi, o'z nutqiga (ovoz toni, gapirish maromi) katta e'tibor qaratadi.

Tadqiqotimiz natijalarining emperik jihatdan tahlilini quyidagicha amalga oshiramiz. Ekspert baholash natijalari yuzasidan olingan natijalar quyidagi jadvalda aks etgan («1-jadvalga qarang»).

Bolani maktab ta'limiga tayyorgarligini baholash so'rovnomasi ota-onalar va MTT tarbiyachilarining baholash jarayonida o'ziga xos natijalar kuzatildi. Ushbu o'rinda aytib o'tish lozim bo'ladiki, olingan natijalarda o'rtachadan yuqori qiymatlar aks etgan bo'lsa-da, ularning qiymatlarida Student t-mezoniga ko'ra farqlar ishonchligi kuzatildi. Ekspert baholashda «persektivlik»ni baholash ota-onalarda 5,53ni tashkil qilgan bo'lsa, MTT tarbiyachilarida bu ko'rsatkich 6,1ni ko'rsatmoqda, farqlar ishonchligi ($r=2,23, p\leq 0,05$) qiymatni ko'rsatdi. Bundan ko'rinadiki, MTT tarbiyachilari bolaning ushbu qobiliyatini bevosita mashg'ulotlar jarayonini kuzatishlari natijasiga asoslanib baholaganlar, ota-onalari esa ular bilan bevosita uydahamda kundalik turmush yumushlari bilan bog'liq munosabatlaridagi taassurotlari orqali baholaganlar. Bolalar ota-onalari bilan munosabatlarida hamma payt ham ochiq bo'lmasligi, subordinatsiya saqlashga harakat qilishi ularning mazkur shkala bo'yicha qiymatlari

tarbiyachilarga qaraganda pastroq bo'lishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. [5,6].

Ekspertlarning «refleksivlik» bo'yicha ko'rsatkichlarda ham MTT tarbiyachilarining bergan bahosi yuqoriroq ko'rinish olgan, ya'ni 5,72 bo'lsa, bu ko'rsatkich ota-onalarda 4,58 ekanligini ko'rinishimiz mumkin va bu ($r=6,07, p\leq 0,001$) o'zaro manfiy korrelyatsiyani bermoqda. Ushbu o'rinda bolalarning jamoa, guruh a'zolari bilan hamkorlik qila olishi, odamlarga munosabatini to'g'ri amalga oshira olishi, hamkorlikni ongli amalga oshirishi kabi psixologik sifatlarga mansub ekanliklarini ko'rsatmoqda. MTT tarbiyachilari bu orqali o'z tarbiyalanuvchilarida sotsial malakalari shakllanganligini e'tirof etsa-da, ularning keyingi hayotida bu psixologik xususiyatlar tafovutlanishi mumkinligini anglatadi.

Tarbiyachilarning «adaptivlik» shkalasi ko'rsatkichlari ham ota-onalar va MTT tarbiyachilari tomonidan boshqa shkalalarda kuzatilgan manzarani aks ettirmoqda ya'ni, ota-onalarda 6,24 va MTT tarbiyachilarida 6,01 natijani ko'rinishimiz mumkin, bu yerda farqlarning ishonchligi ($r=7,66, p\leq 0,001$) ekanligini ko'rinishimiz mumkin.

1 –jadval.

Bolani maktab ta'limiga tayyorgarligini (MTT) ekspert baholash natijalari

№	Shkalalar	Ota-onalar (n=68)		MTT tarbiyachilari (n=68)		T
		X	σ	X	σ	
1.	Perseptivlik	5,53	1,10	6,1	0,82	-2,23*
2.	Refleksivlik	4,58	1,56	5,72	1,06	-6,07***
3.	Adaptivlik	6,24	1,45	6,01	0,93	-7,66***
4.	Kognitivlik	7,23	1,26	6,62	0,95	-10,98***
5.	Moslik «ko'zgusi»	5,45	1,40	5,46	0,91	-9,42***

Izoh: * $p<0,05$; *** $p<0,001$

Ekspertlarning «kognitivlik» omili bo'yicha ota-onalarda 7,23 va MTT tarbiyachilarida esa 6,62 natijani ko'rinishimiz mumkin, ko'rsatkichlar orasidagi farqlar ishonchligi ($r=10,98, p\leq 0,001$). Bu qiymatlar bolalarni maktabga tayyorlashda ularni odamlar bilan muloqotni o'rnatish, ularni psixologik tayyorgarligi o'z yosh davrlari chegarasida muhim ekanligini ko'rsatmoqda.

Metodikaning moslik «ko'zgusi» bo'yicha olingan natijalar ota-onalarda 5,45 ko'rsatkichni bergan bo'lsa, tarbiyachilarda ham bu ko'rsatkich deyarli bir xil natijani, ya'ni 5,46ni ko'rsatmoqda.

Xulosa. Yuqoridagilarga asoslanib, bayon etilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligini (MTT) ekspert baholash natijalari bo'yicha quyidagilar aniqlandi:

Bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarligi aniq mezonli va tizimli, ilmiy asoslangan tadqiqot metodikasi asosida aniqlandi. Bu uning maktab ta'limi bilan mazmuniy bog'liqligini tushuntirish imkonini berdi.

Bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarligini persektivlik, refleksivlik, ekspert baholash bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganilganligi natijalari singari adaptivlik, kognitivlik ko'rsatkichlarida ham kuzatildi.

3. Bolalarni maktabga tayyorlashda ularning yangi muhitga va yangi jamoaga ko'nikishlari oson bo'lmaydi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlashda bu ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta'lim jarayonida va jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni ijobiy tarkib toptirishda muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni. 2022 yil 28yanvar
- Abdullaeva I.G'. Milliy taraqqiyotning yangi bosqichida iqtisodiy va innovatsion tafakkur uyg'unligi // Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2019. - 48 b.
- Baer J. Domain specificity and the limits of creativity theory // Journal of Creative Behavior, 2012. – 46 (1). – pp. 16-29.
- Герасимов Г.И., Илюхина Л.В. Инновации в образовании: сущность и социальные механизмы. – Ростов н/Д., 1999. - 136 с.
- Kubayeva Sh.T. O'yin va innovatsion tafakkur (ontologik va gnoseologik tahlil) // Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2019. - 49 b.

6. Xalbayeva G.A. Bolalarni maktabga tayyorlashning innovatsion-psixologik mexanizmlari // Psixologiyafanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 55 b.
7. Xalbayeva G.A. Bolalarni maktabga psixologik tayyorlashning ilmiy-metodologik asoslari. // O'zMU xabarlari. – Toshkent, 2023. №1/4 – B. 166-169.



UDK: 37.018.43

Latofat XALIKOVA,
Toshkent davlat transport universiteti dotsent v.b
E-mail: Latofatxalikova02@gmail.com

Pedagogika fanlar doktori, professor X.J. Xudoyqulov taqrizi asosida

MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QUVCHILARNING KREATIV TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada multimedia texnologiyalarining o'quvchilarda kreativ tafakkurni shakllantirishdagi pedagogik ahamiyati, ta'lim jarayonida media vositalardan foydalanishning samaradorligi, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishdagi innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, kreativ tafakkurni rivojlantirishda interfaol metodlar, vizual-virtual texnologiyalar, multimodal o'quv muhiti va pedagogik texnologiyalarning integratsiyalashuv imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Multimedia texnologiyalari, kreativ tafakkur, innovatsion ta'lim, interfaol metodlar, raqamli pedagogika, mediamuhit, vizual o'qitish, kreativ kompetensiya, o'quvchi faoliyati, pedagogik texnologiyalar, kreativ yondashuv, multimedia resurslari, virtual ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ijodiy fikrlash.

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE THINKING THROUGH MULTIMEDIA TECHNOLOGIES

Annotation

This article analyzes the pedagogical significance of multimedia technologies in developing students' creative thinking, the effectiveness of using media tools in the educational process, and innovative approaches that foster students' creative activity. It also highlights the role of interactive methods, visual-virtual technologies, multimodal learning environments, and the integration potential of pedagogical technologies in enhancing creative thinking.

Key words: Multimedia technologies, creative thinking, innovative education, interactive methods, digital pedagogy, media environment, visual learning, creative competence, student activity, pedagogical technologies, creative approach, multimedia resources, virtual learning, learner-centered education, creative thinking.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

В данной статье анализируются педагогическое значение мультимедийных технологий в формировании креативного мышления учащихся, эффективность использования медиасредств в образовательном процессе, а также инновационные подходы к развитию творческой активности учащихся. Освещены возможности использования интерактивных методов, визуально-виртуальных технологий, мультимодальной образовательной среды и интеграции педагогических технологий в процессе развития креативного мышления.

Ключевые слова: Мультимедийные технологии, креативное мышление, инновационное образование, интерактивные методы, цифровая педагогика, медиасреда, визуальное обучение, креативная компетентность, учебная активность, педагогические технологии, креативный подход, мультимедийные ресурсы, виртуальное обучение, личностно-ориентированное обучение, творческое мышление.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishi raqamli texnologiyalar, innovatsion pedagogik yondashuvlar va kreativ kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan tub o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining, xususan, multimedia vositalarining ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning mustaqil fikrlashi va ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Multimedia texnologiyalari ta'lim jarayonini ko'rgazmali, interfaol, multimodal va shaxsga yo'naltirilgan shaklda tashkil etish orqali an'anaviy o'qitish modellari imkoniyatlarini kengaytiradi hamda o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga mos ravishda o'quv faoliyatini tashkil etishga undaydi.

Ta'limda kreativ tafakkurni rivojlantirish masalasi bugungi pedagogik tadqiqotlarning markazida turib, o'quvchilarning yangi g'oyalar yaratish, noodatiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim taklif qilish qobiliyatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Jahonning

rivojlangan mamlakatlarida kreativ fikrlashni rivojlantirish ta'lim sifatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaralishi, multimedia vositalarining mazkur jarayondagi o'rnini yanada kuchaytirmoqda. Chunki multimedia texnologiyalari orqali beriladigan vizual, audio va interaktiv axborot o'quvchining idrok, tafakkur va tasavvur jarayonlarini faollashtirib, bilimlarning mustahkam o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ham innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish, raqamli kompetensiya va kreativ yondashuvlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, multimedia texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarda fanlararo integratsiyani ta'minlash, amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash, mustaqil o'rganish malakalarini shakllantirish va o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, multimedia vositalaridan pedagogik asoslangan holda foydalanish o'quvchilarning kreativ tafakkurini

rivojlantirishning samarali omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli multimedia texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi funksional imkoniyatlari, ularning kreativ tafakkurni shakllantirish mexanizmlari hamda pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy asosda o'rganish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Multimedia texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish va o'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirishga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish ushbu yo'nalishning pedagogik nazariya va amaliyotdagi o'rni tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Raqamli ta'lim resurslaridan samarali foydalanish masalasi jahon pedagogikasining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib, zamonaviy o'qitish texnologiyalari yordamida o'quvchilarning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan.

Multimedia texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari masalasida R. Mayer, T. Bates, J. Bruner, A. Clark, S. Papert kabi xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar muhim o'rin tutadi. Xususan, Mayerning "kognitiv multimedia nazariyasi"ga ko'ra, vizual va audio kanallar orqali taqdim etilgan axborot o'quvchilarning idrok jarayonini faollashtirib, murakkab tushunchalarning o'zlashtirilishini sezilarli darajada yengillashtiradi. Brunerning konstruktivistik yondashuviga ko'ra, o'quvchi bilimni tayyor shaklda emas, balki interaktiv axborot muhiti orqali mustaqil ravishda qurib boradi, bu esa kreativ tafakkurning shakllanishi uchun muhim shartdir.

Raqamli pedagogika bo'yicha xorijiy adabiyotlar (Fleming, 2018; Salomon, 2014; Chen & Chou, 2019) multimedia texnologiyalari o'quvchilarning motivatsiyasi, muammoli fikrlash, vizual idroki va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanini isbotlaydi. Masalan, Papertning konstruksionizm nazariyasi multimedia va kompyuter vositalarining o'quvchida yangi bilim va g'oyalar yaratish jarayoniga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi.

O'zbekistonlik pedagog-olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham multimedia vositalarining ta'lim jarayonidagi ahamiyatini tasdiqlaydi. N.A. Muslimov, B.L. Farberman, R.S. Ismoilova, O'.Q. To'raqulov, A. Nishonaliyev kabi olimlarning ishlari ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarda kreativ tafakkur va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish masalalariga qaratilgan. Ismoilovning multimedia vositalari bo'yicha tadqiqotlari o'quvchilarda axborotni tezkor qabul qilish, tahlil qilish va ijodiy tarzda qayta ishlash qobiliyatlarining kuchayishini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Farbermanning mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha fikrlari multimedia texnologiyalaridan foydalanish jarayonida o'quvchi faoliyatini faollashtirish muhimligini asoslaydi. Muslimovning pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishga oid tadqiqotlarida esa zamonaviy o'qituvchi faoliyatida raqamli resurslar bilan ishlash ko'nikmalari muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

So'nggi yillarda kreativlik bo'yicha psixologik tadqiqotlar ham o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishga oid samarali yondashuvlarni taklif etmoqda. K. Robinson, J. Guilford, T. Amabile, E. Torrans kabi olimlarning ishlari kreativ tafakkurning mohiyati, rivojlanish bosqichlari va uni shakllantirish metodlari haqida fundamental ilmiy asoslarni yaratgan. Robinsonning ta'lim kreativlikni rivojlantirishdagi roliga oid qarashlari o'quv muhitini erkin, ochiq va interfaol tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, multimedia texnologiyalari asosida o'quvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirish bo'yicha ilmiy yondashuv mustahkam nazariy asosga ega bo'lib, uning amaliyotga tatbiq etilishi o'quv

jarayonining samaradorligini sezilarli oshiradi. Turli tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan ilmiy g'oya va xulosalar multimedia vositalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi nafaqat axborotni yetkazish vositasi, balki o'quvchining ijodiy qobiliyatini uyg'otuvchi va rivojlantiruvchi pedagogik mexanizm ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik izlanishlarga xos bo'lgan tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosalash, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil kabi metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Bu yondashuvlar mavzuning nazariy asoslarini chuqur anglash, kreativlik fenomenini ilmiy nuqtai nazardan tahlil etish hamda uning ta'lim jarayonidagi o'rni asoslash imkonini berdi.

Kreativlik tushunchasi XX asr boshidan boshlab Amerika va Yevropa psixologiyasi va pedagogikasining yetakchi tadqiqot mavzularidan biriga aylangan. "Kreativlik" atamasi ilk bor 1922 yilda amerikalik R.M. Simpson tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, undan keyingi tadqiqotlar mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatini yanada aniqlashtirdi.

Kreativlik bo'yicha fundamental ilmiy izlanishlar amerikalik psixolog J.P. Guilford nomi bilan bevosita bog'liq. Guilford 1959 yilda kreativlikni tafakkurning alohida turi sifatida e'tirof etib, uni divergent fikrlash — muammoni turli yo'nalishlarda hal etishga imkon beruvchi noodatiy fikrlash jarayoni sifatida tavsiflagan. Divergent tafakkur konvergent tafakkurdan farqli o'laroq yagona "to'g'ri yechim" izlashga emas, balki har xil, original va o'ziga xos variantlarni yaratishga qaratiladi. Konvergent fikrlashda intellekt yetakchi o'rin tutsa, divergent fikrlashda ijodiy salohiyat ustunlik qiladi.

Kreativlik va shaxs kreativligini rivojlantirish masalalari MDH mamlakatlari tadqiqotchilari tomonidan ham keng o'rganilgan. Jumladan: Y.R. Varlakova — bo'lajak pedagoglar kreativligini rivojlantirishning nazariy asoslari; N.M. Gnatko — ijodkorlik va taqlid fenomenlari; L.D. Lebedeva — kichik yoshdagi o'quvchilarda kreativlikning shakllanishi; V.F. Lugovaya — kreativlikni shaxsning moslashuvchan potentsiali sifatida talqin etish; L.A. Zatselova, O.G. Pozdnyakov, O.N. Ovsyannikova — harbiy oliy ta'lim tizimida kreativlikni rivojlantirish masalalari.

Mazkur tadqiqotlar kreativlikning psixologik, pedagogik va sotsiokulturni jihatlarini o'rganish orqali uning inson faoliyatidagi o'rnini keng yoritib bergan.

Kreativlik jarayonining mazmuni Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativlik jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi: yangi g'oyalarni ishlab chiqish; ularni baholash va tahlil qilish; hayotiyli yoki dolzarbligi tasdiqlanmagan g'oyalardan voz kechish;

mavjud muammoga noodatiy yondashuvni qo'llash. Ta'lim jarayonida kreativ yondashuv, avvalo, o'qishga bo'lgan qiziqishi sust bo'lgan talabalarda ijobiy motivatsiyani shakllantirish, darsni jonli muloqot asosida tashkil etish, bilimni izlashga majbur etuvchi muammoli vaziyatlarni yaratish orqali namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar. O'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, kreativlik shaxsning noodatiy fikr yurita olishi, yangi g'oyalar yaratishi, muammolarni turli usullar bilan hal etish qobiliyatini ifodalaydigan murakkab psixologik-pedagogik jarayon bo'lib, uni rivojlantirish o'quv muhitining mazmuni, o'qituvchining kompetentligiga hamda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar tabiatiga chambarchas bog'liqdir.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativlik tushunchasi jahon ilmiy maktablarida turlicha talqin qilingan

bo'lsa-da, barcha tadqiqotchilar uning shaxs rivojlanishidagi muhim o'rni va ta'limni innovatsion shakllarda tashkil etish zarurligi borasida yakdil fikr bildirganlar. Guilford, Torrance, Gardner, Robinson kabi olimlarning ishlari kreativlikni rivojlantirish mexanizmlarini ochib bergan bo'lsa, MDH mamlakatlari tadqiqotchilari kreativlikning ijtimoiy-pedagogik jihatlarini o'rganishga salmoqli hissa qo'shgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun avvalo ijodiy muhit yaratish, o'quv topshiriqlarini muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish, erkin muloqotni rag'batlantirish, shuningdek, har bir o'quvchining shaxsiy faolligi va individualligini qo'llab-quvvatlash zarur. Bunda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchini o'z fikrini mustaqil shakllantirishga yo'naltiruvchi, jarayonni boshqaruvchi va ijodiy faoliyatni rag'batlantiruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirish jarayoni bosqichma-bosqich kechishi, moslashuv, rivojlantirish, amaliy faoliyat va tahlil-baholash bosqichlarini bosib o'tishi aniqlangan. Bunday tizimli yondashuv o'quvchining ijodiy potentsialini chuqur anglash, yangi g'oyalarni hayotga tatbiq etish va natijalarni baholashko'nikmalarini shakllantiradi.

Umuman olganda, kreativlikni rivojlantirish o'qituvchidan zamonaviy pedagogik yondashuvlarni egallash, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish, shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga amal qilishni talab etadi. Shaxsning ijodiy imkoniyatlari rivoji nafaqat uning ta'limdagi muvaffaqiyatiga, balki jamiyat taraqqiyotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli kreativlikni shakllantirish bugungi ta'lim siyosatining asosiy vazifalaridan biri sifatida dolzarbligicha qoladi.

ADABIYOTLAR

1. Guilford, J.P. *Creativity and Divergent Thinking*. New York: McGraw-Hill, 1959.
2. Torrance, E.P. *Torrance Tests of Creative Thinking*. Lexington: Personnel Press, 1974.
3. Robinson, K. *Out of Our Minds: Learning to be Creative*. Oxford: Capstone Publishing, 2001.
4. Mayer, R. *Multimedia Learning*. Cambridge University Press, 2009.
5. Papert, S. *Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas*. Basic Books, 1980.
6. Bates, T. *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning*. Vancouver, 2015.
7. Clark, R., Nguyen, F., & Sweller, J. *Efficiency in Learning: Evidence-Based Guidelines*. Pfeiffer, 2006.
8. Chen, C.-H., & Chou, Y.-C. "Enhancing Student Creativity through Multimedia-Based Instruction". *Computers & Education*, 2019.
9. Farberman, B.L. *Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot*. Toshkent, 2001.
10. Muslimov, N.A. *Kasbiy ta'lim pedagogikasi*. Toshkent: O'qituvchi, 2016.
11. Ismoilova, R.S. "Ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning didaktik asoslari". *Pedagogika va psixologiya jurnali*, 2020.
12. To'raqulov, O'.Q. *Innovatsion ta'lim texnologiyalari*. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2021.
13. Ibragimova, G.N. *Kreativlik va shaxs rivoji masalalari*. Toshkent, 2018.
14. Musinova, R.Y. "Kreativ o'zini o'zi boshqarish jarayonlari". *Oliy ta'lim jurnali*, 2022.



UDK:371

Firuz XAMDAMOV,

Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: xamidovf@gmail.com

Toshkent amaliy fanlar universiteti professori G'.H. Hamroyev taqrizi asosida

BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARIDA O'QUV TOPSHIRIQLARI USTIDA ISHLASH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Аннотация

Mazkur ilmiy maqolada bo'lajak informatika o'qituvchilarida o'quv topshiriqlari ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantirish masalasi pedagogik muammo sifatida ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. O'quv topshiriqlarining ta'lim jarayonidagi o'rni, ularning didaktik, metodik va kompetensiyaviy xususiyatlari ochib beriladi. Informatika fanining o'ziga xosligi, raqamli ta'lim muhitida o'quv topshiriqlarini loyihalash va qo'llashning zamonaviy yondashuvlari yoritiladi. Tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida o'quv topshiriqlari bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Informatika ta'limi, bo'lajak o'qituvchi, o'quv topshirig'i, pedagogik muammo, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta'lim.

РАЗВИТИЕ УМЕНИЯ РАБОТАТЬ НАД УЧЕБНЫМИ ЗАДАНИЯМИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация

В данной научной статье в научно-теоретическом и практическом аспектах анализируется вопрос развития у будущих учителей информатики навыков работы над учебными заданиями как педагогическая проблема. Раскрывается роль учебных заданий в образовательном процессе, их дидактико-методические и компетентностные особенности. Будет освещена специфика информатики, современные подходы к проектированию и применению учебных заданий в цифровой образовательной среде. В исследовании обоснованы педагогические условия формирования умения работать с учебными заданиями в профессиональной подготовке будущих педагогов.

Ключевые слова: Информатическое образование, будущий учитель, учебное задание, педагогическая проблема, компетентностный подход, цифровое образование.

DEVELOPING THE ABILITY TO WORK ON ACADEMIC ASSIGNMENTS FOR FUTURE COMPUTER SCIENCE TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation

In this scientific article, the issue of developing future computer science teachers' skills in working on academic assignments as a pedagogical problem is analyzed in scientific, theoretical and practical aspects. The article reveals the role of educational tasks in the educational process, their didactic, methodological and competence-based features. The specifics of computer science, modern approaches to the design and application of educational tasks in a digital educational environment will be highlighted. The study substantiates the pedagogical conditions for the formation of the ability to work with educational tasks in the professional training of future teachers.

Key words: Computer science education, future teacher, educational assignment, pedagogical problem, competence approach, digital education.

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan bir sharoitda informatika fanining ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Informatika o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi nafaqat fan mazmunini bilish, balki o'qituvchilarning mustaqil, tanqidiy va algoritmik fikrlashini rivojlantira oladigan samarali o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish va ular ustida ishlash ko'nikmasiga egaligi bilan belgilanadi.

Shu bois bo'lajak informatika o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida o'quv topshiriqlari ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida nazariy bilimlar yetarli darajada berilayotgan bo'lsa-da, talabalarning o'quv topshiriqlarini tahlil qilish, modellash, differensiallashtirish va raqamli

muhitga moslashtirish ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmayapti.

Bo'lajak informatika fani o'qituvchilarining pedagogik kompetentligini oshirish pedagogik muammo sifatida maktab ta'limi tizimini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini joriy etish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullarini qo'llashga ko'maklashadi. Kompetensiyaga asoslangan va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarga asoslangan ta'lim tizimi o'z-o'zini o'rganish, o'z-o'zini rivojlantirish, yaratish, jamoada ishlash, o'z harakatlari uchun javobgarlik, o'z faoliyat sohasidagi vakolatli mutaxassisga qodir shaxsni shakllantirishi kerak. Zamonaviy jamiyatda talabga ega bo'lgan mutaxassisni tayyorlash uchun uning

kasbiy faoliyati tarkibini tashkil etuvchi kelajakdagi kasbning funksiyalarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etish kerak.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

"Kompetensiya" toifasi ta'lim tizimining mutaxassis shaxsini shakllantirishga ta'siri natijasida ishlaydi. Yangi natijani o'lchash, sinash va monitoring qilish masalalari ochiq qolmoqda, chunki "kompetensiya" tushunchasining mazmuni va ko'lamini noaniq formulalarga ega. Ta'limda kompetensiyani yondashuvni hisobga olgan holda ko'plab mualliflarning asarlarini tahlil qilish (I. A. Zimnaya, N. V. Kuzmina, A. K. Markova, J. Raven, A. V. Xutorskoy, S. E. Shishov va boshqalar.), "tayyorlik" va "qobiliyat" fe'llarining ma'nosi insonning shaxsiy fazilatlarini, bilimlari, ko'nikmalari, ko'nikmalari, tajribasini yangi vaziyatda muammolarni hal qilish uchun qo'llash uchun "kompetensiya" tushunchasining mazmuniga kiritilgan deb taxmin qilish mumkin. Ko'pgina ta'riflarda topilgan muhim xususiyatlarni aniqlash mumkin [1]: - bilim, xabardorlik; - har qanday sohada tajriba; - muayyan faoliyat turiga tayyorgarlik; - shaxsiy fazilatlar; - harakatning inson uchun ahamiyati (qadriyatlar); - xulq-atvor uslubi.

"Kompetensiya" tushunchasi – bu ma'lum bir faoliyat sohasidagi vazifalarni hal qilishga tayyorligini belgilaydigan shaxsning shaxsiy fazilatlarini, bilimlari, ko'nikmalari va tajribasini to'plamini. Biz "kompetensiya" toifasidagi "tayyorlik" va "qobiliyat" fe'llarini inson holatini tavsiflovchi sinonimlar sifatida ko'rib chiqamiz. S.I. Ojegovning lug'atida [2] tayyorlik – bu biror narsa qilish uchun kelishuv yoki hamma narsa amalga oshiriladigan holat, hamma narsa biron bir harakatni bajarishga tayyor. B. A. Dushkov [3] harakatga tayyorlikni tananing barcha psixofizik tizimlarini safarbar qilish, muayyan harakatlarning samarali bajarilishini ta'minlash holati sifatida izohlaydi. Kasbiy faoliyatga tayyorlik, yangi ta'lim paradigmasida mutaxassislarni tayyorlash sifatini baholash sifatida, "kasbiy kompetensiya" tushunchasini shakllantirishga olib keldi.

"Kasbiy kompetensiya – bu mutaxassisning ishbilarmonlik va shaxsiy fazilatlarining ajralmas xususiyati bo'lib, nafaqat kasbiy faoliyat maqsadlariga erishish uchun yetarli bo'lgan bilim, ko'nikma va tajriba darajasini, balki shaxsning ijtimoiy-axloqiy pozitsiyasini ham aks ettiradi" [4]. Pedagogikaning nazariy masalalaridan biri bu ta'lim muassasalari bitiruvchilari egallashi kerak bo'lgan asosiy, asosiy va maxsus mutaxassislik vakolatlarini aniqlashdir. Informatika o'qituvchisi – mutaxassisning kasbiy faoliyati modelining mazmuni kompetensiyaniing mazmuni bo'ladi. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, shuningdek, pedagogik faoliyatning funksional va faoliyat tarkibiy qismini tavsiflovchi asosiy, asosiy va maxsus kompetensiyalar to'plamini tashkil yetadi. Pedagogik faoliyat ko'p o'lchovli bo'lib, o'qituvchi turli xil faoliyat turlarining subyekti sifatida ishlaydi: o'qituvchi, mavzu bo'yicha mutaxassis, metodist, tashkilotchi, tadqiqotchi. Bizning ye'tiborimiz o'qituvchining metodik faoliyatiga qaratilgan.

Metodist – bu maktabda metodik ishlarni bajarishga imkon beradigan yuqori darajadagi pedagogik mahorat va uslubiy madaniyatga erishgan o'qituvchi. Informatika o'qituvchisining uslubiy kompetensiyasi "Bo'lajak o'qituvchining zamonaviy pedagogik o'qitish texnologiyalariga asoslangan o'rta maktabda doimiy informatika darsini o'qitishga nazariy va amaliy tayyorgarligi, kasbiy o'sish va harakatchanlik qobiliyati, ta'limni axborotlashtirish sharoitida pedagogik fazilatlarini rivojlantirish" [5].

M.P. Lapchikning ta'kidlashicha, informatika o'qituvchisining uslubiy kompetensiyasi tarkibidagi predmet va meta-predmet tarkibiy qismlarini aniqlaydi, bu yerda mavzu

predmetga yo'naltirilgan kompetensiya, metasubject-professional yo'naltirilgan kompetensiyadan iborat bo'ladi.

Informatika o'qituvchisining uslubiy kompetensiyasining tarkibiy qismlarini shakllantirish o'lchovi pedagogik faoliyatning funksional tarkibiy qismlari quyidagilar hisoblanadi: gnostik, dizayn, konstruktiv, kommunikativ, tashkiliy. V.A.Adolf bo'lajak o'qituvchining pedagogik faoliyatiga nazariy va amaliy tayyorgarligi ostida o'qituvchining nazariy va amaliy faoliyatining yetakchi tarkibiy qismlarining ko'nikmalari to'plamini ko'rib chiqadi. Muallif konstruktiv va gnostik faoliyatni faoliyatning nazariy tarkibiy qismlari deb hisoblaydi [6], bu yerda ikkala faoliyat turi ham analitik, bashorat qiluvchi va proyeksiyon ko'nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Amaliy tayyorgarlik tashkiliy va kommunikativ ko'nikmalarning namoyon bo'lishida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Endi o'quv topshiriqlari bilan ishlash masalasiga kelsak, bo'lajak informatika fani o'qituvchilarining o'quv topshiriqlari tuzish va ulardan foydalanish ko'nikmasi zamonaviy pedagogik jarayonda muhim kasbiy sifatlardan biri hisoblanadi. Ushbu ko'nikma o'qituvchining nafaqat fan mazmunini egallaganligini, balki uni o'qituvchilarga tushunarli, mantiqan izchil va amaliy faoliyat bilan bog'lab bera olish darajasini ham namoyon etadi. Informatika fanining amaliy va texnologik xarakterga egaligi sababli o'quv topshiriqlari o'qitish jarayonining markaziy bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil va natijalar. O'quv topshiriqlaridan foydalanish ko'nikmasi esa ularni dars jarayoniga o'rinni, maqsadga muvofiq va metodik jihatdan to'g'ri integratsiya qila olish bilan bog'liq. Bo'lajak informatika o'qituvchisi topshiriqni qachon, qanday shaklda va qaysi vosita orqali taqdim etishni aniq rejalashtira olishi lozim. Bu jarayonda o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi, individual imkoniyatlari va raqamli savodxonligi e'tiborga olinadi. Topshiriqlarning ketma-ketligi va murakkablik darajasi o'qituvchilarning bilimlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirishiga xizmat qilishi kerak.

Mazkur ko'nikmaning muhim jihatlardan biri o'quv topshiriqlarining samaradorligini baholay olishdir. Bo'lajak o'qituvchi topshiriq bajarilgandan so'ng natijalarni tahlil qiladi, o'qituvchilarda yuzaga kelgan qiyinchiliklarni aniqlaydi va keyingi faoliyatni shu asosda rejalashtiradi. Bu jarayon reflektiv yondashuvni talab etib, o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini tanqidiy baholashiga imkon yaratadi. Informatika fanida bu holat ayniqsa muhim, chunki dasturlash, modellashtirish yoki axborot bilan ishlash jarayonida xatolarni aniqlash va tuzatish o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

E.Davronov o'z maqolasida psixologik va didaktika nuqtai nazaridan "topshiriq" tushunchasining mohiyatini ochib bergan, ona tili darslariga nisbatan mashq va topshiriqning vazifalari haqida ham qisman to'xtalgan [7]. Olim topshiriqqa ham maqsad, ham vosita sifatida qaraydi. Didaktik nazariyada "topshiriq", "tarbiyaviy topshiriq", "intellektual", "muammo" atamalarini "mashq" "mustaqil ish" atamalarini bilan birga qo'llanadi. A.N.Leontev topshiriq tushunchasini quyidagicha tushunadi: "Topshiriq – muayyan shartlarga asoslanib qo'yilgan maqsaddir" [8]. U topshiriqning o'ziga xos xususiyatlarini ta'riflash uchun "ehtiyot", "motiv" va "faoliyat" atamalaridan foydalanadi. Y.A.Ponomarev topshiriqlar nazariyasida bir qator toifalarni yaratdi, xususan, o'quv vaziyatida sub'ekt va ob'ektning o'zaro ta'sirini, bilimlarni o'zlashtirish, ularni takomillashtirish bo'yicha sub'ektning faoliyatini aniqlaydi. O.Roziqov esa o'quv topshiriqlarini ilmiy-pedagogik tadqiqotda o'quv materialini bilan bog'liqligi nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, "o'quv topshiriqi o'quv maqsadlariga bog'liq bo'lgan o'quv

materialining o'zgartirilgan shaklidir" [9]. G'.Hamroyev o'quv topshirig'ining ta'limdagi vazifalarini tavsiflaganda yangicha yondashadi, ya'ni topshiriq mashqni ham, savolni ham o'z ichiga oladigan, o'quvchini bilim olishga yo'naltiradigan, baholashda ishtirok etadigan; takrorga asoslangan mashqlar orqali malaka hosil qilishni tashkil qiladigan asosiy o'quv topshirig'idir [10], degan fikrni ilgari suradi.

Shuningdek, bo'lajak informatika o'qituvchilari o'quv topshiriqlaridan foydalanishda raqamli ta'lim muhitining imkoniyatlarini hisobga olishlari zarur. Elektron platformalar, onlayn muhitlar va interaktiv dasturiy vositalar topshiriqlarni yanada mazmunli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Bunda o'qituvchi topshiriqni shunchaki texnik shaklda taqdim etmasdan, uni pedagogik maqsadga xizmat qiladigan vositaga aylantira olishi muhimdir.

Ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslanishi o'quv jarayonida o'quv topshiriqlarining sifat jihatdan yangicha mazmun kasb etishini talab etadi. Informatika fanida o'quv topshiriqlari:

algoritmik fikrlashni rivojlantirishi;
muammoli vaziyatlarni yechishga yo'naltirilgan bo'lishi;

nazariya va amaliyotni integratsiyalashi;
raqamli vositalar bilan ishlashni taqozo etishi bilan ajralib turadi.

Mazkur talablar bo'lajak informatika o'qituvchisidan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlikni talab etadi. Shu jihatdan o'quv topshiriqlari ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida quyidagi ziddiyatlar bilan izohlanadi:

zamonaviy ta'lim talablari bilan amaldagi tayyorlov tizimi o'rtasidagi tafovut;

nazariy bilimlar hajmi bilan amaliy metodik ko'nikmalar yetishmasligi;

raqamli ta'lim imkoniyatlari bilan ulardan foydalanish metodikasining yetarli ishlab chiqilmaganligi.

O'quv topshirig'i tushunchasining pedagogik mohiyati
Pedagogik adabiyotlarda o'quv topshirig'i o'quvchining bilish faoliyatini faollashtiruvchi, muayyan didaktik maqsadga yo'naltirilgan topshiriq sifatida talqin 1-jadval: Bo'lajak informatika o'qituvchilarida o'quv topshiriqlari

etiladi. Informatika ta'limida o'quv topshiriqlari quyidagi xususiyatlarga ega:

Didaktik yo'naltirilganlik – bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi.

Muammolilik – o'quvchini izlanishga undovchi vaziyatlarni o'z ichiga olishi.

Algoritmik asos – masalani yechish ketma-ketligini talab etishi.

Raqamli muhitga moslik – dasturlash, modellashtirish, axborot tizimlari bilan ishlashni qamrab olishi.

Bo'lajak informatika o'qituvchisi ushbu jihatlarni hisobga olgan holda o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish va tahlil qilishni o'rganishi zarur.

Bo'lajak informatika o'qituvchilarida o'quv topshiriqlari ustida ishlash ko'nikmasining mazmuni

Mazkur ko'nikma murakkab, integrativ xarakterga ega bo'lib, quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

Tahliliy ko'nikma – o'quv topshirig'ining maqsadi, darajasi va natijasini aniqlash;

Loyihalash ko'nikmasi – o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda topshiriq tuzish;

Metodik moslashtirish – topshiriqlarni turli ta'lim texnologiyalariga moslashtirish;

Raqamli kompetensiya – elektron platformalar, dasturiy vositalar asosida topshiriqlar yaratish;

Refleksiv ko'nikma – topshiriq samaradorligini baholash va takomillashtirish.

Tadqiqot natijalari asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarida mazkur ko'nikmani rivojlantirish quyidagi pedagogik shart-sharoitlarda samarali kechishi aniqlanadi:

O'quv jarayoniga muammoli va amaliy topshiriqlarni tizimli joriy etish;

Raqamli ta'lim platformalaridan (LMS, onlayn simulyatorlar, kod muharrirlari) maqsadli foydalanish;

Fanlararo integratsiyani ta'minlovchi topshiriqlarni ishlab chiqish;

Talabalarning mustaqil va ijodiy faoliyatini rag'batlantirish;

Refleksiya va o'z-o'zini baholash mexanizmlarini yo'lga qo'yish.

1-jadval: Bo'lajak informatika o'qituvchilarida o'quv topshiriqlari ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantirishning pedagogik tahlili

Tahlil yo'nalishi	Mazmuni	Informatika ta'limidagi ahamiyati	Rivojlantirish mexanizmlari
Pedagogik muammo	O'quv topshiriqlarini loyihalash va tahlil qilish ko'nikmalarining yetarli shakllanmaganligi	Ta'lim samaradorligi va natijadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi	Amaliy mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlar
O'quv topshirig'i mohiyati	Didaktik maqsadga yo'naltirilgan bilish vazifasi	Algoritmik va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi	Muammoli, darajali topshiriqlar
Ko'nikma tarkibi	Tahliliy, loyihalash, metodik, raqamli va refleksiv ko'nikmalar	O'qituvchining kasbiy kompetensiyasini belgilaydi	Integrativ yondashuv, loyiha ishlari
Raqamli komponent	Dasturiy vositalar va platformalar bilan ishlash	Zamonaviy informatika ta'limini ta'minlaydi	LMS, onlayn simulyatorlar, kod muharrirlari
Metodik yondashuv	Kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim	Nazariya va amaliyotni uyg'unlashtiradi	Interfaol metodlar, fanlararo integratsiya
Pedagogik shart-sharoitlar	Muammoli ta'lim, mustaqil faoliyat, refleksiya	Barqaror ko'nikma shakllanishini ta'minlaydi	Baholash mezonlari, o'z-o'zini tahlil

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bo'lajak informatika o'qituvchilarida o'quv topshiriqlari ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim pedagogik muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu ko'nikma o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini belgilovchi asosiy omillardan bo'lib, uning shakllanishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Mazkur maqolada ilgari surilgan ilmiy-nazariy qarashlar va pedagogik shart-sharoitlar informatika o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini

takomillashtirishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Bo'lajak informatika fani o'qituvchilarining o'quv topshiriqlari tuzish va ulardan foydalanish ko'nikmasi ularning kasbiy tayyorgarligi darajasini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ushbu ko'nikma mazmunli, ongli va refleksiv faoliyat orqali shakllanib, informatika ta'limining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois oliy ta'lim jarayonida mazkur ko'nikmani rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik va pedagogik

yondashuvlarni izchil joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Равен, Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация / Дж, Равен. / Пер. с англ. - М., «Когито-Центр», 2002, -396 с,
2. Ожегов, С. И, Словарь русского языка: Ок. 53 000 слов [Текст] / С. И. Ожегов; Под общ. ред. проф. Л. И. Скворцова. - 24-е изд., испр. - М.: ООО «Издательство Оникс»: ООО «Издательство «Мир и Образование», 2005. - 1200 с.
3. Душков, Б. А. Психология труда, профессиональной и организационной деятельности: [Текст] Словарь / Б. А. Смирнов, А. В. Королев /Под ред.
4. Белозерцев, Е. П. Педагогика профессионального образования: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений [Текст] / Е. П. Белозерцев, А. Д. Гонеев, А. Г. Пашков и др. / Под ред. В. А. Сластенина. - М.: Издательский центр «Академия», 2004. - 368 с.
5. Лапчик М.П. Теоретико-методологические основы формирования методической компетентности учителя информатики [Текст] / М. П. Лапчик, Н. В. Чекалева // Математика и информатика: наука и образование: Межвузовский сборник научных трудов. Ежегодник. Вып. 6. - Омск: Изд-во ОмГПУ, 2007. -С. 169-174.
6. Адольф, В. А. Обновление процесса подготовки педагогов на основе моделирования профессиональной деятельности: монография [Текст] / В. А. Адольф, И. Ю. Степанова; Краснояр. гос. пед. ун-т. - Красноярск, 2005. - 214 с.
7. Давронов И.Э. Некоторые аспекты интерпретации понятий «задание» и «упражнение» / И.Э.Давронов. Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2012. – № 8 (43). – С. 323–326.
8. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: Педагогика, 1972. – 576 с.
9. Розысков О.Р. Теоретические основы оптимального применения системы учебных задач в обучении школьников (на материалах гуманитарных предметов): автореф. дисс. ... докт. пед. наук. – Тбилиси, 1986. – 50 с.
10. Намройев G'. O'quv topshiriqlari nazariyasi va amaliyot. –Toshkent. Donishmand ziyo, 2024. 157 bet.



UDK: 8011 (90)

Ma'rifat XANDAMOVA,

Samarqand davlat chet tillar instituti professori, DSc

E-mail:marifathandamova73@gmail.com

Samarqand davlat chet tillar instituti professori O.G'aybullayev taqrizi asosida

ABU RAYHON BERUNIYNING JAMIYAT HAQIDAGI QARASHLARI

Аннотация

Maqolada Abu Rayhon Beruniyning falsafiy qarashlarida jamiyatning vujudga kelishi, shakllanishi va evolyutsiyasini tahlil qilingan. Beruniyning jamiyat haqidagi qarashlari mahalliy va xorijiy adabiyotlarda maxsus o'rganilmagan. Olimning jamiyat haqidagi qarashlari o'zining originalligi va o'tkir fikrligi bilan katta qiziqish uyg'otadi. Beruniy ijtimoiy qarashlarining qiziqarli tomoni shundaki, u dastavval qomusiy olim sifatida ilmiy tadqiqot metodini ishlab chiqishga intilgan. Beruniyning jamiyat haqidagi qarashlarida o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqadi.

Kalit so'zlar: Beruniy, jamiyat, bashariyat, "Osor-al-boqiya" "Hindiston".

ВЗГЛЯДЫ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ НА ОБЩЕСТВО

Аннотация

В статье анализируются философские взгляды Абу Райхана Бируни на происхождение, формирование и эволюцию общества. Взгляды Бируни на общество специально не изучались в отечественной и зарубежной литературе. Его идеи о социальной организации общества представляют большой интерес благодаря своей оригинальности и остроте мысли. Интересной особенностью его социальных воззрений является то, что он, прежде всего как энциклопедический ученый, стремился разработать научный метод исследования. Его взгляды на общество формировались под влиянием социально-политической ситуации своего времени.

Ключевые слова: Бируни, общество, человечество, «Хронология», «Индия».

ABU RAYKHAN BERUNI'S VIEWS ON SOCIETY

Annotation

The article analyzes Abu Rayhan Biruni's philosophical views on the emergence, formation, and evolution of society. Biruni's perspectives on society have not been specifically studied in either domestic or foreign literature. His views on the social organization of society are of great interest due to their originality and sharpness of thought. An interesting aspect of his social views is that, first and foremost as an encyclopedic scholar, he strove to develop a scientific research method. His views on society were shaped by the socio-political context of his time.

Keywords: Biruni, society, humanity, Chronology, India

Kirish. O'rta asr Sharq mutafakkirlari tomonidan jamiyat uning vujudga kelishi, shakllanishi, vazifalari haqida ko'pgina asarlar yozib qoldirilgan. Beruniy jamiyatning vujudga kelishi va evolyutsiyasini tahlil qilar ekan, u jamiyat tuzilishining unsurlari o'rtasidagi munosabat va aloqalarni ko'rsatib, ularni ijtimoiy hayotdagi rolini aniqlaydi. Beruniy insoniyat jamiyatining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini chuqur o'rgangan va o'z davri uchun ham, bugungi davr uchun ham ahamiyatli bo'lgan ijtimoiy falsafiy fikrlarni bildirgan olimdir. Beruniyning fikricha, odamlar jamoaga ikki sababga ko'ra birlashganlar – yashash uchun kurashda xavflarni birgalikda bartaraf etish va birgalikda ishlashlari uchun birikkanlar.

Beruniy o'z davrining farzandi bo'lganligi uchun davlat tuzumi qonun-qoidalarini yoqladi. Ammo shu bilan birga hukmdorga aql va adolat xos bo'lishi kerak, degan fikrga keladi. Shuningdek, axloqiy me'yorlarga zid xatti-harakatlarni qoraladi. Asarlarida u hukmdorlar bo'lishi zarurligini ham, hokimiyatning merosiylik tamoyilini ham, xususiy mulkning, shu jumladan yer mulkchiligining muqarrarligini ham tan olgan. Biroq Beruniy fikricha, hukmdor zarur sifatlariga – adolatga va aqlga ega bo'lishi zarur. Beruniy har qanday zo'ravonlik, zolimlik, shafqatsizlik, milliy, irqiy va diniy tengsizlikning dushmani edi.

Beruniyning jamiyat haqidagi qarashlari mahalliy va xorijiy adabiyotlarda maxsus o'rganilmagan. Olimning jamiyat haqidagi qarashlari o'zining originalligi va o'tkir fikrligi bilan katta qiziqish uyg'otadi. Beruniy ijtimoiy qarashlarining qiziqarli tomoni shundaki, u dastavval qomusiy olim sifatida ilmiy tadqiqot metodini ishlab chiqishga intilgan. Ana shu metodning asosiy xususiyati o'rganilayotgan hodisalarga tajribaviy, ratsional yondashishi bo'lib, uning eng muhim talabi – og'ishmay haqiqatga intilishdan iborat edi.

Adabiyotlar tahlili. Sharqda Abu Nasr Forobiy ijtimoiy masalalar bo'yicha yaxlit ta'limot yaratgan bo'lsa, Beruniy o'zining asarlarida ijtimoiy-falsafiy, o'zi yashagan davrning o'ziga xos xususiyatlarini tarixiy voqealarni mantiqiy tahlil qilgan. Olim jamiyatning vujudga kelishi "sabablarning sababi" – inson va insoniyat jamiyatining vujudga kelishi masalasini tahlil qiladi va xolisona yondashishga harakat qilgan.

Allomaning "Osor al-boqiya" asarida jamiyatning vujudga kelishi sabablarini bashariyat tarixi bilan bog'laydi. "Qadimgi tarixlarning eng avvalgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir. Kitob ahlari bo'lmish yahudiyalar, xristianlar, otashparastlar va bularning barcha sinflarida bashariyatning boshlanishi va uning tarix boshi qilib olinishi xususida shunday ixtiloflar mavjudki, tarixlar haqida

bu kabi xilma-xillik bo'lishi mumkin emas" [1], – deb ko'pgina tarixiy voqealarning noto'g'ri talqin etilganligini isbotlashga harakat qilib, ularni qiyosiy tahlil etgan.

Beruniy bashariyatning vujudga kelishi haqidagi muqaddas kitoblarda keltirilgan xabarlarni chuqur tahlil qilgan holda, "Biz avvalo, mana shu bashariyatning boshlanish tarixiga nazar solsak, bu haqda, u millatlar orasida ko'pgina ixtiloflarni uchratamiz. Ixtiloflar shularki, eroniyar va otashparastlar olamning umri burjlar va oylar soniga muvofiq o'n ikki ming yil, deb da'vo qilganlar. Ular shariatining asoschisi Zardusht esa olam paydo bo'lishidan to o'zi yuzaga chiqquncha chorak kunlar qo'shilib uch ming yil o'tdi", deb da'vo qilgan. Ya'ni, Beruniy bu masalalarni ilmiy-falsafiy jihatdan o'rganib, payg'ambarlar va muqaddas kitoblardagi ixtiloflarni ko'rsatishga harakat qilgan.

G'arb olimlari Beruniy ilmiy merosini muntazam ravishda o'rganishni boshlagan dastlabki bosqichlardan oq uning inson, jamiyat, din bilan bog'liq qarashlarining zamonaviy talablar nuqtai nazaridan beqiyos ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatishga harakat qilgan[2]. Xususan, E.Zaxau Beruniyning "Osor-al-boqiya" va "Hindiston" asarlarining ijtimoiy-madaniy va ma'naviy-falsafiy mavzularga boyligini ta'kidlab, alloma ularga nafaqat nazariy-konseptual nuqtai nazardan, balki amaliy jihatdan ham qiziqqanini ta'kidlab, "Hindiston" asarining inglizcha tarjimasiga yozgan so'z boshida quyidagilarni bayon qiladi: "Siyosatchi sifatida Beruniy konservativ bo'lib, taxt va mehrobni himoya qilgan, ularning harakatlari jamiyat taraqqiyotidan, inson tilaydigan har qanday narsadan ustun turadi". E.Zaxauning Beruniyning ijtimoiy qarashlariga "konservativ" yondashishi o'sha davrda Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, mafkuraviy vaziyatni e'tiborga olmaganligi bilan baholash mumkin.

Beruniyning jamiyat haqidagi qarashlarida o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqib, davlatni boshqarishda vorisiylik masalasini quyidagi fikrlarining kuzatish mumkin bo'ladi. "Tabiat jihatidan boshqarish va siyosat ishiga qiziquvchi, boshliq bo'lishga fazilati va kuchi bilan haqli, fikr maqsadida sabotli, davlatni o'zidan keyingilarga qoldirib, ularning o'z ota-bobolariga qarshi bo'lmasliklarini maqsad qilib olgan kishi tomonidan berilgan har bir buyruq, buyurilgan kishi oldida, turg'un tog'lar singari mahkam bo'lib, u buyruq ko'p vaqtlar va uzun zamonlar o'tsa ham, keyingilar ham bo'ysunardilar[3]. Ya'ni, davlatni boshqarishda sobitqadamlik, adolatli bo'lish, qonun ustuvorligi haqidagi g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Shu bilan birga "agar podshoh buyruqni berishda milliy va diniy biron tomonga asoslansa, bir qorindan bir vaqtda ikki bola tug'ilganidek, podshohlik va din ishi birlashib buyruq to'liq va tugal bo'ladi, to'liqlikning narigi tomonida ko'zda tutiladigan g'oya va maqsad yo'q". Bundan ko'rinadiki, davlatni boshqarishda, din va dunyoviy ishlar qonun asosida mutanosib bo'lishi kerakligi aytilmoqda.

Beruniyning ijtimoiy borliq haqidagi qarashlari tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, hanuzgacha chuqur tadqiq etilmagan. Olimning ijtimoiy borliq haqidagi qarashlarining ahamiyatli tomoni shundaki, u qomusiy olim sifatida jamiyat hayotini o'rganish metodini ishlab chiqishga intilganligi ta'kidlanadi.

Mutafakkir jamiyatni shunchaki kishilar yig'indisi emas, balki u avvalo o'zaro bir-biri bilan ijtimoiy-ma'naviy, axloqiy aloqada bo'lgan kishilarning birligini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. Uningcha insonning yolg'iz o'zi hal qiluvchi qudratga molik emas, unga kuch qudratni faqat jamiyat beraoladi, degan ilg'or konstruktiv g'oyalarni ilgari suradi.

Mutafakkirning fikricha, jamiyatning har bir ongli a'zosi o'z kasb-kori va ixtisosidan qat'iy nazar, jamiyat to'g'risidagi bilim va ta'limotlarni chuqur egallash orqaligina

tevarak-atrofdagi ro'y berayotgan ijtimoiy hodisa va jarayonlarning kelib chiqishi sabablari va oqibatlarini bilish, ularni boshqarish qobiliyatiga ega bo'ladi, degan xulosaga keladi. Shuningdek, jamiyat to'g'risidagi bilimlarga barcha xalqlarga xos ijtimoiy-siyosiy va axloqiy hodisalarning umumiy asosini aniqlashga, ya'ni ijtimoiy-siyosiy hayot barqarorligining fundamental asoslarini belgilashga, jamiyatni yaxlit holda saqlab qolishga imkon beradi, deb ta'kidlaydi. Beruniyning ushbu qarashlari Abu Nasr Forobiyning jamiyat to'g'risidagi g'oyalari to'g'ri keladi.

Forobiy o'zining jamiyat haqidagi qarashlarida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlarga bo'ladi. U insonlarning millatiga, diniy mazhabiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, avvalo aqliy iqtidoriga hamda ilmlarni o'rganish, hayotiy tajriba to'plash jarayonida orttirgan bilim va ko'nikmalariga qarab baholaydi. Itoatkorlikka da'vat etuvchi ta'limotlarni u keskin tanqid ostiga oladi[4].

Beruniy esa, Forobiyning g'oyalari qo'shilib, "Zo'rlik va yollash yo'li bilan amalga oshiriladigan majburiy mehnat noma'kul va beqarordir", [5] deb, har bir inson o'z mehnatiga yarasha haq olishi kerak degan fikrni ilgari suradi.

Insonlarning ehtiyojlari turli-tuman va son-sanoqsizdir. Bu ehtiyojlarni qondirish zaruriyati ularni birlashishga, birga yashashga da'vat etadi. Bu esa, o'z navbatida, insonlarning qishloq va shahar kabi ijtimoiy hayot kechiruvchi markazlarni paydo qilishga olib keldi.

Beruniy jamiyatning yuzaga kelishi asosida insonning eng avvalo sharaflari motivlarini – o'zaro yordamning zarurligini, o'zaro foyda, birgalikda ehtiyojlarni qondirish zaruratlarini tushungan, odamlarning umumiy manfaatlarini ko'rgan va shunga ko'ra, u jamiyat kishilarning hamkorlikda faoliyatlarini o'tkazish zaruratidan kelib chiqqan deydi.

Beruniy insonning jamiyatda tutgan o'rnini naslning qadimiyligi, ajdodlarning xizmatlari bilan belgilanishiga qarshi chiqadi. "Sharaflari er boshqalarga daxldor bo'lmagan o'zidan boshqa va o'zining anjomlaridan boshqa hech narsaga ega emas. Xudo bergan narsalardan qizg'anmay, er kishi o'zining iltifotliligi, rahmdilligi, qat'iyiligi, sabr-toqatligi hamda bir vaqtda kamtarligi bilan, bunday xususiyatlarga ega bo'lgan inson yuqori taxtga sazovor bo'lishi bilan sharaflidir. Inson bunday yuqori mansabga o'zining kelib chiqishi bilan taalluqli bo'lmas ham, uning urug'ining qadimiyligiga qarab emas, balki ko'rsatgan xizmatlari evaziga ko'tariladi" [6].

Beruniy jamiyat haqidagi nazariy mulohazalarida doimo juda keng ma'nodagi ikki iboradan foydalanadi; xossa (ko'pligi havoss) – saralanganlar, a'yonlar, zodagonlar, aristokratlar, oliyanoblar, yaxshilar, ma'rifatlilar; omma (ko'pligi avomm) – qora xalqni nazarda tutadi. Lekin Beruniy bu iboralarni qo'llashda ularga moddiy va moliyaviy ma'no bermay, ko'proq kishilarning intellektual, aqliy, ma'naviy jihatdan erishgan pog'onalariga urg'u beradi.

Mutafakkir insonning jamiyatdagi o'rnini aniqlab, inson tabiatning va mijozlarning turlicha bo'lishiga geografik omilning ta'sirini ko'rsatib shunday deydi: "Odamlarning tuzilishlarining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning (odam) yashaydigan joylarning turlichaligidan hamdir. Tillarning turlicha bo'lganligiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun (zarur) bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir. Uzoq zamonlar o'tishi bilan haligi iboralar ko'payib, yodda saqlangan va takrorlanish natijasida tarkib topib, tartibga tushgan" [7].

Beruniy jamiyat, unda uzluksiz ravishda bo'lib turadigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqida muhim ijtimoiy-falsafiy g'oyalarni ilgari suradi va isbotlab beradi. Jamiyatda

bo'lib turadigan o'zgarishlar, ya'ni tuzilish va buzilishlarning, paydo bo'lish va yo'qolishlarning o'ziga xos sabablari borligi haqida falsafiy mulohazalarni o'rtaga tashlaydi.

Beruniyshunos E.Zaxau davlatning haqiqat va adolat tantanasi yo'lida din bilan kelishuvi va birlashuvi haqidagi g'oyani Beruniyning eng muhim ideali deb ta'kidlagan. Bu – to'g'ri fikr, lekin Zaxauning bu qarashni o'z zamonasi talablaridan kelib chiqqan, G'arb mafkurasiga moslashtirgan holda, “konservativ” deb baholashi ilmiy tadqiqotning xolislik va haqqoniylik tamoyillariga mutlaqo ziddir, degan g'oyani ilgari surgan.

Akademik I.M.Mo'minov Beruniyning ijtimoiy-falsafiy, jamiyat va davlat haqidagi qarashlariga alohida e'tibor qaratib, uning “Mineralogiya” asaridagi quyidagi fikrlarini keltirgan edi: “Olis Mag'ribdagi shaharlardan birining aholisi haqida naql qiladilarkim, zodagonlar va yer egalari mazkur shaharni navbatma-navbat boshqarar ekanlar. Kimga navbat kelsa, o'sha uch oy davomida hokimlik vazifasini ado etarkan. Muddat tugagach, o'z ixtiyori bilan hokimlikdan voz kechib,

og'ir vazifadan qutulgani uchun el-yurtga xayr sadaqa ulashar ekan. Buning boisi shundaki, boshqarish va boshchilik qilish bu zo'rvonlar tomonidan jabrlangan kishilarning haq-huquqlarini tiklash yo'li bilan fuqaro halovatini ta'minlash niyatida o'z halovatidan mahrum bo'lish demakdir” [8]. Ya'ni, Beruniy davlatni demokratiya asosida boshqarishishi mumkinligini ko'rsatishga harakat qilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Beruniyning jamiyat haqidagi qarashlarida inson qiyofasi tabiat ta'sirining natijasi ekanligi uning ichki qiyofasiga cheksiz sa'y-harakatlar oqibatida tubdan o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Har bir inson o'z xulq-atvorining egasidir. Jamiyat bosqichma-bosqich o'zgarishlar orqali rivojlanib boradi. Beruniy jamiyatida adolatli bo'lish, inson uchun qayg'urish, jamiyatni aql, ilm, adolat, qonunlar, o'rnatilgan tartiblar bilan boshqarish kerakligi haqidagi falsafiy tahlili o'sha davrda fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanganligidan dalolat beradi va bu bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Ya'ni davlat fuqorolar uchun xizmat qilishi lozimligi aytiladi.

ADABIYOTLAR

1. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I tom. / Tarjimon A.Rasulov. Izohlarni I.Abdullayev va A.Rasulov tuzgan. Mas'ul muharrirlar: I.Abdullayev va O.Fayzullayev. –T.: Fan, 1968. –B.50.
2. Juraqulov F.N. Abu Rayhon Beruniy tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy merosining G'arb olimlari tomonidan tadqiq etilishi /falsafiy-tarixiy tahlil/ Fal.fan.nom. darajasini olish uchun yoz.diss.- Toshkent, 2007. –B.94.
3. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Tom II. Hindiston. Arabchadan A.Rasulov, Yu. Hakimjonov, G'.Jalolov tarjimasi. So'z boshi va izohlar A.Irisov. – T.: Fan, 1965. –B.88.
4. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Tom II. Hindiston. Arabchadan A.Rasulov, Yu. Hakimjonov, G'.Jalolov tarjimasi. So'z boshi va izohlar A.Irisov. – T.: Fan, 1965. –B.88.
5. Buyuk siymolar, allomalar: (O'rta osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar). K.1. - /Nashrga tayyorlovchi M.M.Xayrullayev. – T.: Ma'naviyat, 1995. –B.39.
6. Abu Rayhon Beruniy. Kitob al-jamohir fi-ma'rifat al-javohir (Mineralogiya). – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.- B.11.
7. Abu Rayhon Beruniy. Qimmatbaho javohirlar haqida bilimlar kitobi (Mineralogiya). Tarjimon akademik A.Qayumov.– T.:Fan, 2017. –B.14.
8. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar I tom. / Tarjimon A.Rasulov. Izohlarni I.Abdullayev va A.Rasulov tuzgan. Mas'ul muharrirlar: I.Abdullayev va O.Fayzullayev. –T.: Fan, 1968. –B.16.



UDK:364

Suxrob XIDIROV,

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi "Vazirlik-idora va nodavlat tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish bo'limi" boshlig'i, sots.f.d. (PhD), dotsent

E-mail: suxrob.xidirov.82@gmail.com

PhD A.Abdullayev taqrizi asosida

IJTIMOY XAVFSIZLIK FENOMENINING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

Аннотация

Ushbu maqolada ijtimoiy xavfsizlik fenomenining nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Ijtimoiy xavfsizlik – jamiyatning barqaror rivojlanishi, inson huquq va manfaatlarining himoyasi hamda ijtimoiy institutlarning uzluksiz faoliyati bilan chambarchas bog'liq tushuncha sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda ijtimoiy xavfsizlikning nazariy talqinlari, ilmiy adabiyotlarda yondashuvlar, uni o'rganish metodlari, natijalar va munozarali jihatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy xavfsizlik, xavfsizlik nazariyasi, metodologiya, ijtimoiy institutlar, barqaror rivojlanish, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy barqarorlik.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФЕНОМЕНА СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

Аннотация

В статье анализируются теоретико-методологические основы феномена социальной безопасности. Социальная безопасность рассматривается как понятие, тесно связанное с устойчивым развитием общества, защитой прав и интересов человека, а также непрерывным функционированием социальных институтов. В исследовании рассматриваются теоретические трактовки социальной безопасности, подходы в научной литературе, методы её изучения, результаты и дискуссионные аспекты.

Ключевые слова: Социальная безопасность, теория безопасности, методология, социальные институты, устойчивое развитие, социальная политика, социальная стабильность.

THEORETICAL METHODOLOGICAL BASIS OF THE PHENOMENON OF SOCIAL SECURITY

Annotation

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the phenomenon of social security. Social security is considered as a concept closely related to the sustainable development of society, the protection of human rights and interests, and the continuous functioning of social institutions. The study covers theoretical interpretations of social security, approaches in scientific literature, methods of its study, results, and controversial aspects.

Key words: Social security, security theory, methodology, social institutions, sustainable development, social policy, social stability.

Kirish. Globalizatsiya, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning jadallashuvi va yangi xavf-xatarlarning paydo bo'lishi ijtimoiy xavfsizlik masalasini zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishiga aylantirdi. Ijtimoiy xavfsizlik fenomeni nafaqat davlat siyosatining strategik yo'nalishi, balki ijtimoiy barqarorlikning asosi sifatida ko'riladi. Uning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish jamiyatning ijtimoiy siyosat konsepsiyalarini rivojlantirish, inson huquqlarini ta'minlash hamda yangi xavflarni bashorat qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy xavfsizlik nazariyasi ko'plab fanlarda – sotsiologiya, siyosatshunoslik, iqtisodiyot va huquqshunoslikda o'rganilgan. Xorijiy olimlardan A. Giddens, D. Bell ijtimoiy xavfsizlikni zamonaviy xavf jamiyatining asosi sifatida talqin qilgan. Mahalliy tadqiqotlarda esa ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda davlat siyosati, aholining turmush darajasi, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimining rivoji muhim omillar sifatida ko'riladi.

Ilmiy adabiyotlarda ikki asosiy yondashuv ajralib turadi:

Normativ yondashuv – ijtimoiy xavfsizlikni davlat tomonidan tartibga solish, qonun va siyosiy qarorlar bilan ta'minlash.

Ijtimoiy-pragmatik yondashuv – ijtimoiy xavfsizlikni aholining hayot sifati, ijtimoiy institutlarga ishonch darajasi va madaniy barqarorlik orqali baholash.

Metodlar bo'limi. Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Nazariy-tahliliy metod – mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilish, ijtimoiy xavfsizlikka oid konseptual yondashuvlarni umumlashtirish.

Solishtirma metod – ijtimoiy xavfsizlikning turli mamlakatlardagi ta'minlanish tajribasini solishtirish.

Sistemali yondashuv – ijtimoiy xavfsizlikni jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimlari bilan uzviy aloqada o'rganish.

Natijalar . Ijtimoiy xavfsizlik (societal security) xavfsizlik tadqiqotlarining Kopengagen maktabi (Copenhagen School) tomonidan ishlab chiqilgan kontsepsiya bo'lib, jamiyatning o'zining asosiy xususiyatlarini, identifikatsiyasini va madaniy birligini mumkin bo'lgan tahdidlar ostida saqlab qolish qobiliyatini ifodalaydi. Bu kontsepsiya an'anaviy davlat-markazli xavfsizlik tushunchasidan farqli o'laroq, jamiyatni mustaqil referent obyekt sifatida ko'rib chiqadi, ya'ni xavfsizlik tahdidlari nafaqat harbiy yoki siyosiy, balki madaniy, identifikatsiya va ijtimoiy jihatlarda ham yuzaga kelishi mumkin. Ushbu fenomen 1990-yillarda, Sovuq urush tugashi

va globalizatsiya jarayonlari fonida shakllangan bo'lib, jamiyatning kollektiv identifikatsiyasini himoya qilishga qaratilgan. Quyida batafsil nazariy va metodologik asoslarni ko'rib chiqamiz.

Tarixiy Fon va Rivojlanish: Ijtimoiy xavfsizlik kontsepsiyasi xavfsizlik tadqiqotlarining kengayishi (widening of security) jarayonining natijasi hisoblanadi. An'anaviy xavfsizlik nazariyalari (masalan, realizm) davlatni asosiy referent obyekt sifatida ko'rib, harbiy tahdidlarga urg'u bergan bo'lsa, 1980-1990-yillarda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy tahdidlarning o'sishi bilan xavfsizlikni kengaytirish zarurati paydo bo'ldi. Kopengagen maktabi, Barry Buzan, Ole Wæver va Jaap de Wilde kabi olimlar rahbarligida, 1998-yilda chop etilgan "Security: A New Framework for Analysis" kitobida bu kontsepsiyani batafsil ishlab chiqdi. Ushbu asar xavfsizlikni besh sektorga bo'ladi: harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy. Ijtimoiy sektor aynan jamiyatning kollektiv identifikatsiyasiga qaratilgan bo'lib, tahdidlar ko'pincha migratsiya, milliy ajralish, madaniy assimilyatsiya yoki globalizatsiya ta'sirida yuzaga keladi.

Kontsepsiyaning rivojlanishi Sovet Ittifoqi parchalanishi va Yevropa Ittifoqining integratsiyasi bilan bog'liq. Masalan, Yugoslaviya mojarolari davrida etnik va madaniy tahdidlar jamiyat xavfsizligini o'rganishga turtki berdi. Shuningdek, Skandinaviya olimlari (masalan, Bengt Sundelius) jamiyatni "hayot beruvchi funksiyalar" sifatida ko'rib, uning kritik infratuzilmasini himoya qilishga e'tibor qaratganlar. Bu variant Kopengagen maktabining identifikatsiya-markazli yondashuvidan farqli o'laroq, jamiyatning funksional jihatlarni ta'kidlaydi.

Ijtimoiy xavfsizlik nazariyasi konstruktivizm va securitization (xavfsizlashtirish) nazariyasiga asoslanadi. Konstruktivizmga ko'ra, xavfsizlik tahdidlari obyektiv emas, balki ijtimoiy qurilgan: ular nutqiy aktlar (speech acts) orqali shakllanadi. Masalan, siyosiy liderlar yoki elitlar biror masalani "eksistensial tahdid" sifatida taqdim etib, favqulodda choralar oqlashadi. Buzan va Wæverning ta'kidlashicha, jamiyat xavfsizligi jamiyatning "biz" identifikatsiyasini saqlashga qaratilgan bo'lib, tahdidlar jamiyatni yemirishi mumkin (masalan, tilni yo'qotish yoki madaniy ta'sir).

Nazariyaning asosiy komponentlari:

- Referent obyekt: Jamiyat (society) — bu davlatdan ajralgan, kollektiv identifikatsiyaga asoslangan birlik. Masalan, milliy guruhlar yoki etnik jamoalar.

- Tahdid turlari: Madaniy tahdidlar (kultural assimilation), demografik o'zgarishlar (migratsiya), ijtimoiy integratsiya buzilishi. Ushbu tahdidlar intersub'yektiv bo'lib, jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilinishi kerak.

- Xavfsizlik sektorlari: Ijtimoiy sektor boshqa sektorlar bilan o'zaro bog'langan. Masalan, ekologik tahdid ijtimoiy identifikatsiyaga ta'sir qilishi mumkin.

- Eksistensial, obyektiv va sub'yektiv o'lchovlar: Eksistensial o'lchov hayotni saqlashga, obyektiv o'lchov institutlar va resurslarga, sub'yektiv o'lchov esa psixologik idrok etishga asoslanadi. Kopengagen maktabi bu o'lchovlarni birlashtirib, jamiyatni reifikatsiya qilishdan (jamiyatni mustaqil mavjudot sifatida ko'rishdan) qochishga harakat qiladi, ammo tanqidchilar bu jihatni zaiflik sifatida ko'rsatadilar.

Securitization Nazariyasining Batafsil Sharhi

Securitization nazariyasi xalqaro munosabatlar fanida muhim o'rin egallaydi va u Kopengagen maktabi (Copenhagen School) olimlari, xususan, Ole Wæver, Barry Buzan va Jaap de Wilde tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariya xavfsizlikni obyektiv holat emas, balki ijtimoiy konstruksiya sifatida ko'rib chiqadi. YA'ni, biror masala (masalan, immigratsiya, iqlim o'zgarishi yoki pandemiya) xavfsizlik masalasiga aylanishi uchun u maxsus jarayon orqali "securitization" qilinishi kerak.

Bu jarayon nutqiy aktlar (speech acts) orqali amalga oshiriladi: kuchli aktyorlar masalani "eksistensial tahdid" (hayotiy tahdid) sifatida taqdim etadi, va agar jamiyat bu taqdimotni qabul qilsa, masalaga favqulodda choralar qo'llaniladi.

Nazariya 1990-yillarda paydo bo'lgan va an'anaviy xavfsizlik tushunchasini (faqat harbiy tahdidlar) kengaytiradi. U xavfsizlikni besh sektor bo'yicha tasniflaydi:

- Harbiy sektor: Davlat suverenitetiga tahdidlar (masalan, urush).

- Siyosiy sektor: Davlat institutlariga tahdidlar (masalan, inqiloblar).

- Iqtisodiy sektor: Iqtisodiy tizimga tahdidlar (masalan, global inqirozlar).

- Ijtimoiy sektor: Jamiyat identifikatsiyasiga tahdidlar (masalan, migratsiya orqali madaniy o'zgarishlar).

- Ekologik sektor: Atrof-muhitga tahdidlar (masalan, iqlim o'zgarishi).

Bu sektorlar orasida o'zaro bog'liqlik mavjud, va securitization har qanday sektorda sodir bo'lishi mumkin.

Metodologik Asoslar

Metodologik jihatdan nazariya post-strukturalizm va ijtimoiy konstruktivizmga asoslanadi. Asosiy metod — tanqidiy diskurs tahlili (Critical Discourse Analysis — CDA). CDA nutq va matnlar orqali kuch va ideologiyani o'rganadi. U quyidagilarni tahlil qiladi:

- Nutqiy aktlar (speech acts): Bu nazariyachi J.L. Austin va J. Searle ishlariga asoslanadi. Masalan, bir siyosiy lider "Bu virus millatni yo'q qilishi mumkin" desa, bu oddiy bayonot emas, balki securitization harakati.

- Ritorik strategiyalar: Metafora, giperbola, tarixiy analogiyalar ishlatiladi. Masalan, immigratsiyani "bosqin" deb atash orqali urush assotsiatsiyasi yaratiladi.

- Elita diskursi: Kuchli aktyorlar (prezidentlar, OAV, xalqaro tashkilotlar) diskursni boshqaradi. Oddiy odamlar kamdan-kam hollarda securitization boshlaydi, chunki ularga resurs va platforma yetishmaydi.

- Kontekst: Diskurs madaniy, ijtimoiy va siyosiy kontekstda tahlil qilinadi. Masalan, G'arbda "terrorizm" so'zi oson securitization qiladi, chunki 11-sentabr voqealari ta'siri kuchli.

Tadqiqotlarda CDA empirik ma'lumotlar (nutqlar, maqolalar, siyosiy hujjatlar) bilan birgalikda qo'llaniladi. Nazariya intersub'yektiv: xavfsizlik "aktyor" va "auditoriya" o'rtasidagi kelishuvga bog'liq.

Securitization Jarayoni Batafsil

Jarayon uch bosqichdan iborat, lekin u dinamik va muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkin (desecuritization — xavfsizlikdan chiqarish).

1. Securitization Aktyorlari (Securitizing Actors):

- Bu odatda elita: siyosiy liderlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar (masalan, BMT), OAV yoki ekspertlar.

- Ular masalani "referent obyekt" (masalan, davlat, jamiyat yoki insoniyat) uchun eksistensial tahdid sifatida taqdim etadi.

- Misol: AQShda 9/11dan keyin Jorj Bush immigratsiyani "milliy xavfsizlikka tahdid" deb taqdim etdi, bu chegara devorlari qurilishiga olib keldi.

- Aktyorlarning muvaffaqiyati ularning obro'siga, resurslariga va kontekstga bog'liq. Masalan, avtoritar rejimlarda bu jarayon osonroq.

2. Auditoriya Qabuli (Audience Acceptance):

- Auditoriya — jamiyat, parlament, xalqaro jamoatchilik yoki maxsus guruhlar.

- Qabul qilish uchun tahdid "ishonarli" bo'lishi kerak: dalillar, emotsiyalar va madaniy rezonans ishlatiladi.

- OAV va ijtimoiy tarmoqlar rol o'ynaydi. Masalan, COVID-19da OAV pandemiyani "urush" deb taqdim etdi, bu jamiyatni karantinni qabul qilishga majbur qildi.

- Agar auditoriya rad etsa (masalan, dalilsiz bo'lsa), securitization muvaffaqiyatsiz bo'ladi. Bu demokratik jamiyatlarda tez-tez sodir bo'ladi, chunki bahslar mavjud.

3. Favqulodda Choralar (Extraordinary Measures):

- Masala securitization bo'lgach, u "normal siyosat" (demokratik qarorlar, shaffoflik) dan chiqadi va "favqulodda rejim"ga o'tadi.

- Choralar: qonunlarni to'xtatib turish, harbiy harakatlar, kuzatuv kuchaytirish yoki resurslarni qayta taqsimlash.

- Afzalliklar: Tez harakat qilish (masalan, pandemiyada vaksina ishlab chiqarish).

- Xavflar: Huquqlar buzilishi, diskriminatsiya (masalan, musulmonlarga qarshi choralar) yoki resurslar noto'g'ri ishlatilishi.

Desecuritization va Muqobillar

Securitization teskarisi — desecuritization: masalani xavfsizlikdan chiqarib, normal siyosatga qaytarish. Masalan, Yevroittifoqda iqlim o'zgarishi dastlab securitization qilingan, keyin esa ekologik siyosatga aylantirilgan. Bu jarayon foydali, chunki securitization doimiy bo'lsa, jamiyatni charchatadi va muammolarni hal qilmaydi.

Amaliy Misollar

- Immigratsiya va Ijtimoiy Xavfsizlik: Yevropada 2015 migratsiya inqirozida Viktor Orban (Vengriya) migratsiyani "madaniy tahdid" deb securitization qildi, bu chegara to'siqlari va qochqinlarga qarshi choralar olib keldi. Auditoriya — millatchi guruhlar.

- Salomatlik va Pandemiya: COVID-19da ko'p davlatlar virusni "milliy xavfsizlikka tahdid" deb ko'rsatdi. Natija: chegaralar yopilishi, majburiy maskalar va vaksinatsiya. Bu securitization muvaffaqiyatli bo'ldi, lekin fuqarolik huquqlarini chekladi.

- Ekologiya: Iqlim o'zgarishi BMT nutqlarida "insoniyat hayotiga tahdid" deb taqdim etilmoqda. Misol: Parij bitimi — bu securitization natijasi, ammo favqulodda choralar (masalan, uglerod solig'i) hali to'liq emas.

- Kiberxavfsizlik: Rossiyaning 2022 Ukrainaga hujumi fonida kiberhujumlar securitization qilindi, NATO tomonidan maxsus fondlar yaratildi.

Tanqidlar va Cheklovlar

Nazariya kuchli bo'lsa-da, tanqidlar mavjud:

- Yevropamarkazlilik: Kopengagen maktabi G'arbiy kontekstga asoslangan, rivojlanayotgan mamlakatlarda (masalan, Afrika) securitization boshqacha bo'lishi mumkin.

- So'zsiz Securitization: Nazariya asosan nutqqa e'tibor beradi, lekin tasvirlar, harakatlar yoki texnologiyalar (masalan, dronlar) ham securitization qilishi mumkin.

- Kuch Balansi: Kim securitization qila oladi? Kuchsiz guruhlar (masalan, qochqinlar) ovozi eshittira olmaydi.

- Normativ Muammolar: Securitization huquqlar buzilishiga olib kelishi mumkin, shuning uchun ba'zi olimlar uni "xavfli" deb hisoblaydi.

- Empirik Cheklovlar: Jarayonni o'lchash qiyin, chunki "qabul qilish" subyektiv.

Metodologiya intersubektiv va konstruktivist bo'lib, kvalifikativ tadqiqot usullariga asoslanadi: matn tahlili, intervyular va NVivo kabi dasturlar yordamida ma'lumotlar ishlov beriladi. Masalan, Yevropa Ittifoqining migratsiya siyosatini o'rganishda siyosiy nutqlar tahlil qilinadi. Shuningdek, psixologik yondashuvlar (social psychology) qo'llaniladi, chunki identifikatsiya psixologik jarayonlar orqali shakllanadi.

Metodologiyaning zaifliklari: identifikatsiyaning noaniqligi (qaysi jamiyat referent obyekt?), elit-markazli yondashuv (oddiy odamlar roli kam baholanadi) va evrosentrizm (nazariya G'arb kontekstida ishlab chiqilgan, ammo global qo'llashda muammolar mavjud). Tanqidchilar, masalan, metodologik oq tanlilik (methodological whiteness) va sivilizatsiyaviy yondashuvni ko'rsatadilar.

Nazariya tanqid qilinadi, chunki u jamiyatni reifikatsiya qiladi va psixologik jihatlarni yetarlicha hisobga olmaydi. Masalan, ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan, identifikatsiya dinamik va o'zgaruvchan, ammo Kopengagen maktabi uni statik ko'radi. Shuningdek, raqamli tahdidlar (cyber security) kontekstida nazariya kengaytirilmoqda, masalan, raqamli katastrofalar jamiyat identifikatsiyasiga ta'sir qilishi mumkin.

Qo'llanishlari: Yevropa Ittifoqi migratsiya siyosati, Skandinaviya mamlakatlarida jamiyat himoyasi, shuningdek, Osiyo va Afrikadagi etnik mojarolarda. Masalan, Tokugava davridagi Yaponiyada securitization jarayonlari o'rganilgan.

Ijtimoiy xavfsizlik fenomeni zamonaviy xavfsizlik tadqiqotlarida muhim o'rin tutadi, chunki u global tahdidlarni jamiyat nuqtai nazaridan o'rganishga imkon beradi. Nazariy asoslari konstruktivizmga, metodologik asoslari esa diskurs tahliliga asoslangan bo'lib, bu kontsepsiya doimiy rivojlanmoqda. Ushbu asoslar orqali jamiyatni davlatdan ajratib, uning o'ziga xos dinamikasini tushunish mumkin.

Munozara bo'limi. Ijtimoiy xavfsizlikning nazariy asoslari ko'plab ilmiy maktablarda turlicha talqin etiladi. Ayrim olimlar uni iqtisodiy xavfsizlik bilan bog'lab ko'rsa, boshqalar ijtimoiy barqarorlikning ma'naviy va madaniy jihatlarga urg'u beradi. Shu sababli ijtimoiy xavfsizlikning integral modeli ishlab chiqilishi zarur. Bundan tashqari, ijtimoiy xavfsizlikni ajrat davlat siyosati doirasida emas, balki fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro hamkorlik mexanizmlari orqali ham ta'minlash lozim.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy xavfsizlik fenomeni jamiyatning barqaror rivojlanishi va inson omili bilan chambarchas bog'liqdir. Uning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish orqali:

Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda davlat, fuqarolik jamiyati va nodavlat sektor o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish.

Ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy xavfsizlikning integrallashgan konseptual modelini ishlab chiqish.

Ta'lim tizimida ijtimoiy xavfsizlik madaniyatini shakllantirish bo'yicha maxsus dasturlarni joriy etish.

Ijtimoiy xavfsizlik monitoringi uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish.

ADABIYOTLAR

1. Aleksandrowicz T. R., Tożsamość nauk o bezpieczeństwie, [in:] Tożsamość nauk o bezpieczeństwie, S. Sulowski (ed.), Wydawnictwo Adam Marszałek, Toruń 2015.
2. Bezpieczeństwo społeczne w XXI wieku w ujęciu socjologicznym, pedagogicznym, prawnym i nauk o zarządzaniu, M. Such-Pyrgiel (ed.), WSGE, Józefów 2013.
3. Bezpieczeństwo społeczne: pojęcie, uwarunkowania, wyzwania, A. Skrabacz, S. Sulowski (ed.), Dom Wydawniczy Elipsa, Warszawa 2012.
4. Bezpieczeństwo wewnętrzne Rzeczypospolitej Polskiej, B. Wiśniewski (ed.), AON, Warszawa 2004
5. Biernat T., Gierszewski J., Poczucie bezpieczeństwa społecznego młodzieży w małym środowisku, Akapit, Toruń 2013.

6. Gierszewski J., Bezpieczeństwo socjalne, społeczne a bezpieczeństwo społeczne państwa w ujęciu systemowym i sekurytyzacji, WSAiB, Gdynia 2015.
7. Hafemeister D., Physics of Societal Issues: Calculations on National Security, Environment, and Energy, Springer, New York 2014.



UDK:182.2.2.

Shaxrux XODJIMETOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: shaxrux@gmail.com

SamDCHTI professori, f.f.d O.G'aybullayev taqrizi asosida

O'ZBEKISTONDA IMMIGRANTLAR ADAPTATSIYASI JARAYONINING IJTIMOYIY-FALSAFIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda immigrantlar adaptatsiyasi jarayonining ijtimoiy-falsafiy asoslari muhokama qilinadi. Tashrif buyuruvchilarning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvi bag'rikenglik qadriyatlariga, jamoalarni qo'llab-quvvatlashga va davlat tomonidan yaratilgan sharoitlarga bog'liqligi asoslanadi. Adabiyotlarni tahlil qilish va statistik ma'lumotlar asosida immigrantlarning integratsiyasini osonlashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Immigrantlar, adaptatsiya, ijtimoiy falsafa, integratsiya, bag'rikenglik, O'zbekiston.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ПРОЦЕССА АДАПТАЦИИ ИММИГРАНТОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье рассматриваются социально-философские основы процесса адаптации иммигрантов в Узбекистане. Обосновывается, что успешная социальная адаптация приезжих зависит от ценностей толерантности, поддержки сообществ и условий, созданных государством. На основе анализа литературы и статистических данных сформулированы рекомендации по облегчению интеграции иммигрантов.

Ключевые слова: Иммигранты, адаптация, социальная философия, интеграция, толерантность, Узбекистан.

SOCIAL-PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE PROCESS OF IMMIGRANTS ADAPTATION IN UZBEKISTAN

Annotation

This article examines the socio-philosophical foundations of the immigrant adaptation process in Uzbekistan. It argues that successful social adaptation of newcomers depends on values of tolerance, community support, and state-facilitated conditions. Based on analysis of literature and statistics, the article formulates recommendations to ease the integration of immigrants into society.

Key words: Immigrants, adaptation, social philosophy, integration, tolerance, Uzbekistan.

Kirish. Globallashuv va migratsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida ko'plab mamlakatlar jamiyatiga yangi kelgan immigrantlarning moslashuvi dolzarb masalaga aylandi. Immigrantlar deb O'zbekiston hududiga boshqa davlatlardan doimiy yoki uzoq muddatli yashash uchun kelgan xalqaro migrantlar tushuniladi. Ularning jamiyatga ijtimoiy moslashuvi (adaptatsiyasi) milliy barqarorlik va ijtimoiy hamjihatlik uchun muhim ahamiyatga ega. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, migratsiya jarayonida kelgindilarni qabul qiluvchi jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiya qilish ko'p jihatdan moslashuv jarayonining qanchalik samarali kechishiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda xalqaro migratsiya oqimlari faollashmoqda. Asosan mehnat migratsiyasi donor davlati sifatida tanilgan O'zbekiston endilikda ayrim sohalarda xorijiy mutaxassislar va ishbilarmonlar oqimini qabul qila boshladi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston aholisining qariyb 3,2 foizini xalqaro migrantlar tashkil etgan[1]. 2025-yilning birinchi yarmidayoq tijorat maqsadida respublikaga 223,6 ming nafar chet ellik fuqarolar tashrif buyurdi, bu o'tgan yilga nisbatan 3,4 barobar ko'pdir[3]. Ushbu raqamlar O'zbekistonda xalqaro migrantlar soni hali nisbatan kam bo'lsa-da, ortib borayotganini ko'rsatadi. Demak, immigrantlar adaptatsiyasi jarayonining ijtimoiy-falsafiy asoslarini o'rganish va ilmiy tahlil qilish zarurati mavjud.

Mazkur maqolaning maqsadi – O'zbekistonda immigrantlarning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi jarayonini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish, uning

omillari va asosi bo'luvchi tamoyillarni aniqlash hamda ushbu jarayonni yengillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdir. Ijtimoiy falsafa ushbu masalaga metodologik yondashuv beradi, chunki u jamiyat va inson o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ijtimoiy jarayonlar mazmunini tadqiq qiladi. Immigrantlar adaptatsiyasini falsafiy jihatdan o'rganish ularga nisbatan jamiyat munosabatining, madaniy va axloqiy qadriyatlarining ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Adaptatsiya atamasi lotinchadan olingan bo'lib, moslashuv ma'nosini anglatadi. Umumiy ma'noda adaptatsiya – bu subyekt va obyekt o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonidir, natijada ikki tomonda ham ma'lum o'zgarishlar ro'y beradi. Ijtimoiy muhitga moslashish jarayonida shaxs o'z xulq-atvori, turmush tarzi va qarashlarini yangi sharoitlar talabiga mos ravishda o'zgartiradi yoki yangi kombinatsiyada shakllantiradi [2]. Shu bois ko'plab tadqiqotchilar adaptatsiyani organizm yoki shaxsning atrof-muhit sharoitlariga moslashishi, muhitga singishi sifatida tavsiflaydilar. Biroq, zamonaviy falsafiy yondashuv adaptatsiyani bir tomonlama jarayon sifatida emas, balki o'zaro ta'sirga asoslangan murakkab jarayon sifatida ko'radi – bunda yangi kelgan inson jamiyatga moslashar ekan, qabul qiluvchi jamiyat ham ma'lum darajada o'zgarishga yuz tutadi [2].

Ijtimoiy adaptatsiya tushunchasi fanda xilma-xil talqin qilinadi. G. I. Tsaregorodtsev ta'kidlashicha, "adaptatsiya" konsepsiyasi turli fanlar tutashgan chegarada paydo bo'lgan umumilmiy tushuncha bo'lib, biologik, psixologik va ijtimoiy jarayonlarni qamrab oladi [7]. Demak, insonning yangi ijtimoiy

muhitga moslashuvi nafaqat uning individual psixologik moslashuvi, balki jamiyat tizimidagi o'zgarishlar, ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar bilan ham bog'liq. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan adaptatsiya nafaqat muhojirning jamiyatga moslashuvi, balki jamiyatning ham muhojirga moslashuvi jarayoni sifatida qaraladi. Bu jarayonda migratsiya fenomenini keng ijtimoiy makon va vaqt kontekstida ko'rib chiqish zarurati mavjudligi ilmiy adabiyotlarda alohida uqtirilgan [5].

Immigrantlarning yangi jamiyatga moslashishi jarayonini tushuntirish uchun sotsiologiya va ijtimoiy psixologiyada bir qator nazariy modellardan foydalaniladi. Xususan, akkulturatsiya (madaniy moslashuv) konsepsiyasida Jon Berri tomonidan taklif etilgan to'rt xil strategiya mashhur bo'lib, ular: assimilyatsiya (o'z madaniyati va urf-odatlaridan voz kechib, to'liq singish), integratsiya (mahalliy jamiyatga faol qo'shilish bilan birga o'z madaniy identifikatsiyasini saqlash), separatsiya (yopiq holda, mahalliy jamiyatdan chetda o'z guruhida qolish) va marginalizatsiya (ikkala madaniyatga to'liq singisha olmaslik holati)dir. Bunday yondashuvlar migratsiya jarayonini boshidan o'rganib kelgan klassik tadqiqotchilar – V. Tomas va F. Znanetskiy, R. Park kabi olimlar ishlarida ham bevosita yoki bilvosita o'z ifodasini topgan [12]. Masalan, Chicagoda R. Park va hamkorlari immigratsiya va shahar hayoti tadqiqotlarida muhojirlarning bosqichma-bosqich assimilyatsiyasini tasvirlab bergan bo'lsa, V. Tomas va F. Znanetskiy o'zlarining mashhur "Polyak dehqoni" asarida muhojirlarning yangi muhitga moslashuvida ijtimoiy tashkilotlar va oilaning rolini yoritib bergan edilar.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa integratsiya konsepsiyasi keng qo'llanilib, muhojirlarning jamiyatga qo'shilishi jarayonida o'z madaniy merosini saqlab qolishi ham mumkinligi tan olinadi [6]. Masalan, S. Saryglar va S. Maximova o'tkazgan izlanishlar shuni ko'rsatadiki, migratsiya oqimlarining ko'payishi sharoitida aksariyat muhojirlar qabul qiluvchi jamiyatga integratsiyalashishga intilib, davlat qonun-qoidalariga bo'ysunadi, mahalliy urf-odat va qadriyatlarini hurmat qiladi, shu bilan birga o'z milliy an'ana va qadriyatlarini ham davom ettiradi [6]. Demak, integratsiya – ikki tomonlama yondashuv bo'lib, muhojir jamiyatga moslashar ekan, jamiyat ham uni qabul qilishi, bag'rikenglik ko'rsatishi lozim bo'ladi.

Immigrantlarning ijtimoiy adaptatsiyasiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga til bilimi, huquqiy maqom va qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy mustaqillik, mahalliy aholi bilan aloqalar, salomatlik va psixologik moslashuv darajasi kiradi. Xususan, tadqiqotchilar til bilimini muhojirning ijtimoiy hayotga kirishidagi eng muhim omil sifatida qayd etadilar. Tilni o'rganish nafaqat muloqotni yengillashtiradi, balki madaniyatni tushunish va qabul qilishga zamin yaratadi. Shuningdek, jamoat tashkilotlarining muhojirlar huquqlarini himoya qilishdagi faolligi, muhojirlarning salomatligi, mahalliy aholi – xususan, ish beruvchilar va hamkasblar bilan munosabatlari kabi omillar ham integratsiya jarayonida hal qiluvchi rol o'ynashi ilmiy izlanishlarda ko'rsatilgan [6]. Ijtimoiy tarmoqlar va diasporalarning mavjudligi, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining yordami muhojirga yangi muhitda ijtimoiy kapital hosil qilishga ko'maklashadi.

Xulosa va takliflar. Immigrantlar adaptatsiyasi jarayonini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish quyidagi xulosalar va takliflarni ilgari surishga imkon berdi:

Birinchidan, muhojirlarning yangi jamiyatga moslashuvi nafaqat individuallashgan psixologik jarayon, balki ijtimoiy hodisa ekanligi tasdiqlandi. Adaptatsiya jarayoni davomida muhojir shaxs nafaqat mahalliy turmush tarziga

moslashadi, balki qabul qiluvchi jamiyat ham muhojirning ishtiroki orqali boyib boradi. Demak, adaptatsiyaga yondashuv ikki tomonlama bo'lmog'i lozim – muhojir jamiyatga integratsiyalashishga intilsa, jamiyat ham uni o'z tarkibiga qabul qilishga, teng huquqli a'zo sifatida ko'rishga tayyor bo'lishi kerak. O'zbekistonda ko'p asrlik millatlararo totuvlik va bag'rikenglik an'analari, shuningdek, Mustaqillik yillarida shakllangan fuqarolar totuvligi muhiti ana shunday o'zaro integratsiyaning ijtimoiy-falsafiy poydevorini tashkil etadi.

Ikkinchidan, muhojirlarning moslashuviga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlab olindi. Tahlillar ko'rsatishicha, til va muloqot – integratsiyaning eng muhim shartidir: mahalliy tilni o'rganigan muhojir jamiyatga tezroq kirishadi va o'zini erkinroq his qiladi. Shuningdek, huquqiy yordam va ijtimoiy himoya tizimining mavjudligi, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining qo'llab-quvvatlashi, mehnat jamoalarida yaratiladigan inklyuziv muhit muhojirlarning yangi joyga moslashuvini tezlashtiradi. Oila va diaspora tarmoqlari ham muhojir uchun tayanch vazifasini o'tab, ijtimoiy moslashuvni yengillashtiradi. Mazkur omillarni e'tiborga olib, O'zbekistonda immigrantlar uchun maxsus integratsiya dasturlari ishlab chiqish taklif etiladi. Xususan, mahalliy til va madaniyat kurslarini tashkil etish, huquqiy maslahat va kasbga yo'naltirish xizmatlarini yo'lga qo'yish, mahallalarda immigrantlar va mahalliy aholini bog'lovchi madaniy tadbirlar (do'stlik kechalari, milliy bayramlarda ishtirok va h.k.) o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, davlat siyosati darajasida immigrantlarning integratsiyasini yengillashtiruvchi huquqiy va institutsional chora-tadbirlarni davom ettirish lozim. O'zbekiston Respublikasi allaqachon migratsiya sohasida xalqaro tashabbuslarni qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Kelgusida "Immigrantlar adaptatsiyasi to'g'risida" maxsus qonun hujjati yoki davlat dasturini qabul qilish, unda immigrantlarning huquq va burchlari, ularni ijtimoiy muhofaza qilish kafolatlari, mahalliy jamiyatga moslashuvi bo'yicha choralar belgilanishi foydadan xoli bo'lmaydi. Jumladan, xorijiy fuqarolar uchun axborot-maslahat markazlari ochish, mehnat bozorida kamsitilishining oldini olish, bolalarini maktab va bog'chalarga qabul qilishni soddalashtirish kabi tadbirlar ko'zda tutilishi zarur. Bu nafaqat muhojirlarning o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his etishiga yordam beradi, balki mahalliy aholi o'rtasida ham bag'rikenglik va hamjihatlik muhitini mustahkamlaydi.

To'rtinchidan, ilmiy doiralar va statistika idoralari hamkorligida O'zbekistondagi immigrantlar holati va moslashuv muammolarini chuqur o'rganish tavsiya etiladi. Hozirgi vaqtda noqonuniy migratsiya yoki vaqtinchalik kelgan chet elliklarning soni bo'yicha rasmiy ma'lumotlar to'liq emasligi kuzatilmoqda. Kelajakda aniq ma'lumotlar bazasini shakllantirish, sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish orqali muhojirlarning ehtiyoj va muammolarini tahlil qilish mumkin. Bu esa o'z navbatida samarali integratsiya siyosatini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'zbekiston jamiyati oldida turgan immigrantlar adaptatsiyasi jarayoni ko'p qirrali ijtimoiy-falsafiy masaladir. Uni muvaffaqiyatli hal etish uchun jamiyatning bag'rikenglik, hamjihatlik va insonparvarlik qadriyatlarini mustahkam bo'lishi, davlat tomonidan esa adolatli huquqiy asoslar va yordam mexanizmlari ta'minlanishi lozim. Immigrantlarning yangi vatanga aylangan O'zbekistonda o'zlarini erkin va teng huquqli his etishi – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ijtimoiy-falsafiy negizlaridan biriga aylanganog'i dardor.

ADABIYOTLAR

1. World Bank. "International migrant stock (% of population) – Uzbekistan." World Bank Open Data, 2024.

2. Ibragimova, X. “Ijtimoiy adaptatsiya psixologik muammo sifatida.” Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари (Actual Problems of Humanities and Social Sciences), vol. 4(S/4), 2024.
3. “O‘zbekistonga tijorat maqsadida kirib kelayotgan xorijiy fuqarolar soni 3,4 barobarga oshdi.” UzDaily.uz sayti, 07.08.2025.
4. “Migrantlar ijtimoiy begonalashuvi.” Zenodo ochiq repostidagi maqola, 2024.
5. Drokin, M. S. Социально-философский анализ феномена миграции. Фалсафа фанлари номзоди (PhD) диссертацияси автореферати, Москва, 2005.
6. Saryglar, S., va S. Maximova. “Specifics and Factors of Social Adaptation and Integration of Migrants in Russian Border Regions.” Advances in Natural, Human-Made, and Coupled Human-Natural Systems Research, vol. 234, Springer, 2023, pp. 367–373.
7. Царегородцев Г. И., тахр. Философские проблемы теории адаптации. Москва: Мысль наприёти, 1975.
8. United Nations High Commissioner for Refugees (UNHCR). “Uzbekistan – Country Operations.” UNHCR Official Website, 2025.
9. Republic of Uzbekistan. “Response on the Implementation of the Global Compact for Migration.” UN Migration Network, 2020.
10. Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (IOM). “Migratsiya vaziyatiga oid hisobot: O‘zbekiston.” IOM Uzbekistan hisobotidan iqtibos, 2024.
11. Sociocultural Adaptation of Labor Migrants: Factors ...https://www.ssoar.info/ssoar/bitstream/document/92060/1/ssoar-adminconsult-2020-7-klyuev_et_al-Sociocultural_Adaptation_of_Labor_Migrants.pdf
12. Adaptation and Integration of International Migrants — ResearchGate
13. https://www.researchgate.net/publication/350636175_Adaptation_and_Integration_of_International_Migrants_Theoretical_and_Methodological_Problems



Yunus XOLIQOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti professori, DSc
E-mail: xolikovyunus88@gmail.com

SamDCHTI professori, f.f.d R.Komilov taqrizi asosida

GLOBALASHUV JARAYONIDA YOSHLAR ESTETIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MANAVIY OMILNING ROLI

Аннотация

Insoniyatning ijtimoiy rivojlanish jarayonida yosh avlodning kamolotiga har doim e'tibor berilganligi tadqiq qilingan. Shu nazardan, xalqning asrlar madaniyati shakllangan nafosat va milliy boyligi o'ziga xos g'oyaviy qarashlar zaminida xilma-xillashib borganligi ochib berilgan. Ayni shu kabi insoniyat jamiyati taraqqiyoti uchun umumiy lashuv (globalizatsiya)ga xizmat qilganliklari ijtimoiy falsafiy tizimli tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Tadqiqot, globalizatsiya, ijtimoiy, globallashuv, tijorat, milliy, madaniy, qadimiy, g'oya, estetik, media, postindustrial, internet, umuminsoniy, global.

РОЛЬ ДУХОВНОГО ФАКТОРА В РАЗВИТИИ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация

В процессе социального развития человечества всегда уделялось внимание развитию молодого поколения. В этой связи выявляется, что утонченность и национальное богатство народов, на которых формировалась культура веков, стали разнообразными на основе собственных идеологических взглядов. Аналогичным образом, социально-философским систематическим образом проанализирован тот факт, что они служили развитию человеческого общества до степени глобализации.

Ключевые слова: Исследование, глобализация, социальный, глобализация, торговля, национальный, культурный, древний, идея, эстетический, СМИ, постиндустриальный, интернет, универсальный, глобальный.

THE ROLE OF THE SPIRITUAL FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF THE AESTHETIC CULTURE OF YOUTH IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

Annotation

In the process of social development of mankind, attention has always been paid to the development of the younger generation. In this regard, it is revealed that the sophistication and national wealth of the people, on which the culture of the centuries was formed, have become diverse on the basis of their own ideological views. In the same way, the fact that they served the development of human society to generalization (globalization) has been analyzed in a socio-philosophical systematic way.

Key words: Research, globalization, social, globalization, commerce, national, cultural, ancient, idea, aesthetic, media, postindustrial, internet, universal, global.

Kirish. So'ngi yillarda tadqiqotchilarning asosiy diqqati globalizatsiya hodisasining madaniy jihatlarini tahlil etishga qaratilgan. G'arbdagi ba'zi ijtimoiyotchilar va siyosiy mutaxassislar globallashuv jarayonining ketma-ket keladigan ijobiy hamda salbiy xususiyatlarini sharhlab, uning noxush jihatlarini bartaraf etish xalqlarning turmush sifati va ijtimoiy mustahkamlikni yaxshilashga olib keladi, deb fikr bildiradish mumkin.

Globalizatsiya ta'siri ostida madaniyat allaqachon tijoratlashtirish hamda biznes (tadbirkorlik) obyektiga bo'lib qoldi. Yuqori saviyadagi, ilmiy va elit madaniyatlar o'rmini ko'proq foyda keltiruvchi pop-madaniyat egalladi. Madaniyat sohasidagi umumiy lashuv o'ziga xos xatar va xavf-xatarlarni keltirib chiqara oladi. U milliy madaniyatlarining betakrorligi va saqlanib qolishiga tahdid soladi, xususan, uchinchi dunyo mamlakatlari (davlatlari)ning milliy-madaniy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. "Inson barcha zarur narsalarni bir o'zi hosil qila olmaydi, bularni topish uchun u turli kasbdagi odamlarning xizmatiga ehtiyoj sezadi. Boshqa insonlar ham shunday holatda bo'ladilar. Insonlar o'z ehtiyojlarini qondirish va kamol topish uchun jamoaga va jamiyatga birlashuvlari zarur bo'ladi"[1].

Madaniy umumiy lashuvning yuqori darajadagi tuzilmaviy tuzilishining asosiy belgisi - bu jarayonlarni boshqarib borish maqsadida tashkil etilgan, milliy madaniyatlarini nazorat qiluvchi tashkilotlar va muassasalarning yuzaga kelishidir. Bunday boshqaruvning bosh vazifasi madaniy globalizatsiyaning ijobiy jihatlarini ko'paytirish va noxush oqibatlarini kamaytirish hisoblanadi.

Globalashuv davrida internet saytlari orqali amalga oshirilayotgan nashrlar hamda media vositalari yordamida paydo bo'lgan yot madaniyat yoshlarning nafosat (estetik) madaniyatining ma'naviy-g'oyaviy asoslariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda (zarba bermoqda). Natijada, qadimiy, betakror milliy madaniyat va san'at makonida yoshlarning g'oyaviy-estetik dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi kontent hajmi va turlari ko'payib bormoqda. Bu esa talabalarni g'oyaviy-estetik tarbiyalash oldiga muhim va yangi vazifalarni qo'yimoqda"[2]. Axborotlashgan jamiyatda media madaniyatining umumiy lashuvi yosh avlodni aniq manfaatlariga bo'ysundirilgan nafosat madaniyati - postindustrial estetik madaniyatga ergashishga undamoqda. Bu holat, go'yoki, globalizatsiyaning harakatlantiruvchi kuchi sifatida internet tarmoqlaridagi umuminsoniy-qat'iy mezonlar

(insonning tabiiy huquqlari xalqaro normalari, yangi ma'naviy-axloqiy prinsiplar, jamoatchilik fikri) tarzida tushuntirilmoqda. Hozirgi davr yoshlarining estetik madaniyatini muayyan bir ma'naviy mavjudlik yoki g'oyaviy tizim shaklida shakllantirilishi va rivojlantirilishi global o'zgarishlarga hamohang bo'lishi, hukmron madaniyat bilan muros (kompromiss) yo'lidan borishga olib kelmoqda. Bu vaziyatni O'zbekistonning ayni paytdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mezonlari asosida baholash zarur. Bu omillar hamisha shuni talab etadiki, "o'z xalqi milliy qadriyatini boshqa millat qadriyatlariga teskari qo'ymagan holda va, aksincha, boshqa millat ma'naviyatini chuqur his qilish darajasiga o'sib chiqsa va o'z milliy qadriyatini bemalol va beminnat namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lsa, milliy munosabatlarda do'stona iqtisodiy va ma'naviy muloqotdan o'zga niyat bo'lmasa, ana shunda turli millatlarning ma'naviyatini ifodalovchi umumbashariy qadriyatlar o'sib boraveradi"[3].

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston hududida o'sib kelayotgan avlodning nafosat (estetik) madaniyatini qaror toptirishga yangicha falsafiy mushohada negizida yondashuv amalga oshirildi. Yigirma birinchi (yangi) asr kelishi bilan voyaga yetayotgan yoshlarni oliy nafosat g'oyalari zaminida voyaga yetkazish, ularning har taraflama yetuk inson sifatida shakllanishini kafolatlash masalalariga g'avvoslaricha diqqat qaratish talab etilmoqda. Umumiy lashuv (globalizatsiya) muhitida kelasi naslga nisbatan alohida g'amxo'rlik va zavqqa yo'g'rilgan munosabat yuzaga keldi. Globallashuv dvrida ijtimoiy tuzilmaning tezlik bilan shiddatli sur'atlar negizida taraqqiy etishida umumiy lashuv (globalizatsiya) beqiyos qadr-qimmatga ega bo'lib, har bir mamlakat, elat, millat yoki sog'lom naslning nafosat madaniyatida yangi mazmun-mohiyatni aks ettirmoqda (vujudga keltirmoqda). "Bugungi globallashuv sharoitida har qanday davlat va jamiyatning asosini tashkil etadigan asl va fundamental qadriyatlarini unutmashimiz lozim. O'sib kelayotgan avlod aynan oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya oladi, mas'uliyatli bo'lishni va loqayd bo'lmaslikni o'rganadi"[4]. Aynan shunday sharoitda o'z shaxsiyatini, milliy g'oyasi va mafkuraviy qarashlarini mustahkamlagan sog'lom naslga ota-bobolar merosi va qimmatli an'analardan uzilmagan holda, umumiy lashuvga (globalizatsiyaga) shay turib, zamonaviylikni nafosat (estetik) madaniyati darajasida kundalik hayot tarziga joriy eta oladi. Globalizatsiya hodisasining haqiqiy mazmun-mohiyatini yosh avlod estetik madaniyatidagi o'rni aniq va ravshan qilib belgilab olish ijtimoiy tuzilmamizning eng muhim vazifalaridan biriga aylandi. Shu asosda yoshlarning madaniyati "ma'naviy-madaniy hayot, ta'lim-tarbiya, madaniy meros, tarixiy tajriba, diniy, axloqiy, ma'rifiy qarashlar, turmush tarzi, rang-barang munosabatlar, ilm-fan, xalq bayramlari, sayllari, tomoshalari va udumlari kabi sohalarni o'z ichiga qamrab oladi. Xalqning, millatning o'ziga xos etnik xususiyatlari, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissi ham aslida ana shu ma'naviy-madaniy qadriyatlar bilan o'lchanadi"[5].

Tahlil va natijalar. Umumiy lashuv muhitida ma'naviy-g'oyaviy jarayonlarni har bir fuqaro, ayniqsa bizning yoshlarimizning dunyoqarashida taraqqiy ettirish, o'quv-tarbiya tizimi vositasida hozirgi zamon uslublari asosida hayotiy voqyelikka aylantirishning usullaridan (mexanizmlaridan) oqillik bilan foydalanish talab etiladi. Bugungi kunda globallashuv jarayoni natijasida ijtimoiy hayotimiz bilan uyg'unlashib ketganligini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev takidlar etarkan, "Xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ruyobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Ayni vaktida, bugungi globallashuv davrida jahon miqosida chuqur moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom

etayotgan, raqobat tobora kuchayib borayotgan keskin bir sharoitda biz mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lini har tomonlama tahlil qilib, davlatimizni barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish maqsadida, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqdik"[6], deb ta'kidlaydi.

Umumiy lashuvga axborotlashgan ijtimoiy tuzilmada ma'naviy-g'oyaviy jarayonlarni yosh avlod shuuriga singdirishda o'quv-tarbiyaning turlicha usullari orqali tatbiq etishni o'z oldimizga maqsad qilib belgiladi.

Bunda quyidagi mas'uliyatlar asosida yoshlarda ma'naviy-g'oyaviy qarashlarni qaror toptirish zarur:

Birinchi, barcha jabhalarda nafosat madaniyati taraqqiyotiga xizmat qiluvchi umuminsoniy g'oyani yoshlarning ongiga singdirish uchun alohida pedagogik-psixologik va ilmiy dastur ishlab chiqish;

Ikkinchi, jamiyatda yoshlarga doir davlat siyosatidan kelib chiqqan holda nafosat madaniyatining shakllanib borishini uzviy ravishda nazorat qilib borish;

Uchinchi, axborotlashgan tuzilmaga mos ravishda barcha o'quv dargohlarida g'oyaviy va mafkuraviy tarbiyani davr talablari darajasiga yuksaltirish;

To'rtinchi, har bir mahallada yoshlarni zamonaviy falsafiy mushohada yuritishga o'rgatish va milliy nafosat madaniyatini avvalambor, ularning falsafiy dunyoqarashiga aylantirish.

Yigirma birinchi (yangi) asrda umumiy lashuv (globalizatsiya)ning shiddatli sur'atda ijtimoiy rivojlanish jarayoniga ta'siri oshib borishi oqibatida inson sivilizatsiyasining madaniy boyliklari, milliy qimmatliklari, diniy e'tiqodlari yangilanishga uchrab, har bir mamlakatda yosh avlodning nafosat (estetik) madaniyatining silma-xil ko'rinishiga ega bo'lishini keltirib chiqardi. Ushbu hodisa O'zbekiston zaminida ham yoshlarning ma'naviyati shakllanishiga o'ziga xos yangicha qiyofasini olib kirdi. Oilada farzandni nafosat (estetik) yo'nalishda tarbiyalash, uni har taraflama yetuk inson bo'lib kamol topishini kafolatlash masalalariga chuqur diqqat qaratish, turli ruhiy (ma'naviy) xavf-xatarlardan asrash beqiyos ahamiyatga ega bo'ldi. Negaki, globalizatsiya ayrim elatlarning milliy g'oyasi, mafkuraviy qarashlari, madaniyati, e'tiqodi va ota-bobolar merosiga ham ma'naviy xavf solayotganini yoddan chiqarmaslik lozim. Xususan, bunday umumiy lashuvga tayyor bo'lmagan yoshlarimizning ongi va dunyoqarashida go'yoki estetik madaniyat sifatida oilaviy ajralishlar ko'payishiga, qadriyatlarining poymol bo'lishiga olib kelmoqda. "Barchamizga ayonki, jahonda keskin iqtisodiy raqobat, axborot xurujlari, terroristik tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Dunyoning turli joylarida, ayniqsa, Sharq mintaqasida qonli to'qnashuvlar va nizolar davom etmoqda. Ming afsuski, bunday notinch keskinlik o'choqlari kamayish o'rni ko'payib bormoqda. Ana shunday tahlil va vaziyatni hisobga olgan holda, biz yurtimizda tinchlik-osoyshtalikni mustahkamlash, turli xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatimizni har tomonlama kuchaytirishimiz shart"[7].

Aynan shuning uchun O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'nalishidagi taraqqiyot strategiyasi hamda o'zbek elining ulug'vor mamlakatni qaror toptirishga oid maqsad va intilishlarini keng omma (jamoatchilik)ga to'laqonli tushuntirish, shuningdek, umumiy lashuv (globalizatsiya) hodisasining haqiqiy mazmun-mohiyatini yosh avlod nafosat madaniyatidagi o'rni aniq-tinij belgilab olish va ijtimoiy tuzilmamiz a'zolariga yetkazish eng muhim vazifalardan biriga aylandi.

Muhokama. Umumiy lashuv (globalizatsiya) muhitida voyaga yetayotgan naslni har xil xavf-xatarlardan himoyalash, ularning ruhiyatiga (yuragiga) yaxshilik g'oyalarini joriy etish nafosat (estetik) madaniyat yo'nalishida muttasilik (uzluksizlik)ni taqozo etmoqda. Bugungi kunda globallashuvning ijtimoiy hayotimiz bilan bog'liqligi xususida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'z fikrlarini bildirar ekan, "Yangi tahdidlar, jumladan, "ommaviy madaniyat" xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq, qadriyatlarining yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, mening fikrimcha, inson ma'naviy olami, xalqlar madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir"[8; 29-30], - deb ta'kidlaydilar.

Yosh avlod ijtimoiy tuzilmada o'zining mustahkam g'oyaviy va dunyoqarashlarini qaror toptirish davomida umumiy lashuvning haqiqiy mohiyatiga diqqat qaratishlari, turli ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilyotgan ma'lumotlarning ishonchlik darajasiga tayanib ish ko'rishlari lozim. Buning uchun keng jamoatchilikning fikr-mulohazasini to'g'ri tushunib yetish, nafosat (estetik) madaniyat bilan bog'liq falsafiy mushohada yuritish o'ta ahamiyatlidir. Biz ma'naviy-g'oyaviy yangilanishlar davrida nafosat madaniyatining ijtimoiy hayotdagi xilma-xil jihatlariga, xususan, yoshlar shuuriga singib borishidan ehtiyot bo'lishimiz shart. Jamiyatda turli ruhiy (ma'naviy) xavf-xatarlarga oid rang-barang fikrlardagi yondashuv va qarashlarga yo'l qo'ymasligimiz zarur. Axborotlashgan jamiyatning shiddat bilan o'zgarib borishi natijasida "XX asrda globallashuv jarayonining tezlashishi va umumsayyoraviy sivilizatsiyaning shakllana boshlashi jahon mafkuralarining xarakterini o'zgartirib yubordi. Ularning o'rnini bosadigan qudratli mafkuraning yo'qligi, geosiyosiy maqsadlarning o'zgargani esa bu g'oyalarning salbiy ta'sirini yanada kuchaytirdi. Bunday

sharoitda o'z maqsadini aniq belgilab olgan, ehtiyoj va manfaatlarini yaxshi anglab yetgan, o'z e'tiqodiga ega bo'lgan, bir so'z bilan aytganda o'z milliy g'oyasini shakllantirgan millatgina kelajagini saqlab qoladi va istiqbolini belgilaydi"[9]. Aynan shunday ijtimoiy sharoitda uzoq zamonlardan beri istiqomat qilayotgan yosh avlodning dunyoqarashini zamonaviy (ilg'or) texnologiyalar bilan boyitish, turli xil tashqi ta'sirlar zaminida shaxsiy mohiyatni tushunib yetish, xalqning qimmatli an'analarini qadrlash hamda nafosat (estetik) madaniyatni kelajakka ma'naviy-g'oyaviy qarashlar asosida yetkazib berish zarur.

Ayni damda rasm-rusumlar va an'analarimizning yosh avlodni birlashtiruvchi nafosat (estetik) xususiyatlaridan to'laroq darajada foydalanish zarur. Xalq an'analarini tadqiq etish, madaniy boyligimiz, milliy rasm-rusumlar va qimmatliklarimizni tiklayotgan bir paytda, dunyo miqyosida yaxshilik va yomonlik (shar) orasidagi qarama-qarshilik kuchayib borayotganiga shohid bo'lmoqdamiz. Har qanday ruhiy-g'oyaviy jarayonlar elatning ma'naviy, ruhiy talablarini, an'analari hamda hayot tarzini inobatga olgan holatdagina taraqqiy etadi.

Xulosa. Mazkur yo'nalishda olib borilyotgan sa'y-harakatlarning samarasi o'laroq, yosh avlod shuuriga tabiat, mamlakat va ijtimoiy tuzilma insonga faqatgina turli xavf-xatarlardan xoli yashash va zurriyot qoldirish uchun emas, balki o'zgaralar bilan birlashib, yuqori did va aql-idrokka ega bo'lish, nafosat (estetik) madaniyat negizida belgilangan marralarga erishish uchun ham kerakligini singdirishimiz lozim. Ijtimoiy rivojlanishda yoshlar uchun ruhiy-g'oyaviy usullarni (mexanizmlarni) taraqqiy ettirishga keng ijtimoiy asos yaratsak, kelajak kunimiz bundanda to'kin, yoshlarimiz saodatli davr farzandlari bo'lib kamol topadilar. Ular orasida ro'y berayotgan ruhiy o'zgarishlar (qiyofalar) doimo yangicha qarashlar va g'oyaviy holatlarni insoniyatning porloq kelajagi tomon yetaklashga yo'naltirilishi nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR

1. Форобий А.Н. Фозил одамлар шаҳри. –Тошкент, Янги асар авлоди, 2018. 238-бет.
2. Мустафаев Ш. Н. Глобаллашув шароитида талабаларни ғоявий-эстетик тарбиялаш технологияси (бадий тўғарақлар фаолияти мисолида). Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд. 2018. Б-12.
3. Махмудов Т. Мустақиллик ва маънавият. -Т.: "Шарқ", 2001.116 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. -Т.: Ўзбекистон, 2-жилд, 2018. 331-бет.
5. Мусаев Ф. Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. Т.: "Ўзбекистон", 2007. 119-бет.
6. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. -Т.: Ўзбекистон, 2-жилд, 2018. 178-бет.
7. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд, -Т.: 2018, 141-бет.
8. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 29-30 бет.
9. Сафоева С. Глобаллашув жараёнининг ижтимоий ҳаёт соҳаларига таъсири. // Глобаллашув жараёнида жамиятни демократлаштиришнинг сиёсий, фалсафий-ҳуқуқий масалалари. –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ нашриёти, 2006, 27-бет.
10. Yunus Ortikovich Kholikov, . (2021). Philosophical Fundamentals Of The Culture Of Tolerance. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(09), 48–51.
11. Kholikov Y. O. Issues of education of youth on the ethical basis of international culture and tolerance at the age of globalization //Philosophical Readings. – 2021. – Т. 13. – №. 4. – С. 1917-1922.
12. Xoliqov Y. The role of ethics and education in the development of tolerance relations between uzbekistan and the nation in the process of development //International Conference on Problems of Improving Education and Science. – 2022. – Т. 1. – №. 02.



UDK: 512.747

Jaxongir XOLMONOV,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail:jaxongirxolmonov6@gmail.com

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti, p.f.d I.Sharidov taqriz asosida

ROTA–BAXTER OPERATORS ON DIHEDRAL QUANDLES

Annotation

In this paper, Rota–Baxter operators on dihedral quandles are studied. It is shown that every mapping on the two-element dihedral quandle is a Rota–Baxter operator. For an arbitrary dihedral quandle R_n , ($n \leq 3$), Rota–Baxter operators are described depending on the cardinality of the image. In particular, all mappings with a one-element image are Rota–Baxter operators, while mappings with a two-element image exist only when R_n is even.

Key words: Rota-Baxter operator, dihedral kvandl, kvandl, rek, trival kvandl, ichki izomorfizmlar.

ОПЕРАТОРЫ РОТЫ-БАКСТЕРА НА ДИЭДРАЛЬНЫХ КВАНДЛЯХ

Аннотация

В данной работе исследуются операторы Роты–Бакстера на диэдральных квандлах. Показано, что любое отображение на двухэлементном диэдральном кванdle является оператором Роты–Бакстера. Для произвольного диэдрального квандла R_n , $n \geq 3$, операторы Роты–Бакстера описываются в зависимости от мощности образа отображения. В частности, все отображения с одноэлементным образом являются операторами Роты–Бакстера, тогда как отображения с двухэлементным образом существуют лишь в случае, когда является чётным.

Ключевые слова: Rota-Baxter operator, dihedral kvandl, kvandl, rek, trival kvandl, ichki izomorfizmlar.

DIEDRAL KVANDLLARDA ROTA–BAKSTER OPERATORLARI

Annotatsiya

Ushbu ishda diedral kvandllarda Rota–Baxter operatorlari o'rganiladi. Ikki elementli diedral kvandlda har qanday akslantirish Rota–Baxter operatori ekanligi ko'rsatildi. Ixtiyoriy R_n diedral kvandl ($n \leq 3$) uchun Rota–Baxter operatorlari akslantirish obrazining quvvatiga bog'liq holda tavsiflandi. Xususan, bitta elementli obrazga ega akslantirishlar har doim Rota–Baxter operatori bo'lib, ikki elementli obraz faqat n juft bo'lganda mavjud bo'lishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Rota-Baxter operator, dihedral kvandl, kvandl, rek, trival kvandl, ichki izomorfizmlar.

Kirish. Rota-Baxter operatorlari kommutativ algebralarda birinchi marta Baksterning [3] 1960 yildagi maqolasida paydo bo'lgan. Shu vaqtdan boshlab Rota-Baxter operatorlari ko'plab mualliflar tomonidan o'rganilgan (monografiyani ko'ring [7]). Ushbu operatorlar katta ahamiyatga ega, chunki ular ko'plab turli matematik obyektlar bilan bog'liq, jumladan Yang-Baxter tenglamasi bilan [1; 4], Lodening algebralari bilan [2], Puassonning juft algebralari bilan [9] va boshqalar. Rota-Baxter operatorlari (qisqartirilgan — RB) guruhlarda L. Guo, X. Leng va Yu. Shengning [4] ishlarida aniqlangan.

Kvandllar mustaqil ravishda S. Matveyev va D. Joyce tomonidan 1982 yilda joriy etilgan.

Rota-Baxter operatorlari reklarda va kvandllarda Bardakov va Boudi ishlarida joriy etilgan. Ushbu ishning asosiy maqsadi diedral kvandllarda Rota-Baxter operatorlarini o'rganishdir.

Faraz qilaylik, $R_2 = \{a_1, a_2\}$ — 2-elementli diedral kvandl. Har qanday $B: R_2 \rightarrow R_2$ akslantrish R_2 ustidagi Rota-Baxter operatori hisoblanadi. Shundan quyidagi savollar yuzaga keladi:

Savol 1. R_n diedral kvandlda Rota-Baxter operatorlari haqida nima deyish mumkin?

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Rota–Baxter operatorlari zamonaviy algebra va matematik fizikaning muhim tushunchalaridan biri bo'lib, ularning ildizi G. Baxter tomonidan 1960-yilda kommutativ algebralarda o'rganilgan ishiga borib taqaladi [3]. Ushbu ishda integral operatorlar bilan bog'liq bo'lgan algebraik identifiklilar keltirilgan bo'lib, keyinchalik bu tushuncha Rota–Baxter algebra nazariyasining shakllanishiga asos bo'ldi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda dihedral kvandllar uchun Rota–Baxter operatorlarining to'liq tavsifi deyarli o'rganilmagan. Aksariyat ishlar umumiy kvandllar yoki guruhlar doirasida cheklangan bo'lib, dihedral kvandllarning maxsus tuzilishidan kelib chiqadigan xususiyatlar yetarlicha tahlil qilinmagan.

2. Qo'shimcha mulohazalar

2.1 Rota–Baxter operatorlari

Faraz qilaylik, A — bu \mathbb{k} maydoni ustidagi algebra. Austida aniqlangan R chiziqli operator og'irligi $\lambda \in \mathbb{k}$ bo'lgan Rota-Baxter operatori deb ataladi, agar quyidagi shart bajarilsa:

$$R(x)R(y) = R(xR(y) + R(x)y + \lambda xy)$$

barcha $x, y \in A$ uchun.

Rota–Bakster operatoriga ega algebra Rota–Bakster algebrasi deb ataladi.

Ta'rif 1. Faraz qilaylik, G — bu grupp. $B: G \rightarrow G$ akslantirish Rota–Bakster operatori deb ataladi, agar

$$B(g)B(h) = B(gB(g)hB(g)^{-1})$$

barcha $g, h \in G$ uchun bajarilsa.

Rota–Bakter operatoriga ega grupp Rota–Bakster gruppasi deb ataladi.

Keling, ba'zi Rota–Bakster operatorlariga misollar keltiramiz. Faraz qilaylik, G — grupp.

Akslantirish $B_0(g) = e$, ya'ni barcha $g \in G$ uchun birlik elementga mos tushuvchi akslantirish, G ustida Rota–Bakster operatori hisoblanadi.

Akslantirish $B_{-1}(g) = g^{-1}$, ya'ni barcha $g \in G$ uchun teskari elementga mos tushuvchi akslantirish, G ustida Rota–Bakster operatori hisoblanadi.

Agar $G = KL$, bu yerda K va L — trivial kesishuvga ega bo'lgan G gruppning qism gruppalari bo'lsa, u holda

$$B(kl) = l^{-1}, \text{ barcha } k \in K, l \in L \text{ uchun}$$

akslantirish G ustida Rota–Baxter operatori bo'ladi.

2.2 Kvandllar

Quyidagi ta'rifni Matveev va Joyce ishlaridan topish mumkin.

Ta'rif 2. Kvandl — bu bitta ikkilik amaliyotga ega bo'lgan Q algebraik sistema, ya'ni

$(x, y) = x * y$, quyidagi aksiomalarni qanoatlantiradi:

$$(Q1). x * x = x \text{ barcha } x \in Q \text{ uchun,}$$

$$(Q2). \text{ barcha } x, y \in Q \text{ uchun yagona } z \in Q \text{ mavjud bo'lib, } x = z * y,$$

$$(Q3). (x * y) * z = (x * z) * (y * z) \text{ barcha } x, y, z \in Q \text{ uchun.}$$

Faqat $(Q2)$ va $(Q3)$ aksiomalarini qanoatlantiruvchi algebraik sistema rek deb ataladi.

Kvandllarning ko'plab qiziqarli misollari gruppalardan kelib chiqadi.

Agar G — grupp bo'lsa, unda binar amal $a * b = b^{-1}ab$ G ni $Conj(G)$ kvandliga aylantiradi, bu esa konjugasion(normal) kvandl deb ataladi.

G grupp va binar amal $a * b = ba^{-1}b$ bo'lsa, unda bu G ni $Core(G)$ kvandliga aylantiradi, bu esa kore-kvandl deb ataladi. Ayniqsa, agar $G = \mathbb{Z}_n$ — n -tartibli siklik grupp bo'lsa, u holda $Core(\mathbb{Z}_n)$ diedral kvandl deb ataladi va R_n bilan belgilanadi.

Kvandl Q trival deb ataladi, agar

$$x * y = x$$

barcha $x, y \in Q$ uchun bajarilsa.

Gruppalardan farqli o'laroq, trival kvandlda erkin elementlar soni cheklanmagan bo'lishi mumkin. n -elementli trival kvandlni T_n bilan belgilaymiz.

Tasdiq .1. Faraz qilaylik,

$$R_n = \{a_0, a_1, \dots, a_{n-1}\}$$

— diedral kvandl bo'lsin va $n = ml$, bunda $m, l \geq 1$, unda

$$R_n = M_0 \sqcup M_1 \sqcup \dots \sqcup M_{m-1},$$

bu yerda

$$M_i = \{a_i, a_{m+i}, \dots, a_{m(l-1)+i}\}, i = 0, 1, \dots, m-1,$$

har bir M_i — R_l bilan izomorf bo'lgan qism kvandldir.

Ta'rif 3.

Faraz qilaylik, $(X, *)$ — rek (r\(\epsilon\)\(\kappa\)) bo'lsin. Bu akslantirishga $B: X \rightarrow X$ — Rota–Bakster operatori deb ataladi, agarda keyingi tenglik bajarilsa:

$$B(u) * B(v) = B((u * B(v)) * v) \text{ barcha } u, v \in X \text{ uchun}$$

Troyka $(X, *, B)$ Rota–Bakster rek deb ataladi.

Misol. Faraz qilaylik, $p \in X$ — fiksirlangan element. Har qanday $x \in X$ uchun

$$B(x) = p$$

deb olinsa, bu Rota–Bakster operatori bo'ladi. Bu B_0 operatorining gruppadagi analogidir.

Tasdiq 2.

Faraz qilaylik, T — trivial kvandl bo'lsin. Unda har qanday akslantrish

$$B: T \rightarrow T$$

T da Rota–Bakster operatori bo'ladi.

2.3 Rota–Bakster operatorlari reklar va kvandlarda

Bardakov–Bovdi ishida kiritilgan ta'rifni eslatib o'tamiz.

Ta'rif 3. Faraz qilaylik, $(X, *)$ — rek bo'lsin. $B: X \rightarrow X$ aks ettirish Rota–Bakster operatori deyiladi, agar quyidagi tenglik bajarilsa:

$$B(u) * B(v) = B((u * B(v)) * v), \text{ barcha } u, v \in X \text{ uchun.}$$

U holda $(X, *, B)$ uchligi Rota–Bakster rek deb ataladi.

Masalan, $p \in X$ — qat'iy belgilangan element bo'lsin.

$B(x) = p$ akslantirish har qanday

$x \in X$ uchun Rota–Bakster operatori bo'ladi. Bu

gruppalaridagi B_0 operatorining analogidir.

Tasdiq. 2.

Faraz qilaylik, T — trival kvandl bo'lsin. U holda, har qanday aks ettirish

$$B: T \rightarrow T$$

T da Rota–Bakster operatori bo'ladi.

Diedral kvandllarda Rota–Bakster operatorlari

Faraz qilaylik, $R_2 = \{a_0, a_1\}$ — 2 ta elementdan iborat diedral kvandl bo'lsin. R_2 da binar amal quyidagicha aniqlanadi:

$$a_0 * a_0 = a_0, a_1 * a_1 = a_1, a_1 * a_0 = a_1, a_0 * a_1 = a_0.$$

Bu ifodalardan ko'rinadiki, bu kvandl trival (oddiy) kvandl hisoblanadi. Shunday ekan, yuqorida qayd etilganidek, har qanday akslantrish

$$B: R_2 \rightarrow R_2$$

R_2 da Rota–Bakster operatori hisoblanadi.

Endi faraz qilaylik, $R_3 = \{a_0, a_1, a_2\}$ — 3 ta elementli diedral kvandl bo'lsin. Quyidagicha akslantrishni kiritamiz:

$$B(a_0) = a_{i_0}, B(a_1) = a_{i_1}, B(a_2) = a_{i_2}.$$

Bu holatda akslantrishni $B = B_{i_0, i_1, i_2}$ deb belgilaymiz.

Shuningdek, $|Im B| = |\{i_0, i_1, i_2\}|$ — tasvirlar to'plamining quvvatini bildiradi. Yuqorida aytilganidek, agar $i_0 = i_1 = i_2$, ya'ni B bir xil qiymatni barcha elementlarga moslashtirsa, u holda B R_3 da Rota–Bakster operatori bo'ladi. Shunday ekan, $Im B$ ning quvvati 1 ga teng bo'lgan har qanday akslantrish R_3 da Rota–Bakster operatori hisoblanadi.

-Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Mazkur tadqiqot nazariy algebra usullariga asoslangan bo'lib, dihedral kvandllarda Rota–Baxter operatorlarining xossalarini o'rganishga qaratilgan. Ishda kvandl va Rota–Baxter operatorlarining aksiomatik ta'riflaridan foydalanildi hamda dihedral kvandllarning aniq algebraik tuzilishi asosida operatorlar konstruktiv ravishda tavsiflandi. Maxsus holatlar (R_2, R_3, R_p) tahlil qilinib, natijalar umumiy R_n holatiga kengaytirildi. Isbotlashda mantiqiy deduksiya va kombinator-algebraik hisoblash usullari qo'llanildi. Olingan natijalar asosida umumiy holat uchun gipoteza shakllantirildi.

Tahlil va natijalar.

Teorema

Faraz qilaylik, $(n \leq 3)$ va $B: R_n \rightarrow R_n$ akslantrish bo'lsin.

Agar $|\text{Im } B| = 1$ bo'lsa, unda B — R_n da Rota–Bakster operatoridir.

Agar $|\text{Im } B| = 2$ bo'lsa, unda B faqat va faqat quyidagi shartlar bajarilgandagina R_n da Rota–Bakster operatori bo'ladi: n juft bo'lsa va quyidagi $0 \leq k \leq \frac{n}{2} - 1$,

oraliqdan olingan har bir k uchun, B akslantrish quyidagi formulalardan biri bilan aniqlanadi

$$B(a_s) = \begin{cases} a_k, s = 2i \\ a_{\frac{n}{2}+k}, s = 2i + 1 \end{cases}$$

yoki

$$B(a_s) = \begin{cases} a_{\frac{n}{2}+k}, s = 2i \\ a_k, s = 2i + 1 \end{cases}$$

bu yerda barcha $0 \leq s \leq n - 1$ uchun s mos keluvchi indeks, ya'ni butun son.

Tasdiq 6. Faraz qilaylik, $p \geq 3$ — tub son. U holda $B: R_p \rightarrow R_p$ akslantrish Rota–Bakster operatori bo'ladi faqat va faqat $|\text{Im } B| = 1$ bo'lsa.

Gepoteza. Faraz qilaylik, $n \geq 3$ va $B: R_n \rightarrow R_n$. Agar $3 \leq |\text{Im } B| < n$ bo'lsa, B akslantrish R_n da Rota–Bakster operatori emas.

-Xulosa va takliflar(Conclusion/Recommendations)

Ushbu ishda diedral kvandllarda Rota–Bakster operatorlari o'rganildi. Dastlab algebra, gruppalar, shuningdek, reklar va kvandllarda Rota–Bakster operatorlarining asosiy ta'riflari va xossalari ko'rib chiqildi. Bu esa keyingi tadqiqotlar uchun zarur bo'lgan nazariy asosni shakllantirish imkonini berdi.

Ikki elementli diedral kvandl R_2 trivial kvandl ekanligi ko'rsatildi, shu sababli

$B: R_2 \rightarrow R_2$ ko'rinishidagi istalgan akslantirish Rota–Bakster operatori bo'ladi. Ixtiyoriy ($n \leq 3$) uchun diedral kvandl R_n da Rota–Bakster operatorlarining mavjudligi Bakslantirish obrazining quvvatiga bog'liq ekani aniqlandi. Xususan, agar $|\text{Im } B| = 1$ bo'lsa, B akslantirish ($n \leq 3$) barcha hollarda R_n da Rota–Bakster operatori bo'lishi isbotlandi. $|\text{Im } B| = 2$ holatda esa bunday operatorlar faqat n juft bo'lgandagina mavjud bo'lib, ular qat'iy aniqlangan ko'rinishga ega ekanligi ko'rsatildi. Bundan tashqari, p — toq tub son bo'lgan diedral kvandl R_p uchun Rota–Bakster operatorlari faqat bir elementli obrazga ega bo'lgan akslantirishlar bilan cheklanadi.

Olingan natijalarga asoslanib, $3 \leq |\text{Im } B| \leq n$ bo'lganda $B: R_n \rightarrow R_n$ akslantirish Rota–Bakster operatori bo'lmaydi degan gipoteza ilgari surildi. Keyingi tadqiqotlar ushbu gipotezani isbotlashga, shuningdek, Rota–Bakster operatorlarini kvandllarning boshqa sinflarida o'rganishga yo'naltirilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Belavin and V. G. Drinfel'd, Solutions of the classical Yang–Baxter equation for simple Lie algebras. Funktsional. Anal. i Prilozhen. 16 (1982), no. 3, 1–29, 96.
2. Bai, O Bellier, L. Guo and X. Ni, Splitting of operations, Manin products, and Rota–Baxter operators. Int. Math. Res. Not. (2013), no. 3, 485–524.
3. G. Baxter, An analytic problem whose solution follows from a simple algebraic identity, Pacific J. Math., 10 (1960), 731–742.
4. V. G. Bardakov, V. Gubarev, Rota–Baxter operators on groups, arXiv:2103.01848, 26 p.
5. V. G. Bardakov, V. Gubarev, Rota–Baxter groups, skew left braces, and the Yang–Baxter equation, J. Algebra, 596 (2022), 328–351.
6. V. G. Bardakov, V. Bovdi. Relative Rota–Baxter operators on quandles and quandle ring <https://arxiv.org/html/2402.11660v1>
7. L. Guo, H. Lang, and Yu. Sheng, Integration and geomet-ri-zation of Rota–Baxter Lie algebras, arXiv:2009.03492, 24~p.
8. L. Guo, An Introduction to Rota–Baxter Algebra, Surveys of Modern Mathematics, Somerville, MA: International Press; Beijing: Higher education press, 4 (2012).
9. M. A. Semenov-Tyan-Shanskii, What a classical r-matrix is? (Russian) Funktsional. Anal. iPrilozhen. 17 (1983), no. 4, 17–33.
10. T. Schedler, Poisson algebras and Yang–Baxter equations. Advances in quantum computation, 91–106, Contemp. Math., 482, Amer. Math. Soc., Providence, RI, 2009.
11. Joyce. A classifying invariant of knots, the knot quandle. J. Pure Appl. Algebra 23 (1982) 37–65.
12. S. V. Matveev, Distributive groupoids in knot theory, Mat. Sb. (N.S.) 119:1 (1982), 78–88. In Russian; translated in Math. USSR Sb. 47:1 (1984), 73–83.



UDK: 330.2

Samad XUDAYNAZAROV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti
E-mail:s.khudaynazarov69@gmail.com

O'zMU professori B.To'ychiyev taqrizi asosida

GLOBALLASHUV VA EKOLOGIK QADRIYATLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada - globallashuv sharoitida tabiat tabiiyligini himoyalashda umumbashariy hamjihatlik, ekologik qadriyatlarni ahamiyati hamda taraqqiyot va tabiat muvozanatiga oid masalalar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, ekologiya, ekologik qadriyat, o'zaro hamkorlik, hamjihatlik, ekoinnovatsiya, sayi-harakat, ma'naviy mas'ullik, mehr-muhabbat.

ГЛОБАЛИЗАЦИЯ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ЦЕННОСТИ

Аннотация

В данной статье анализируются вопросы всеобщей солидарности в защите природной среды в условиях глобализации, значение экологических ценностей, а также проблемы баланса между развитием общества и сохранением природы. Особое внимание уделяется необходимости гармоничного взаимодействия человека и окружающей среды, формированию экологической ответственности и устойчивых моделей развития.

Ключевые слова: глобализация, экология, экологические ценности, взаимное сотрудничество, солидарность, экоинновации, совместные усилия, нравственная ответственность, любовь и забота.

GLOBALIZATION AND ECOLOGICAL VALUES

Annotation

This article examines the issues of universal solidarity in protecting the natural environment in the context of globalization, the significance of ecological values, as well as the challenges related to maintaining a balance between development and nature. The study emphasizes the importance of harmonious interaction between humanity and the environment, the formation of ecological responsibility, and the promotion of sustainable development models.

Keywords: globalization, ecology, ecological values, cooperation, solidarity, eco-innovation, collective efforts, moral responsibility, care and compassion.

Kirish. Ona zamin sayyorasi insoniyatning yagona bosh-panasi. Uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, turfa tabiati tabiiyligini saqlab qolish insoniyat omonligi, tinchligi, farovonligini garovidir.

Ilm-fan, texnika-texnologiya, sun'iy intellekt, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari gurkirab rivojlanib borayotgan bugungi rivojlanish chorrahasida zero, tabiatni inson ko'magiga muxtojligi yanada ortmoqda.

Bugungi global makon va zamon sferasidan turib yer kurrasini boshlab shikastlanish darajasini dinamik holatiga nazar solinganda biosferaga antropogen ta'sirning kuchi va yukini maksimum darajada hamon kamaymayotganligini, hatto bunda insonning real "geologik kuch", tabiat tragediyasida - "salbiy bosh qahramon", travmatik shoklarini adadsiz o'rchishida "bosh dirijyor" sifatida namoyon bo'layotgani ayanchli va achinarli holdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Hozirgi davrda zamin sayyorasida jadal kechayotgan globallashuv sabab umumglobal makon, axborot, kommunikativiy tutashlik, sohalararo integratsiyalashuvi, universallashuv, yagona jahon xo'jaligi tuzilmasi kabi jarayonlar sodir bo'lib, tobora rivojlanib borayotgan [1] pallada ahli bashar "bir yoqqadan bosh chiqqarib", o'zaro hamkor va hamjihatlikda tabiat va uning tabiiyligini saqlab qolish, himoyasiga bu borada tarixiy taraqqiyot jarayonida ortirgan jamiki boy ilmiy-tajribasini, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy imkoniyatlarini, kuch-g'ayratini, himmatini birgalikda bir butunlik yo'naltirmog'i, e'tiborini bunga yanada ko'proq qaratmog'i va harakat qilmog'i darkor.

Zero, bugun tabiat tabiiyligini qutqarmoqni, saqlamoqni, asramoqni vaqti-soatidir. Mudomki har kim Ona zamin tabiati, ekologiyasi umumjahoniy aloqadorlikka egaligini anglamog'i, sog'lom tabiiy muhitni asrab qolishda ma'naviy mas'uligini hech qachon unutmasligi, uning himoyasi yo'lidagi ekoinnovation sayi-harakatlarini birozga bo'lsa-da susaytirmasligi, kechiktirmasligi mutloq zarurdir.

"Sog'lom tanda – sog' aql" deganlaridek, ekologik halokat, fojea, iqlimiy o'zgarishlar qo'shtirnoq ichidagi o'z hosilini bera boshlaganligini har bir inson his etmog'i, hushyor tortmog'i, ogoh bo'lmog'i, o'z sayyorasi tabiatni o'z nafsi havosidan qutqarmog'i, tabiatga nisbatan yulg'uchlik, noquslik, kalondumog'lik, nodonu notovonlik, uquvsizlik, ilmsizlik, axloqsizlik kabi illatlarga qarshi kurashmog'i va undan butkul forig'lamog'i kerak.

Tabiatga va uning bebaho mulkiga nisbatan avvalo kishi qalbida mehr-muhabbat, rahim-shavqat, oqlonalik, tejamkorlik, halim-hazimlik, ehtiyotkorlik, dardkashlik, uyg'unlik kabi nozik tuyg'ular his etilib, nish urmas ekan, bu borada sezilarli natijalarga hech qachon erishib bo'lmaydi. Taraqqiyot tabiatga muvozanatli bo'lmog'i kerak. Taraqqiyot va tabiat muvozanatli bo'lmog'i uchun global ekologik ong va madaniyat gumanistik axloqiy negizlarda parvarishlanmog'i, ta'lim-tarbiya, qadriyat, ilm-fan, adabiyot-san'at, OAV, internet bunga bog'liq ijobiy rezonans effektini [2] yuzaga chiqarishda mo'tasil ko'maklashmog'i lozim.

Insonning tabiatga ijobiy munosabatlar Renessans erasi boshlanmog'i, aks sado bermog'i uchun bunda hech

bo'lmaganda, avvalo foyda bilan zarar, zaruriy ehtiyoj ko'lami bilan ortiqcha daromad olish ilinji balanisga kelmog'i shart.

Tabiatga oqilona munosabatlar konturida ekologik qadriyatlar azal-azaldan juda muhim o'rin tutib kelgan. Uning effektivligi haqida gapirganimizda birinchidan, iqtisodiy arzonligi; ikkinchidan, davr sinovlaridan o'tganligi; uchinchidan, kishi qalbiga yaqinligi; to'rtinchidan, o'ziga xos ekofalsafiy teranligi, donishvorligi; beshinchidan, ekologik voqelikda umumbashariy ko'p spektrli xususiyatlarni namoyon eta olishi kabilar bilan xarakterlash mumkin.

Ekologik qadriyatlar - inson va tabiat munosabatlarini normallashtirishda, yaxshilashda, sog'lomlashtirishda, o'zaro aloqalarda mo'tadil me'yoriylikni ta'minlashda maksimal qudratga, samarali va arzon iqtisodiy qiymatiga, inson fe'l-atvoriga, ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish nuqtai nazardan emosional elastiklikka, o'zga tortuvchi elektromagnetizm[3] xususiyatlarga ega ekanligini mutloq inkor qilib bo'lmaydi.

Inson va tabiat munosabatlarida tizimida ta'sir va aks ta'sir qonuniyatlar hamisha mavjud bo'lib kelgan, mavjud bo'lib qoladi. Zero, dono xalqimiz "Nimani eksan - shuni o'rsan", "Hamma narsa - niyatga yarasha", "Qars - ikki qo'ldan chiqadi" kabi falsafiy donishvorligi negizida inson va tabiat munosabatlari tizimidagi ijobiy yoki salbiy hatti-harakatlar ko'laminin oqibati bamisli bumerang kabi. "Salomga yarasha - alik" deganlaridek, munosabat parametrlar hamisha simmetrik, parallel, yondoshlikka taqozolanganligini tasdiqlaydi.

Demochimizki, inson tomonidan tabiatga nisbatan qilinayotgan har bir hatti-harakat javobsiz emas. Zero, sado va aks sadoni, ichki niyat - tashqi munosabatlar tizimini vujudga keltiradi. Ichki va tashqi munosabatlar chastotasi bir-biriga mos, muvofiq bo'lmog'i uchun inson avvalo o'zini hamda tabiat bilan o'z munosabatlari kechikmasdan mutloq ekologik sog'lom yo'lda ko'rmog'i kerak. Bu inson va tabiatni o'zaro uyg'unligini qayta vujudga kelishiga, me'yoriy muvozanatli yondoshuvga imkoniyatlar eshigini ochadi.

Zero, bugun inson va tabiat munosabatlarini oqilonalik asosida tartibga solish zaruriyatidir. Meteorologik prognoz bashoratlari - zaminda iqlimiy o'zgarishlar ro'y berayotganligidan, bu iqlimiy o'zgarishlarni ekologiyaga tahdidli zarbalaridan insoniyatni ogoh etmoqda. Bu esa, ekologik tahdidlar zarbalarini yumshatishda himoya amortizatorga ehtiyojni oshirmoqda va oqilona tadbir, choralarni o'z vaqtida ko'rishga undamoqda. Bunda ekologik innovatsiyalar, zamonaviy sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ham keng foydalanish bugungi qadriyatlar tizimida muhim o'rin egallamog'i zaruriyatga aylanmoqda.

Ayni damda gidrometeorologiya - ob-havoni oldindan sinoptik prognozlash, xaritasini tuzish, meteorologik byulletenlar nashr qilish, efirga oldinroq uzatish kabilar odamlarni tabiiy o'zgarishlardan erta ogoh bo'lishida xalq xo'jaligi, dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, irrigatsiya kabi sohalarida mo'ljallarni barvaqt olishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bunda radiozonalar, radiolokatsiya usullari, meteorologik yo'ldoshlar, elektron hisoblash mashinalari, sun'iy yo'ldoshlarni ahamiyati katta. Ilm-fan yutuqlariga uning ekologik voqelikdagi muhim xulosalariga tayanib ish tutish hamisha muhim ahamiyatga ega. Zero, tabiat shunchaki haybarakachilik, mavsumbozlik, safsatabozlik, ekologik ijtimoiy sabotajlarni, shunchaki foydasiz harakatlarni, sifatsiz reja va tadbirlarni, simmetrik emas asimmetrik bir-biriga mos kelmagan noteng muvozanatlarni xushlamaydi va ko'tarmaydi. Zeroki, "Tabiat" va "Jamiyat" o'zaro dialektik birlikda bo'lib, ular doimo bir-biriga ta'sir o'tkazadi[4]. O'zaro muvozanat izdan chiqsa atrof-muhit bilan normal munosabatlarga putur yetadi, ekologiya buziladi va bundan birinchi navbatda inson zarar ko'radi, salomatchilik, sog'lom

turmush xatar ostida qoladi. Ekologiya, ekologik qonuniyatlariga zid holatlarni rivojlanish tarixiga nazar solsak atrof-muhit holatining ko'p o'rinlarda o'zimiz, ya'ni insonlar, tomonidan noqulay holatga keltirilgani achchiq haqiqat ekanligi ayyonlashadi.

Bunda inson-tabiat-jamiyat o'rtasidagi uyg'unlik, mutanosiblikni buzilishi, insonlarning xo'jasizlaracha faoliyati, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish, qandaydir balandparvoz amaliy hayotdan yiroq planlar (masalan paxta plani kabi) ortidan quvish, tabiat qonunlarini mensimaslik yoki bilmaslik, ekologik qoidalarga rioya qilmaslik, iqtisodiy rivojlanishda ekologik talablarni to'liq inobatga olmaslik kabilar tabiiy ekologik holat muvozanatni izdan chiqishiga va buzilishiga omil bo'lib xizmat qildi. Olamni va odamni kelajagini asrash, ekologik barqarorlikni ta'minlash, turli ekologik xatarlarni barvaqt oldini olish, iqlimiy va noodatiy fasliy o'zgarishlarga tayyor turish, yechim topish, ekologik buzilish tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli epidemiyalar va kasalliklarga qarshi kurashish, ekotizimlarni tiklash kabilar J.T. Xolmo'minov, N.B. Shoimov, O.A. Kamalov va boshqa olimlar keltirganidek, o'z yechimini kutib turgan global muammo bo'lib qoldi[5].

Mustaqillik bois, mamlakatimizda sobiq qaramlik davrida izdan chiqqan ekologik holatni yaxshilash, tiklash borasida muhim ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasining ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi o'nlab qonun hujjatlari qabul qilindi. Tabiiyki bu qonunlar tabiatni muhofaza etishda, tabiiy resurslarni asrashda beqiyos huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha "Harakatlar Dasturi" qabul qilindi. Bular o'z navbatida aholi yashash uchun qulay ekologik shart-sharoitlarini yaratishda, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda, iqtisodiyot tarmoqlarini ekologizatsiyalashtirishda, texnik va texnologik jarayonlarni takomillashtirishga, sanoat va mayishi chiqindilarini zararsizlantirishga, atrof-muhit ifloslanishini oldini olishga, ekologik ta'lim, madaniyatni rivojlantirishga, tabiatni muhofazasiga doir qonunchilikni va me'yoriy uslubiy bazani rivojlantirishga, mintaqaviy, transchegaraviy tabiiy muhit ifloslanishini oldini olishda, bu borada mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabilar muhim omil bo'ldi[6].

Mazkur mavzu doirasida shuni alohida ta'kidlash kerakki, avvalo, Yerda hayotning mavjudligini o'zi buyuk mo'jiza. Boshqa sayyoralarda shu paytgacha hali inson yashashi uchun qulay hayot izlari aniqlangan emas[7]. Bu esa, bizni yanada Ona tabiat tabiiyligini asrashga, mulkiy munosabatlarda oqilonalik bilan ish tutishga, biosferani saqlab qolishga, inson o'z faoliyatini ekologik qoidalarga moslashtirishga, kishilarda va ayniqsa yosh avlodda ekologik madaniyat, ma'rifat, bilim, huquqiy savodxonligini oshirishga va ekologik tarbiyasiga yanada ko'proq e'tibor qaratishni talab etadi. Zero, tabiat fasllarning o'z vaqtida bo'lmasligi, fasllariga xos bo'lmagan anomallik, chang bo'ronlari, namlik darajasini keskin kamayib borishi kabilar Yer iqlim xaritasida tub o'zgarishlar sodir bo'layotganligidan daraklar bermoqdaki, bular yuzaga kelishida insonni ham hissiya borligini aslo unutmash kerak. Umuman, bundan bu yog'iga tabiat bilan murosa qilmasak va uning ovozigacha quloq tutmasak oqibati yanada ayanchli tus olishi hech gap emas[8]. Chunki birgina atmosfera havosi sifatini pastligi nafaqat ekologiya balki aholi salomatligiga, kayfiyatiga, ijtimoiy holatiga, turmush tarziga, hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ba'zan tabiatdagi anomallikni oldindan bashorat qilib bo'lmay qoladi. Vaholanki, zamin atmosferasida sodir bo'layotgan ob-havo o'zgarishlarini deylikki yog'ingarchilik, qirg'oqchilik, shamol, harorat kabilar zamonaviy klimatologiya ya'ni iqlimshunoslik, sinoptik meteorologiya ya'ni ob-havoni prognozlash, atmosfera

fizikasi, kimyo atmosferasi, biometeorologiya, gidrometeorologiya kabilar muntazam o'rganadi.

Natijalar va muhokama. Ma'lumotlarga ko'ra Respublikamizda eng katta chang bo'roni 1970 yilda sodir bo'lib, 6 soat davom etgan bo'lsa, oradan qancha yillar o'tib, 2021 yilda necha kunlab davom etgan chang bo'roni kuzatildi. Shuningdek, 2025 yil noyabr oyining o'rtalarida yana qaytalandi. 2025 yil 24 noyabr kuni Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonni imzoladi va poytaxtda mikroiklim barqarorligini ta'minlash bo'yicha yirik loyihalar boshlanadi.

Ekologik muhitni asrashga, sog'lomligiga qaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar insonni tabiat bilan munosabatlarini oqilona barometridir. Zero, ular shuncha tasodifiy topilmalar emas, balki ular insoniyatning ko'p ming yillik mashaqqatli izlanishlari, tajribalarini eng sara mahsuli bo'lib, ular odamzotni tabiatga mulkiy munosabatlarini tartibga solishga, ehtiyotkorona mas'uliyatli yondoshishiga, tejab-tergab foydalanishiga, birorta biologik turni zotini quritmaslikka, tabiatdan birini olsa uni o'rniga qo'yishga, birini kessa - yuzini ekishga hamisha da'vat etadi va shu orqali insoniyatni ma'naviy kamolotga chorlaydi.

Mumtoz milliy ekologik qadriyatlar insonni tabiatga bo'lgan munosabatlarini yaxshilashga, ekologik barqaror muhitni asrashga, tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lishga, unga uyg'un, oshno, sirdosh bo'lishga, fahm-farosat, aqlu donishlik bilan ish tutishga, xatti-harakat oqibatlarini his qilishga, zamin tabiati oldidagi ma'naviy mas'uliyatga, axloqiy poklikka, mehr-muhabbatga, rahim-shavqatga, nafsga hay berish kabi kamolotga chorlaydi hamda allaqachon darz ketgan inson va tabiat munosabatlarini normallashtirishga, yangicha sog'lom munosabatlar erasi va renessansni vujudga keltirishga, tiklashga, uyg'otishga tom ma'noda beminnat ko'mak beradi va xizmat qiladi. Shaksizki, insonning jismoniy va tafakkuriy erkinligi hamisha uning imkoniyatlarini, benazir iste'dodini yuzaga chiqaradi. Biroq, ekologik voqeilikda inson o'z erkinligini suiste'mol qilishi, inson-tabiat munosabatlarini buzilishga, xo'jasizlik, surbetlik, xudbinlik, tabiatga uning mulkiga nisbatan zo'rvonlik, talonchilik, yulg'uchlik, manmanlik, o'z tabiatidan begonalashish kabi ma'naviy qashshoqlikka olib keladi.

Axborot-texnologiyalarini misilsiz rivojlanishi yangi axborot maydonlari internet va ijtimoiy tarmoqlarni vujudga keltirishi barobarida ijtimoiy ongning muhim shakli bo'lgan ekologik ongga, mumtoz ekologik qadriyatlar olamiga ham u o'zini salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Ekologik odob-axloq, xulq-atvor me'yorlari va mo'ljallarida ham muayyan

o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Tabiatdan ekologik toza, kamyob mahsulotlarni tezroq yulib ko'proq daromad, foyda olish, boyib ketish ilinji, pulga va boylikka to'yimaslik xirsi kabilar sabru qanoat qanotini qayirib inson- tabiat munosabatlariga putur yetkazmoqda. Ko'rinadiki, global ekologik tanglikni, uni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishda ekologik qadriyatlarga bo'lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Yangi O'zbekiston milliy va umumbashariy ekologik qadriyatlarga tayanib tabiat tabiiyligini asrash borasida asrlarga tatigulik ulkan ezgu ishlarni amalga oshirmoqda.

Mamlakatimizda ekologik holatni yaxshilash, aholiga qulay ekologik shart-sharoitni yaratish borasida misilsiz ishlar haqida fikr yuritganimizda Orol dengizining qurigan tubida yashil maydonlarni 2026 yil yakuniga qadar 2,5 million gektarga yoki hududning 78 foiziga yetkazish, shuningdek 300 million AQSH dollari qiymatidagi loyihalarni amalga oshirish, shahar va tuman markazlarida har 50 -100 ming aholi uchun "jamoat parklari"ni tashkil etish, Orolbo'yi mintaqasida yashovchi aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, yurtimizda o'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'llanishga qarshi kurashish, tomchilatib sug'orish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida har yil kamida 200 million tup daraxt ekish, maishiy chiqindilarni yig'ish, qayta ishlash, Toshkent shahri ekologik holatini yaxshilash, tog' va tog' oldi hududlari o'rmon plantatsiyalarini barpo qilish, cho'l hududlarida o'simliklarni ko'paytirish, hududlarda himoya o'rmonzorlari barpo etish, sug'oriladigan yerlarni eroziyadan va melioratsiya ob'yektlarini qum ko'chishidan saqlash uchun ixota daraxtzorlarini barpo etish[9] kabilar va boshqalar shular sirasidandir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, 2025 yil o'zida Ekologiya va turizm sohasida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida 19.11.2025 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida 19.11.2025 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida bu borada belgilangan ishlar, O'zbekistonda 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot yili" doirasida amalga oshirilgan miqyosi ulkan ishlar va boshqalar ham shular jumlasidandir. Zero, Muxtaram Prezidentimiz keltirganlaridek: "Biz Yangi O'zbekistonni yetuk ma'naviyatli jamiyat, erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantirishimiz lozim"[10].

ADABIYOTLAR

1. Шермухамедова Н.А. Фалсафа электрон дарслик. <http://portal.nuu.uz/fed/img/banner.jpg>
2. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-r/rezonans-uz/>
3. <https://www.google.com/search?>
4. Курилиш экологияси фанидан маърузалар матни. -Наманган, 2023. <https://api.ziyounet.uz>
5. Экология: Дарслик / Ж.Т. Холмўминов, Н.Б. Шоимов, О.А. Камалов, О.Ж. Холмўминов. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2013. – Б.3.
6. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2013.– № 22. – 282-м.
7. Турсунов Ҳ.Т., Раҳимова Т.У. Экология. Ўқув қўл. – Т.: S.I.: Chinor ENK, 2006.-Б.8
8. Саида Рустам қизи. <https://www.ekogazeta.uz/xabarlar>.
9. 2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144
10. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 2021. –Б. 274



UDK. 1(4) 821.161.2

Feruza XUDJAQULOVA,
Navoiy davlat universiteti katta o‘qituvchisi, PhD
E-mail: xudjaqulova87@mail.ru

SamDCHTI professori, f.f.d O.G‘aybullayev taqrizi asosida

JALOLIDDIN RUMIY VA ALISHER NAVOIY FALSAFIY G‘OYALARIDAGI UMUMIYLIKLAR TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Jaloliddin Rumi va Alisher Navoiy g‘oyalaridagi umumiylik jihatlari tahlil etilgan bo‘lib, ularning har ikkalasining ham falsafiy-irfoniy qarashlarida, hayot yo‘llarida va ijodiy kamolotida bir qator bog‘liqlik, umumiyliklar yoritib berilgan. Shuningdek, Sharqning buyuk zabardast mutafakkirlaridan hisoblanmish Jaloliddin Rumi va Alisher Navoiylarning tasavvuf olamidagi maqei beqiyosligi falsafiy jihatdan dalillangan.

Kalit so‘zlar: Irfon, tasavvuf, ruhiy kamolot, ma‘rifat, madaniyat, falsafiy tahlil, g‘oya.

АНАЛИЗ ОБЩЕГО ЗНАЧЕНИЯ В ФИЛОСОФСКИХ ИДЕЯХ ДЖАЛАЛИДДИНА РУМИ И АЛИШЕРА НАВАИ

Аннотация

В статье анализируются общие черты в идеях Джалалуддина Руми и Алишера Навои, выделяется ряд связей и общих черт в философских и мистических взглядах, жизненном пути и творческом развитии обоих. Философски доказано и непревзойденное положение Джалалуддина Руми и Алишера Навои, считающихся одними из величайших и влиятельных мыслителей Востока, в мире суфизма.

Ключевые слова: Мистицизм, мистицизм, духовное совершенство, просветление, просвещение, культура, философский анализ, идея.

ANALYSIS OF COMMON RELEVANCE IN THE PHILOSOPHICAL IDEAS OF JALALIDDIN RUMI AND ALISHER NAVAI

Annotation

This article analyzes the commonalities in the ideas of Jalaluddin Rumi and Alisher Navoi, highlighting a number of connections and commonalities in the philosophical and mystical views, life paths, and creative development of both of them. The unparalleled position of Jalaluddin Rumi and Alisher Navoi, considered to be among the great and influential thinkers of the East, in the world of Sufism has also been philosophically proven.

Key words: Mysticism, mysticism, spiritual perfection, enlightenment, culture, philosophical analysis, idea.

Kirish. Mamlakatimizda buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy merosini o‘rganish, ularning noyob qo‘lyozma asarlarini tadqiq va targ‘ib etish, yoshlarimizni ezgu an‘analarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash ishlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda: “mamlakatimizda “jaholatga qarshi-ma‘rifat” degan ezgu g‘oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do‘stlik kabi oliyjanob maqsadlarga xizmat qilishini targ‘ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo‘lib qoladi”. Shu nuqtai nazardan, islom falsafasi taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan mutafakkirlarning, xususan, Jaloliddin Rumi va Alisher Navoiyning insoniyatni sog‘lom e‘tiqod hamda osoyishtalikka, ma‘naviy-axloqiy jihatdan yetuklikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatuvchi gumanistik g‘oyalarining mazmun-mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumiyaning falsafa qarashlaridagi umumiyliklarni tadqiq qilishda Sharq va G‘arb olimlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ikki buyuk mutafakkirlar ijodida insonparvarlik, ilohiyotshunoslik, axloqiy qadriyatlar va sufiylik oqimining ta‘siri yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu tadqiqotchilar ishlarining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iboratdir:

Insonparvarlik g‘oyalarining yoritilishi. Sharq tadqiqotchisi Ahmad Abdulhamid Al-Faruqi o‘z asarlarida Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumiyaning insonparvarlik g‘oyalarini ochib bergan. U ikkala shoirning ijodida insonning qadr-qimmatini, insonparvarlikning asoslarini belgilab beruvchi qadriyatlarni ko‘radi. Shoirlar insonga bo‘lgan muhabbat, boshqalarga bo‘lgan xayrixohlikni targ‘ib qilganliklari alohida ta‘kidlanadi.

Al-Faruqi: “Navoiy va Rumi insonparvarlik g‘oyalariga e‘tibor qaratgan bo‘lib, ular o‘z asarlarida insonning ma‘naviy kamolotini ko‘rsatuvchi falsafani shakllantirganlar”.

G‘arb tadqiqotchisi Annemarie Schimmel ham o‘zining asarlarida birida Navoiy va Rumiyaning ijodidagi insonparvarlik g‘oyasini ta‘kidlagan. Uning fikricha, ikki buyuk alloma odamlarning ichki dunyosi, ruhiy dunyosini o‘rganishga katta e‘tibor berganlar.

Schimmel: “Ikki ijodkor o‘z asarlarida inson qalbining nozikliklarini chuqur tahlil etganlar.”

Ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishlar. O‘rta Osiyo tadqiqotchisi O‘tkir Hamdam o‘zining maqolalarida Navoiy va Rumiyaning ma‘naviyat haqidagi qarashlarini o‘rgangan. Hamdam ta‘kidlashicha, Navoiyning "Hayrat ul-abror" asarida sufiylik ta‘limoti orqali ma‘naviy tarbiya masalalari ko‘rib

chiqilgan. Xuddi shunday, Rumiyning "Masnaviy" asari ham ruhiy kamolot yo'lini ifodalaydi.

Hamdam: "Hikmatli so'zlar orqali ishq, ishonch, xokisorlik singari tushunchalarni ochib berishga erishgan."

Biroq g'arblik tadqiqotchi William Chittick, o'zining asarlarida Rumiyl falsafasidagi ruhoniylar ta'birini ajratib ko'rsatgan. Unga ko'ra, ikki shoir insonni haqiqatni anglash va ma'naviy yuksalishni maqsad qilib qo'yishgan.

Chittick: "Rumiyning asarlarida ruhiy kamolot yo'llarini anglatuvchi alomatlar ko'p uchraydi".

Ilm va e'tiqod o'rtasidagi uyg'unlik. Sharq olimi Zohidxon Gulomov o'zining ilmiy ishlarida Navoiy va Rumiyning tasavvufiy ta'limotidagi qarashlarini solishtirgan. Unga ko'ra, ikkalasi ham ilohiyotshunoslik va ilm sohasidagi qarashlarni o'zaro bog'lashni targ'ib qilishgan.

Gulomov: "E'tiqod va ilm o'rtasidagi uyg'unlikda ularni yuksak ma'naviyatga yetaklovchi vositaga aylantirgan."

Shuningdek, g'arblik tadqiqotchi Seyyed Hossein Nasr ham ikki muallif falsafasidagi tasavvufiy yo'nalishlarni tahlil qilgan. Unga ko'ra, Navoiy va Rumiyl asarlarida Allohga yaqinlashish yo'lidagi intilish ko'zga tashlanadi.

Nasr: "Sufizm oqimidan ilhomlanib, insonning qalbini anglashga qaratilgan fikrlar ma'lum bo'lsa-da, ilohiyotshunoslikka asoslangan qarashlar ularga o'ziga xos uslub bag'ishlaydi".

Axloqiy qadriyatlar sifatida foydalanish. O'zbek olimi Erkin A'zamovning asarlarida Navoiy va Rumiyning axloqiy qarashlari alohida o'rin egallaydi. Uning ta'kidlashicha, ikkala ijodkor ham o'z asarlarida insonning yaxshilik, sadoqat, xokisorlik kabi fazilatlarini ko'tarib keladi.

Hozirgi kunda jahon afkor ommasi tomonidan muazzam Sharqning bir qator ijodkorlari ijodini o'rganish, qiyosiy tahlil etish va ularning falsafiy qarashlaridagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan tanishishga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Xususan, Abu Rayhon Beruniy, Abu ali Ibn Sino, Jaloliddin Rumiyl, Sa'diy Sheroziy va Alisher Navoiy kabi yetuk daholarning ma'naviy merosi jahonning durdona asarlari sirasiga kiritilmoqda. Xususan, Alisher Navoiy shaxsiga qiziqish, ijodini o'rganishga bo'lgan ishtiyiq necha asrlardan buyon insoniyatni unga bag'ishlab yangidan-yangi asarlar, ilmiy va ommabop risolalar, she'ru-dostonlar bitishiga sabab bo'lmoqda. Alisher Navoiy buyuk mutafakkir va davlat arbobi sifatida bir qator sara asarlari bilan fanning barcha sohalari taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shdi. Uning har bir asarlarida falsafa va tasavvuf namoyandalari haqida qimmatli fikrlar hamda ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.

Sharqning buyuk zabardast mutafakkirlaridan hisoblanmish Jaloliddin Rumiyl va Alisher Navoiylarning tasavvuf olamidagi ma'qei beqiyosdir. Ularning har ikkalasining ham falsafiy-irfoniy qarashlarida, hayot yo'llarida va ijodiy kamolotida bir qator mushtarakliklarni ko'rishimiz mumkin. Avvalo, har ikkala allomaning shajarasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning har biri toza palaklarda tub yozganligiga guvoh bo'lamiz. Jaloliddin Rumiyning ota nasabi Hazrat Abu Bakr Siddiq (r.a.)ga, ona nasabi esa payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga borib taqalishi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Alisher Navoiyning ota nasabi Amir Temurga borib bog'lanadi. Uning bobosi Amir Temurning o'g'li Umarshayx Mirzo bilan ko'kaldosh bo'lgan. Demak, har ikkalasi ham buyuklar avlodidandir.

Bu ikkala allomaning hayot yo'llaridagi mushtaraklik shundaki, Jaloliddin Rumiyning ham, Alisher Navoiyning ham otasi o'z vaqtida shoh saroyiga yaqin va xos kishilardan bo'lgan. Jaloliddin Rumiyning otasi Bahovuddin Valad Muhammad Xorazmshoh saroyida obro'li va saroyning yaqin kishilaridan edi. Bu esa bevosita uning farzandlari yosh

Jaloliddin va A'loiddinga yaxshi ta'lim-tarbiya olish hamda alohida e'tibor bilan ulg'ayishiga zamin yaratgan. Xuddi shunday, Alisher Navoiyning otasi Muhammad G'iyosiddin ham temuriylar saroyi amaldorlaridan bo'lgan. Shu sababli, Alisher Navoiyda ham yaxshi ta'lim-tarbiya olish, alohida e'tibor bilan ulg'ayishi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lgan. Ko'pgina manbalarda keltirilishicha, Jaloliddin Rumiyl 5-6 yoshlarida savodini chiqaradi, o'tkir zehni, noyob qobiliyati bilan ko'pchilikning e'tiborini qozonadi. Alisher Navoiy ham juda yoshligidanoq, ya'ni, 3-4 yoshlarida savod chiqarganligi, o'tkir zehni va iste'dodli bo'lganligi, o'z davrining mashhur shoirlari she'rlaridan, jumladan, o'sha davrlardayoq Jaloliddin Rumiyning "ramali musaddas" vaznida bitilgan masnaviylarini o'qib-o'rganganligi haqida o'zining mashhur "Majolis un-nafois" asarida ma'umot beradi.

Shuningdek, bu mutafakkirlarning kelajakda yetuk va zabardast siymolar bo'lib yetishishlari juda yoshligidanoq o'z zamonasining valiyolari tomonidan bashorat qilinadi. Jaloliddin Rumiyl buyuk Farididdin Attor bilan uchrashganida 14 yoshda edi. Shoir Bahovuddin Valadga qarata: "O'g'lingiz tez orada olamdagi barcha kuyganlar qalbiga otash soladi", deya ilohiy bashorat qilganligi Husomitdin Chalabiydan tortib Davlatshoh Samarqandiy asarlarida ham qayd etilgan. Alisher Navoiyning ham kelajakda yetuk zot bo'lib kamol topishi o'z davrining mashhur zotlari tomonidan ko'p bora e'tirof etilganligi haqida uning tarjimai holida ham ma'lumotlar berilgan. Jaloliddin Rumiyl ham, Alisher Navoiyl ham buyuk tasavvuf alomasi Fariddin Attorni o'zlariga ma'naviy ustoz deb bilishgan. Ikkalasining ham ijodiy kamolotida Fariddin Attorning ta'siri juda katta hisoblanadi. Jaloliddin Rumiyl Fariddin Attorning "Asrornoma" asarini umr bo'yi o'ziga hamroh qilgan bo'lsa, Alisher Navoiyl Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asaridan bir dam ayro tushmagan. Jaloliddin Rumiyning mashhur "Masnaviyi ma'naviy" asarida Fariddin Attor shaxsi shunday e'tirof etiladi:

Gardi Attor gasht Mavlono,

Sharbat az dasti Shams budam no'sh.

Mazmuni: Mavlono Attor atrofida aylanib yurdi, ammo sharbatni Shams Tabriziy qo'ldan ichdi.

Jaloliddin Rumiyl Fariddin Attorning "Asrornoma" asaridan qattiq ta'sirlangan va bu ta'sir kuchi uning falsafiy-irfoniy qarashlarida ham o'z aksini topgan. Alisher Navoiyl esa Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asari ta'sirida o'zining "Lison ut-tayr" asarini yaratgan. Jaloliddin Rumiyl ham, Alisher Navoiyl ham fors tilini juda chuqur bilishgan va bu tilda samarali ijod qilishgan. Forsiy Qur'on deb e'tirof etiladigan "Masnaviyi ma'naviy" va deyarli barcha asarlarini Mavlono fors tilida yaratgan. Alisher Navoiyl esa "Devoni Foniyl" deb nomlangan forscha g'azallar devoni va "Sittai zaruriya", "Fusuli arbaa" nomli forscha qasidalar to'plamini yaratganligi barchamizga ma'lum.

Jaloliddin Rumiyning "Maktubot" asarida Mavlono o'z zamondoshlari bilan turli payt va hududda yozilgan yozishma maktublarini jamlagan bo'lsa, Alisher Navoiyl ham o'z zamondoshlari, saroy va ilm ahli vakillari bilan yozishmalarini jamlagan holda "Munshaot" asariga tartib bergan. Bundan ko'rinadiki, har ikkala ijodkor ham maktubot janrida samarali ijod qilib, alohida asar bitishgan.

Sharqda "Layli va Majnun" dostoni sujeti asosida bir qancha asarlar, hikoyat va rivoyatlar yaratilganligi barchamizga ma'lum. Jaloliddin Rumiyl o'zining "Masnaviyi ma'naviy" asarining birinchi daftarida "Xalifa Laylining ko'rgani hikoyati", uchinchi daftarida "Majnun Layli uyida yurgan itni o'pib erkalagani", to'rtinchi daftarida "Aqlning nafs ila jangi Majnunning nortuya ila olishuviga o'xshaydi" hikoyati, beshinchi daftarida "Majnunning xesh-aqrolari unga Layli u qadar go'zal emas. Shahrimizda undanda ortiqroq go'zallar bor,

bir nechtasini ko‘rsataylik, o‘zing tanlab ol, o‘zingni ham qutqar, bizni ham deyishlari. Majnunning ularga javob bergani” kabi bir qator hikoyatlarida Layli va Majnun o‘rtasidagi munosabat va mojarolarga to‘xtalib, yuqorida qayd etilgan doston motivlari asosida qisqa-qisqa hikoyatlar qayd etilgan. Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridagi 3 dostoni “Layli va Majnun” haqida bitilgan. Alisher Navoiy Jaloliddin Rumiyan farqli o‘laroq Layli va Majnun haqida 1484 yilda katta hajmli doston yaratgan.

Jaloliddin Rumi va Alisher Navoiy ma’naviy merosini tadqiq etar ekanmiz, ularning asarlarida keltirilgan syujetlarda ham mantiqiy bog‘liqlik, izdoshlik an’analari borligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, Jaloliddin Rumiyaning “Masnaviy ma’naviy” asarini 3-daftarida “Filning shaklu-shamoyili haqida ixtilof etishgani” hikoyati keltirilgan. Xuddi shu hikoyatni Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonining “Ma’rifat vodiysining vafsi” maqolatida “Ko‘rlar va fil” hikoyati nomi bilan keltirgan. Alisher Navoiy o‘zining “Nasoyim ul-muhabbat” asarida 700 dan ortiq so‘fiylar va

tasavvuf namoyandalari haqida ma’lumot berar ekan, Jaloliddin Rumiyan hayotiga, ijodiga doir ko‘pgina muhim ma’lumotlarni keltirib o‘tgan.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida Jaloliddin Rumiyaning nafaqat shaxsi va ijodiga doir, balki uning falsafiy-tasavvufiy qarashlariga ham oid ma’lumotlarni keltirib o‘tib, shu orqali Mavloloning irfoniy fikrlariga ba’zi o‘rinlarda ishtibohlar bog‘laydi. Bir o‘rinda Navoiy shunday yozadi: “Alar der emishlar, men bu jism emasmanki, oshiqlar nazarida maning kalomimdan bosh urar. Alloh, Alloh chun ul damni totsang, g‘animat tut va shukr qilki, ul mendurmen”.

Xulosa. Alisher Navoiyning Jaloliddin Rumiyan ijodiga, uning orifona fikrlariga va tasavvufiy-irfoniy qarashlariga chuqur ehtiromda bo‘lganligini uning bir qator asarlarida uchratishimiz mumkin. Bu esa Navoiyning jahon sahnidagi durdona asarlari yaratilishida, teran falsafiy fikrlari va dunyoqarashi shakllanishida Mavlono Jaloliddin Rumiyaning ta’siri sezilarli ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B.43.
2. Jaloliddin Rumiyan. Ichindagi ichindadur. Mohiyat kashshofi. U.Hamdani tarjimai. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B.9.
3. Jaloliddin Rumiyan. Masnaviyi ma’naviy. Jamol Kamol tarjimai. – Toshkent: MERIYUS, 2010. 2-daftar.
4. Маснавий маънави. Аз рўйи нухайи Р.Никўлсин. Чопи даҳўм. – Техрон, 2002.
5. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – B.12.
6. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik, 10-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2011. – B.165.



Erkin CHO‘LIYEV,
Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, f.-m.f.n
E-mail: erkinamonovich@gmail.com

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti S.Yaxyoyeva taqrizi asosida

O‘QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA XALQARO TAJRIBALAR VA ULARNING AYRIM XUSUSIYATLARI

Аннотация

Mazkur maqolada o‘quvchilar bilimini baholash jarayonida xalqaro tajribalar tahlil qilingan. Xususan, PISA, TIMSS, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlari, ularning maqsadi, metodologiyasi va O‘zbekiston ta‘lim tizimiga ta‘siri haqida so‘z yuritilgan. Maqolada xorijiy tajribalar asosida baholash mezonlarini takomillashtirish, o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Baholash, xalqaro tajriba, PISA, TIMSS, PIRLS, savodxonlik, ta‘lim sifati.

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ОЦЕНКИ ОБРАЗОВАНИЯ УЧЕНИКОВ И ИХ СПЕЦИФИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК

Аннотация

В статье рассматривается международный опыт оценки знаний учащихся. Особое внимание уделено международным исследованиям, таким как PISA, TIMSS и PIRLS, их целям, методологии и влиянию на систему образования Узбекистана. На основе зарубежного опыта предложены рекомендации по совершенствованию критериев оценки и развитию функциональной грамотности учащихся.

Ключевые слова: Оценивание, международный опыт, PISA, TIMSS, PIRLS, грамотность, качество образования.

INTERNATIONAL EXPERIENCES IN ASSESSING STUDENTS' EDUCATION AND THEIR SPECIFIC FEATURES

Annotation

This article analyzes international practices in assessing students' knowledge. It focuses on global assessment programs such as PISA, TIMSS, and PIRLS, their objectives, methodologies, and the impact they have on Uzbekistan's education system. Based on foreign experience, the article proposes ways to improve assessment criteria and enhance students' functional literacy.

Key words: Assessment, international experience, PISA, TIMSS, PIRLS, literacy, education quality.

Kirish. Respublikamizda so‘nggi yillarda maktab ta‘lim tizimiga juda katta e‘tibor berilmoqda va xalqaro ta‘lim tajribalaridan samarali foydalanish an‘analari izchil davom etmoqda. Bugungi kunda ta‘lim tizimining samaradorligi o‘quvchilar bilimini baholashning sifatlil va adolatli mexanizmlariga bevosita bog‘liq. Jahon miqyosida o‘quvchilar bilimini baholashning zamonaviy yondashuvlari ta‘lim mazmunini takomillashtirish va o‘qitish jarayonini samarali tashkil etishda muhim omil hisoblanadi.

Mamlakatimiz innovatsion rivojlanish yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yoshlarni, ularning bilim va ko‘nikmalarini xorijiy ta‘lim standartlari asosida shakllantirish, zamonaviy, aniq mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir [1, 5]. Shu nuqtai-nazardan, xalqaro baholash dasturlari O‘zbekiston ta‘lim tizimining yanada rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni qiyosiy va har tomonlama tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

O‘quvchilarning bilimini baholashda xalqaro tajribalar bugungi kunda o‘quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Dunyoning turli mamlakatlarida ushbu sohada amalga

oshirilayotgan ishlar ko‘plab amaliy natijalarga ega bo‘lib kelmoqda. Quyida ba‘zi xalqaro amaliyotlar va ularning xususiyatlari haqida qisqacha ma‘lumot beramiz.

PISA (Programme for International Student Assessment)

Bu loyiha OECD tashkiloti tomonidan boshqariladi va 15 yoshli o‘quvchilarni turli fanlar bo‘yicha baholashga qaratilgan. PISA tadqiqotlari uchta asosiy yo‘nalishda o‘tkaziladi: matematika, tabiiy fanlar va o‘qish savodxonligi. Ushbu loyihaning maqsadi – davlatlarning ta‘lim tizimlarini taqqoslash va uning natijalarini tahlil qilish orqali samarali qaror qabul qilishga yordam berishdir.

TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study)

TIMSS loyihasi ham xuddi PISA singari, dunyo miqyosidagi ta‘lim tizimini baholashga mo‘ljallangan. Biroq, bu tadqiqot asosan matematik va tabiiy fanlarni qamrab oladi hamda umumiy o‘rta maktab darajasida o‘tkaziladi. Bu tadqiqotning ahamiyati shundaki, u davlatlararo taqqoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

PIAAC (Programme for the International Assessment of Adult Competencies)

PIAAC dasturi kattalar orasida ko‘nikmalar darajasini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu dastur yordamida mamlakatlardagi mehnat bozorlariga mos keladigan kadrlar tayyorlashni yaxshilashga harakat qilinadi.

Singapur tajribasi: Singapurdagi ta‘lim tizimi dunyodagi eng yuqori baholanganlardan biri hisoblanadi. O‘quvchilar nafaqat akademik bilimlarga ega bo‘lishadi, balki

ijodiy fikrlashga ham alohida e'tibor beriladi. Singapurda mustaqil o'rganishni rag'batlantirish uchun maxsus texnologiyalar keng qo'llaniladi.

Finlyandiya tajribasi: Finlyandiya ta'lim tizimiga alohida e'tibor beriladi. Bu yerda o'qituvchilar juda hurmatli kasb hisoblanib, ular chuqur tayyorgarlikdan o'tadilar. Shuningdek, o'quvchilarga shaxsiy yondashuv asosida ta'lim berish kabi metodikalarni qo'llash juda ommalashgan.

Yaponiya tajribasi: Yaponiyadagi ta'lim tizimi o'z navbatida yuqori sifatli natijalarga erishmoqda. Yaponiyada maktabda intizom va hamkorlik muhitiga katta ahamiyat beriladi. Bundan tashqari, bolalar doimiy ravishda jamoada ishlash va hamkorlikda muammolarni hal qilishni o'rganishadi.

AQSh tajribasi: AQShda o'quvchilar orasidagi raqobat muhitini shakllantirish asosiy tamoyillardan biridir. AQShdagi ta'lim tizimida talabalar odatda standartlashtirilgan testlar yordamida baholanadi. Biroq oxirgi yillarda AQSH hukumati zamonaviy usullarni joriy etishga e'tibor qaratmoqda.

Xalqaro tajribalarning asosiy maqsadi – har bir mamlakatda mavjud bo'lgan ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, global miqyosda salohiyatli mutaxassislar yetishtirib chiqish va inson kapitali rivojlanishiga hissa qo'shishdan iboratdir. Bunday loyihalar orqali davlatlarda aniq ko'rsatkichlar va trendlarni aniqlash mumkin bo'lib, kelajakdagi islohotlarni amalga oshirish uchun asos bo'ladi.

Shu tariqa, xalqaro tajriba mamlakatlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlaydi va ta'lim sohasidagi muammolar yechimini topish yo'lida muhim qadamlar tashlanadi.

Adabiyotlar tahlili. PISA (Programme for International Student Assessment) o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi bo'lib, dasturning asosiy maqsadi o'n besh yoshli o'quvchi yoshlarning o'qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini turli xil testlar ko'rinishida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o'quvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashlariga, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish qobiliyatlariga baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalarni rivojlantirishga undaydi [1, 2, 3].

Har uch yilda amalga oshiriladigan PISA dasturi unda qatnashayotgan mamlakatlarga ta'lim tizimi yutuq va kamchiliklari haqida o'z vaqtida axborot berish, tegishli dasturlarning ta'sirini tahlil qilish imkoniyatini yaratib, ta'lim siyosati sohasidagi qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlaydi.

PISA hech qanday o'quv dasturini belgilamaydi yoki targ'ib qilmaydi yoki umumiy e'tirof etishni taqozo etmaydi [1].

PISA tadqiqoti quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

□ ta'lim sohasidagi eng yirik, keng ko'lamli xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri sanaladi;

□ tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan 15 yoshli o'quvchilar ishtirok etadilar;

□ tadqiqotda o'quvchilarning "hayotga tayyorlik" darajasi, ya'ni ularning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalaridan hayot faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan

Quyidagi chizmaga qarang:

muammolarni hal etishda qay darajada foydalana olishlari baholanadi;

□ tadqiqotda o'quvchilarning matematika, o'qish (matnni tushunish), tabiiy fanlar yo'nalishdagi va global muammolarni hal etish sohasidagi funksional savodxonligi baholanadi;

□ tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradigan kontekst axborot to'planadi;

□ o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlari, shuningdek, turli mamlakatlarning ta'lim tizimlari haqidagi qiyosiy ma'lumotlarni olish.

Tadqiqot doirasi 15 yoshli o'quvchi yoshlar orasida o'tkazilishiga asosiy sabab, aksariyat Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IHTT) a'zo davlatlarda ushbu yosh majburiy ta'lim bosqichining yakuniy davri hisoblanadi.

PISA dasturining o'ziga xosligi PISA xalqaro baholash dasturi butun dunyoda keng qamrovli va muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan dastur sifatida o'ziga xos ahamiyatga ega.

PISA muayyan maktab o'quv dasturlarining ustunligini o'rganish o'rni, o'quvchilarning asosiy mavzularda bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish qobiliyati, muammolarni tahlil qilish, sharhlash va samarali hal qilish, fikrlash va muloqot qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi [2, 3, 4, 6].


TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) – xalqaro matematika va tabiiy fanlar bo'yicha tadqiqot bo'lib, 4- va 8-sinf o'quvchilarining bilim darajasini o'lchaydi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) – boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalarini baholovchi dastur.

PISA, TIMSS va PIRLS dasturlarining asosiy farqi eng avvalo ularning turli xil yosh va sinflar toifasida o'tkazilishidan iboratdir. Masalan, PISA o'n besh yoshli o'quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan bo'lsa, TIMSS esa muayyan yoshdagi o'quvchilarning emas, balki to'rtinchi va sakkizinchi sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini PIRLS esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalarini baholaydi. Shu bilan birga, TIMSS baholashlari o'quv dasturlariga asoslangan bo'lsa, PISA esa o'quvchilar egallagan bilim va ko'nikmalarini real muammolarni hal qila olishlarini baholashga qaratiladi. TIMSS aynan maktab bilimlarni o'zlashtirish darajalarini baholasa, PISA bilim va ko'nikmalarni maktabda, uyda va jamoatchilik orasida qo'llay olish darajalariga alohida e'tibor qaratadi. Shular bilan bir qatorda PIRLS dasturi ham maktab tal'limining ilk bosqichi bo'lgan boshlang'ich sinflarda o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirish va baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Baholash dasturlari mohiyatini yanada chuqurroq tasavvur qilish uchun matematika fanidan PISA baholash dasturida qo'llanilishi mumkin bo'lgan quyidagi testni namuna sifatida keltiramiz [1]:

Ulkan charxpalakning tashqi diametri 140 metrga, uning daryo tubidan to



cho'qqisigacha bo'lgan balandligi esa 150 metrga teng. U strelka yo'nalishi bo'ylab, rasmda tasvirlanganidek aylanadi.

1-savol. Charxpalakning markazi M bilan belgilangan.

Daryo tubidan charxpalakning markazi M gacha necha metr?

1-savolga berilgan javobning baholanishi

Savolning maqsadi:

Tavsifi: Ikki o'lovli tasvirdagi ma'lumotga tayanib, uzunlikni hisoblash.

Matematikaga oid mazmun sohasi: Fazo va shakl.

Kontekst: Ijtimoiy.

Aqliy faoliyat: Qo'llash.

2-savol. Quyida berilgan javoblarning qaysi biri to'g'ri?

Ferris charxpalagi doimiy tezlik bilan aylanadi. U taxminan 40 daqiqada bir marta to'liq aylanib chiqadi.

Jasur charxpalakning chiqish joyidan, charxpalakka o'tirdi. 30 daqiqadan so'ng Jasur charxpalakning qaysi nuqtasida bo'ladi?

R nuqtada

R va S nuqtadalar oralig'ida

S nuqtada

S va P nuqtadalar oralig'ida

2-savolga berilgan javobning baholanishi

Savolning maqsadi:

Tavsifi: Obyektning aylanishini va aylanishga sarflanadigan muayyan vaqtni inobatga olib, joylashuvni hisoblash.

Matematikaga oid mazmun sohasi: Fazo va shakl.

Kontekst: Ijtimoiy.

Aqliy faoliyat: Ifodalash.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xalqaro baholash dasturlarida asosiy e'tibor o'quvchilarning tayyor javoblarni emas, balki bilimni amaliy qo'llash, tahlil qilish, mantiqiy fikrlash kabi ko'nikmalarini aniqlashga qaratilgan. Bu esa

zamonaviy ta'limning kompetensiyaviy yondashuvini mustahkamlaydi.

Ta'lim tizimidagi islohotlar davomiyligi o'laroq O'zbekiston Respublikasi 2018 yildan boshlab xalqaro baholash dasturlarida faol ishtirok etib kelmoqda. 2022 yilda respublikamiz o'quvchilari ilk bor PISA tadqiqotida qatnashdi. Natijalar esa o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi [1]. Shu bois baholash tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, matematik bilimlarni xalqaro standartlar darajasiga integratsiya qilish maqsadida o'quvchi bilimi va mustaqil fikrlashini yanada takomillastiradigan, olinayotgan bilimlarni hayotiy masalalar bilan bog'lab chuqurroq o'rganishga mo'ljallangan yangi avlod darsliklari chop etilmoqda [5].

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlar asosida quyidagilarni taklif qilamiz:

O'qituvchilarning xalqaro baholash mezonlari bo'yicha malakasini oshirishga yanada chuqurroq e'tibor berish;

Baholash jarayonida testdan tashqari loyihaviy va ijodiy ishlarni ham inobatga olish;

O'quv dasturlarini PISA, TIMSS va PIRLS talablariga mos ravishda yangilab borish;

O'quvchilarni turli xil hayotiy misollar asosida tahliliy fikrlash va muammoni hal etish ko'nikmalariga yo'naltirish.

Xulosa. Xalqaro baholash tizimlari ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Respublikamiz uchun bu tajribalar ta'lim strategiyasini takomillashtirish, o'quv jarayonini zamonaviy kompetensiyalarga asoslashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'qituvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi (o'quv qo'llanma) Toshkent, 2019. 62 bet.
2. OECD. PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. OECD Publishing, Paris, 2022.
3. IEA. TIMSS 2019 International Results in Mathematics and Science. Boston College, 2020.
4. IEA. PIRLS 2021 Assessment Framework. 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish konsepsiyasi. Toshkent, 2023.
6. Karimov M. "O'quvchilar bilimini baholashda xalqaro tajribalar". Ta'lim va innovatsiya jurnali, №3, 2022. 45–52-betlar.



Vasila CHO'LIYEVA,
Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
E-mail: vasila2023@

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti S.Yaxyoyeva taqrizi asosida

JALOLIDDIN RUMIY ILMIY MEROSINING G'ARBDA O'RGANILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiyl ilmiy merosining G'arb olimlari tomonidan o'rganilishi va tadqiq etilishi masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, Mavlono Jaloliddin Rumiyl falsafasida ilgari surilgan tasavvufiy-so'fiyona g'oyalarning G'arb falsafasi taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri ham xususida so'z boradi. Jaloliddin Rumiyl ilmiy merosining G'arbda qanday o'rganilayotgani haqida ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Falsafa, tasavvuf, irfon, ma'naviy ustoz, pir, haqiqat, ma'rifat.

ИЗУЧЕНИЕ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ДЖАЛАЛИДДИНА РУМИИ НА ЗАПАДЕ

Аннотация

В статье дан научно-теоретический анализ изучения и исследования научного наследия Джалалуддина Руми западными учёными. Также рассматривается влияние мистико-суфийских идей, заложенных в философии Мевляны Джалалуддина Руми, на развитие западной философии. В статье анализируется информация о том, как на Западе изучается научное наследие Джалалуддина Руми.

Ключевые слова: Философия, мистицизм, мистицизм, духовный учитель, пир, истина, просветление.

THE STUDY OF JALALIDDIN RUMI'S SCIENTIFIC HERITAGE IN THE WEST

Annotation

This article provides a scientific and theoretical analysis of the study and research of the scientific heritage of Jalaluddin Rumi by Western scholars. It also discusses the influence of the mystical-Sufi ideas put forward in the philosophy of Mevlana Jalaluddin Rumi on the development of Western philosophy. Information on how the scientific heritage of Jalaluddin Rumi is being studied in the West is analyzed.

Key words: Philosophy, mysticism, mysticism, spiritual master, pir, truth, enlightenment.

Kirish. Ma'lumki, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda bir qator sohalar rivojida tub o'zgarishlar yuz berdi. Barcha sohalarida bo'lgani kabi xalqimiz ma'naviy hayotida ham yuksalish, ajdodlarimizning boy ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada o'zgardi. Shuni baralla aytish mumkinki, ma'naviyat sohasiga tegishli bo'lgan fanlarning metodologiyasi Sharq zaminida, musulmon olamida yaratilgan. Sharq allomalarining ratsionalistik qarashlarida aqliy va naqliy bilimlar uyg'unligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunday ma'naviy fanlar metodologiyasining sarchashmasi esa muqaddas Qur'oni Karim hamda muborak hadisi shariflarga borib taqalishi shubhasiz.

Sharq falsafasi rivojlanishi natijasida bir qator so'fiy shoirlar va faylasuflar yetishib chiqdi. Ularning durdona asarlari hamda boy ilmiy merosi o'z davrida ham, bugungi kunda ham bashariyatning intellektual mulki sifatida qadrlanib kelinadi. Mamlakatimizda ham buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosini o'rganish, allomalar shaxsi va ijodiga ehtiram ko'rsatish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ma'lumki, bizning mintaqamiz, avvalambor, bugungi O'zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi. Muhtaram ulamolar, imom-xatiblar, jamoatchilik vakillari bilan birga dinimiz tarixi, buyuk allomalar va aziz-avliyolarimiz merosini o'rganish va targ'ib etish bo'yicha boshlagan ishlarimizni davom ettirishimiz kerak".[5].

Darhaqiqat, buyuk allomalarimiz ilmiy merosini o'rganish va tadqiq etish bugungi kunda o'sib kelayotgan yosh

avlodni boy ma'naviy merosimizga hurmat ruhida tarbiyalashda asosiy omil hisoblanadi. 2017 yilning 24 mayida PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror imzolandi. Bu ham buyuk allomalarimiz ijodi va ilmiy merosini chuqurroq o'rganishimiz, teran anglashimiz, targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirishimiz uchun muhim asos hisoblanadi.

Barchamizga ayonki, Shayx Sa'diy, Ibn Arabiy, Nizomiy Ganjaviy, Hofiz Sheroziy, Jaloliddin Rumiyl kabi buyuk iste'dodli shaxslarning nomlari jahon madaniy xazinasini tarixida alohida e'tirof etiladi. Sharqning buyuk so'z ustalari hisoblanmish Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va Mirzo Bedillar Mavlono Jaloliddin Rumiyni o'zlariga ustoz deb bilishgan. Negaki, Rumiylning falsafasida ilgari surilgan so'fiyona mushohadalar o'z davrida ham, o'zidan keyingi va bugungi kunda ham insoniyatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir o'tkazib kelmoqda. G'azzoliy, Sanoiy, Attor va Rumiyl – ularning nomlarini faqatgina kelib chiqishi umumlashtirmaydi (ularning tug'ilgan va yashagan makoni Sharqiy Eronning Xuroson o'lkasi bilan bog'liq, tarixiy hududi bugungi kunda zamonaviy Eron, shuningdek, Afg'oniston chegaralari va O'rta Osiyo davlatlari), balki ular o'zlarining so'fiyona g'oyalari bilan tasavvufning Sharq an'analarga tegishli ta'limotlarini mash'aldek tartib bilan avlodlardan-avlodlarga uzatdilar. Ular orasida Mavlono Jaloliddin Rumiylning ijodi hamda falsafiy g'oyalari shu darajada yuksakki, mutasavvif ijodi bilan yaqindan tanishgan har qanday kishi inson va hayot falsafasi haqida yaxlit

tasavvurga ega bo'ladi. Uning boy ilmiy merosi hamda ijodi barcha zamonlarda va barcha kishilarda birdek qiziqish, hayrat uyg'otadi.

Mavloni Jaloliddin Muhammad ibn Bahovuddin Valad al-Balxiy Rumiy nomi bilan jahonga dong taratgan allomaning taxallusi borasida ham fan olamida bir qator gipotezalar mavjud. Mavloni tug'ilgan joyi nisbatiga ko'ra "Balxiy", do'sti Shams Tabriziy xotirasiga "Tabriziy" va yashash makoniga ko'ra "Rumiy" taxalluslari ostida ijod qildi. Bu nomlar orasida esa u ko'proq Rumiy taxallusi bilan mashhur bo'ldi. Asli Markaziy Osiyolik Jaloliddin Rumiy afg'onlar Balxiy, forslar Mavlaviy, turklar esa Rumiy deb ardoqlashadi. Bugungi kunda turli xalq va millatlar o'rtasida Rumiy shaxsi bo'yicha ko'plab bahs-munozaralar davom etmoqda. Eronliklar va turklar, arablar va afg'onlar orasida bo'layotgan bahslarning sababi ularning har biri Jaloliddin Rumiy bizning buyuk ajdodimizdir degan mavzu atrofida muzokaralar olib bormoqdalar. Arablarning da'vosiga ko'ra, Rumiyning ota-ona avlodi Muhammad (s.a.v.) va xalifa Abu Bakr shajarasiga borib taqaladi, shu bois, u arablar avlodidandir. Ularning bu da'vosi bo'yicha tarixiy argumentlar yetarli. Afg'onlarning da'volari ham birmuncha asosli dalillarga tayangan. Rumiy hozirgi Afg'onistonning Balx shahrida tug'ilgan va shunga nisbat bergan holda Balxiy taxallusi bilan ham ijod qilgan degan fikrni ilgari surmoqdalar. Shaxs va buyuk so'fiy shoir sifatida Jaloliddin Rumiy fors madaniy va adabiy an'analari tayangan holda asosan forsiy tilda ijod qilgan, uning deyarli barcha asarlari fors tilida yaratilganligi jihatidan eronliklar ham Rumiy bizning ajdodimizdir degan gipotezani ilgari suradilar. Jaloliddin Rumiy hayotining asosiy qismini Kichik Osiyoda, ya'ni Rumda o'tkazdi va shunga nisbat olgan holda Rumiy taxallusini olib, dunyo bo'yicha hozirda asarlari eng ko'p o'qiladigan va o'rganiladigan so'fiy shoir sifatida dong taratdi. Rumiy taxallusi uni umr bo'yi shu mamlakat tarixi va madaniyati bilan bog'lab turdi. U O'rta asrlardagi bir qator falsafiy oqimlarning taraqqiy etishiga ham sezilarli tarzda o'z ta'sirini o'tkazdi. Forsiyalar uni o'zlarining buyuk shoiri deb ataydilar, turklar esa turk adabiyotining asoschisi deb ulug'laydilar.

Jaloliddin Rumiy buyuk faylasuf sifatida o'ziga xos mustaqil falsafiy tizimga, ya'ni, inson falsafasiga asos soldi. Uning barcha asarlarining markazida Inson turadi. Mavloni Rumiyning boy ilmiy merosi va falsafiy g'oyalari nafaqat so'fiylik nazariyasi hamda falsafa ilmini o'rganayotganlarga, balki "Inson" deb atalmish mavjudotning mohiyatini anglashni istagan barcha o'quvchilar doirasi uchun ahamiyatlidir.

Jaloliddin Rumiy o'z asarlarida o'sha davrda musulmon olamida kam uchraydigan holatni, ya'ni Qur'oni Karim va hadisi shariflar tafsiriya tamsilini o'z davrining kishilari teranroq tushunishi uchun soddarroq tilda anglatishga harakat qildi. Biz Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy", "Ichindagi ichindadir", "Majolisi sab'a" kabi falsafiy asarlarini mutolaa qilar ekanmiz, ularda keltirilgan va'zlar, suhbatlar, diniy qarashlar va hikoyatlar orqali muqaddas Qur'oni Karim, hadisi shariflardagi oyatlar ma'nosini teranroq anglay boshlaymiz. Chunki mutasavvif asarlarida o'zining diniy va dunyoviy qarashlarini mohirlik bilan bir-biriga uyg'unlashtirgan holda o'z konsepsiyasini yarata olgan. Jaloliddin Rumiy Qur'oni Karim oyatlari allegorik ekanligini va inson Qur'onni 7 marta o'qib 7 xil tushunishini ta'kidlab o'tadi. Hindiston va Pokistonda istiqomat qiluvchi musulmonlar Jaloliddin Rumiy "Buyuk sirli muallim" deya sharaflyadilar. Jaloliddin Rumiyning tasavvufiy-irfoniy qarashlari va so'fiyona nazariyalari o'zidan keyingi ko'pgina tariqatlariga hamda adabiy-falsafiy maktablar ta'limoti rivojiga sezilarli ta'sir o'tkazdi. Rumiy g'oyalari G'arb madaniyati taraqqiyotiga ham ta'sir qildi, uning asarlari yuzasidan turkum

tarjimalar amalga oshirildi. Professor A.Arberri Jaloliddin Rumiy ijodini keng o'rgangan va unga "Rumiy aslida insoniyat tarixidagi eng sirli va buyuk shoirdir", deya ta'rif bergan. Jaloliddin Rumiy davrlar va zamonlarga ta'sir o'tkazib kelayotgan shoirdir, uning asarlari yillar o'tgan sayin go'yo yangilanib, umumjahoniy mazmun kasb etib borayotganday, u o'tmish emas, balki bus-butun kelajakdir, u hozir har qachongidan ham ko'proq dunyo kitobxonlarining diqqati va hurmatiga sazovor bo'lmoqda.[3.-B.182.]

Darhaqiqat, Mavloning mavqeini bugungi kunda Yevropada, xususan, AQShda Rumiy ijodiga bo'lgan qiziqish va uning ilmiy merosini tadqiq etish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilayotganligi misolida ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, atoqli tasavvufshunos olim Karl Ernst o'zining "Sufizm" kitobida mutasavvif haqida shunday yozadi: "Hozirgi davrda Rumiy va Hofizday ingliz tiliga eng ko'p tarjima qilingan va yuksak qadrlanadigan shoir yo'q. Boshqa birorta shoir ularga teng kelolmaydi... Bu shoirlarning asarlari G'arbda oddiy she'rdan ko'ra, muqaddas matnlarga aylanganday tuyuladi... Rumiy asarlari (u hozir AQShda eng ko'p o'qiladigan shoir) tarjimalari va sharhlari ko'pligi jihatidan Bibliya bilan baravar turadi". [2]. Fors faylasuf olimi Fatimeh Keshavarz Rumiy ijodi bilan tanisharkan, mutasavvif va o'quvchi o'rtasidagi ruhiy bog'liqlikni talqin etgan holda, Rumiy ijodini o'quvchilarga "mehmon uchun taniq taom" deb baholaydi. Atoqli sharqshunos olim Ye.A.Bertels esa: "Jaloliddin Rumiy ilmiy merosi bu sohada bashariy erishgan eng buyuk yutuqlardan biridir. Agar u G'arbda ilgariroq ma'lum bo'lganida hozirda uning nomi Shekspir, Gyote, Pushkin kabi buyuk daholar safida turishi shubhasiz edi", - deya qayd etadi. Yana bir sharqshunos olim Ram Dass: "Bizning safarimiz oxirida faqat Allohga qaytishni istaydigan jon bor. Bu holatga tashnalikni hech kim Rumiychalik to'la anglamagan", - deya Rumiyning ilohiyotga oid nazariyasini tadqiq etgan. Bu borada M.Tyulemisov esa allomaning diniy qarashlarini shunday talqin etgan: "Rumiy-o'zgacha mo'min. U bizga o'z "men"imizni anglatadigan va eslatadigan masallarning biroz xayolparast hikmatchisidir"[4].

Nemis olimi I.A.Ayzenshteyn o'z tadqiqotlarida asosiy e'tiborni ko'proq alloma shaxsiyatiga qaratgan va shunday yozgan: "...G'arb dunyosi ilm-fanida Jaloliddin Rumiy siyomosiga qiziqqan va uning siluetini tiklagan shaxs bu - Iogann Wolfgang Gyotedir".[4.-crp.4.] Shuningdek, I.A.Ayzenshteyn o'z tadqiqotlarida Jaloliddin Rumiyning ilmiy merosini ham tadqiq etgan holda, shunday deydi: "Biz o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, bitta shoirming o'rta asrlardagi bir yoki bir nechta turli falsafiy oqimlarga ta'siri bu oddiy hodisa. Jaloliddin Rumiy yaratgan mo'jaz hikoyalarning mistik qobig'ida ham hayot haqiqatining marvarid donalari mavjud"[1].

Biz Jaloliddin Rumiyning ilmiy merosi bilan tanishish barobarida falsafa fanining ham asosiy mavzularini teranroq anglay boshlaymiz: ontologiya – borliq haqidagi ta'limot ko'rinishida, Alloh va borliq haqida; gnoseologiya – haqiqat nima va uni anglash yo'llari haqida; antropologiya – insonning paydo bo'lishi, mohiyati, hayoti, o'z "Men"ini kashf qilishi; dialektika – me'yor, sabab va oqibat kategoriyalari haqidagi g'oyalari insoniyatni falsafiy mushohada yuritishga da'vat etadi.

Rumiyning asarlari birinchi marta XVIII asrda fransuz tiliga tarjima qilingan. Eng mashhur tarjimonlardan biri fransuz olimi Antuan Galland bo'lgan. Uning tarjimalari Rumiyning Yevropadagi tanilishiga katta ta'sir ko'rsatgan. XIX asrda nemis tilshunoslari Rumiyning asarlarini nemis tiliga o'girdilar. Ulardan eng mashhuri Fridrix Ruckertdir. U Jaloliddin Rumiyning „Masnaviy“ asaridan ayrim qismlarni tarjima qildi.

Ingliz tilida Rumiyning asarlari XX asrda keng tarqaldi. Eng taniqli tarjimonlardan biri Kolin Turnbull hisoblanadi. Uning Rumiyning she'rlariga bag'ishlangan kitobi „The Essential Rumi“ dunyo bo'ylab juda mashhur bo'ldi. Boshqa taniqli tarjimonlardan Andrew Harvey va Coleman Barksni ham qayd etish joiz.

G'arbda Rumiyl falsafasiga oid tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Uning falsafasida tasawwuf ta'limotining asosiy g'oyalari o'z ifodasini topgan. Bunda sevgi, ilohiylik, ruhiy rivojlanish kabi mavzular markaziy o'rin tutadi. G'arb olimlari Rumiyning asarlarida inson ruhining ichki dunyoga sayohat qilishini alohida ta'kidlaydilar.

Eng ko'zga ko'ringan tadqiqotchilardan biri amerikalik olim Reynhold Niklberg bo'lib, u Rumiyning falsafasidagi tasavvuf tushunchalarini zamonaviy psixologiyaga bog'lash ustida izlanishlar olib boradi. Shuningdek, amerikalik olimlar Jeyms Van der Meer va Djon Makdonaldlar ham Rumiyl ijodining ma'naviy jihatlarini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratishgan.

Hozirgi vaqtda Rumiyl asarlari G'arb madaniyatida o'ziga xos o'ringa ega. Uning she'rlari musiqiy konsertlarda, teatr spektakllarida, kino filmlarida ishlatilgan. Masalan, amerikalik qo'shiqchi Devid Darling o'zining albomida Rumiyl

she'rlaridan foydalangan. Bundan tashqari, ba'zi shoirlar Rumiyl uslubida she'rlar yozib, uning an'alariga rioya qilishgan.

Rumiyl asarlari bugungi kunda G'arb jamiyati tomonidan ma'naviy yuksalishning manbai sifatida qabul qilinmoqda. Uning asarlari G'arbda hali ham qiziqish uyg'otayotgan asosiy sabablaridan biri bu – ular orqali inson qalbining nozik jihatlarini ochib beruvchi chuqur falsafadir.

Ta'kidlash lozimki, Jaloliddin Rumiyl ilmiy merosining G'arbiy dunyoda o'rganilishi so'nggi yuz yillik ichida sezilarli darajada o'sdi. Uning asarlari Yevropa va Amerika tillarida keng tarjima qilindi va tahlil etildi. G'arb olimlari Rumiyning falsafasi, she'riyati va ma'naviyatiga e'tibor qaratishdi. Bugungi kunda Rumiyl asarlari G'arb madaniyati uchun noyob manba bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumiyning ijodini o'rganish, tadqiq etish bugungi kunda falsafa fani hamda falsafa tarixini chuqurroq o'rganishimizda asosiy mezonlardan hisoblanadi. Shuningdek, falsafa fanining asosiy bo'limlari bo'lmish ontologiya, gnoseologiya, dialektika, falsafiy antropologiya, germenivtika kabi sohalarni tushunishimiz va tushuntirishimizda ham alloma falsafiy qarashlarining ahamiyati g'oyat kattadir.

ADABIYOTLAR

1. Айзенштейн И.А. Тюркологический сборник. - М.:Наука, 1978.-стр.12.
2. Карл Эрнст. Суфизм. - М.:ФАИР-ПРЕСС, 2002.-стр.221-222.
3. Komilov N. Tafakkur karvonlari. - T.:Sharq, 2008. - B.182.
4. Тюлемисов М. Сокровища воспоминания.-М.:IIFDIASLTD, 1998.-стр.3.
5. Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 15 iyundagi "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusida o'tkazilgan anjumanda so'zlagan nutqidan.
6. Kholikov Y. O. The education of young people on the basis of a spiritual, moral and tolerant culture in the educational process //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2021. – T. 1. – №. 2. – C. 63-68.
7. Xoliqov Y. The role of ethics and education in the development of tolerance relations between uzbekistan and the nation in the process of development //International Conference on Problems of Improving Education and Science. – 2022. – T. 1. – №. 02.



Alijon ERGASHEV,
Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi
E-mail:ergashevalijon@gmail.com

Pedagogika instituti professori J.Yaxshiliev taqrizi asosida

MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH FENOMENINING FALSAFIY-KONTSEPTUAL TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada milliy o'zlikni anglash fenomenining falsafiy-kontseptual mohiyati tahlil etilgan. Milliy o'zlikni anglash tushunchasining turli falsafiy yondashuvlar asosida qanday talqin etilishi, uning asosiy xususiyatlari, shakllanish omillari va mexanizmlari ochib berilgan. Milliy o'zlik tushunchasi tarixiy rivojlanish jarayonida turli faylasuflar tomonidan qanday talqin etilganligi va zamonaviy globallashuv sharoitida qanday ahamiyat kasb etayotgani ko'rsatilgan. Essentsialistik, konstruktivistik va instrumentalistik yondashuvlar orqali milliy o'zlikni anglash jarayonining falsafiy tabiati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: milliy o'zlik, milliy ong, milliy g'urur, milliy qadriyatlar, identiklik, essentsializm, konstruktivizm, instrumentalizm, globallashuv.

ФИЛОСОФСКО-КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЯВЛЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

Аннотация

В статье анализируется философская и концептуальная сущность феномена национальной идентичности. Раскрывается, как концепция национальной идентичности интерпретируется на основе различных философских подходов, её основные особенности, факторы формирования и механизмы. Показано, как концепция национальной идентичности интерпретировалась различными философами в процессе исторического развития и какое значение она имеет в условиях современной глобализации. Философская природа процесса национальной идентичности анализируется с помощью эссенциалистского, конструктивистского и инструменталистского подходов.

Ключевые слова: национальная идентичность, национальное самосознание, национальная гордость, национальные ценности, идентичность, эссенциализм, конструктивизм, инструментализм, глобализация.

PHILOSOPHICAL-CONCEPTUAL ANALYSIS OF THE PHENOMENON OF NATIONAL IDENTITY

Annotation

The article analyzes the philosophical and conceptual essence of the phenomenon of national identity. It reveals how the concept of national identity is interpreted based on various philosophical approaches, its main features, factors of formation and mechanisms. It shows how the concept of national identity has been interpreted by various philosophers in the process of historical development and what significance it has in the conditions of modern globalization. The philosophical nature of the process of national identity is analyzed through essentialist, constructivist and instrumentalist approaches.

Keywords: national identity, national consciousness, national pride, national values, identity, essentialism, constructivism, instrumentalism, globalization.

Kirish. XXI asrda globallashuv va axborotlashuv jarayonlari ta'sirida "milliy o'zlikni anglash" muammosi ijtimoiy-gumanitar fanlarning eng dolzarb mavzularidan biriga aylandi. Zero, har qanday millatning jahon hamjamiyatidagi o'rnini va kelajagi aynan uning o'zligini anglash darajasi, milliy qadriyatlarini saqlab qolish va rivojlantirish qobiliyati, umuminsoniy taraqqiyot jarayonlariga mos ravishda o'z milliy rivojlanish strategiyasini shakllantira olishi bilan belgilanadi.

Global axborot makoni va uning ta'sirida shakllanayotgan "tarmoq jamiyati" sharoitida milliy o'zlikni anglash fenomenining mohiyati, xususiyatlari, shakllanish omillari va ijtimoiy ahamiyatini tadqiq etish bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biriga aylandi.

Adabiyotlar tahlili. Falsafiy tafakkur tarixida o'zlik masalasi doimo markaziy o'rinlardan birini egallab kelgan. Antik davr faylasuflaridan tortib to zamonaviy faylasuflargacha bo'lgan davrda o'zlikning falsafiy talqini turli yondashuvlar orqali rivojlantirilgan. Antony D.Smitning ta'rifiga ko'ra, "millat – bu tarixiy hudud, umumiy miqlar va tarixiy xotira, ommaviy jamoat madaniyati, umumiy iqtisodiyot, barcha a'zolar uchun umumiy huquq va majburiyatlarga ega insonlar jamoasidir" [1].

O'zbekistonlik faylasuf olim Sadulla Otamurodov esa millat va milliy o'zlikni anglash masalasida quyidagi fikrni bildiradi: "Milliy o'zlikni anglash – bu millatning o'zini millat sifatida, o'ziga xos ijtimoiy-etnik birlik sifatida anglash jarayoni va natijasi bo'lib, u milliy ong, milliy g'urur, milliy iftixor, millat manfaatlarini anglash va himoya qilish kabi tuyg'ularni o'z ichiga oladi" [2].

Charlz Teylorning "O'zlikning manbalari" (Sources of the Self) asarida keltirilgan qarashlar muhim ahamiyatga ega. Teylor ta'kidlaganidek, "o'zlik – bu insonning o'zi haqidagi tasavvurlari, o'z mohiyatini, qadriyatlarini anglashi bo'lib, u insonning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi" [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Milliy o'zlikni anglash tushunchasining falsafiy-konseptual tahlilini amalga oshirishda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanilgan:

- tarixiy va mantiqiy metodlar uyg'unligi asosida milliy o'zlikni anglash tushunchasining tarixiy rivojlanish jarayonida tahlil qilish;
- tizimli yondashuv asosida milliy o'zlikni anglash tushunchasini yaxlit tizim sifatida o'rganish;

• qiyosiy-tipologik metodlar orqali milliy o'zlikni anglash tushunchasining turli falsafiy yondashuvlar doirasidagi talqinlarini taqqoslash va umumlashtirish;

• germenevtik metodlar orqali faylasuflarning milliy o'zlik haqidagi fikrlarini talqin qilish.

Tahlil va natijalar. Milliy o'zlikni anglash tushunchasi millat tomonidan o'zini o'zi anglashi, o'z o'tmishi, buguni va kelajagini anglash, o'z qadriyatlarini, madaniyati, tili, tarixi, urf-odatlarini, an'analari, ma'naviy-axloqiy qarashlari orqali o'zining kim ekanligini anglashni ifodalovchi falsafiy kategoriya hisoblanadi. Milliy o'zlikni anglash millatning o'zligini saqlab qolish va rivojlantirishning muhim omilidir.

Milliy o'zlikni anglash jarayonining yana bir muhim jihati uning dinamik xarakterga ega ekanligidir. Milliy o'zlikni anglash jarayoni doimiy ravishda rivojlanib, o'zgarib boruvchi jarayondir. Bu jarayon millatning tarixiy tajribasi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanish xususiyatlari, turli millatlar, madaniyatlar bilan o'zaro ta'siri natijasida doimiy ravishda yangilanib, boyib boradi.

Nemis faylasufi Iogann Gotlib Fixtning "Nemis xalqiga murojaatlar" asarida ta'kidlanganidek, "millat faqat o'zini millat sifatida anglagandagina, o'z qadriyatlarini, madaniyatini, tilini, tarixini anglagandagina haqiqiy millatga aylanadi" [4].

Milliy o'zlikni anglashning falsafiy-konseptual asoslarini quyidagi muhim yondashuvlar orqali tahlil qilish mumkin: essentsialistik, konstruktivistik va instrumentalistik yondashuvlar.

Essentsialistik yondashuv milliy o'zlikni millatning tub mohiyati, o'zgarimas xususiyati sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, milliy o'zlik millatning azaliy, tug'ma xususiyati bo'lib, u tarixiy jarayonda deyarli o'zgarmaydi. Essentsialistik yondashuv tarafdorlari milliy o'zlikni millatning "ruhi", "mentaliteti", "xarakteri" kabi tushunchalar orqali izohlaydilar.

Masalan, nemis faylasufi Iogann Gotfrid Gerder millatlarning "ruhi" (Volkgeist) haqida gapirar ekan, har bir millatning o'z ruhi, o'z xarakteri borligini va u millatning butun tarixi davomida saqlanib qolishini ta'kidlaydi [5].

Konstruktivistik yondashuv esa milliy o'zlikni ijtimoiy konstruksiya, ya'ni jamiyat va davlat tomonidan yaratilgan, shakllantirilgan hodisa sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, milliy o'zlik tarixiy jarayonda shakllanadi va rivojlanadi, u doimiy o'zgarishda bo'ladi. Konstruktivistik yondashuv tarafdorlari milliy o'zlikni siyosiy, ijtimoiy, madaniy omillar ta'sirida shakllanuvchi hodisa sifatida qaraydilar. Masalan, Erik Xobsbaum va Terens Reynjerning "An'analarning yaratilishi" asarida milliy o'zlikni anglash jarayonida "yaratilgan an'analar"ning roli ko'rsatilgan.

Instrumentalistik yondashuv esa milliy o'zlikni siyosiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, milliy o'zlik siyosiy elitalar, rahbarlar tomonidan muayyan siyosiy maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan vosita hisoblanadi. Instrumentalistik yondashuv tarafdorlari milliy o'zlikni siyosiy manipulyatsiya, siyosiy mobilizatsiya uchun foydalaniladigan resurs sifatida qaraydilar. Masalan, Pol Brass "Etnik guruhlar va millatlar: manfaat va siyosat nazariyasi" asarida etnik va milliy o'zlikning siyosiy manipulyatsiya vositasi sifatida qo'llanilishi haqida fikr yuritadi.

Milliy o'zlikni anglash jarayonida til alohida ahamiyat kasb etadi. Til milliy o'zlikning muhim elementi, millatning o'zligini ifoda etuvchi, uning madaniyati, tarixi, qadriyatlarini aks ettiruvchi vositadir. Til orqali millat o'z tarixini, madaniyatini, qadriyatlarini, urf-odatlarini, an'analari, dunyoqarashini ifodalaydi.

Shuningdek, milliy madaniyat, tarix va milliy davlatchilik ham milliy o'zlikni anglash jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Milliy o'zlikni anglash tushunchasining falsafiy-konseptual tahlili nafaqat nazariy ahamiyatga, balki amaliy qimmatga ham ega bo'lib, u jamiyat rivojlanishining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Bu murakkab va ko'p qirrali fenomen millatning tarixiy ildizlari, madaniy merosi, lingvistik xususiyatlari, axloqiy-ma'naviy qadriyatlar tizimi, etnografik jihatlari va diniy e'tiqodlari kabi keng qamrovli omillar majmuasi bilan uzviy bog'langan. Milliy o'zlikni anglash millatning o'z-o'zini tan olishi, o'z o'rnini anglashi va dunyo hamjamiyatida o'z identikligini namoyon etish jarayonlarini qamrab olgan holda, ijtimoiy barqarorlik va davlatchilik asoslarini mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi.

Milliy o'zlikni anglash statik emas, balki dinamik xarakterga ega bo'lgan jarayon bo'lib, tarixiy transformatsiyalar, iqtisodiy evrilishlar, siyosiy o'zgarishlar va global madaniy ta'sirlar natijasida muntazam ravishda o'zgarib, takomillashib boradi. Bu jarayon millatning ming yillik tarixiy tajribasini o'zida jamlagan holda, bugungi kundagi globallashuv sharoitida yangicha mazmun-mohiyat kasb etib, millatning o'ziga xos jihatlari saqlash bilan birga, umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashib borish imkonini yaratadi. Milliy o'zlikni anglash jarayonining tahavvuli ayniqsa axborotlashgan jamiyat sharoitida yanada intensivlashib, global axborot maydonida milliy manfaatlarini himoya qilish va milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish masalasining dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Milliy o'zlikni anglash jarayonining mohiyatini ochib berishda falsafiy metodologiyaning turli yondashuvlari muhim ahamiyat kasb etadi. Essentsialistik yondashuv milliy o'zlikni millatning azaliy, tabiiy, tug'ma, o'zgarimas xususiyati sifatida talqin etib, millatning "ruhi" va "o'zak qadriyatlarini" mavjudligini ta'kidlash, konstruktivistik yondashuv milliy o'zlikni tarixiy sharoit, ijtimoiy munosabatlar va madaniy kontekst doirasida yaratiladigan ijtimoiy konstruksiya sifatida tushuntiradi. Instrumentalistik yondashuv esa milliy o'zlikni siyosiy elitalar tomonidan muayyan maqsadlarga erishish, jamiyatni safarbar qilish va siyosiy hokimiyatni legitimlashtirish uchun foydalaniladigan vosita sifatida talqin etadi. Har bir yondashuv milliy o'zlikning muayyan aspektini yoritib, uning turli qirralarini ochib berishga yordam beradi.

Demak ushbu omillar ta'sirida milliy o'zlikni anglash fazilatlarini o'ziga singdirgan yosh avlod voyaga yetib, jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida o'z o'rnini topadi. Har bir yosh avlod o'z kelib chiqishi tarixini, etnik ildizlarini hamda jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini idrok etgan inson shaxs sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi. Bunday inson dastavval o'zining jamiyatda tutgan o'rnini va bajaradigan vazifalarini belgilab oladi. Yoshlarning, insonning ko'p qirrali va murakkab vazifalari ichida unga singdirilgan millatparvarlik, vatanparvarlik, mehr va murruvvatlilik bilan bir vaqtda boshqa xalqlarning milliy madaniyatiga hurmat bilan qarash tuyg'usi ham faoliyat sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Yuqoridagi falsafiy yondashuvlarni sintez qilish orqali milliy o'zlikni anglash jarayonining yanada to'liqroq manzarasini hosil qilish mumkin. Milliy o'zlik, bir tomondan, millatning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllangan nisbatan barqaror xususiyatlari majmuasi sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, u ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta'sirida doimiy ravishda qayta shakllanib, yangilanib boruvchi dinamik fenomen hamdir. Shuningdek, milliy o'zlik milliy manfaatlarini himoya qilish, jamiyatni birlashtirish va safarbar qilish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday integrativ yondashuv milliy o'zlikni anglash jarayonining ko'p qirrali va murakkab tabiatini

to'liqroq tushunishga, uning shakllanish omillari va mexanizmlarini chuqurroq tahlil qilishga imkoniyat yaratadi.

Milliy o'zlikni anglash jarayonining chuqur va har tomonlama tahlili nafaqat nazariy bilimlarni boyitishga, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, u milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, jamiyatda barqarorlik va birlikni ta'minlash, globallasuv sharoitida milliy manfaatlarni himoya qilish, madaniy xilma-xillik va ma'naviy merosni saqlab qolish kabi muhim vazifalarni hal qilishda qo'l keladi. Ayniqsa,

bugungi zamonaviy dunyoda milliy o'zlikni anglash bilan bog'liq muammolarning dolzarbligi tobora ortib bormoqda, chunki globallasuv va unifikatsiya jarayonlari milliy madaniyatlar, tillar, an'analar, qadriyatlarining o'ziga xosligini saqlab qolish masalasini kun tartibiga qo'ymoqda. Shu ma'noda, milliy o'zlikni anglash jarayonining falsafiy-konseptual tahlili nafaqat ijtimoiy-falsafiy fikr rivojiga, balki milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishga ham muhim hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR

1. Smith A.D. National Identity. - London: Penguin, 1991. - P. 14.
2. Otamurodov S. Milliy o'zlikni anglash va globallasuv jarayonlari. - Toshkent: O'zbekiston, 2018. - B. 32.
3. Taylor C. Sources of the Self: The Making of the Modern Identity. - Cambridge: Harvard University Press, 1989. - P. 27.
4. Fichte J.G. Addresses to the German Nation. - Cambridge: Cambridge University Press, 2008. - P. 134.
5. Herder J.G. Ideas for the Philosophy of History of Humanity. - Indianapolis: Hackett Publishing Company, 2004. - P. 124.
6. Qo'chqorov V. Milliy o'zlikni anglash va milliy g'oya. - Toshkent: Akademiya, 2020. - B. 78.
7. Anderson B. Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. - London: Verso, 1983. - P. 6.
8. Fitrat A. Munozara. - Toshkent: Ma'naviyat, 2000. - B. 33.
9. Керимов Т.Х. Поэтика времени. - М.: Академический проект, 2005. - С. 118-120.
10. Parsons T. The Social System. - London: Routledge, 1991. - P. 67.



Raya ERNAZAROVA

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o'qituvchisi

Roza REYMBAEVA,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali katta o'qituvchisi, PhD

Aynura PATULLAEVA,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o'qituvchisi

Umida ESHNIYAZOVA,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabasi

PhD dotsent S.Toylibaev taqrizi asosida

JISMONIY IMKONIYATI CHEKLANGAN TALABALARDA REABILITATSIYA JARAYONLARINI TASHKIL ETISH VA INTEGRALLASHGAN BAHOLASH TIZIMI

Annotation

Ushbu maqolada jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar rehabilitatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish hamda ularning funksional holatini integrallashgan tarzda baholash masalalari yoritilgan. Tadqiqotda adaptiv jismoniy tarbiya va zamonaviy rehabilitatsiya vositalari asosida yurak-qon tomir, nafas olish tizimi, harakat tezligi, mushak kuchi, muvozanat va psixo-emotsional holat ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Natijalar rehabilitatsiya dasturlarini individuallashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar, rehabilitatsiya, adaptiv jismoniy tarbiya, parasport, integral baholash, funksional holat, tayanch-harakat apparati, muvozanat.

ORGANIZATION OF REHABILITATION PROCESSES AND AN INTEGRATED ASSESSMENT SYSTEM IN STUDENTS WITH PHYSICAL DISABILITIES

Annotation

This article examines the effective organization of rehabilitation processes for students with physical disabilities and the development of an integrated system for assessing their functional status. The study analyzes indicators of the cardiovascular and respiratory systems, movement speed, muscle strength, balance, and psycho-emotional state based on adaptive physical education and modern rehabilitation tools. The results demonstrate the necessity of individualizing rehabilitation programs.

Key words: Students with physical disabilities, rehabilitation, adaptive physical education, parasport, integrated assessment, functional status, musculoskeletal system, balance.

ОРГАНИЗАЦИЯ РЕАБИЛИТАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ И ИНТЕГРИРОВАННАЯ СИСТЕМА ОЦЕНКИ У СТУДЕНТОВ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ФИЗИЧЕСКИМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы эффективной организации реабилитационных процессов у студентов с ограниченными физическими возможностями, а также интегрированной оценки их функционального состояния. В исследовании на основе средств адаптивной физической культуры и современных реабилитационных технологий проанализированы показатели сердечно-сосудистой и дыхательной систем, скорость движений, мышечная сила, равновесие и психоэмоциональное состояние. Полученные результаты подтверждают необходимость индивидуализации реабилитационных программ.

Ключевые слова: Студенты с ограниченными физическими возможностями, реабилитация, адаптивная физическая культура, параспорт, интегрированная оценка, функциональное состояние, опорно-двигательный аппарат, равновесие.

Kirish. Bugungi globallashuv va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni jamiyat hayotiga to'laqonli integratsiya qilish, ularning hayot sifatini yaxshilash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda ta'lim olishi va ijtimoiy faolligini ta'minlash dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar bilan olib boriladigan rehabilitatsiya jarayonlarining ilmiy asosda tashkil etilishi ularning funksional imkoniyatlarini rivojlantirish, mustaqil hayotga tayyorlash va kasbiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida nogironligi bo'lgan shaxslar sonining ortib borishi, ekologik muammolar, texnolog ofatlar, surunkali kasalliklar va jarohatlanishlar bilan bog'liq jarayonlar jismoniy rehabilitatsiya masalasini yanada dolzarblashtirmoqda. Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar

organizmda yuzaga keladigan funksional cheklanishlar nafaqat harakat faoliyatining pasayishiga, balki psixologik beqarorlik, ijtimoiy moslashuvning sustligi hamda hayot sifati darajasining pasayishiga ham olib keladi. Shu sababli rehabilitatsiya jarayonlarini faqat tibbiy yo'nalish bilan cheklab qolmasdan, pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatlar bilan uzviy bog'liq holda tashkil etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar rehabilitatsiyasida adaptiv jismoniy tarbiya va parasport vositalaridan samarali foydalanish ularning jismoniy holatini yaxshilash, harakat ko'nikmalarini rivojlantirish, muvozanat saqlash qobiliyatini oshirish hamda kardiorespirator tizim faoliyatini mustahkamlashda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda rehabilitatsiya jarayonining samaradorligi alohida funksional ko'rsatkichlar bo'yicha

baholanadi, holbuki organizm holatini kompleks va tizimli yondashuv asosida integrallashgan tarzda baholash yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Shu nuqtai nazardan, jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar uchun rehabilitatsiya jarayonlarini tizimli tashkil etish va ularning funksional holatini integrallashgan baholash tizimini ishlab chiqish ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Integrallashgan baholash tizimi yurak-qon tomir va nafas olish tizimi ko'rsatkichlari, mushak kuchi, harakat tezligi, muvozanat, koordinatsiya hamda psixo-emotsional holat singari ko'plab omillarni yagona tizimda tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa rehabilitatsiya jarayonini individuallashtirish, yuklama meyorlarini aniq belgilash va rehabilitatsion dasturlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot aynan jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar rehabilitatsiyasini samarali tashkil etish bilan birga, ularning funksional holatini zamonaviy integrallashgan baholash tizimi asosida monitoring qilish va takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, ushbu yo'nalishdagi ilmiy-amaliy muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar rehabilitatsiyasi muammosi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanib, mazkur masala tibbiyot, pedagogika, psixologiya va sport fanlari kesishgan nuqtada keng o'rganib kelinmoqda. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning funksional holatini tiklash va rivojlantirishda adaptiv jismoniy tarbiya hamda sport vositalari samarali rehabilitatsion omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqotchilar tomonidan jismoniy rehabilitatsiyaning asosiy maqsadi organizmning buzilgan funksiyalarini maksimal darajada tiklash, harakat faoliyatini faollashtirish, moslashuvchanlik imkoniyatlarini kengaytirish hamda hayot sifatini yaxshilashdan iborat ekanligi ta'kidlanadi. Ko'plab ilmiy manbalarda adaptiv jismoniy tarbiya vositalari mushak kuchini oshirish, koordinatsiya va muvozanatni rivojlantirish, yurak-qon tomir hamda nafas olish tizimi faoliyatini mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Xalqaro tajribaga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxslar rehabilitatsiyasida parasport turlarining tutgan o'rni beqiyosdir. Parayengil atletika, aravacha poygasi, suzish, stol tennisi, armrestling, parapowerlifting kabi sport turlari harakat faolligini oshirish, mushak-skelet tizimini rivojlantirish, psixologik barqarorlikni ta'minlash hamda ijtimoiy moslashuvni kuchaytirishda muhim omil sifatida qaraladi. Tadqiqotlarda parasport bilan muntazam shug'ullanish natijasida jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarda tezkorlik, chidamlilik, mushak kuchi hamda harakat aniqligi ko'rsatkichlarining sezilarli darajada oshishi qayd etilgan.

Pedagogik yo'nalishdagi ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, rehabilitatsiya jarayonini samarali tashkil etishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, individuallashtirish va tabaqalashtirish tamoyillari yetakchi o'rin egallaydi. Har bir talabani nozologik xususiyatlari, jismoniy tayyorgarlik darajasi, psixologik holati va motivatsiyasi hisobga olingan holda tuzilgan rehabilitatsiya dasturlari yuqori samaradorlikka ega ekanligi ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan.

Integrallashgan baholash tizimi masalasiga oid ilmiy manbalarda esa asosan tibbiy rehabilitatsiya doirasida laborator, instrumental va funksional ko'rsatkichlarni kompleks baholashga e'tibor qaratiladi. Yurak urish tezligi, arterial qon bosimi, nafas olish chastotasi, mushak kuchi, harakat tezligi, muvozanat va koordinatsiya ko'rsatkichlarini yagona baholash tizimiga kiritish rehabilitatsiya samaradorligini aniqlashda

muhim mezon sifatida ko'rsatiladi. Biroq adaptiv jismoniy tarbiya va sport faoliyati bilan shug'ullanayotgan talabalar uchun integral baholash tizimini pedagogik jarayonga moslashtirish masalasi yetarli darajada chuqur yoritilmagan.

Psixologik tadqiqotlarda jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning rehabilitatsiyasi jarayonida motivatsiya, emosional barqarorlik, o'ziga bo'lgan ishonch va ijtimoiy faoliyat muhim ichki omillar sifatida talqin qilinadi. Rehabilitatsiya jarayonida sport va jismoniy mashg'ulotlarning qo'llanilishi psixo-emotsional holatni barqarorlashtirish, depressiv holatlarni kamaytirish, shaxsning ijtimoiy adaptatsiyasini kuchaytirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda rehabilitatsiya jarayonlarini monitoring qilishda zamonaviy diagnostik vositalar, jumladan tenzometrik platformalar, funksional testlar, harakat faolligini baholovchi raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi alohida ta'kidlanadi. Bu vositalar orqali jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar organizmning funksional holatini dinamik kuzatish, yuklama meyorini aniqlash hamda rehabilitatsion mashg'ulotlarni ilmiy asosda moslashtirish imkoniyati yaratiladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunga qadar jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar rehabilitatsiyasiga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar yetarli bo'lsa-da, aynan oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun rehabilitatsiya jarayonlarini tizimli tashkil etish va ularning funksional holatini integrallashgan baholash tizimi asosida monitoring qilish masalasi yetarli darajada kompleks tarzda tadqiq etilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqni to'ldirishga va ilmiy-amaliy jihatdan yangi yondashuvlarni taklif etishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarda rehabilitatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish hamda ularning funksional holatini integrallashgan baholash tizimi asosida monitoring qilishga qaratilgan bo'lib, unda tizimli, kompleks va shaxsga yo'naltirilgan metodologik yondashuvlar asos qilib olindi.

Tadqiqot jarayonida tizimlilik va komplekslik tamoyillari asosida rehabilitatsiya jarayonining tibbiy, pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatlari o'zaro uzviy bog'liq holda o'rganildi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar organizmning funksional holati faqat bitta yo'nalishda emas, balki kardiorespirator tizim, mushak-skelet tizimi, harakat koordinatsiyasi, muvozanat saqlash qobiliyati hamda psixo-emotsional holat kabi bir necha komponentlar asosida baholandi.

Tadqiqotda quyidagi umumilmiy metodlar qo'llanildi:

nazariy tahlil va umumlashtirish;

analiz va sintez;

induksiya va deduksiya;

taqqoslash va qiyosiy tahlil;

tizimlashtirish va modellashtirish.

Shuningdek, maxsus ilmiy-pedagogik metodlar ham tadqiqotning asosini tashkil etdi. Jumladan, pedagogik kuzatuv yordamida talabalarining mashg'ulotlardagi faolligi, harakat ko'nikmalari, muvozanat saqlash darajasi va motivatsion holati muntazam ravishda qayd etib borildi. Pedagogik tajriba metodi asosida maxsus ishlab chiqilgan adaptiv jismoniy mashqlar majmuasi o'quv-mashg'ulot jarayoniga tatbiq etildi va uning samaradorligi tajriba-oidi hamda tajriba-so'ng bosqichlarida baholandi.

Tadqiqot doirasida fiziologik va funksional testlar keng qo'llanildi. Jumladan, yurak urish tezligi, arterial qon bosimi, nafas olish chastotasi, mushak kuchi (qo'l panja kuchi), harakat tezligi, statik va dinamik muvozanat ko'rsatkichlari maxsus test usullari yordamida aniqlandi. Olingan natijalar rehabilitatsiya

jarayonining samaradorligini baholashda asosiy mezonlar sifatida tahlil qilindi.

Bundan tashqari, talabalarning psixologik holatini o'rganish maqsadida so'rovnomma va suhbat metodlari qo'llanildi. Ular yordamida motivatsiya darajasi, o'ziga ishonch, hissiy barqarorlik, mashg'ulotlarga munosabat va ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlari aniqlashtirildi. Ushbu ma'lumotlar jismoniy ko'rsatkichlar bilan uyg'un holda integrallashgan baholash tizimiga kiritildi.

Tadqiqotda integrallashgan baholash modeli ishlab chiqilib, uning tarkibiga quyidagi bloklar kiritildi:

- kardiorespirator holatni baholash bloki;
- harakat faoliyati va mushak kuchini baholash bloki;
- koordinatsiya va muvozanatni baholash bloki;
- psixo-emotsional holatni baholash bloki.

Har bir blok bo'yicha olingan natijalar ball tizimi asosida baholanib, yagona integral ko'rsatkich ishlab chiqildi. Bu yondashuv reabilitatsiya jarayonining umumiy samaradorligini kompleks baholash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarini ishonchli tahlil qilish maqsadida matematik-statistik metodlar qo'llanildi. O'rtacha arifmetik qiymatlar, dispersiya ko'rsatkichlari hamda dinamik o'zgarishlar tahlil qilinib, natijalarning ishonchlilik darajasi aniqlashtirildi.

Umuman olganda, mazkur metodologik yondashuvlar jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarda reabilitatsiya jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish, ularning funksional holatini tizimli va integrallashgan tarzda baholash, shuningdek, reabilitatsion dasturlar samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarda reabilitatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish hamda ularning funksional holatini integrallashgan baholash tizimi asosida monitoring qilish kompleks, tizimli va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi. Reabilitatsiya jarayonining faqat tibbiy yo'nalish bilangina cheklanib qolmasdan, adaptiv jismoniy tarbiya, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy moslashuv bilan uyg'un holda tashkil etilishi uning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan integrallashgan baholash tizimi asosida jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar organizmining kardiorespirator tizimi, mushak kuchi, harakat tezligi, muvozanat saqlash qobiliyati, koordinatsiya

hamda psixo-emotsional holati kompleks tarzda baholandi. Olingan natijalar reabilitatsiya mashg'ulotlari natijasida talabalarda funksional imkoniyatlarning barqaror yaxshilanishi, harakat faoliyatining faollashuvi, mushak-skelet tizimi ko'rsatkichlarining ijobiy dinamikasi hamda psixologik barqarorlikning ortganini ko'rsatdi.

Shuningdek, adaptiv jismoniy tarbiya va parasport vositalarining tizimli va maqsadli qo'llanilishi nafaqat jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishi, balki talabalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, motivatsiyasini kuchaytirish hamda mustaqil hayotga tayyorlashda ham muhim omil bo'lib xizmat qilishi aniqlandi. Integrallashgan baholash tizimining joriy etilishi esa reabilitatsiya jarayonining samaradorligini aniq, ishonchli va obyektiv baholash imkonini berdi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari va ilgari surilgan ilmiy xulosalar asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi: Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar uchun adaptiv jismoniy tarbiya va parasport mashg'ulotlarini tizimli tashkil etish, ularni o'quv jarayoniga izchil integratsiya qilish lozim. Talabalarning funksional holatini baholashda integrallashgan baholash tizimini (kardiorespirator, motor, koordinatsion va psixo-emotsional bloklar asosida) amaliyotga keng joriy etish va monitoringni muntazam olib borish tavsiya etiladi. Har bir talabaga nisbatan individual reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish, yuklama meyorlarini nozologik xususiyatlari, jismoniy tayyorgarlik darajasi va psixologik holatidan kelib chiqib belgilash zarur. Reabilitatsiya jarayoniga psixolog, shifokor, ijtimoiy pedagog va murabbiylar hamkorligini kuchaytirgan holda kompleks yondashuvni ta'minlash maqsadga muvofiq. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar bilan ishlovchi pedagog va murabbiylar uchun malaka oshirish kurslari, seminar-treninglar va metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish zarur. Talabalarning psixologik holatini barqarorlashtirish va motivatsiyasini mustahkamlash maqsadida o'yin texnologiyalari, musobaqa elementlari, rag'batlantirish mexanizmlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Yuqoridagi xulosa va takliflarning amaliyotga joriy etilishi jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar reabilitatsiyasining samaradorligini oshirish, ularning funksional imkoniyatlarini rivojlantirish hamda jamiyatga to'laonli integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov A.A. Adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020. – 256 b.
2. Xudoyqulov B.B. Nogironligi bo'lgan shaxslar reabilitatsiyasida jismoniy tarbiyaning o'rni. – Toshkent: Adabiyot, 2019. – 198 b.
3. Zokirova N.S. Reabilitatsiya jarayonida integrallashgan baholash usullari. – Toshkent: O'qituvchi, 2022. – 184 b.
4. Shapovalova L.A. Adaptive Physical Education and Sport for People with Disabilities. – Moscow: Sport, 2018. – 312 p.
5. World Health Organization. World Report on Disability. – Geneva: WHO, 2011. – 350 p.
6. Shephard R.J. Fitness in Special Populations. – Champaign: Human Kinetics, 2001. – 287 p.
7. DePauw K., Gavron S. Disability Sport. – Champaign: Human Kinetics, 2005. – 412 p.
8. Zatsiorsky V.M. Science and Practice of Strength Training. – Champaign: Human Kinetics, 2006. – 240 p.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi ***"Sog'lom turmush tarzini joriy etish va ommaviy sportni rivojlantirish to'g'risida"gi PF-5924-son Farmoni.



Nurillo YUSUPOV,
Namangan davlat universiteti stajor o'qituvchisi

iqtisod fanlari doktori, professor F.Dadayev taqrizi asosida

IQTISODIYOTI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA BOSHQARUV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Аннотация

Ushbu maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarida boshqaruv faoliyatini takomillashtirishning asosiy tamoyillari va ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinadi. Korxonada boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi strategik rejalashtirish, innovatsion boshqaruv, raqamlashtirish jarayonlari, inson resurslarini rivojlantirish, ichki nazorat va monitoring tizimlari hamda qaror qabul qilish mexanizmlarining modernizatsiya qilinishi masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: bozor iqtisodiyoti, boshqaruv faoliyati, sanoat korxonalari, strategik rejalashtirish, innovatsion boshqaruv, raqamlashtirish, menejment, samaradorlik, monitoring, avtomatlashtirish, inson resurslari, qaror qabul qilish, raqobatbardoshlik.

PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPROVING MANAGEMENT ACTIVITIES IN INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE CONDITIONS OF ECONOMY

Annotation

This article analyzes the main principles and priority directions for improving management activities in industrial enterprises under market economy conditions. It covers issues related to strategic planning, innovative management, digitalization processes, human resource development, internal control and monitoring systems, as well as the modernization of decision-making mechanisms, all aimed at enhancing management efficiency.

Keywords: market economy, management activities, industrial enterprises, strategic planning, innovative management, digitalization, management, efficiency, monitoring, automation, human resources, decision-making, competitiveness.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИКИ

Аннотация

В данной статье анализируются основные принципы и приоритетные направления совершенствования управленческой деятельности на промышленных предприятиях в условиях рыночной экономики. Рассматриваются вопросы стратегического планирования, инновационного управления, процессов цифровизации, развития человеческих ресурсов, систем внутреннего контроля и мониторинга, а также модернизации механизмов принятия решений, направленных на повышение эффективности управления.

Ключевые слова: рыночная экономика, управленческая деятельность, промышленные предприятия, стратегическое планирование, инновационное управление, цифровизация, менеджмент, эффективность, мониторинг, автоматизация, человеческие ресурсы, принятие решений, конкурентоспособность.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarining barqaror faoliyat yuritishi va raqobatbardoshligini ta'minlash, avvalo, ularning boshqaruv tizimining samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi, texnologik innovatsiyalarning tez sur'atlarda joriy etilishi hamda bozor muhitida raqobatning kuchayishi sanoat korxonalaridan boshqaruv faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etmoqda. Shu bois zamonaviy iqtisodiy sharoitda boshqaruv faoliyatining mazmuni, shakllari va usullarini qayta ko'rib chiqish ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb masalaga aylanmoqda.

Hozirgi davrda sanoat korxonalarida boshqaruv nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish, balki strategik rejalashtirish, resurslardan samarali foydalanish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, raqamlashtirish jarayonlarini joriy etish hamda inson kapitalini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Bunday murakkab vazifalarni amalga oshirish esa boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanganligi, monitoring va nazorat mexanizmlarining takomillashganligi hamda zamonaviy menejment yondashuvlaridan foydalanishni taqozo etadi.

Sanoat korxonalarida boshqaruv faoliyatini takomillashtirish masalasi, ayniqsa, o'tish davridagi iqtisodiyotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki bozor mexanizmlarining to'liq shakllanib borishi, raqobat muhiti va investitsion faollik darajasining oshishi korxonalardan moslashuvchan, strategik va innovatsion boshqaruv tizimini talab qiladi. Mazkur jarayonda boshqaruv samaradorligini baholash va uni oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy usullar, jumladan, strategik ko'rsatkichlar tizimi, ichki jarayonlarni optimallashtirish va xodimlar salohiyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoat korxonalarida boshqaruv faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, zamonaviy menejment yondashuvlarining mazmun-mohiyatini ochib berish hamda ularni amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini asoslashdan iboratdir. Shuningdek, tadqiqot doirasida boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar va ularning sanoat korxonalarini rivojiga ta'siri yoritiladi.

Boshqaruv samaradorligiga baho berish uchun juda ko'p turli-tuman miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari qo'llaniladi.

Har bir ko'rsatkichni quyidagi tarzda taqqoslash kerak: biror davr haqiqiy ko'rsatkichlarini rejadagi, normativdagi ko'rsatkichlar bilan; joriy davr haqiqiy ko'rsatkichlarini o'tgan davrlar ko'rsatkichlari bilan; bir korxonaga haqiqiy ko'rsatkichlarini boshqa korxonaga haqiqiy ko'rsatkichlari bilan.

Shundaygina iqtisodiy tahlil ham makon, ham zamon nuqtai nazardan amalga oshirilgan bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida sanoat korxonalarida boshqaruv faoliyatini takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

1. Bozor va uning rivojlanish istiqbollarini kompleks ravishda o'rganish yordamida, xaridorlarning mahsulot va xizmat turlariga mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan talablarini aniqlash;
2. Mahsulotning yangi modellari va namunalarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil qilish;
3. Xaridorlar talablariga mos keluvchi tovarlarni ishlab chiqarish;
4. Ishlab chiqarishni rejalashtirish, dasturlash, muvofiqlashtirish va moliyalashtirish;
5. Mahsulotni taqsimlash va sotish tizimini tashkil qilish va uni mukammallashtirish;
6. Korxonaning barcha faoliyatini, jumladan, ishlab chiqarish, sotish, reklama, texnik xizmat ko'rsatish va hokazolarni boshqarish.
7. Iste'molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan ta'minlash.
8. Xodimlarni ish haqi bilan ta'minlash.
9. Korxonaga yaqin joylarda yashovchi aholi uchun ish joylari yaratish.
10. Atrof-muhitni muhofaza qilish.
11. Korxonaga faoliyatida to'xtab qolishlarga yo'l qo'ymaslik.
12. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish shakllarini mukammallashtirish.
13. Ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida tejamkorlikka rioya qilish.
14. Boshqaruv strukturalarini takomillashtirish amaldagi standartlar, normativlar va davlat tomonidan chiqarilgan qonun-qoidalarga rioya qilish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Robert Kaplan ikkalasi ham boshqaruv va strategiya sohalarida mashhur bo'lib, Balanced Scorecard metodologiyasini ishlab chiqqanlar (Ularining "Balanced Scorecard" konsepsiyasi boshqaruv samaradorligini baholashda ko'p o'lchovli yondashuvni taqdim etadi. Ular moliyaviy ko'rsatkichlar bilan birga, mijozlar, ichki jarayonlar va o'rganish va o'sish kabi boshqa o'lchovlarni ham

hisobga olish zarurligini ta'kidlaydilar [1]. Kaplan va Norton korxonaga boshqaruv tizimini baholashda "Balanced Scorecard" (BSC) usulini ishlab chiqdilar. Ularning fikrlariga ko'ra, samaradorlikni baholashda faqat moliyaviy ko'rsatkichlar emas, balki bir qator boshqa omillar ham hisobga olinishi kerak.

Balanced Scorecard. BSC ning asosiy komponentlari:

1. Moliyaviy ko'rsatkichlar;
2. Mijozlar ko'rsatkichlar;
3. Ichki jarayonlar ko'rsatkichlari;
4. O'rganish va rivojlanish ko'rsatkichlari.

BSC ning afzalliklari:

-Strategik ko'rinish. Tashkilotning strategiyasini aniq belgilash va uni boshqarish imkonini beradi.

-Muvofiqlik: Turli bo'limlar o'rtasida maqsadlar va ko'rsatkichlarni muvofiqlashtirishga yordam beradi.

-Nazorat va baholash: Tashkilot faoliyatini muntazam ravishda baholash va nazorat qilish imkoniyatini taqdim etadi.

BSC ning qo'llanilishi: Balanced Scorecard kompaniyalar, davlat tashkilotlari va notijorat tashkilotlarida keng qo'llaniladi. Ular strategik rejalashtirish, natijalarni baholash va xodimlarni rag'batlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuv tashkilotning umumiy samaradorligini yanada kengroq va chuqurroq baholash imkonini beradi.

Strategik maqsadlar. Kaplan va Nortonning fikricha, har bir ko'rsatkich strategik maqsadlarga mos kelishi kerak. Bu, boshqaruvchilarga maqsadga erishish jarayonini yaxshilashda yordam beradi.


Mijozlar va bozor. Mijozlar ehtiyojlari va bozor talablari haqida tushuncha olish muhimdir. Mijozlarning qoniqishi korxonaga muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir.

Ichki jarayonlar. Tashkilot ichidagi jarayonlarning samaradorligi ham baholanadi. Samarali ichki jarayonlar orqali xarajatlarini kamaytirish va sifatini oshirish mumkin.

O'rganish va o'sish. Innovatsiyalar va xodimlarning malakasi rivojlanishi korxonaning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlaydi. O'rganish va rivojlanish ko'rsatkichlari muhimdir [2].

Natija. Kaplan va Nortonning yondashuvi, korxonaga boshqaruv tizimini kompleks va strategik nuqtai nazardan baholashga imkon beradi. Bu esa boshqaruvchilarga yanada maqsadli va samarali qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu olimlarning fikrlari boshqaruv tizimlarining samaradorligini baholashda keng qamrovli yondashuvni yaratishga yordam beradi. Har bir olim o'z yondashuvi orqali boshqaruv jarayonlarini chuqurroq tushunishga va ularni takomillashtirishga xizmat qiladi.



Korxonalarining boshqaruv tizimi samaradorligini baholash usullari[3]

Korxonaga boshqaruv tizimi samaradorligini baholashda bir nechta usullarni kompleks tarzda qo'llash maqsadga muvofiqdir, chunki har bir usul boshqaruv faoliyatining alohida jihatini yoritadi. Bunday yondashuv boshqaruv tizimini keng qamrovda tahlil qilish imkonini beradi. Baholash jarayonida moliyaviy ko'rsatkichlar (rentabellik, foyda darajasi, kapitaldan foydalanish samaradorligi), ishlab chiqarish jarayonlarining optimalligi, resurslardan foydalanish darajasi, xodimlar mehnat unumdorligi va motivatsiyasi, shuningdek, korxonaning bozor pozitsiyasi va raqobatbardoshligi e'tiborga olinadi.

Samaradorlikni baholashda korxonaning strategik maqsadlari, mavjud resurslari va bozor sharoitlarini hisobga olish muhim bo'lib, muntazam monitoring boshqaruv tizimini doimiy takomillashtirishni ta'minlaydi. Boshqaruv samaradorligini oshirish korxonaga faoliyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi bilan birga, resurslarning tejamkor taqsimlanishi, ishlab chiqarish hajmining oshishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda investitsion jozibadorlikning kuchayishiga olib keladi. Natijada samarali boshqaruv innovatsiyalarni joriy etish va iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Xonkeldiyeva G.Sh. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korporatsiyalarni boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari. Iqt.fanlari doktori ilm.daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoref.-Toshkent, 2018, -71 b.
2. V. A. Plotnikov, Proceedings of St. Petersburg State University of Economics, 4 (112), 16-24 (2018).
3. R.S.Muratov, I.A.Djalalova, S.Sh.Oripov. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik. "Fan va texnologiya", 2014, 424 bet. Abduraupov R.R. O'zbekistonda xorijiy investitsiyali korxonalar iqtisodiy salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. Iqt.fanlari doktori ilm.daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoref.Toshkent, 2017 y.-70 b.
4. Ulashev I.O., Atamuradov Sh.A. Korxonalar iqtisodiyoti va menejmenti. O'quv qo'llanma. Toshkent-2013, 24-b.
5. "Iqtisodiyot va talim" jurnali. -T., 2009-2012 yillar sonlari.
6. Xodiev B.Yu. va boshq. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: o'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2010. - 267 b. Улашев И.О. Разработка управленческих решений: Учебное пособие. -Т.: Moliya-iqtisod, 2007.
7. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. -T.: Sharq, 2006.
8. Каплан Р.С., Нортон Д.П. Организация, ориентированная на стратегию. Как в новой бизнес-среде преуспевают организации, применяющие сбалансированную систему показателей/пер.сангл.М.: ЗАО Олимп-Бизнес. 2004-416 с.



UDK:18:321(575:1)

Sojida YAXYAYEVA,

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malasini oshirish instituti Samarqand filiali professori v/b

E-mail: yaxyayevasojida@gmail.com

Toshkent amaliy fanlar universiteti Informatika kafedrasida mudiri G.Tayloqova taqrizi asosida

YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK AHAMIYATI

Аннотация

Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish hamda yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sportning tutgan o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, jismoniy tarbiya tizimini modernizatsiya qilish yo'nalishlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy takliflar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, sog'lom turmush tarzi, jismoniy madaniyat, sport, jismoniy tarbiya, Uchinchi Renessans, konsepsiya, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy-pedagogik ahamiyat.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА В ФОРМИРОВАНИИ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье анализируется роль физического воспитания и спорта в продвижении здорового образа жизни в условиях Нового Узбекистана, а также в всестороннем развитии молодого поколения. Кроме того, рассматриваются направления модернизации системы физического воспитания, существующие проблемы и научные предложения по их устранению.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, здоровый образ жизни, физическая культура, спорт, физическое воспитание, Третий Ренессанс, концепция, воспитание молодежи, социально-педагогическое значение.

THE SOCIO-PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN SHAPING A HEALTHY LIFESTYLE IN THE CONDITIONS OF NEW UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the role of physical education and sports in promoting a healthy lifestyle in the context of New Uzbekistan, as well as their importance in the comprehensive development of the younger generation. The article also discusses directions for modernizing the physical education system, existing challenges, and scientific proposals for addressing these issues.

Key words: New Uzbekistan, healthy lifestyle, physical culture, sport, physical education, Third Renaissance, concept, youth upbringing, socio-pedagogical significance.

Kirish. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarning jismoniy va ma'naviy barkamolligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Jamiyat taraqqiyoti, avvalo, sog'lom, ma'rifatlil va faol avlodning voyaga yetishi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, uni ijtimoiy hayotning ajralmas qismiga aylantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda "Uchinchi Renessans" g'oyalari asosida yoshlarning estetik, ma'naviy va jismoniy ehtiyojlarini qondirish, ularning sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, sport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, aholini jismoniy faollikka keng jalb etish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan konsepsiyalar tizimi mazkur sohaning strategik yo'nalishlarini belgilab, sog'lom avlod tarbiyasiga xizmat qiladi.

Insoniyat o'zligini anglab yetgan davrdan boshlab jismoniy mashqlardan foydalangan. Bugungi kunga kelib, sport va jismoniy tarbiya kishilar turmush tarzining ajralmas qismiga aylanib qoldi. Sog'lom avlodni voyaga yetkazish hozirgi zamonning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib, bunga juda jiddiy yondashishni talab etadi. Sog'lom avlodni tarbiyalash

barchaning, butun jamiyatning, shu yurtda yashaydigan har bir insonning asosiy ishi insoniy burchidir. Yoshlarga keng imkoniyatlar, sharoitlar yaratib berish, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish, ma'naviyatli qilib tarbiyalash, har tomonlama yetuk inson bo'lishlariga ko'maklashish ahamiyatlidir. Bugungi kunda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning samarali yo'llarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Ayniqsa, konsepsiya doirasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish asosiy masalalardan biri sifatida qaralmoqda [1].

Konsepsiya atamasi lotincha "conceptio" so'zidan olingan bo'lib bir-biri bilan bog'langan, dunyoda, tabiatda, jamiyatda ro'y bergan hodisalarga bo'lgan qarashlar tizimi, masalalarni hal qilish yo'llari tizimi kabi ma'nolarni anglatadi. Konsepsiya harakatlar strategiyasini belgilab beradi. Jismoniy tarbiya va sport konsepsiyasi deganda mazkur tizimni rivojlantirishdagi barcha qarashlarni kompleks tarzda qamrab olish hamda ularni bir maqsad yo'lida safarbar qilish tushuniladi. Ya'ni jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishiga xizmat qiluvchi barcha harakatlar, qarashlar, omillarni o'z ichiga qamrab olgan bir butun tizim nazarda tutiladi.

Tahlil va natijalar. Jismoniy tarbiya va sportni konsepsiya doirasida o'rganish uning rivojiga xizmat qiluvchi barcha omillarni bir maqsad yo'lida birlashtirish imkoniyatini

beradi. Shuningdek, undagi muammolarni o'rganish, aniqlash, tadqiq etish hamda natijalar asosida chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Kelajakda uning natijasi sifatida xalqimizning jismoniy tarbiya va sport bilan zaruriyat tug'ilganda emas, balki kundalik turmush tarzimizning ajralmas qismi sifatida yondoshishiga, qadriyat sifatida e'zozlashiga olib keladi. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya va sportni konsepsiya darajasida o'rganish zaruriyat bo'lib bormoqda [3].

Jismoniy tarbiya ijtimoiy voqelik sifatida jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo'lgan. Jismoniy tarbiya va sportning rivojlanib borishi, jamiyatda unga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi institut sifatida shakllanishiga olib keldi. Mazkur ehtiyojlarning yanada ortishi jismoniy tarbiya va sportning institutlashishini yanada tezlashtiradi hamda jamiyatning fundamental ehtiyojlarini qondiruvchi tizimga aylantiradi.

Yangi O'zbekistonning sport sohasidagi strategiyasida yoshlar estetik dunyoqarashini shakllantirish borasida quyidagi muammolar o'z yechimini kutmoqda.

1. Muammoni falsafiy nazariya va amaliyotdagi ahvolini o'rganish hamda tahlil etish.

2. Sport estetikasining nazariy asoslarini aniqlash va uni ijtimoiy - falsafiy muammo sifatida tadqiq etish.

3. O'smirlarni o'quv va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida estetik tarbiyalashning psixologik aspektlari va pedagogik asoslarini ishlab chiqish.

4. Jismoniy madaniyatning estetik jihatlari va go'zallik mezonlarini aniqlash.

5. O'smirlarni estetik tarbiyalashning pedagogik tizimini eksperimental sinovdan o'tkazish

6. Jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'smirlarni estetik tarbiyalashni takomillashtirish yuzasidan metodik tavsiyalar ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish.

Muammoni ijtimoiy xarakter kasb etishini yana quyidagi omillar bilan izohlash mumkin.

Birinchidan, maqolaning kirish qismida ta'kidlab o'tganimizdek, jismoniy madaniyat, aynan madaniyat, ya'ni go'zal qomatni tarkib toptirish mukammal shaxs tarbiyasining asosiy shartlaridan biri bo'lib kelgan. Jamiyatning o'z a'zolariga bo'lgan bunday talabi hozirgi kunda ham o'z ijtimoiy kuchini yo'qotgan emas. Demak, jismoniy mashqlar vositasida estetik madaniyatga intilish kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida kuzatilib kelinadi. Aynan mana shu jihat uni ijtimoiy hodisa ekanligini tasdiklaydi.

Ikkinchidan, jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida aynan shu boskichga mos va xos ijtimoiy buyurtma berilgan. Bu buyurtmani "bajaruvchisi", talab etilgan shaxsni tarbiyalash bilan pedagogika fani shug'ullangan.

Uchinchidan, har qanday jamiyatni, mamlakatni rivojida uning barkamol a'zolari hal qiluvchi rol o'ynagan. Bu borada sport va san'at o'z gacha ahamiyat kasb etgan. Ularni bir-biri bilan tutash nuqtalari misolida sport estetikasi elementlari tarkib topib boradi.

To'rtinchidan, mamlakatni, xususan mustaqil O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzini oshirishda fan va texnika, ishlab chiqarishning barcha sohalar bilan bir qatorda madaniyat, san'at va sportning o'rni alohida ajralib turadi. Shu bois o'quvchi-yoshlarda, ayniqsa o'smir yoshidagi o'quvchilarda sportta bo'lgan qiziqish keskin oshib bormoqda. Bu qiziqishni tarbiyaning zabardast vositasi sifatida e'tirof etgan holda uning mazmuni va yo'nalishini boyitish. uning negizida jismoniy kamolot bilan bir qatorda estetik tarbiya ham yetishiga erishish, unda sport estetikasi ko'rsatkichlaridan okilona foydalanish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida maxsus tadqiqot o'tkazishni talab etadi.

Beshinchidan, bu shubhasiz ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida muntazamlilik kasb etadi. Zero, jamiyat, insoniyat tinimsiz taraqqiyotda bo'lganligi bois uning har bir bosqichi uchun pedagogika fani yangi muammolarni hal etishda davom etaveradi.

Jismoniy madaniyat eng avvalo, sog'lom hayotga qadam demakdir. Dastlab, jismoniy madaniyatning valeologik atributiga e'tibor bersak, valeologiya "Valeo" lotin tilidan olingan bo'lib, sog' bo'lmoq ma'nosini anglatadi. Valeologiya - bu mustahkam salomatlik, ya'ni sog'lom, jismoniy va aqlan baquvvat avlod barpo etish ustida qayg'urish, ma'naviy-iyonli, intellektual etuk odam bo'lish va barakali-uzoq umr ko'rishlik demakdir. Jismoniy madaniyatning valeologik ta'siri bu hayotiy qadriyatlar va umumgegenik madaniyat, dunyoqarashning ajralmas qismi sifatida barpo etiladigan salomatlik va sog'lom turmush tarzining qadriyatli yo'naltirilganligini bildiradi. Butun Jahon bo'ylab sog'liqni saqlashga sarflanayotgan barcha mablag'lar asosan, kasalliklarni davolash va oldini olishlikka hamda juda kam qismi esa sog'lom odamni yanada sog'lomlashtirishlikka sarflanib kelinmoqda. Valeologiya fanining asosiy maqsadi esa "Sog'lom odamni yanada sog'lomlashtirishlikka" qaratilgan. Chunki, Valeologiya-bu bo'lg'usi sog'lom odamni paydo qilishlik, uzoq umr ko'rishlik va ma'naviy-iyonli, barkamol, intellektual odamni etishtirishlik ustida qayg'urishlik demakdir [5].

Muhokama. Sog'lom avlodni kamol toptirishda yurtimizda ijtimoiy jarayonlarni rivojlantirishda valeoestetik madaniyat yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantiradi. "globallashuv davrida aholining keng qatlami o'zining ehtiyojlari, ehtirolari, tashqi shakllari, his-tuyg'ularini sportda va san'atda bir xil namoyon qilishi valeoestetikani shakllantirmoqda". Mana shunday estetik tafakkur jamiyatda yoshlarni faollik, tashabbuskorlik, intiluvchanlik, go'zallik shaydosi sifatida barcha ijtimoiy sohalarida innovatsion g'oyalar yaratishga chorlamoqda. Buning uchun sog'lom inson modelini, jismoniy kamolotga erishishning effektiv usul va uslublarini ishlab chiqish lozim. Jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy holat va funksional tayyorgarlikning inson salomatligi darajasi haqida ma'lumot beradi.

Valeoestetikaning rivojlanishi asosida insonning farovon hayot va sog'lom turmush tarzini go'zallik qonuniyatlariga monand bo'lishiga yo'l ochiladi. Jamiyatda "inson valeoestetik jarayon orqali jismoniy tanadagi deformatsiyalarni shakllantirib, aqliy faoliyatni susaytiradi va jamiyatdan ijtimoiy yiroqlashish shakllanadi". Valeoestetikaning nazariy asoslari haqida gapirganda, avvalo yoshlarning bu faoliyatga munosabatlarini tahlil etish kerak. Inson qachonki sog'lom bo'lib, barcha tana a'zolarining sog'ligiga erishsa, aqliy faoliyatda faol bo'lsa borliqning mohiyatini teran anglaydi.

Valeoestetika quyidagi vazifalarni bajaradi: "gnoseologik vazifasi; metodologik vazifasi; dunyoqarashlik vazifasi; aksiologik vazifasi; tarbiyaviy vazifasi; madaniy vazifasi; bashorat qilish vazifasi". Bular orqali valeoestetikaning inson ruhiyatiga ta'siri, jismoniy barkamollikka erishish yo'llari ochib beriladi.

Yurtimizning barcha hududlarida zamonga mos sport va jismoniy tarbiyani milliy harakatli o'yinlar (yetnomdaniy, sog'lomlashtiruvchi o'yinlar) bilan uyg'unlashtirish va shu asosda valeoestetik omillar rolini oshirish zarur. Bu omillar hamisha shuni talab yetadiki, "o'z xalqi milliy qadriyatlarini boshqa millatlar qadriyatlariga qarshi qo'ymagan holda boshqa millatlar ma'naviyatini chuqur his qilishi, o'z milliy qadriyatlarini bemalol va beminnat namoyish yetish imkoniyatiga yega bo'lishi lozim". Bunday holatda jamiyatning ko'p millatli bo'lishi o'ziga xos yestetik omillarga zamonaviy

yondashgan holda taraqqiyot sari intilishini vujudga keltiradi. Yurtimizda yoshlarning yuetuk shaxs bo'lib kamol topishida milliy mentalitet, tarixiy meros va an'analarning rolini mustahkamlash masalasi ham o'ziga xos o'ringa yegadir.

“Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida valeoestetik tarbiya tizimini mukammal milliy qadriyatlar bilan barqarorlashishiga imkoniyatlar yaratishni bugungi kun dolzarb muammo sifatida maydonga tashladi”. Jamiyatda sog'lom avlod etnomadaniyatini zamon bilan hamohang tarzda rivojlantirish, ularning ongida milliy qadriyatlarga nisbatan umuminsoniylikni shakllantirishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bu borada davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarda avvalo ertangi kunimizning davomchilari bo'lgan yosh avlodni har tomonlama komil insonlar qilib tarbiyalash masalasi kun tartibiga qo'yilmoqda.

Yurtimizda valeoestetik madaniyatning rivojlangan ko'rinishlarini hayotga olib kirishimiz, yoshlarimizni milliylik ruhida voyaga yetkazishimiz darkor. Ayniqsa. “sportning sog'lom turmush tarzini yaratish vazifasidan foydalangan holda milliy-harakatli o'yin turlarini sog'lomlashtirishga qaratilganlarini “valeoestetik markazlar”da ilmiy o'rganish, estetik metod va mexanizmlar “texnologiyasini” yaratish vositalarini takomillashtirish” yosh avlodning har tomonlama yetukligi uchun xizmat qiladi. Qachonki, o'zligini, milliy merosini chuqur anglab yetgan xalqgina jamiyatda sog'lom va baquvvat, har tomonlama kamol topgan sog'lom avlodni yarata oladi. Shu yo'lda yoshlarning faolligini oshirish, qadriyatlarga nisbatan zavqiy munosabatlarini kuchaytirish lozim. Biz mamlakatimizda bugun mana shu sohada tubdan ma'naviy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqdamiz.

Sog'lom yashashga intilish insoniyatning baxtli hayotga intilayotganidan dalolatdir. Sog'lomlik qonun-qoidalari orqali tashkil qilingan hayot sog'lom turmush tarzini vujudga keltiradi. Sog'lom turmush tarzi bu – inson hayotining ma'naviy, aqliy, ruhiy va jismoniy atributlarining ma'lum qonun-qoidalarga bo'ysungan xatti-harakatidir. Sog'lom turmush tarzi bu – kundalik turmushni muayyan qonuniyatlar asosida tashkil etib, salomatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan turmush tarzi hisoblanadi.

Prezidentimizning “Sog'lom turmush tarzini keng tadbir etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” (2020 yil 30 oktyabr)gi Farmonini keltirish o'rinli. Mazkur hujjatga muvofiq 9146 mahallada 18 292 ta jismoniy tarbiya sog'lomlashtirish maskanlari, infratuzilmasi shakllantiriladi, 204 ta tuman (shahar)da salomatlik va velosiped yo'laklari bunyod etiladi. Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda jismoniy tarbiya va

sog'lomlashtirish ishlariga katta mablag' ajratilmoqda, yoshlarning sog'-salomat voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bugun zamonaviy sport inshootlari barpo etish, tupli to'garaklar ochish va musobaqalar uyushtirish qiyin emas, ammo ommaviy sog'lomlashtirish ishida shaxsning faolligi, tashabbusi ustuvor omilga aylanmoqda.

Har qanday mustaqil davlat o'zining xavfsizligini ta'minlashi uchun kuchli armiyaga ega bo'lmog'i kerak. Birinchi galda jismonan, ruhan va axloqan barkamol yigitlar tanlanadi. Bugun mustaqil respublikamiz sportini jahonga ko'z-ko'z qilayotgan vatandoshlarimiz safi kundan-kunga ko'paymoqda. Eng asosiysi, bolalarda jismoniy tarbiya va sportga mehr uyg'otish oildan boshlanadi. Bolaga yoshligidan ota-onasi ertalabki gimnastikaning ahamiyatini to'g'ri tushuntirishi lozim. Har bir sog'lom insonning kundalik hayotiga kirishi zarur bo'lgan harakat turlari quyidagilar deb hisoblaymiz: Ertalabki yurish marafonlari va gimnastika mashqlari, sport o'yinlari musobaqalari, raqs to'garaklari, yoga mashqlari, suzish, o'zbek kurashi, ushu, karate, taekvando va b.

Millat kelajagi haqida qayg'urgan Abdulla Avloniy bobomiz ham bir bola tarbiyasi haqida fikr yuritib, tarbiya jarayonini uch qismga bo'lgan edi: “Badan tarbiyasi”, “Fikr tarbiyasi” va “Axloq tarbiyasi”. Avvalo badanning salomat va baquvvat bo'lmog'i qolgan ikki tarbiyaga asos bo'luvchi eng kerakli narsadir. Chunki o'qimoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli va sog'lom tana lozimdir. Ko'pincha sog'lom bo'lmagan insonlar ko'p yaxshi ishlarga qodir bo'la olmaydilar. Sog'lom fikr va sog'lom axloq uchun mustahkam va sog'lom bir vujud kerakdir.

Xulosa. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati beqiyos bo'lib, u sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omillaridan biridir. Jismoniy madaniyatning rivojlanishi yoshlarning nafaqat jismoniy salomatligini, balki ma'naviy, aqliy va ijtimoiy kamolotini ta'minlashga xizmat qiladi. Maqolada qayd etilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, jismoniy tarbiya tizimini modernizatsiya qilish, sport infratuzilmasini kengaytirish, aholining jismoniy faolligini oshirish jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni aniqlash, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ushbu sohaning yanada yuksalishiga zamin yaratadi. Sog'lom turmush tarzining ustuvor tamoyillari, jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy-madaniy vazifalari to'g'ri yo'lga qo'yilgan taqdirda, Yangi O'zbekistonning kelajak avlodi har tomonlama barkamol, jismonan tetik va ma'naviy yuetuk shaxs sifatida shakllanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2020.
2. Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. –T.: Sharq, 2001. 116-bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. Abdullayev A., Karimova D. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
5. Xasanov F., Raxmonov D. Sport pedagogikasi asoslari. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2020.
6. Mahmudov A. Estetik tarbiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016.